AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINI JAHON IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY HAMDA MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO'PLAMI

2025-yil 7-aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

TOSHKENT GUMANITAR FANLAR UNIVERSITETI

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA ALOQA HARBIY INSTITUTI

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

QUROLLI KUCHLAR HARBIY TIBBIYOT AKADEMIYASI

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINI JAHON IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY HAMDA MA’NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 7-aprel, Toshkent

“Amir Temur va temuriylar davlatchiligini jahon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - T.: “”, 2025. – 321 b.

“Amir Temur va temuriylar davlatchiligini jahon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent gumanitar fanlar universiteti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi asosida tashkil etilgan bo‘lib, ilmiy-amaliy konferensiya Amir Temur va temuriylarning milliy davlatchilik tarixi, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik va boshqa sohalardagi ulkan merosi, temuriylarning dunyo taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi, sarkardaning mardlik, jasorat, adolat, sadoqat hamda vatanparvarlikka yo‘g‘irilgan e’tirofli va ezgu fazilatlarini mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy islohotlar bilan uyg‘unligini o‘rganish maqsadida tashkil etilgan.

Ilmiy-amaliy konferensiya materillariga oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorant va tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, harbiy xizmatchilar, magistratura va bakalavr ta'lim yo‘nalishi talabalarining Amir Temur va temuriylar davlatchiligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, temuriylar saltanatida davlat boshqaruvi va harbiy tizim faoliyatini tashkiliy asoslari, ilm-fan taraqqiyotiga e’tibor, xalqaro savdo munosabatlarini amalga oshirish mexanizmi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish jarayonlaridagi o‘rni, temuriylar imperiyasi davridagi diplomatik munosabatlarni jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda geosiyosiy o‘zgarishlarga ta'siriga doir ilmiy maqola va tezislar kiritilingan.

Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma'lumotlar mualliflarga tegishli bo‘lib, tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas'uldirlar.

Taqrizchilar: **Madraimov A.A** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi., tarix fanlari doktori, professor

Yunusova X.E – O‘zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori

Isomiddinov Yu.Yu – Toshkent gumanitar fanlar universiteti professori., falsafa fanlari doktori

Sultonov D.I – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti dotsenti., harbiy fanlari doktori.

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASINING TASHKILIY QO'MITASI TARKIBI

BOBOXUJAYEV KUDRAT UMAROVICH – Toshkent gumanitar fanlar universiteti rektori, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

FAYZIEV XURSHID TURGUNOVICH – Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

RAXIMOV BAXTIYORJON NE'MATOVICH – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig'i podpolkovnik., texnika fanlari doktori, professor.

TURSUNOV BEKMUXAMMAD OMONOVICH – Toshkent gumanitar fanlar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

SHERMATOV FAYZULLO TOSHTILLAEVICH – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.

SABIROV KAXRAMON BEKTURSUN O'G'LI – Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

MIRJALOLOV OYBEK ABDULLAJON O'G'LI – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, polkovnik., texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent.

SABUROV JUMANAZAR SALIYEVICH – Toshkent gumanitar fanlar universiteti moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori., dotsent.

BOBOYOROV G'AYBULLA BOLLIEVICH – O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Milliy arxeologiya markazi bo'limi mudiri., tarix fanlari doktori, professor.

SHARIPOV AZIZJON AZIMOVICH – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi bo'lim mudiri.

HAYITOV TO'LQIN MINGBOEVICH – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi.

AZIZOV SAIDBAHROM SANJAROVICH – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi.

BEKNAZAROV AXMAT ASAMIDDINOVICH – Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Aniq va gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri., psixologiya fanlari nomzodi, professor.

LUTFULLAYEVA UMIDA RAVSHANBEKOVNA – Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Aniq va gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri.

SHODIYEVA RAYHON SADULLAYEVNA – Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Aniq va gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b.

XUDAYBERGENOVA ELMIRA UMARALIYEVNA – Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Aniq va gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi.

KIRISH SO'ZI

Assalomu alaykum, ilmiy-amaliy konferensiyaga tashrif buyurgan hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar, magistrantlar va bilimga chanqoq qadrli talabalar!

"Amir Temur va temuriylar davlatchiligini jahon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy-madaniy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ochilishi

Hurmatli mehmonlar, muhtaram ilmiy jamoatchilik vakillari, professor-o'qituvchilar, harbiy xizmatchilar hamda aziz talabalar!

Bugun siz bilan yurtimiz tarixidagi eng ulug' siymolardan biri – Amir Temur tavalludining 689 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan muhim ilmiy-amaliy tadbir – "Amir Temur va temuriylar davlatchiligini jahon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy-madaniy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etish men uchun katta sharafdir.

Mazkur anjuman Toshkent gumanitar fanlar universiteti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi asosida tashkil etilayotgan bo'lib, uning asosiy maqsadi – Amir Temur va temuriylarning milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rni, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik, harbiy san'at, shuningdek, vatanparvarlik, jasorat, sadoqat va adolat kabi fazilatlaridagi ibratli merosni chuqur tahlil etishdan iboratdir.

Amir Temur o'zining "Kuch – adolatda" degan hayotiy shioriga sodiq holda, tarixda mustahkam iz qoldirgan ulug' sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida tan olingan. Uning yirik strategik salohiyati, xalqni boshqarishdagi dono yondashuvi, o'z davrida nafaqat Movarounnahr, balki butun Sharq va G'arb olamiga kuchli ta'sir ko'rsatgan temuriylar davlatchiligi asoslarini yaratdi.

Temuriylar davrida Turon va Eronda ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida katta yutuqlarga erishilgan. Muhim xususiyati shundaki, taraqqiyot doirasi juda kengayib, butun imperiya bo'ylab Samarqanddan Buxorogacha, Buxorodan Hirotu Balx, Mashhad va Sharqning boshqa shaharlarigacha bu madaniy ta'sir yaqqol sezilib turgan. Temuriylar hukmronligida faqat markaziy hokimiyat emas, turli hududlardagi hokimlar ham o'z g'aznasi hisobidan olim va ijodkorlarga homiylik qilishni sharaf deb bilganki, shunday muhitda Renessans ro'y bermasligi mumkin emas edi. Ayniqsa, temuriy malikalarning mamlakat ma'naviy ravnaqiga qo'shgan beqiyos hissasini e'tirof etmoq zarur.

Amir Temur juda ulkan mintaqada tinchlik o'rnatgani, bir necha xalqlar hamjihat va xavfsiz yashay boshlagani bois savdo-sotiq, tadbirkorlik va ishlab chiqarish rivojlandi. Shu kabi keng ko'lamli sa'y-harakatlar orqali erishilgan taraqqiyot Amir Temur va vorislari nomini jahon tarixiga o'chmas qilib

muhrlagan. Bu davrda nafaqat harbiy, balki iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy sohalarda ulkan yutuqlarga erishildi.

Ayniqsa, ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, muhandislik, tibbiyot, tarixshunoslik kabi sohalarning gullab-yashnashi — temuriylar davlatchiligining buyuk ma'naviy-ma'rifiy poydevorini tashkil etdi. Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi daholarning faoliyati bunga yaqqol misoldir. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, Amir Temur merosi bugungi kunimizda – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar ruhiga uyg'un holda o'rganilmoqda. Uning qadriyatlari yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik, tinchliksevarlik va milliy g'urur bilan yashashga chorlamoqda.

Konferensiyamiz aynan shu maqsadlar ruhida tashkil etilgan bo'lib, bu yerda ilgari suriladigan ilmiy mulohazalar, tarixiy izlanishlar va amaliy takliflar jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga xizmat qilishiga ishonchim komildir.

Hurmatli ishtirokchilar!

Sizlarga ushbu ilmiy anjumanda faol va mazmunli ishtirok, sermazmun chiqishlar, boy ilmiy bahs-munozaralar, foydali takliflar va kelgusi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratadigan natijalar tilayman.

Konferensiyamiz barchamiz uchun yangi ilmiy yondashuvlar, tarixiy merosga yangicha nazar va yanada yuksak ilmiy izlanishlarga yo'l ochishini tilab qolaman.

Konferensiyamizni ochiq deb e'lon qilaman

E'tiborlaringiz uchun rahmat!

Toshkent gumanitar fanlar universiteti rektori,
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
K.U.Boboxujayev

I-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

SOHIBQIRON AMIR TEMUR JASORATI – YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TUTGAN O'RNI

Xalilov Xasan Oblaqulovich,
O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i

Amir Temur ko'ragon ibn amir Tarag'ay 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytlardagi Kesh (Shahrisabz) ga qarashli Xojailg'or (bu qishloq hozir Yakkabog ' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Lekin bo'lajak sohibqiron tavallud topgan paytda Qozonxon (1333-1346) huzurida kichik bir mansabga ega edi. Amirning onasi Tegina Begim Buxorolik "Sadr ash sha 'ri 'a-shariat" ulug'i, taniqli olim Ubaydullohning qizi bo 'lgan. O'sha paytda Kesh va unga tobe' yerlarning bekligi esa Amir Tarag 'ayning og 'asi Hoji Barlosning qo'lida edi. "Zubdat at-tavorix" (Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid-laqabi Hofizi Abdu, vafoti 830427 y.)da yozilishicha, shajaraning Amir Sohibqiron tarmog'i Chingizxon ajdodlaridan Tumanoyxon (Tumanxon) farzandlaridan boshlab ajraldi. Jumladan, Qobilxon Jahongir podshoh Chingizxonning III-chi otasi va uning birodari Qachuloy no'yon esa, Amir Sohibqironning sakkizinchi otasidir. Barloslar qabilasining nomi ham Qachuloy no 'yondan bosh-langan. Chingizxon o'zining ikkinchi o 'g 'li Chig'atoyxonni Turkiston va Movarounnahr mamlakatlariga hukmdor qilib tayinlaganda, amir Sohibqironning beshinchi otasi Qarachor no 'yon uning lashkarboshisi bo 'lgan va "Amir ul-umaro" ("amirlar amiri") degan unvon olgan. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta 'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko 'zdan kechirish kifoya. Bular "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari"), "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqioti Temuriy" ("Temurnnng boshidan kechirganlari") nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarni XV asr muarrixi Fosih Ahmad Havofiyning "Mujmal-i Fosixiy", Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas) va Sharafiddin Ali Yazdiylarning mashhur "Zafar-nomasi", ibn Arabshoh (1389-1450)ning "Ajoyib ulmaqdur fiaxbori Temur" (Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja Eshonning (Salohiddin

Toshkandiy)qalamiga mansub "Temurnoma" (Amir Temur ko 'ragon jangnomasi, 1908) kabilar shular jumlasidan.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoya katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug 'i ostiga birlashtira oldi. Markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi, Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishda yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Ildirini (1389-1402) tor-mor keltirib (1402), Usmonli turklarning istibdodiga tushib qolgan "Bolqon" yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bag 'ishladi. Oltin O'rda xoni To'xtamishni (1376-1395) ikki marta (1391-1395) tor-mor keltirib, O'rusiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutulishini qariyb 300 yilga tezlashtirdi. Uchinchidan, Turkiston zaminini xunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. Amir Temurning sa 'yharakati bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlarni Shahrisabz, Buxoro, Yassi (Turkiston) shaharlarda qad yahshiargan imoratlar, "Temur va Temuriylar davlati", "Temuriy madaniyatn", "Ulug'bek va Samarqand", "Observatoriya maktabi" kabi ulug' tushunchalarni dunyoga kelishlishi va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog 'liqdir.

Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baxolaydi. Birinchi sifat: "Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim. Ikkinchi sifat: Men har doim Islomga qat 'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug 'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim. Uchinchi sifat: Men kambag 'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim. To'rtiichi sifat: Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor etkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'kragidan itarmadim. Qur'ondan parvardigorning Alloxning amriga bo'ysunish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatini o 'zimga farz bilib, o'qib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarimda unga amal qildim. Beshinchi sifat: Islomga taalluqli ishlarini men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim. Avval tangri itoatini ado etib bo 'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim. Oltinchi sifat: Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo xaqidagi etishganlarimdagi haqiqatni yolg 'ondan ajrata bildim. Yettinchi sifat: Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr

etkazmasligimni angladim. Sakkizinchi sifat: Doimo o ‘zimni Allohning erdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim.Tangrining irodasiz unnng bandalarnning hech biriga zarar etkazmadim.

Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo‘lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko‘proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo‘lgan voqea menga ibratli bo‘ldi. O‘z fuqarolarnning mol-mulkiga nisbatan ochko‘zligi pirovardida uni halo-katga olib keldi. To ‘qqizinchi sifat: Men har doim tangrimning amrini va uning payg’ambarlarini hadislarini to‘la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo‘sunlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o‘zimni tiydim. Payg’ambar va uning sahobalarini o ‘zimning yagona va eng yaxshi do ‘stlarim deb bildim.

O‘ninchi sifat: Men har doim insof bayrog’ini baland yahshiardim va iymon tarqatishni o ‘z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug’ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo ‘ladi. O‘n birinchi sifat: Men doim saidlarga extirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e’zozlardim. Bu kishilarni doimo majlislarimga chaqirardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi.

Ma‘lumki, Sohibqiron Amir Temur qalamiga mansub “Temur tuzuklari” asari buyuk bobokalonimiz tarixini o‘rganishdagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar- siz Sohibqiron va uning davri haqidagi bilimlarimiz sayoz bo‘lib qolar edi. Sohibqiron bobomiz shunday degan ekanlar “Yozilgan narsa avlodlar xotirasida qilingan ishdan ham uzoqroq yashaydi”. Shu hikmatning isboti o ‘laroq, “Temur tuzuklari” ne-ne taloto ‘plarni boshdan kechirib, avlodlarga etib keldi. Ma ‘lumotlarga ko ‘ra, bu asarning asl nusxasi turkiy tilda yozilgan. Ammo bizning davrimizga qadar uning fors tilidagi nusxalari saqlanib qolgan. Ushbu nodir asar o‘tgan asrning 60-yillarida sharq tillarining bilimdoni Alixonto‘ra Sog ‘uniy tomonidan o‘zbekchaga mahorat bilan o‘girilgan. O‘sha tahlikali zamonda “Temur tuzuklari”ni xalqqa qaytarish - qilich tig ‘iga barmoq urishdek xatarli edi. Buning uchun chinakam temuriy jasorat va jur‘at lozim edi.

Ajdodlari asli andijonlik to ‘ralardan bo ‘lgan Alixonto ‘ra Sog’uniy Bolosog’un shahrida, Shokirxonto ‘ra xonadonida 1885 yil 21 martda dunyoga kelgan. "Sog’uniy" taxallusi Bolosog’un shahri nomidan olingan. Diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan. O ‘ttizinchi yillarga kelib, Sharqiy Turkistonga o ‘tib ketadi. U yerdagi milliy-ozodlik harakatiga boshchilik qiladi. 1944 yil 12 noyabrda Sharqiy Turkiston jumhuriyati e ‘lon qilinib, Sog ‘uniy

muvaqqat inqilobiy hukumat raisligiga saylanadi. Milliy qo‘shin tashabbuskori bo‘ldi va unga qo‘mondon etib tayinlandi. Ulkan g’alabalari evaziga Alixonto‘ra Sog ‘uniy marshal unvoniga sazovor bo ‘lgan. Taqdir taqozosi ila Alixonto‘ra Sog’uniyning so ‘nggi 30 yillik umri Toshkentda o ‘tdi. Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe”, Darvesh Ali Changiyning “Musiqa risolasi” shuningdek, “Temur tuzuklari” kabi asarlar Sog’uniy hazratlarining tarjimasi orqali xalqimizga yetib bordi.

Sog’uniy “Tuzuklar” haqida shunday yozadilar: “Amir Temur yigirma yetti poytaxtli yerni o ‘ziga bo‘yinsundirib, shunchalik ko‘p turlik tashvishlar ichida yashab turganiga qaramay, yana bu kitobni o‘zi yozib, bizga esdalik qoldirmishdir”.

Temur tuzuklari 2 qismdan iborat bo‘lib. Birinchi qismda Amir Temurning Movarounnaxrda saltanatni qo‘lga kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o‘z yaqinlari bilan o‘tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqida tavsilotlar berilgan. Ikkinchi qismida Amir Temurning davlatni boshqarish mamlakatni idora qilish uslubi haqidagi tuzuklari, ya ‘ni yo‘l -yo‘riqlari qonun qoidalari, pand –nasixatlari o‘rin olgan. Saltanatni boshqarishda Amir Temur islom dini va shariat talablaria, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko‘rib, qilgan xizmatlariga qarab ularni hurmat qiladi, mamlakatni boshqarishda eng avvalo olimu fuzalo, sayyidlar, shayxlar va oriflarga tayanardi.

“Temur tuzuklari”da davlatni idora qilishga oid 12 qoida bayon etiladi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Islom dini va shariat qoidalariga, qonunlariga rioya qilish, uni qo‘llab-quvvatlash;
2. Davlatning, mamlakatning ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar, toifalar bilan bamaslahat ish ko‘rish, siyosat yurgizish;
3. Maslahat, tadbirkorlik bilan ish ko‘rish;
4. Davlat ishlarini boshqarishda qonunlarga bo‘ysunish;
5. Amirlar va sipoxiylar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish;
6. Adolat va insof bilan ish ko‘rish;
7. Saidlar, ulamoyu mashoyixlar, donolar, tarixchilarni izzat-hurmat qilish;
8. Biror ishni amalga oshirishni qaror qilgan bo‘lsa, unga butun vujudi bilan kirishish;
9. Raiyat (oddiy xalq) ahvolidan doimo ogoh bo‘lish;
10. Turk, tojik, arabu ajamning turli toifalariga milliy munosabatda bo‘lish;
11. Barcha qarindosh urug bilan yaxshi munosabatda bo‘lish (martabasidan qat ‘i nazar);
12. Sipoxiylarni hurmat qilish.

“Temur tuzuklari”da davlat tuzilishining asosiy buginlari, ularning vazifalari, vazirlar faoliyati, turli xil ijtimoiy guruhlar, tabaqalarga munosabat,

qo‘shin tuzilishi, moliya va soliq siyosati, mulkiy munosabatlar xamda shu singari dolzarb masalalar, ularni xal etish yullari anik ravshan ifodalangan. Shuningdek, tuzuklarda har bir masalani hal etishda voqea, hodisalarni tahlil etganda xolis yul bilan yondoshish, fukaro axliga jabr kilmaslik, yurtga xiyonat kilmaslik, dinu diyonatga, qonun ustuvorligiga qat‘iy amal qilish, adolat va xakikat mezonlari bilan faoliyat yuritish lozimligi kayta-kayta ta ‘kidlab utilgan.

Amir Temur kanchalik kattikkul, shijoatkor xukmdor bulmasin va uzi mansub bulgan xukmron tabaka manfaatlarini kuzlamasin, birok u xamisha adolat, xakikat yulini maxkam tutib, qonunchilik tamoyillariga qat ‘iyan rioya qilgan holda siyosat yurgizishga, el, ulus manfaatlarini ximoya qilishga xarakat qilgan. Amir Temur shaxsiy xayotida xam, tuzuklarida xam uch zabardast va mu‘tabar asosga-diyonat, adolat va qattiqqo‘llik bilan amalga oshirilgan siyosatga tayangan. Uning “Kuch-adolatdadur!” degan shiori hozirgi mustaqil O‘zbekiston siyosatida ham o‘z aksini topmoqda.

“Temur tuzuklari” asarida ma ‘naviyat masalalariga ham jiddiy e‘tibor qaratilgan. Jumladan, “Temur tuzuklari” XIV –XV asrlar voqealari va hayotini yorituvchi qimmatli manba, Amir Temurning harbiy, siyosiy faoliyatidan ma‘lumot beruvchi asar kim tomonidan qachon so ‘ralgani noma ‘lum.“Temur tuzuklari”da do‘stlik, vafodorlik, imon va e‘tiqod, kasb –hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to‘g’risida fikr yuritiladi, fuqarolarning shariat qonun –qoidalariga buysunish lozimligi aytib o‘tiladi, qozilarning qonunlarga to‘la amal qilish, tartibbuzarlarni ayamay jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash va ularga oziq –ovqat, maosh to‘lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va ularni taqdirlash tartiblari, ularning bir –biriga muomalasi va turli boshqa masalalar bo‘yicha mufassal ma ‘lumot beriladi. “Kuch-adolatdadir” degan shiori Amir Temur ma ‘naviyatini belgilovchi bosh mezon, uning butun umr bo‘yi amal qilgan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmunini mujassamlashgan.

Amir Temurning ma’naviy-ma’rifiy qarashlariuning o‘z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o‘gitlari “Temur tuzuklari” da mujassamlashgan. Bu bebaho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o‘z ishiga munosabati, aholi turli qatlami, raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi hayoti ma ‘naviy-axloqiy qonun-qoidalarda o‘z ifodasini topgan. Sohibqironning “Temur tuzuklari” danquyidagi satrlarni mamnuniyat bilan o‘qish mumkin: “Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin”. “Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o ‘rniga boshqasiga jabr-zulm o‘tkazmadim”.

Amir Temur kechirimli bo‘lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaydi: “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon

yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim.

Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo ‘l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu-qo ‘rquv bo‘lsa, unut bo‘lardi”. “Menga hasad qilib, o‘ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg’a-in‘omlar berib, muruvvatu ehson ko‘rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko‘rib, hijolat teriga g’arq bo‘ldilar.

Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do‘stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o ‘zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim”. “Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim. Tuzumni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim...”. “Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko‘rsat”. Amir Temurning do‘stlik haqidagi pandu-nasihatlari ham ibratlidir: “Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do ‘stidan ranjimaydi, do‘stning dushmanini o‘z dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi”. Amir Temurning umr bo‘yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambag’alparvarligini uning quyidagi o‘gitlaridan ham bilish mumkin: “Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yoki biror bog ‘ ko ‘kartirsa, yohud biror harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig ‘sinlar”. “Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar, ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar...” .Amir Temurning quyidagi so ‘zlari asarlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg’urishga chorlab keldi: “Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo ‘riqlang, yo ‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsa”. Bu jumlalar Amir Temurning ma ‘naviyati naqadar yuksak bo‘lganligini bildirib turibdiSohibqiron hazratlarining “Tuzuklari”da o‘z ifodasini topgan qimmatli o‘gitlari, falsafiy hikmatlari bilan tanishib, mag’zini chaqqan kishi juda ko‘p narsalarni bilib, chuqur anglab oladi, yaxshini yomondan, do‘stni dushmandan farqlaydigan, pok va sadoqatli kishilarni qadrlaydigan, xalq g’amini o‘z g’ami deb biladigan, vatani ozodligi, mustaqilligi bilan faxrlanadigan bo‘ladi.

Amir Temurning hikmatlarga boy so‘zlari, fikr mulohazalari, g’oyalari uning avlodlariga, bo‘lg’usi nasl-nasablariga, insoniyatga qoldirgan bebaho ma ‘naviy boyligidir. Hazrat sohibqironda shunday katta aql-idrok va ilohiy qudrat bor ediki, shular tufayli xavf-xatarli, o‘ta og’ir va mushkul paytlarda jasur va sadoqatli kishilarni orqasidan ergashtira bildi, xalq ommasini ezgulikka chorladi, adolatga tomon boshladi, necha-necha bor o‘lim bilan yuzma-yuz kelganda ham zarracha bo‘lsa-da cho ‘chimadi, sarosimaga tushmadi, g

'oyasidan voz kechmadi, olg'a tomon intilishdan to'xtamadi, yurt ozodligi va mustaqilligi uchun boshlagan harakatlarini, oliy maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lida fidoyilik ko'rsatdi.

Amir Temur – so'zi bilan ishi mushtarak bo'lgan, boshlagan ishini qiyomiga etkazmasdan qo'ymaydigan, bergan va'dasini ustidan chiqadigan, iymon-e 'tiqodiga xiyonat qilmagan, do'stlarga do'stona qo'lini uzatib mehr-muruvvat ko'rsatishni bir umr kanda qilmagan olijanob zot, Allohning suyukli bandasidir. Amir Temurning buyukligi, benazir inson, jahonshumul shaxs, qomusiy alloma, ulug' zot ekanligi eslatib o'tganimiz "Tuzuklari"da o'z ifodasini topgan. Amir Temur "Tuzuklari" eng nodir asar. Unda hazrat bobokalonimiz tomonidan bayon etilgan har bir so'z, har bir tanbeh, har bir tanqidiy fikr-mulohaza xoh katta, xoh kichikdir inson zotiga suv bilan havodek zarur. Amir Temur o'gitlari, siyosiy-huquqiy, falsafiy ta'limotlari insonni faqat va faqat to'g'ri yo'lga boshlaydi, ezgulikka, saxovatga, savob ishlarga da'vat etadi, xatoliklardan, xavf-xatarlardan asraydi. "Temur tuzuklari"dagi g'oyalar, siyosiy-huquqiy, falsafiy ta'limotlar, ma'naviyat va ma'rifatga, inson ta'lim-tarbiyasiga oid fikr-mulohazalar, qoida va yo'l-yo'riqlar o'ta muhim va qimmatli bo 'lib bugungi kunda mustaqil O'zbekiston davlatini boshqarishda ijobiy ta 'sirini ko 'rsatmoqda.

Faxrimiz, g'ururimiz, xalqimiz dahosining timsoli, ma 'naviy qudratimiz ramzi hisoblanmish Amir Temur bobomizning qoldirgan merosi, pandu o 'gitlari, siyosiy- huquqiy ta 'limoti bugungi kunda mustaqil O'zbekiston oldida turgan ulkan muammolarni hal etishda, davlat mustaqilligini mustahkamlashda, barqarorlikni ta'minlash, shaharlarimizni obod va ko'rkam, jannatmakon, bozorlarimizni to'kis, xalqimizni farovon etishda o'ziga xos dasturul amaldir. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Amir Temur ta 'limotiga, uning "Tuzuklari" va "O'gitlari"ga tez-tez murojaat qilib turadilar. "Amir Temur davrini boshqatdan o'rganishimiz lozim, - deydi Prezident respublikamiz bir guruh yozuvchilari bilan o'tkazgan uchrashuvida. -Nega deganda, Amir Temur tuzuklarini o'qisam, xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo 'laman. Shuning uchun strategiyani juda puxta o 'ylash kerak. Balki ota-bobolarimiz qoldirgan merosdan foydalanib, o 'zimizga xos, o 'zimizga mos strategiyani ishlab chiqish kerak bo 'ladi".

Xulosa o 'rnida, Amir Temurdek sohibqiron nasl-nasabidan bo'lganligimiz uchun faxrlanib, boshimizni baland ko 'tarib yashashga ma'nan to'la haqlimiz. Xalqlarimiz, millatimiz uning nomi va amalga oshirgan ishlarini, yaratib ketgan ta 'limotini hech qachon unutmaydi. Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashlari lozim bo'ladi.

TEMUR TUZUKLARINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'RGANILISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Shermatov Fayzullo Toshtillayevich,
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.

Tarbiya inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta'lim esa axloqli, odobli shaxsiga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog`liq bo'lgan tarbiya va ta'lim doimo bir-biri bilan uzviy va uyg`unlikda bog`langan jarayonlardir.

O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat, elat vakillarini va ularning farzandlarini barkamol inson qilib tarbiyalash, mustaqil respublikamizning oliy maqsadlaridandir. Bu borada o'tmishda o'tgan bobo kalonlarimizning o'rni beqiyos. Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur qalamiga mansub "Temur tuzuklari" asari va hayotiy yo'li buyuk bobokalonimiz tarixini o'rganishdagi, uning yoshlarga ta`lim-tarbiya borasidagi bilim va ko'nikmalarni real hayotda foydalana olishini taminlaydi. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Bular "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari"), "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqioti Temuriy" ("Temurnnng boshidan kechirganlari") nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarni XV asr muarrixi Fosih Ahmad Havofiyning "Mujmal-i Fosixiy", Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas) va Sharafiddin Ali Yazdiylarning mashhur "Zafarnomasi", ibn Arabshoh (1389-1450)ning "Ajoyib ulmaqdur fiaxbori Temur" (Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja Eshonning (Salohiddin Toshkandiy) qalamiga mansub "Temurnoma" (Amir Temur ko'ragon jangnomasi, 1908) kabilar shular jumlasidan. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temur bobomizning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baxolaydi.

Birinchi sifat: "Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim".

Ikkinchi sifat: "Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim".

Uchinchi sifat: "Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim".

To'rtiichi sifat. "Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf'' yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor etkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'kragidan itarmadim. Qur'ondan parvardigorning Alloxning amriga bo'ysunish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatini o'zimga farz bilib, o'qib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarimda unga amal qildim".

Beshinchi sifat: "Islomga taalluqli ishlarini men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim. Avval tangri itoatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim".

Oltinchi sifat: "Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo xaqidagi etishganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim".

Yettinchi sifat: "Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr etkazmasligimni angladim".

Sakkizinchi sifat: "Doimo o'zimni Allohning erdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim. Tangrining irodasiz unnng bandalarnning hech biriga zarar etkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo'lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko'proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo'lgan voqea menga ibratli bo'ldi. O'z fuqarolarnning mol-mulkiga nisbatan ochko'zligi pirovardida uni halo-katga olib keldi".

To'qqizinchi sifat: "Men har doim tangrimning amrini va uning payg'ambarlarini hadislarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sunlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o'zimni tiydim. Payg'ambar va uning sahobalarini o'zimning yagona va eng yaxshi do'stlarim deb bildim".

O'ninchi sifat: "Men har doim insof bayrog'ini baland yahshiardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug'ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo'ladi".

O'n birinchi sifat: "Men doim saidlarga ehtirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e'zozlardim. Bu kishilarni doimo majlislarimga chaqirardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi".

Shunday qilib, sohibqiron Amir Temurnnng ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida axamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

"Temur tuzuklari" asarida ma'naviyat masalalariga alohida etibor qaratilgan. "Temur tuzuklari" XIV-XV asrlar voqealari va hayotini yorituvchi qimmatli manba, Amir Temurning harbiy, siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi asar kim tomonidan qachon so'ralgani noma'lum. "Temur tuzuklari"da do'stlik, vafodorlik, imon va e'tiqod, kasb-hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr yuritiladi, fuqarolarning shariat qonun-qoidalariga buysunish lozimligi aytib o'tiladi, qozilarning qonunlarga to'la amal qilish, tartibbuzarlarni ayamay jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash va ularga oziq-ovqat, maosh to'lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va ularni taqdirlash tartiblari, ularning bir-biriga muomalasi va turli boshqa masalalar bo'yicha mufassal ma'lumot beriladi. "Temur tuzuklari" eski o'zbek tilida yozilgan va boshqa tillarga tarjima qilingan bo'lib ikki qismdan iborat:

Birinchi qismda Amir Temurning Movarounnaxrda saltanatni qo'lga kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o'z yaqinlari bilan o'tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqida tavsilotlar berilgan.

Ikkinchi qismida Amir Temurning davlatni boshqarish mamlakatni idora qilish uslubi haqidagi tuzuklari, ya'ni yo'l-yo'riqlari qonun qoidalari, pand – nasixatlari o'rin olgan. Saltanatni boshqarishda Amir Temur islom dini va shariat talablariga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatlariga qarab ularni hurmat qiladi, mamlakatni boshqarishda eng avvalo olimu fuzalo, sayyidlar, shayxlar va oriflarga tayanardi.

"Kuch-adolatdadir" degan shiori Amir Temur ma'naviyatini belgilovchi bosh mezon, uning butun umr bo'yi amal qilgan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmunini mujassamlashgan. Amir Temurning ma'naviy-ma'rifiy qarashlariuning o'z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o'gitlari "Temur tuzuklari"da mujassamlashgan. Bu bebaho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o'z ishiga munosabati, aholi turli qatlami, raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi hayoti ma'naviy-axloqiy qonun-qoidalarda o'z ifodasini topgan. Sohibqironning "Temur tuzuklari" danquyidagi satrlarni mamnuniyat bilan o'qish mumkin: "Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin". "Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim". Amir Temur

kechirimli bo‘lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaydi: “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu-qo‘rquv bo‘lsa, unut bo‘lardi”.

“Menga hasad qilib, o‘ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg’a-inomlar berib, muruvvatu ehson ko‘rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko‘rib, hijolat teriga g'arq bo'ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do‘stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o'zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim”. “Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuzumni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim.... Agar dushmanim bosh urib panohimga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsatdim”, deb yzib qoldirgan.

Amir Temurning do'stlik haqidagi pandu-nasihatlari ham ibratlidir: “Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stning dushmanini o'z dushmani deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi”. Amir Temurning umr bo'yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambag'alparvarligini uning quyidagi o'gitlaridan ham bilish mumkin: “Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yoki biror bog' ko‘kartirsa, yohud biror harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar”. “Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar, ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar...”. Amir Temurning quyidagi so'zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg'urishga chorlab keldi: “Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsa”. Bu jumlalar Amir Temurning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lganligini bildirib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A Karimov Amir Temur bobomizning xizmatini munosib baholab quyidagicha izohlagan edi:

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularimizni qayta tiklash, millatni millat, davlatni davlat qilish uchun kerak. Amir Temurning “Biz kim mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim millatlarning eng qadimiy, eng ulug'i –turkning bosh bug'inimiz” degan gaplari xalqimizga milliy o'zligini, buyuk va jaxonshumul an'analarga voris ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g'ururini milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir Temur esa ana shu ko'xna tarixning buyuk cho'qqisidir.

Uchinchidan, Amir Temurning hurmatini joyiga qo'yish farzandlarimizni kelgusi avlodni ulug' ajdodlarimizning nomi va me'rosi bilan faxrlanishga o'rgatish, ularni ana shu buyuk an'analarning munosib davomchilari qilib tarbiyalash milliy g'ururni yuksaltirish uchun kerak.

To'rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik huquqiy qudratli O'zbekiston davlatini barpo etish uchun, "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" degan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun kerak. Yangi asoslarini qayta tiklayotgan bir paytda Amir Temur o'zbek xalqiga tog'dek tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, Amir Temur qadriyati mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod vatan qoldirish uchun kerak.

Uzoq yillar davomida mustamlaka iskanjasi ostida kun kechirgan xalqimiz Amir Temur kabi o'z vatandoshini qadrlashdan maxrum edi. Ollohga shukurlar bo'lsinkim, mustaqillik mana shu nurafshon kunlaridan yurtimiz uzra Amir Temurning ruxi bizdan rozi bo‘lib kezib yurgan bo'lsa ne ajab.

Davlat ishlarida, xalqni boshqarishda, siyosatda adolat mezonlariga tayanganligi, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilganligi:

1) kengash;
2) mashvaratu maslahat;
3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik;
4) ehtiyotkorlik.

Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto‘g'ri bo‘lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so‘zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo‘lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko‘rib ko‘rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo‘lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so‘ng shuni ta'kidlash lozimki qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'ligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur.

Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur. Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. G'anim lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligidan, mag'lub bo‘lish esa sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki g'olib bo‘lmokdik Tangrining madadi va bandasining tadbiri bilandir. Garchi ishning qanday

yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir.

Agar ikki xatarlik yoki bir xatarlik ishni qilishga to‘g’ri kelgudek bo‘lsa, ikkovidan barobar qutulish chorasi topilmagach, bir xatarini ixtiyor etmoq kerak. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘l qo‘y. Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, yaqiniga ham yo‘lamasinlar. Xotirdan chiqmasinkim, Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Kengash ikki turli bo‘lur: biri til uchida aytilgani, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog’iga quyardim va dilimga joylardim. Amirlarim agar yarashdan so‘z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko‘rardim, agar urushga moyil bo‘lsalar, uning naf’ va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko‘rardim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shuni ixtiyor qilardim. Sipohni ikkilantiradigan [turumsiz] kengashni eshitishdan saqlanardim. Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so‘zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so‘z olib kengash so‘rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o‘ylab ko‘rgach, to‘g’ri va savoblirog’ini tanlab olardim.

Shuni aytish mumkinki, bobokalonimiz Amir Temur Buyuk shaxsining milliy ma’naviyatimizdagi tutgan o‘rni haqida quyidagicha fikr bildirishimiz mumkin. Amir Temur bobomiz - buyuk shaxs: kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, iqtidorli me’mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson. U Buyuk insonning murakkab va tashvishlar bilan to‘lib-toshgan hayoti va faoliyatini kichik bir maqolada, hatto juda qisqa va umumiy tarzda bo‘lsa-da, bayon qilib bo‘lmaydi.

Amir Temurning tarixi ko‘p jildlik kitoblar yozishga arziydi. Vaholanki jahondagi rivojlangan davlatlar jumladan, Angliya, Fransiya, Germaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlarida va boshqa Yevropa mamlakatlarida bobokalonimizning bosib o‘tgan buyuk yo‘li haqida kitoblar chop ettirilib omma taqdim etilgan. Angliyalik sharqshunos olima Hilda Hukhem, germaniyalik Gans Robert Ryomer, fransuz Jan Pol Roks, amerikalik Jon Vuds va Beatrisa Mans shular jumlasidan. Xorijlik dramaturg va artistlar o‘z teatrlarining sahnalarida Amir Temurning yorqin obrazini yaratdilar. Fransiyalik haykaltaroshlar uning haykalini oltindan quyib, muzeylarda namoyish qildilar Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta.

Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o‘z tig’i ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Bugun “Temur va temuriylar davlati”, “Temuriylar madaniyati”, “Ulug’bek va Samarqand astronomiya maktabi”,

"Navoiy" va "Bobur" kabi qutlug' so'zlarni nafaqat o'zbeklarning, balki butun dunyo xalqlarining tarixi sahifalarida uchratar ekanmiz, ularning zaminida Amir Temurning ulkan xizmatlari yotishini nazarda tutishimiz lozim.

Ikkinchidan, Amir Temur bobomiz, taqdir taqozosi bilan bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakalikdan ozod bo'lishda yordam berdi.

Uchinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. Amir Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, qasabalar, qishloqlarni, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Yassi (Turkiston) singari shaharlarda qad ko'targan oliy imoratlarni aytmaysizmi?! Ularning ba'zilari hozir ham shaharlarimizga ko'rk bo'lib turibdi. Amir Temur o'z yurti Turkistonnigina emas, balki qo'shib olingan yurtlarni ham obod qildi.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan mutolaa qilsangiz, uning ko'p yaxshi sifatlari to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat ta`lim-tarbiya va h.k bilan tanishasiz. Uning saxovatli, bag'ri keng va donishmand odam bo'lganini payqab olasiz. "Temur tuzuklari", Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot qilgan yili ma'lum emas) va Sharofuddin Ali Yazdiyning (1454 yilda vafot etgan) "Zafarnoma"larida, Ibn Arabshohning (1389-1450) "Ajoyib ul-maqdur fi axbori Temur" ("Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari") va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham bobokalonimizning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurt va fuqaroning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, ta`lim-tarbiya, qo'shnichilik qoidalariga rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi hayotiy o'gitlaridir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temurni ideal shaxs sifatida ta`lim-tarbiya jarayonida o'rganishning pedagogik-psixologik jihatlaridan kelib chiqib, ta'lim va ilmiy jarayonda keyinchalik foydalanish uchun konferensiya natijalari asosida maqolalar va ma'ruzalar to'plamini ishlab chiqib, ilmiy-nazariy va amaliy tahlil etib, Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida samarali qo'llay olish zarurligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Ta'lim-tarbiya jarayonida Amir Temurning tarixiy siymo sifatida, uning hayoti va ijodini mukammal darajada o'rganish orqali tarixiy va odilona haqiqatni ro'yobga chiqarish maqsadga muvofiq. Butunjahon rivojlangan mamlakatlar qatori istiqboldagi ta'dqiqotlar uchun Amir Temurning bosib o'tgan tarixiy me'rosi, uning harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi, buyuk sarkardaning kasbiy mahorati va iste'dodini nafaqat Respublikamiz miqiyosida, balki, butun jahon miqiyosida o'rganilishi uchun taashabbuskor g'oyalarini targ'ibot va tashviqot orqali amalga oshirish lozim.

Amir Temurning jang san'ati bo'yicha teatrlashgan kompozitsiyasini yoshlar o'rtasida ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviyat ma'rifat tadbirlarida sahna ko'rinishlarini namoyish qilish orqali yoshlarning ruhiyatiga Amir

Temurni ideal shaxs sifatida ta`lim-tarbiya jarayonida o‘rganilishining pedagogik-psixologik jihatlarini samarali tahlil etib, amaliy hayotga tadbiq etish zarurligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Respublikamizning ilmiy-tadqiqot instutlari, ilmiy tadqiqot markazlarida va bevosita O‘R QK Akademiyasida Amir Temurning harbiy san’at taraqqiyotidagi roli bo‘yicha mafkuraviy, ilmiy yo‘nalishlariga oid ilmiy dessertatsiyalar yozishni, mazkur muammolar bo‘yicha ilmiy yo‘nalishlarni tarixiy manbaalardan kelib chiqqan holda aniqlab ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish lozim va bu dessertatsiya ishlari va undagi yangiliklari nazariy va amaliy ahamiyatlari butun jahon miqyosida dolzarb muammo ekanligi ilmiy ahamiyat kasb etadi.

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИГА ОИД МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАР ВА ЗИЁРАТГОҲЛАР ТАРИХИ
(Қашқадарё вилояти мисолида)

Джураева Санабар Нурматовна,
Ўзбекистон Миллий университети
тарих фанлари доктори (DSc)

Жўраева Мухлиса Дониёр қизи,
Тошкент Давлат Аграр университети
Аграбиология факультети талабаси

Амир Темур ва темурийлар даврида ислом олами намоёндалари, саҳобалар, авлиёларга атаб мақбаралар бунёд этиш, масжид ва мадрасалар қуриш, уларни таъмирлаш ва муҳофаза қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Амир Темур ўз юришлари даврида қаерга борса биринчи навбатда ўша ерда ётган буюк уламоларнинг қабрини зиёрат қилган, балки уларнинг ҳокидан олиб келиб ўз юртида ҳам рамзий зиёратгоҳлар барпо этган. Қарши шаҳридаги Абу Убайда ибн Жаррох, Қарши туманида Шайх Шилви, Ғузорда Шаҳобуддин Умар Сухравардийнинг Мира Жанда, Муборак туманидаги Абдуллоҳ ибн Муборак Марвазий, Китоб туманида Хўжа Неъматуллоҳ зиёратгоҳлари шулар жумласидандир.

Ислом маданиятининг ўзига хос меъморий услуб ва намуналарини бирлаштирган Шаҳрисабздаги Дор ут-тиловат, Дор ус-саодат, Гумбази Саййидон, Оқ сарой ёдгорликлари, Кўк гумбаз масжиди ҳам темур ва темурийлар даври меъморчилигининг ноёб дурдоналаридир. Хорижлик тадқиқотчи Ганс Роберт, Амир Темур ва Темурийлар даврида мусулмон архитектураси юқори даражада ривожланганини, улар ўзидан олдинги ислом меъморчилиги анъаналарини давом эттириб, янги меъморчилик

услубини яратганлиги ҳамда темурийлар даври ренессансига асос солганини қайд этади[1].

Шаҳрисабздаги "Дор ут-тиловат" (XIV аср охири – XV аср боши) археологик ёдгорлиги Кўк Гумбаз масжиди, Шамсиддин Кулол ва Гумбази Саййидон мозори масжидини ўз ичига олган катта ансамбл бўлиб, Амир Темурнинг отаси Амир Тарағайнинг пири Шамсиддин Кулол (?-1370) номи билан боғлиқ[2]. Мажмуанинг "Дор ут-тиловат" номи "Қуръон ўқиладиган жой" деган маънони билдиради.

"Дор ут-тиловат" мажмуасининг умумий майдони 500×500 м бўлиб, квадрат шаклидадир. Шаҳрисабз шаҳрининг жануби-шарқий қисмида жойлашган мазкур меъморий мажмуанинг дастлабки шаклланиш босқичи XI-XII асрларга бориб тақалади. Амир Темур даврида аввал вайрон этилган обидалар ўрнида Кўк Гумбаз масжиди ва Шайх Шамсиддин Кулол мақбараси бунёд этилган.

Амир Темур 1373-1374 йилларда Шамсиддин Кулол қабри устига мақбара қурдирган ва унинг пойига отасини ҳам дафн этган[3]. Мақбара қурилиши Улуғбек ҳукмронлиги даврида ниҳоясига етказилган. Соддагина таъмир қилинган Шамсиддин Кулол қабри усти кейинчалик икки устунли синчкор том билан ёпиб қўйилган. Кейинги шувоқнинг бўртиб турган жойларидан тўртбурчак бинонинг тўртта равоқи бўлганини кузатиш мумкин.

Руи Гонсалес Клавихо ўзининг "Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги"да Кеш деб аталган катта шаҳарга келганини, Кеш текисликда жойлашганлиги... шаҳар атрофи тупроқ қўрғон ва чуқур хандақлар билан ўралганини, Подшоҳ Темур шу шаҳардан эканлигини келтириб ўтади. У ўз кундалигида: "Шаҳарда катта уйлар, масжидлар кўп. Ҳусусан, Темурбек томонидан қурилган бир масжид алоҳида ажралиб туради. Масжиднинг қурилиши ҳали битмаган. Унда Темурбекнинг отаси дафн этилган мақбара бор" - деб келтиради[4]. Бу мақбара "Дор ут-тиловат" мажмуасинининг асосий қисмини ташкил этган.

Мирзо Улуғбек даврида "Дор ут-Тиловат" меъморий мажмуаси ҳам бир қатор иншоотлар билан тўлдирилган. Хусусан, Амир Темур даврида унинг ҳаётида муҳим ўрин тутган мураббийларидан бири Шамсиддин кулол қабри устида мармар тоштахта қопланган мўжазгина мақбара бунёд

---

[1] Roemer H.R. The successors of Temur. The temurid and Safavid periods, in the Cambridge history of Iran. Vol. VI. Eds. P.Jackson & L.Lockhart. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.98.

[2] Бабаджанова Г.И., Колбинцев А.П., Манковьская Л.Ю. По древним городам Узбекистана: Самарканд. Шахрисабз. Бухара. Хива. – Москва: Профиздат, 1988. – С.196-202.

[3] Пугаченкова Г.А.., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1958. – С.139-141.

[4] Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). – Тошкент: O'zbekiston, 2010. – Б.147-148.

этилган. Мирзо Улуғбек даврида эса ушбу мақбара устида гумбазли иншоот барпо этилган.

Мазкур мақбара рўпарасида аввал мадраса бўлган. 1434-1435 йилларда Шоҳруҳ Мирзо буйруғига асосан Мирзо Улуғбек томонидан унинг ўрнида Кўк Гумбаз масжиди бунёд этилган. У меъморий мажмуадаги энг катта иншоот бўлиб, жомеъ масжиди ҳисобланган. Масжид пештоқи равоғида Шоҳруҳ Мирзо ҳамда Мирзо Улуғбекнинг номлари, уларнинг шарафига битилган мақтовлар ҳамда масжиднинг қуриб битказилган йиллари ҳақида маълумотлар ёзиб қолдирилган. Кўк гумбаз масжидининг номи унинг ташқи меъморий безакларида ишлатилган мовий ва кўк рангли кошинлар билан боғлиқ. Пештоқ безаклари ичида геометрик нақшлар устунлик қилади. Масжид пештоқининг ўнг ва чап томондаги устунлари ҳамда болохонаси бузилиб кетган[5]. Уларда ва асосий равоқда ислимий безаклар ҳам ишлатилган. Масжид ҳонақоҳи 12,7х12,7 мни ташкил этган бўлиб, гумбаз пойгумбазининг ташқи тарафига ишлов берилган сиркор меъморий безакларида мовий, кўк ва оқ рангли эпиграфик безаклар мавжуд. Уларда Қуръон оятлари битилган. Ички қисмидаги 8 та майда равокчалар ромб шаклидаги қалқонсимон бағаллар билан ўзаро бирлаштирилган бўлиб, равоқ шаклидаги 16 таянчга ўрнатилган. Хонақоҳнинг ғиштин деворлари бурчагида тўртта айлана зина орқали айвон томига чиқилган[6].

Термиз саййидлари билан боғлиқ Гумбази Саййидон (Саййидлар гумбази мақбараси, XV аср)[7] "Дор ут-тиловат" ансамблининг бир қисмини ташкил этади[8]. Гумбази Саййидон меъморий ёдгорлиги 1437-1438 йилларда Мирзо Улуғбек томонидан қурилган бўлиб, у буни "Улуғбек оилавий хилхонаси" сифатида бунёд этган[9]. Шаҳрисабзда қурдирилган бинолар, асосан, даҳмалардан иборат. Мақбара чортоқ тархли (ташқи ўлчами 9×9, ички томони 5,75×5,75), пойгумбази саккиз қиррали (призмасимон) гумбаз билан қопланган. Мақбара ички деворларидаги равоқлар икки қатор бўлиб, устидаги бурчакларда туйнук ва кенг токчалар мавжуд. Мақбара ичида XV-XVIII асрларда қўшни қабристондан келтирилган бир неча ўзга сағаналар бор. Уларнинг ёзувларида Термиз саййидларнинг номи эслатилади[10].

Мазкур ёдгорликни топиш, рўйхатга олиш, сақлаш ва таъмирлаш ишлари билан шуғулланилиш иши 1923-70 йилларда Қашқадарё ҳудудида

---

[5] ЎзМА Р-2406-фонд, 1-рўйхат, 284-иш, 8-варақ.
[6] Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари (Йўл кўрсаткич). – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б.39-40.
[7] Ртвеладзе Л.Л., Ртвеладзе Э.В. Мусульманские святыни Узбекистана. – Ташкент, 2020. – С.144.
[8] Кадырова Т.Ф. Архитектура Совесткого Узбекистана. – Москва: Стройиздат, 1987. – С.16-17.
[9] Пугаченкова Г.А.., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1958. – С.139-141.
[10] Маданий мерос департаменти архиви. КД-7086 фонд, Л-рўйхат, 11-бет, 73-75-варақлар.

олиб борилган археологик экспедициялар сифатида бошланган. Жумладан, 1925 йилдан академик В.В.Бартольд ва археолог В.Л.Вяткин томонидан Шаҳрисабз тарихий ёдгорликларини ўрганиш бошланган[11]. Средазкомстарис ташкилоти томонидан Шаҳрисабздаги Оқсарой обидаси, Имом Зода мақбараси, Гумбази Саййидон мозори, Шамсиддин мозори, Кўк Гумбаз масжиди, Қарши шаҳридаги Абдуллахон масжид ва мадрасаси, Намозгоҳ масжиди, Заҳоки марон ва Шуллуктена ёдгорликлари рўйхатга олинган[12].

Шаҳрисабздаги "Дор ус-саодат" археологик ёдгорлиги (XIV аср) "Дор ут-тиловат" билан бир ансамблни ташкил этган[13]. Темурийлар даври архитектурасини ўрганган олим Л.Ю.Маньковская "Дор ус-саодат" ни "Давлатмандлар уйи", деб атаган[14]. Шаҳрисабздаги "Дор ус-саодат" (Саййидлар уйи) мақбарасида Амир Темурнинг тўнғич ўғли, валиаҳд шаҳзода Жаҳонгир Мирзо (1356-1376) дафн этилган. Амир Темур 1378-1380 йилларда Жаҳонгир Мирзонини қабри устига макбара барпо этган. Шу ерда ўзи учун ҳам ер ости даҳмасини қурдирган[15]. Қадимда тарихий манбаларда, бу жой "Дор ус-саодат" деб номланиб, Амир Темур томонидан Ҳазрати Имом ҳоки кўчириб келтирилганлиги сабаб, халқ орасида "Ҳазрати Имом" номи билан ҳам аталган[16].

Клавихо Кеш шаҳри иншоотлари ҳақида сўз юритганда бу ҳақда ҳам маълумотлар бериб ўтган. Яъни "... Бошқа бир даҳмани Темурбек ўзига атаб қуришга буйруқ берган ва у ҳам ҳали битказилмаган эди. Айтишларича, у бир ой илгари бу ерга келган, даҳмадан кўнгли тўлмаган, (унга) кириш ўрни пастлигини айтган ва бузиб қайта қуришга буйруқ берган... Бу масжидда, Темурбекнинг Янгир (Жаҳонгир) исмли тўнғич ўғли ҳам дафн этилган. Мазкур масжид ва даҳма ниҳоятда ҳашаматли ва олтин, ложувард ва рангин кошинлар билан безатилган"[17].

Дор ус-саодат мажмуасининг қурилиши Хоразм меъморий услубида яратилган. Санъатшунос олима Г.А.Пугаченкова Темурийлар даврида қурилган мақбараларни ўрта аср меъморчилигининг энг ажойиб намунаси, деб атайди[18]. Г.А.Пугаченкова Дор ус-саодат мажмуасини темурийлар даври эркаклар дафн этиладиган мақбара намунасига киритади.

---

[11] ЎзМА, ф. 394-жамғарма, 1-рўйхат, 190-иш, 64-70-варақлар.
[12] ЎзМА, ф. 394-жамғарма, 1-рўйхат, 252-иш, 20-21-варақлар.
[13] Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Памятники минувших веков. – Ташкент: Узбекистан, 1986. – С.66-67.
[14] Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари (Йўл кўрсаткич). – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б.39-40.
[15] Пугаченкова Г.А. Термиз. Шахрисабз. Хива. Художественные памятники I-XIX веков. – Москва: Искусство, 1976. – С.208.
[16] Пугаченкова Г.А. Темурнинг меъморий мероси. Архитектурное наследие Темура. L'Héritage architectural de Timour. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1996. – С.22.
[17] Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). – Тошкент: O'zbekiston, 2010. – Б.147-148.
[18] Средняя Азия. Справочник путеводитель. Сост. Г.А.Пугаченкова. – Москва: Исскусство, 1983. – С.34-35.

"Дор ус-саодат" тархи Аҳмад Яссавий мажмуасига ўхшаб кетади. Кириш йўли худойихонага, ундан сўнг Амир Темурга мўлжалланган ер ости сағанасига олиб боради. Тарихий манбаларга кўра Амир Темурнинг ўғли Умаршайх (1356-1394)нинг ҳам қабри шу ерда деб тахмин қилинади. Мақбарага яқин жойда Умаршайхнинг ўғли Саид Аҳмад Мирзо (1391-1429) нинг даҳма тоши топилган[19]. Бундан кўринадики Амир Темурнинг набираси Саид Аҳмад Мирзонинг ҳам қабри шу ерда бўлиши мумкин. Мақбара ичкариси мурабба (томонлари тенг тўғри тўртбурчак) тархли, юзи ровоқлар, ичи ва гумбаз ости бағаллари муқарнас билан тўлдирилган. Ташқаридаги 16 қиррали пойгумбаз устига баланд кулоҳий гумбаз ўрнатилган. Жануби-ғарбий бурчагида минора сақланган. "Дор ус-саодат" энг улкан бино бўлиб, баландлиги 70 метр, эни эса 50 метр.

XIX аср ўрталарида мақбара ёнига синчкорли катта айвон, ҳужралар ва гумбазли хонақоҳ – жомеъ масжиди барпо этилган. Масжид қурилиши вақтида Амир Темурнинг ер ости гўрхонасининг қуббаси очилган[20].

1970-1980 йилларда "Дор ус-саодат" мажмуасида археологик тадқиқотлар олиб борилиб, катта ҳажмдаги архитектура қолдиқлари юзаси очилади. Жаҳонгир Мирзо мақбарасидан 10-15 метр масофада жануб томонда тошсупа полида ғарб-шарқ йўналишида оқ мармар блоклардан бақувват қилиб кўтарилган, бу ердан пештоқни иккита пропорционал қисмга шартли ажратадиган пештоқ ҳавозасининг тикка ўқ линияси ўтади. Тикка ўқ линиясини аниқлаш Дор ус-саодат пештоқи аркаси тоқ кенглиги 20,3 метр эканлиги аниқлашга имкон беради[21]. Бу "Дор ус-саодат" пештоқи аркаси Оқсарой аркаси тоқидан бор-йўғи 1,7 метрга қисқа эканлигини, Ўрта Осиёнинг барча таниқли меъморий ёдгорликларидан катталигини кўрсатади.

Амир Темур 1378-1379 йилларда Шаҳрисабзда катта ободончилик ишларини амалга оширган. Шаҳар янгитдан тўрт дарвозали пахсадевор билан ўралади, ташқи томонда гир айлана хандақ қазилиб, осма кўприклар қурилган.Шаҳарнинг жануби-шарқий бурчагида, асосий майдонга яқин бўлган аъёнлар маҳалласида, 1380-1404 йилларда Амир Темурнинг буйруғи билан Оқ Сарой қурилади.Оқ Саройнинг қурилиши Амир Темурнинг Хоразмга қилган юриши билан боғланади. Манбаларда келтиришича, Амир Темур Хоразмни истило қилгач, бу ўлкадаги ҳамма ишга яроқли олимлар ва ҳунарманд усталарни Мовароуннаҳрга ва ундан Кеш шаҳрига кўчириш тўғрисида фармон беради. Хоразмлик меъмор усталар Оқ Саройни қуришга жалб қилинади.

---

[19] Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи. – Б.97.
[20] Маданий мерос агентлиги архиви. ҚД-7086 фонд, Л-рўйхат, 11-иш, 18-варақ.
[21] Абдухолиқов Ф., Бабаджанов Б., Рахимов К. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Қашқадарё. – Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. – Б.182.

"Оқ Сарой" номи унинг улуғвор ва муҳташам мавқейига нисбатан берилган. Сарой аслида оқ эмас, балки кўк рангда. Оқ Сарой мажозий маънода юқори, мартабали деган маънони ҳам билдирган бўлиши ҳам мумкин[22]. Бундай муҳташам бинодан ҳозир фақат кираверишдаги пештоқнинг бир-биридан ажралган иккита асоси сақланиб қолган холос.

Бундан 200 йил муқаддам қулаб тушган Оқ Саройнинг кириш пештоқи чиндан ҳам Ўрта Осиёда энг йирик пештоқ бўлиб, унинг равоқ оралиғи 22,5 метрдир. Таққослаш учун шуни айтиш мумкинки, XIV аср охирида сақланиб қолган Туркистондаги (Хожа Аҳмад Яссавий мақбараси) ва Самарқанддаги (Бибихоним масжиди) энг катта пештоқлар кенглиги 18,5 метрдан ошмайди. Минорасининг ҳозирги вайрона ҳолидаги баландлиги ҳам 38 метрдир, агар пештоқнинг кенглиги 40 метрга яқинлигини назарда тутилса, манбаларда эслатилганидек, унинг пештоқи галереяси рўйирост баландлиги 50 метрдан ортиқроқ бўлган деб фараз қилиш мумкин[23]. Бу эса ҳозирги 16-18 қаватли иморатларнинг баландлигига тенг келади. Шарафуддин Али Яздий "Зафарнома" асарида Оқ Сарой ҳақида "Торих етти юз сексан бирда (1380 йил, март) ул шаҳарда (Кеш) да қаъла солдурди ва жаҳдлаб тамом қилдурди. Ва андоқ шаҳри бўлдиким, гардун Муҳандиси мунча ёши билан оламни кезиб, ҳеч бир ерда мундоқ шаҳар ва кўшк кўрмаган тутур", - деб келтиради[24].

Испания элчиси Руи Гонсалес Клавихо 1404 йилда Шаҳрисабзда бўлиб, Оқ Саройни кўради ва ўзининг кундалигида шундай таърифлайди:... "Эртаси куни элчилар Кешдаги яна бир маҳобатли саройни томоша қилишди. Подшоҳнинг амри ила бунёд этилаётган бу кошона қурилиши, айтишларича йигирма йилдан бери ҳар куни тинимсиз давом этади. Саройга жуда узун йўлакдан бағоят баланд дарвоза орқали кирилади. Йўлакнинг икки томонидаги ғиштин ровоқ, жимжимадор, гулдор кошинлар билан безатилган. Ровоқлар остида очиқ, кичик айвонсимон жойлар бўлиб, олдида кошинлардан супа қилинган. Айвончалар подшоҳни кутиб олувчиларнинг ўтиришига мўлжалланган. Шундан сўнг навбатдаги эшикдан катта ҳовлига чиқилади. Ҳовли саҳнига оппоқ тоштахталар тўшалган. Ҳар икки ёнида ҳашаматли айвонлар, ҳовлининг ўртасида катта ҳовуз жилоланиб турибди. Мазкур ҳовлидан бағри кенг эшикка кирилади. Унинг жуда баланд ва кенг очиладиган эшиги зарҳал ва ложувард бўёқлар билан безатилган.Эшикнинг тепасидаги деворнинг ўрта қисмида қуёш нури кўламида акс эттирилган шер тасвири

[22] Пугаченкова Г.А. Термиз. Шахрисабз. Хива. Художественные памятники I-XIX веков. – Москва: Искусство, 1976. – Б.208.

[23] Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари (Йўл кўрсаткич). – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б.39-40.

[24] Шарафуддин Али Яздий. Зафарномаа / Сўзбоши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад ва Ҳайдарбек Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.38.

бор. Эшикнинг четларига ҳам худди шундай суратлар чизилган.Бу рамзий белги Самарқанд подшосининг расмий тамғаси ҳисобланади"[25]. Оқ Сарой деворларига қопланган сидирға либос, турли шаклдаги кошинлар ва сиркор ғиштлари чинакам мўъжиза. Ёзувлар орасида нақш безакларининг бажарилган вақти мавжуд – 798 ҳижрий йил (1395-1396 йиллар).

Девордаги теран ва тиниқ бўёқлар: бинафша-кўкимтир, зумрад, яшил, охари-тилла, сутли-ҳаворанг, тилла суви ва бўёқлар аралаштириб қуюқлаштирилган оқиш ранг, контурдаги ажойиб нуқталар ўрта аср гуллари... сюжетли нақшлар ва гулдор сополлар, турли-туман ўсимликлар дунёси, навда-ниҳоллардан ясалган ажиб безакли даъватлар, чечаклар, япроқлар ҳайратланарли[26].

Ёдгорликни илмий ўрганган мутахасислр фикрига кўра сарой анъанавий тарзда тўғри тўртбурчакли айвонлар билан ўралган ҳовлида қад кўтарган. Ҳовлининг эни 120-125 м., узунлиги эса 240-245 м. ни ташкил этган[27]. Бундай маҳобатли сарой Марказий Осиё меъморчилигида учрамайди. Амир Темур саройлари Марказий Осиё ва Европада Ислом меъморчи- лигида ўзига хос бўлиб, муҳташамлиги, улуғворлиги, ҳеч қаерда учрамайдиган бой меъморий безаклари билан ажралиб туради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Амир Темур ва темурийлар даврида масжид-мадрасалар, буюк уламолар қаблари устига мақбаралар қуриш, уларни таъмирлаш, муҳофаза қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилган.

Ўзбекистон Республикаси ЮНЕСКО ташкилотининг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида... Шаҳрисабз шаҳридаги Темур ва Темурийлар даври ёдгорликлари: "Дор ус-саодат", "Дор ут-тиловат" мажмуалари, "Гумбази саййидон" мақбараси, "Жаҳонгир" мақбараси, "Амир Темур ер ости даҳмаси" (2001)... машҳур ёдгорликлар сифатида дунё тарихий ёдгорликлари рўйхатига киритилган[28]. Темурийлар даври ёдгорликлари ҳозирги кунда халқаро миқёсида темурийлар даври ренессансининг маданий ёдгорликлари, зиёрат объектлари сифатида хорижий туристлар ва маҳаллий зиёратчиларни ўзига жалб этиб келмоқда.

---

[25] Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). – Тошкент: O'zbekiston, 2010.

[2 6]Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари (Йўл кўрсаткич). – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б.20.

[27] Қадимги Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар / Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.92.

[28] Ҳашимов М. ЮНЕСКО фаолиятида диний бағрикенглик тамойиллари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): Тар, фан номз...Тошкент ислом университети, 2009. – Б.11-13.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA PUL ISLOHOTINI TASHKIL ETISH MEXANIZMI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida pul tizimi va uning tashkiliy elentlari o'rtatsida o'zaro muvofiqlikni ta'minlash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur jarayonning mustahkam asosini barcha qudratli davlatlar singari Amir Temur va temuriylar davlatchilik tizimida ham kuzatishimiz mumkin.

Temuriylar imperiyasida pul muomalasini tashkil etishning ijtimoi-iqtisodiy zaruriyati imperiyanining nafaqat iqtisodiy, balki iqtisodiy mustaqilligini ifoda etuvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanganligi bois, bunga nisbatan zaruriyat yuqori edi. Bu borada Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida o'ziga xos quyidagi jumla bu boradagi fikrimizni asoslaydi. "Haqiqat shul erkan, ahli bayt nomiga xutba o'qib, ularning nomi zarblangan pullar chiqarish lozim"[1].

Mustaqil pul muomalasini tashkil etishning siyosiy jihatlari imperiyani siyosiy jihatdan mustaqilligini ifoda etsa, mazkur jarayonning iqtisodiy asosi imperiya hududida moliyaviy islohotlarni tashkil etishning muhim omil bo'ib xizmat qilgan. Umumiy natijadorlik soliq to'lovlarini amalga oshirish, tashqi savdo faoliyati doirasida bojlarni undirish, tovar va xizmatlarni amalga oshirishda narx belgilash jarayonlari uchun xizmat qilishiga e'tibor qaratish lozim. O'z navbatida imperiya hududlarining kengayib borishi imperiya tarkibiga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirishni taqozo etganligi sababli, muomiladagi pul miqdorini zaruriy tartibda oshirish, pulgan bo'lgan talabni qondirishda uning muayyan hajmini zaruriyat paydo bo'lganda oshirish imkonini beradigan zarbxonalar faoliyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Amir Temur hukmronligi yillarida (1370-1045) nafaqat Movarounnahrning markaziy shaharlarida, balki Xuroson, Eron, Ozarbayjon hududlarida chunonchi, Astrabod, Ashpara, Boku, Basra, Bag'dod, Bomiyon, Damg'on, Darband, Yazd, Isfahon, Koshon, Qarshi, Kermon, Qum, Mordin, Mahmudobod, Mashhad, Sova, Samarqand, Sultoniya, Tabriz, Xorazim, Shabanka, Sheroz, Shamaxa va Hirot kabi 40 ga yaqin shaharlarda zarb qilingan. Mazkur davr oralig'ida zarbxonalarning to'xtovsiz faoliyati imperiya doirasida tovar ayriboshlash hajmining muqobil sur'atlarda oshib borganligi, imperiya va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro tovar ayirboshlash jarayoni tegishli tartibda muvofiqlashtirib borilganligini ko'rsatadi.

[1] Temur tuzuklari. / A. Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 100 b.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda A.Temur davridagi pul islohotining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilar orqali umumlashtirish mumkin:

• Amir Temur oltin, kumush va mis tangalar zarb ettirgan, ammo oltin tangalarni kamdan kam zarb ettigan. Jumladan, 1380-yilda Samarqand va Xorazimda miqdorda oltin tangalar zarb ettirgan.

• Amir Temur zarb ettira boshlagan tangalar qator hususiyatlari bilan boshqa davr tangalaridan tubdan farq qilgan. Zarb qilingan tangalarga bosilgan tamg'alar shular jumlasidandir. Ular asosan dumaloq, to'rtburchak va gul (asosan anor) ga o'xshash naqshlar va hokazolardan iborat bo'lgan.

• Tangalarda Amir Temur nomi bilan birgalikda taxtga chiqarilgan saqti mo'g'ul xonlari nomi ham qo'shib zarb etilgan. 1372-1388 yillarda Suyurg'atmishxon, uning vafotidan so'ng o'g'li Sulton Mahmudxon nomi bilan 1402-yilgacha, ya'ni vafot etguniga qadar zarb etilgan.

• Amir Temur tangalarida biz arabcha, forscha, turkcha va mo'g'ulcha so'zlarni o'qiymiz, masalan arabcha)الله سلطا تةخد Alloh uning podshohligi va sultonligini boqiy qilsin), forscha-)ضرب zarb), turkcha -)سوزم so'zim),)يرليغى yorlig'i) va mo'g'ulcha-) ,اكمنو akmanu-mening so'zim), كوركا kuyov) kabi so'zlarni uchratamiz.

• oltin va kumush tangalar sofligi va vazniga alohida e'tibor berib, nazorat qilgan. Ayni chog'da bu tangalarda mahalliy bezaklarning o'ziga xosligi, nafisligi ham saqlab qolingan bo'lib Hirot, Mashhad, Isfahon, Tabriz va Bag'dodda zarb qilingan tangalarda bu xusussiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

• Sharafuddin Ali Yazdiy esa o'z "Zafanoma"sida: "Amir Temurning turk sultoni ustidan g'alabasidan so'ng Misr va Shom hukmdori Malik Nosir Amir Sohibqironga muholifat bo'lish mumkin emasligini anglab, o'z taqdiri omonligini tilab, Amir Temur nomiga xutba o'qitib tangalar zarb qildi" deb ma'lumot beradi.

Ko'plab tarixchi olimlar Mirzo Ulug'bek davrida eski tangalarni almashtirishga qulay bo'lishi uchun Andijon, Toshkent, Shohkuhiya, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz va Hisorda yangi pullar yagona nusxa bo'yicha zarb qilinganligi, pul almashtirish jarayoni o'z nihoyasiga yetgach Buxorodan tashqari barcha zarbxonalar yopilganligini qayd etadilar. Fikrimizcha, bu xulosaviy ma'lumotlar quyidagilarga muvofiq tegishli asosga ega emas:

– Amir Temur davridan keyin temuriylar imperiyasini parchalanishi sezilarli darajada imperiya hududi tarkibiga kirgan davlatlar hisobiga imperiyaning tovar ayirboshlash jarayonini qisqartirishi hisobiga pul taklifini qisqartirishga zaruriyat ortdi;

– Temuriylar imperiyasi tarkibiga kiradigan ma'lum hududlarni boshqa davlatlar tomonidan bosib olinishi, ushbu hududlarni siyosiy hamda iqtisodiy mustaqilligini ifoda etadigan pul islohotini amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi;

– Temuriy shaxzodalar o‘rtasida tinimsiz taxt uchun kurashlarning avj olib borishi ta'sirida markaziy hokimiyat o‘z mavqeini yo‘qotib, pul tizimini mustahkamlashga yo‘naltirilgan islohotlar ta'sir darajasi pasayib bordi;

– Siyosiy boshboshdoqlik ta'sirida temuriylar imperiyasi va yirik savdo hamkorlari hisoblangan mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari qisqarib borishi va boshqalar.

1418-1429 yillarda Ulug‘bek o‘tkazgan pul islohoti tufayli butun mamlakat uchun yagona tanga pul joriy etilgan. Tadqiqotchilar Ulug‘bekning pul islohotini uning yer rentasini kamaytirish va asosiy qismi xazinaga diniy arboblar va katta yer egalaridan keluvchi tamg‘a soliqlari (tushuvchi daromadlar)ni boshqarishga uringani bilan bog‘laydilar.

Mirzo Ulug‘bek va boshqa temuriy hukmdorlar davridagi pul islohotini tashkil etish tizimi quyidagilarga asoslanadi;

• 1403-yil 13-mart sanasida sevimli nabirasi va valiahd shahzoda Muhammad Sulton vafot etadi. Temur vafot etgan nabirasi xotirasini yodga olish uchun uning nomidan tangalar zarb ettiradi. Tangalarga (Sulton Mahmudxon Amir Temur ko’ragon amirzoda Muhammad Sulton, zarb Samarqand) yozuvi bitiladi.

• Rasman xon sanalgan Marhum Suyurg’atmishxon o’g’li Mahmudxon vafot etganiga bir muddat bo’lganiga qaramasdan Amir Temur taxtga boshqa qo’g’irchoq xon chiqarishni istamay faqatgin Mahmudxon nomidan tangalar zarb ettirib turgan edi.

• Amir Temur vafotidan keyin hokimyatni egallagan boshqa bir nabirasi Xalil Sulton zarb ettirgan tangalariga e’tibor beradigan bo’lsak shunday ismlarga ko’zimiz tushadi: (Sulton Muhammad Jahongir omon az-zamon amir Xalil Sulton xoldolloh mulikixu. 807/1404-1405) so’zini o’qishimiz mumkin. Demak Samarqandni egallagan Xalil Sulton bevosita taxtga o’zi o’tirmagan, balki taxtga Amir Temurning marhum suyukli nabirasi, taxt vorisi Muhammad Sultonning o’g’li Jahongir Mirzoni taxtga chiqargan.

• (Sulton az-zamon Shohrh bahodir xaldolloh mulikuxu va sultonaxu). Temuriylardan faqatgina Shohruh mirzo o’g’li Mirzo Ulug’bek tangalarida Bobosi Amir Temurning tamg’asi va Sohibqironning nomi esga olinadi. (Timur Ko’ragon himmatidin Ulug’bek so’zim: zarb Samarqand 853/1449). Mirzo Ulug’bek ham tanga zarb etishga bobosi kabi e’tiborli bo’lib pul islohoti o’tkazadi.

• 1428-1429 yillarda Buxoroda zarb qilingan pullar nafaqat Buxoroda balki butun O’rta osiyoda keng tarqalganligining sababi ushbu sa’na bilan keyingi yillarda ham tangalar zarb ettirilgan.

• 1428-yilda Ulug‘bekning Fulu pullari borasidagi islohoti katta ahamiyatga ega edi. Ulug‘bek aholini ichki chakana savdoga jalb qilish maqsadida muomaladagi barcha yengil va mayda o‘zgarmas pullarni man qildi.

Kichik mis tangalarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shoxruxiya, Andijonda tanga zarb qilinadigan maxsus joylar ochdi. U erda bir xil og'irlikdagi fuluslar muomalaga chiqarildi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G`OYALAR VA IQTISODIY SIYOSAT

Xabibullayev Ibrohim,
Toshkent gumanitar fanlar univerisiteti professori, t.f.d.

Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g’li,
Toshkent gumanitar fanlar univerisiteti dotsent v.b.

Amir Temur va Temuriylar sulolasi Markaziy Osiyo tarixida iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan chuqur iz qoldirgan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davr, ayniqsa, XIV–XV asrlar oralig‘ida iqtisodiy yuksalish, savdo aloqalarining kengayishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va davlat moliyasining mustahkamlanishi bilan ajralib turadi. Amir Temur o‘zining mashhur “Tuzuklar” asarida ijtimoiy-siyosiy tartibot bilan birga iqtisodiy boshqaruvning asosiy tamoyillarini ham belgilab bergan. U xalq farovonligini oshirish, adolatli soliq siyosatini yuritish, ishlab chiqarish va savdoni rivojlantirishga alohida urg‘u bergan. Uning iqtisodiy siyosati Temuriylar sulolasi hukmdorlari – Shohrux, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro kabi arboblar tomonidan yanada takomillashtirilib, barqaror iqtisodiy boshqaruv tizimi shakllantirilgan. Ushbu mavzu orqali o‘rta asrlardagi iqtisodiy fikr rivoji, davlat moliyaviy siyosatining shakllanishi va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

Amir Temur o‘z davlatida iqtisodiy barqarorlikka alohida e’tibor qaratgan. U o‘zining mashhur "Tuzuklar" asarida iqtisodiyotni mustahkamlash, boylik yaratish va uni adolatli taqsimlash tamoyillarini belgilagan. Temur aholining mehnat faoliyatini rag‘batlantirish, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlamoqchi bo‘lgan. U soliqlarni me’yorida belgilab, soliq tizimini soddalashtirishga harakat qilgan. Shuningdek, davlat byudjeti muvozanatini saqlash ham Temurning muhim vazifalaridan biri bo‘lgan. Uning siyosati xalqaro savdoni rivojlantirishga ham qaratilgan edi.

Temuriylar iqtisodiyotining asosiy tayanchi dehqonchilik bo‘lib, bu soha doimiy ravishda davlat nazoratida turgan. Amir Temur va undan keyingi hukmdorlar sug‘orish inshootlarini ta’mirlash va yangilarini qurish ishlariga katta mablag‘ ajratganlar. Zarafshon va Amudaryo havzalarida suv resurslaridan oqilona foydalanish strategik masala hisoblangan. Dehqonlarga yer ajratish va ularni mehnatga rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Sug‘oriladigan

yerlarning ko‘pligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlagan. Bu orqali ichki bozor barqarorlashgan va eksport imkoniyatlari kengaygan.

Temuriylar davrida hunarmandchilik katta taraqqiyotga erishgan. Maxsus hunarmandlar mahallalari tashkil etilib, ular davlat himoyasida bo‘lgan. Qog‘ozsozlik, ipakchilik, metallga ishlov berish, keramika va gilamdo‘zlik keng rivojlangan. Har bir shahar o‘zining muayyan mahsulotlari bilan mashhur bo‘lgan. Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlarda hunarmandlar gildiyalari tuzilgan. Davlat tomonidan hunarmandlar soliqdan vaqtincha ozod qilinib, ularning faoliyatiga qulay sharoitlar yaratilgan.

Temur va Temuriylar Markaziy Osiyoni xalqaro savdo markaziga aylantirishga intilganlar. Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishi va xavfsizligini ta’minlash bu boradagi muhim chora-tadbir bo‘lgan. Karvonsaroylar, bozorlar va savdo rastalari qurilib, savdogarlarga qulay sharoitlar yaratilgan. Tashqi savdoda Xitoy, Hindiston, Eron va Usmonlilar imperiyasi bilan faol aloqalar o‘rnatilgan. Tashqi savdo orqali davlatga katta miqdorda daromad kelib tushgan. Savdogarlarning mulki davlat tomonidan qonuniy himoyaga olingan edi.

Temuriylar davrida mustahkam pul tizimi joriy etilgan. Zarbxonalar faoliyat yuritib, muomalaga sifatli tanga pullar chiqarilgan. Tangalar asosan oltin, kumush va misdan tayyorlangan bo‘lib, ularning og‘irligi va tarkibi qat’iy belgilangan edi. Temuriylar hukmdorlari inflyatsiyani oldini olish va pulning qiymatini saqlab qolishga harakat qilganlar. Pul muomalasining barqarorligi ichki va tashqi savdoning o‘sishiga xizmat qilgan. Shuningdek, soliqlarning pulda to‘lanishi tizimi ham keng joriy etilgan edi.

Temuriylar davlat boshqaruvida markazlashgan tizimdan foydalanishgan. Har bir viloyat va shahar iqtisodiy jihatdan markazga bo‘ysungan. Mahalliy hokimlar va soliq yig‘uvchilar bevosita markaziy hokimiyatga hisobot berishgan. Davlat hisoboti yuritilgan va mulkiy ro‘yxatga olish ishlari muntazam amalga oshirilgan. Bu orqali noqonuniy boylik orttirishga qarshi kurash olib borilgan. Moliya tizimi ustidan nazorat vositasi sifatida maxsus vakillar tayinlangan.

Temuriylar davrida iqtisodiy tafakkur va nazariy qarashlar rivojlanishida ilm-fan katta rol o‘ynagan. Ulug‘bek davrida astronomiya, matematika, geografiya bilan bir qatorda iqtisodiy masalalar ham o‘rganilgan. Iqtisodiyotni tahlil qilish, narx-navo va savdo qonuniyatlarini tushunishga bo‘lgan qiziqish kuchaygan. Davlat arboblari, olimlar va amaldorlar o‘rtasida iqtisodiy siyosat masalalari muhokama qilingan. Bu esa iqtisodiy qarorlarni asosli va ilmiy yondashuv asosida qabul qilish imkonini bergan.

Temuriylar davrida yaratilgan iqtisodiy tizim keyingi asrlar uchun muhim tajriba bo‘lib xizmat qilgan. Ularning iqtisodiy siyosati barqarorlik, adolat va rivoj tamoyillariga asoslangan edi. Temuriylar tomonidan yaratilgan

infratuzilma va savdo yo‘llari keyingi davr hukmdorlari tomonidan ham saqlab qolingan. Ayniqsa, xalqaro savdoni rivojlantirish tajribasi keyinchalik boshqa davlatlar uchun o‘rnak bo‘lgan. Temuriylar iqtisodiyoti Sharq uyg‘onish davrining asosiy tayanchi hisoblangan. Bu davr iqtisodiy tafakkurning shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan.

Temuriylar iqtisodiy siyosati aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan edi. Dehqon va hunarmandlar soliqdan ozod etilishi yoki yengilliklar berilishi orqali ularning iqtisodiy faoliyati rag‘batlantirilgan. Yashash joylarining xavfsizligi, bozorlarda narxlarning barqarorligi va oziq-ovqat ta’minoti doimiy nazoratda bo‘lgan. Bu esa aholining turmush darajasini barqaror ushlab turishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, shaharlarda savdo va ishlab chiqarish markazlari ko‘paygani tufayli ish o‘rinlari ortgan. Aholi daromadlarining oshishi ichki iste’mol bozorining kengayishiga olib kelgan.

Temuriylar davrida mulkchilik shakllari aniq ajratilgan va qonuniy asosga ega bo‘lgan. Davlat yerlariga davlat mulozimlari va harbiylar xizmat evaziga egalik qilgan, bu yerlar shartli tarzda berilgan (iqto’). Xususiy mulk esa ko‘pincha meros bo‘yicha o‘tgan va huquqiy jihatdan himoyalangan. Mulkiy huquqlarning aniqligi iqtisodiy ishonch va investitsiyalar uchun muhim asos bo‘lgan. Davlat mulkidan foydalanishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan choralar ko‘rilgan. Bu tizim mulkiy barqarorlikni ta’minlab, iqtisodiy hayotni faol saqlab turishga xizmat qilgan.

Temuriylar tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirishga katta e’tibor qaratgan. Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari va Eron gilamlari bilan savdo aloqalari o‘rnatilgan. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, masalan, ipak, qog‘oz, qurol-aslaha va keramik buyumlar xorijiy bozorlarni zabt etgan. Savdogarlar uchun chegara postlari, bojxona tartiblari soddalashtirilgan. Diplomatik elchilar orqali iqtisodiy manfaatlar himoya qilingan. Natijada, Temuriylar davlati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim iqtisodiy ko‘prikka aylangan.

“Tuzuklar” asarida iqtisodiy tartib-qoidalar alohida o‘rin egallaydi. Temur davlat moliyasining daromad va xarajatlarini hisobga olishni majburiy deb belgilagan. Soliqlar adolatli, xalq imkoniyatlariga mos ravishda belgilanishi kerakligi uqtirilgan. U har bir hududning ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olib iqtisodiy siyosat yuritgan. Dehqonlar va hunarmandlar har yili o‘z mulklarini ro‘yxatga oldirishlari shart bo‘lgan. Bu tizim davlatga real iqtisodiy holatni bilish va siyosatni shu asosda yuritish imkonini bergan.

Temuriylar davrida ayollar ham ayrim iqtisodiy faoliyat turlarida ishtirok etgan. Ular gilamdo‘zlik, to‘qimachilik va savdo-sotiq kabi sohalarda faol bo‘lishgan. Ayrim hollarda ayollarga mol-mulk egalik qilish huquqi berilgan. Ayniqsa, malikalar, xonimlar va saroy ayollari iqtisodiy faoliyatga bevosita rahbarlik qilgan holatlar ham mavjud. Xotin-qizlarning faoliyati jamiyatdagi

iqtisodiy barqarorlikka o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Bu holat Temuriylar ijtimoiy-iqtisodiy tizimining nisbatan rivojlanganligidan darak beradi.

Amir Temur va Temuriylar davridagi iqtisodiy siyosat mustahkam markazlashgan boshqaruv, adolatli soliq tizimi, savdo va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash, dehqonchilikka e’tibor qaratish orqali o‘z davrining ilg‘or iqtisodiy modelini yaratgan. Bu siyosat nafaqat o‘z davrida barqarorlik va taraqqiyotni ta’minladi, balki keyingi asrlarda ham iqtisodiy boshqaruv tajribasi sifatida qimmatli meros bo‘lib xizmat qildi. Temuriylar iqtisodiy tafakkurining asoslari – rejalilik, adolat, xalq manfaatini ustun qo‘yish, mulkchilik shakllarini huquqiy asosda tartibga solish kabi elementlar zamonaviy iqtisodiy g‘oyalarga ham yaqin turadi. Ayniqsa, xalqaro savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish va ilm-fan bilan iqtisodiyotni uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilish bu davrni Sharq uyg‘onishining iqtisodiy asosi sifatida qadrlash imkonini beradi. Temuriylar davri iqtisodiy merosi bugungi kunda ham tarixiy-tahliliy o‘rganish uchun boy manba hisoblanadi.

AMIR TEMUR HUKMRONLIK DAVRIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna,
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM doktoranti (DSc)., PhD.,

Amir Temur (1370-1405) hukmronlik davri O‘rta Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va madaniy rivojlanish bilan xarakterlanadi. Buyuk Sohibqironning markazlashgan davlatni yaratish, savdo-sotiqni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash va infratuzilmani yaxshilashga katta e'tibor qaratgan. Bu maqsadlarga erishishda soliq tizimi muhim rol o‘ynagan.

Amir Temur davridagi soliq tizimi davlat byudjetini to‘ldirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. O‘sha davrda soliq munosabatlari va soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid nazariy yondashuvlarni o‘rganish, Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosatini tushunish, soliq tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish va undan bugungi kunda foydalanish mumkin bo‘lgan saboqlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi Amir Temur hukmronlik davrida soliq munosabatlari va soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari esa Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosatini tushunish, soliq tizimining o‘ziga xos

xususiyatlarini ochib berish va undan bugungi kunda foydalanish mumkin bo‘lgan saboqlarni aniqlashga xizmat qilishiga ishonamiz.

Hammamizga ma’lumki, buyuk davlatchilikka asos solgan Amir Temurning hukumronlik tizimi davrida ham soliqlarning ahamiyati va ularni yig‘ish jarayoni, qolaversa, soliqqa tortish tamoyillari, soliq sifatida qaysi miqdordan qanchasini davlatning g‘aznasiga undirib olish lozimligi xususida mexanizm ishlab chiqilgan. Albatta, bu tamoyillar soliq bazasi tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanib, o‘sha davr xususiyatlarini qamrab olgan holda amal qilgan. Jumladan, Amir Temur davridagi soliq tizimi adolat, samaradorlik va iqtisodiy rag‘batlantirish tamoyillariga asoslangan edi. Soliqlar iqtisodiy faoliyat turlariga, mulkka va daromadga qarab belgilanar edi. Davlat soliq yig‘ishda qat'iy nazorat o‘rnatgan bo‘lsa-da, aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishga ham e'tibor qaratgan. Amir Temur "Tuzuklar"ida soliq yig‘uvchilarga adolatli bo‘lish, aholiga zulm qilmaslik va soliq to‘lash imkoniyatlarini hisobga olish haqida ko‘rsatmalar berilgan.

Ta’kidlash joizki, Amir Temur davrida turli xil soliqlar qo‘llanilgan bo‘lib , ular quyidagilar hisoblanadi[2]:

• Xiroj: Asosiy soliq turi bo‘lib, dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan soliq bo‘lib, uning miqdori yerning unumdorligiga, hosildorlik darajasiga va sug‘orish imkoniyatlariga qarab belgilgan.

• Zakot: Musulmon aholidan olinadigan diniy soliq bo‘lib, boylikning ma'lum qismini (odatda 2,5%) kambag‘allarga yordam berish uchun ajratishni nazarda tutgan.

• Tamg‘a: Savdo solig‘i bo‘lib, tovarlar aylanmasidan olinib, ichki va tashqi savdoda qo‘llanilgan va davlat daromadining muhim manbai hisoblangan.

• Jiziya: Musulmon bo‘lmagan aholidan olinadigan soliq bo‘lib, ularning davlat himoyasida ekanligini anglatgan.

• Soliq-ul-asbob: Hunarmandlardan olinadigan soliq sanalib, ularning ishlab chiqarish faoliyatidan keladigan daromadiga qarab belgilangan.

Bundan tashqari, favqulodda holatlar (urushlar, tabiiy ofatlar) yuzaga kelganda, vaqtinchalik soliqlar ham joriy qilingan.

Xususan, “Temur tuzuklari”da keltirilishicha: “Yana amr etdimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘sinlar. Agar raiyat ro‘yxatga olingan yerlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to‘lashga rozi bo‘lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g‘allaning mazkur davrdagi narxiga muvofiq belgilasinlar. Narx-navoga muvofiq olingan naqd aqchani sipohga yetkazsinlar. Bordiyu, raiyat hosilni uch to‘daga bo‘lishga rozi bo‘lmasa, u chog‘da hisobga olingan ekin yerlarni birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib ekin yer qilib ajratsinlar. Birinchi jaribdan olingan hosilning uch xarvori,

[2] Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - Toshkent: O'zbekiston, 2008.

ikkinchi jaribdan olinganining – ikki xarvori, uchinchi jaribdan olinganining bir xarvorini yig‘ib olsinlar. Buning yarmini bug‘doy, yarmini arpa hisoblab, uchga bo‘lib, ikkisini dehqonga qoldirib, birini olsinlar. Agar raiyat bu yo‘sinda soliq to‘lashga rozi bo‘lmasa, u holda bir xarvor bug‘doyiga besh misqol (misqol – og‘irlik o‘lchovi bo‘lib, bir qadoqning 84 dan bir qismi (taxminan 4,8 gr).) kumush, bir xarvor arpasiga ikki yarim misqol kumush miqdorida narx qo‘ysinlar” , – deya aytilgan[3].

Bundan ko‘rinadiki, temuriylar davrida ham soliqlarni yig‘ib olishda soliq bazasi aniq belgilab olingan, misol uchun, soliq bazasi sifatida jarib (bir jarib 958 kv metr hajmdagi yer) tushunchasidan foydalanishgan va undan xarvor, ya’ni bir eshak ko‘tara oladigan yuk, taxminan, 300 kg miqdorda soliq yig‘ilishi belgilab qo‘yilgan. Qolaversa, soliq imtiyozlari va yengilliklarini bazadan chegirib tashlanganining ham guvohi bo‘lamiz. Demak, o‘sha davr iqtisodiy tizimlarida ham soliq undirish uchun qanaqadir miqdor asos sifatida qaralgan ekani soliq bazasining muhim ahamiyatidan darak beradi.

Shuningdek, Amir Temur davrida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi quyidagi usullarga asoslangan holda olib borilgan[4]:

• Yer o‘lchash va hisoblash: Yerlarning maydoni, unumdorligi va hosildorligi maxsus o‘lchov birliklari yordamida aniqlangan. Dehqonchilik uchun yaroqli yerlar soliq solinadigan baza sifatida qabul qilingan.

• Mulkni ro‘yxatga olish: Mulkni ro‘yxatga olish (uy-joylar, chorva mollari, hunarmandchilik asboblari va boshqalar) soliq solinadigan bazani aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

• Daromadni hisoblash: Savdogarlar va hunarmandlarning daromadlari guvohliklar, savdo kitoblari va boshqa manbalar asosida aniqlangan.

• Baholash: Ba'zi hollarda soliq solinadigan ob'ektning qiymati ekspertlar tomonidan baholanar edi.

Yuqoridagilardan anglash mumkinki, soliq bazasini aniqlashda adolatli bo‘lish va aholining soliq to‘lash imkoniyatlarini hisobga olishga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Amir Temur davrida soliq munosabatlari va soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid nazariy yondashuvlar adolat, samaradorlik va iqtisodiy rag‘batlantirish tamoyillariga asoslangan edi. Soliq tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, soliq turlari, soliq bazasini aniqlash usullari, soliq yig‘ish jarayoni va soliq nazoratining tashkil etilishi Amir Temur davlatining iqtisodiy yuksalishiga muhim hissa qo‘shgan. Amir Temur davridagi soliq siyosati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini

[3]Темур тузуклари //Форсчадан| А,Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж; Б.Ахмедов тахрир. остида/.— Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991,— 144

[4] Bartold V.V. Turkiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2000.

yo‘qotmagan va soliq tizimini takomillashtirish, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun saboq bo‘lishi tayin.

TEMURIYLAR DAVRI SIVILIZATSIYASI UNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI VA TUTGAN O‘RNI

Beknazarov Axmadjon Asamiddinovich,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti, "Aniq va gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, professor,

Mo‘minov Muhammadjon Abdukarim o‘g’li,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

Amir Temur va temuriylar davri ya’ni XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr mamlakatimiz tarixida turli tarixiy-ijtimoiy jarayonlarga nihoyatda boy davr hisoblanadi. Aynan mana shu davrda O‘rta Osiyoda uzoq muddat davom etgan xo‘jalik va iqtisodiyotdagi vayrongarchiliklar tugatilib, mamlakat hayotining turli sohalarida rivojlanish yuz berdi. Buyuk lashkarboshi, davlat arbobi Sohibqiron Amir Temurning vatanimiz tarixida tutgan o‘rni asrlar osha mangulikka daxldor bo‘lib boraverdi. Amir Temur mo‘g’ullarning uzoq yillik istibdodiga barham berdi. Xalqimiz o‘z erkini qo‘lga kiritdi. Sohibqiron qudratli markazlashgan davlatni barpo etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2017 yil 30 iyunda "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida "Jismoniy va ma’naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir" nomli ma’ruzalarida shunday degan edilar: "Ma’lumki, tarixda xalqimiz orasidan ko‘plab buyuk sarkardalar etishib chiqqan. Ana shunday mard va fidoyi ajdodlarimizning harbiy sohadagi boy merosi, mardlik va jasurlik fazilatlari yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo‘lib hizmat qiladi.

Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur bobomizdek – u zot bironta jangda mag’lub bo‘lmagan – engilmas sarkarda va davlat arbobi jahon tarixida kamdan-kam topiladi. O‘z yaqinlari, zamondoshlari bu ulug’ siymoni Temurbek deb atagan ekanlar. Men shu haqda o‘ylaganimda, bir fikr xayolimdan hech ketmaydi. YUrtimizda yoshlarga harbiy ta’lim- tarbiya beradigan kursantlar maktablariga "Temurbeklar maktabi" deb nom bersak, nima deysizlar ?", deganlarida batamom xaq edilar. Albatta bunday xayrli ishlar Sohibqiron Amir Temur bobomizning ruhlarini shod etib, ezgu ishlarimizga kuch-kuvvat manbai bo‘lib, xizmat qilishi shak-shubhasizdir. Mamlakat obodonchiligi va xalq farovonligi yo‘lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Amir Temur Samarqand shahrining shon- shuhratini oshirishga katta e’tibor qaratdi. Shahar atrofida Bog’i Chinor, Bog’i Shamol, Bog’i Dilkusho, Bog’i Behisht, Bog’i Nav kabi o‘nlab ajoyib bog’-rog’lar barpo etdi. Shahar atrofida dunyoning mashhur shaharlarining Damashq, Misr, Sultoniya, Bag’dod, Sheroz

nomlari bilan qishloqlar barpo etdi.

Dunyo me'morchilik san'atining gultojisi bo'lgan osori-atiqalar – Go'ri Amir, Bibixonim, Zangiota, Hoja Ahmad Yassaviy maqbaralari, Oq Saroy va Shohi Zinda majmualari kabi ko'plab ziyoratgohlar hamda Amir Temurning sharit va tariqat peshvolariga nisbatan izzat-hurmati uning shaxsiyatining naqadar ulug'vorligini va daholik qudratini ko'rsatdi. Shuni aytish kerakki, xalqimiz tarixi, xususan, Amir Temur siymosi umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qilmoqda.

Movarounnahrda ro'y bergan bunday tarixiy-madaniy jarayonlardan Shahrisabz ham chetda qolmadi. Amir Temur o'zi tug'ilib o'sgan yurti sifatida Shahrisabzga ham nihoyatda katta e'tibor qaratib, bu erda ko'plab obodonchilik ishlarini olib bordi, madaniy-me'moriy inshootlar bunyod ettirdi. Shuning uchun ham Shahrisabz (Kesh) o'sha davrda "Qubbatul ilm val adab" degan nomga sazovor bo'ldi. O'rta asrlarda Kesh viloyatining o'zagini yoki markazini viloyatning shimoli- sharqida joylashgan Shahrisabz shahri va uni atrofi tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur bergan ma'lumotga qaraganda, mamlakat poytaxti Samarqanddan, Keshga qadar "to'qqiz yig'och" yo'l bo'lib, bu Ibn Arabshoh va boshqa mualliflar ma'lumotlariga mos keladi. Haqiqatdan ham "to'qqiz yig'och" ikki kunlik yo'l bo'lib, 80 km.dan ortiqroqdir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XV asrda Shahrisabz hududiy jihatdan unchalik katta bo'lmasdan, devor bilan o'ralgan qismi nuqtai nazaridan kichik shaharlar toifasiga kirsa ham, u bu shahar sayyohlar va zamondoshlarda katta taassurot qoldirgan. Xususan, Ispan elchisi Klavixo yirik inshootlar barpo etilgan Keshni "ko'pgina uylar va bog'lar quchog'ida" bo'lgan katta shahar deb ataydi. Qishloqlar va qaram mulklar bilan qo'shib hisoblaganda, o'rta asrlar manbalari ma'lumotlariga asoslansak, SHahrisabzning shahar atrofi hududlari eniga uch farsahga teng kelgan, ya'ni eniga va bo'yiga 20 km.ga yaqin bo'lgan. Amir Temurda 1370 yildan so'ng Samarqandni davlatning birinchi poytaxti va Shahrisabzni o'zining ikkinchi poytaxti hamda yozgi qarorgohi qilish to'g'risidagi fikrlar bir vaqtda paydo bo'lgan.

Yam-yashil bog'lar bag'rida bo'lgan Shahrisabz Amir Temur davrida O'rta Osiyoning eng go'zal shaharlaridan biriga aylandi. Amir Temur va temuriylar davrida Shahrisabz markaziy shahar sifatida rivojlangan bo'lib shimoldan janubga tomon cho'zilgan to'g'riburchakni aks ettirar edi. Markazda bosh ko'chalar bo'ylab cho'zilgan bozorlar bor edi. Shuningdek, XIV-XV asrlarda Shahrisabzda ko'plab diqqatga sazovor inshootlar barpo etildi. Amir Temur 1360-1361 yillar Kesh hokimligiga o'tirganidan boshlab, keyinchalik ham ulkan saltanat hukmdori sifatida o'zining ota yurti, o'z tug'ilib o'sgan yurti Keshga katta diqqat-e'tibor qaratishni susaytirmadi. 1360 yilda Temurning otasi Amir Tarag'ay vafot etadi va Keshda dafn etilib, keyinchalik unga maqbara bunyod etiladi. Temurning 1376 yilda halok bo'lgan to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzo va

1394 yilda halok bo‘lgan yana bir o‘g’li Umarshayxlar ham Shahrisabzda dafn etiladi. Sohibqiron davrida ham, undan keyin ham uzoq yillar Shahrisabzda asosan barlos urug’lari yashagan. Tarixdan ma’lumki, Amir Temur markazlashgan hokimiyatini yanada mustahkamlash maqsadida o‘ziga yaxshi qurollangan va qattiq intizomli qo‘shin tuzadi, bu qo‘shinning asosini esa barlos ulug’lari tashkil etar edi. Sohibqiron janglarda jasorat ko‘rsatgan barlos amirlari va askarlariga alohida iltifot ko‘rsatib turgan. Barloslar Kesh shahri va atrofida bo‘lajak yurishlar uchun tayyorgarlik ko‘rishgan.[5]

Yozma manbalar ma’lumotlari va olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, Amir Temur davrida Shahrisabz yuksak darajada rivojlandi, Oqsaroy, Jome’ masjidi, madrasa, xonaqo, maqbaralari bo‘lgan go‘zal, mustahkam bir shaharga aylanadi. Aniq reja asosida barpo etilgan ko‘chalari bo‘lgan hamda bu ko‘chalar savdo markazi, bozor, hammom kabilar bilan bog’langan. Bu shahar butun Kesh viloyati aholisi va chetdan kelganlarning diqqatini o‘ziga jalb etgan.

Bu davrda ayniqsa hunarmandchilikning nihoyatda rivojlanganligini kuzatish mumkin. Qazishmalar natijasida kulolchilik xumdonlari va kulolchilik buyumlari topilgan. Shahrisabzdagi bunday sopol idishlar namunalari yuksak hunarmandchilik mahorati bilan tayyorlangan. Me’morchilik inshootlarida ishlatilgan koshinlar o‘sha erda tayyorlangan. Shahar atrofida ham qurilish ishlari jadallik bilan borgan. SHahrisabzda Amir Temur va temuriylar davrida qurilgan barcha imoratlar SHahrisabzning umumiy rejasiga bog’liq ravishda joylashgan. Shahrisabz hisorining (shaharning ichki qismi) umumiy tarhi to‘rt darvozadan boshlanib, shimoldan janubga va sharqdan g’arbga tomon bir-birini xochsimon kesib o‘tgan hamda markazda bir-biri bilan belgilangan. O‘rta Osiyoning ayrim shaharlarida bo‘lganidek, ko‘chalar tutashgan markazda asosiy bozorning gumbazli rastasi joylashgan bo‘lishi ehtimol. SHahar bozorlari asosiy ko‘chalar yoqasi bo‘ylab darvozalarga qadar davom etgan bo‘lishi mumkin.

Amir Temur davriga qadar qurilgan umumshahar jome’ masjidi shaharning janubiy qismida, hunarmandlar, shu jumladan, charmgar (ko‘nchi)lar va kulollar mahallalariga yaqin joylashgan. Adabiyotlarda keltirilgan rivoyatlarga ko‘ra, Chorsudan shimolda joylashgan Jilovxona guzarida Amir Temur davrida podsholik otxonasi bo‘lgan. Mahalliy aholi fikricha, o‘sha paytda ikki eski hammom ham bo‘lib, XVIII asrda ular beklar mulki bo‘lgan. Biroq ma’lumotlarga qaraganda, bu hammomga go‘yoki XII asrda Minorai Kallonni bunyod ettirgan Arslonxon tomonidan asos solingan.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, uning yoshi XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda bunyod etilgan Sarrofon hammomidan katta. SHahrisabz hammomining sahni yondosh ko‘chaning yuzidan ancha past, shuning uchun

[5] Amir Temur jahon tarixida. – T., 1996.

butun bino qurilgan paytidan buyon hosil bo‘lgan madaniy qatlam ichra ko‘milgandek tuyuladiki, bu ham uning qadimda bunyod etilganidan guvohlik beradi.

Qabristonlar asosan shahar darvozasidan tashqarida bo‘lgan. Ularning eng kattasi Qarshi yo‘lining ikki tomonida joylashgan bo‘lib, Xoja Sayyid Hamadoniy mozori deb ataladigan bu qabriston qadimgi qabrtoshlar va gumbazsimon sag’analar uchraydi. Ulardan ba’zilarini qurishda kichik g’ishtlar ishlatilgan. Mahalliy ahamiyatga ega maqbara Xisor ichida bo‘lib, shaharning janubi-sharqiy qismida, katta jome’ masjid yaqinida joylashgan. Bu eski go‘riston maydonida XV asrga oid kul rang va oq marmar qabrtoshlar sochilib yotibdi. Ular go‘zal o‘yma bitiklar va naqshlar bilan bezatilgan, qabr toshtaxtalar ko‘pining yozuvi o‘chirilib, XVI va XVII asrlarda ulardan qayta foydalanilgan. Ma’lumki, Kesh-Shahrisabzning gullab-yashnashi ulug’ davlat arbobi va sarkarda Amir Temur nomi bilan bog’liqdir. Shaharning bunday nom bilan atalishi unda ko‘p sonli daraxatlar va gulzorlarning mavjudligi bilan tushuntiriladi. XIV-XV asrlarda shahar to‘rtburchak shaklida bo‘lib, bir nechta darvozalarga, Samarqand darvozasidan Termiz darvozasi tomon o‘tgan markaziy ko‘chaga, markaziy maydon – Registonga va bozorlarga ega bo‘lgan. Shahar o‘zining me’moriy obidalari bilan mashhur bo‘lgan. Zodagonlar va ruhoniylar guzari yaqinida Oqsaroy, shahar markazida Chorsu, shaharning janubi-sharqiy qismida Dorussaodat me’morchilik majsmui va Ko‘k Gumbaz masjidi joylashgan. Shahar yirik ma’muriy va savdo markazi ham bo‘lgan.

Arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, Shahrisabz o‘zining eng gullab-yashnagan davri – XV asrda zich qurilgan, obod shahar bo‘lib, go‘zal binolar va bo-bog’bonlarga ega edi. Bunga Klavixo ham o‘z e’tiborini qaratadi: “Ushbu shahar tekislikda joylashgan. Uning barcha tomonlaridan ko‘plab irmoqlar va kanallar oqib o‘tib, shahar ko‘p sonli bog’lar va uylar bilan o‘ralgan”[6].

Shuni aytish kerakki, Amir Temurning Turkiston diyorini bosqinchilardan ozod qilish yo‘lidagi jasur harakatlari aynan shu yurtdan boshlanganligi hammamizga yaxshi ayondir. Demak, Amir Temur bobomiz o‘z oldida turgan barcha ulug’vor ishlarni aynan ana shu Keshga tayangan holda amalga oshirgan. Darhaqiqat, ana shunday buyuk xizmatlari uchun, qolaversa, buyuk sohibqironni voyaga etkazgan yurt qadimiy Kesh shahri 1996 yil 28 avgustda Shahrisabz shahri Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlandi. 1996 yil 18 oktyabrda Shahrisabzda Amir Temur haylakalining ochilishi marosimi bo‘lib o‘tdi.

Oq saroy binosi XIV-XV asrlarga oid yodgorliklar orasida eng yirik va nodir obida hisoblanadi. Bino Amir Temur va temuriylar davrida ham, hozirgi kunda ham Kesh-SHahrisabzga keluvchilarning diqqat-e’tiborini tortib kelgan.

[6] Klavixo G. Istoriya Velikogo Tamerlana. Sb. Tamerlan Epoxa. Lichnost, Deyanie. –M., 1997

Oq saroy bunyod etilgan davrdan boshlab juda ko‘plab sayyohlar o‘z kundaliklarida bu muhtasham bino haqida eslatib o‘tganlar. Oqsaroy binosi qurilishining boshlanishi 1380 yilning birinchi yarmiga to‘g’ri keladi.

Oqsaroy binosining kirish peshtoqining ikkita ulkan ustuni sirlangan mozeyka va betakror o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Bu erdagi geometrik va tabiiy naqshlar etti xil rangda tanlangan bo‘lib, xalq orasida “haft rangi” deb nomlanadi. Unda “Agar bizning kuch- qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq!”, degan mashhur xitobnoma ham bor. Bu xitobnoma Amir Temur nomidan yozilgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida Sohibqironning qudrati va kuchidan hamda me’morlarning hukmdorlar buyrug’ini bajaryotgan paytdagi yorug’ fikrliligi, ma’naviy boyligi va didligidan dalolat beradi. Ushbu matn ham yirik arab yozuvtda, “Suls” uslubida bitilgan. Shuningdek, bu erda Amir Temurni turli maqtov so‘zlar bilan ulug’lovchi matnlar ham bor. Oqsaroyning dastlabki ko‘rinishlari haqida ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo qiziqarli ma’lumotlar beradi: “Ertasiga, juma kuni (1404 yil 29 avgust) elchilarni podshoning buyrug’i bilan bunyod etilgan katta saroyga olib bordilar. Aytishlaricha, bu erda ustalar yigirma yildan bunyo har kuni ishlashar ekan. Hatto hozir ham ko‘p ustalar ishlab turibdi.

Saroyningn kirish yo‘li juda uzun va darvozasi ham juda baland. Kirish joyida, o‘ng va chap tomonda koshinlar va turli naqshlar bilan bezatilgan g’ishtin arklar qad ko‘targan. Arklar tagida eshiksiz kichik xonalar bo‘lib, ularning sathi koshinlar bilan qoplangan. Bu erda xonalar shunchalik ko‘pki, ularni birdaniga tasvirlashning iloji yo‘q. Bu erdagi bezash ishlarining barchasi oltin, lojuvard va qimmatbaho toshlardan qilinganki, bunga hatto Parijning mohir ustalari ham qoyil qolishi mumkin.

Klavixo ma’lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Oqsaroy rejaviy tuzilishi, qurilishi va foydalanilishi nuqtai nazaridan o‘zaro bog’liq bo‘lgan uch qismdan iborat bo‘lgan. Kirishda ma’muriy boshqaruv qismi, qabulxona va turar joy xonalari bo‘lgan saroy va bog’ xiyoboni qismlardir. Saroy an’anaviy asosda, ya’ni cho‘zilgan to‘g’ri burchakli, timlar (ayvonlar) bilan o‘ralgan hovlida qad ko‘targan. Saroy hovlisining eni 120-125 m., uzunligi esa saqlanib qolgan mikrorelefga qaraganda, 240-250 m.ni tashkil etadi. Kirish peshtoqi ustunlarining ulkan qoldiqlari Oqsaroyga o‘xshagan ulkan bino Yaqin va O‘rta Sharqda bo‘lmaganligining dalilidir.

Hozirgi kunga qadar Oqsaroy binosi hovlisiga qoplangan koshinlar, bunchalik keng hovli bo‘ylab birorta ham saroyda uchramaydi. Samarqanddagi Ko‘ksaroy, Hirotdagi Boshi Shahar saroylari ham Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bo‘lib, davlat boshqaruv joyi hisoblangan. Ammo ular Oqsaroy kabi birinchi darajali ahamiyatga ega emas edi.

TEMURIYLAR DAVRIDA MINGTEPA QISHLOG'I

Xusanova Shaxloxon Artikaliyevna,
"Kukand university" Andijon filiali t.f.f.d. (PhD)

Temuriylar davrida Mingtepa qishloq sifatida Marg'ilon bekligi tarkibida bo'lgan. Mingtepa qishlog'i Andijon shahri markazidan 38 km janubiy-sharqda, Marg'ilon shahri markazidan 68 km sharqda joylashgan. O'rta asrlar davrida Mingtepa qishlog'i joylashgan o'rni haqida adabiyotlarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. O'rta asrlar tarixiga oid arab tilidagi manbalarda Mingtepa qishlog'i Ershi atamasi bilan bog'liq bo'lib, Urasht nomi bilan qisqa ma'lumotlar keltirib o'tilgan. "Hudud al-Olam" asarida "O'sh daryosi O'sh va O'rasht oralig'idan oqib o'tib, O'zgan daryosiga quyiladi", "O'rasht va Xirsob shaharlari oqar suvlari, yalangliklari bor, noz-ne'mat bisyor, havosi sog'lom", deya ta'rif berilgan[7]. V.P.Salkovning "Андижанское восстание в 1898 году" asarida ilk bor Mingtepa yaqinidagi Aravon qoyatosh suratlari haqida ma'lumot berib o'tadi. Jumladan, "Agar siz Andijon shahridan viloyatning Marg'ilon shahriga boradigan pochta yo'lidan chap tomonga, Quva pochta bekatidan to'g'ri sharqqa yo'l olsangiz, To'lmozor qishlog'i orqasidan bir tekislikka chiqasiz. Bir soatlik yo'ldan keyin tor dara bo'ylab Polvontosh degan qishloq boshlanadi. Bu yerdan sholi, paxta, juxori, yoncha, makkajo'xori dalalari bilan qoplangan ajoyib vodiy boshlanadi. Uning uzunligi 20 verstdan oshmaydi. Bu yo'l Polvontosh qishlog'idan boshlanib, Aravon darasi bilan tugaydi. Mana, bitta qoyada otlarning tasvirlari bor. Bu vodiyning deyarli qoq markazida, yangi Marg'ilon va kichik O'sh shaharlari o'rtasida joylashgan, har xil meva, uzumlar yetishtiriladigan ajoyib yam-yashil bog'lar orasida shuhrat qozongan Marg'ilonning Mingtepa qishlog'idir"[8].

Boburiylar davlati asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning Andijonda hokimlik qilgan yillari Mingtepa qishlog'i Bobur davlati tarkibida bo'lgan. Bobur Mirzo 1498-yilda Samarqanddan qaytgandan so'ng Andijonni egallab olgan Ahmad Tanbal va Uzun Hasanga qarshi harakatlarni olib boradi. Janglarda Mingtepaning va Aravonning "Ashpori", "To'riqshor", "Chokrak" kabi tog'li hududlaridan yigitlar ham ishtirok etadi[9]. Bundan tashqari, Bobur Mirzo 1502- yilda Sariqbosh Mirza boshchiligidagi qo'shin bilan Ahmad Tanbal ixtiyoriga o'tib ketgan Quvani egallaydi. So'ng Mingtepa atrofidagi Oloy tog'i orqali O'shga borib, u yerni ham qo'lga kiritadi. Mingtepa qishlog'i xalqi ham o'shliklar va o'zganliklar qatori Bobur Mirzoning yana taxtni egallashidan mamnun edilar. Bu "Boburnoma" asarida quyidagicha yoritilgan:

---

[7] Ҳудуд ал-олам. (Моваро́уннаҳр тавсифи). /Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О.Бўриев. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – Б. 9, 16.

[8] Сальков В.П. Андижанское восстание в 1898 году. – Казань: Типо-литография Императорского университета, 1901. – С. 3–7.

[9] Жалилов С. Бобирнинг Фарғона давлати. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 43.

"Xo'qon mulkidan o'tib, Quboni bosib olib, Olayluq mulki orqali O'sh ustiga jadal yurdik. Sahar vaqti O'sh qo'rg'oniga yetganimizni el sezmay qoldi. O'sh eli chora topolmay, O'shni bizga topshirdilar. Zotan, viloyat eli bizni ko'p tilar edilar. Tanbaldan qo'rqqanlaridan va bizning yiroqligimizdan chora topolmasdilar. O'shga kirgach, Andijonning sharq va janubidagi tog' va tekisliklar, el va uluslar butunlay bizga qaradi"[10]. Shu tariqa Mingtepa qishlog'i Andijonni tark etguniga qadar Boburmirzoning hukmronligi ostiga o'tadi.

Mingtepa qishlog'i o'zining chopqir tulporlari, turli mevalari, ayniqsa uzum mevasi bilan dunyoga tanilgan. Temuriylar davrida ham mingtepaliklar uzum sharoblariyu, chopqir otlarni yetishtirgani haqiqatga yaqin. Sababi, qadim Farg'ona (Davan) davlatining poytaxti bo'lgan Mingtepa shahri miloddan avvalgi IV asrdanoq uzumchilikda va uchqur otlarni yetishtirishda hamda eksport qilishda dunyoga dong'i ketgan edi. Bugungi kunga kelib ham ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan uzumchilik an'anasi asrlar osha mingtepaliklarning asosiy mashg'uloti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mingtepaliklar uzum mahsulotlari, uchqur tulporlari bilan temuriylar davrida ham ichki va tashqi savdo munosabatlarini olib borilishida o'z xissalarini qo'shib kelganligi o'rganilgan ma'lumotlar orqali ma'lum. Boburmirzoning Andijonni qayta egallashida ham mingtepaliklarning ishtiroki manbalarda keltirib o'tilgan. Temuriylar davrida, xususan Bobur hukmronligi davridagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar Mingtepa qishlog'i hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

«TEMUR TUZUKLARI» — ADOLAT HAMDA XALQPARVARLIK TIMSOLI SIFATIDA

Xolmatov Habibullo Hamidullayevich,
Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Amir Temur o'z oldiga ulug' davlatning ichki siyosati va markazlashgan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo'jalikni oyoqqa turgazish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir meyorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivoj berish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan edi. Uning bunday sa'y-harakatlari katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo'lib, u o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

[10] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: O'qituvchi, 2008. – Б. 90.

Albatta ma'naviy ildizlarimizdan biri bu Amir Temur ma'naviyatidir. "Temur tuzuklari" qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo'q markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish bilan, yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, "Temur tuzuklari"hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz faqat hozirgi kunga kelgandagina bu ma'naviyatni naqadar zarur ekanligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrli ekanligini anglamoqdamiz.

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, «eng yaxshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilangina emas, ikki qo'li bilan ham yaxshilik qiladi», degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do'stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo'li bilan yaxshilik qildi. qolganlarni ham shunga undadi. «Tuzukot» da ham, tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarkandiy, Davlatshoh Samarqandiy asalarida ham, de Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Temur o'z faoliyati davomida Olloh buyurgan oliy insoniy fazilatlarga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: «... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yillik (yaxshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo'lsin». Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor albatta xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi[11].

Bugungi kundagi xalq qabul xonalari Sohibiqiron Amir Temur davrida ham mavjud edi. Amir Temurning «Kuch-adolatda» degan so'zi haqiqatda shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olganligini shohidi bo'lishimiz mumkin. Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy qilgan. Arzbegi shikoyat, arizalarni ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususda kengashga xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'i nazar qattiq jazolangan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib-qoida o'rnatilgan. Rus sharqshunosi D.N. Logofet bu xususda shunday deb yozadi: «... biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad soliqi degan narsa uning (Temurning) hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi»[12].

Temur ma'naviyati ulkan manba va tuganmas bir buloqdir. Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda, milliy mafkura g'oyalarini fuqarolarimiz ongiga singdirishda bu manbaning ahamiyati beqiyosdir. Temur ma'naviyatining bizga o'rgatuvchi, saboq bo'lguvchi joylari juda ko'pdir. Zero, bu ma'naviyat-bobokalonlarimizning bebaho ma'naviy boyligining bir bo'lagi bo'lib, yurtimiz ravnaqi va porloq kelajagi uchun hamisha xizmat qilajakdir.

[11] Temur tuzuklari. "Fan" nashriyoti. 2000 yil.
[12] Alixon To'ra Sog'uniy. Turkiston qayg'usi. "Sharq" NMIU. 2005 yil.

Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo‘lmasa, betakror ma’naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo‘lmasdi. O‘zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o‘z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o‘z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning «Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim» degan so‘zlari buning yorqin dalilidir». Temur o‘zining hayoti davomida harbiy iste’dodi, mohir sarkardaligi, diplomatliligi va yetuk davlat arbobi bo‘lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug’orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Sohibqiron turk-mo‘g’ul an’analariga amal qilgan holda o‘z davlati hududlarini suyurqol (ulus) tariqasida in’om qilish yo‘li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrdan tashqaridagi yerlarini to‘rt ulusga bo‘lib, farzandlariga in’om etdi. Bu masalaning e’tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan bo‘lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo‘lsalar-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo‘ysundilar. Temurning o‘ta yuqori darajadagi zukkoligini shundan bilsa bo‘ladiki, u uluslar o‘rtasida o‘zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o‘zi nazorat qilib turadi.

Temur davlatining eng ko‘zga ko‘ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo‘lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to‘rtta sifatga ega bo‘lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi-asllik, toza nasllilik, ikkinchisi-aql-farosatlilik, uchinchisi-sipohu raiyat ahlidan xabardorlik, to‘rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma’muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to‘rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig’ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta’minlash, saroy xarajatlari bilan boqliq bo‘lgan ishlarni bajarganlar.

Bu davrlarda yerga egalikning ba’zi turlari mavjud bo‘lib, ular suyurg’ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olganlar, davlatga soliq to‘lashda ba’zi imkoniyatlarga ega bo‘lganlar, vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo‘lib, ular soliq to‘lashdan ozod qilganlar. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad soliqi-xiroj bo‘lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo‘lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog’ ko‘kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o‘zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil

umuman to‘lamagan) qonun doirasida xiroj soliqi olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo‘lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to‘plangan. Soliq to‘plovchi soliq yig’ish jarayonida soliqni yaxshi so‘zlar bilan to‘plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o‘rniga keng e’tibor berdi. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shuday degan edi: «Yevropa na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas». «Davlat ishlarini, — deb yozgan edi Amir Temur, — saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To‘ra va tuzukka tayanib saltanatda o‘z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim»[13].

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e’tibor berdi. Dastlab, Samarqandni poytaxt qilib olgach, u juda katta imtiyozlarga ega bo‘lgan shaharga aylanadi. Sohibqiron harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokorlar, me’morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Xatto g’ariblarga oziq-ovqat beradigan g’aribxonalar, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So‘zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma’muriy bino Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar ham aynan shu yerda quriladi. Temur noyob qurilishlardan tashqari Samarqand atrofida o‘zining xeshu aqrabolariga atab turli go‘zal bog’lar qurdirardi.

Temur ulkan sohibqiron sifatida o‘zining ona yurti Keshga katta diqqat-e’tibor bilan qaradi. Yozma manbalardagi ma’lumotlariga qaraganda, Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy, jome’ masjid, madrasalar barpo ettiradi. Sohibqirondagi ulug’ sahovatning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrini ham obodonchiligiga keng e’tibor berdi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko‘chmanchi va o‘troq aholi orasidagi munosabatni yaxshi yo‘lga qo‘yish, urug’lar o‘rtasida tinchlik saqlash maqsadi yotgani ma’lum.

Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o‘tmoq lozim. Temurning sa’yi-harakatlari bilan Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrlarda hunarmandchi-likning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sohibqiron savdo yo‘llari rivojiga, uning

[13] Axmedov B. Amir Temur darslari. “Sharq” NMAK. 2001 yil.

tinchligiga keng e'tibor berib bordi. Shaxsan o'zining nazorati ostida savdo yo'llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minladi.

Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo'naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham kuch keng yo'lga qo'ydi. Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yo'lga qo'ydi. U davr shart-sharoitlariga ko'ra tashqi siyosatda qat'iy, faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga chiqara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabalaridan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. Shunday qilib u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib o'z davlati shuhratini Yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatini dovrug'i bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalarida uning o'g'li Mironshoh ko'p yordam bergan. Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. Sohibqiron o'z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvodor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o'z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.

O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy taraqqiyotida Temurning diniy va dunyoviy bilimlariga e'tibor berishi katta ahamiyatga ega edi. Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamo bilan suhbatda bo'lib, qalbi toza kishilarga talpingan. Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'z davriga nisbatan o'ta darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarildi. Shu davrning nodir qo'lyozmalari tarixning mo'jizasiga aylanib qoldi.

TEMURIYLAR DAVRIDA IQTISODIY TIZIM

Karimova Iroda Abdusattarovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o'qituvchisi.
Qobilov Javohir Qobil o'g'li talabasi,

Temuriylar davri O'rta Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va madaniy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biridir. Amir Temur markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etib, yer egaligi va soliqlarni tartibga soldi, savdo va hunarmandchilikni rivojlantirdi hamda Buyuk Ipak yo'lining faoliyatini tikladi. Shuningdek, bu davr ilm-fan va san'at gullab-yashnagan bosqich bo'lib, Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi, Alisher Navoiyning adabiy islohotlari va Kamoliddin Behzod miniatyura san'atining rivoji bunga

yorqin misoldir. Ushbu maqolada Temuriylar davlatining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

1.Temuriylar davrida iqtisodiy tizim: Yer egaligi va agrar tizim. Temuriylar davlati iqtisodiyotining asosiy tayanchini agrar sektor tashkil etgan bo‘lib, davlat daromadlarining katta qismi qishloq xo‘jaligidan tushadigan soliqlarga bog’liq edi. Amir Temur o‘z davlatida yer egaligi tizimini qat’iy tartibga solib, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish uchun irrigatsiya inshootlarini qurish va mavjudlarini ta’mirlash ishlarini yo‘lga qo‘ydi. *Temur tuzuklari*da uning yerga egalik va soliqqa oid qoidalari aniq bayon etilgan bo‘lib, ushbu tizim XV asr davomida ham Temuriylar tomonidan davom ettirilgan. Temuriylar davlatida yer egaligi uch asosiy shaklda bo‘lgan: **Davlat yerlari: Sharafiddin Ali Yazdi**ning *Zafarnoma* asarida keltirilishicha, Samarqand va uning atrofidagi eng hosildor yerlar bevosita xazina tasarrufida bo‘lib, bu yerdan tushgan daromad poytaxt infratuzilmasini rivojlantirish va harbiy yurishlarni moliyalashtirish uchun ishlatilgan. **Mulk va soyurg’ol yerlari:** Mulk yerlari asosan davlat xizmatidagi yirik sarkardalar va amaldorlarga berilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi ushbu yerlarni unumdorligini oshirish va o‘z qo‘shinlarini moliyalashtirish edi. *Soyurg’ol* esa maxsus xizmatlar evaziga berilgan yer mulki bo‘lib, uning egalari odatda harbiy zodagonlar va davlat amaldorlari bo‘lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur harbiy xizmatda fidokorona xizmat qilgan sarkardalar va amaldorlarga soyurg’ol sifatida unumdor yerlardan ulush ajratgan.

Qishloq xo‘jaligi va sug’orish tizimi: Temuriylar davrida qishloq xo‘jaligining samaradorligini oshirish uchun sug’orish tizimiga alohida e’tibor qaratilgan. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida yangi ariqlar va kanallar qurilgan, eski sug’orish inshootlari esa ta’mirlangan. Masalan: **Samarqand atrofida Darg’om kanali kengaytirilib, dehqonchilik maydonlari oshirilgan. Hirot vodiysida yangi sug’orish tizimlari barpo etilgan bo‘lib, bu yerdagi bog’dorchilik va uzumchilik yuksak darajada rivojlangan. Buxoro va Xorazmda ko‘plab yerlar dehqonchilikka moslashtirilgan.** Irrigatsiya tizimining rivojlanishi natijasida bug’doy, arpa, paxta, ipakchilik va bog’dorchilik bilan shug’ullanish hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. **Soliq tizimi:** Temuriylar davridagi iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri soliq tizimining aniq va qat’iy tartibga solinganligi edi. Soliqlar uch asosiy shaklda bo‘lgan: **Xiroj** – dehqonchilik bilan shug’ullanuvchilardan olinadigan yer solig’i. **Jizya** – musulmon bo‘lmagan aholidan olinadigan soliq. **Bojxona soliqlari** – savdogarlar va karvon yo‘llari bo‘ylab olib boriladigan tovarlardan olinadigan bojlar. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur soliqlarni haddan tashqari oshirishga qarshi bo‘lib, *Temur*

tuzuklari da soliqlarning aholini qiynamaydigan darajada belgilanishi lozimligi ta'kidlangan.

Savdo va hunarmandchilik: Temuriylar davlati savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e'tibor bergan bo'lib, bu jarayon Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari orqali kengaygan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Hirot va Marv kabi shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylangan. **Xalqaro savdo aloqalari:** Temuriylar davrida xalqaro savdo yo'llari faol ishlagan bo'lib, davlat Xitoy, Hindiston, Eron, Oltin O'rda va Usmonli imperiyasi bilan keng ko'lamli savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. **Xitoy**dan ipak va chinni mahsulotlari olib kelingan, evaziga yurtimizdan otlar, gilamlar va metallar eksport qilingan. **Hindiston** bilan savdoda ziravorlar, qimmatbaho toshlar va ipak matolar muhim o'rin tutgan. **Eron va Usmonli imperiyasi** bilan savdo aloqalarida asosan qurol-yarog', to'qimachilik mahsulotlari va keramik buyumlar almashilgan. **Oltin O'rda va Rossiya hududlaridan** asosan mo'yna va g'alla mahsulotlari keltirilib, evaziga hunarmandchilik buyumlari, paxta va ipak matolar yetkazib berilgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur 1402-yilda **Anqara jangi**da Usmonli sultoni **Boyazid I** ustidan g'alaba qozongach, **Bursa, Damashq va Bag'dod shaharlaridan** minglab mohir hunarmandlarni Samarqandga olib kelgan. Bu hunarmandlar to'qimachilik, kulolchilik, metallga ishlov berish va qurilish sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan (*Ibn Arabshoh, "Ajayib al-maqdur"*) **Savdo markazlari va karvonsaroylar:** Temuriylar davrida Samarqand, Hirot, Buxoro, Toshkent va Termiz shaharlari Markaziy Osiyoning eng yirik savdo markazlariga aylangan. Ayniqsa, **Samarqand** poytaxt sifatida ulkan bozorlar va **karvonsaroylar** markaziga aylangan. **Abdurazzoq Samarqandiy**ning *Matla'us-sa'dayn* asarida yozilishicha, Samarqand bozorlari Sharq va G'arb o'rtasida muhim tijorat markazi bo'lib xizmat qilgan.

Hunarmandchilik va sanoat tarmoqlari: Hunarmandchilik iqtisodiyotning muhim qismi bo'lib, **quyidagi asosiy sohalar rivojlangan**:

1. To'qimachilik: Samarqand, Buxoro va Hirotda ipak va paxtadan mato ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. **Ibn Battuta** yozishicha, Samarqand ipak matolari o'z sifati va nafisligi bilan ajralib turgan va Xitoy hamda Hindistonga eksport qilingan.

2. Kulolchilik: Termiz, G'ijduvon va Samarqandda ishlab chiqarilgan **sopol buyumlar** nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorlarda ham yuqori baholangan. Hirotda ishlab chiqarilgan **sirlangan keramika** o'sha davrning eng sifatli mahsulotlaridan bo'lgan.

3. Metallga ishlov berish: Qurol-yarog' ishlab chiqarish va zargarlik hunarmandchiligi rivojlangan. **Samarqand va Hirotda** ishlab chiqarilgan qilich, xanjar va bronza idishlar Osiyo va Yevropa bozorlarida katta talabga ega

bo‘lgan. Temuriylar davrida **"Samarqand po‘lati"** sifatli qurollar uchun mashhur bo‘lgan.

4. Zargarlik: Buxoro, Samarqand va Toshkentda ishlab chiqarilgan qimmatbaho metall buyumlari – tillo, kumush va yoqut bilan bezatilgan taqinchoqlar xalqaro savdoda katta qiymatga ega bo‘lgan.

Savdo va bojxona siyosati: Savdo yo‘llarining rivojlanishi davlatning qat’iy **bojxona siyosati** bilan qo‘llab-quvvatlangan. Har bir shahar va bozor boj yig’imlari tizimiga ega bo‘lib, bu davlat xazinasini boyitishda muhim rol o‘ynagan. **Amir Temur** savdogarlar uchun maxsus imtiyozlar yaratgan bo‘lib, ular orqali: Karvon yo‘llari xavfsizligi ta’minlangan. Savdogarlar uchun **soliq imtiyozlari** joriy qilingan. Karvonlarni himoya qilish uchun maxsus harbiy qismlar ajratilgan.Shuningdek, Temuriylar davlatida maxsus **savdo vakillari** tayinlanib, ular xalqaro tijorat aloqalarini mustahkamlash uchun xizmat qilgan.

2. Temuriylar davridagi ijtimoiy tuzilma va davlat boshqaruvi: Temuriylar davlati qat’iy tabaqalashtirilgan ijtimoiy tuzilishga ega bo‘lib, harbiy zodagonlar, savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar va chorvadorlardan iborat edi. Bu tizim "Temur tuzuklari" asosida shakllangan bo‘lib, har bir tabaqaning huquq va majburiyatlari aniq belgilangan.

Harbiy zodagonlar va davlat amaldorlari Temuriylar davlatida harbiy tabaqa muhim rol o‘ynagan. Amirlar yirik harbiy va ma’muriy boshqaruvni olib borgan. Beklar va noiblar viloyatlar boshqaruviga mas’ul bo‘lib, soliqlar yig’ish va tartibni saqlash vazifasini bajargan. Sipohiylar davlat xavfsizligi va harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Amir Temur harbiy zodagonlarning sadoqatini soyurg’ol yerlari va imtiyozlar orqali ta’minlaganini qayd etadi. Savdogarlar va hunarmandlar Savdo-sotiq va hunarmandchilik davlat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li orqali xalqaro savdo rivojlangan. Savdogarlar xalqaro va ichki bozorlarda faoliyat yuritib, davlat xazinasiga katta daromad keltirgan. Hunarmandlar esa to‘qimachilik, kulolchilik, metallga ishlov berish kabi sohalarda faoliyat yuritgan. Amir Temur Anqara jangi (1402) dan so‘ng Bursa, Damashq va Bag’doddan hunarmandlarni Samarqandga olib kelib, iqtisodiy rivojlanishga turtki bergan (Ibn Arabshoh, "Ajayib al-maqdur"). Dehqonlar va chorvadorlar Agrar iqtisodiyotning asosiy tayanchi dehqonlar va chorvadorlar bo‘lib, ular oziq-ovqat bazasini ta’minlagan. Dehqonlar yerga ishlov berib, hosildan xiroj va zakot to‘lagan. Chorvadorlar ot, qo‘y va tuya boqish bilan shug’ullangan. Klavixo Samarqand atrofida yirik sug’orish tizimlari yaratilganini yozib qoldirgan.

Davlat boshqaruvi tizimi: Amir Temurning boshqaruvi markazlashgan monarxiya tamoyillariga asoslangan bo‘lib, harbiy intizom, adolat va tartib muhim rol o‘ynagan. Markaziy hokimiyat – Amir Temur barcha qarorlarni shaxsan qabul qilgan. "Temur tuzuklari"da davlatning barqarorligi adolatga

asoslanishi ta'kidlangan. Devon tizimi – Ma'muriy boshqaruv maxsus devonlar orqali amalga oshirilgan. Ularga moliya, soliqlar, harbiy va adliya ishlari yuklatilgan. Harbiy-boshqaruv tizimi – Harbiy kuch o'nlik, yuzlik va minglik tizimi asosida tashkil etilgan bo'lib, bu boshqaruv tizimida ham qo'llanilgan. Viloyatlar boshqaruvi – Har bir viloyat amir yoki noib tomonidan boshqarilgan. Ular soliqlar yig'ish, adolatni ta'minlash va tartibni saqlashga mas'ul bo'lgan. Ibn Arabshoh yozishicha, Temur har bir viloyat boshqaruvchisidan adolat tamoyillariga amal qilishni talab qilgan. Temuriylar davlati Movarounnahr, Xuroson, Farg'ona vodiysi, Kichik Osiyo va Kavkazni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning iqtisodiy va strategik ahamiyati yuqori bo'lgan. "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi, soliqlar va sud-huquq tizimini aniq belgilab bergan bo'lib, bu davlatning mustahkamligiga xizmat qilgan. **Sud-huquq tizimi va adolat tamoyillari:** Amir Temur davlatida **adolat** eng muhim boshqaruv tamoyillaridan biri bo'lib, u huquqiy tizimni mustahkamlash uchun maxsus sud tizimini joriy etgan. **Qozilar sudi** – Islom huquqi (shariat) asosida fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqqan. **Harbiy sud** – asosan harbiy jinoyatlar va davlatga qarshi jinoyatlar bilan shug'ullangan. **Maxsus devon** – iqtisodiy va mulkiy nizolarni hal qilgan. Amir Temur o'z farmonlarida sud-huquq tizimida **adolat** tamoyillariga rioya qilishni qat'iy talab qilgan. Unga ko'ra: Har qanday huquqbuzarlik tezkor va qat'iy jazolangan. Amaldorlarning poraxo'rligi va mansabni suiiste'mol qilishi og'ir jazolangan. Odamlarning mulk huquqlari qat'iy himoyalangan (*"Temur tuzuklari"*).

Ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo o'z esdaliklarida Temurning sud tizimi haqida shunday yozgan: *"Temur shunday qattiq tartib o'rnatganki, har bir fuqaro o'z mulkiga egalik qilish huquqiga ishonch bilan qaraydi. Hech bir amaldor yoki amir oddiy odamning moliga yoki yeriga da'vo qilolmaydi."*

3. Temuriylar davrida madaniy hayot: Temuriylar davri O'rta Osiyo tarixidagi **madaniy yuksalish** davri bo'lib, bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik yuqori bosqichga ko'tarilgan. Ayniqsa, Amir Temur va uning avlodlari ilmiy markazlar, madrasalar, kutubxonalar qurish va san'atni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Ilm-fan va ta'lim tizimi: Temuriylar davrida **ta'lim va ilmiy taraqqiyot** davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Samarqand, Hirot va Buxoro kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlariga aylandi.

Mirzo Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi: Mirzo Ulug'bek (1394–1449) nafaqat buyuk hukmdor, balki ilm-fan homiysi sifatida ham tarixga kirgan. Uning rahbarligida **Samarqand rasadxonasi** barpo etilgan bo'lib, bu yerda dunyoning eng ilg'or astronomik tadqiqotlari olib borilgan. **Ulug'bek Zij jadvali** – bu jadvalda **1018 ta yulduzning joylashuvi** aniq hisoblab chiqilgan va bu ish keyinchalik Yevropa astronomiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ulug'bek rasadxonasi ilmiy markaz sifatida Sharq ilm-fan

taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Bu yerda Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi olimlar faoliyat yuritgan.

Alisher Navoiy va Temuriylar davridagi adabiyot: Temuriylar davri adabiyoti o‘zining boyligi va ko‘lamdorligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Alisher Navoiy (1441–1501), Abdurahmon Jomiy (1414–1492) kabi buyuk mutafakkirlar ijod qilgan. **Alisher Navoiy** – o‘zining **“Xamsa”** dostonlar to‘plami bilan turkiy tilni yuksak adabiy til darajasiga olib chiqdi. Uning **“Muhokamat ul-lug’atayn”** asari turkiy va fors tillarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qiluvchi ilmiy risola sifatida ham ahamiyatlidir. **Abdurahmon Jomiy** – she’riyat va tasavvuf ilmini rivojlantirgan. Uning **“Bahoriston”** va **“Haft Awrang”** kabi asarlari Sharq adabiyotining durdonalaridan hisoblanadi.

Kutubxonalar va madrasalar: Temuriylar hukmdorlari ta’lim va ilm-fan rivojiga katta e’tibor qaratgan. Samarqand, Hirot va Buxoro ilm-fan markazlariga aylangan. **Samarqand madrasalari** – Ulug’bek madrasasi o‘z davrining eng yirik ilmiy markazi bo‘lib, bu yerda matematika, astronomiya, falsafa va tibbiyot fanlari o‘qitilgan. **Hirotdagi kutubxonalar** – Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy homiyligida boy kitob fondlari to‘plangan. Abu Rayhon Beruniyning *“Qonuni Mas’udiy”* va Ibn Sino asarlari keng o‘rganilgan. **Buxorodagi ilmiy maktablar** – bu yerda tasavvuf, islom huquqi va falsafa ilmiga oid ko‘plab ilmiy ishlar yozilgan. **Temuriylar me’moriy obidalari:** Amir Temur va uning vorislari qurdirgan obidalar Sharq me’morchiligining eng yuksak namunalaridandir. **Bibixonim masjidi** (Samarqand) – Amir Temur buyurtmasi bilan qurilgan ulkan jome masjid. **Shohizinda majmuasi** – Samarqanddagi eng qadimiy maqbaralar majmuasi bo‘lib, undagi naqshinkor g’isht terish san’ati hali ham mutaxassislarni hayratda qoldirad. **Ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo** Samarqandga tashrifi chog’ida Amir Temur me’morchiligi haqida shunday yozgan: *“Samarqanddagi masjid va madrasalar Yevropada uchratganlarimdan ko‘ra ko‘rkamroq, kattaroq va hashamatliroq.”*

Temuriylar davri, o'zining boy madaniy merosi va iqtisodiy yutuqlari bilan O'rta Osiyo tarixida alohida o'rin tutadi. Amir Temur tomonidan qurilgan imperiya, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida savdo yo'llarining rivojlanishi, yer egaligi tizimi va hunarmandchilik sohasidagi yutuqlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ilm-fan va san'atga bo'lgan katta e'tibor, Temuriylar davrini yuksaltirgan asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Bularning barchasi, o'z navbatida, keyingi avlodlarga boy madaniy meros va iqtisodiy tajriba sifatida qolgan. Shunday qilib, Temuriylar davri nafaqat o'z zamonida, balki keyingi davrlarda ham jahondagi ilm-fan, san'at va iqtisodiy taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatgan.

АМИР ТЕМУР ОМИЛИНИНГ МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Султонов Комилжон,
ЎзРФА Темурийлар тарихи давлат музейи илмий ходими,
Альфраганус университети ўқитувчиси

Ўзбекистонда учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш ва мамлакатни янги ривожланиш босқичига кўтариш жараёнида йирик давлат арбоби, моҳир саркарда Соҳибқирон Амир Темурнинг ҳарбий мероси, жанговор фаолияти ҳамда унинг маънавий-маърифий ва аҳлоқий қарашларини ўрганиш ҳам катта аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: "Биз ёшларимизни ҳақиқий ватанпарварлик, азму-шижоат, мардлик ва жасорат руҳида тарбиялашда муҳтарам зиёлиларимиз, фаол ва фидойи олимларимиз ҳамда ижодкорларимизнинг ёрдамига таянамиз. Айниқса, буюк саркарда боболаримизнинг ҳаёти ва жанговор фаолияти, ҳарбий меросини ўрганиш ҳамда ёшларимиз ўртасида тарғиб этиш катта аҳамиятга эгадир" [14].

Маълумки, Амир Темур ўз даврида нафақат мамлакат бирлигини таъминлаган, балки қудратли давлат барпо этиб, илм-фан, маданият ва санъатни ривожлантиришга раҳнамолик қилган. Шу боис, ўзбек миллий давлатчилиги тарихида Соҳибқирон Амир Темур даври иккинчи Ренессансга тамал тоши қўйилган давр, - деб эътироф этилади[15].

Тарихий манбаларда ёзилишича, Соҳибқирон Амир Темур ўзининг хукмронлик йилларида ҳалқ турмуш даражаси ва маънавиятини бойитишга жуда катта аҳамият қаратган. Натижада мамлакатда маънавий етуклик қарор топди. "Кўплаб мадраса ва масжидлар қурилди. Олиму-фозиллар фаолияти учун барча шароитлар яратилди. Деҳқончилик, ҳунармандчилик, ички ва ташқи савдони ривожлантириш орқали фаровонликка эришилиб, меҳнаткаш ҳалқнинг кундалик турмуши, маданияти юқори даражага кўтарилди[16].

Амир Темурнинг илм, маданият, санъат аҳлини қўллаб - қувватлагани, уламо ва фузалоларга бўлган муносабати алоҳида эътирофга лойиқ.Тарихий маълумотларга кўра, Соҳибқирон таклифи билан Мовароуннаҳрда фаолият юритган йирик мутафаккирлардан бири, машҳур аллома Саъдуддин Тафтазоний бўлган. У ўз даврида мантиқ, ақида, фиқх, тафсир ва бошқа илм соҳалари бўйича етук олим сифатида шухрат қозонган. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Соҳибқирон томонидан

[14] Мирзиёев.Ш.М.Янги Ўзбекистон стратегияси.Т.:"Ўзбекистон"нашриёти.2021. – 464 б.
[15] Соҳибқирон юлдузи журнали.№ 1 (27) 2017 йил.
[16] Зиёев.Ҳ. Буюк АмирТемур салтанати ва унинг тақдири.-Т.:."Маънавият, 2008.- Б. 32.

яратилган кенг имкониятлардан унумли фойдаланган аллома ўзининг шоҳ асарларини айнан Мовароннаҳр шаҳарларида битган. Амир Темур бу алломани жуда қаттиқ ҳурмат қилганлиги туфайли мактуб йўллаб, уни икки марта ўз саройига таклиф этган. Тафтазоний Ҳижоз сафарига отланаётганлиги боис, биринчи таклифни ўзи рад қилган. Лекин, Амир Темур иккинчи бор таклиф этганида Тафтазоний уни рад эта олмай пойтахтга, яъни Самарқандга ташриф буюради[17].

Хулоса қилиб айтганда, жамият аъзолари, айниқса ёшлар маънавиятини янада юксалтириш ва баркамол авлод тарбиясида Амир Темурнинг ҳарбий ва сиёсий фаолияти билан бир қаторда, унинг маънавий ва тарбиявий фаолиятини ҳам чуқур ўргатиш, унинг дўстлик, садоқат,таълим-тарбияга оид фикр-мулоҳазаларини оммалаштириш мақсадга мувофиқ. Зеро, Янги Ўзбекистон ёшлари Амир Темур маънавий-маърифий фаолиятини, унинг маънавий меросини чуқур ўрганиб, ундан сабоқ олса:

Биринчидан -миллий ўзлигини англайди;

Иккинчидан- қалбида миллий ғурур ва ифтихор туйғуси юксалади;

Учинчидан- давлат ва жамият тараққиётига жиддий хавф соладиган турли ёт ғоялар таъсирига тушиб қолмайди

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STUDY ON AMIR TEMUR'S IDENTITY AS AN IDEAL PERSONALITY IN THE SPHERE OF EDUCATION

A.Ortiqov,
colonel Academy of the Armed Forces Republic of the Republic of Uzbekistan

Upbringing is a system of activities aimed at forming the spiritual image of a person's personality. And education is to teach a craft, to give knowledge to a well-mannered person. Upbringing and education associated with the formation of a human personality are processes that are constantly intertwined with each other in harmony[18]. Raising every citizen of Uzbekistan, representatives of every nation, state and their children as a perfect person is one of the highest goals of our independent republic. The role of our grandfathers in this regard is incomparable. It is known that the work and life path "Temur Tuzuks", which belongs to the pen of Sahibqiran Amir Temur, ensures that he can use knowledge and skills in the study of the history of our great-grandfather in real life, in the education of young people. First of all, it should be said that Amir

[17] Палванов.Ў.Соҳибқирон Амир Темур эъзозлаган аллома. Соҳибқирон Амир Темур эъзозлаган аллома/Республика илмий – амалий конференция материаллари. Темурийлар тарихи давлат музейи.-11-китоб. -Т.:2021.,- Б. 210

[18] President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev's book "Strategy of New Uzbekistan" 2021.

Temur is one of those who has achieved Highness, perfection in etiquette, faith, faith, education. To make sure of this, it is enough to look at the etiquette programs created by our grandfather himself, oghits, pand-exhortations, as well as historical works about Sahibqiran. These include "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuks"), "Malfuzoti Temuriy" ("what Temur said"), and "Voqioti Temuriy" ("what Temurnng experienced"), world-famous works by the 15th-century writer Fosih Ahmad Havofiy's "Mujmal-i Fosixiy", Nizamuddin Shomiy (birth and death Year unknown), and Sharafiddin Ali Yazdi's famous "Triumphal", ibn Arabshah (1389-1450 of The "Marvelous Ulmaqdur Fiaxbori Temur" (wonders of fate in the news of Amir Temur), Salahiddin ibn Mullah Aloiddin from the pen of hoja Eshon (Salahiddin Toshkandi), among others, is "Temurnoma" (Amir Temur kuragon's Chronicle, 1908). The doctor of historical sciences, professor Ashraf Ahmad Temur, exalts the eleven qualities that our grandfather himself practiced[19].

The First quality: "I understood impartiality as the earliest of my qualities. Everyone is the same: I looked seriously and righteous, I did not distinguish anyone from another I did not put the rich above the poor."

The Second quality:"I have always adhered strictly to Islam and treated with respect to persons glorified by the commandment of Allah."

The Third quality: "I donated a lot to the poor. I carefully checked every conflict and problem and spent all my effort to solve it as correctly as possible."

The Fouth quality. "I have mercy on the crowd, hate it all". In this, I did not unfairly hurt someone and did not push those who came to me for help from the chest. I read from the Qur'an the verse of the Lord that it is my duty to obey the commandment of Allox and to be merciful to his people, and I have followed it in all my fists for life."

The Fifth quality: "I have always put my work concerning Islam above everyday and secular work. I first took up daily work only after completing the obedience of God."

The Sixth quality: "in all my words I always followed truthfulness. I was able to distinguish the truth of this world and the truth of what I had in the world from the lie."

The Seventh quality: "I betrothed to anyone if I promised. I did not break the promise. I always realized that if I kept my promises clearly, then I would only be righteous and not hurt anyone."

The Eighth quality: "I have always considered myself the guardian of God's earthly property, and I have not spent it without the permission of the Lord or his nobles. I did not harm any of the unnng bandalarn without the will of tangry. I sought to donate equally to both those of higher rank and to a citizen. I never sought to own someone else's property and also never tried to

[19] "Temur tuzuklari" (extract from Persian). T., 1991.

make more wealth. I never looked at someone with envy. The incident with Amir Husayn in this regard was instructive to me. His greed for the property of his fellow citizens ultimately brought him to halo-Kat".

The Ninth quality: "I have always sought to fulfill the commandment of my Lord and the hadiths of his prophets. In all my deeds, I followed the path of Sharia and restrained myself with all my body from unclean Affairs. I saw the prophet and his companions as my only and best friends".

The Tenth quality: "I always kept the flag of dishonesty high and saw the spread of faith as the mighty ground of my greatness. I believed that a person was born from one mother. Therefore, the power that relies on solid power will be great".

The Eleventh quality: "I always looked at the saids with extirom, venerated the ulama and shaykhs. I always called these people to my meetings. I would listen carefully to what they said on the issue of religion and follow it. Therefore, the love of the people towards me was high, and everyone was grateful to me."

Thus, sahibqiron acquires special nobility by the fact that the instructive, vital pandemics and purma'no oghits of Amir Temur are built on the basis of every breadth of content and meaning, the strength of logic, teranity, influence, universal values, which we can call programs on an immodest treasure, decency.

" Temur Tuzuks " focuses specifically on issues of spirituality. It is not known when the" Temür Tuzuk", a valuable source covering the events and life of the XIV-XV centuries, was asked by whom the work, informative from the military, political activities of Amir Temür. The " Temur Tuzuks " reflect on friendship, Fidelity, faith and faith, professional and other human qualities, mention the need for citizens to become obsessed with Sharia Law, full observance of Qazi law, punishment of violators without fail, maintenance of mice and soldiers, and provide them with food, the pay rule, ministers and their duties, emirs, sips and procedures to reward them, their treatment of each other and various other issues. The " Temur Tuzuks ", written in old Uzbek and translated into other languages, consist of two parts[20]:

In the first part, references are made to Amir Temur's wars in Movarounnakhr to seize the Kingdom and his councils with his loved ones in this regard, his negotiations with the emirs.

The second part includes Amir Temur's arrangements on the way in which state administration governs the country, i.e. the rules of the law, the pand-admonitions. In governing the kingdom, Amir Temur relied on the demands of Islam and Sharia, justice, dishonesty and truth, seeing people of different classes and categories equally and respecting them based on their services, while in

[20] J.H.Ismailova, L.G.Levteyeva's book" history of Military Art of Uzbekistan " 2013.

governing the country he relied primarily on olimu fuzalo, Sayyids, shaykhs and Orif.

The motto "Strength is justice" is the chief criterion that defines Amir Temur's spirituality, his motto, which he has followed for the rest of his life. This slogan embodied the whole meaning of the life and work of Amir Temur. The spiritual and enlightened views of Amir Temur, which ögitlar left to his children, grandchildren, crown princes, were embodied in the "Temür Tuzuks". In this invaluable historical work, such life as the duties of governors and ministers, the attitude to their work, the various layers of the population, the protection of the rights of the Raia, the attitude to the Gypsies are expressed in spiritual and moral laws. The lines in the "Temur Tuzuks" of the sahibqiron can be read with pleasure: "what a hundred thousand cavalry soldiers could not do can be done with one proper event." "I received from the wrongdoers the truth of the oppressors. After proving the physical and physical harm caused by the wrongdoers, I discussed them among people according to Sharia, and instead of one sinner, I did not oppress another." Amir Temur considers forgiveness to be the best virtue for Man: "I have removed from my memory those who have done evil to me and raised a candle over my head, and who have done much harm to my work, and when they have come to repentance with supplication, they have done evil in respect. I Increased my career. In dealing with them, I behaved in such a way that if there were doubts and fears about me in his memories, he would forget". "Jealous of me, I gave so many gifts to those who conspired to kill, and I showed such gifts and gifts that, seeing these good things, they drowned in the skin of shame. When my friends, who had always taken my consent and sought refuge in front of me, made them partners in my state of Throne, never to spare them goods and livelihood". "I didn't seek revenge on anyone. I gave to the Lord the world those who did evil to me.... If my enemy came to my refuge, I showed mercy and kindness"[21].

Amir Temur's pandu exhortations of friendship are also instructive: "a loyal and faithful friend, who is not offended by his friend, considers the friend's enemy as his enemy. If necessary, he won't spare his life for his friend". Amir Temur's lifelong importance in prosperity, building works, his poverty can also be known from his following oaths: "whoever obtains or builds a desert, or cultivates a garden, that jehud obtains the land lying in ruins, that they receive nothing from him in the first year, and that they may cry out according to the law in the third year". "Let every city, every village, build a mosque, madrasa and Chambers, put an anchor in the faqiru Miskin, build a hospital for the sick, appoint healers to work in them...". The following words of Amir Temur have called upon the original children of our people over the centuries to worry about the homeland: "it is your duty to be medicine for the troubles of the nation.

[21] Muminov I.M. The role of Amir Temur in the history of Central Asia. T., Science, 1993.

Guard the weak, do not throw the absent into the oppression of the rich. Justice and freedom if you have a program, a leader". These sentences expressed how high the morale of Amir Temur was.

First President Of The Republic Of Uzbekistan I.A.Karimov said that Amir Temur commented on the service of our grandfather in a worthy assessment as follows:

First of all, the value of Amir Temur is needed in order to revive our national feelings, to make the nation a nation, the state a state, which was erased during the colonial years. Amir Temur's statement "who are we, who are the property of Turan, Amir of Turkestan. Who we are is the oldest, greatest of the nations –the chief Buginese of the Turk " serves our people a deep understanding of their national identity, the successor to the great and jaxonshumul traditions.

Secondly, in order to raise the national consciousness of the national pride of our people, it is necessary to revive our almost forgotten history. And Amir Temur is the great peak of this Coachman's history.

Thirdly, putting the respect of Amir Temur in place is necessary to educate our children to be proud of the name and standard of our great ancestors of the next generation, to educate them as worthy followers of these great traditions in order to exalt national pride.

Fourth, the value of Amir Temur is needed to establish the democratic legal power of Uzbekistan, to realize the idea that "the future of Uzbekistan is a great state." At a time when he was rebuilding his new foundations, Amir Temur would serve as a mountain-like base for the Uzbek people.

Fifth, the value of Amir Temur is needed to take a worthy place from the world community of our country, to leave a free and prosperous homeland to the next generations.

Our people, who for many years lived under the colonial stigma, were a denominator from appreciating their compatriot like Amir Temur. Thank God, what a wonder if The Rukh of Amir Temur traveled through our land from these days of nurafshan to be pleased with us.

The fact that he relied on the criteria of justice in public affairs, in the management of the people, in politics, followed four things in dynastic affairs:

1) the council;

2) consultation;

3) strict decision, entrepreneurship, vigilance;

4) caution. Because the council and the kingdom without authority can be compared to an ignorant person whose deeds and sayings are wrong; his words and deeds bring remorse and humiliation to the head.

Therefore, in the management of the Kingdom, do business with advice and entrepreneurship, so that in the end you do not suffer misery and regret it.

You should also know that part of the kingdom's Affairs will end with patience, and another part with ignorance, disregard for sight. Well, after the definition and mention of the activities that are obliged to be carried out, it should be noted that he put forward the idea that all work will be carried out with perseverance, patience, endurance, health, alertness, caution and diligence[22].

In place of the conclusion, it can be said that based on the pedagogical-psychological aspects of studying Amir Temur as an ideal person in the educational process, it is advisable to separately note the need to be able to effectively apply it in the process of training in higher educational institutions, developing a set of articles and lectures. In the educational process, as a historical figure of Amir Temur, it is desirable to realize the historical and righteous truth by perfectly studying his life and creativity.

The historical standard of Amir Temur, his contribution to the development of military art, the professionalism and talent of the great sargarda should be implemented through propaganda and propaganda of their ambitious ideas so that they can be studied not only in the migration of our Republic, but also in the world.

The theatrical composition of Amir Temur on martial arts is intended to highlight the need for effective analysis of pedagogical and psychological aspects of the study of Amir Temur as an ideal person in the educational process and implementation of practical life in the psyche of young people by showing performances at spiritual enlightenment events among young people.

It is necessary to write scientific abstractions on the ideological, scientific directions of Amir Temur on the role of the Republic in the development of military art in research institutions, scientific research centers and directly at the Academy of the Republic of Uzbekistan, to identify scientific directions on these problems from historical sources, and that the theoretical and practical significance of these acquires scientific significance.

TEMURIYLAR DAVLATCHILIGI VA ULARNING MADANIY MEROSI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li, SHDPI katta o'qituvchisi
Boboqulova Durdona Sanjar qizi, SHDPI talabasi

O'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'rin tutgan Temuriylar davlati nafaqat siyosiy va harbiy jihatdan kuchli imperiya bo'lgan, balki o'z davrining eng yuksak madaniy-ma'naviy taraqqiyot markazlaridan biriga aylangan edi. XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan bu sulola, ayniqsa, ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda salmoqli iz qoldirdi.

[22] Amir Temur ögitlari. T., Chulpan, 1992.

Temuriylar saltanatining asoschisi Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat boshqaruvi, mustahkam ichki tartib va tashqi siyosiy muvaffaqiyatlar orqali barqaror rivojlanish uchun qulay sharoit yaratilgan edi. Temuriylar davrida ilm-fan, ayniqsa astronomiya, tarixshunoslik va tilshunoslik yuksak pog'onaga ko'tarildi. Ulug'bek rasadxonasi, Alisher Navoiy ijodi, tarixiy-madaniy obidalar bunyod etilishi ushbu davrning bebaho boyligi sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlik, savdo yo'llarining faollashuvi va hunarmandchilik taraqqiyoti ijtimoiy qatlamlar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ushbu maqolada tarixiy-mantiqiy, tahliliy, qiyosiy hamda kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida Temuriylar davrining siyosiy-iqtisodiy va madaniy jihatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Avvalo, tarixiy-mantiqiy yondashuv asosida temuriylar davlatchiligining shakllanishi, davlat boshqaruv tizimi va uning asosiy tamoyillari izchil tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida temuriylar davrining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti boshqa tarixiy davrlar bilan solishtirilib, ushbu davrning o'ziga xos jihatlari ajratib ko'rsatildi. Iqtisodiy taraqqiyotning savdo yo'llari, shaharsozlik, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi sohalariga ta'siri tarixiy manbalar, ilmiy maqolalar va arxiv materiallari asosida chuqur o'rganildi. Madaniy meros bo'yicha esa kontent tahlil usulidan foydalanilib, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolar ijodiga tayangan holda, temuriylar davrida ilm-fan va san'atning qamrovi, yutuqlari va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri o'rganildi. Me'morchilik obidalari va tarixiy yodgorliklar esa vizual madaniy manba sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Temuriylar davlatchiligi markazlashgan va puxta siyosiy tizimga ega bo'lganligi aniqlandi. Amir Temur tomonidan asos solingan boshqaruv tizimi, viloyatlar ustidan nazoratni mustahkamlash va adolatli hukm yuritish tamoyillari Temuriylar saltanati barqarorligining muhim omili bo'lgan.

2. Ijtimoiy tuzumda qatlamlarning aniq belgilanishi ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilgan. Harbiylar, zodagonlar, dehqonlar, hunarmandlar kabi guruhlarning faoliyati va vazifalari aniqligi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

3. Temuriylar davrida iqtisodiy hayot katta taraqqiyotga erishgan. Savdo-sotiq aloqalari, xalqaro karvon yo'llari, bozorlar, hunarmandchilik markazlari, sug'orish inshootlari rivojlangan bo'lib, bu iqtisodiy mustahkamlik va boylik manbai bo'lgan.

4. Ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida tarixiy yutuqlarga erishilgan. Xususan, Ulug'bek rasadxonasi faoliyati astronomiya rivojiga ulkan hissa qo'shgan, Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiy tilining shakllanishida muhim rol

o‘ynagan. Shuningdek, me’moriy obidalar, madrasa va masjidlar yuqori darajadagi san’at namunalaridir.

5. Temuriylar madaniy merosi bugungi kunda milliy g’urur va ma’naviy yuksalish manbai sifatida qadrlanmoqda. Bu merosni o‘rganish, asrash va avlodlarga yetkazish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, temuriylar davrining siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va madaniy yuksalishi nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi asrlar taraqqiyotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan tarixiy hodisa sifatida baholandi. Temuriylar davlatchiligi tarixiy rivojlanish bosqichida o‘ziga xos siyosiy va madaniy modelni yaratgan bo‘lib, bu model keyingi davrlarda ham yuksak baholangan.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Amir Temur asos solgan markazlashgan boshqaruv tizimi faqatgina harbiy kuch va siyosiy nazoratga emas, balki ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga ham qaratilgan edi. Bu jihat, ayniqsa, o‘sha davrda boshqa davlatlarda uchramaydigan ilg’or boshqaruv tamoyillari orqali o‘z aksini topgan.

Temuriylar davrida jamiyat qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlar aniq tartibga solingani, ayniqsa harbiylar va zodagonlarning siyosiy hayotdagi o‘rni, dehqonlar va hunarmandlarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki orqali ijtimoiy uyg’unlikka erishilganini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida, davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, temuriylar davrida iqtisodiy hayotning barqarorligi, savdo-sotiq munosabatlarining kengayishi, xalqaro karvon yo‘llari faoliyatining faollashuvi ham mamlakat ichki hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu sharoit ilm-fan va madaniyat sohalarining jadal rivojlanishiga ham imkon yaratdi. Ayniqsa, Ulug’bekning astronomik izlanishlari, Alisher Navoiyning adabiy merosi va bu davrda vujudga kelgan kutubxona, madrasalar va rasadxona faoliyati xalq ma’naviyatining yuksalishiga olib kelgan. Temuriylar davridagi madaniyat yuksak badiiy va ilmiy saviyaga ega bo‘lib, Sharq va G’arb olimlari tomonidan e’tirof etilgan. Me’moriy yodgorliklar – masjid, madrasa, maqbara va saroylar faqat diniy yoki siyosiy emas, balki estetik va ilmiy markazlar sifatida ham xizmat qilgan. Bu davr madaniy merosining bugungi kunda ham o‘rganilishi va qadrlanishi uning tarixiy ahamiyati va dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, temuriylar davrida yaratilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlar o‘zbek davlatchiligi tarixida chuqur iz qoldirgan. Bu tizimlar nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi taraqqiyot jarayonlarida ham dolzarb ilmiy saboq va ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Temuriylar davlatchiligi va uning madaniy merosi o‘zbek tarixida o‘zgacha o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, Amir Temur tomonidan asos solingan siyosiy boshqaruv tizimi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi davlatning mustahkamligini ta’minlab, o‘z davrining eng barqaror va kuchli davlatlaridan birini yaratdi.

Markazlashgan boshqaruv, aniq tartibga solingan ijtimoiy qatlamlar va iqtisodiy faoliyat, temuriylar davlatining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosi bo‘ldi. Iqtisodiy sohada amalga oshirilgan islohotlar, savdo va ishlab chiqarish tizimlarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kengayishi mamlakatning boyligiga va mamlakat ichki barqarorligiga xizmat qildi. Bu esa o‘z navbatida, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga imkon yaratdi.

Ulug’bek va Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarning ilmiy va adabiy merosi, shuningdek, me’moriy yodgorliklar va san’at asarlari Temuriylar davrining yuqori madaniyat darajasini namoyon etdi. Shuningdek, Temuriylar davrining me’moriy obidalariga, jumladan Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida qurilgan masjid va madrasa kabi yodgorliklarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu obidalar faqat diniy va siyosiy markazlar sifatida emas, balki ilmiy va madaniy rivojlanishning simvoli sifatida ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, hozirgi kunda ham o‘zining tarixiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bilan birga, temuriylar davrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy merosi, bugungi kunda nafaqat tarixshunoslik uchun, balki milliy g’urur va ma’naviy yuksalish manbai sifatida qadrlanmoqda. Bu davrni o‘rganish, asrab-avaylash va avlodlarga yetkazish hozirgi jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega. Natijada, temuriylar davlatchiligi va madaniy merosi o‘zbek tarixida beqiyos o‘rin egallaydi, uning ta’siri nafaqat o‘sha davrda, balki bugungi kunda ham o‘z aksini topmoqda. Bu davrda yaratilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlar bugungi jamiyatda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan va ulardan o‘rganish zamonaviy rivojlanish jarayonlariga foyda keltirishi mumkin.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR DAVRIDA SAYQAL TOPGAN SAMARQAND

Ernazarova Shahnoza Ergash qizi,
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

Sohibqiron Amir Temur dunyoda tengsiz, qudratli mamlakat qurishga intilib, umrini shu ishga sarflagan. Hukmronligi davrida boshqa hukmron erisha olmagan yutuqlarga erishgan. Taxtga kelganida dastavval o‘ziga munosib poytaxt shahar tanlash bilan boshlagan. Dastlab, o‘z tug’ilgan makoni Shahrisabzni poytaxt sifatida tanlash fikri mavjud edi, lekin Sohibqiron uzoqni ko‘rib ish qiluvchi inson bo‘lganligi sababli Samarqand va Shahrisabz shaharlarini geologik joylashuvi va Buyuk ipak yo‘lidagi mavqeini qiyoslash asnosida Samarqandni poytaxt sifatida tanlashga qaror qilgan. Samarqand o‘sha davrda Movounnahrning mashhur shaharlaridan biri edi va davlatning savdo-sotiq markazi edi. Amir Temur 1370 yil aprel oyida Samarqandga ko‘chib o‘tadi. Shu davrdan boshlab, harbiy va iqtisod islohatlar, bunyodkorlik va ma’daniy taraqqiyot rejalari Samarqand shahrida tuzildi. Mashhur quruvchilar,

naqqoshlar, me'morlar Samarqanddagi buyodkorlik ishlarida qatnashdi. Bundan tashqari shaharning aholisi ham ushbu ishga jalb qilinib, ularga ishiga munosib haq to'lash asosida yo'llangan. Bu haqida o'sha davr tarixchisi Mu'iniddin Natanziy o'zining "Muntaxab ut-tavorix" asarida quyidagicha fikr bildirgan:[23] "Amir Temur g'urbat va mahrumlik yillarida Parvardigori Taolo oldida qanday ahdu-paymon qilgan bo'lsa, to'la-to'kis ushbu qoidalar Xudoning xalqi bilan muomala qilishni o'ziga kasb qildi. Eng avval barcha joylarda yomlar barpo etishni buyurdi va xalq yuradigan yo'llarni obod qildi". Ushbu tarixchi Sohibqiron yurtni obod va farovon, qisqa vaqt ichida Samarqand go'zal va obod shaharga aylanganini ta'kidlagan. Bundan tashqari o'sha davrdagi boshqa bir tarixchi va geograf Hofizi Abro' ham o'z asarlarida Amir temur davridagi ijobiy o'zgarishlar haqida fikr bildirib, "Geografiya" asarida shunday tariflagan:[24] "Tarixdan ma'lum bo'lishicha qadim zamonlardan Mavounnahrning poytaxti Samarqand bo'lgan. Ilgaridan Samarqabd shahrining ulug'vor qo'rg'oni bo'lib, uning ustma-ust qurilgan bir nechta boro'si va chuqur handaqi bor edi. Chingizxon hujumi doirasida xarob bo'ldi. Saltanat navbati ulug' Sohibqiron Amir Temurga – Alloh uning shuhratini yorqin etsin –yetganda hozirda ham mavjud shaharbandni bunyod etdi. Uni qisqa muddatda nihoyasiga yetqazib, o'sha yilning o'zidayoq arkning qal'asini bunyod etdi. Shundan so'ng Samarqandning obodonligi yanada ortib bordi". Shahar qurilishida Sohibqiron shaxsan o'zi nazorati ostida olib borildi. Shahar bosh me'moriga quriladigan inshoat maydoni, ko'rinishi, mahobati va peshtoqlariga yoziladigan yozuvlarigacha Amir Temur tomonidan berilgan ko'rsatma asosida tayyorlangan.

Hukmronligining ikkinchi yili Samarqand shahrining aylana mudofaa devor to'la tiklanib, Ohanin, Feruza, So'zangoron, Korizgoh, Buxoro, Chorraha darvozalarini qurdirdi. Amir Temur shahar ma'daniyatining asosiy ko'rsatib beruvchisi bozorlar ekanligini anglagan holda, bozorlarni tartib bilan qurilishiga diqqat qaratgan.

Boshqa hukmdorlardan farqli ravishda o'zining bunyodkorligi va odilligi bilan ajralib turuvchi buyuk Sohibqiron Amir Temur qurdirgan koshona va masjid-u madrasalari dunyo ahlini lol qilib kelmoqda. Ushbu tarix durdonalari ajdodlarimiz qanday buyodkor bo'lganligi va ulkan salohiyat egasi ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Amir Temur didi, nozik tuyg'ulari va ajdodlarimiz mahoratini o'zida mujassam etgan binolardan biri bu-Ko'ksaroydir. Ayrim manbaalarga ko'ra ushbu saroy Amir Temurning Samarqanddagi bosh saroyi bo'lgan. Saroy devorlari sirli koshin bilan qoplangan, Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib,

[23] Muiniddin Natanziy.Muntaxab ut-tavorixi Muiniy.Fors tilidan tarjima, muallif:G'ulom Karimiy
[24] Jumaboy Rahimov. Buyuk davlat arbobi va buyuk sarkarda. Ziyo nashr Toshkent 2023

gumbazlari va devorlari sirli koshinlar bilan bezatilgan. 1947 yil Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Ko‘ksaroy haqida ma’lumotlar qoldirgan. Uning qayd etishicha: “Samarqand arkida Temurbek ulug’ bir ko‘shk solibdur, to‘rt oshyonlik. Ko‘ksaroy ma’lum va mashhur imoratdur”. [25]

Amir Temur jome masjidi. Ushbu majmua shaxsan Amir Temur tasdiqlagan loyiha asosida 1399-1404 yillar davomida qurilgan. Majmua o‘sha davrning eng katta va muhtasham jome masjidi bo‘lishi rejalashtirilgan edi va shunga erishdi.

Tuman oqa masjidi. Shohizinda majmuasining g’arbiy tomonida qurilgan o‘zaro bog’langan ikki bino-masjid va maqbara. Maqbara mo‘jazgina chorsixonadan iborat.

O‘ljaoyim xonaqosi. Qo‘shgumbazli bino Shohizinda me’moriy majmuidagi Sohibqiron davrining ajoyib yodgorligidan biridir.

Qusam ibn Abbos me’moriy majmuasi. Shohizinda nomi bilan mashhur ziyoratgohdir. Payg’ambar Muhammad alayhissalom amakisining avlodi shu joyda dafn etilgan.

Xo‘ja Ahmad maqbarasi. Shohizindaning eng yuqorisidagi gumbazli chorsi xonadan iborat bino.

Amir Temur va temuriylar maqbarasi. Xalq orasida Go‘ri Amir nomi bilan ma’lum va mashhur bu bino kata me’moriy majmuaning markazi hisoblanadi. Maqbarada Amir Temur, uning o‘g’illari Shoxrux, Mironshox, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug’bek va boshqalarning qabr toshlari mavjud. Sohibqironning bosh tomonida uning pirlaridan biri Mir Sayyid Baraka qabr toshlari o‘rnatilgan.

Amir Temur “Yaxshidan bog’ qolur” hikmatiga doim amal qilib kelgan va Samarqand shahrini jannatmakon Bog’i Eramga aylantirishga jiddiy kirishgan edi. Ushbu bog’larning dastlabkisi Cho‘ponotada boshlashga farmoni oliy berdi. Bu bog’ga “Bog’i Naqshi Jahon” deb nom berdi va ushbu bog’ Saroymulkxonim sharafiga barpo etildi.

Buyuk Sohibqiron 1378 yilda yana bir malika Tuman oqa begimga atalgan “Bog’i Behisht”ni barpo etishga buyruq berdi.

Keyingi bog’ esa “ Bog’i Dilkusho” nomi bilan nomlangan bo‘lib, Samarqanddan olti chaqirim uzoqlikda Xoncharbog’ mavzesida joylashgan. Muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy yozishicha, Amir Temur “Bog’i Dilkushoning loyihasini shaxsan o‘zi nazorat qilgan. Dilkusho ko‘shki Sohibqiron davridagi bog’dorchilik san’ati va me’morchiligi ulkan na’munasi bo‘lib, ma’daniyat qay darajada rivojlanganing isboti hamdir.[26]

---

[25] Zahiriddin Muhammad Bobur.Boburnoma.P.Shamsiev, S.Mirzayev va E. Mano nashrlari asosida qayta nashrga tayyorlovchi S.Xasanov.T.,2002

[26] Sharafiddin Ali Yazdiy.Zafarnoma.Toshkent “Fan”.1972

Keyingi bog' esa "Bog'i Dilkushodan bir yarim chaqirim uzoqlikdagi Samarqandning sharq tarafidagi "Bog'i Bo'ldi" chorbog'i 1398-1400 yillarda barpo etilgan.

"Bog'i Shamol" bog'i esa 1397 yil Amir Temur nabirasi Beka Sultonga atab qurilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida ushbu bog' haqida ma'lumot berib o'tgan.

Bundan tashqari Sohibqiron "Bog'i Nav", "Bog'i Zag'on", "Bog'i Maydon", "Bog'i Baland", "Bog'i Davlatobod" kabi bog'larni ham barpo qildi. Umuman olganda Samarqand shahri bog'-u bo'stonga aylantirish maqsadida qurilgan bu bog'lar shaharning ko'rkiga yanada ko'rk qo'shgan.

Tarixni o'rganishimiz davomida shu ma'lum bo'ldiki, Sohibqiron Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak aql-idrok sohibi shuningdek, yetuk bunyodkor shaxs bo'lgan. Uning davrida Samarqand shahri dunyodagi eng go'zal va tinch shaharlardan biriga aylandi. Davlat boshqaruvini qanday g'ayrat va shijoat bilan boshqargan bo'lsa, davlatni obod qilish va bog'u-rog' qilishga ham shunday shiddat bilan yondashgan.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Ochilova Dilnoz Arslon qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Amir Temur va uning vorislari tomonidan asos solingan Temuriylar davlati Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoda kuchli ta'sir ko'rsatgan sivilizatsiyalardan biri bo'ldi. Ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy faoliyati nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlardagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Amir Temurning davlatni boshqarishdagi qat'iy strategiyasi va adolat tamoyillariga asoslangan siyosati uning shon-shuhratini oshirdi. Uning harbiy yurishlari natijasida katta hududlar birlashtirilib, siyosiy barqarorlik ta'minlandi. Temuriylar davrida iqtisodiy islohotlar jadal amalga oshirilgan bo'lib, savdo va hunarmandchilik rivojlanishi Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro aloqalarni kengaytirishga xizmat qilgan. Sug'orish tizimlari takomillashtirilib, dehqonchilik va chorvachilik taraqqiy etgan. Ushbu iqtisodiy o'zgarishlar natijasida Temuriylar davlati nafaqat harbiy qudrat, balki iqtisodiy mustahkamlik jihatidan ham yuksak pog'onaga ko'tarildi. Madaniy jihatdan esa bu davr O'rta Osiyo tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri hisoblanadi. Me'morchilik, adabiyot, tasviriy san'at va ilm-fan rivoj topdi. Samarqand va Hirot shaharlari ilm-fan va madaniyat markazlariga aylandi. Ulug'bek tomonidan astronomik tadqiqotlar olib borilib, zamonasi uchun ilg'or natijalar qo'lga kiritildi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy singari mutafakkirlar esa o'z ijodi bilan adabiyot va falsafa rivojiga katta hissa

qo‘shdilar. Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Temuriylarning davlat boshqaruvi tizimi, iqtisodiy islohotlari, ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan ta’siri tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida yoritiladi.

Davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilma. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilma Temuriylar davlatchiligida markazlashgan tizim asosida tashkil etilgan bo‘lib, Amir Temur tomonidan kuchli markaziy hokimiyat barpo etilgan. U davlatni harbiy va fuqarolik boshqaruvi asosida idora qilib, tartib-intizom va qonun ustuvorligiga alohida e’tibor bergan. Amir Temur o‘z imperiyasini samarali boshqarish uchun qat’iy markazlashgan tizim joriy qilgan. Bu boshqaruv quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan edi. Harbiy-fuqarolik tizimi Amir Temur davlat boshqaruvini harbiy qat’iyat va fuqarolik barqarorligi asosida shakllantirgan. Uning “Tuzuklar”ida davlat idoralarining qanday ishlashi batafsil bayon qilingan. Hududiy boshqaruv: Davlat o‘z navbatida viloyatlarga bo‘linib, har bir viloyatga Temurning shaxsiy ishonchli amaldorlari hokim sifatida tayinlangan. Bu hokimlar moliyaviy va harbiy masalalarni mustaqil boshqarish huquqiga ega bo‘lsalar-da, bevosita markaziy hokimiyatga bo‘ysunganlar. Harbiy boshqaruv harbiy ishlar davlatning asosiy tayanchi bo‘lib, Amir Temur harbiy tuzilmani qat’iy tartibda yuritgan. Armiya turli qo‘shinlarga bo‘lingan bo‘lib, har bir bo‘linma aniq vazifalar doirasida harakat qilgan. Qonun ustuvorligi Temur qonun va tartibga alohida e’tibor berib, qattiq jazo tizimini joriy qilgan. Xiyonat va korrupsiya og’ir jazolangan, davlatga sadoqat esa mukofotlangan.

Amir Temur tomonidan yaratilgan davlat boshqaruvi tizimi o‘z davri uchun juda samarali bo‘lib, barqarorlikni ta’minlash va imperiyaning uzoq yillar davomida rivojlanishiga imkon bergan. Bu tizim keyingi Temuriy hukmdorlar tomonidan ham qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ichki nizolar va siyosiy inqirozlar natijasida barbod bo‘lgan. Temuriylar davridagi boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilma keyinchalik Boburiylar, Usmoniylar va boshqa yirik imperiyalarning davlat boshqaruvi modeliga ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa Temuriylar davlatining tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Temuriylar davrida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq sezilarli darajada rivojlandi. Amir Temur va uning avlodlari kuchli markazlashgan iqtisodiy siyosat yuritib, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratdilar.

Dehqonchilik va chorvachilik.Temuriylar iqtisodiyotida dehqonchilik asosiy o‘rinni egallagan bo‘lib, sug’oriladigan yerlar kengaytirildi va hosildorlik oshirildi. Sug’orish tizimi yangi ariqlar va kanallar qurilib, ekin maydonlari kengaytirildi. Eski sug’orish tizimlari ta’mirlandi, bu esa qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Asosiy ekinlar bug’doy, arpa, sholi, paxta va turli

meva-sabzavotlar yetishtirildi. Chorvachilik ot boqish, qorako‘l qo‘y yetishtirish va tuyachilik rivojlandi. Chorvachilik mahsulotlari ichki bozorda muhim ahamiyat kasb etdi hamda eksport qilindi.

Hunarmandchilik va shahar iqtisodiyoti. Hunarmandchilik Temuriylar davrida yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, shaharlarda hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Asosiy hunarmandchilik tarmoqlari.To‘qimachilik ipak, paxta matolari ishlab chiqarildi. Kulolchilik ko‘k chinni va sopol buyumlar ishlab chiqarildi. Metallga ishlov berish qurol-yarog’, zeb-ziynat buyumlari va idish-tovoqlar tayyorlandi. Yog’och o‘ymakorligi eshik, panjara va mebellar tayyorlandi. Shaharlarning iqtisodiy markaz sifatidagi o‘rni. Samarqand, Buxoro, Hirot va Shahrisabzda hunarmandchilik va savdo rivojlangan bo‘lib, bu shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylangan.

Temuriylar davlati xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirish uchun Buyuk Ipak yo‘lini qayta tikladi va uni mustahkamladi. Savdo yo‘nalishlari. Xitoy bilan ipak va chinni buyumlar savdosi.Hindiston bilan qimmatbaho toshlar va ziravorlar savdosi. Eronga gilam, shoyi va ipak matolar eksporti. Oltin O‘rda va Yevropa bilan turli tovarlar almashinuvi. Bozor va karvonsaroylar Temuriy shaharlarda katta bozorlari va karvonsaroylar qurilib, savdogarlarga qulay sharoitlar yaratildi. Tijoratni rivojlantirish choralari Amir Temur savdo yo‘llarini bosqinchilar va qaroqchilardan himoya qilish maqsadida harbiy nazorat o‘rnatdi.

Temuriylar davrida iqtisodiyotning rivojlanishi kuchli markazlashgan siyosat va samarali boshqaruv bilan bog’liq edi. Sug’orish tizimining yaxshilanishi, hunarmandchilikning rivojlanishi va xalqaro savdoning kuchayishi natijasida Temuriylar davlati iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi. Savdo-sotiqning taraqqiy etishi va shaharlarning iqtisodiy markazga aylanishi natijasida davlat boyligi oshdi va madaniy hayot rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Temuriylar davri Markaziy Osiyoda madaniy va ilmiy taraqqiyotning yuksak bosqichga chiqqan davri bo‘lib, bu davrda san’at, adabiyot, me’morchilik, ilm-fan va ta’lim keng rivojlandi. Amir Temur va uning vorislari ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlab, ulug’ allomalarga homiylik qilgan.

Temuriylar davrida me’morchilik mislsiz ravnaq topdi. Ayniqsa, Samarqand, Hirot, Shahrisabz va Buxoroda qurilgan inshootlar butun dunyo me’morchiligida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Registon ansambli Samarqanddagi Registon maydoni Temuriylar me’morchiligining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Gur Amir maqbarasi Amir Temur, uning o‘g’illari va nabiralari dafn etilgan muqaddas maskan bo‘lib, nozik gumbaz bezaklari va ko‘rkam naqshlari bilan mashhur. Bibixonim masjidi Temurning rafiqasi Bibixonim nomiga atab qurilgan bo‘lib, Sharq me’morchiligining eng katta masjidlaridan biri hisoblanadi. Shohizinda ansambli bu majmua muqaddas

qadamjo bo‘lib, unda turli davrda yashagan diniy va siyosiy arboblarning maqbaralari joylashgan. Hirot va Buxorodagi madrasalar va masjidlar Ulug’bek madrasasi va boshqa ko‘plab diniy-ta’limiy muassasalar bu davrda bunyod etilgan. San’at sohasida esa naqshinkor kulolchilik, miniatyura san’ati va gilamdo‘zlik yuksak taraqqiyotga erishdi. Husayn Boyqaro va Shohruh Mirzo homiyligida tasviriy san’at, jumladan, miniatyura maktabi rivoj topdi.

Temuriylar davrida adabiyot va falsafa taraqqiyotining eng yuksak bosqichga chiqqanligi kuzatiladi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar o‘z asarlari bilan nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham ilmiy va adabiy tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Alisher Navoiy “Xamsa” asari, g’azallar va qasidalari orqali adabiy merosni boyitdi va o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri bo‘ldi. Abdurahmon Jomiy She’riyat va tasavvuf falsafasi bilan shug’ullangan bo‘lib, islom falsafasi va adabiy tafakkuriga katta hissa qo‘shgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asari orqali Amir Temurning hayoti va harbiy yurishlarini tarixiy hujjatlar asosida yoritgan.

Temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan rivojining yuksak darajaga yetishi davlatning taraqqiyotini belgilab bergan muhim omillardan biri bo‘ldi. Me’morchilik, adabiyot, tasviriy san’at, ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishi natijasida bu davr butun Sharq sivilizatsiyasining eng yorqin sahifalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ham Temuriylar davri madaniyati va ilmiy merosi jahon tarixiy va madaniy merosining muhim qismini tashkil etadi.

Amir Temur va Temuriylar davlati faqat harbiy qudrat bilan emas, balki iqtisodiy barqarorlik, madaniy yuksalish va ilm-fanning rivojlanishi bilan ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi.Temuriylar davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosi bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, jahon tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Temuriylar o‘z davrida kuchli davlat boshqaruvi modelini shakllantirib, uni keyingi musulmon dunyosi davlatlariga ta’sir qildirgan holda rivojlantirdi.

Ulug’bek kabi ilm-fan homiylari tufayli astronomiya va matematika yuksak darajaga ko‘tarildi. Shuningdek, madaniy yuksalish natijasida Samarqand va Hirot o‘z davrining eng yirik ilmiy va san’at markazlariga aylandi Bugungi kunda Temuriylar merosi O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyoning madaniy va milliy o‘zligining muhim qismi hisoblanadi. Amir Temurning harbiy strategiyalari, iqtisodiy siyosati va madaniy homiyligi hozirgi tarixshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda va baholanmoqda. Uning merosi xalqaro miqyosda ham katta e’tirofga sazovor bo‘lib, tarix va madaniyat sohasida muhim tadqiqot obyektiga aylangan.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Nazirova Saida Zafar qizi,
Guliston Davlat Pedagogika instituti magistranti

Amir Temur va Temuriylar davri O‘rta Osiyo madaniyatining eng yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biri bo‘lib, u nafaqat o‘zbek, balki butun Sharq sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu davr o‘zining yuksak davlatchilik asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy yuksalishi bilan ajralib turadi va o‘zbek xalqining huquqiy-madaniy shakllanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot: Amir Temur tomonidan O‘rta Osiyo hududlarining yagona va kuchli markazlashgan davlatga birlashtirilishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohalariga alohida e’tibor qaratildi. Sug‘oriladigan dehqonchilik rivojlantirildi – Angor kanali qazildi, Murg‘ob vodiysida sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Samarqand va Shahrisabz kabi shaharlarda ariklar qazilib, lalmi yerlar ham sug‘orila boshlandi.

Donli ekinlar, paxta, zig‘ir, ro‘yan kabi sanoat va bo‘yoq o‘simliklari ekilar, tut daraxtlari orqali pillachilik rivojlantirildi. Uzumzorlar, limon plantatsiyalari kengaytirildi. Ulug‘bek davrida esa Bog‘i Maydon va "Bog‘cha" kabi yangi bog‘lar tashkil etildi. Chorvachilik, ayniqsa qo‘ychilik va yilqichilik ham yuksak darajada rivojlandi[27].

Tog‘-kon ishlari yo‘lga qo‘yilib, turli foydali qazilmalar asosida hunarmandchilik taraqqiy etdi. Hunarmandchilik tarmoqlari kengayib, shaharlarda yangi mahallalar, bozor rastalari, timlar va toqlar barpo etildi. To‘qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik, binokorlik kabi sohalar taraqqiy etdi. Ipak, jun, kanopdan gazlamalar to‘qildi; atlas, kimxob, duhoba kabi matolar ishlab chiqarildi[28]. XV asrda qurol-yarog‘, metall buyumlar, maishiy texnika asboblari keng ishlab chiqarildi. Samarqand qurolsozlik markaziga aylandi.

Madaniyat va san’at: Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, naqqoshlik, xattotlik va tasviriy san’at yuksak cho‘qqilarga chiqdi. Amir Temur zamonida Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Shohruhiya kabi shaharlarda obodonchilik ishlari olib borildi. Samarqandda qurilgan Bibixonim masjidi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Hazrati Imom maqbarasi, “Dor-us Siyozaat” xilxonasi o‘z davrining yodgorlik me’morchilik namunalaridir[29].

[27] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
[28] Bartold V.V. Turkiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
[29] Bartold V.V. Turkiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.

Temur davrida shahar ichida va tashqarisida qurilgan saroylar ma'muriy va marosimiy maqsadlarda ishlatilgan. Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy kabi qarorgohlar hamda 12 ta bog' va saroylar Temur davrining yuksak urbanistik salohiyatidan dalolat beradi[30].

Naqqoshlik va tasviriy san'atda ko'p rangli manzaralar, tabiat lavhalari, tarixiy shaxslar qiyofasi aks ettirilgan. Shirinbeka opa maqbarasi devorlarida oq va moviy ranglarda tabiat manzaralari tasvirlangan. "Zafarnoma" asari nusxalarida Temur siymosi miniatyuralar orqali ifodalangan.

Ilm-fan va adabiyot: Ulug'bek davrida ilm-fan alohida yuksaldi. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi ilmiy tafakkur yodgorligi bo'lib, unda astronomik tadqiqotlar olib borilgan. Rasadxona diametri 48 metrli uch qavatli inshoot bo'lib, o'z davrining ilg'or ilmiy markazi hisoblangan[31].

Kitobotchilik rivojlandi, qo'lyozmalar maxsus ustaxonalarda ko'chirilgan. Nasx, kufiy, suls, nasta'liq kabi xatlar rivojlandi. Behzod, Mirak Naqqosh kabi san'atkorlar miniatyura maktabini yuksaltirdilar[32].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davlatchiligi davri O'rta Osiyo tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak bosqichi bo'ldi[33]. Bu davrda yaratilgan moddiy va ma'naviy meros bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir avlod bu bebaho qadriyatlarni asrab-avaylab, keyingi avlodlarga yetkazishi muqaddas burchi hisoblanadi.

Amir Temur va Temuriylar davrining O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. Ushbu davrda siyosiy barqarorlik va markazlashgan kuchli davlat boshqaruvi tufayli barcha sohalarda – iqtisod, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ilm-fan, san'at va madaniyatda ulkan taraqqiyot ro'y berdi. Ayniqsa, Amir Temurning davlatchilik siyosati, qurilish ishlari va obodonlashtirishga bergan e'tibori natijasida yirik shaharlarda iqtisodiy va madaniy hayot yuksak bosqichga ko'tarildi. Sug'orish tizimlarining takomillashuvi, yangi kanallarning qazilishi va dehqonchilikning rivojlanishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minladi. Hunarmandchilik va tog'-kon ishlari yo'lga qo'yilib, qurolsozlik, to'qimachilik va boshqa tarmoqlar yuksaldi. Ayniqsa, Samarqand va Shahrisabz shaharlari hunarmandchilik, ilm-fan va siyosiy hayot markazlariga aylantirildi.

Temuriylar madaniyati o'zining beqiyos me'morchilik yodgorliklari, rasadxona, kutubxonalar, xattotlik va miniatyura san'ati bilan jahon tamadduniga katta hissa qo'shdi. Ulug'bek tomonidan qurilgan rasadxona ilmiy taraqqiyot ramzi sifatida tanilgan bo'lib, astronomiya ilmining rivojiga xizmat qilgan. Ilm-fan sohasida astronomiya, matematika, tarix, adabiyot va boshqa yo'nalishlarda asarlar yaratilgan. Naqqoshlik, tasviriy san'at va adabiyot

[30] Allohqulov H. O'zbek davlatchiligi tarixidan. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
[31] Azamat Ziyo. Temuriylar davlati va uning madaniy merosi. – Toshkent: Fan, 2010.
[32] Bartold V.V. Turkiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
[33] Xasanxo'jaev Z. Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

sohalarida yangi uslublar vujudga kelgan. Behzod, Mirak Naqqosh kabi rassomlarning miniatyura asarlari Sharq san'atining durdonalaridandir.

Temuriylar davrida shakllangan moddiy va ma'naviy meros nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyat tamaddunining taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ham bu qadriyatlar yurtimizda e'zozlanib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davlatchiligi davri O'rta Osiyo tarixining eng yuksak sivilizatsion bosqichlaridan biri sifatida doimo e'tiborda bo'lib qoladi.

AMIR TEMUR DAVRIDAGI MADANIY YODGORLIKLARNI VIRTUAL REALLIK (VR) YORDAMIDA TARG'IB QILISH

Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li,
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Amir Temur va temuriylar davri Sharq me'morchiligining eng yuksak taraqqiy etgan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bunyod etilgan madaniy va tarixiy yodgorliklar nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi va san'atiy bezaklari bilan e'tiborni tortadi. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlar o'zining muhtasham obidalari bilan dunyoga mashhur. Biroq, vaqt o'tishi bilan ushbu yodgorliklarning ayrim qismlari shikastlangan yoki yo'qolgan.

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa virtual reallik (VR), ushbu madaniy merosni saqlash va keng targ'ib qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. VR texnologiyasi orqali foydalanuvchilar tarixiy yodgorliklarni interaktiv ravishda o'rganishlari, ularning tiklangan holatida virtual sayohat qilishlari va Amir Temur davridagi muhitni jonli tarzda his qilishlari mumkin.

Ushbu maqolada VR texnologiyalaridan foydalanish orqali Amir Temur davridagi madaniy yodgorliklarni qanday targ'ib qilish mumkinligi, bu uslubning turizm, ta'lim va madaniy merosni saqlash sohalaridagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, VR texnologiyasining xalqaro miqyosda O'zbekiston madaniy merosini ommalashtirishdagi o'rni ham tahlil qilinadi.

Bugungi kunda VR texnologiyalari madaniy va tarixiy yodgorliklarni saqlash, taqdim etish va targ'ib qilish uchun innovatsion vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiya madaniy meros ob'ektlarini virtual muhitda yaratish va ularni interaktiv tarzda tomosha qilish imkonini beradi. VR texnologiyalarining madaniy merosni targ'ib qilishdagi ustunliklari interaktiv

sayohatlar, yo‘qolgan obidalarni qayta tiklash, tarixiy muhitni jonlantirish, global auditoriyaga taqdim qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi.

Amir Temur davridagi madaniy obidalarni 360° virtual ekskursiyalar orqali targ’ib qilish mumkin. Buning uchun maxsus VR ilovalar ishlab chiqish, turizm markazlarida VR kabinalari o‘rnatish, tarixiy joylarni raqamlashtirish va interaktiv sayohatlar tashkil etish lozim. Shuningdek, O‘zbekiston tarixiy yodgorliklarini butun dunyoga tanitish uchun maxsus VR muzey yaratish ham dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu muzey Amir Temur va temuriylar tarixiga bag’ishlangan interaktiv ko‘rgazmalarni o‘z ichiga olishi, 3D rekonstruksiyalar orqali tarixiy yodgorliklarning asl holatini ko‘rsatishi va foydalanuvchilarni o‘sha davr muhitiga olib kirishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tarixiy-tahliliy, solishtirma tahlil, axborot tizimlari va texnologiyalarini tadqiq etish, eksperimental, ekspert so‘rovi va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Amir Temur davridagi madaniy yodgorliklarni virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida targ’ib qilish imkoniyatlarini o‘rganish va shu yo‘nalishda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tarixiy-tahliliy usul orqali Amir Temur va Temuriylar davridagi madaniy obidalar haqida mavjud yozma manbalar, ilmiy tadqiqotlar va arxiv materiallari o‘rganildi. Ushbu yodgorliklarning me’moriy xususiyatlari, tarixiy ahamiyati va ularni saqlash masalalari tahlil qilindi. Solishtirma tahlil usuli yordamida jahonda VR texnologiyalari asosida madaniy merosni targ’ib qilish bo‘yicha ilg’or tajribalar o‘rganildi va O‘zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqildi. Axborot tizimlari va texnologiyalarini tadqiq etish usuli orqali VR texnologiyalarining hozirgi holati, turizm va madaniy merosni saqlashdagi imkoniyatlari, mavjud dasturiy va apparat vositalarining afzalliklari va kamchiliklari o‘rganildi. Eksperimental usul doirasida VR texnologiyalaridan foydalanib yaratilgan virtual ekskursiyalar yoki 3D modellashtirish loyihalari sinovdan o‘tkazilib, ularning samaradorligi baholandi. Ekspert so‘rovi va intervyu usuli yordamida madaniy merosni saqlash, turizm va axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning fikrlari tahlil qilindi. Statistik tahlil orqali O‘zbekistonning tarixiy yodgorliklariga bo‘lgan qiziqish, VR texnologiyalarining turizm sohasidagi ta’siri va xorijiy hamda mahalliy sayyohlar orasida virtual sayohatlarga ehtiyoj masalalari o‘rganildi. Olingan natijalar asosida VR texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va madaniy merosni raqamlashtirishning istiqbollari belgilandi. Ushbu tadqiqot natijasida Amir Temur davridagi madaniy yodgorliklarni virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida targ’ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari madaniy merosni saqlash va ommalashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Amir Temur va Temuriylar davriga oid

madaniy yodgorliklarning VR texnologiyalari orqali interaktiv ravishda taqdim etilishi natijasida virtual ekskursiyalar va ta'lim loyihalarini amalga oshirish imkoniyati kengayadi.

Olingan ma'lumotlar asosida VR asosidagi muzeylar, 3D rekonstruksiya qilingan tarixiy obidalar va turistik xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, turizm sohasi uchun innovatsion yechimlar taklif qilinib, sayyohlarning madaniy meros ob'ektlariga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda O'zbekistonning jahon madaniy merosi tizimidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Natijalar turizmni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, madaniy merosni virtual muhitda saqlash va ommalashtirish, shuningdek, xorijiy hamkorlikni kengaytirish uchun zarur ilmiy va texnologik asoslarni yaratishga xizmat qiladi.

1-rasm.Tahliliy chizmasi.

Ushbu tadqiqot natijasida Amir Temur davridagi madaniy yodgorliklarni virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali targ'ib qilishning dolzarbligi va samaradorligi aniqlandi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarixiy merosni saqlash, o'rganish va targ'ib qilishning yangi usullarini yaratishga imkon bermoqda.

Tadqiqot davomida tarixiy yodgorliklarni VR yordamida raqamlashtirish nafaqat ularning saqlanishini ta'minlash, balki ularni keng auditoriyaga interaktiv va qiziqarli shaklda yetkazish imkoniyatini berishi isbotlandi. Virtual sayohatlar, 3D rekonstruksiyalar, interaktiv muzeylar va ta'lim loyihalari orqali madaniy merosning jahon hamjamiyatiga tanitilishi milliy turizmni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Takliflar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

VR texnologiyalarini madaniy merosni targ'ib qilish strategiyasiga joriy etish – Amir Temur davriga oid yodgorliklarning virtual ekskursiyalarini ishlab chiqish va ularni turizm va ta'lim sohalarida keng qo'llash.

3D modellashtirish va raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish – tarixiy obidalarni virtual reallikda qayta tiklash va ularni turli onlayn platformalar orqali taqdim etish.

Virtual muzeylar yaratish – O'zbekistonning madaniy merosini dunyo miqyosida targ'ib qilish uchun xalqaro talab va standartlarga mos ravishda VR muzeylarni ishlab chiqish.

AMIR TEMUR DAVLATINING SHAHARLARIDA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANISHI

Mirzaev Avazbek Tolibjonovich,
Andijon davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Amir Temur markazlashgan davlat barpo etguniga qadar O'rta Osiyo va unga qo'shni xududlarning xalq ommasi nihoyatda og'ir azob-uqubatlar, qiyinchiliklar bilan hayot kechirayotgan edi. Mo'g'ullarning vayrongarchilik va buzg'unchilik ishlari tufayli mehnatkash aholining yashash sharoiti og'ir ahvolga tushib qoldi. Mo'g'ullargacha gullab-yashnagan shaharlar harobaga yuz tutgan, bu yerda taraqqiy topgan hunarmandchilik tanazzulga uchragan edi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan keyin, u mamlakatda qayta tiklash ishlari, obodonchilik, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratdi. Mehnatkash xalq, jumladan, hunarmand qatlamiga mansub kishilarning yashash darajasi markazlashgan davlat tashkil topganidan keyin ancha yaxshilandi. Shaharlarda, madaniyat markazlarida yaratuvchilik, obodonchilik ishlari nihoyatda kuchayib ketdi.

Eng avvalo, mo'g'ullar istilosi oqibatida vayron qilingan shaharlar tiklana boshladi. Qayta tiklangan shaharlarda yana aholi kelib o'rnasha boshladi. Vayron etilgan sug'orish tarmoqlarining qayta tiklanishi, ekinzorlarning o'zlashtirilib, irrigatsiya tarmoqlarining barpo etilishi bilan dehqonchilik ishlab chiqarishi ham jonlana boshladi. Dehqonchilikni taraqqiy etishi, albatta, hunarmandchilik ishlab chiqarishiga chambarchas bog'liq edi. Dehqonlarga birinchi navbatda zarur bo'lgan narsa – qishloq xo'jalik asbob-uskunalari edi. Shahar hunarmandlari o'z ustaxonalarini tashkil etib, dehqonlar uchun zarur bo'lgan ketmon, o'roq, arava, belkurak, arra, tesha, bolta kabi mahsulotlarni ishlab chiqara boshladilar[34].

[34] Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур (Ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Тошкент., «Абдулла Қодирий» нашриёти, 1996.

Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyatning barqarorligi yirik shahar va tumanlarda amalga oshirilgan obodonchilik hamda dehqonchilikning kengayishi mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o‘rni tutgan hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib berdi. XV asrda, xususan uning oxirgi choragi hamda XVI asr boshlarida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, iste’mol mollari ishlab chiqarish g’oyat ko‘payadi.

Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko‘pgina shaharlari o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi bilan o‘rta asr Sharqining hurnarmandchilik va gavjum savdo markazlariga aylanadi. Hunarmandchilik rivoj topib, uning turli-tuman tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashuvining kuchayishi shaharlarning tarixiy topografiyasini ham o‘zgartirib yubordi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog’liq bo‘lgan yangi guzarlar, ko‘chalar, bozor rastalari, tim va toklar vujudga keldi. Ko‘pgina shaharlarda zargaron (zargarlik), misgaron (misgarlik), so‘zangaron (ignasozlik), sovutsozon (sovutsozlik), sangtaroshon (toshtaroshlovchilar), shishapazon (shishagarlar), charmgaron (ko‘nchilik), kamongaron, pichoqsozlik, egarchilik kabi hunarmandchilik mahallalari bo‘lgan.

XIV asr oxiri – XV asrda Movarounnahr shaharlarida hunarmandchilikning yetakchi sohalaridan biri to‘qimachilik edi. Shaharlik to‘quvchilar turli xildagi oddiy va qimmatbaho matolarni to‘qish bilan shug’ullanar edilar. Bu davrda qimmatbaho matolarga talab ortdi. Tor doiradagi zodagonlar talabini qondirish maqsadida juda qimmatbaho turdagi gazlamalar ishlab chiqarilar edi. Bu davrga oid matolar orasida baxmal alohida o‘rin tutgan. Baxmaldan zodagonlar uchun kiyim va badavlat xonadonlarda ko‘rpa-ko‘rpacha, choyshab va yostiq tayyorlangan. Baxmaldan g’ilof ham tayyorlangan. Samarqanddagi maqbaralardan birining vaqf mulki ro‘yxatida Qur’on o‘ralgan baxmal parchasi ham eslatib o‘tiladi. Samarqandda baxmalning qizil rangli alohida turi ishlab chiqarilgan. Qirmiz hashoratidan olinadigan rangga bo‘yab tayyorlanadigan bu mato «baxmali qirmizi» nomi bilan mashhur edi. Bunday mato boshqa mamlakatlarga ham olib ketilganligi uning qimmatbaholigi va oliy sifatliligiga dalolatdir. «Samarqandning yana bir matosi qirmizi mahmaldurkim, atrof va javonibka eltarlar»[35].

Oliy navli jun mato – siqarlot ham qirmizi rang bilan bo‘yalar edi. Siqarlotdan yuqori tabaqa vakillari uchun ustki kiyimlar tikilgan. Shuningdek, bu matodan qimmatbaho chodirlar ham tayyorlangan.

Amir Temur va temuriylar davrida qimmatbaho matolar orasida kimxob muhim o‘rin tutgan. Manbalarda yuqori lavozimli kishilarning uy jihozlari orasida kimxobdan tikilganlari ham eslatib o‘tiladi. Jumladan, ko‘rpa-to‘shak,

[35] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент., «Юлдузча», 1989.

boshqa qimmatbaho buyumlar, shuningdek, Qur'onni saqlash uchun kimxobdan tikilgan xalta va xokazo. Kimxobdan qimmatbaho libos ham tikilgan. Yozma manbalarda, ayniqsa, kimxob to'nlar tez-tez tilga olinadi. Amir Temur saroyiga o'zga yurtlardan kelgan elchilarga kimxob to'nlar kiydirilgan. Masalan, Samarqandga Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo bilan kelgan kishilarga ham shunday to'nlar kiydirilgan. Qimmatbaho katan matosi ham aholining zodagon qismi orasida mashhur edi. Undan libos va dasturxon tayyorlangan.

O'sha davrda ishlab chiqarilgan olacha gazlamasi paxta tlasidan tayyorlangan, lekin nim ipak ko'rinishida ham bo'lishi mumkin edi. Odatda, asosan yo'l-yo'l chiziqlar bilan bezatilgan olachaga aholining talabi katta edi. Ilk o'rta asrlardan mashhur bo'lgan zandanachi matosiga XIV-XV asrlarda ham talab katta bo'lib, u paxtadan tayyorlanar edi.

Xullas, Movarounnahr hunarmandlari paxta, ipak va jundan xilma-xil mato tayyorlashgan. Muayyan gazmol turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloqlar ma'lum. Buxoro yaqinidagi qachonlardir zandanachi gazmoli ishlab chiqaruvchi ustaxonalari bilan mashhur bo'lgan Zandana qishlog'i shular jumlasidan.

XV asrda metalldan qurol-yarog' va ro'zg'or buyumlari yasash takomillashdi. Hunarmandchilikning turli sohalariga ixtisoslashish kuchaydi. Ular orasida mix yasovchilar, taqachilar, sim cho'zuvchilar, pichoqchilar kabi turli xil buyumlar yasovchi ustalar bo'lgan. Bu davrda Samarqand saltanat poytaxti sifatida qurol-yarog' yasaladigan markaz bo'lib qoldi. Shaharda hatto maxsus sovutsozlar mahallasi vujudga kelgan edi. Qurolsozlikda qilich, qalqon, o'q-yoy, dubulg'a va sovutlar hamda jibalar yasalardi. Hokimlar, sarkarda-amirlar uchun yasalgan maxsus qurollar oltin va kumush qoplamali, qimmatbaho toshlar qadalgan naqshinkor bo'lardi.

Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'zining kundaligida Samarqanddagi Ko'ksaroy qasri va undagi podshohga tegishli qurol ishlab chiqaruvchi ustaxona haqida quyidagilarni yozgan: «Bu yerga podshohning fvrmoyishiga binoan, bir mingga yaqin hunarmand asirlar joylashtirilgandi. Ular saltanat uchun yil bo'yi sovut, dubulg'a, kamon, nayza yasaydilar»[36].

Buyoq to'qimachilik va kulolchilikdan tashqari, hunarmandchilikning boshqa sohalarida ham ishlatilgan. Jumladan, qog'oz ishlab chiqarishda ham tabiiy va ba'zi mineral buyoqlar keng qo'llanilgan. Boy bezaklar bilan bitilgan ko'pgina qo'lyozmalarning hoshiyasiga pushti, och feruza, marg'ish, havorang qog'ozlardan kesib yopishtirilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand qog'ozi juda mashhur bo'lib, bu yerda qog'ozning bir necha xil navlari ishlab chiqarilgan. Oliy navli qog'ozni asosan hukmdorlar va ularga yaqin amirlar, yirik davlat amaldorlari ishlatishgan. Shuning uchun bunday qog'oz «Sulton qog'ozi» nomi bilan

[36] Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент., «Ўқитувчи», 1994.

mashhur bo‘lgan. Samarqandlik hunarmandlar past sifatli qog’oz ham ishlab chiqarganlar. O‘sha davr qo‘lyozmalarida «toza va oq qog’oz» va oddiy qog’ozning eslatib o‘tilishi bejiz emas. Samarqand temuriylar davrida ham Sharqning qog’oz ishlab chiqaruvchi markazlaridan biri bo‘lib qoldi.

Movarounnahr hunarmandligining taraqqiy etgan muhim sohalaridan biri – kulolchilik Amir Temur davrida yanada rivojlandi. Hunarmand kulollar turli idish-tovoqlar yasashgan. Amir Temur qal’asi xududida topilgan XV asr arxeologik osori atikalari orasida har xil kosa, katta va kichik laganlar, tog’ora, shuningdek, chiroq mavjudligi buning dalilidir. Bu davrda hashamatli binolarni bezashda qo‘llaniladigan koshinkor taxtachalar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan sifatli loy tayyorlashning unutilib ketgan usuli qayta tiklandi. Natijada koshinlar ko‘plab ishlab chiqarila boshlandi.

Amir Temur hukmronligi davrida bunyod etilgan me’moriy obidalar qatorida Samarqand jome’ masjidi yoki Bibixonim masjidi qurilishi borasida turli fikrlar mavjud. Masjid qurilishida mahalliy va turli xududlardan keltirilgan usta-me’morlar ishlagan. Amir Temur masjid qurilishi tugaganidan so‘ng Dilkusho bog’ida bazm uyushtirib, ustalarga to‘nlar kiydirib, otlar in’om etgan[37].

Amir Temur davrida tanga zarb etish uchun konlardan kumush qazib olingan. Amir Temur va temuriylar davlatida qimmatbaho metallarni qayta ishlash bilan bog’liq hunarmandlik sohalari ham ancha rivoj topdi. Amir Temur davrida zarb qilingan tanga pul eng asosiy to‘lov vositasi sifatida davlatning ichaki va tashqi savdo aloqalarida qullaniladigan yagona pul birligi bo‘lganligi uchun ham bu pullar Amir Temur davlatining xalqaro siyosiy va iqtisodiy qudratini oshirishga va mustahkamlashga xizmat qilgan[38].

Amir Temur davlati shaharlarida rivoj topgan hunarmandlik turlaridan biri etikdo‘zlik edi. Ishlab chiqariladigan poyabzal turiga qarab bu hunarmandlar maxsido‘z, yumshoq tag charmli etik tikuvchi, kavshdo‘z, qattiq tag charmli etik tikuvchi muzado‘zlar kabi mutaxassislarga bo‘linar edi. Erkaklar poyabzali ko‘plab tayyorlanar edi. Eski poyabzal ta’mirlovchi qo‘hnado‘zlar ham etikdo‘zlarning alohida guruhini tashkil etgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Amir Temur va temuriylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda Movarounnahrning shaharlarida hunarmandchilik sohalarining rivojlanishini ayrim jihatlarini tahlil etish Vatanimiz tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

[37] Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият. – Тошкент,, «Akademnashr», 2013.
[38] Темурийлар тарихига оид манбалар. – Тошкент., «Akademnashr», 2011.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR-ADOLATLI HUKMDOR VA YUKSAK MA'NAVIYAT EGASI

Sabirov Dilmurod Nabijonovich,
Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 4-sonli umumiy
o'rta talim maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari (tarix fani o'qituvchisi)

Mustaqilligimiz sharofati bilan tarixni xolisona o'rganish, tarixni soxtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib ma'lumot berish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Chunki uzoq yillar mobaynida mustalaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning mavqeyini munosib o'rniga qo'yish imkonidan mahrum edi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak" deb ta'kidlagandi. Bu bejiz aytilmadi, albatta. Zero, xalqimiz, ayniqsa millatning kelajagi bo'lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalar ko'p o'rgansa, ularning hayoti va faoliyatidan ibrat va saboq olib yashasa, qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari jo'sh urib, elu yurtga bo'lgan muhabbati yana-da ortadi.

Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda esa, xalqimiz tarixida o'tgan ko'plab buyuk siymolar qatorida, Sohibqiron Amir Temur qadriyatini o'rganish ham muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega.

Ma'lumki, Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo'lganligi, hamda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, saltanat taraqqiyoti yo'lida amalga oshirgan islohotlari borasida uning zamondoshlari ham, keyingi davr olimlari va siyosatchilari ham o'z fikrlarini bayon etganlar.

"Temur tuzuklari"da yozilganidek: «Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim. Ulug'larini ota qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el-yurt va shaharning rasmu odatlari va mizojidan voqif bo'lib turdim. Har bir yurt va shahar aholisining ulug'lari bilan do'st tutindim. Ularning mizojlari va tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim.»

Ma'lumki, saxovatpeshalik, mehr-muruvvatlilik, fuqaroning turmushi va hol ahvolidan xabardor bo'lish faqat buyuk davlat arboblariga xos bo'lgan fazilatdir.

Darhaqiqat o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unitilishga mahkum etildi. Bundan ko'rinadiki xalqimizning yuragidan milliy ong, millliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, xalqni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z

ajdodlarini, o‘z bahodirlarini unitmadi, hamisha yuragida, qalb to‘rida saqladi. Muhammad Tarag’ay Bahodir o‘g’li Amir Temur yoshlik chog’idan mard, dovyurak, g’ururli, o‘tkir zexn va aql-idrok egasi bolib o‘sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san’atni egalladi, Quroni Karimni yod oldi, hadis ilmini o‘rgandi, iymon-etiqodli, halol-pok inson bo‘lib yetishdi. Olamning qariyib yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat, zo‘rlik, zo‘rovonlik emas adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois bo‘lsa kerakki, o‘tmishda ilm ahli, mashhur muarrixlar o‘z asarlarida Amir Temur ismiga Ko‘ragon, Sohibqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qoshib, uni e’zozlab, ulug’lab, hikoyat, rivoyat va xotiralar bitganlar. Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfellik, adolat, saxovat, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o‘rinlari qanday bo‘lishidan qat’iy barchani birdek hurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo‘lish, berilgan vada va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan. U yoshligidan o‘z oldiga ona yurtni mo‘g’ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo‘ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko‘tarib, dunyoga mashxur qildi. Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida Sharq va G’arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo‘ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa she’riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko‘p an’analari takomiliga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din axillariga ko‘rsatgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir. Amir Temur nomi tarixda Movarounnaxr va buyuk Turkiston o‘lkalarida ilm-fan homiysi sifatida ham qolganini ta’kidlash lozimdir. Ma’lumki, u nafaqat o‘z mamlakatini, balki o‘zga o‘lkalarni ham obod qilish uchun katta kuch va g’ayrat sarflagan. Doktor Shamsuddin Samiyning ***“Alq A’lom”*** qomusining “Temur” bandida Amir Temurning o‘zi olim bo‘lgani, ulamolarning rahnamosi, ularni yaxshi ishlarga rag’batlantiruvchi shaxs ekanligi zikr etilgan va o‘z poytaxti Samarqandni katta g’ayrat bilan obod qilib, u yerda qator madrasa, kutubxona va madaniyat saroylarini barpo etgani, ***“Tuzuklar”*** nomi bilan asar yozib, turli qonunlar yaratgani, o‘z tarjimayi holini ham adabiy, chig’atoy tilida yozgani hamda Temur va temuriylar davrida san’at va adabiyotning rivoj topganini eslatib o‘tadi. Shuningdek, doktor Shamsuddin Boboxonov Amir Temur buyuk lashkarboshi, mohir sarkarda sifatida mukammal, yaxshi qurollangan, tezkor hujum qilishga qodir, muayyan taktik va strategiyaga ega bo‘lgan qudratli armiyaga asos soldi. Bu armiya o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanliklarga bo‘lingan edi. Amir Temurning harbiy san’ati, uning taktika va strategiyasi ko‘p mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning harbiy akademiyalarida, maxsus o‘rganilgan va hozirgi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda deb, ta’kidlashi ham Sohibqiron Amir Temurning buyukligidan dalolat beradi.

Zamondosh tarixchilar sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari - davlat, mamlakat va fuqaroning g'amxo'ri bo'lganligi edi deb e'tirof etishadi, jahongirlik qoidasi esa haqiqat sihat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat deb tushinilgan. Buyuk bobokalonimiz har doim "insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi", degan hikmatli so'zlarni takrorlashni xush ko'rgan va o'z hayoti davomida bunga qat'iy amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odob-axloq, iymon-etiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishoch hosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid qoidalar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya.

Tarix fanlari doktori Ashraf Axmad Sohibqiron Amir Temurning o'zi amal qilgan sifatlarni yuksak baholaydi. Bular quyidagilar:

- Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim. Boyni kambag'aldan ustin qovymadim;
- Islomga qat'iy rioya qildim;
- Men kambag'allarga ko'p xayr-exson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim;
- Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim;
- Birovga nohaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'kragidan itarmadim;
- Islomga taaluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustin qilib keldim;
- Barcha so'zlarimdan doim haqiqatgo'ylikka amal qildim;
- Men har kimga va'da bersam, unga vafo qildim;
- Doimo o'zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim;
- Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim;
- Men doim saidlarga ehtirom bilan qaradim, ulamo va shayxlarni ezozladim. Shunday qilib sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni bitmas tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o'gitlar sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish, goh muvaffaqqiyatli, gohmuvaffaqqiyatsiz, goh quvonchli, goho sertashvish anduhli umirining ijodiy mevasidir. Bu o'gitlar xalqlarning bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqqiyatlarga erishtirgan sexrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona-pedagogikadir.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Sohibqiron Amir Temur o‘gitlarini uning mohiyati va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1) Islom dini va shariat qonunlari haqidagi o‘git-nasihatlar;
2) Davlat va uni idora etish;
3) Podsho va vazirlar haqida o‘git-nasihatlar;
4) Axloq va odobga oid o‘git-nasihatlar.

Ushbu qayd etilgan pand-nasihatlar sohibqironning o‘z tajribasida sinalgan, hayotga tadbiq etilgan juda katta ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalaridir. Shu sababli ham ular Temur va temuriylar sulolasi davrida ta’lim-tarbiya tizimida katta ahamiyatga molik bo‘ldi. Amir Temurning Movaraunnaxrda fan, ma’rifat va madaniyat sohasidagi sa’yiharakatlari jahon taraqqiyoti tarixida musulmon renessansi deb atalgan ilmiy, ma’rifiy va madaniy yuksalishga olib keladi. Ulug’bek, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Jomiy, Navoiy, Behzod, Bobur va Boburiylar ana shu sharq yuksalishi avj olgan davr farzandi edilar.

Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnaxrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar imkon darajasida yoritilgan. Amir Temurning ilm-fan maorif, madaniyat ravnaqi yo‘lidagi tadbirlari, uning Mirzo Ulug’bek, Shoxrux Mirzo, Husayn Boyqaro va boshqalar tomonidan yanada rivojlantirilishi haqida so‘z yuritiladi. Ishda islom dini, uning mamlakat ilm-fan, maorif taraqqiyotiga ta’siri ham yoritiladi. “Amir Temur - buyuk shaxs, - deb yozadi akademik B.Axmedov-kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me’mor, notiq, ruxshunos, shu bilan birga el-yurt sevgan va uni mashxur qilgan inson” U yetti iqlim Sohibqironi, 27- mamlakatni birlashtirib buyuk saltanatni vujudga keltirgan Movaraunnaxr Amir Temur va Xurosonda madaniyat, ilmu-ma’rifat, ta’lim-tarbiyani yanada rivojlantirib uni dunyoga tanitadi. U haqiqatdan ham ko‘p qirrali aql, salohiyat egasi, donishmand bo‘lgan. Uning shaxsi haqida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: “Muhammad Tarag’ay Bahodir o‘g’li – Amir Temur yoshlik chog’laridan mard, dovyurak, g’ururli, o‘tkir zexn va idrok egasi bo‘lib o‘sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san’atni egalladi”,- deb aytgan edi. Quroni Karimni yod oldi. Hadis ilmini o‘rgandi. Imonetiqodli, halol pok inson bo‘lib etishdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sohibqiron Amir Temur hazratlari milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki yurt obodonchiligi va xalq farovonligi yo‘lida bor kuch-g‘ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi sifatida qoladi.

Sohibqiron Amir Temur buyuk sarkarda, adolatli shoh Amir Temur Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullarning 150-yillik hukmronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va uni dunyoga tanitgan, shuningdek, Movaraunnaxrda fan va madaniyat ravnaqining asosini yaratgan shaxs sifatida mashhurdir. O‘z davrida

Turkistonda hunarmandchilik, qurilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan. Bu esa kelajak avlodga ta'lim-tarbiya berishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

TEMURIYLAR DAVLATI: IQTISODIY SIYOSAT VA MADANIY TARAQQIYOT UYG'UNLIGI

Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan Temuriylar davlati (XIV–XV asrlar) o'zining harbiy-siyosiy qudrati, iqtisodiy rivojlanish siyosati va madaniy-ma'naviy yuksalishi bilan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Sohibqiron Amir Temur asos solgan bu davlat qisqa vaqt ichida keng hududlarni o'z ichiga olgan yirik imperiyaga aylanish bilan birga, ichki boshqaruv, soliq tizimi va savdo aloqalarini kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishga intilgan. Ayniqsa, Temur va uning vorislari tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat davlatning moddiy asoslarini mustahkamlab, madaniy yuksalish uchun zamin yaratgan.

Temuriylar davri – bu nafaqat harbiy yutuqlar zamoni, balki ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va san'at taraqqiy etgan yuksak davr sifatida ham tarixda alohida o'rin tutadi. Xususan, Movarounnahr, Xuroson va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik, xalqaro savdo va ilmiy markazlar rivojlanib, Sharq uyg'onishining muhim bosqichini tashkil etdi. Ushbu davrda iqtisodiy siyosatning oqilona olib borilishi madaniy taraqqiyot bilan uyg'unlashib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitni shakllantirishda asosiy omil bo'ldi.Mazkur ilmiy maqolada Temuriylar davlatining iqtisodiy siyosati va madaniy taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Iqtisodiy strategiyalar qanday qilib madaniy rivojlanishga zamin yaratgani, shuningdek, bu uyg'unlikning mintaqaviy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati tarixiy manbalar asosida ilmiy asosda yoritiladi.

Temuriylar davlati tarixini o'rganishda tarixiy-huquqiy hujjatlar, zamonaviy tadqiqotlar va xorijiy manbalar birgalikda tahlil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davr iqtisodiy siyosati va madaniy taraqqiyotini chuqur anglash uchun bir nechta muhim manbalarga e'tibor qaratiladi.

Birinchi navbatda, Amir Temur tomonidan yozilgan "Temur tuzuklari" asari bevosita davlat boshqaruvi, iqtisodiy faoliyat, soliqqa tortish siyosati, xalqaro savdo va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning nazariy asoslarini ochib beradi. Ushbu asar Temurning siyosiy qarashlari va davlatni boshqarishdagi asosiy tamoyillarini yoritishda eng muhim birlamchi manba hisoblanadi[39]. Shuningdek, tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma" asari Amir Temurning hayoti va faoliyatini tasvirlash barobarida, u asos solgan

[39] Amir Temur Ko'ragon "Temur tuzuklari", Toshkent "Ijod-press" 2019.

davlatning iqtisodiy infratuzilmasi, qurilish ishlari, savdo yo'llarining tiklanishi va madaniy markazlarning rivojiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu asarda Samarqandning yirik iqtisodiy va madaniy markazga aylanishi tafsilotlari bilan tasvirlangan.

Temuriylar davrining iqtisodiy siyosati bo'yicha zamonaviy tarixshunoslikda akademik B. Ahmedovning "Amir Temur" nomli asari asosiy manbalardan biridir. Unda Temuriylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, savdo-sotiq aloqalari va davlat budjeti bilan bog'liq masalalar chuqur yoritilgan[40].

Xalqaro miqyosda, mashhur tarixchi Beatrice Forbes Manzning "The Rise and Rule of Tamerlane" asari Temuriylar davlati iqtisodiyoti va harbiy siyosatining o'zaro ta'siri, shuningdek, davlatning Yevroosiyo mintaqasidagi o'rni haqida chuqur ilmiy xulosalar beradi[41]. Shuningdek, David Morganning "Medieval Persia 1040–1797" nomli asarida Temuriylar davlatining iqtisodiy tizimi Eron va Movarounnahr tarixiy konteksti bilan qiyosiy tahlil qilingan[42].

Xulosa qilib aytganda, temuriylar davlati iqtisodiy siyosati va madaniy taraqqiyoti masalalarini tadqiq etishda tarixiy hujjatlar, sharqshunoslik manbalari va zamonaviy tarixiy-adabiy izlanishlar o'zaro uyg'un holda tahlil qilinmoqda. Bu esa mavzuni kompleks yondashuv asosida o'rganish imkonini beradi.

Mazkur ilmiy maqola Temuriylar davrida amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat va madaniy taraqqiyot jarayonlarining o'zaro uyg'unligini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda tarixiy-komparativ, tizimli yondashuv va manbashunoslik metodlari asosiy ilmiy asos sifatida tanlandi. Shuningdek, ushbu yondashuvlar davlatning iqtisodiy modelining o'ziga xosligini, savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirishdagi strategiyalarni va soliq siyosatini aniqlash imkonini berdi. Xususan, Amir Temur hukmronligidagi davr bilan Mirzo Ulug'bek zamonasi iqtisodiy siyosatining tahlili o'tkazildi. Shu bilan bir qatorda Temuriylar davlatining iqtisodiy siyosati bilan madaniy taraqqiyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'rganildi hamda davlat tomonidan olib borilgan iqtisodiy islohotlarning ilm-fan, san'at, me'morchilik va adabiyotga qanday ta'sir ko'rsatgani aniqlashtirildi. Ayniqsa, iqtisodiy barqarorlik madaniy rivojlanish uchun qulay zamin yaratganligi ilmiy asosda ko'rsatib berildi.

Tadqiqot davomida Amir Temur va Temuriylar sulolasi faoliyatiga oid birlamchi tarixiy hujjatlar ya'ni "Temur tuzuklari", "Zafarnoma" hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tanlab olinib, tahlil qilindi. Bu yondashuv tarixiy faktlarni ob'ektiv va manbaga asoslangan holda yoritish imkonini berdi.

---

[40] Bo'riboy Ahmedov "Amir Temur" tarixiy roman, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-1995. 640.b.

[41] Beatrice Forbes Manz "The Rise and Rule of Tamerlane" Cambridge University Press-1989, 227.p

[42] David Morgan "Medieval Persia 1040–1797" Routledge-2016.

Tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida, tahlil qilingan barcha manbalar tanqidiy yondashuv orqali saralandi va tarixiy voqealar voqelik nuqtayi nazaridan qayta baholandi. Bu esa natijaviylik va xolislikni ta'minlashga xizmat qildi.

Temuriylar davlati tarixini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu davrda iqtisodiy siyosat va madaniy taraqqiyot bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi ikki asosiy omil sifatida qaralgan. Davlat boshqaruvida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali ilm-fan, san'at, adabiyot va arxitekturaning yuksalishiga sharoit yaratilgan.

Birinchidan, Temuriylar davridagi iqtisodiy siyosat markazlashgan boshqaruvga tayangan bo'lib, soliqlar tizimi, yer-suv islohoti va savdo-sotiq siyosati davlat darajasida qat'iy tartibga solingan. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan va "Temur tuzuklari"da bayon etilgan iqtisodiy tartibotlar ichki barqarorlikni mustahkamlab, xalqaro savdo aloqalarini jonlantirishga xizmat qilgan. Yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro, Hirot va boshqa markazlar nafaqat iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyot o'choqlariga aylangan.

Ikkinchidan, madaniy taraqqiyot Temuriylar iqtisodiy siyosatining bevosita mahsuli sifatida shakllangan. Iqtisodiy o'sish va sarmoya yig'ilishi natijasida yirik ilmiy maktablar, kutubxonalar, madrasalar va me'moriy obidalar barpo etilgan. Xususan, Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda ochilgan rasadxonalar, astronomik kuzatuv markazlari va Ulug'bek madrasasi iqtisodiy qudrat tufayli faoliyat yurita olgan.

Uchinchidan, savdo yo'llarining tiklanishi va karvon yo'llarining himoya qilinishi iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri bo'lgan, bu esa o'z navbatida madaniyatlararo almashinuvni kuchaytirgan. Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalari rivojlangan, bu esa iqtisodiy daromadlarni ko'paytirish bilan birga, yangi g'oyalar, texnologiyalar va san'at yutuqlarining kirib kelishiga imkon yaratgan.

To'rtinchidan, me'morchilik va shaharsozlik sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli loyihalar ham Temuriylar iqtisodiy siyosatining natijasidir. Masalan, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi singari me'moriy obidalar iqtisodiy salohiyat va estetik qarashlarning uyg'unlashgan mahsulidir. Bu obyektlar nafaqat diniy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki xalq orasida madaniy yuksalish ramziga aylangan[43].

Beshinchidan, Temuriylar davlati siyosatida ilm-fan va ijodkorlarga ko'rsatilgan homiylik siyosati ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida qaralgan. Bu esa adabiyot, tarix, matematika, astronomiya, falsafa kabi sohalarda yirik olimlar yetishib chiqishiga xizmat qilgan.

[43]A.Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi" 7-sinf, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2017.

Xulosa sifatida, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Temuriylar davlati taraqqiyotida iqtisodiy siyosat va madaniy yuksalish o‘zaro chambarchas bog’liq bo‘lgan. Bu uyg’unlik davlatning siyosiy qudratini mustahkamlash, xalqaro maydondagi nufuzini oshirish hamda jahon sivilizatsiyasiga sezilarli hissa qo‘shishga xizmat qilgan. Temuriylar tajribasi bugungi kunda ham iqtisodiy barqarorlik bilan madaniy yuksalishning uyg’unligini ta'minlashda dolzarb tarixiy ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot Temuriylar davridagi iqtisodiy siyosat va madaniy taraqqiyotning o‘zaro uyg’unligini o‘rganish maqsadida amalga oshirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Temuriylar davlatining iqtisodiy siyosati madaniy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratgan. Temuriylar hukmronligi ostida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, savdo yo‘llarini rivojlantirish, soliqlar tizimi va yer islohoti kabi chora-tadbirlar, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki madaniy va ilmiy taraqqiyotning kuchayishiga xizmat qilgan.

Temuriylar davrida yirik shaharlar, xususan, Samarqand va Buxoroning madaniy markazlar sifatida rivojlanishi, ilm-fan va san'at sohalarida yirik yutuqlarga erishilishi, iqtisodiy o‘sishning bevosita natijasi bo‘ldi. Davlat tomonidan ilmiy va madaniy tadqiqotlarga homiylik qilish, o‘z vaqtida arxitektura, adabiyot, astronomiya va boshqa fanlar sohasida dunyoga mashhur yutuqlarni taqdim etdi.

Shuningdek, Temuriylar davrining iqtisodiy va madaniy uyg’unligi bir-birini to‘ldirib, xalqaro aloqalar va savdo tizimining yuksalishiga xizmat qilgan. Savdo yo‘llarining tiklanishi va madaniy almashinuvlarning kuchayishi, Temuriylar davlatining nafaqat mintaqaviy, balki global siyosiy va madaniy sahnada kuchli o‘rin egallashiga imkon yaratdi.

Shuningdek, temuriylar davlatidan olingan tajribaga asoslanib, zamonaviy davlatlarning madaniy va iqtisodiy rivojlanishini yaxshilash uchun quyidagi takliflar beriladi:

- Iqtisodiy va madaniy siyosatni uyg’unlashtirishning muhimligi;
- Ta'lim va ilm-fan sohasida homiylikni kuchaytirish;
- Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish;
- Global savdo tarmoqlarini rivojlantirish;
- Madaniy va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash.

Temuriylar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy barqarorlik va madaniy taraqqiyot o‘rtasidagi uyg’unlik davlatning global maydonda mustahkam pozitsiyasini saqlab qolish uchun muhimdir. Shu bois, davlat siyosatida ushbu ikki sohaning bir-biriga ta'sirini doimiy ravishda tahlil qilish va muvofiqlashtirish zarur.

TEMURIYLAR DAVLATI: SOHIBQIRON MEROSI

Gapparov Bexzod Nematillayevich,
Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi

Tarixdan bizga ma'lumki, Temuriylar davlati – XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini o'z ichiga olgan yirik imperiya bo'lib, uning asoschisi Amir Temur (1336-1405) edi. U zehnli sarkarda va mahoratli davlat arbobi sifatida ulkan hududlarni birlashtirib, mustahkam markazlashgan davlat barpo etdi. Temuriylar davri nafaqat harbiy yutuqlari, balki fan, madaniyat va me'morlikning yuksalishi bilan ham tarixda alohida o'rin tutadi.

Shunday ekan, Temuriylar davlatining tashkil topishi va rivojlanishi Amir Temurning mukammal boshqaruv tizimi, iqtisodiy islohotlari va adolatli davlat siyosatiga asoslangan edi. U turli hududlarni yagona bir markazdan boshqarib, savdo yo'llarini rivojlantirish, shaharsozlikni kuchaytirish va ilmiy-ma'rifiy muhitni taraqqiy ettirishga katta e'tibor qaratgan.

Temuriylar davrida Samarqand va Hirot kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlar sifatida shakllangan. Bu davrda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi ulkan mutafakkirlar va san'atkorlar yetishib chiqdi. Shuningdek, ushbu davrda me'morchilikning noyob durdonalari biri bo'lgan Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va Hirotdagi ulkan madrasalar barpo etildi.

Bundan tashqari, Temuriylar davlati jahon sivilizatsiyasiga ulkan ta'sir ko'rsatgan davlatlardan biri bo'lib, uning siyosiy va madaniy merosi bugungi kungacha muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda Temuriylar davlatining paydo bo'lishi, rivojlanishi, uning madaniy va ilmiy yutuqlari hamda jahon tarixida tutgan o'rni batafsil tahlil qilinadi.

Sohibqiron Amir Temurni to'laligicha o'rganish, tahlil qilish yurtimiz tarixidagi, eng muhim bosqichlardan birini o'rganish demakdir. Chunki, Amir Temur yurtimizning asl farzandi o'laroq eng katta shuhrat qozongan xukmdor hisoblanadi. U qurgan davlat Movarounnahr yeridagi markazlashgan hamda rivojlangan davlat hisoblanadi. Albatta bunday buyuk shaxs va davlatining tajribasini o'rganish yoshlarimizni va kelajak avlod shaklanishida foydadan holi bo'lmaydi. Amir Temur takrorlanmas buyuk bir siymodir, negaki bu shaxsning davlat boshqaruvidagi siyosati davlatning rivoji uchun olib borgan ichki va tashqi aloqalari, harbiy taktikasi o'sha davrda bo'lgan vaziyatdan to'g'ri foydalana olganligini ko'rib, nechog'lik bu shaxsni falsafiy dunyoqarashini keng bo'lganligini, o'zining qurgan buyuk davlatchiligidan xozirgacha tarixdan bizgacha ma'lumdir.

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336 yil 9 aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Amir Temurni buyuk

shaxs bo‘lib voyaga yetishida uning otasi Amir Muhammad Tarag’ay sabab bo‘lgan, chunki oilada farzandni kamol topishida ota-ona yoki bolaga ma’sul bo‘lgan shaxs bolaning dunyo qarashini o‘zgartira oladi. “Yoshlar tarbiyasining falsafiy jixatlari” nomli maqoladan to‘liqroq ma’lumot olsa bo‘ladi. Amir Temurni otasi boshlang’ich madrasaga berganda u eng yosh tolib edi. Lekin, yoshligiga qaramay aql zakavoti va o‘tkir zehni bilan hammadan ajrab turgan, shuning uchun Amir Temur taxtga o‘tirganiga qadar insonga xos barcha ijobiy xislatlardan yani “komil inson” xarakteri shakillangan edi. Komil inson deb dunyoviy bilim asoslarini puxta egalagan, diniy bilim asoslaridan xabardor bulgan, jismonan soglom, ruhiy jixatdan nuqsonsiz, biron bir foydali kasb xunarning ustasi bulgan, mustaqil fikr yuritadigan, ongli, mantiqan to‘g’ri xulosa chiqara oladigan, yuksak axloqiy-ma’naviy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ona vatan ozodligi va obodligi yo‘lida jon fido qiladigan, xaqiqiy vatanparvar xalqparvar kishilarga aytiladi. Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo‘g’ullar istibdodi ostida bo‘lib, Chingizxon va Botuxon bosib o‘tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o‘zining ikkinchi o‘g’li Chig’atoyxonga suyurg’ol sifatida in’om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo‘g’ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o‘zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi. Amir Temurni xukmdorlik vaqtiga e’tibor bersak tarixda nom qozongan boshqa xukmdorlardan butkul farq qiladi, negaki davlatni rivoj topishida har bir soxani birdek e’tiborda tutib tura olgani hozirda kundalik hayotimizda hammada ham uchramaydi bunday xislat.

O‘z davrida Amir Temur faqat Qur’oni Karimni yodlabgina qolmay, balki uning ma’nosini ham juda yaxshi bilar, boshqa ilmlarni ham puxta egallagan edi. Ayniqsa, fiqh ilmida shuhrat qozongan edi. Bu esa, o‘z navbatida davlatni boshqarishi xar bir chiqargan farmonini oqilona odil siyosatidan darak beradi. Amir Temur Amir ilm marifatga juda katta e’tibor qaratgan dunyoni har tomonidan olimlarni chorlaganidan bilishimiz mumkin. Buni Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, Amir Temurni arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtirganini ta’kidlaydi.

Bobokalonimiz Amir Temur nafaqat o‘rta Osiyo, umuman jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o‘rni haqida, quyidagilarni ta’kidlab o‘tish joizdir:

1) Amir Temur Markaziy Osiyoni mo‘g’ullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga

yo‘naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini ro‘yobga chiqishiga ulkan hissa qo‘shgan sarkardadir;

2) Amir Temur ko‘p yillar davomida mustamlaka bo‘lib, chet ellik hukmdorlarga bo‘ysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda o‘z yurti, xalqining kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo eta oldi;

3) Amir Temur ham o‘z davriga xos bo‘lgan turli sabablarga binoan boshqa mamlakatlarga yurishlar qildi va Ovro‘po mamlakatlarining rivojlanishini tezlashishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Rosciyani Oltin O‘rda zulmidan, Ovro‘poni Turkiya tajavvuzidan saqlab qoldi;

4) Shunday buyuk shaxs bo‘lsada sobiq itfoq mustamlakachiligi ostida yashagan bir davrimizda Amir Temurni barcha harakatlarini bizga qoralab ko‘rsatishga harakat qilganini tarixni o‘qib bilib olish mumkin.

Amir Temur o‘z siyosatida madaniyat, memorchilik, hunarmandchilik homiysi bo‘lganligi uchun xozirgacha xalqimizga tarixiy obidalar meros bulib qolgan. Shunday tarixiy obidalarimizdan biri bulgan “Oqsaroy” peshtog’ida buyuk bobokalonimizning bir o‘gitlariga ko‘zimiz tushadi. “Bizning kuch qudratimizni bilmoqchi bo‘lsang biz qurgan imoratlarga boq” degan jumladan ko‘rishimiz mumkinki bu shaxsda insoniylik, vatanga sadoqat, dinga ishonchi dunyoqarashidan yosh avlodga singdirmog’imiz kerakdir.

Bundan tashqari, Temuriylar davlati tarixda muhim o‘rin tutgan yirik siyosiy va madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Amir Temur tomonidan asos solingan bu davlat kuchli harbiy-siyosiy tizim, rivojlangan iqtisodiyot va boy madaniy meros bilan ajralib turadi. Uning vorislari - temuriy sulolasi vakillari ilm-fan, san’at va me’morchilikning rivojiga katta hissa qo‘shib, Samarqand va Hirot kabi shaharlarni jahon madaniy markazlariga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi.

Shuningdek, Temuriylar davrida shakllangan madaniy va ilmiy muhit nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom dunyosi va Sharqiy Yevropa sivilizatsiyasiga ta’sir o‘tkazdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod va Mirzo Ulug’bek kabi ulug’ shaxslarning ilmiy-ma’rifiy faoliyati bugungi kungacha qadrlanib kelmoqda.

Temuriylar merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, uning siyosiy tajribasi, iqtisodiy modeli va madaniy yutuqlari hozirgi tarixiy tadqiqotlarda ham o‘rganilmoqda. Shuningdek, Temuriylar davrida barpo etilgan me’moriy yodgorliklar jahon madaniy merosining ajralmas qismi sifatida YuNESKO tomonidan muhofazalanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davlati nafaqat qudratli siyosiy tuzilma, balki ulkan ma’naviy va madaniy taraqqiyotni boshdan kechirgan davr sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Uning boy merosi bugungi avlod uchun ibrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTNING SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIRI

I.N.Axmedov. ffbfd, dots. Jizzax PMM

Milliy mentalitetni saqlab qolish va rivojlantirib kelajak avlodga yetkazish kabi buyuk, sharafli va o‘z navbatida mashaqqatli vazifani bajarish har bir dunyo xalqlarining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda, chunki millat va davlatning barqarorligi mana shunday mana shunday ulug'vor masalarda sayqal topadi. Shu nuqtayi nazardan Yurtimizda ham milliy mentalitetni asrab avaylash, rivojlantirish tamoyillariga alohida e'tibor qaratib davlat bosh siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda milliy mentalitetni aks ettiruvchi omillar va chora tadbirlaridan bir nechtasini keltirib o‘tamiz.

1. Milliy qadiriyatlar sirasiga kiruvchi tarixiy yodgorliklarni asrash va qayta o‘rganish masalalari.
2. Tarixiy shaxslarning qayta o‘rganish va nomlariga nisbatan sun'iy tarzda amalga oshirilgan nohaqliklarni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar.
3. Tarixiy shaxslarning nomlarini abadiylashtirishga qaratilgan davlat siyosati va islohatlari.
4. Tarixiy shaxslarning asarlari, qilgan ishlari va boshqa nomoddiy meroslarini milliy mentalitetni rivojlantirishga doir qo‘loyzmalar, darsliklar va ta'limot sifatida o‘rganish mexanizmlarini amalga oshirish chora tadbirlari.
5. Tarixiy shaxslar va ularning faoliyatini ta'li-tarbiya islohatlarini amalga oshirishda milliy iftixor sifatida qabul qilishga doir sayi harakatlar tizimi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib nchiqqan holda biz milliy iftixor sifatida Soxibqiron Amir Temur siymosi va Amir temurning milliy mentalitetning rivojidagi xizmati to‘g'risida ilmiy mulohazalarimizni yoritamiz.

Bugun «Temur va temuriylar madaniyati», «Temuriylar davlati», «Ulug'bek va Samarqand astranomiya maktabi», «Navoiy» va «Bobur» kabi qutlug' so‘zlarni nafaqat o‘zbekning, balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida uchratar ekanmiz, bu gaplarning zaminida albatta Amir Temurning ulkan xizmatlari yotadi.

Ikkinchidan, Amir Temur, o‘zi bilibmi-bilmasdanmi, lekin bir qator xalqlar va yurtlarni mustamlakachilar zulmidan ozod bo‘lishiga yordam berdi. Masalan, o‘sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblandan Boyadzid Yildirimni (Qaysar) tor-mor keltirib Bolqon yarim oroli va Evropa xalqlariga ozodlik bag'ishladi, Oltin O‘rta xoni To‘xtamishxonni ikki marta tor-mor etib Rossiyani mo‘g'ullar hukmronligidan qutilishini qariyib 300 yilga tezlashtirdi.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni o‘rgansak, uning ko‘p yaxshi xislatlari: to‘g'rilik, muravvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomiddin

Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari» va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o‘gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo‘ladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo‘shnichilikka rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o‘gitlardir.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Temur va uning avlodlari say’i-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xonakohlar, saroylar, bozorlar, qal’alar, kanallar va boshqa inshootlarning son-sanog’i yo‘q, uning bevosita rahnamonligida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Go‘ri Amir, Axmad Yassaviy, Zangi Ota maqbaralari, Oqsaroy, Ko‘ksaroy va Shohi Zinda me’moriy mo‘jizalari, Bog’i Chinor, Bog’i Baland, Bog’i Dilkusho, Bog’i Behisht singari o‘nlab go‘zal saroy-bog’lar va shu kabi boshqa inshootlar shular jumlasidandir.

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni yaxshi anglagan sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur avvalo o‘sha erlik olimu-fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi.

Bizning yurtimizda mana shundayin tarixda amalga oshirilgan islohatlar mavjud ekan bizning milliy mentalitetimiz hech qachon yo‘q bo‘lmasligiga shohid bo‘lamiz.

O‘zbek millatining kuch-qudrati, cheksiz imkoniyatlari, jahon svilizasiyasiga qo‘shgan hissasini idrok etar ekanmiz, Amir Temur siymosi darhol ko‘z oldimizga keladi. Shu bois Amir Temur ma'naviyati, shijoati, davlatchilikdagi adolatparvar siyosati yuksak ibrat namunasi bo‘lib qoldi. Ushbu sifatlar zamonaviy O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ham faoliyatida o‘z aksini topgan deyish mumkin. Adolatni to‘la tiklash borasida islohotlar shiddat bilan davom ettirildi. Movarounnahrga Amir Temur bosh bo‘lgan yillarda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar yuksak darajada rivojlandi.

Yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan keng tarzdagi islohatlar Sohibqiron Amir Temur siymosiga ham alohida e’tibor va ehtirom ko‘rsatib kelmoqda, xususan O‘zbekistonda Amir Temurning mudofaa merosini o‘rganish boshlanadi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryoga tashifi chog’ida aytib o‘tdi.

“Imkonim bo‘lishi bilan kitob o‘qishga harakat qilaman. O‘sha kuni 1 soatcha bo‘sh vaqtim paydo bo‘lib qolgandi, Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida jang tarixini o‘qidim. Buyuk sarkardamiz qanday g’alaba qozongani menga juda qiziq edi. To‘xtamish ham osonlikcha yutqazmagan ekan, bunda

Amir Temur bobomizning yuksak harbiy taktika va strategiyasi, dovyurakligi ish bergan. O‘zimga ham yozvoldim, Amir Temur jangda 7 ta usulni qo‘llagan ekan”, deydi Prezident Mirziyoyev Sohibqironning harbiy mahorat haqida.

“Biz nega shu kabi buyuk ajdodlarimiz tarixini yaxshi o‘rganmaymiz? Uzoq yillar ura-ura bilan umuman boshqalar tarixini, boshqalar g’alabasini miyamizga singdirishgandi. Mutasaddilarga topshiriq berdim — biz birinchi navbatda o‘zimizning bobolarimiz tarixini o‘rganishimiz kerak. Degan mumlalari a’lohida e’tirofga sazovordir[44]



Amir Temurning siymosi xorijda yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko‘p suvratlari ishlangan. Toshkentning markazidagi xiyobonda sohibqironga muhtasham haykal o‘rnatildi, Amir Temur va temuriylar davri muzeyi barpo etildi. 1994 yilda Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi, 1996 yilda sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida ulkan tadbirlar o‘tkazildi. Parijdagi YuNESKO qarorgohida o‘tkazilgan yubiley tantanalari jahon miqyosida nishonlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra «Amir Temur» xayriya xayriya jamg’armasi tashkil etildi.

Sohibqiron Amir Temurning o‘zi amal qilgan sifatlarni yuksak baholaydi. Bular quyidagilar:

- Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim. Boyni kambag’aldan ustin qo‘ymadim;
- Islomga qat’iy rioya qildim;
- Men kambag’allarga ko‘p xayr-exson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to‘g’ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim;

[44] https://qalampir.uz/uz/news/boshk-alar-galabasini-miyamizga-singdirishgandi-mirziyeev-amir-temur-mudofaa-merosini-tadk-ik-k-ilishni-buyurdi-59945

- Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim;
- Birovga nohaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so‘rab kelganlarni ko‘kragidan itarmadim;
- Islomga taaluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustin qilib keldim;
- Barcha so‘zlarimdan doim haqiqatgo‘ylikka amal qildim;
- Men har kimga va’da bersam, unga vafo qildim;
- Doimo o‘zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim;
- Men har doim insof bayrog’ini baland ko‘tardim va iymon tarqatishni o‘z buyukligimning qudratli zamini deb bildim;
- Men doim saidlarga ehtirom bilan qaradim, ulamo va shayxlarni ezozladim[45].

Shunday qilib sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va o‘gitlarining har bir mazmun va ma’no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni bitmas tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTDAGI YUKSALISHLAR

Djurayev Sherzod Qudratovich,
Toshkent Arxitektura-qurilish Universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistenti

Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi davrida Movarounnahr va qo‘shni hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot yuksak darajada rivojlandi. Ushbu davrda ishlab chiqarishning turli sohalari rivoj topdi, xalqaro savdo yo‘llari kengaydi, ilm-fan va madaniyat taraqqiy etdi. Amir Temur o‘z davlatining barqarorligi va taraqqiyoti uchun aniq iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Amir Temur o‘zining markazlashgan davlat siyosatini olib borar ekan, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e’tibor qaratdi.

Uning hukmronligi davrida aholi turmush darajasi oshib, yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro, Hirot, Toshkent kabi markazlar iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiyotga erishdi. Uning vorislari ham madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdilar. Temuriy hukmdorlar, xususan, Shohrux Mirzo, Ulug’bek va Husayn Boyqaro ilm-fanni rivojlantirish, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy islohotlar o‘tkazishda davom

[45] https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/706

etdilar. Ushbu maqolada temuriylar davlatchiligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot va madaniy taraqqiyot keng qamrovda o‘rganiladi[46].

Mazkur maqola yozilishida tarixiy-muayyanlik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tarixiy manbalar, xususan, Amir Temur hayotiga oid yozma hujjatlar, temuriylar davri tarixchilari asarlari hamda zamonaviy tadqiqotlar asos qilib olindi.

Maqolada iqtisodiy va madaniy jarayonlarning bir-biri bilan bog’liqligi, ularning davlatchilik rivojiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, arxeologik va san’atshunoslik tadqiqotlari natijalaridan ham foydalanildi. Tadqiqot davomida Temur va uning avlodlari olib borgan iqtisodiy islohotlarning zamonamiz uchun qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilindi[47].

Temuriylar davridagi ijtimoiy tuzilma qat’iy ierarxik tartibga asoslangan bo‘lib, unda turli tabaqalar mavjud edi. Asosiy tabaqalar tarkibiga harbiylar, diniy ulamolar, savdogarlar, dehqonlar va hunarmandlar kirardi. Amir Temur davrida harbiy aristokratiya davlat boshqaruvida asosiy rolni o‘ynagan bo‘lsa, temuriylar davrida bu holat biroz yumshadi va davlat boshqaruvida ilm-fan vakillari, adiblar va mutafakkirlarning roli oshdi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo edi. Sug’orish tizimining rivojlanishi natijasida dehqonchilik yuqori darajada bo‘lib, ekin maydonlari kengaytirildi. Hunarmandchilik shaharlarda ayniqsa rivoj topdi, maxsus hunarmandlar mahallalari tashkil qilindi. Temuriylar davrida xalqaro savdo aloqalari kengayib, Ipak yo‘li orqali Osiyo va Yevropa davlatlari bilan tijorat aloqalari rivojlantirildi. Xorijiy sayyohlar va savdogarlar uchun maxsus karvonsaroylar qurildi, bojxona tizimi yo‘lga qo‘yildi[48].

Temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan yuksak cho‘qqilarga chiqdi. Temuriy hukmdorlar ilm-fanni rag’batlantirish uchun madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar tashkil qildilar. Ulug’bekning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyos bo‘lib, u Samarqandda mashhur rasadxona barpo etdi va astronomiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Adabiyot va san’at sohalari ham gullab-yashnadi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar ijod qilib, Sharq adabiyoti va falsafasining rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Madaniy yutuqlarning iqtisodiy asoslari Temuriylar davlatining strategik muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Samarqandning xalqaro savdo va madaniyat markaziga aylanishi Buyuk Ipak yo‘lining jonlanishi va Temur tomonidan jalb qilingan hunarmandlar bilan bog’liq edi. Biroq, bu yutuqlarning

[46] Jo‘rakabirova, M.X. qizi, & Kamalova, A.O. qizi. "Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati." Science and Education, 5(3), 2024, 490–494.

[47] Utayeva, F. "Amir Temur va Temuriylar davrida tijorat va savdo markazlariga e’tibor." Центр Научных Публикаций (buxdu.uz), 49(49), 2024.

[48] Sotiboldiyeva, L. "Amir Temur va Temuriylar davriga oid me'moriy obidalar." TADQIQOTLAR, 46(2), 2024, 35–38.

davomiyligi vorislarning siyosiy barqarorlikni saqlash qobiliyatiga bog'liq edi. Ulug'bek davridagi ilmiy yuksalish uning shaxsiy tashabbusi va davlat resurslari bilan chegaralangan bo'lib, keyingi vorislar bu yo'nalishni davom ettira olmadi. Me'morchilik san'ati ham yuksak darajada bo'lib, Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi va boshqa ko'plab obidalar bunyod etildi[49].

Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning yuksak darajada rivojlanganligi kuzatiladi. Bu davrda shaharsozlik va infratuzilma taraqqiy etdi, xalqaro savdo rivojlandi, hunarmandchilik gullab-yashnadi. Shuningdek, ilm-fan va san'atning yuksalishi temuriylar madaniy merosining asosiy jihatlaridan biri bo'ldi. Temuriylar hukumati tomonidan tashkil etilgan madaniy va ilmiy markazlar keyinchalik butun musulmon Sharqi va Yevropaga ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlar o'sha davr uchun yuksak sivilizatsiya darajasini namoyon etib, bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi. Temuriylar merosi nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyo tarixida muhim o'rin tutadi.

AMIR TEMURNING IQTISODIY TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xamzayeva Mavjuda Nematovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchi

Amir Temur o'z davrining ulug' sarkardasi va davlat arbobi bo'lishi bilan birga, iqtisodiy masalalarga ham katta e'tibor bergan. Uning davlatni boshqarish tamoyillaridan biri barqaror iqtisodiy tizimni yaratish va jamiyatni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan edi. Ushbu maqolada Amir Temurning iqtisodiy tarbiya borasidagi fikrlari va ularning bugungi kun uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Temur tarixda ulkan meros qoldirgan buyuk shaxslar toifasiga mansub.Shu sababli uning shaxsiyati va jahon taixidagi xizmatlari to'g'risidagi juda ko'p bahs-munozara va tortishuvlar bo'lgan .Amir Temur buyuk sarkarda, lashkarboshi, tengi yo'q siyosatdon, donishmand, olamga mashhur davlat arbobi, mahoratli notiq kabi noyob shaxsiy fazilatlar sohibi ekanligi e'tirof etilgan.ayni paytda, Sohibqironning serqirra faoliyatida uning iqtisodiy jihatlari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Darhaqiqat, Sohibqironning asosiy fikrlari va intilishlari ulug'vor imperiyani kengaytirish hamda mustahkamlash, davlatni boshqarish, keng

[49] Chorshanbiyev, B., & Ollomurodov, N. "Amir Temur va Temuriylar davri xo'jaligi." Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 2023, 417–419.

hududlarda osoyishtalikni saqlash, isyonkor va bo‘ysunmas qo‘zg’olonchilarni tinchlantirish, mazmunli va dono nutqlar bilan ommani o‘ziga rom etish, tashqi dunyo bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan edi.Lekin, masalaga aql ko‘zi bilan chuqurroq yondashsak, ushbu hatti-harakat va inlishlarning barchasi oxir-oqibatda bir maqsadga, ya’ni saltanatning mustahkam iqtisodiy poydevorini yaratishga xizmat qilgan.

Amir Temurning faoliyatida aynan iqtisodiy masalalar markaziy o‘rnini egallagan.Fikrimizning isboti sifatida ikkita dalil keltirmoqchimiz.Birinchidan, tarqoq feodal davlatlarni birlahstirish, ularni mustamlakachi mo‘g’illar ustidan g’alaba qozonib, mustaqilikka erishishini ta’minlash, yaroqsiz ahvolga kelgan suv inshoatlarini tiklash, mamlakatda tartib-intizom va tinchlik-osoyishtalik o‘rnatish, uni saqlash, qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshiirish, mustaqillikka erishgan Movorounnahrning tashqi dushman tajovuzlardan himoya qilish, ushbu maqsadda qudratli armiyani shakllantirish, ta’sirli nutqlar va unga monand tadbirlar o‘tqazish yo‘li bilan ommaning hurmatiga sazovar bo‘lish va boshqalarga bag’oyat katta sarf-xarajatlarning manbaini izlab topish Sohibqirondan juda katta mehnat va iqtisodiy muammolarning to‘g’ri yechimlarini topa bilish mahoratini talab qilgan.Shu bilan birga, xalqning azob-uqubatlariga, iqtisodiy tanqislikdan chekayotgan qiyinchiliklariga befarq bo‘lmagan Amir Temur elning hayoti va turmusg tarzini yaxshilashga intilgan, ushbu muammo ustida ko‘p bosh qotirgan.[50]

Amir Temur o‘sha davrlarda amalda qo‘llagan va saltanat iqtisodiy kuch-qudratini yuksaltirish siyosatining muhim bo‘g’iniga aylangan mehnatni moddiy rag’batlantirish siyosati oradan uch yuz yildan ziyodroq vaqt o‘tgandan keyin iqtisodiyot fanining asoschisi, buyuk nazariyotchi Adam Smitning ta’limotida o‘zining nazariy talqinini topdi.Uning fikricha, o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida harakat qiluvchi kishilarning xulq-atvori oxir-oqibatda ijtimoiy farovonlikni imkon qadar yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Amir Temur ham o‘zining iqtisodiy siyosatida iqtisodiy rag’batlantirishning turli usullarini qo‘llash asosida keng xalq ommasini saltanat iqtisodiy qudratini yuksaltirishga yo‘naltirishga erishdi.

Buyuk Amir Temurning davlat boshqaruvida aynan iqtisodiy muammolarga juda katta e’tibor qaratganligi uning nodir va noyob aqlu-zakovati hamda iqtisodiy tafakkur sohibi ekanligidan dalolat beradi. U zamonaviy makroiqtisodiy siyosat nazariyalaridan tamoman bexabar bo‘lsa-da, o‘z imperiyasining rivojlanishi va kelajagining avvalo iqtisodiy taraqqiyot bilan chambarchas bog’liqligini yaxshi tushungan holda ish tutdi.Bu kishi aqlini hayratga soladi.Chunki Amir Temur iqtisodiy taraqqiyotining jiddiy masalalarini o‘z faoliyatida o‘z saltanati doirasida hal qilgan zamonlarda hali

[50] Odilov A.A.Amir Temur tuzuklari-davlat boshqaruvi asosi.Toshkent 2016,B.171

siyosiy iqtisod fani ham , uni shakllantirish uchun yetarli nazariy bilimlar ham yaratilmagan edi.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" - bu katta donishmandlik mevasi.Sohibqiron qalamiga mansub ushbu kitobda uning serqirra faoliyatining mazmun-mohiyati mujassam.Mazkurasarning mazmunini sinchikovlik bilan tahlil qilar ekanmiz, buyuk sarkardaning fikru- faoliyatida iqtisodiy masalalar alohida o'rin tutganligiga amin bo'lamiz.

Amir Temurning iqtisodiy qarashlari Amir Temur iqtisodiyotni boshqarish masalasida adolat va tartibni ustuvor deb bilgan. U o'zining mashhur "Temur tuzuklari" asarida davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun quyidagi tamoyillar muhim ekanini ta'kidlaydi:

1. Adolat va tartib

- Soliqlarning odilona taqsimlanishi.
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va dehqonlarga qulay sharoit yaratish.
- Savdo-sotiqni rivojlantirish uchun xavfsiz yo'llar va bozorlar tashkil etish.

2. Ishlab chiqarish va hunarmandchilikni rivojlantirish

- Hunarmandchilik va dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash.
- Hunarmandlar va tadbirkorlar uchun imtiyozlar joriy etish.
- Ichki va tashqi savdo aloqalarini kengaytirish.

3. Soliq tizimini takomillashtirish

- Soliqlarni haddan tashqari oshirmaslik.
- Davlat byudjetini boyitish bilan birga xalqni kambag'allikdan chiqishiga sharoit yaratish.
- Ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish.

4. Tashqi savdo va diplomatiya

- Amir Temur davlatining iqtisodiy barqarorligi savdo yo'llarining xavfsizligi bilan bog'liq edi.
- U karvon yo'llarini himoya qilish va savdogarlar uchun qulay shart-sharoit yaratishga katta e'tibor qaratgan.
- Tashqi davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik va diplomatik aloqalarni rivojlantirishga intilgan.

5. Moliyaviy barqarorlik va infratuzilma rivoji

- Davlat byudjetini mustahkamlash uchun samarali soliqlar tizimini yo'lga qo'ygan.
- Infratuzilmani rivojlantirish – yo'llar, ko'priklar, bozorlar qurilishi orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirgan.
- Suv ta'minoti va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun aniq choralar ko'rgan.

6. Amir Temurning iqtisodiy tarbiya borasidagi fikrlari Amir Temur iqtisodiy barqarorlik va xalq farovonligini ta'minlash uchun tarbiyaning muhimligini ham ta'kidlagan. Uning qarashlariga ko'ra:

- Yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.
- Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish.
- Halollik va adolat tamoyillarini qo'llash.
- Hunarmandchilik va tadbirkorlikni bolalikdan o'rgatish.
- Davlat xizmatiga layoqatli, halol va bilimli insonlarni tayyorlash.

7. Amir Temur iqtisodiy g'oyalarining zamonaviy ahamiyati Amir Temurning iqtisodiy tarbiya borasidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Hozirgi zamon iqtisodiy siyosatida uning quyidagi g'oyalari asosiy o'rin egallaydi:

- Soliq tizimining shaffofligi.
- Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish.
- Ta'lim va iqtisodiy madaniyatni oshirish.
- Xalqning iqtisodiy savodxonligini oshirish.
- Davlat infratuzilmasini rivojlantirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish.
- Tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va milliy iqtisodiyotni himoya qilish.

Amir Temurning iqtisodiy tarbiya borasidagi qarashlari bugungi kunning iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari bilan uyg'unlashadi. Uning adolat, tartib va mehnatsevarlik tamoyillari har bir jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U yaratgan iqtisodiy boshqaruv tizimi uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan.

Bugungi kunda ham Amir Temur tamoyillari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidagi harakatlar dolzarb bo'lib, uning merosi nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, uning iqtisodiy fikrlari hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI: IJTIMOIY - SIYOSIY VA IQTISODIY MANAVIY HAYOT. "TEMUR TUZUKLARI"

Alikulova B.A,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi

Sohibqiron Amir Temur davlatining paydo bo'lishi o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida ulkan ahamiyatga molik voqelik bo'ldi. Aynan Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ul istibdodidan xalos etib, bu yerda kuchli markazlashgan davlat tuzishga harakat boshladi. Amir Temur markazlashgan va

kuchli davlat barpo etish jarayonida hamjihatlik, o‘zaro manfaatlar mushtarakligi, barcha tabaqa va turli qavm, xalqlar manfaatlarini hisobga olish, diniy ayirmachilik, mazhabparastlikka qarshi kurash siyosatini olib bordi. Ta‘kidlash lozimki, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi Movarounnahr va Xuroson, umuman O‘rta Sharq xalqlari tarixida muhim tarixiy davr bo‘lib hisoblanib, aynan shu davrda turli xalqlar, etnoslar tarixida ham iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan o‘zaro yaqinlashish davri bo‘ldi. Mazkur davr muarrixlari xususan, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mu‘iniddin Natanziy, Fasih Havofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Bobur, Mirzo Haydar va boshqalar hududda istiqomat qilgan turli qabilalar, ularning mavqei haqida ahamiyatga molik ma‘lumotlar qoldirganlar. Amir Temur o‘z – “Tuzuklari”da mazkur davrda uning davlatida 40 ta aymoq yashaganligi, ularning 12 tasi, ya‘ni eng ko‘p sonli qabilalarga (barlos, tarxon, arg’in, jaloyir, tulkichi, do‘lday, mo‘g’ul, sulduz, to‘qay, qipchoq, arlot, totor) tamg’a berilganligini qayd etgan. Mazkur qabilalarning eng nufuzli zotlari, qabila boshliqlari amirlik martabasiga tayinlanadi. Qolgan 28 ta qabila boshliqlariga esa ulus amirligi lavozimi taqdim etiladi. Bu bilan Amir Temur ichki siyosatda markaz va hududlar mutanosibligini ta‘minlash, qabilalar o‘rtasida muvofiqlashtirish yo‘liga amal qilishini namoyon etdi. Bunday oqilona siyosat bilan Amir Temur markaz va hududlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minladi. Buning natijasida qabilalar orasida hamjihatlik va totuvlik munosabatlari qaror topdi. Shu o‘rinda yana bir holatga e‘tibor qaratish lozim bo‘adi.

Amir Temur o‘z saltanati tarkibiga kirgan hududlarda aksariyat holatlarda mahalliy sulola boshqaruvini saqlab qolgan, ko‘p holda ularning vakillari Sohibqironni oliy hukmdor sifatida tan olishgan. Masala mohiyatini bayon etishda yana bir holatga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Amir Temur o‘z yurishlarida Movarounnahr hududiga ko‘plab olimu fuzalo, hunarmand va boshqalarni ko‘chirib keltirib, ularni turli shahar va qishloqlarga joylashtirgan. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra ko‘chirib keltirilganlarning soni 100 mingdan ziyod bo‘lgan deyiladi. Amir Temur, keyinchalik boshqa Temuriylar ham ko‘chirib keltirgan xalqlarga o‘z xalqiga qilgan munosabatda bo‘lishgan, ularga tegishli shartsharoitlar yaratib berilgan. Ayniqsa, ilm ahli, hunarmand, usta va me‘morlar hamisha Amir Temurning himmatidan bahramand bo‘lishgan. Amir Temurning o‘zga xalqlarga bo‘lgan ehtiromini hatto uning faoliyatini tanqid ostiga olgan ibn Arabshoh ham tan olgan edi. Iste‘dodli ilm toliblari qaysi xalq vakillaridan bo‘lishlariga qaramay, ular yotoq-joy bilan ta‘minlanganlar, harajatlari uchun maxsus nafaqalar tayin etilgan. Bu ishga hatto temuriy shahzodalar, malikalar ham bosh bo‘lganliklari tarixdan yaxshi ma‘lum.

Amir Temurning yetti yoshi 1342-yildan to 1405-yil 18-fevralga qadar kechgan hayoti va ishtmoiy siyosiy faoliyati haqida ma’lumot beruvchi Sohibqironing og’zidan yozilgan “Temur tuzuklari” asarida adolatli davlatni

boshqarganligi xaqida shunday deydi[51] "Adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim".

Amir Temur, keyinchalik Temuriy hukmdorlar ham turli qavmlar, etnoslararo to'qnashuv va nizolarga yo'l qo'ymaganlar. Sohibqiron o'z davrining peshqadam fikrlovchi vakili sifatida barcha aholini 12 ta toifaga bo'lgan. Ushbu toifalarni o'rta asrlar sharoitida ilk bora bir butun xalq deb hisoblab, ularni bir darajada ko'rishini e'lon qilgan. Xususan, Amir Temur "Tuzuklar"da bu xususda "bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'nikki oyi, deb hisobladim", deya qayd etganligi uning davlat arbobi sifatida chuqur tafakkur sohibi ekanligidan darak berar edi. Amir Temur o'z "Tuzuklari"da pirlaridan biri bo'lmish Zayniddin Abubakr Tayobodiyning maslahatini o'ziga "yo'l boshlovchi yanglig' rahnamolik qildi", deya yozadi. Mazkur maslahat matni quyidagicha edi:

Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni:

1) kengash;

2) maslahatu mashvarat, maslahat ayla;

3) hushyorligu malohozakorlik bilan qat'iy qaror chiqar;

4) ehtiyotkor bo'l.

Davlat siyosatini olib borishda, u shubhasiz ustozi ta'kidlagan "maslahat va mashvarat", davlat kengashi xulosalariga quloq solgan. Davlat boshqaruvi tizimida Amir Temur bevosita ma'naviy mezonlarga bevosita tayangan. Agar "Tuzuklar"da bayon etilgan boshqaruv masalalari tahlil etilar ekan, ularning ichida hamma vaqt to'g'rilik, halollik, sofdillik, fidoyilik, insof va diyonat kabi ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga urg'u berilganligining guvohi bo'lish mumkin. Zero, Amir Temur o'rta asr sharoitida "siyosat bobida ma'naviy mezonlarga o'rin yo'q", degan fikrga qarama-qarshi o'laroq siyosat va ma'naviyat mezonlari bog'liq ham bo'lishi mumkinligini ko'rsata oldi.

Amir Temur o'z saltanatida mazhabparastlik, musulmonlar orasidagi tarafkashlik, dinlararo qarama-qarshilikni qattiq qoralaydi. Xususan, u joylarda sunniylar va shialar o'rtasidagi ixtilof va nizolarni bartaraf etishga qattiq bel bog'laydi. Shu davrda Yevropa davlatlari orasida katta nufuzga ega bo'lmish Angliya va Fransiyaning Amir Temur davlati bilan o'zaro munosabatlari masalasi ham alohida e'tiborga sazovordir. Anqara jangidan so'ng boshqa g'arb davlatlari kabi Angliya va Fransiya ham Amir Temur bilan o'zaro diplomatik yozishmalarni amalga oshira boshlashdi. Amir Temur Sultoniyadagi xristianlarning katolik arxiyepiskopi Ioann IIIga katta marhamat ko'rsatib, uni

[51] Temur tuziklari G'ofur G'ulom nashryoti 54 bet (Toshkent-1991-yil)

o‘z elchisi sifatida 1402 yil avgustida Fransiyaga jo‘natadi. 1403 yil iyunda Ioann III Parijga yetib keldi. U qirol qabulida bo‘lib, Fransiya qiroli Karl VI ga Cohibqiron nomidan bitilgan ikkita maktubni taqdim etdi.

Xullas, Sohibqiron Amir Temur 35-yilik hukumronlik qilgan davr mobaynida adolat shamshirni mahkam tutib davlatni boshqardi eng ,avvalo, Rayat- oddiy xalq manfatlarni himoya qilindi. Yo‘qsilar holidan xabar olindi jabir-zulim noxaqlikga murosasiz munosabatda bo‘lindi Sohibqiron Amir Temur amaldorlar o‘rtasida tez-tez taftish o‘tkazilib o‘z ishni tashlab qoygan poraxo‘rlik, ichklikbozlik, mayishi buzuqilikga berilib ishida, suiistemolchiliga yo‘l qoygan amaldorlar, vazirlar, viloyat hokimlari, sarkardalar qatiq jazolandi. Bunda Amir Temur davlat ishlarida g’oyatda mustahkam sobit turib o‘z yaqinlari qarindosh urug’lari o‘g’ilari nabiralarigaxam jazo tayinladi natijada Sohibqiron Amir Temurdan dasturi amal bo‘laoladigan kelajak avlod uchun buyuk ma`naviy meros qoldi.

AMIR TEMURNING IQTISODIY FIKIRLARI VA BOSHQARUV SIYOSATI

Xamzayeva Mavjuda Nematovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchi

Amir Temur Markaziy Osiyoda qudratli davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi bo‘lib, uning iqtisodiy va boshqaruv siyosati o‘z davrining eng rivojlangan tamoyillariga asoslangan edi. U iqtisodiy barqarorlikni saqlash, adolatli boshqaruv tizimini yaratish va davlatni kuchaytirish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirgan. Amir Temur o‘z imperiyasida tartib-intizom o‘rnatib, xalq farovonligini oshirishga harakat qilgan. U kuchli markazlashgan boshqaruv tizimi, adolatli soliq siyosati va savdo aloqalarini rivojlantirish orqali imperiyasining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga intilgan.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati:

1. Soliq va moliya siyosati: Amir Temur davlat byudjetini mustahkamlash maqsadida soliq tizimini mukammallashtirdi. U soliqlarning haddan tashqari oshib ketmasligini ta’minlab, iqtisodiy barqarorlikni saqlashga intildi. Soliqlar yer maydoni, hosildorlik va savdo hajmiga qarab belgilangan.

Shuningdek, Amir Temur davlat xarajatlarini aniq rejalashtirib, sarf-xarajatlarning hisobini yuritishni yo‘lga qo‘ydi. U harbiy yurishlar orqali davlat boyliklarini oshirish bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun ichki resurslarni samarali boshqargan[52].

2. Savdo va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash: Amir Temur savdo va hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Buyuk ipak yo‘li orqali xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish maqsadida karvon yo‘llarini

[52] Temur tuzuklari.-Toshkent:O’zbekiston, 2011, -B.125-126

mustahkamladi, yo‘llarni qaroqchilardan himoya qildi. U karvonlar uchun maxsus himoya xizmatlarini joriy etib, ularga xavfsiz savdo qilish imkoniyatini yaratdi.

Hunarmandlar va savdogarlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, ularga maxsus imtiyozlar berilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi yirik shaharlar hunarmandchilik markazlariga aylantirilib, davlat tomonidan hunarmandlarga xomashyo bilan ta’minlash va mahsulotlarini sotish uchun sharoit yaratilgan.

3. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish: Qishloq xo‘jaligi Amir Temur davlatining iqtisodiy asoslaridan biri bo‘lgan. U dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun yangi sug’orish tizimlarini joriy qildi, eski ariqlarni ta’mirlash va yangi kanallar qazishga katta mablag’ ajratdi.

U dehqonlarni rag’batlantirish va yer egaligini mustahkamlash maqsadida yangi yer mulkchilik tizimini ishlab chiqdi. Bunda dehqonlarga erkin yer ishlatish huquqi berilib, hosildorlik ortishi ta’minlandi.

4. Pul muomalasi va savdo munosabatlari: Amir Temur iqtisodiy barqarorlik uchun mustahkam pul tizimini yaratishga harakat qildi. U davlatga qarashli tanga zarbxonalarida yuqori sifatli oltin va kumush tangalar zarb qildirgan.

Tangalar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro savdoda ham keng qo‘llanilgan. Davlat pul birliklarining qadrsizlanishining oldini olish uchun tangalarning metall tarkibini qat’iy nazorat qilgan.

5. Shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish: Amir Temur shaharlar rivojiga katta e’tibor bergan. U yangi shaharlarni barpo etish va mavjud shaharlarni qayta qurish bo‘yicha ulkan loyihalarni amalga oshirdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Hirot va Shahrisabz shaharlari iqtisodiy va madaniy markazlarga aylantirildi.

Shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib, bozorlar, madrasalar va masjidlar qurildi. Yangi yo‘llar, ko‘priklar va karvonsaroylar qurilishi bilan savdo aloqalari yanada kengaydi.

Amir Temurning iqtisodiy siyosatining samaradorligi: Amir Temurning iqtisodiy siyosati zamonaviy iqtisodiy nazariyalar nuqtai nazaridan tahlil qilganda, uning muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini aniq ko‘rish mumkin. Uning asosiy iqtisodiy maqsadi davlatning barqarorligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirish va imperiyaning iqtisodiy rivojlanishini davom ettirish edi. Bu maqsadlarga erishish uchun Temur bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan soliq siyosatini isloh qilish, savdo aloqalarini kengaytirish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va shaharsozlikni rivojlantirish.

Soliq siyosatining samaradorligi: Temurning soliq siyosati, asosan, adolatli va samarali tizimga asoslangan edi. U soliqlarni ko‘p hollarda ishlab chiqarish va savdo hajmiga qarab belgilagan, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy barqarorlikni

ta'minlashga yordam berdi. Soliqlarning yuqori darajaga ko‘tarilmasligi, ishlab chiqaruvchilarni rag’batlantirgan va iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlagan. Biroq, bu siyosatning samaradorligini baholashda vaqtinchalik tushunmovchiliklar yuzaga kelgan. Masalan, soliq to‘lovchilarni nazorat qilishda va tizimning turli hududlarda teng ta’minlanishida muammolar bo‘lishi mumkin edi. Shuningdek, ba'zi hududlarda soliq yukining oshishi dehqonlarning ishlab chiqarish quvvatini pasaytirishi va iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin edi.

Savdo va hunarmandchilikni rivojlantirish: Temur savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor bergan va Buyuk Ipak Yo‘li orqali xalqaro savdoni rag’batlantirgan. U karvon yo‘llarini mustahkamlash, yo‘llarni xavfsiz qilish va savdo aloqalarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘zining iqtisodiy strategiyasini amalga oshirdi. Samarqand va Buxoro kabi yirik savdo markazlarini rivojlantirish orqali imperiyaning iqtisodiy salohiyati oshdi. Bu jarayon, bir tomondan, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan bo‘lsa, boshqa tomondan, malakali hunarmandlar va savdogarlarning o‘z mahsulotlarini sotish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta'minladi.

Iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda harbiy Siyosatning roli: Amir Temur o‘zining harbiy siyosati orqali o‘z imperiyasining iqtisodiy va siyosiy barqarorligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Uning harbiy yurishlari faqatgina hududlarni kengaytirish bilan cheklanib qolmagan, balki uning harbiy tizimi ichki barqarorlikni ta'minlashga, soliq yig’imlarini oshirishga va davlat boyliklarini oshirishga yordam berdi. Harbiylarning jamiyatdagi roli, nafaqat urush davrida, balki tinchlik paytida ham faol ishtirok etgani, davlatning ichki xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o‘ynadi. Harbiy boshqaruv va xalqaro aloqalarning

birgalikda rivojlanishi, Amir Temurning iqtisodiy siyosatini kuchaytirishga yordam berdi.

Harbiy hukumat va iqtisodiy resurslarni boshqarish: Harbiy tizimning iqtisodiy faoliyatga ta'siri bevosita va bilvosita ikki yo‘nalishda seziladi. Birinchi navbatda, harbiylar savdo yo‘llarini nazorat qilish, unga xavfsizlik ta'minlash orqali savdo aloqalarini kengaytirishga yordam berdi. Ikkinchi tomondan, harbiy tizim imperiyaning barcha hududlarida tartib o‘rnatishga va soliq yig’imlarini samarali amalga oshirishga ko‘maklashdi. Biroq, harbiy yondashuvning iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan xatarlari ham bor edi, chunki harbiy xarajatlarning ko‘payishi ba'zan boshqa iqtisodiy sektorlarga zarar etkazgan.

Amir Temurning boshqaruv siyosati:

1.Markazlashgan boshqaruv: Amir Temur davlat boshqaruvida markazlashgan tizimni yo‘lga qo‘ydi. U imperiyani viloyatlarga bo‘lib, ularning

boshqaruvini noiblar va harbiy boshliqlarga topshirdi. Har bir viloyat maxsus soliq tizimi va boshqaruv qoidalariga asoslanib ishlagan.

2. Harbiy boshqaruv: Amir Temur kuchli harbiy tizim yaratib, davlat hududini kengaytirish va ichki tartibni saqlashga intilgan. Uning harbiy yurishlari davomida bosib olingan hududlar mustahkam boshqaruv tizimi asosida nazoratga olingan.

Harbiy xizmat tartibga solingan bo‘lib, harbiylar faqatgina urush paytida emas, tinchlik davrida ham davlatning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etgan.

3. Adolat va qonunchilik: Amir Temur adolatli boshqaruv tamoyillariga amal qilgan. Uning qonunlari barcha fuqarolar uchun teng bo‘lib, davlat boshqaruvida adolatni ustun qo‘ygan. Har bir jinoyat va qoidabuzarlik qattiq jazolangan.

U davlatni boshqarish tartibini o‘zining mashhur "Temur tuzuklari" asarida bayon etgan. Bu tuzuklarda davlat siyosati, harbiy strategiya va iqtisodiy boshqaruv bo‘yicha muhim tamoyillar aks ettirilgan.

4. Ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish: Amir Temur ilm-fan va madaniyatga katta e’tibor bergan. U olimlar, shoirlar va me’morlarni o‘z saroyiga to‘plab, ilmiy va madaniy rivojlanish uchun sharoit yaratgan. Samarqand ilm-fan markaziga aylantirilib, madrasalar, kutubxonalar barpo etilgan. Uning davrida Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi buyuk shaxslar faoliyat yuritgan.

Amir Temurning iqtisodiy va boshqaruv siyosati uning imperiyasini qudratli davlatga aylantirishda muhim rol o‘ynagan. U iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli soliq tizimi, savdo va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatni gullab-yashnatgan. Uning boshqaruv siyosati esa kuchli markazlashgan davlat tuzilmasi, harbiy intizom va adolatli qonunlarga asoslangan edi. Bugungi kunda ham Amir Temurning boshqaruv va iqtisodiy tamoyillari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ular tarixiy o‘rganish va qo‘llashga arziydi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI

Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich,
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b, PhD.
Shoymatov Rustam, Sirdaryo IIB akademik litseyi

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrda me’morchilik san’ati mislsiz darajada rivoj topdi. Bu davrda yaratilgan me’moriy obidalar nafaqat o‘z zamonasining yuksak san’at namunasi bo‘lib, balki hozirgacha ham jahon madaniy merosining durdonalari sifatida e’tirof etiladi.

Amir Temur o‘zining siyosiy qudratini ko‘rsatish, islom diniga ehtirom bildirishi va meros sifatida abadiy qoldirish uchun yirik binolar, masjidlar, madrasa va maqbaralar qurdirgan. Amir Temurning “Agar kimki kuch-qudratim haqida bilmoqchi bo‘lsa, qurgan binolarimga boqsin”, degan mashhur gapi ham bu jarayonga jiddiy e’tibor qaratganligini ko‘rishimiz mumkin. Temuriylar davrida me’morchilik quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

– Monumentallik va ulug’vorlik;
– Rangsiz g’isht va ko‘k sirli koshinlar bilan bezak berish;
– Gumbazli tuzilmalarning keng qo‘llanishi;
– Arabeska, girih va kufiy yozuvlar bilan bezatilgan naqshlar;
– Binolarni markaziy simmetrik tarzda qurish an’anasi.

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va harbiy, balki madaniy va me’morchilik taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham g’oyat muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar sulolasi hukmronligi ostida Buxoro va Shahrisabz shaharlarida bunyod etilgan me’moriy inshootlar Sharq arxitektura san’atining yuksak namunalaridan biri sifatida tarix sahnasiga chiqqan. Amir Temur Shahrisabzda mashhur Oqsaroyni qurdiradi. “Oqsaroy devorlaridagi turli-tuman ranglarning jilosi, koshinkoriy syujetlar, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi yozuvlar va o‘simliksimon naqshlarning o‘zaro uyg`unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun va ko‘rk bag`ishlagan. Ranglarning oy yorug`ida jilolanib-oqarib ko‘rinishidan bino Oqsaroy nomini olgan. Shahrisabz buyuk sarkarda va davlat arbobi, madaniyat va san`at homiysi Sohibqiron Amir Temur bobomiz kamolga yetgan mo‘tabar maskan sifatida ham dunyoga ma`lum va mashhurdir”[53]. Bu yodgorliklar nafaqat o‘z davrining san’at darajasini, balki siyosiy hokimiyatning qudratini ham ifoda etgan.

Buxorodagi me’morchilik taraqqiyoti. Buxoro Amir Temur saltanatining muhim diniy markazlaridan biri sifatida rivojlanib, u yerda ko‘plab yodgorliklar tiklandi va yangilandi. Temur bu shaharni ikkinchi poytaxt darajasida qadrlagan, uni qayta tiklashga katta kuch sarflagan. Ayniqsa, Chashmai Ayub maqbarasi, Namozgoh masjidi va Minorai Kalon atrofidagi qurilish ishlari Temur davrining arxitektura an’analarini yaqqol aks ettiradi. Bu inshootlarda me’moriy hajm, koshinkorlik, bezaklar uyg’unligi va funksional yondashuv ustuvor bo‘lgan[54].

Temur davrida qadimiy islomiy diniy me’morchilikka bo‘lgan e’tibor ham ortgan. Yirik masjidlar, madrasalar va maqbaralar nafaqat diniy, balki ilm-fan, siyosat va iqtisodiy hayot markazi bo‘lib xizmat qilgan. Temuriylar davrida esa bu an’ana davom ettirilib, Mirzo Ulug’bek tomonidan 1417-yilda Buxoroda bunyod etilgan madrasa bu jarayonning davomiyligini ko‘rsatadi. Bu madrasa

[53] Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro ma’qom san’ati” anjumanining ochilish marosimidagi nutqidan. 2018-yil 6 – sentabr.
[54] Қосимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. Бухоро нашриёти. 1996. 95 бет

o‘zining shakl-geometrik uyg’unligi, nafis naqshlari bilan Temuriylar me’moriy maktabining klassik namunasi bo‘lib xizmat qiladi[55].

Shahrisabz – me’morchilik durdonalari shahri. Amir Temurning tug’ilib o‘sgan shahri – Shahrisabz, u tomonidan alohida e’tibor bilan obod etilgan. Bu yerda 1380-yilda qurilgan Oqsaroy saroyi Temuriylar me’morchiligidagi eng yirik saroy binolaridan biri bo‘lib, me’moriy kompozitsiyasi, rang-barang koshinkorligi va yozuv bezaklari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, saroy devorlaridagi turli ranglar jilosi va islomiy-falsafiy yozuvlar me’moriy inshootga ma’naviy chuqurlik bag’ishlagan.

Temur Shahrisabzda o‘g’li Jahongir Mirzo uchun maqbara, shuningdek, Dor us-saodat, Dor ut-tilovat, Gumbazi sayidon kabi me’moriy majmualarni barpo ettirgan. Bu inshootlar musulmon dunyosida noyob maqbaraviy arxitektura namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Temur nafaqat go‘zallik va salobatga urg’u bergan, balki har bir bino o‘z funksiyasiga mos ravishda qurilgan. Madrasalar — ilm maskani, maqbaralar — xotira ramzi, masjidlar esa diniy hayot markazi sifatida shakllanga[56].

Me’moriy xususiyatlar va yangiliklar

Temuriylar davrida me’moriy konstruksiya, shaharsozlik rejalashtirish, bezak san’ati sezilarli darajada taraqqiy etdi. Xususan:

Koshinkorlik — inshootlarni bezashda keng qo‘llanila boshladi. Bu uslub nafaqat estetik ko‘rinishga xizmat qilgan, balki binolarning chidamliligini ham oshirgan.

Ko‘p funksiyali majmualar — bir joyda madrasa, masjid, maqbara va karvonsaroylarni uyg’un tarzda qurish orqali me’morchilikda kompleks yondashuv paydo bo‘ldi.

Geometrik shakllar va kontruksiyalar — binolar kvadrat, to‘g’ri to‘rtburchak va doira shaklida bo‘lib, estetik va funksional jihatdan mukammallikka erishildi.

Bezak san’ati — Shohizinda majmuasidagi oltiburchakli yashil parchinlar, zar bilan ishlangan naqshlar zamonaviy arxitektura uslubida ham ilhom manbai bo‘lib kelmoqda[57].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davrida Buxoro va Shahrisabz shaharlari me’morchilik taraqqiyotining yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Barpo etilgan obidalar nafaqat o‘z davrining yodgorliklari, balki bugungi kunda ham xalqimiz ma’naviy merosining muhim qismini tashkil etadi. Bu me’moriy yodgorliklar zamonaviy arxitektura uchun ham bebaho tajriba maktabidir. Temuriylar davridagi yodgorliklar ulug’vorlik, nafislik, bezak san’atining mukammalligi bilan ajralib turadi. Ularning ko‘p funksiyali bo‘lishi,

[55] Ахмедов М. Урта Осиё меъморчилиги тарихи. Тошкент. Узбекистон. 1995. 178 бет.

[56] Тўхбоева Н.М. Мовароуннахрда темурийлар меъморий меросини тадқиқ этишнинг янги аспектлари. – Архитектура бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. 49 бет

[57] Зохидов П.Ш. Меъмор олами. – Т: Комуслар. 1996. 160 бет.

rejalashtirishdagi uyg'unlik, diniy va dunyoviy g'oyalar uyg'unligi me'morchilikda chuqur estetik tafakkurni ifodalaydi. Temuriylar arxitekturasi orqali xalq madaniyati, san'ati va e'tiqodining yuksak namunasi yuzaga chiqqan. Bu yodgorliklar bugun ham o'z badiiy va tarixiy ahamiyatini yo'qotmagan holda, O'zbekiston madaniy merosining ajralmas qismi sifatida xalqaro miqyosda qadrlanmoqda.

Bugungi kunda ushbu me'moriy obidalarni asrash, ularni ilmiy asosda o'rganish va kelajak avlodga yetkazish – tarixiy burchimizdir. Zero, har bir millat o'zining yuksak madaniyati, boy tarixi va me'morchilik merosi bilan taniladi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUXORO VA SHAHRISABZDA ME`MORCHILIK TARAQQIYOTI

Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g`li,
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Buxoro – asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu-ma`rifat va dinu e`tiqod markazlaridan biri sifatida jahonga dong`i ketgan qadimiy shahar. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Buxoro Movarounnahrning eng katta va eng nufuzli shaharlaridan biri bo'lgan. Akademik V.V.Bartoldning ta`kidlashicha, o'sha paytda Buxoro kattaligi, hajmi jihatidan Samarqandga teng bo'lib, 12 ta darvoza bilan o'ralgan edi[58]. Mo'g`ul bosqinchilarining Markaziy Osiyoga bostirib kirishi oqibatida (1219-1224-yillarda) Buxoro shahri yoqib yuborilgan, me`morchilik obidalari yakson qilingan va shaharsozlikning rivojlanishi deyarli to'xtab qolgan.Sohibqiron o'z davlatini barpo etish, uni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamlashga kirishishdan oldin qarorgoh, taxt joyi , ya`ni mamlakat poytaxtini tanlashi kerak edi.O'rta asrlarda hokimiyatni qo'lga kiritgan har bir feodal hukmdor, sarkarda avvalboshda shu muhim vazifani yechishi lozim edi. Temur bu borada ko'p o'ylaydi. Uning nazarida ona - shahri Kesh, sharif shahar sanalgan Buxoro , baxt kulib boqqan Samarqand poytaxt qiyofasida birma-bir o'tardi.Amir temur o'z poytaxtini tanlayotganda Buxoroi Sharifga alohida e`tibor bilan qaragan bo'lsa ajab emas. Hali miloddan avvalgi davrlarda Turonzaminidagi barcha siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning markazida bo'lgan shahar, Somoniylar davrida musulmon davlatchiligining yuksak namunasi bo'lgan, onasini tuqqan tabarruk zamin Amir Temurning ko'z o'ngida poytaxt qiyofasida gavdalanmadimi deysiz? Bizning fikrimizcha o'sha davr musulmon olamida hokimiyatning shakllanishi bir tomondan katta amaldorlar, darbor ahlining obro'li vakillari, ikkinchi tomondan dindorlar faoliyati bilan chambarchas bog`liq bo'lgan. Oliy hokimiyat, amir, xonlar katta musulmon ruhoniylari, din peshvolarining qo'llab- quvvatlashlariga doimo

[58] Косимов Ф. Темурийлар даврида Бухоро. " Бухоро нашрийоти"- 1996-йил.

muhtoj bo‘lgan, bu jihatdan olganda XIV asrning 70- yillarida Movarounnahrda Buxoroi Sharifdek diniy darajasiga yeta oladigan shahar topilmasdi. Ammo nafaqat diniy, balki dunyoviy hokimiyatning kuch-qudratini barpo etishga bel bog`lagan, bebosh mahalliy hukmdorlarning o‘zboshimchaligiga chek qo‘yadigan markaziy hokimiyat tuzishga kirishgan, holdan tougan mamlakatni birlashtirib, unda adolatli qonun va tartib joriy etishni o‘ylagan, nihoyat, Amir Temur Movarounnahrning qoq o‘rtasida joylashgan mashhur Samarqandni poytaxt deb e`lon qildi. Buxoro ikkinchi poytaxt sifatida saltanat tayanchi bo‘lib xizmat qildi.

Buyuk sarkarda Amir Temur armiyasi mo‘g`ul bosqinchilarini bu yurtdan chiqarib yuborgach, 1370- yildan e`tiboran Buxoro Amir Temurning buyuk davlati tarkibiga kiradi va diniy markaz bo‘lib qoladi. Amir Temur davrida tuzilgan kuchli markazlashgan davlat Mo‘g`ul bosqini natijasida vayronaga aylangan Buxoroni qaytadan tiklashga, yangi inshootlar barpo etishga, hunarmandchilik va savdoning gullab yashnashiga zamin yaratdi. Amir Temur davrida ayniqsa, Shahrisabz shahri gullab-yashnaydi. U o‘zining vatani hisoblangan shaharga katta e`tibor beradi.

Amir Temur va temuriylar davrida eski karvon yo‘llari harakatda bo‘lgan, yangi inshootlar qurilgan. Temur yoshligida Buxoroga tez-tez kelib turgan. U taxtga o‘tirgandan keyin ham bu odatiga amal qilgan. Amir Temur har gal harbiy yurishlardan zafar bilan qaytganda albatta, Buxoroi Sharifga kelib avliyo – anbiyolarni ziyorat qilar edi. Sohibqiron kelib tavof etgan ziyoratgohlardan biri Chashmai Ayub maqbarasidir.U XII asrda qurilgan bo‘lib, uning ta`minoti va obodonchiligiga Amir Temur a`lohida e`tibor bergan. Temur davrida Buxorodagi eng katta masjidlardan biri- Namozgohda mexrob devoriga yangicha zeb beriladi, Minorai Kalon ichida katta masjid qurish bilan bog`liq tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Umuman olganda Amir Temurning go‘zallik va ulug`vorlikka bo‘lgan ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo‘lgan.

Me`morchilik obidalarini bunyod etishda Temur avvalo, binolarning mahobati va go‘zalligiga a`lohida e`tibor bergan.”Amir Temur davrida Movarounnahr me`morchiligida koshinkorlik ishlari qo‘llanila boshlaydi. Koshinkorli maqbaralar qurish rivoj topgan. Koshinkorlik bino va inshootlarni chiroyli bo‘lishiga, ularni atrof-muhit bilanuyg`unlashishiga, namgarchilikka chidamli bo‘lishiga olib kelgan”[59]. 1380- yil Amir Temur Shahrisabzda mashhur Oqsaroyni qurdiradi.” Qurilish ishlariga xorazmlik ustalar bosh bo‘ladi. Oqsaroy devorlaridagi turli- tuman ranglarning jilosi, koshinkoriy syujetlar,tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi yozuvlar va o‘simliksimon naqshlarning o‘zaro uyg`unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun va ko‘rk bag`ishlagan.Ranglarning oy yorug`ida jilolanib- oqarib ko‘rinishidan bino Oqsaroy nomini olgan.”Shahrisabz buyuk sarkarda va davlat arbobi, madaniyat

[59] Вахитов М.М., Мирзаев Ш.Р..Меъморчилик тарихи. ” Тафаккур” нашриёти. Тошкент-2010.

va san`at homiysi Sohibqiron Amir Temur bobomiz kamolga yetgan mo‘tabar maskan sifatida ham dunyoga ma`lum va mashhurdir”[60].

Shahrisabz – O‘zbekiston shaharlarining eng qadimgilaridan biri hisoblanib- dunyoga mashhur betakror me`moriy durdonalarga boy diyor hisoblanadi. Aynan mana shu noyob yodgorliklar butun jahon me`morchilik rivojlanish tarixi sarlavhalaridan joy olgan bo‘lib, O‘zbekistondagi to‘rtta shahar- qo‘riqxona mavqeiga ega shahrlardan hisoblanadi. Amir Temur Shahrisabzda madrasa qurdirish maqsadida huzuriga o‘sha davrning yetuk usta me`morini chaqiradi va quriladigan bino joyiga borib, “ biz bu yerda baland va chiroyli madrasa qurdirish niyatidamiz. Bino nihoyatda baland bo‘lishi bilan birgalikda, salobatda, ko‘rkamlikda yagona bo‘lishi kerak. Bunday bino boshqa shaharlarda bo‘lmasligi shart!” deb uqtiradi. Shuningdek, Amir Temur Shahrisabzda o‘g`li Jahongir Mirzoga atab maqbara qurdiradi.Bundan tashqari, Shahrisabzda “ Dor us-saodat”, “ Dor ul-tilovat”, “ Gumbazi sayidon” kabi mashhur me`moriy yodgorliklar , masjid, madrasa, karvonsaroy va besh gumbazli chorsu binolarini barpo ettiradi. Amir Temur vafotidan keyin ham bunyodkorlik ishlari davom ettiriladi. Ko‘plab temuriyzodalar Movarounnahrning turli qismlarida yangi inshootlarni qurdirishda davom etardi. Xususan, Buxoroi Sharifning Movarounnahrdagi mavqeini chuqur tushungan Mirzo Ulug`bek o‘z umri davomida qurdirgan uchta madrasaning dastlabkisini shu Buxoroda bunyod qildiradi. Bu yerda bir necha marta bo‘lgan Ulug`bek uning shahristonidan qulay joy tanlab, 1417- yilda madrasa qurdiradi. Quruvchilar ishiga isfaxonlik usta Ismoil ibn Tohir boshchilik qiladi. Ulug`bek madrasasi o‘zining bosiq ulug`vorligi bilan boshqa madrasalardan farq qiladi. Me`mor yasama bezaklarni inkor etib, go‘zallikka shakllar uyg`unligi orqali erishgan. Bu yodgorlik temuriylar davrida keng rivojlangan Buxoro me`morlik maktabi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Qadimiy Buxoro yerida Mirzo Ulug`bek tomonidan qurdirilgan ikkinchi madrasa G`ijduvonda qad ko‘tarib turibdi. Amir Temur va Temuriylar davrining me`morchilik asosiy xususiyatlari ulug`vorlik, me`moriy konstruksiyalarning mukammalligi, bezak san`atining yuqori darajasi kabilar bilan boshqalardan farq qiladi. “ Amir Temur va Temuriylar davrida shaharlarning rejalashtirish tizimi takomillashadi. Ko‘p funksiyali majmualar, bog`-saroylar , savdo rastalari va boshqa ijtimoiy binolar qurildi”[61]. XIV- XV asr inshootlaridagi me`morchilik konstruksiyalarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Mahobatli inshootning shakli, hajmi va nisbatlari qadimgi qurilish an`analariga asoslanib qurilgan. Bino hajmlari shaklan oddiy geometric kvadrat va to‘g`ri to‘rtburchak ko‘rinishida qurilsada, uning sathlari ancha kattalshgan.Kontruksiyalar bir

[60] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Xalqaro ma`qom san`ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqidan” 2018-yil 6 – sentabr.
[61] Мухаммад Ахмедов. “ Урта Осиё меьморчилиги тарихи”. Тошкент. Узбекистон-1995-йил.

vaqtning o‘zida ikkita vazifani bajargan: konstruktiv va bezakni.Bu esa o‘z navbatida Sharq me`morchiligida yangiliklardan biri bo‘lgan”.

Shohizinda maqbaralaridagi oltiburchakli to‘q yashil parchinlar bir – biri bilan islim hoshiya bezaklari bilan birlashtirilgan. Oltiburchakli sirlangan parchin ustida laylak parvozining turli ko‘rinishi zar bo‘yoqlar bilan tasvirlangan”[62].

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Amir Temur olib borgan siyosat Markaziy Osiyo hududlarida shaharlar, hunarmandchilik, savdo, madaniyat va ma`rifiy o‘sishni, integratsiyalashuvni ta`minladi.Amir Temurning go‘zallik va ulug`vorlikka bo‘lgan ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo‘lganligidan, bu ishtiyoqni hayotida ro‘y bergan quvonchli voqealarga atab qurdirgan yodgorliklariga singdiradi.

Amir Temur tomonidan qurdirilgan me`moriy yodgorliklarning bir qismi jamiyat ma`naviy hayotida muhim ro‘l o‘ynagan diniy e`tiqod maskanlari va u bilan bog`liq bo‘lgan binolar, diniy maktablar, madrasalar, maqbaralar hamda masjidlardan iborat bo‘lgan. Ikkinchi bir qismi esa o‘z avlodlari va ma`naviy rahnamolarning nomini abadiylashtirishga mo‘ljallangan, uchinchi bir qismi esa yurt obodonchiligi, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beruvchi bog`-rog`lar va inshootlar bo‘lgan edi. Temur va Temuriylar davri me`morchiligi O‘rta Osiyo madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda yaratilgan me`moriy yodgorliklar o‘zining badiiy- texnik yechimlari bilan jahon me`morchiligi tarixida yangi sahifa ochdi.

Temuriylar davri me`morchiligining tajribasi zamonaviy arxitekturada ham qo‘llanilmoqda. Temuriylar davrida Samarqand, Xirot, Buxoro me`morchilik maktablari yuksak rivojlandi. Movarounnahrda mana shu davrda qurilgan me`moriy inshootlar o‘zining nafisligi, ulug`vorligi va mahobati bilan yaqqol ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “ Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma`naviyati bilan kuchlidir”[63]. Shunday ekan, Amir Temur va Temuriylar davri me`morchiligi vatanimizning boy madaniy va ma`naviy tarixida muhim bosqich sanaladi.

[62] П.Ш. Зохидов. Меъмор олами. Т: Комуслар бош мухаририяти- 1996- йил.
[63] Каримов И.А.” Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир”. Т:” Ўзбекистон”- 2015

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MA'NAVIY HAYOT

B.R.Yo'ldoshev,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi
F.A.Alivoyeva,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti talabasi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Xalq armonini ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilish Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki qudratli davlat barpo etish, madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi"[64]. Amir Temur ma'naviy kamolotiga yoshlik va o'smirlik yillaridayoq mustahkam asos qo'ygan edi. Buning natijasida u mard, dovyurak, o'tkir zehn va aql-idrok egasi bo'lib kamolga yetdi. "Qur'oni Karim"ni yod olib, Hadis ilmi bilan bir qatorda turli dunyoviy ilmlarni ham puxta o'rgandi. Iymon-e'tiqodli, halol va pok inson bo'lib yetishdi. Ana shuning uchun ham sohibqiron Amir Temur buyukligining asosida uning ma'naviy sifatlari turadi. Shu o'rinda I.A. Karimovning Amir Temur siymosi va uning boy ma'naviy merosiga bo'lgan cheksiz ehtiromi quyidagi so'zlarida yorqin aks etganligini aytish joizdir: "Tengsiz azmu-shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan Amir Temur buyuk davlat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu-fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi"[65].

Insoniyat tarixida jahongirlik da'vosi bilan tarix sahnasiga chiqqan fotihlar orasida Amir Temur o'zining ilm-fanga, madaniyat va san'atga, me'morchilik va bunyodkorlik ishlariga qo'shgan hissalari bilan ajralib turadi. Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur o'z mamlakatiga Markaziy Osiyodan hamda harbiy yurishlar natijasida qo'lga kiritilgan davlatlarning juda ko'p olimlarini jamlagan. Ulardan Mavlono Abdulmalik, Mir Sayyid Jurjoniy, Shamsuddin Muhammad al-Jazariy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Mavlono Fas'hiddin, Ahmad Kirmoniylarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O'z zamonasining yetuk tarixnigori, adibi, shoiri va fiqh olimi hisoblanmish Ibn Arabshoh "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" kitobida Amir Temurning yuksak ma'naviyat sohibi hamda ilm-fan ahliga bo'lgan munosabati haqidagi fikrlarini quyidagicha tasvirlaydi: "Temur olimlarga mehribon bo'lib, sharofatli sayyidlarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan muqaddas tutardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, ular bilan mazmunli bahslar yuritar edi." Darhaqiqat, Amir Temur yurtida ilm-fan ahli, ijodkorlar uchun yaratilgan shart-sharoit va g'amxo'rlik tufayli Samarqand dunyoning ma'rifat markazlaridan biriga aylandi va uning dovrug'i doston bo'ldi. Buni eshitgan, ilm-fanga xavas qo'ygan ijodkorlar o'z ixtiyori va

[64] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021yil.456-bet
[65] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat" 2008.yil.176-bet.

tashabbusi bilan Samarqandga kela boshlaganlar. Amir Temur nafaqat Samarqandda, balki boshqa shaharlarda ham ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish uchun ko‘plab ilmiy muassasalar qurishga amr qilgan. “Amr qildimki, xarob bo‘lib yotgan yerlar obod qilinsin. Har bir shaharda, qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar qursinlar”. Madrasalarda diniy bilimlar bilan barobar matematika, astranomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi fanlarning o‘qitilishiga alohida e‘tibor berilgan. Talabalarga o‘z davrining yirik allomalari dars berganlar. Madrasa mudarrislariga ko‘p maosh to‘langan, ular farovon hayot kechirganlar. “Temur tuzuklari”da “Sayidlar” ulamo va mashoyixlar, oqil va donolar haqida so‘z boradi. Amir Temur dunyoqarashiga xos bo‘lgan yaxshi axloqiy fazilatlar unga shon-shavkat, beqiyos shuhrat va baxt-saodat keltirdi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, katta kuch-qudratga ega bo‘lgan sohibqiron har doim “Men, Tangrining quli, Temur shuni aytamanki...” deb gap boshlardi va bu bilan o‘zining havas qilgudek xulq-atvor, yuksak ma‘naviyatga ega ekanligini namoyon etardi. Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da shunday fikrlarni keltiradi: “Har qaysilarini (sultonlarning) yo‘l-yo‘riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotirada saqladim va yaxshi axloqlar, ma’qul xislatlaridan namuna olib, unga amal qildim”[66]. Bu fikrlardan ham bilinib turibdiki, u o‘z ma'naviyati bilan boshqa sultonlardan ajralib turardi. Sohibqiron ma’naviyatining yana bir qirrasi shundaki, u o‘z faoliyatini axloqiy tamoyillar negiziga asoslanib, “rosti-rasti” qoidasiga rioya etib olib bordi. Ya’ni, bu davrda “Kuch adolatdadir” degan axloqiy qoida davlatni idora qilish jarayonida, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va fuqarolarning farovonligini ta’minlashda asosiy o‘rinni egalladi. O‘z davrining buyuk shaxslaridan bo‘lgan piri Abu Bakr Tayibodiy pand-nasihatlariga rioya qilgan holda, saltanat ishlarida shariat qonun-qoidalariga qattiq amal qildi. Bu pand-nasihatlar quyidagilardan iborat edi:

Birinchidan: har bir ishni amalga oshirishdan oldin kengashib olish maqsadga muvofiqdir;

Ikkinchidan: hukmdorning har bir masalani chidam, sabr-toqat va mulohaza bilan hal qilishi saltanat manfaati uchun foydalidir;

Uchinchidan: Jismoniy va aqliy yetuklik har bir hukmdorning muhim sifatidir. Shuni ta’kidlash kerakki, Temurning ma’naviy axloqiy fazilatlari uning davlat arbobi sifatidagi mas'uliyati va dasturini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, saltanatni o‘z erkida saqlaydigan davlat arbobi mustaqillik bilan taxtga o‘tirmog’i, har narsada adolatli bo‘lmog’i, qoshida insofli, adolatli vazirlar saqlamog’i kerak. Amir Temur o‘z oldidagi vazirlarga qat'iy axloqiy talab va majburiyatlar qo‘yadi. “Tuzuklar”da keltirilishicha, “Vazirlar quyidagi to‘rt sifatga ega bo‘lishlari lozim: birinchisi – asillik, toza nasllik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohi raiyat ahvolidan

[66] Temur tuzuklari.- T.: G'ofur G'ulom nashriyoti. 1991yil.53,57,99-betlar

xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik; to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik”[67]. Quyidagi tuzuklarda Amir Temurning kechirimli xislatlari namoyon bo‘lgan. Buni u boshqalardan ham talab qilgan. Kechirimli bo‘lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaladi: “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, xurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo‘l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubha va qo‘rquv bo‘lsa, unut bo‘ldi.” “Menga xasad qilib, oldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg’a-in'omlar berib, muruvvat va ehson ko‘rsagdimki, bu yaxshiliklarni ko‘rib, xijolat teriga g’arq boldilar. Xamisha mening roziligimni olib ish tutgan do‘stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o‘zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim.”

“Xech kimdan uch olish payida bo‘lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim...” Amir Temurning dostlik haqidagi pandu-nasihatlari ham hali-hanuz biz uchun ibratdir. “Sodiq va vafodor do‘st ulkim, oz do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini oz dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi.”

Amir Temur ma’naviyatining shakllanishida islom dini asoslari alohida o‘rin tutadi. Bu davrda islomning rivojlanishi, shariat qonun-qoidalarining qaror topishi uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Din peshvolari va ulamolarning yo‘l-yo‘riqlari, maslahatlariga amal qilingan holda davlatni idora qilish ishlari amalga oshirilgan. Bu haqda u shunday yozadi: “Har yerda va har vaqt Islom dinini quvvatladim. Yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar diniy iymon asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi”[68]. U qaerga yurish qilgan bo‘lsa, islom bayrog’ini baland ko‘targan. Yolg’on gapirgan, aldoqchi kishilardan uzoqroqda bo‘lishga intilgani uning eng yaxshi fazilati bo‘lgan. U shunday degan edi: “Men bir qo‘limda adolat shamini, ikkinchi qo‘limda haqiqat shamini ushladim. Shu ikki sham bilan o‘zimni, hayot yo‘limni belgiladim.”

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans negizlari yaratilayotgan bir davrda tarixiy merosga, o‘zlikni anglashga yangicha munosabat shakllantirilayotgan, jamiyatimiz ma’naviy hayotida poklanish yuz berayotgan bir sharoitda Amir Temur davrida yaratilgan ma’naviyat muhim ahamiyat kasb etadi.

[67] Temur tuzuklari.- T.: G'ofur G'ulom nashriyoti. 1991yil.53,57,99-betlar
[68] Temur tuzuklari.- T.: G'ofur G'ulom nashriyoti. 1991yil.53,57,99-betlar

AMIR TEMUR DAVRIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xamzayeva Mavjuda, TGFU o'qituvchi
Zayitboyeva Sabrinab, TGFU talabasi

Amir Temur (Tamerlan) — tarixda o'zining harbiy yutug'lari bilan tanilgan, ammo uning iqtisodiy siyosati ham ajralmas ahamiyatga ega. XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo, Yaqin Sharq va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritgan buyuk hukmdor o'zi boshqarayotgan hududda iqtisodiy islohotlar amalga oshirdi. U har bir hududda savdo, dehqonchilik, hunarmandchilik va soliqqa oid tizimlarni mustahkamlash, davlat moliyasini yaxshilash yo'lida bir qator qadamlarga borgan.

Amir Temurning iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyillari markazlashgan boshqaruv, adolatli soliq tizimi, savdo yo'llarining rivojlanishi va qishloq xo'jaligining mustahkamlanishi edi. Temur davridagi iqtisodiy islohatlar faqat mamlakat ichidagi barqarorlikni ta'minlamagan, balki xalqaro savdoda ham davlatni yirik iqtisodiy markazga aylantirgan. Shuning uchun Amir Temurning iqtisodiy islohotlari nafaqat o'sha davrda, balki hozirgi kunda ham dolzarb va o'rganishga arzigulikdir.

Bugungi kunda, o'zining iqtisodiy o'sishiga intilayotgan davlatlar, ayniqsa, O'zbekiston, Amir Temur davridagi iqtisodiy islohatlarni o'rganishga qiziqish bildirmoqda. Davlatni rivojlantirishda faqat siyosiy va harbiy kuchga tayanmasdan, iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlash zarurligini anglash, bugungi iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, Amir Temur islohatlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish dolzarb masaladir.

Asosiy qism

1. Amir Temur iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyillari

Amir Temur iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga tayanardi:

Markazlashgan boshqaruv orqali soliqlarni adolatli taqsimlash

Savdo yo'llarini xavfsiz qilish va karvon yo'llarini tiklash

Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash

Hunarmandchilik va shaharsozlikni rivojlantirish

Aholi turmush darajasini oshirish orqali davlat barqarorligini mustahkamlash

2. Soliq tizimi va moliyaviy islohotlar

Amir Temur soliq tizimini soddalashtirib, adolat tamoyiliga asoslanishni maqsad qilgan. Soliqlar barqaror va oldindan belgilangan miqdorda undirilgan. Bu esa aholining ishonchini oshirib, iqtisodiy faollikka turtki bo'lgan. Yersahro va harbiy yurishlardan tushgan daromadlar davlat moliyasini mustahkamlab turgan.

3. Savdo va karvon yo‘llarining tiklanishi

Temur Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan shaharlarni tikladi, xavfsizlikni ta’minladi. U xalqaro savdoni rag’batlantirdi, chet ellik savdogarlarga imkoniyatlar yaratdi. Bu orqali Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlar yirik iqtisodiy markazga aylandi. Valyuta ayirboshlash va bozorlar faoliyati jadal rivojlandi.

4. Qishloq xo‘jaligi va irrigatsiya tizimi

Temur qishloq xo‘jaligini iqtisodiyotning asosi deb bilgan. U suv inshootlari – ariq, kanallar qurilishiga katta ahamiyat bergan. Dehqonlarga yerlar ajratilgan, ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki bozorni boyitgan.

5. Hunarmandchilik va shaharsozlik

Amir Temur davrida hunarmandchilik keng rivojlangan. Temur ustalarni qo‘llab-quvvatlab, ularni boshqa davlatlardan ham chaqirtirgan. Shaharlar, bozorlar, karvonsaroylar qurilishi iqtisodiy faollikni oshirgan.

6. Bugungi kundagi ahamiyati

Amir Temur olib borgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda quyidagilar uchun ibrat manbai bo‘la oladi:

Adolatli soliq tizimi orqali fuqarolar ishonchini mustahkamlash

Xalqaro savdo va transport yo‘llarini rivojlantirish

Qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini oqilona boshqarish

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash

Bugungi O‘zbekiston ham aynan shu yo‘nalishlarda islohotlar olib bormoqda. Amir Temur siyosatining zamonaviy talqini sifatida "Yangi O‘zbekiston" g’oyasi hamda iqtisodiy strategiyalarni ko‘rsatish mumkin.

Amir Temurning iqtisodiy siyosatidagi tamoyillar: chuqur tahlil

Amir Temur o‘z davlatini kuchli harbiy qudrat bilangina emas, balki barqaror va adolatli iqtisodiy siyosat bilan mustahkamlagan. U davlatchilikni yuksaltirishda iqtisodning rolini yaxshi anglagan va quyidagi asosiy tamoyillarga tayanib ish ko‘rgan:

1. Adolatga asoslangan soliq tizimi

Temur iqtisodiy siyosatning markaziga adolat tamoyilini qo‘ygan.

Soliqlar qat’iy miqdorda belgilangan va oldindan ma’lum qilingan.

Noaniqlik yoki o‘zboshimchalik soliq yig’imida qat’iyan man etilgan.

Soliq yukini kamaytirish orqali dehqonlar va hunarmandlar faoliyatini rag’batlantirgan, bu esa ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelgan.

Bugungi kun uchun saboq: Ochiq, shaffof va adolatli soliq siyosati — har qanday taraqqiyotning asosi.

2. Iqtisodiy markazlashuv va boshqaruv tizimi

Temur davlat ichki tartiblarini qat’iy nazorat ostiga olgan.

Bozorlar, karvonsaroylar, bojxona punktlari va ishlab chiqarish ustaxonalarining faoliyati davlat tomonidan muvofiqlashtirib borilgan.

Iqtisodiyotda tartib va nazorat hukm surgan — bu esa ishonchli muhit yaratgan.

Bugungi kun uchun saboq: Kuchli va samarali iqtisodiy boshqaruv tizimi — investorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun asosiy kafolatdir.

3. Xavfsizlik va savdo yo'llarini himoya qilish

Buyuk Ipak yo'lining xavfsizligini ta'minlash Temurning asosiy siyosatidan biri bo'lgan.

Savdogar va karvonlar uchun qulay sharoit yaratilgan, bojxona tartiblari soddalashtirilgan.

Chet ellik savdogarlar uchun imtiyozlar joriy qilingan, bu xalqaro savdoni kuchaytirgan.

Bugungi kun uchun saboq: Xavfsizlik va savdo erkinligi iqtisodiy o'sish uchun muhim infratuzilma hisoblanadi.

4. Qishloq xo'jaligi va irrigatsiya tizimining rivoji

Yer – davlat boyligi sifatida muqaddas sanalgan.

Sug'orish tizimlari (ariqlar, kanallar) qurilgan va ta'mirlangan.

Dehqonchilik samaradorligi oshgan, oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlangan.

Bugungi kun uchun saboq: Agrosanoatni rivojlantirish – oziq-ovqat mustaqilligi va iqtisodiy barqarorlikning asosi.

5. Hunarmandchilik va mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash

Hunarmandlar – davlatning asosiy tayanchi sifatida ko'rilgan.

Ustalar va me'morlar boshqa hududlardan chaqirtirilib, ularga maxsus sharoit yaratilgan.

Mahalliy mahsulotlar sifatli va eksportga yaroqli bo'lgan.

Bugungi kun uchun saboq: Milliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish orqali ichki bozorni to'ldirish va eksport salohiyatini oshirish mumkin.

6. Sarmoya va mulk daxlsizligini ta'minlash

Amir Temur sarmoya va xususiy mulkni himoya qilish tamoyilini qo'llagan.

Savdogarlarning mol-mulki davlat tomonidan qo'riqlangan, mulkka tajovuz qilganlar og'ir jazolangan.

Bu esa iqtisodiy barqarorlikni saqlashga xizmat qilgan.

Bugungi kun uchun saboq: Mulk daxlsizligi – tadbirkorlik faolligining kalitidir.

Bugungi kunda iqtisodiy islohatlar mamlakatlarning rivojlanishida, ayniqsa O'zbekiston kabi mamlakatlarda, muhim rol o'ynamoqda. Iqtisodiy islohatlar nafaqat iqtisodiyotning o'sishini, balki davlatning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Keling, bugungi kunda olib borilayotgan islohatlarning ahamiyatini quyidagi jihatlar bilan ko'rib chiqamiz:

1. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash

Islohatlar iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ko'plab davlatlar soliq islohotlari, moliyaviy tizimlarni tartibga solish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishga harakat qilmoqda. O'zbekistonning so'nggi yillarda o'tgan islohotlari, ayniqsa, iqtisodiy mustaqillikka erishishda va xalq farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya

Bugungi kunda mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tobora kuchayib bormoqda. Savdo va investitsiya oqimlarini boshqarish orqali mamlakatlar o'zining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga harakat qilmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyo va jahon bozorlariga integratsiyasi, ayniqsa, Savdo va investitsiya liberallashuvi kabi islohotlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy diversifikatsiyani amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

3. Korruptsiya va davlat boshqaruvini takomillashtirish

Korruptsiyaning oldini olish va samarali davlat boshqaruvini tashkil etish islohatlarning asosiy maqsadlaridan biridir. O'zbekistonning so'nggi yillardagi islohotlari ham bu yo'nalishda o'ta muhim o'zgarishlarni amalga oshirdi. Boshqaruvni soddalashtirish, davlat apparatini optimallashtirish, elektron hukumat va shaffoflikni ta'minlash orqali davlat xizmatlari va biznes muhitini yaxshilashga erishilmoqda.

4. Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish

Global iqtisodiyotda mamlakatlarning o'zaro raqobati kundan-kun ortib bormoqda. Shuning uchun islohatlar orqali mamlakatlar o'z iqtisodiyotini mustahkamlash, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi bozorlarni o'zlashtirishga intilmoqda. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari raqobatni oshirishga, yangi bozorlar va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Yangi texnologiyalarni joriy etish, turizmni rivojlantirish va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bu jarayonlarning ajralmas qismlaridir.

5. Ijtimoiy tenglikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish

Iqtisodiy islohatlarning muhim ahamiyatlaridan biri bu ijtimoiy tenglikni ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir. Bugungi kunda, islohatlar orqali daromadlar taqsimotining adolatli bo'lishi, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi masalalar hal qilinmoqda. Shuningdek, turli hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqni kamaytirish ham islohatlarning asosiy maqsadlaridan biridir.

6. Atrof-muhitni himoya qilish va barqaror rivojlanish

Bugungi kunda barqaror rivojlanish va atrof-muhitni himoya qilish masalasi ham iqtisodiy islohatlar doirasiga kiritilgan. Global isish, suv

resurslarini tejash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash kabi ekologik masalalar ham iqtisodiy islohatlarning muhim qismi hisoblanadi. O‘zbekiston bu borada ham bir qator tashabbuslar bilan chiqib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga intilmoqda.

Amir Temur davridagi iqtisodiy islohatlar o‘z vaqtida mustahkam iqtisodiy asosni yaratgan bo‘lsa, bugungi kunda ham ular o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Temurning iqtisodiy siyosati davlatni samarali boshqarish, soliq tizimini yaxshilash, xalqaro savdoni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Bu islohatlar nafaqat o‘sha davrda, balki hozirgi kunda ham iqtisodiy rivojlanishning muhim modeliga aylangan.

Bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar, ayniqsa, O‘zbekistonda, Amir Temurning yurtni rivojlantirishdagi usullaridan ilhomlanib amalga oshirilmoqda. Barqaror iqtisodiy o‘sish, xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi islohotlar, Temur davridagi tajribaga asoslanadi. Shuningdek, davlat boshqaruvining markazlashuvi, adolatli soliq siyosati va infratuzilmani rivojlantirish bugungi kunda ham iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Amir Temurning iqtisodiy islohatlarining bugungi kundagi ahamiyati nafaqat tarixiy qimmatga ega, balki zamonaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ham ibrat manbai sifatida xizmat qilmoqda. Iqtisodiy islohatlarning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan adolatli soliq tizimi, savdo yo‘llarini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash bugungi kunda ham muhimdir. Amir Temurning iqtisodiy siyosati va uning bugungi kundagi ahamiyatini o‘rganish, zamonaviy iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lishi mumkin.

II-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY TIZIM FAOLIYATINI TASHKILIY ASOSLARI

"AN-NUJUM AZ-ZOHIRA FI MULUK MISR VA AL-QOHIRA" ASARIDA AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIGA OID MA'LUMOTLAR TAHLILI

Xurshid Imomov,
O'zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi

Jamoluddin Abu-l-Mahosin Yusuf ibn Tag'riberdi[69] (1411-1469) Qohirada tug'ilgan misrlik mashhur tarixchi bo'lgan. Uning otasi Misr sultonlari az-Zohir Barquq va uning o'g'li an-Nosir Faraj davrida katta amirlardan bo'lgan. Bu esa uning o'z davriga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishiga xizmat qilgan. O'z davrining mashhur olimlari ibn Hajar al-Asqaloniy, Badriddin al-Ayniylardan ta'lim olgan. Zamonasining tarixchilari ustozi deb tanilgan Taqiyuddin Ahmad ibn Ali al-Maqriziydan tarix ilmini o'rganadi.

Ibn Tag'riberdi tarixga oid 12 ta asar yozgan. Ularning eng mashhuri "An-Nujum az-Zohira fi mulki Misr va-l-Qohira"[70] ("Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar") asaridir. Ushbu asar 16 jilddan iborat bo'lib, VII asrdan to o'zi yashagan davrgacha bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "An-Nujum az-Zohira"da Amir Temur haqidagi ko'plab ma'lumotlar keltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Unda Amir Temurning nasabi, shaxsiy fazilatlari, hokimiyatga kelishi hamda harbiy sarkarda sifatida shakllanib, katta saltanat tuzishi haqidagi ma'lumotlar tafsilotlari bilan birga bayon etilgan. Xususan, uning To'xtamishxonga qarshi harbiy harakatlari, Shom, Iroq, Hindistonga qilgan yurishlari batafsil zikr qilingan.

Asarda muallif Amir Temurning otlarning yaxshisini ajrata olganligi bois Sulton Husayning e'tiboriga tushganligi va bu mansabdan to amir lavozimigacha yetishganligini yozgan[71]. Amir Temurning otlarni farqlay olish faoiliyati uning keyingi harbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarida ham asosiy olmillardan biri hisoblanadi. Uning suvoriylarining shiddati ko'p janglarda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Ibn Tag'riberdi Amir Temurning sarkarda sifatidagi birinchi g'alabasi sifatida Sulton Husayn bilan bo'lgan jangga ta'rif beradi. Samarqand tarafdan Sulton Husayn askarlari Darbandni egallashgan edi. Amir Temur esa asosiy yo'lni aylanib o'tib, o'z askarlariga Sulton Husayn askarlari joylashgan yaylovda otdan tushib o'zlarini dam olishayotgandek ko'rsatishlarini buyuradi.

---

[69] Уватов У. "Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида". "Шарқ", Тошкент. 1997 й. 9 б.
[70] Ибн Тағриберди "Ан-Нужум аз-Зоҳира фи мулки Миср ва-л-Қоҳира", XII, XIII жилдлар. Қоҳира, 1956 й.
[71] Ўша асар. XII жилд, 256 б.

Bu tadbir ish berib, Sulton Husayn askarlari ularning oldidan huddi o‘z qo‘shini oldidan o‘tganday o‘tib ketishadi. So‘ngra Sulton Husayn askarlarining orqasidan hujum qilib ularni mag’lub etadi[72].

Amir Temurning ikkinchi katta g’alabasi sifatida Xo‘jand daryosi yaqinidagi Turkiston atroflarida joylashgan To‘xtamishxon ustidan qozonilgan g’alaba e’tirof etilgan. Bu jangda Amir Temur mag’lubiyatga yaqin turgan edi. Uning ma’naviy rahnamosi Sayyid Barakaning ruhiy qo‘llab quvvatlashi og’ir vaziyatda g’alaba qozonishiga sabab bo‘ladi[73]. Bu holat qo‘shinni harbiy ruhiy holatini tetik tutishga alohida e’tibor berganligini ko‘rsatadi.

Uchinchi yirik g’alabasi sifatida esa Iroqi ajam sultoni shoh Mansur bin shoh Valiy ustidan qozonilgan g’alaba va so‘ngra Bag’dod, Basra, Kufa hamda Diyor Bakrni qo‘lga kiritishi deb qayd etilgan.

Amir Temur Hindiston shohi Feruzshohning vafoti, uning o‘g’li yo‘qligi, Dehlidagi odamlar ixtilofli holatda ekanligi, Dehli taxtiga Mallu ismli vazir o‘tirganligi, unga Feruzshohning Mo‘ltonda noibi vazifasidagi ukasi Sorangxon muxolif bo‘layotgani haqidagi xabar yetib keldi. Bu xabarni Temur eshitganida fursatni g’animat bilib, 800 yilning zul-hijja oyining Samarqanddan Mo‘ltonga yurdi. Uning hukmdori Sorangxonni 6 oy qamal qildi. Sorangxonning qo‘shinida 800 ta fil bor edi, Temur ularni ham qo‘lga kiritdi[74]. Bu holat Amir Temur harbiy faoliyatida xalqaro siyosiy hamda harbiy vaziyat haqida tez xabar olish tizimi yo‘lga qo‘yilganligi va unga javoban tez choralar ko‘rish amalda qo‘llanganligiga dalolat beradi.

“An-nujum az-zahira”da Dehli uchun bo‘lgan shiddatli jang, unda qo‘llanilgan harbiy taktika barcha tafsilotlari bilan quyidagicha sharhlangan: So‘ngra Temur hukmdor poytaxt Dehli shahriga yurdi, u bilan jang qilgani uning mazkur hukmdori Mallu askarlar qarshisiga chiqdi. Ular bilan fillari bor edi. Har bir fil ustiga ichida bir necha jangchi bo‘lgan kajava (minoracha, qubba) o‘rnatilgan edi. Ushbu fillar maxsus zirhli yopinchiq va bargustivonlar bilan kiyintirilgan edi. Ularga ovozlari bilan otlar qo‘rqib, qochishlari uchun qo‘ng’iroqlar va zanglar osilgan edi. Ularning xartumlari bir nechta o‘tkirlangan qilichlar bilan (dahshati) kuchaytirilgan edi. Hind askarlari ushbu fillar o‘zlaridagi narsalar (voxima) bilan Temur askarlarining otlarini qo‘rqitib qochishlari uchun fillarning ortidan harakatlanishdi.

Temur ularning rejalarini hisobga olib hiyla ishlatdi va minglab uch qirrali temir tikonlar yasattirdi. Ularni fillarning yo‘llariga sepib chiqishdi. 500 tuya ustini yog’ga botirilgan fitillari bo‘lgan qamishlar bilan to‘ldirishdi. Ularni askarlarining oldiga qo‘ydi. Ikki guruh bir – birlarini ko‘rib, urush uchun harakatlan boshlashganida Temur o‘sha olovli yuklarni yoqdi va ularni fillar

[72] Ибн Тағриберди “Ан-Нужум аз-Зоҳира фи мулки Миср ва-л-Қоҳира”, XII жилд. Қоҳира, 1956 й. 256 б.
[73] Ўша асар. XII жилд. 259 б.
[74] Ўша асар. XII жилд. 261 б.

ustiga haydadi. O‘sha tuyalar olov harorati shiddatidan yugurishdi. So‘ngra ularni boshqaruvchilar ularning orqalaridan boshqarib borishdi. Temur esa pistirmada edi.) So‘ngra kam sonli askarlari bilan saxarda hujumga o‘tdi. Qavm jang qilish to‘qnashayotgan paytida Temur otini ortga qaytardi, qavm uni (Temurni) mag’lub bo‘lib qochyapdi, uning otlari fillardan hurkib qochmoqda deb adashishdi. Ular yasagan temir tikonlar sochilgan joylarga qarab harakatlanishdi. uning hindlarga ishlatgan hiylasi ish berdi. Fillarni orqasidan shiddat bilan (olg’a) boshqarishdi toki ular o‘sha temir tikanlarni bosmagunlaricha. Ulardan (tikanlar) o‘tishlarining oqibatida ortga qaytish bo‘ldi. So‘ngra Temur askarlarini boyagi tuyalarga e’tiborini qaratdi. Ularning olovi kattalashgan, uchqunlari yon-atrofga ko‘tarilgan edi. Ularning orqalaridan tig’ tiqib xaydaganlarida jirkanch tarzda o‘kirar edilar. Fillar buni ko‘rganlarida qo‘rqib hind askarlarining ustiga yurishdi. Temur ularning yo‘liga tashlagan tikonlarning og’riqlarini his qilishdi. Tiz cho‘kib, harakatlana olmay yerga sochilgan tog’lardek bo‘lib qolishdi. Ularning qonlari daryo bo‘lib oqdi. Shu payt hind askarlarining ikki tarafidan pistirmada o‘tirgan Temur askarlari chiqishdi. So‘ngra Temur o‘zi bilan bo‘lgan (askarlar) bilan birga ularni yakson qildi, hindlar chekinishdi va ularga kamonlardan o‘qlar uzildi.

So‘ngra ular jipslashib nayzalar so‘ngra qilichlar va boltalar bilan jang qilishdi. Ikki guruh hindlarning a’yonlari va yetakchi jangchilari halok bo‘lib, mag’lub bo‘lmagunlaricha sabr bilan jang qilishdi. Jangdan qochganlaridan so‘ng qolganlari mag’lub bo‘lishdi. Temur ularning ortidan Dehli shahriga borib yetgunicha ta’qib qildi. Va uni qo‘lga kiritmagunicha atrofini qamal qildi[75].

Manbadagi ushbu ma’lumotlar hind qo‘shiniga ustunlik bergan fillardan foydalanish taktikasini Amir Temur ularning o‘ziga qarshi qo‘llay olganligi, harbiy jihatdan noqulay sharoitdan uddaburonlik bilan foydalana olganligini ko‘rsatib turibdi.

Ibn Tag’riberdi “An-nujum az-Zohira”da Shomga yurishi haqidagi ma’lumotlar orasida Damashqda bo‘lgan voqealarga alohida to‘xtalib o‘tadi. Damashq shahri bu mintaqada strategik ahamiyatga ega shahar edi. Shahar mustahkam mudofaa devori va qal’aga ega bo‘lganligi bois bu shaharni olishda kam vaqt sarflanadigan ham kam talofat ko‘riladigan tadbir qo‘llaydi. Bu yerda sodir bo‘lgan voqealar asarda quyidagicha ta’riflangan: ... Devor ustidagi damashqliklar shiddatli jang qilishdi. Ularga devordan va xandaqlar yordamida qarshilik ko‘rsatishdi. Damashq eshiklariga hujum qilgan bir guruh asirga olindi. (Damashqliklar) ko‘plab otlarni qo‘lga kiritishdi va ularning mingga yaqinini o‘ldirishdi.

Damashq aholisi o‘z vatanlarini himoya qilish uchun shiddatli janglar olib borayotgan paytlarida Temur safdoshlaridan ikki kishi devor tagiga kelib: Amir

[75] Ибн Тағриберди “Ан-Нужум аз-Зоҳира фи мулки Миср ва-л-Қоҳира”, XII жилд. Қоҳира, 1956 й. 262-264 б.

sulhni xohlayapdi deb – qichqirishdi. Va bir oqil odamni amir u bilan haqda gaplashishi uchun yuborishlarini so‘radi.

Damashq aholisi Temur safdoshlarining sulh haqidagi so‘zini eshitganlaridan so‘ng, ular bosh qozi Taqiyuddin Ibrohim bin Muhammad bin Muflih al-Hanbaliyni yuborishga qaror qilishdi. U Damashq devoridan chiqib, Temur tomonga ketdi va u bilan uchrashdi. Unga Temur bu yerga kelayotganimda g’arazli niyatda edim, hozir qaytib ketishdan o‘zga niyatim yo‘q. Lekin odatimga ko‘ra taklifimdagi “to‘qquzot” -to‘qqizlikni olishim kerak. Bu uning odati edi, agar u bir shaharni sulh bilan olsa, uning aholisi taomlarning barcha turlari, ichimliklar, jonivorlar, kiyimlar va to‘qqizta tuhfa bilan uning oldiga chiqar edi. Uning nomi “to‘qquzot” bo‘lib, turkiy tilda 9 ni anglatadi...

Ibn Muflih Damashqqa qaytganida odamlarni jangdan qaytara boshladi. U Temur, uning dini, e’tiqodi to‘g’riligini ko‘klarga ko‘tarib maqtadi va Dimashq ahlini urushdan to‘xtatdi... Sulh tuzish qaroriga kelishdi. Tavon puli sifatida ming ming dinor (bir million dinor) yig’ib Amir Temurga olib kelib berishdi. Amir Temur ulardan talab qilingan mablag’ ming tumanni tashkil etishini aytib, ularga bu ishda bir guruhni vakil qilib tayinladi. Tuman 10 000 tilla dinordan iborat, tilaning bahosida ularning hisoblarida tafovut mavjud edi... Mablag’ miqdori ming tumanga yetganida, ibn Muflih uni olib Temurga yetkazdi. Temur ibn Muflih va uning safdoshlariga: -“bizning hisobimiz bo‘yicha bu mablag’ uch ming ming dinorga tengdir, sizlarda yana yetti ming ming dinor qolmoqda va menga ma’lum bo‘lishicha sizlar uni to‘lashga ojizsizlar”- dedi. Yetarli mablag’ yig’ilmaganligi sababli ular misrliklar tashlab ketgan mulklar va qurol-aslahalarni olib chiqib berishdi. Oqibatda talab qilingan mablag’ yetarli bo‘lmaganligi bois Amir Temur shaharni amirlari o‘rtasida taqsimlab, jangsiz qo‘lga kiritdi[76]. Muallifning ushbu ma’lumotlari boshqa manbalarga nisbatan batafsil bayon etilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur tarixi, xususan, uning harbiy sarkardalik faoliyatini yoritishda arab manbalarida bayon etilgan ma’lumotlarning ahamiyati katta. Ularning orasida ibn Tag’riberdining “An-Nujum az-Zohira fi mulki Misr va-l-Qohira” (“Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar”) asari Iroq va Shom mamlakatlaridagi Amir Temurning harbiy yurishlari, u qo‘llagan jang olib borish taktikasi, o‘z mamlakati sarhadlari bilan birga boshqa uzoq o‘lkalardagi siyosiy-harbiy holat haqidagi ma’lumotlarning tez va aniq yetib kelish tizimi shakllantirilganligi. Ushbu hududlardagi siyosiy vaziyat va o‘zaro diplomatik yozishmalar tafsilotlarining batafsil yoritilishi bilan o‘z o‘rniga ega. Ibn Arabshohning “Amir Temur

[76] Ибн Тағриберди “Ан-Нужум аз-Зоҳира фи мулки Миср ва-л-Қоҳира”, XII жилд. Қоҳира, 1956 й. 240-245 б.

tarixi"[77] asaridan farqli o'laroq voqealarni bayon etishda mubolag'adan deyarli foydalanilmaydi. Shu o'rinda ushbu asarni Amir Temurni harbiy-sarkardalik faoliyatini to'liq o'rganish uchun izchil tadqiq etishni talab etadi.

БОБУР – АМИР ТЕМУРНИНГ ҲАРБИЙ МЕРОСИНИНГ ДАВОМЧИСИ: ПАНИПАТДАГИ ЖАНГ МИСОЛИДА

Шарипов Азизжон Азимович,
ЎзРФА Темурийлар тарихи давлат музейи
"Маънавият ва маърифат" бўлими бошлиғи

XV асрнинг иккинчи ярми – XVI аср бошларида Деҳли султонлиги кучли сиёсий-иқтисодий инқироз даврини бошидан кечираётган эди. Бу даврда Шимолий Ҳиндистоннинг маъмурий-сиёсий харитаси бир нечта майда вилоятларга бўлиниб кетган эди. Декан, Малво, Гужарот, Жўнпур, Бангола ҳудудлари йирик амалдорлар қўлида мустақил бошқариларди. Деҳли султонига фақатгина Панжоб[78], Миёни-Дуоб[79] вилоятлари ва Деҳли атрофларигина бўйсунар эди. Лўдий афғон сулолалари ҳукмронлиги (1451–1526 йй.) даврида султонликнинг сарҳадлари бир мунча кенгайди. Салтанатнинг сиёсий ҳаётида афғонларнинг мавқеъи ошиб, улар йирик ер эгаларига – *заминдорларга* айланадилар.

Иброҳим Лўдий (1517–1526) салтанатни қаттиққўллик билан идора қилиб, отаси даврида катта имтиёзларга эга ва мустақил сиёсат олиб бораётган афғон ҳарбий зодагонларини марказий ҳокимиятга бўйсиндиришга интилади. Султон Иброҳим, ҳаттоки ўз қариндошларига нисбатан ҳам қатағон сиёсат олиб бориб, итоатсизликнинг барча кўринишларини шафқатсизларча бостиришга ҳаракат қиларди. Оқибатда бир қисм амалдорлар Оламхоннинг катта ўғли Жалолхон Лўдий атрофида бирлашиб, уни Калпий вилоятида мустақил султон қилиб кўтаришади. 1524 йилда, буларга қарши Иброҳим Лўдий қўшин тортиб Калпий ва Жўнпурни эгаллаб олади. Султонни амакиси бўлмиш Оламхон Лўдий Кобулга, Бобур подшоҳ саройига келиб, ундан паноҳ ва ёрдам сўрашга мажбур бўлади. Гарчи, Панипат жанги арафасида, Султон Иброҳим Лўдий давлатига Бҳирадан[80] Биҳаргача[81] (Бенгалияга чегарадош) бўлган улкан ҳудудлар қарам бўлган бўлсада, лекин салтанатнинг асоси емирилиб

[77] Ибн Арабшоҳ "Амир Темур тарихи", сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар У.Уватов томонидан тайёрланган. Тошкент, "Меҳнат" 1992.
[78] Панжоб (форс. Бешта дарё, "*бешсу*") Покистон ва Ҳиндистоннинг Желам, Чиноб, Равий, Биаҳ ва Сатлаж дарёлари оралиғида жойлашган тарихий вилоят, ўлка.
[79] Ганга ва Жамна дарёлари оралиғидаги ерлар шундай аталган.
[80] Бҳира – Желам дарёсининг чап соҳилида жойлашган шаҳар ва туман.
[81] Биҳар – Ҳиндистондаги тарихий вилоят. Бенгалия билан чегарадош. Ганг дарёси қуйи оқимининг ўнг соҳилида жойлашган.

бўлинган эди. Султоннинг баъзи амирлари (Диловархон) ва хатто қариндошлари (амакиси Оламхон) ҳам қочиб, Бобур саройидан паноҳ излай бошлайдилар, Исмоил Жилвоний сингари қолган амир ва беклар ҳам вазиятга қараб, Бобур томонга ўтишга тайёр эдилар.

Деҳли султонининг назаридан қолган амирлардан бири Панжоб ҳукмдори Давлатхон эди. У, Бобур билан иттифоқчилик алоқаларини ўрнатади. Бироқ, кейинчалик, бу алоқалар Давлатхоннинг ҳиёнати туфайли, адоватга айланган эди. Ҳусусан, Қандаҳор ва Бадахшондаги вазият мураккаблашиб қолганлиги сабабли Бобур Панжобни тарк этиб, Кобулга қайтиб кетганида, Давлатхон, Бобурнинг бу ердаги ноибларига қарши қўшин тортиб, Султонпур, Дибалпур, Сиалкот ва Каланжар қўрғонларини қайта эгаллаб олади. 1525 йил охирига келиб, Бобурнинг қўл остида фақатгина Лоҳур вилояти қолган эди. Панжобнинг қолган ҳудудлари Давлатхон ва унинг тўнғич ўғли Ғозихонга ўтиб кетганди....

Маълумки, Ҳиндистоннинг Панжоб ўлкаси 1398 йилда Амир Темур томонидан ишғол қилиниб, унинг давлати таркибига киритилган эди. Деҳли султонларининг бу ердаги собиқ мулкларини бошқариш ҳуқуқи Соҳибқирон томонидан Сайид Хизрхонга[82] топширилганди. Кейинчалик, унинг ўғли Муборакшоҳ (1421–1434) ҳукмронлиги даврида ҳам бу ерлардан тушган даромадларнинг бир қисми солиқ сифатида темурийларга тўлаб борилар эди. Шу асосда "Темур забт этган ўлкаларнинг қонуний вориси" сифатида, Бобур бу вилоятларни "ё куч билан ё сулҳ билан" темурийлар тасарруфи остига қайта киритиш ва идора этишни мақсад қилганди: *"Чун ҳамиша Ҳиндустон олмоқ хотирда эди, бу бир неча вилоятларким, Бҳира ва Хушоб ва Чаноб ва Чанут бўлғай, неча маҳал турк тасарруфида эди, буларни худ мулкимиздек тасаввур қилур едук. Зўр била ё сулҳ била ўзимизнинг мутасарриф бўлуримизга мутаяққин едук"*[83]. Шу сабаб, Бобур бу ердаги маҳаллий аҳолини тинчлантириш ва кўнглини ҳотиржам қилиш мақсадида, ўз аскарларини бу ҳудудни талон-тарож қилиш ва аҳолисига зарар келтиришни қатъий тақиқлайди: *"Фармон бўлдиким, ҳеч ким буларнинг гала-қораларига, балки ип учи, игна синурларига атроф ва навоҳида зарар ва нуқсон еткурмасун"*. Ушбу мақсадларни кўзлаб, Бҳира вилоятига Бобурнинг вакили Абдураҳимбек

[82] Сайид Хизрхон ибн Малик Сулаймон (ваф.1421) – Деҳли султонлигининг 1414–1421 йиллардаги ҳукмдори. Шимолий Ҳиндистондаги Сайидлар сулоласининг асосчиси. Темур даврида Мўлтон вилоятининг ҳокими эди. Ҳиндистон юришида фаол қатнашганлиги учун унга Соҳибқирон томонидан Панжоб ўлкаси берилган эди.

[83] Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Таҳрир ҳайъати: А.Абдурашидов, Б.Алимов ва бошқ.;П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрл.: С. Ҳасанов; Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: Шарқ, 2002. 224а варақ; Кейинги ўринларда, ушбу мақолада учрайдиган "Бобурнома"дан олинган иқтибослар мазкур нашрда қайд қилинган бетларга эмас, балки шартли равишда қўлёзма варақларига ҳавола қилишни лозим топдик.

юборилади. Натижада Бҳира ҳукмдори Алихон (Лаҳор ҳукмдори Давлатхоннинг ўғли) Бобурга шаҳарни қаршиликсиз топширади.

Айни вақтда, Бобур Темур авлодларига тегишли бўлган барча ерларни, яъни Бҳира ва унга туташ бўлган Панжоб вилоятларини қайтариб беришни талаб қилиб, Мавлоно Муршидни Деҳлига, Султон Иброҳим ҳузурига элчи қилиб жўнатади. Бироқ, Давлатхон Иброҳимнинг бу талабларга рози бўлиб, Бобур билан дўстлашиб, иттифоқликда унга қарши Панжобда уруш бошлашидан ҳавотирда эди. Шу сабаб, Бобурнинг мазкур элчисини Лаҳорда, турли баҳоналар билан ушлаб туради.

1525 йилнинг ноябрида Бобур Панжоб ҳамда Ҳиндистоннинг қатъий равишда фатҳ этиш мақсадида Кобулдан йўлга чиқади. Бу Бобурнинг Ҳиндистонга қилган бешинчи ва сўнгги, ҳал қилувчи юриши эди. Ушбу ҳарбий юриш билан боғлиқ воқеалар "Бобурнома"да батафсил баён этилган[84]. 4 ноябрда Бобур Синд (Ҳинд) дарёсидан ўтиб, "Ҳиндустоннинг дарвозалари" бўлмиш Бҳира ва Сиалкот томон ҳаракатланади. Зеро, Бобур даставвал Панжобни бутунлай бўйсиндириш ва унинг ҳокими Давлатхон масаласини ҳал қилиши лозим эди.

Декабр ойларида Бобур қўшинига Бадахшондан ўғли Ҳумоюн мирзо, Ғазна вилоятидан эса, тажрибали амирларидан бири Хожа Калон ҳам келиб қўшилади[85]. Бадахшон ва Ғазна қўшинларининг қўшилиши билан Бобур қўшинлари сони нисбатан ортади. Ёзма манбаларда Бобур қўшининг умумий сони бўйича қарама-қарши маълумотлар учрайди. "Бобурнома" маълумотига кўра, қўшин сони 12 минг[86], "Тарихи Рашидий"[87] ва "Тарихи Фаришта" [88] асарларида эса 10 мингдан кўп эмаслиги ёзилган.

Давлатхон, ҳарбий салоҳиятда тажрибали бўлган Бобур билан юзма-юз тўқнаш келишидан қўрқарди. Бобур билан Давлатхон ўртасида умумий жанг содир бўлмайди. Унинг Бобур қўшинидан тўрт баробар катта бўлган қўшини, иттифоқчилари ўртасидаги келишмовчиликлар сабаб, ўз-ўзидан тарқалиб кетади. Давлатхон ўз қароргоҳи Милват (Малўт)га[89], Ғозихон эса тоғларга чекинади.

Бобур Давлатхон устига юришни давом эттириб, унинг қароргоҳи бўлмиш Милват қўрғонини ҳалқадек маҳкам қўршаб олади, шунингдек,

---

[84] Ҳиндистоннинг фатҳ этилиши, ҳусусан Панипат жанги тафсилотлари билан боғлиқ маълумотлар "Бобурноманинг " ҳижрий 932 (1525–1526) йил воқеалари баёнида, қўлёзманинг 250-300 варақларида келтирилган. Қуйида келтирилган иқтибослар, мазкур варақлардан сайланма тарзда олинди.

[85] Бобурнома, 252а варақ.

[86] Бобурнома, 254а варақ.

[87] Қаранг: Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р. Джалиловой, Л.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 455.

[88] Фаришта. Тарихи Фаришта. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 826. 143, 144, 233 варақлар.

[89] Милват (Малўт) – Покистоннинг Панжоб вилоятида, Кохан (Желам дарёсининг ирмоғи) дарёсининг ўнг соҳилида жойлашган ҳозирги Малот шаҳри.

яқин атрофдаги иккита йирик қўрғон – Кутил (Котла) ва Гангутани ҳам эгаллаб олади. Давлатхон нажот умидидан воз кечиб, Бобурга таслим бўлишдан бошқа илож тополмайди. Ғозихонни тириклайин тутиб келтириш учун махсус кучлар илғор қилинади, бироқ у қочиб кетишга муваффақ бўлади. Бобур ваъда қилганидек, Давлатхон ва унинг аҳли оиласи ҳаётини сақлаб қолади, лекин унинг хазинаси ва мол-мулкини давлат фойдасига мусодара қилади.

Шундай қилиб, 1526 йил 19 февралда Ҳиндистоннинг Панжоб вилояти Бобур давлати таркибига киритилади. Бироқ, Бобур Панжоб билан чекланиб қолмади. Чунки олдинда хали катта рақиб – Деҳли султони Иброҳим Лўдий турар эди. Муҳаммад Али Жанг-Жангни вақтинчалик Милватга ҳоким этиб тайинлаб, ўзи эса Деҳли томон юришга ҳозирлик кўради: *"Ғозихоннинг устига илғор айирғондин сўнг ҳиммат рикобиға оёқ қўюб, таваккул иноніға илик уруб, Султон Иброҳим бинни Султон Искандар бинни Султон Баҳлул Лўдий афғоннинг устиғаким, ул тарихда Деҳли пойтахти ва Ҳиндустон мамолики анинг тахт тасарруфида эди, ҳозир черигини бир* ***лак***[90] *дерлар эди, ўзида ва бекларида мингга ёвуқ фил ченарлар эди, мутаважжиҳ бўлдук"*[91].

Панипат жанги арафасида Бобур аллақачон катта ҳарбий билимга ва етарли жанговар тажрибага эга эди. Зеро, у ўша даврнинг Шайбонийхон, Шоҳ Исмоил Сафавий, Султон Ҳусайн мирзо сингари йирик ҳукмдорларнинг ҳарбий маҳорати – тактика ва стратегиясини яхши ўзлаштирган эди. Бобур қўшинида ўз даврининг илғор ҳарбий қуроллари – милтиқ ва тўфанглар билан қуролланган аскарлар ҳамда замбараклардан фойдалана оладиган Румлик (Туркиялик) мутахассис – артилериячилари ҳам бор эди.

Иброҳим Лўдийнинг қўшини Жамна дарёсининг ўнг қирғоғи бўйлаб, Бобур томон ҳаракатланаётган эди. Бундан ташқари, Деҳли султонига ёрдам тариқасида Ҳисори-Фирузадан[92] вазир Ҳамидхон бошчилигида қўшимча кўмак кучлари ҳам йўлга чиққан эди.

Бобурга Ҳамидхоннинг Султон қўшини билан бирлашаётгани хабари етиб келгач, ўғли Ҳумоюн мирзони илғор жўнатиб, Ҳисори Феруза қўрғонидан келаётган қўшинни қандай йўл билан бўлса ҳам тўхтатиб қолишга, агар уддалай олса мазкур қўшинни мағлуб этишга буюради. Бобурнинг ўн саккиз ёшли ўғли бу вазифани аъло даражада бажаради. Ҳумоюн нафақат бу қўшинни енгишга, балки унинг қароргоҳи Ҳисори Ферузани ҳам эгаллаб олишга муваффақ бўлади. 1526 йил 26 февралдаги бўлган бу кичик жангнинг муваффақиятли якуни Бобурни жуда хурсанд

[90] Лак – саноқ ва ўлчов бирлиги. 1 лак = 100 минг (10^5).
[91] Бобурнома, 261а варақ.
[92] Ҳисори-Фируза – Деҳлидан 160 км шимоли-ғарбда жойлашган ҳозирги Ҳисор шаҳри.

қилади. "Бу Ҳумоюннинг биринчи ажойиб иши ва биринчи юриши эди; келажак учун ажойиб башорат эди", - деб ёзади у ўз хотираларида[93].

1526 йилнинг Апрел ойи бошларида Бобур ва душман қўшинлари Панипат майдонига яқинлашиб, саф торта бошладилар: *"Бу қарор била кўчуб, ора қўнуб, панжшанба куни, жумодиулохир ойининг салхи Панипат келдук. Ўнг қўл шаҳр ва маҳаллот бўлди".* Бобур Иброҳим Лўдийдек кучли ва сон жиҳатидан катта устунликка эга бўлган рақибга бас келиш учун, Ўрта Шарқнинг турли мамлакатларидаги жанговар тажрибани ҳисобга олган ҳолда, ўз қўшинини мураккаб бир тарзда ясол – жанговар тартибга солади. У, жанг олдидан ҳарбий кенгаш тузиб, душман билан қачон, қайси майдонда ва қай тарзда жангга киришиш бўйича пухта режа (тактика ва стратегия) ишлаб чиқишга киришади. Жангдан олдин ўз қўшинини, душман ҳеч бир томондан зарба бера олмайдиган даражада жойлаштиришга интилади.

Темурийлар қўшининг кайфиятида ҳам ғалабага бўлган ишонч умидлари сезиларли даражада паст, баъзи аскарлар руҳий ҳавотирда эдилар. Зеро, Ватанларидан анча узоқда, бегона халқ ва бегона юртда, қолаверса, қаршиларида ҳали яхши ўрганилмаган, жанг услуби номаълум бўлган қудратли рақиб турар эди.

Бобур ўз лашкарбоши ва қисм бошлиқларининг масъулиятини ошириб, уларга тайин вазифалар юклайди ҳамда жанг вақтида қандай ҳаракатланиш лозимлигини қатъий белгилаб беради. Аскарларни жанговар руҳий тайёргарлигини мустаҳкамлашга қаратилган чора-тадбирлар ҳам кўрилади. *"Черик эли баъзи хейли мутараддид (қўрқув) ва мутаваҳҳим (хавотир) эдилар. Тараддуд ва таваҳҳум бетақрибдур. Неким азалда Тенгри тақдир қилибтур, андин ўзга бўлмас. Агарчи аларни ҳам айб қилиб бўлмас, ҳақ алар жониби эди. Не учунким, Ватандин икки-уч ойчилиқ йўл келилиб эди. Ғариб қавме била элнинг иши тушуб эди. Не биз аларнинг тилларини билур едук, не алар бизнинг тилимизни"*[94], - деб ёзади Бобур.

Ҳарбий кенгаш қарорига кўра, ҳал қилувчи жанг майдони сифатида Деҳлидан 90 км шимолда жойлашган Панипат шаҳри атрофлари танлаб олинади. Зеро, ушбу шаҳар атрофи асосан текис майдондан иборат эди, ўнг томонда шаҳар қўрғони, чап томонда эса Жамна дарёси оқиб ўтарди. Бундай географик шароит қўшиннинг эркин ҳаракатланиши учун, шунингдек, оғир тўп араваларнинг ҳаракатланиши ва жойлашувига ҳам қулай табиий муҳит сифатида қараларган эди[95].

Бобур қўшиннинг ўнг қанотини Панипат шаҳри қўрғони билан имкон қадар яқинроқ жойлаштиришга, унинг деворлари билан туташтиришга

[93] Бобурнома, 263а варақ.
[94] Бобурнома, 264б варақ.
[95] Бобурнома, 264а варақ.

қарор қилади. Зеро, шаҳарнинг маҳалла ва иморатлари қўшиннинг ўнг қанотга беришиши мумкин бўлган зарбаларга ўзига хос тўсиқ сифатида хизмат қиларди. Бобур қўшинининг энг заиф томони эса, тўпчи-замбараклар жойлашган марказ ҳамда қўшиннинг чап қаноти эди. Зеро, зарур пайтда чекиниш учун оғир замбаракларнинг ҳаракатланиши ниҳоятда секин, чап қанотдаги қўшинларга эса, тўлиб тошиб оқаётган Жамна дарёси тўсқинлик қилиши шубҳасиз эди. Шу сабабли ушбу тарафлардан келинадиган ҳавф хатарларни бартараф этиш учун бир қатор қурилиш-мухандислик ишлари олиб борилади. Жумладан, марказдаги тўпчилар ҳимояси учун аравалардан ташкил топган ўзига хос мудофаа чизиғи (истеҳком) барпо этилади. Мерганларга ана шу аравалар ва тўсиқлар ортидан душманни тинимсиз ўққа тутиш вазифаси қўйилади: *"фармон бўлдиким, жамиъ черик эли фарохўри ҳолиға ароба келтургайлар. Етти юз ароба бўлди. Устод Алиқулиға фармон бўлдиким, Рум дастури била аробаларнинг орасида занжир ўрниға ўйнинг хомидин арғамчилар ешиб, бир-бириға боғлағайлар. Ҳар икки ароба орасида олти-етти тўра бўлғай. Туфангандозлар бу ароба ва тўраларнинг кейнида туруб, туфанг отқайлар".* Сўл қанотнинг ёнлари бўйлаб ҳамда аравалар билан тўсилмаган жойларда хандаклар қазилади, шунингдек, дарахт шоҳлари, тўнка ва ғўлалар, тиканли буталар ёрдамида турли сунъий тўсиқлар ҳосил қилинади.

"Бобурнома" маълумотларига кўра, Бобур қўшинининг ясоли, яъни жанговар тартиби қуйидагича эди (1-расм):

Марказ (ғул, қалб)да шахсан Бобурнинг ўзи, олий жанговар байроғи билан қўмондонлик қиларди. Марказнинг ўзи ҳам ўнг ва чап "қўл"лар билан мустаҳкамланади. Ҳар бир қўлда 7 та бўлинмадан иборат махсус қисм ташкил этилади ва уларга тажрибалари амирлар тайинланади. Жумладан, **Ғулнинг ўнг қўлида** – Чин Темур Султон, Сулаймон мирзо, Муҳаммадий кўкалдош, Шоҳ Мансур барлос, Юнус Али, Дарвеш Муҳаммад сорбон ва Абдулло китобдор; **Ғулнинг сўл қўлида** – Хожа Халифа, Хожа Мирмирон, Аҳмадий парвоначи, Турдибек, Қўчбек, Муҳиб Али Халифа ва Мирзобек тархонлар жой олади.

Ўнг қанот (баронғор)да – Бобурнинг ўғли Ҳумоюн мирзо, Хожа Калон, Султон Муҳаммад дўлдой, Ҳиндубек, Вали хазиначи ва Пирқули Сийстоний бошчилик қиларди.

Чап қанот (жавонғор)да – Муҳаммад Султон мирзо, Маҳдий Хожа, Одил Султон, Шоҳ Мир Хусайи, Султон Жунайд барлос, Қутлуққадам, Жонибек, Муҳаммад бахши ва Шоҳ Ҳусайн Ёракий мўғул тайинланади.

Тўлғама маневрини амалга ошириш учун, ҳар икки қанотнинг четида мўғуллардан иборат енгил қуролланган махсус отлиқ бўлинмалар – *қунбул* (Бобур, бу қисмларга "буронғор ва жавонғорнинг учи" атамасини беради)

ташкил этилади. Унинг васифасига *"ганим кишиси ёвуқ келгач, бу икки бўлак тўлгама ўнг қўлдин, сўл қўлдин ганимнинг орқасиға еврулгайлар"* (266б), яъни душман пайдо бўлгач, уни ўнг ва чап томондан четлаб ўтиб, орқа томондан кучли зарбалар бериб, душманни марказга сиқиб бориши лозим эди. Шунга кўра, **ўнг қанотнинг қунбулида** – Вали Қизил, Малик Қосим ва Бобо Қашқа тайинланади.

Чан қанотнинг қунбули (жавонғорнинг учи)да – Қарокўзи, Абулмуҳаммад найзабоз, Шайх Жамол барин, Маҳдий ва Тенгриқули Пишағий мўғул бошчилик қиладилар.

Ировул (авангард)да – Хисрав кўкалдош ва Муҳаммад Али жанг-жанглар қўшиннинг олдинги сафидан жой оладилар.

Тарҳ (резерв қўшинлари)**да** – Абдулазиз мирохўр бошчилигидаги заҳира қўшинлари зарур ҳолатларда ҳар иккала қанотга кўмак беришга тайёр эди. Бу қўшинларни Бобур ўнг қанотга ёрдамга жўнатганини эслатади: *"Ганимнинг қораси кўрунганда, буронғор сари майли кўпрак эди, бу жиҳаттин Абдулазизниким, тарҳқа муайян эди, баронғорга кўмак йиборилди"*.

Мудофаа чизиғи. Қўшиннинг олд қисмини ҳимоя қилиш мақсадида, бутун қанотлар бўйлар 700 та (ароба) аравалардан иборат ўзига хос мудофаа чизиғи, ҳимоя истеҳкоми ташкил этилади. Араваларнинг олд томони, фил ва отлиқларга қарши қўйилган узун найза ва тиканли шох ва ёғочлар билан ҳимояланади.

Ҳар икки аравалардан кейин 6-7 та ёғоч тўралар яъни тўсиқ (щит) ва темир қалқонлар ўрнатилади, улар бир бирлари билан мол терисидан тўқилган арқонлар билан боғланиб мустаҳкамланади. Зеро, бу арқонлар биринчидан, бостириб келаётган жанговар филлар ҳужумини мумкин қадар тўхтатиб қўйишга, иккинчидан эса, орқадаги асосий қўшинни сафни бузмасдан, жанг майдонида тартибли ҳаракатланишини таъминлаб берарди.

Мудофаа истеҳкомининг баъзи жойларида, орқадаги қанот қўшинлар ҳаракати учун 100–150 отлиқ ўта оладиган даражада бўш майдонлар қолдирилган: *"Ҳар бир ўқ отими ерда юз-юз эллик отлиқ чиққудек ерлар қўюлди"*. Арава ва қалқонлар ортида ўқотор аскарлар – **камончи (тиркаш), милтиқчи, раъдандоз** ва **тўфангдозлар** гуруҳи жойлаштирилиб, душманни услуксиз ўққа тутишдан иборат бўлган.

Тўпчи-фарангилар (артилерия) бўлинмасига Румлик (яъни туркиялик) мутахасислар Устод Алиқули ва Мустафо Румий бошчилигидаги тўпчилар ("фаранги зарбзанлиқ аробалари қуриб") мудофаа чизиғи (аравалар) ортида жойлаштирилади. Улар айни вақтда, милтиқчи ва тўфангдозлар гуруҳига ҳам умумий раҳбарлик қилган. Мазкур тўпчиларга "Рум дастури" (яъни турклар усули) асосида

артилерияни жойлаштириш ва жанг мобайнида рақибга мунтазам тўп отиб, душман сафини бузиш орқали лашкарларни тузғитиб юбориш вазифаси қўйилади. Айтиш мумкинки, Бобурнинг бундай жанговар ясоли, айни вақтда, душманни зарур пайтда қуршаб олишга, уни қопқонга тушириб, пистирмадан туриб яксон қилишга қаратилган пухта режаси ҳам эди.

1-расм

Заҳириддин Муҳаммад Бобур қўшинининг ясоли (жангавор тариби)



Деҳли Султони Иброҳим Лўдий қўшинининг жанговар тартиби тарихчилар томонидан таърифланмаган бўлсада, аммо уларнинг якдил фикрига кўра, унинг қўшини 1 лак, яъни 100 мингга яқин аскар ва 2 мингга яқин жанговар филларга эга бўлган (2-расм). Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Ҳиндистон қўшинининг сони бир лакдан зиёд эканлиги ёзилган[96], Бобурнинг қизи Гулбаданбегим эса ҳиндларнинг 180 минг отлиқ ҳамда 1500 та жанговар филлар билан жангга кирганини таъкидлайди[97]. Бобур эса, юқорида айтиб ўтилганидек, 10–12 минггача аскарга эга эди, холос.

[96] Қаранг: Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р. Джалиловой, Л.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 455.

[97] Гулбаданбегим. Заҳириддин Муҳаммад қизи. Ҳумоюннома / Форс тилидан А.Қуронбеков таржимаси. – Тошкент, 2015. – Б.12.

2-расм

Деҳли Султони Иброҳим Лўдий қўшинининг ясоли (жанговар тартиби)



Ҳиндистон қўшинининг тузилиши, анъанавий тарзда – авангард, ўнг ва чап қанотлар ҳамда марказ қўшинларидан иборат бўлган. Султоннинг энг асосий қуроли унинг **жанговар филлар**дан ташкил топган қисмлари ҳисобланарди. Шунинг учун, Иброҳим Лўдий бу жанговар филларни қўшиннинг энг олдинги сафига – авангардга жойлаштиради.

Филлардан иборат авангард ортидан пиёда аскарлар, ундан кейин суворийлар жойлашган. Қўшиннинг икки четида, қоида тариқасида, ўнг ва чап қанот қўшинлари ўрин олади. Марказда эса, Султон Иброҳимнинг ўзи хос лашкарлари билан қўмондонлик қилар эди.

Жангнинг бошланиши. 1526 йилнинг 12 апрелда Бобур қароргоҳида барча ҳарбий тайёргарлик ишлари якунланади, бироқ Бобур наздида, Султон Иброҳим ўрдасида иккиланиш, урушга хозирлик ишлари суст кечаётгандек туюлади. Душманни фаол ҳарбий ҳаракатларга ундаш мақсадида, Бобур, бек ва амирларининг маслаҳатига кўра, вақти-вақти билан унинг позицияларига кичик-кичик гуруҳларни жўнатиб, ҳужум қилиб кўради. Бу камончи гуруҳлар тунда ҳам фаоллик кўрсатиб, кутилмаганда душман қароргоҳида саросима ва ваҳима уйғотишга ҳаракат қилади[98].

[98] Бобурнома, 265б варақ.

3-расм

ПАНИПАТ ЖАНГИ
21 апрел 1526 йил



1526 йил 21 апрелда, эрта тонгдан ҳар иккала томон қўшинлари Панипат майдонида жангга тайёр ҳолатда саф тортиб турарди. Ушбу тарихий жанг, карнай ва бурғулар садоси остида, Бобур истаганидек, Султон Иброҳим қўшининг ҳаракати билан бошланади. Сон жиҳатидан Бобур қўшинидан 10 баробарлик устунга эга бўлган ҳинд қўшининг энг олдинги сафларида жанговар филлар ("*фил ченарлар*") марказга қараб ҳаракатланиб кела бошлайдилар, унинг ортидан эса, султоннинг асосий кучлари Бобур қўшининг марказий қисмига зарба беришни бошлайдилар. Бироқ, Бобурнинг мудофаа чизиғига яқинлашганда, Султон қўшини кутилмаганда, тўхтаб қолади. Бобур вақтни бой бермай, қўшин

сардорларига душманга қарата бараварига тўп ва замбараклардан, камон ва милтиқлардан шиддатли равишда ўқ узишни буюради. Замбарак тўпларининг портлашлари бутун жанг майдонини олов ва чанг-тўзонга айлантириб юборади. Камончиларни оловли ўқлари ҳам душман устига ёмғирдек ёғила бошлайди. Бостириб келаётган филлар, сафларини бузиб, ўз аскарларини топтаган ҳолда, тартибсиз равишда ортга чекина бошлайди.

Султоннинг ўнг ва чап қанотлари ҳаракатга келиб, ҳужумга ўтади. Асосий зарбалар Бобурнинг ўнг қанотига тушади. Баронғорни мустаҳкамлаш мақсадида, Бобур Абдулазиз мироҳур бошчилигидаги заҳира (тарҳ) қўшинларини сафарбар қилишга мажбур бўлади: *"Абдулазизниким, тарҳқа муайян эди, буронғорга кўмак йиборилди"*. Чап қанотларда ҳам вазият яхши эмас эди, уни ҳам ортида турган марказнинг чап "қўли" ёрдамида мустаҳкамлашга тўғри келади.

Шу тариқа, Бобур Султон Иброҳим ҳужумини қайтарига муваффақ бўлади ва эндиликда ташаббусни ўз қўлига олиб, ўзи ҳам тезкор қарши ҳужумга ўтишни бошлайди. Тўлғама (ўраб олиш амалиёти)га масъул бўлган ҳар икки қанотнинг қунбули тезликда душманни орқа томонига ўтиб, ўраб оладилар ва кучли зарбалар билан душманни марказга, яъни замбараклар ва милтиқчилар таъсир доираси томон сиқиб кела бошлайдилар.

Бобурнинг ўнг ва чап қанотлари – баронғор ва жавонғор қўшинлари ҳам душман қанотларига зарба бера бошлайдилар.

Чин Темур Султон ва Хожа Халифа бошчилигидаги марказнинг ўнг ва чап "қўл"лари эса қанотларга кўмак бериб, душманнинг марказий қисмига ҳужум қиладилар[99].

Жанг вақтида, Бобур ўз лашкарбошиларига аниқ ва тезкор буйруқлар берар, унинг ўзига ҳам айни вақтда, марказий сафда туриб жанг қилар эди. Темурийлар қўшинининг заҳирадан тортиб барча қисмлари уруш майдонида душман қаршилигини синдиришга, матонат ва жасорат билан жангга киришган эдилар. Қамалда қолиб кетган ҳинд қўшини эса, на олға силжиб, қаршисидаги рақибни енгишга ва на жанг майдонидан қочишга имкон топа оларди[100].

Султон Иброхимнинг қўшинларни бошқариш борасидаги тажрибасизлиги туфайли, унинг ўнг ва чап қанотлари асосий марказ қўшинлари билан аралашиб кетади. Жангчиларнинг тартибсиз ҳаракатини жанг майдонида тизимли бошқариш буткул издан чиққан эди. "*Ганимнинг ўнг қўли ва сўл қўли бори бир ерда йиғилиб, андоқ тиқилиш бўлдиким, не илгари кела олдилар, не қочғали йўл топа олдилар"*, - деб эслайди Бобур.

[99] Бобурнома, 266 б варақ.
[100] Ўша жойда.

Дарҳақиқат, Бобурнинг ўнг қанот, чап қанот, марказ ва тўлғама қисмлари душманни ҳар томондан ўраб олиб, борган сари марказга сиққиб борар, тўпчи ва милтиқчилар гуруҳи эса улар устига тинимсиз тош, олов ва ўқлар ёғдирарди. Шу тариқа жанг тақдири темурийлар фойдасига ҳал қилинган эди. Тонгда бошланган уруш тушгача давом этади ва охир-оқибат Бобурнинг яққол ғалабаси билан якун топади.

Панипат майдонида Бобурнинг тахминича, душманнинг 10-15 минг қўшини ўлади, бироқ, кейинроқ маълум бўладики, 40-50 минг қўшин нобуд бўлганди, омон қолганлари эса теварак атрофларга қочиб кетишга эришадилар. Бу урушда Султон Иброҳимнинг ўзи ҳам ҳалок бўлган эди. Унинг жасади султоннинг 5-6 минглик хос навкарлари орасидан топилади. *"Офтоб бир найза бўйи чиқиб эдиким, уруш ангизи бўлди. Кун тушгача зарб уруш эди. Кун туш бўла аъдо мағлуб ва мақҳур ва аҳиббо мубтаҳиж ва масрур бўлдилар. Тенгри таоло фазл ва карами била мундоқ душвор ишни бизга осон қилди ва андоқ қалин черикни ярим кунда андоқ ер била яксон қилди. Беш-олти минг киши Иброҳимнинг яқинида бир ерда-ўқ қатлга етибтурлар. Ўзга ҳар ерда ўлганларни бу маъракада ўн беш-ўн олти минг тахмин қилур едук. Сўнгра Аграга келганда, Ҳиндустон эли такриридин андоқ маълум бўлдиким, қирқ-эллик минг киши бу маъракада ўлган экандур"*, - деб эслайди Бобур.

"Тарихи салотини афғоний" асарининг муаллифи Аҳмад Ёдгорнинг хабар беришича, Бобур Султон Иброҳимнинг ўлимидан хабар топиб, унинг жасади ётган жойга бориб, бошини эгиб: "Жасоратингизга шон-шараф бўлсин, Эй Иброҳим!", - деб куюнгани, сўнгра уни подшоҳона шараф билан дафн қилишга буюрганини эслатади[101].

Панипат жангидан сўнг, султонлик ғазнасидаги хазиналарнинг талон-торож қилинишини олдини олиш мақсадида, тезликда Деҳли ва Агра ҳам эгалланади. Айни шу даврда Гвалиор ҳокими машҳур "кўҳинур" олмосини Ҳумоюнга тақдим этади. 1526 йил 24 апрелда Бобурнинг зафарли қўшинлари пойтахт Деҳли дарвозасидан тантанали кириб келади. Бу ерда у Шайх Низом авлиё ва Хожа Қутбиддин мозорларини ҳам зиёрат қилади. 27 апрелда эса, шаҳарнинг жомеъ масжидларида устозлари бўлмиш Мавлоно Маҳмуд ва Шайх Зайн томонидан Бобур номига хутба ўқилиб, шукроналик намози адо этилади, маҳаллий аҳолига турли эҳсонлар улашилади. Шунингдек, Бобур бу ерда ўз номидан "*Ал-Султон ал-аъзам вал ҳоқон ул-мукаррам Заҳириддин Муҳаммад Бобур подшоҳи Султон ғозий, ҳоладоллоҳу мулкаҳу ва салтанаҳу"* ёзувлари билан туширилган

[101] Қаранг: Ahmad Yadgar. Tarikh-I Salatin-I Afaghana. – Б. 23.

тангалар ҳам зарб этади. Бу Ҳиндистоннинг фатҳ этилиши ва эндиликда унинг салтанати таркибига киритилганлигидан далолат берарди[102].

Бобурнинг Султон Иброҳим устидан ишончли ғалаба қозонишининг сабаблари нимада эди? Манба ва тадқиқотларда Деҳли султони қўшинларининг мағлубиятига сабаб бўлган омилларнинг холисона таҳлили йўқ. Бир қатор тадқиқотчилар Панипат жанги натижаларини умумлаштириш билан чекланиб, Иброҳимшоҳ мағлубиятини унинг ҳарбий истеъдод даражасининг пастлиги билан изоҳлайдилар. Шубҳасиз, жанг натижаси, асосан, Бобурнинг ҳарбий санъати, унинг тўғри танланган тактика ва стратерияси, жумладан, қўшинларнинг истеҳкомлар занжири ортида моҳирона жойлашиши, тезкор қанот зарбалари (тўлғама) ҳамда ўз даврининг илғор замонавий ўқотар қуролларидан унумли фойдаланганлиги билан боғлиқ. Ҳинд қўшинининг тартиб-интизом борасидаги жанговар фазилатлари бўйича, Бобур қўшинидан яққол пастлиги ҳам сабаб бўлган эди. Иброҳимшоҳнинг ўз кучига хаддан ташқири ишониши, манманлик ва туғён ботқоғига тушиши натижасида, рақиби бўлмиш Бобурнинг куч-қудратига етарли баҳо беролмай қолди. Лекин асосий сабаб, шубҳасиз, Деҳли султонлигида юзага келган сиёсий инқироз, олий ҳукмдор ҳокимиятининг заифлашиши ҳам ўз таъсири кўрсатмай қолмади, албатта. Шундай бўлса ҳам Бобур, ҳинд армиясига, ҳусусан Султон шахсиятига баҳо берар экан, агар хоҳласа, Султон Иброҳим янада ҳам кўпроқ аскар ёллаши мумкинлиги, аммо зиқналиги ва молу-давлатга берилганлиги туфайли, ҳал қилувчи жанг олдидан ўз қўшинини кўпайтиришга, унга керакли маблағлар ажратишга рози бўлмагани таъкидлайди: *"Ғанимнинг ҳозир черикини бир лак ченарлар эди. Ўзининг ва умаросининг минг-икки мингга ёвуқ фили бор дерлар эди. Икки отасидин қолгон хазина худ нақд илигида эди, Ҳиндустонда бир расме бордурким, мундоқ иш тушганларда ярмоқ бериб, миёд била навкар тутарлар. Бу элни «бадҳандий» дерлар. Агар мундоқ хаёл қилса эди, бир лак, икки лак ҳам навкар тута олур эди. Тенгри таоло рост келтурди, не йигитини рози қила олди, не хазинасини улаша олди. Қандин йигитини ризо қила олурким, табиатиға имсок кўп ғолиб эди. Ўзи ярмоқ йиғиштурмоққа беҳад толиб, бетажриба йигит эди. Не келиши саранжомлиқ эди, не туруши, не юруши эҳтимомлиқ эди, не уруши"*[103]. Афтидан, темурийлар қўшинининг камлиги сабаб, шундоқ ҳам кўп сонли қўшинни ёлланма аскарлар – "бадҳандий"лар ҳисобига янада тўлдиришга, Султонда зарурат туғилмаган кўринади.

[102] Sharipov A.A. On Coins Minted in the Kingdom of Zahir al-Din Babur // "New Perspectives for the Study of Islamic Culture, History and Art in Uzbekistan (IRCICA)" Proceeding of the International Dedicated to the Memory of Academician Ubaydulla Karimov (May 2021.Tashkent) – Istanbul, 2021. – pp. 309–314.
[103] Бобурнома, 265а варақ.

Бобурнинг ўзи ҳам мазкур ғалабасини истеъдоди, шахсий маҳорати ва тажрибасидан эмас, балки камтарона тарзда, "тақдирнинг унга кўрсатган иноятидан" деб билади: *"Бу ҳол ва бу қувват била таваккул қилиб, Султон Иброҳимдек қалин чериклик ва васеъ мулклук подшоҳ била рўбарў бўлдук. Таваккулимизга яраша Тенгри таоло ранж ва машаққатимизни зойиъ қилмай, мундоқ зўр ганимни маглуб қилиб, Ҳиндустондек кенг мамлакатни мафтуҳ айлади. Бу давлатни ўзумизнинг зўр ва қувватидин кўрмасбиз, балки Тенгрининг маҳзи лутф ва шафқатидиндур ва бу саодатни ўзумизнинг саъй ва ҳимматидин билмасбиз, балки Тенгрининг айни карам ва иноятидиндур"*[104].

Гарчи Султон Иброҳимнинг армияси сон жиҳатдан кўп ва қудратли бўлган бўлсада, бироқ унинг сиёсатидан норози бўлган лашкарбошилар кўп эди, улар тез-тез итоатсизлик кўрсатиб, марказий ҳокимиятга бўйсинишни исташмас эди. Тинимсиз урушлар оддий халқ турмуш ҳаётини янада оғирлаштириб, уларнинг ҳукуматга қарши норозилик қўзғолонларига ҳам сабаб бўлар эди. Буларнинг бари, оҳир оқибат, салтанатнинг емирилишига, унинг ҳарбий қудратига путур етказмай қўймади. Бу вазиятда Бобурнинг Панипатдаги ғалабаси Шимолий Ҳиндистонда, Деҳли султонлигининг салкам 300 йиллик тарихига якун ясаб, Лўдийлар сулоласи ҳукмронлигига чек қўйган сўнгги зарба бўлди.

Ҳақиқатдан ҳам, Панипат жанги нафақат Ҳиндистон тарихида, балки Бобурийлар ҳаётида ҳам ўта муҳим воқеа бўлган эди. Ушбу жанг Бобурнинг буюк саркарда сифатидаги иқтидорини яққол намоён этди ва унга катта шуҳрат келтирди. Унинг сон жиҳатдан жуда катта душман қўшинини оз сонли лашкар билан тор-мор қилгани жаҳон ҳарбий санъат тарихидан ўрин олган. Бу жангда ўз даврининг замонавий қурол-аслаҳаларидан, ҳусусан, янги ўточар қуроллар, артилерия ва ҳарбий тактика санъатидан унумли фойдаланилган. Ушбу жанг туфайли Амир Темур ва Темурийларнинг жанг санъатини яна бирбор Бобур мисолида, бутун дунёга намоён этишга хизмат қилди.

Бобурнинг ушбу ғалабалари натижасида, бутун Шимолий Ҳиндистон устидан Темурийлар сулоласининг назорати ўрнатилади, бу ерда узил-кесил янги ҳокимият ўрнатилади ва Амир Темур асос солган Темурийлар давлатининг давомчиси сифатида, янги буюк империяга – Бобурийлар салтанатига (1526–1857) асос солади.

[104] Бобурнома, 269а варақ.

АМИР ТЕМУРНИНГ ҲАРБИЙ ЛОГИСТИКАСИ

Мадалиев Абдулла Ахмедович,
Тошкент Гуманитар фанлари университети профессори, и.ф.д.

Амир Темур инсоният тарихида жасорат, стратегик зеҳн ва мукаммал давлат бошқаруви ғоялари билан алоҳида ўрин эгаллаган йирик тарихий шахслардан бири ҳисобланади. У нафақат Ўрта Осиё, балки кенг мусулмон ва туркий дунёда ҳам чуқур из қолдирган саркарда, ислоҳотчи ва теран сиёсий арбоб сифатида эътироф этилган. XIV–XV асрларда у томонидан барпо этилган давлат ўша даврдаги энг қудратли ва нуфузли империялардан бирига айланган.

Темур давлатни марказлашган бошқарув асосида ташкил этиб, ҳар бир маъмурий ҳудудга ўз номидан маҳаллий ҳокимлар тайинлади. Солиқ тизими такомиллаштирилди, иқтисодий барқарорлик таъминланди, ҳарбий сафарбарлик тизими мустаҳкамланди. Шу билан бирга, савдо йўллари ва алоқа тармоқлари ривожлантирилиб, давлатни ўзаро боғлиқ тизимга айлантиришга эришилди. Темур ички тартиб-интизом ва адолатни бошқарувнинг асосий устуни сифатида белгилаган, бу эса унинг ислоҳотларини барқарор ва самарали қилишда муҳим омил бўлган.

Амир Темур нафақат ҳарбий йўналишда, балки сиёсий ва маданий соҳаларда ҳам улкан ютуқларга эришган. У етук сиёсатчи, билимдон ислоҳотчи ва маданият тараққиётининг фаол ҳомийси сифатида жаҳон тарихида улуғ мақомга эгадир. Унинг бошқарув модели, давлатчилик ғоялари ва маданий мероси бугунги кунда ҳам халқаро даражада ўрганиш ва таҳлил объекти бўлиб қолмоқда.

Алишер Навоийга Амир Темурнинг илм ва маънавият ақлига кўрсатган ғамхўрлиги жуда ёқар эди. Бу ҳақда Навоий шундай деганди: «Агар Темур қаерда фан, маданият ва санъат аҳлини учратса, уларни ўз ҳомийлигига олар, уларга иззат-икром кўрсатар, уларнинг тарбиясига аҳамият берар ҳамда бу зотлардан ўз олий мажлисида надим (маслаҳатчи) сифатида ва бошқа лавозимларда фойдаланарди». Амир Темур даврида савдо ва ҳунармандчилик ғоятда ривожланади. Янги бозорлар, савдо расталари барпо қилинади. Клавихо Самарқанд бозорларида буғдой ва гуручнинг мўллиги ва арзонлиги ҳақида гапириб, шаҳар ҳунармандчилиги маҳсулотларини — атлас, кимхоб, ҳар хил ип ва жун тўқима моллар, мўйнали ва ипакли пўстинликлар, атторлик моллари, зиравор ва дориворлар, зарҳал ва ложувардлар ҳамда бошқа молларнинг сероблигини ҳам таъкидлайди.[105]

Тарихий манбаларга кўра, Амир Темур қарийб 25 га яқин давлат ва йирик сиёсий тузилмани ўз империясига қўшиб олган. Бу юришлар

[105] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/temur/

натижасида у замонасидаги энг кенг ҳудудли ва қудратли давлатни барпо этди. Унинг таъсир доираси Хитой сарҳадларидан то Европагача бўлган кенг ҳудудларни қамраб олган. Унинг фаолияти ва ютуқлари кўплаб халқлар ва маданиятларга узоқ муддатли таъсир кўрсатгани билан дунё тарихида муҳим аҳамият касб этади.

Логистика фанига кириб борар эканмиз, ушбу соҳанинг шаклланиши ва ривожланишига турли даврларда ҳисса қўшган алломалар ва амалий фаолият юритган арбобларнинг тажрибасини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Зеро, тарихий тажриба замонавий билимлар пойдеворини ташкил этади. Шу жиҳатдан қаралганда, Амир Темурнинг ҳарбий юришлари, иқтисодий ислоҳотлари ва савдо алоқалари соҳасидаги амалий чора-тадбирлари орқали логистика фанидаги стратегик ёндашувларни яққол кўриш мумкин.

Темур жаҳон тарихида нафақат саркарда, балки ҳарбий-иқтисодий тизимларни чуқур тушунган стратег ва ташкилотчи сифатида танилган. Унинг ҳарбий юришларида қўлланган таъминот, ҳаракатланиш, ресурслар тақсимоти ва йўл инфратузилмаларига оид чоралар логистика фанидаги асосий тушунчаларнинг тарихий илдизларини англашда муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, унинг савдо йўлларини тиклаш ва ривожлантиришга қаратилган сиёсати — замонавий транспорт логистикасининг дастлабки шаклларини намоён этади.

Амир Темурнинг ҳарбий ва иқтисодий сиёсатида логистика марказий ўринлардан бирини эгаллаган. Ҳарбий юришларнинг самарадорлиги, аввало, юришлар олдидан тайёргарлик, лашкарлар ва қўшинларнинг ҳаракатланиши, озиқ-овқат ва қурол-яроғ таъминоти, транспорт воситаларининг ташкил этилиши каби масалаларга боғлиқ эди. Темур бу борада замонаси учун илғор ва тизимли ёндашувни қўллагани билан ажралиб туради.

Унинг юришларида ҳар бир юриш учун олдиндан аниқ режалар тузилар, карвонлар ва ҳарбий ҳамда махсус тузилмалар томонидан тайёрланар эди. Узоқ масофалардаги ҳаракатланишда таъминот нуқталари ташкил этилиб, ҳарбий қисмларнинг тезкор ва узлуксиз ҳаракатланиши таъминланган. Бу жараёнлар мукаммал логистик бошқарувни талаб этарди ва Темур ана шу жиҳатни назарда тутган ҳолда, ҳар бир юришда таъминот, алоқа ва ҳаракатни мувофиқлаштириш учун масъул шахсларни тайинлар эди.

Шунингдек, Амир Темур шаҳарларни стратегик нуқталарда жойлаштиришга алоҳида эътибор берган. Самарқанд, Ҳирот, Тошкент каби марказлар нафақат сиёсий ва маданий нуқта, балки логистик марказлар сифатида ҳам шаклланган. Бу шаҳарлар орқали ҳарбий юришлар, товар айирбошлаш ва ахборот алмашинуви амалга оширилган.

Ушбу марказлар ўртасидаги алоқа тизимлари ва юк ташиш инфратузилмалари Темур давлатининг иқтисодий ва ҳарбий барқарорлигида ҳал қилувчи ўрин тутган.

Амир Темурнинг олимлар, уламолар ва фузалолар билан бамаслаҳат, машварат[106] орқали ишларни амалга оширганлиги унинг давлат бошқаруви ва ҳарбий муваффақиятларида муҳим роль ўйнаган. У ўзининг давлат қуриш ва бошқаришдаги ақлли ёндашуви билан ажралиб турган. Бунинг асосий жиҳатлари қуйидагича:

1. **Маълумот ва маслаҳатга асосланган қарорлар**: Амир Темур муҳим қарорларни қабул қилишда аниқ илмга ва амалиётга асосланган маслаҳатларига тўла эътибор қаратган. Давлат ишлари, жанглар ва сиёсий қарорлар ўз вақтида олимлар ва уламолар билан келишиб ўтказилган. Бунинг ортидан ҳар бир муҳим қадамнинг тўғри ва самарали бўлишига ишонч ҳосил қилган.
2. **Илм-фан ва диннинг аҳамияти**: Амир Темур илм ва динни давлатнинг ривожланиши учун ажойиб восита сифатида қабул қилган. У олимларга ва диний арбобларга ҳурмат кўрсатган, уларни қарор қабул қилишда иштирок этишга чақирган. Бунинг натижасида у давлатда тинчлик ва барқарорликни таъминлашда дин ва илмни мустаҳкам база сифатида кўрган.
3. **Фузалолар, уламолар ва олимлар билан ҳамкорлик**: Темур уламолар, олимлар ва фузалолар билан ишлашга катта аҳамият берган. Масалан, у ўзининг ҳарбий ва иқтисодий стратегияларини ривожлантиришда, шунингдек маданий соҳада янги ғоялар ва техникаларни қўллашда уларнинг маслаҳатларини олган. Ушбу ҳамкорлик натижасида, Темур давридаги маданият, илм-фан ва иқтисодий соҳаларда катта ривожланишга эришилган.

Амир Темур олимларга хайрихоҳ муносабатда бўлар, билими ва ҳалолигини кўрган олимларга ишонар эди. У тарихчилар ва файласуфлар, илм-фан ва маъмурий соҳага билимдон бўлган кишилар билан суҳбатлашиш учун кўпинча тахтидан ҳам тушарди. Амир Темур ўзидаги кишиларни бўйсундириш қобилиятига уларни ўз ҳукмронлиги остида бахтли қилиш истеъдодини ҳам қўшган эди[107].

4. **Интеллектуал ва диний мустақиллик**: Амир Темур ўзи бошқарган империяда интеллектуал ва диний мустақилликни таъминлашга эътибор қаратган. У мусулмон уламолари ва илм-фан вакилларини давлат ишларига жалб қилиш орқали сиёсий барқарорлик ва ижтимоий адолатни таъминлашга ҳаракат қилган. Бу жиҳатлар, Амир Темурнинг нафақат ҳарбий, балки ижтимоий ва маданий соҳаларда ҳам муваффақиятга

[106] Машварат – бамаслаҳат, кенгаш.
[107] https://tarix.sinaps.uz/hodisa/amir-temur/

эришишини таъминлаган. Унинг давридаги давлат бошқаруви кўп жиҳатдан илмий ва диний йўналишлардаги бамаслаҳатлик ва ҳамкорликка асосланган бўлиб, бу унинг фатҳларининг мувоффақиятли бўлишини таъминлаган.

1. Савдо ва инфратузилмаларнинг ривожланиши.

Амир Темур даврида Буюк Ипак йўли орқали савдо ва иқтисодий алоқалар жуда ривожланган эди. Савдо йўлларининг хавфсизлиги ва самарадорлигини таъминлаш учун мукаммал логистик тизимлар ва инфратузилмалар яратилган. Бу тизимлар иқтисодиётнинг жадал ривожланишига хизмат қилиб, товарларни ишлаб чиқариш ва экспорт қилишни осонлаштирган.

2. Ҳарбий логистика ва таъминот тизими.

Амир Темур қўшинларининг ҳаракатчанлиги ва жанговар самарадорлиги юқори даражада бўлишининг асосий омилларидан бири — мукаммал логистик тизим тамойиллари эди. Ҳарбий юришлар давомида қўшинларни озиқ-овқат, қурол-яроғ ва ҳарбий техника билан таъминлаш учун пухта режалаштирилган таъминот йўлга қўйилган. Ушбу тизим жангларда устунликни таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган.

3. Сардобалар ва сув таъминоти

Ўрта Осиё ҳудудларида қурилган сардобалар логистика ва юк ташиш соҳасида муҳим роль ўйнаган. Сардобалар — карвон йўлларидаги савдогарлар ва сайёҳлар учун сув манбаи бўлиб, улар узоқ масофаларни босиб ўтишда асосий стратегик объект ҳисобланган. Шунингдек, бу сув омборлари ҳарбий юришларда лашкарлар ва отларни сув билан таъминлашда муҳим вазифани бажарган.

4. Стратегик режалаштириш ва логистиканинг аҳамияти.

Амир Темурнинг ҳарбий логистикага қаратган стратегик ёндашуви ва тизимли кўникмалари бугунги кунгача илмий тадқиқотлар ва амалий ишларда катта аҳамиятга эга. Унинг ҳарбий юришлари самарали режалаштирилган бўлиб, замонавий логистиканинг асосий тамойилларига кўп жиҳатдан мос келади.

Амир Темур логистикани нафақат ҳарбий соҳада, балки иқтисодий ва савдо жараёнларида ҳам муваффақиятли қўллаган. Унинг стратегик режалаштириш қобилияти ва инфратузилма яратишдаги тажрибаси замонавий логистика тизимлари учун ҳам ўрнак бўлиб хизмат қилади.

Буюк саркарда ўз қўшинларини самарали таъминлаш ва ҳарбий юришларни муваффақиятли амалга ошириш учун мукаммал логистик тизим яратган. Ушбу тизим нафақат таъминот, балки ресурсларнинг узлуксиз тақсимланиши, сув манбаларидан фойдаланиш ва юкларни оператив кўчириш каби муҳим омилларни ўз ичига олган.

1. Карвон тизими.

Амир Темур ўз қўшинларини таъминлаш учун мукаммал карвон тизимини йўлга қўйган. Карвонлар орқали юклар, озиқ-овқат, қурол-яроғ ва бошқа муҳим ресурслар узоқ масофаларга етказиб берилган. Бу тизим юришлар пайтида ресурсларнинг узлуксиз тақсимланишини таъминлаб, ҳужумлар пайтидаги узоқ масофаларни қамраб олишда муҳим роль ўйнаган.

2. Таъминотни ўз вақтида амалга ошириш.

Ҳарбий юришларда қўшинларнинг ўз вақтида таъминланиши Темур учун муҳим аҳамиятга эга эди. Унинг ҳарбий лагерлари доимо озиқ-овқат, сув ва қурол-яроғлар билан тўлиқ таъминланган. Бундан ташқари, маҳаллий ҳудудлардан ресурслар жалб қилинган, бу эса юришлар давомида зарурий таъминотни узлуксиз таъминлаш имконини яратган.

3. Сув омборлари ва сардобалар қуриш.

Темур сув ресурсларини самарали бошқариш мақсадида сардобалар ва сув омборларидан кенг фойдаланган. У ҳатто юришлар пайтида янги сардобалар қурдирган. Бу эса қўшинларнинг сув билан таъминланишини кафолатлаган ва узоқ масофали юришларда муҳим роль ўйнаган.

4. Қурол-аслаҳа ва юкларни оператив кўчириш.

Амир Темурнинг тезкор юришлари оғир қурол-яроғлар ва юкларни самарали ташишни талаб қилган. Бунинг учун махсус юк ташувчи отлар, аравалар ва штурм воситалари ишлатилган. Қўшинларнинг тез ҳаракатланиши ва жангга шайлиги яхши ташкил этилган логистика тизими орқали таъминланган.

5. Маҳаллий ресурслардан фойдаланиш.

Амир Темур юришлари давомида босиб олинган ҳудудлардан озиқ-овқат, қурол-яроғ ва бошқа ресурсларни қўшинлар учун жалб қилган. Бу тизим қўшинларнинг автономлигини оширишга ва юришларнинг узоқ муддат давом этишига ёрдам берган.

6. Масофа ва йўлларни тўғри танлаш.

Амир Темур ҳарбий юришларда энг қулай ва хавфсиз йўлларни танлашга алоҳида эътибор қаратган. У разведка(айғоқчилик) хизматларини ривожлантирган ва олдиндан тайёргарлик ишларини бажарган. Унинг стратегияси мавжуд манзилларга энг самарали йўлларни аниқлашга қаратилган бўлиб, бу қўшинларнинг ҳаракатланиш тезлигини оширишда муҳим омил бўлган.

Буюк саркарда яратган логистика тизими унинг жангларда ғалаба қозониши ва ҳарбий юришларни муваффақиятли амалга оширишида ҳал қилувчи аҳамият касб этган. Унинг ҳарбий стратегияси ва ташкилий қобилияти бугунги кун логистика тамойиллари билан кўп жиҳатдан уйғунлик касб этади.

Ҳарбий тузилма ва иерархия.

Амир Темур ўз лашкарларини аниқ иерархия ва қатъий интизом асосида ташкил этган. Бу тизим қўшинларнинг самарали бошқарилиши ва ҳарбий операцияларнинг муваффақиятли амалга оширилишини таъминлаган.

1. Мингбошилик тизими.

Темур қўшинларни кичик бўлинмаларга ажратиш тизимини жорий этган.Унинг қўшини **ўнбоши, юзбоши ва мингбошилар** орқали бошқарилган. Ҳар бир қўмондон ўз қисми учун масъул бўлиб, буйруқларнинг тез ва аниқ бажарилишини таъминлаган. Бу тизим қўшинларнинг тартибли ҳаракатланиши ва тезкор командаларни ижро этишга хизмат қилган.

2. Амирлар ва саркардалар.

Темурнинг қўшинида юқори қўмондонлик **амирлар ва саркардалар** томонидан юритилган. Бу етакчилар Темурнинг шахсий вакиллари бўлиб, у билан тўғридан-тўғри алоқа қилиб, ҳарбий юриш ва жанг стратегияларини амалга оширишда иштирок этганлар.

3. Мукаммал разведка.

Темур ҳарбий юришларидан олдин душманнинг кучларини, жойлашувини ва режаларини аниқлаш учун кенг кўламли разведка хизматларини ишлатган. Унинг разведка тизими самарали ва тартибли бўлиб, душман ҳақида тўлиқ ва аниқ маълумот тўплашга катта аҳамият берган. Махсус айғоқчилар орқали душман қўшинининг ҳаракатлари, ресурслари ва стратегик жойлашуви доимий кузатиб борилган. Бу разведка хизматлари ҳарбий операцияларнинг самарали бўлишига хизмат қилган ва Темурнинг стратегик режаларини амалга оширишда муҳим роль ўйнаган.

2. Кутилмаган ҳужумлар.

Темур тезкор ва кутилмаган ҳужумлар орқали душманни мағлуб этиш усулини яхши ўзлаштирган. Унинг қўшини тез ҳаракатланиш қобилиятига эга бўлиб, кўпинча душман ҳали тайёргарлик кўрмасдан ҳужумга учраган.

3. Флексибил стратегия[108] ва тезкор қарорлар қабул қилиш

Темур ҳарбий стратегияни вазиятга қараб тез ўзгартира олган. Унинг саркардалари турли сценарийларга тайёр бўлган ва ҳар бир жанг учун алоҳида тактикалар ишлаб чиқилган.

4. Қисмларга бўлиб ҳужум қилиш

Темур кўпинча душман қўшинларини алоҳида қисмларга ажратиш ва уларни якка-якка мағлуб этиш тактикасига амал қилган. Бу душман кучларини камайтириш ва уларнинг ҳимоя имкониятларини пасайтиришга хизмат қилган.

[108] Флексибил стратегия - тез ўзгаришларга мослашиш.

Таъминот ишлари

Амир Темур юришларини узоқ муддатга режалаштирган ва қўшинларнинг узлуксиз эҳтиёжини таъминлаш учун мустаҳкам логистика тизимини шакллантирган.

1. Карвонлар орқали таъминот

Темур қўшинларини озиқ-овқат, қурол-яроғ ва бошқа зарурий буюмлар билан таъминлаш мақсадида махсус карвон тизимини ташкил қилган. Бу тизим юришлар пайтида лашкарларнинг таъминоти узлуксиз амалга оширилишини таъминлаган.

Қатъий интизом ва бошқарув.

Амир Темур қўшинининг кучлилиги нафақат стратегик режалаштириш, балки қатъий интизом орқали ҳам таъминланган.

1. Интизом ва тартиб.

Темур ўз қўшинларида қаттиқ интизом ўрнатган. Ҳар бир лашкар ва қўмондон қонун-қоидаларга риоя қилишга мажбур бўлган. Интизомга амал қилмаганларга нисбатан қаттиқ жазо чоралари кўрилган.

2. Бошқарув самарадорлиги.

Темурнинг ҳарбий тизимида буйруқлар аниқ ва тез бажарилган. Бунинг учун у мукаммал қўмондонлик иерархиясини яратган ва қўшинда тизимли бошқарувни таъминлаган.

Амир Темур яратган ҳарбий тизим ўзининг аниқ тузилмаси, қатъий интизоми ва самарали логистикаси билан ажралиб турган. Бу усуллар унинг ҳарбий юришларда муваффақият қозонишига ва лашкарларининг жаҳон тарихида йирик куч сифатида шаклланишига ёрдам берган.

Рағбат ва мукофотлар.

- Амир Темур қўшинининг муваффақиятли фаолияти нафақат интизом ва стратегияга, балки рағбатлантириш тизимига ҳам асосланган эди. У қўмондонлар ва лашкарларни жанглардаги жасоратлари учун мукофотлашни йўлга қўйган. Бундай ёндашув, айни пайтда менежмент илмида "мотивлаш" деб аталади ва бошқарувнинг 5 асосий функциясида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, муваффақиятга эришиш учун муҳим омил бўлиб хизмат қилган.

Ғалабалардан сўнг мукофотлар:

Ҳарбий юришлардан кейин қўмондонлар ва лашкарларга турли мукофотлар, бойликлар, ерлар ва мансаблар берилган. Бу уларнинг садоқатини оширишга хизмат қилган.

- **Шахсий мақтов ва мартаба ошириш:**

Жангларда ўзини намоён қилган саркарда ва лашкарлар шахсан Темур томонидан мақталган ва қўшинда юқори лавозимларга кўтарилган.

- **Ҳарбий ва ижтимоий имтиёзлар:**

Ғалабага эришилганда лашкарларга махсус рағбатлар, тўловлар ёки ер берилиши қўшин ичида рақобат ва ҳаракатчанликни оширган.

Молиявий ресурсларнинг тармоқлашиши (диверсификацияси)

Темурнинг давлат ва ҳарбий харажатлари турли манбалар орқали таъминланган. У юришлардан тушган бойликлар, солиқ тизими ва марказлашган молия сиёсати орқали ғазнасини тўлдириб борган.

1. Юришлардан келадиган бойлик.

- Темур молиявий ресурсларни асосан ўзининг ҳарбий юришлари орқали йиғган.
- Босиб олинган ҳудудлардаги қимматбаҳо металлар, олтин, кумуш ва бошқа хазиналар унинг ғазнасини бойитган.
- Ҳарбий ғалабалар давлатнинг иқтисодий барқарорлигига катта таъсир кўрсатган.

2. Солиқлар ва феодал хизматлар.

- Темур солиқ тизимини ривожлантирган ва ҳокимияти остидаги ҳудудлардан қатъий солиқ йиғган.
- **Савдо ва ер солиқлари** ғазнага тушумнинг асосий манбаи бўлган.

Баъзи ҳудудлар ҳарбий хизмат ёки махсус меҳнат мажбуриятлари орқали ҳам тўловларни амалга оширган.

Темур молиявий ресурсларни самарали бошқариш учун марказлашган молиявий тизим яратган.

4. Ғазна ва омборлар.

- Давлат ва ҳарбий харажатлар учун махсус ғазналар ва омборлар ташкил этилган.
- Бу омборларда озиқ-овқат, қурол-яроғ ва молиявий ресурслар тўпланган.
- Темурнинг шахсий назоратидаги ғазналар давлатнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутган.

5. Ҳазинабонлар ва молиявий амалдорлар.

- Давлат молиясини бошқариш учун махсус ҳазинабонлар ва молиявий амалдорлар тайинланган.
- Бу амалдорлар давлат маблағларини самарали бошқариш ва назорат қилишга масъул бўлган.
- Молиявий тизимнинг қаттиқ назоратда бўлиши коррупция ва йўқотишларнинг олдини олган.

Амир Темур давлат ва қўшинни самарали бошқариш учун мустаҳкам молиявий ва иқтисодий тизим яратган. Унинг ҳарбий юришлардан тушган бойликлар, солиқ тизими ва марказлашган молиявий сиёсати унинг салтанатини иқтисодий жиҳатдан барқарор сақлашга имкон берган. Рағбатлантириш тизими эса қўшиннинг жанговар руҳини юқори даражада ушлаб туришда муҳим роль ўйнаган.

Ҳарид ва таъминот тизими:

- қурол-яроғ ва захиралар ҳариди: Амир Темурнинг қўшинларини қурол-яроғ, озиқ-овқат ва бошқа зарурий воситалар билан таъминлаш учун молиявий ресурслар яхши бошқарилган. Унинг таъминот тизимига оид ҳаридлар марказий молия томонидан назорат қилинган.
- **Савдо йўллари ва транзитлар:** Амир Темур ҳукмронлиги даврида савдо йўллари ва транзитлар муҳим роль ўйнаган. Унинг ҳудудлари орқали ўтувчи савдо йўллари давлатга қўшимча даромад келтирган. Буюк Ипак йўлида савдо-сотиқ фаолиятлари ривожлантирилиб, бу орқали молиявий ресурслар тўпланган.

Молиявий барқарорлик ва сармоялар:

- Иқтисодий лойиҳаларга сармоялар: Темур нафақат ҳарбий мақсадларда, балки маданий ва инфратузилмавий лойиҳаларга ҳам сармоялар киритган. Масалан, Самарқанддаги обидалар, масжидлар ва мадрасалар қурилиши молиявий барқарорликни таъминлашда муҳим бўлган.
- **Инфратузилмага сармоя киритиш:** ҳукмронлик даврида Амир Темур йўллар, кўприклар ва суғориш тизимларини ривожлантиришга сармоя киритган, бу эса унинг давлатини иқтисодий жиҳатдан мустаҳкамлаган ва молиявий барқарорлигини таъминлаган.

Халқаро савдо ва дипломатик муносабатлар:

- **Савдо алоқалари:** Темур ташқи мамлакатлар билан савдо ва дипломатик муносабатларни ривожлантириш орқали молиявий манбаларини кенгайтирган. Халқаро савдо йўналишларини назорат қилиш ва бошқа давлатлар билан савдо шартномаларини имзолаш молиявий ресурсларни оширишга имкон берган.
- **Савдо постларидан фойдаланиш:** Темур ҳукмронлигидаги ҳудудларда савдо постлари ташкил этилган ва улар орқали ўтувчи савдогарлардан бож ва солиқлар тўпланган. Бунинг натижасида давлат ғазнаси янада бойиб борган.

Амир Темурнинг молиявий логистикаси давлат бошқаруви, ҳарбий фаолият ва иқтисодий ривожланишга қаратилган самарали тизим бўлган. Унинг бу соҳадаги муваффақияти тарихий ютуқларидан бири сифатида эътироф этилади.

Савдо-сотиқдаги логистика:

- **Буюк Ипак йўлини назорат қилиш:** Амир Темурнинг ҳудудлари Буюк Ипак йўли орқали савдо қилиш учун стратегик аҳамиятга эга бўлган. У савдо йўлларини назорат қилиш орқали ташқи савдони бошқарган ва ўз ҳудудлари орқали ўтувчи савдо карвонларидан даромад олган.
- **Савдо шаҳарлари:** Темурнинг ҳукмронлиги остидаги Самарқанд, Бухоро ва бошқа шаҳарлар халқаро савдо марказларига айланган. Бу ерда

савдогарлар учун қулай шарт-шароитлар яратилган.

Карвонсаройлар ва инфратузилмаларни ривожлантириш:

- **Карвонсаройлар қурилиши:** Амир Темур савдо йўлларида савдогарларнинг тўхташ ва дам олишлари учун карвонсаройлар қурдирган. Улар савдогарлар ва уларнинг товарларини ҳимоя қилиш учун хизмат қилган. Бу эса савдони янада хавфсиз ва самарали қилиб, савдогарларнинг ишончини оширган.
- **Йўллар ва кўприклар:** Савдо йўлларини қулай ва хавфсиз қилиш мақсадида Темур йўллар ва кўприклар қурдирган. Бу йўллар орқали товарларни тез ва самарали етказиш имконияти пайдо бўлган.
- **Савдо ва божхона сиёсати**
- **Савдо шартномалари:** Амир Темур хорижий давлатлар билан савдо шартномаларини имзолаш орқали халқаро савдо алоқаларини ривожлантирган. Унинг савдо сиёсати хорижий давлатлар билан савдони ривожлантиришга қаратилган бўлган.
- **Божхона тизими:** Темурнинг ҳукмронлигида божхона тизими жорий этилган бўлиб, савдо йўлларидан ўтувчи товарлардан бож ва солиқлар йиғилган. Бу давлат ғазнасини бойитишга хизмат қилган.
- **Транзит савдо ва товар айирбошлаш.**
- **Товарлар транзити:** Темурнинг ҳудудлари орқали ўтувчи савдо йўллари транзит савдоси учун муҳим аҳамиятга эга бўлган. Темур транзит савдони қўллаб-қувватлаган, чунки бу унинг ҳудудлари орқали ўтувчи товарлар оқимини ва молиявий даромадларни оширган.
- **Айирбошлаш савдоси:** Турли мамлакатлар билан товар айирбошлаш орқали Темурнинг ҳудудлари турли хил товарлар ва ресурслар билан таъминланган. Айирбош савдоси орқали у чет элдан қурол-яроғлар, ҳунармандчилик буюмлари ва бошқа товарларни қабул қилган.
- **Савдо ва ҳарбий қўллаб-қувватлаш.**
- Савдо карвонларини ҳимоя қилиш: Амир Темур савдо карвонларини ҳимоя қилиш учун махсус қўшинлар тайинлаган. Бу қўшинлар карвонларнинг хавфсизлигини таъминлашга хизмат қилган ва савдо йўлларида талончилик ва хуружларга қарши курашган.
- Савдо қўшинлари: Темур баъзан савдо карвонларига ҳарбий кўмак кўрсатган. Унинг савдо карвонлари қуролли қўшинлар ҳамроҳлигида ҳаракат қилган, бу эса савдо карвонларини ҳимоя қилишга ёрдам берган.
- **Маданий ва дипломатик алоқалар ва ташқи савдо.**
- Темур ташқи савдони маданий ва дипломатик алоқалар билан боғлаб олиб борган. У хорижий савдогарлар ва элчиларни қабул қилган, уларга қулай шароитлар яратган. Бу эса ташқи савдо ривожига туртки бўлиб, Темур ҳудудлари ва бошқа мамлакатлар ўртасидаги алоқаларни

мустаҳкамлаган.

6. Ижтимоий ва маъмурий логистика.

• **Ҳарбий-сиёсий назорат**: Амир Темур давлатни мустаҳкамлаш учун ҳарбий куч ва сиёсий назорат тизимини бирлаштирган. Ҳарбийлар ва амалдорлар орқали у ҳудудлардаги тартиб ва қонунчиликка риоя қилинишига масъул бўлган. Бу давлат бошқарувининг самарали амалга оширилишини таъминлаган.

• **Адлия ва қонунчилик**: Давлат ишларини самарали бошқариш учун Темур қонун ва адлия тизимини ривожлантирган. Бу тизим орқали низоларни ҳал қилиш ва қонунбузарликларни олдини олиш таъминланган.

7. Савдо ва ташқи иқтисодий логистика.

• **Савдо йўллари ва тизими**: Давлатнинг савдо-иқтисодий салоҳиятини ошириш мақсадида Темур савдо йўлларини ривожлантирган ва инфратузилмасини такомиллаштирган. Бу савдо карвонлари учун қулай шароитлар яратиб, ташқи иқтисодий алоқаларни кенгайтиришга ёрдам берган.

• **Ташқи сиёсий ва савдо алоқалари**: Амир Темур хорижий давлатлар билан савдо ва дипломатик муносабатларни ривожлантирган. Бу давлатнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаган ва унинг халқаро мавқеини мустаҳкамлаган.

Амир Темурнинг давлат бошқарувидаги логистика тизими давлатни самарали бошқариш, ва унинг ҳокимиятини мустаҳкамлашга қаратилган. Бу тизим унинг ҳукмронлиги давомида давлатнинг барқарорлигини ва ривожланишини таъминлашда муҳим омил бўлган.

Амир Темур даврида мамлакат бўйлаб қурилган тепаликлар (тахминан кузатув тепаликлари ёки баланд тоғлар) стратегик аҳамиятга эга бўлган. Бу тепаликлардан хабарлар етказишнинг турли усулларидан фойдаланилган. Қуйидаги тарзда тепаликлардан фойдаланиш мумкин эди:

8. Сигналлаш (хабарлашиш) тизими.

-Олов ва тутун билан хабар бериш: Баланд тепаликларда кузатувчилар жойлаштирилиб, улардан олов ёки тутун орқали хабар бериш тизими ишлаб чиқилган. Бу тизим орқали масофадан масофага хабарлар тезкор равишда етказилган. Олов ёки тутун сигнали муайян хабарни билдирган, масалан, душман ҳужуми ёки фавқулодда ҳолат ҳақидаги маълумотлар.

-ойна ёки ёруғлик билан сигнал бериш: Тепаликлардан кузатувчилар ёруғликни қайтариш ёки ойна орқали ёруғлик сигналлари беришлари мумкин эди. Бу тизим қуёшли кунларда ишлатилган ва хабарларни тез етказиш имконини берган.

-хабарчи (чопар)лар ёрдамида.

-отлиқ ёки пиёда хабарчилар: Тепаликлардан кузатувчилар душман ҳаракатларини кузатиб, хабарларни тезкор равишда марказга ёки яқиндаги қўшинларга етказиш учун отлиқ ёки пиёда хабарчиларни юборишган. Бу хабарчилар махсус ишга тайёрланган, тезкор ва ишончли бўлиб, хабарларни зудлик билан етказган.

- **Сигнал тизими билан биргаликда хабарчилар**: Сигнал тизими орқали хабар берилганидан сўнг, хабарчилар сигнални қабул қилган жойга жўнатилиб, улар сараланган ва маълумотларни муайян манзилларга етказиб беришлари мумкин бўлган.

9. Кузатув ва назорат.

Душман ҳаракатларини кузатиш: Баланд тепаликлардан душманнинг ҳаракатларини кузатиш ва уларнинг яқинлашувини олдиндан аниқлаш учун фойдаланилган. Бу орқали мудофаа тайёргарликлари вақтида душманнинг ҳаракатлари кузатилиб, уларга қарши зарурий чоралар кўрилган.

- **Қўшинларнинг ҳаракатини назорат қилиш**: Тепаликлардан ўз қўшинларини назорат қилиш ва уларнинг ҳаракатини йўналтириш учун ҳам фойдаланилган. Бу ҳудуддаги ҳарбий ҳаракатлар ва манёврларни самарали тарзда ташкил қилиш имконини берган.

10. Ички алоқа ва назорат тизими.

- **маҳаллий ҳокимиятлар билан алоқа**: Тепаликлар орқали маҳаллий ҳокимият ва амирлар ўртасида алоқа тизими ташкил қилинган. Бу алоқа орқали давлат буйруқлари ва қарорлари тезкор равишда етказилган.

-Фавқулодда хабар бериш: табиий офатлар, ўт ўчириш ва бошқа фавқулодда ҳолатлар ҳақида тезкор хабар бериш учун ҳам тепаликлардан фойдаланилган.

Тепаликлардан фойдаланиш орқали Темур давлатида давлат ишлари ва ҳарбий фаолиятларни самарали бошқариш учун зарур ахборот ва хабарлар тезкор равишда етказилган. Бу тизим давлат бошқарувини янада мустаҳкамлашга ёрдам берган.

Амир Темур ўз лашкарларига ғамхўрлик қилиш ва уларга қулай шароитлар яратишга алоҳида эътибор қаратган. Бу, ўз навбатида, қўшинларнинг боқимандалик, ҳаракатчанлик ва жанговарлик қобилиятини оширишда муҳим роль ўйнаган. Қуйида Темурнинг лашкарлари учун яратилган қулайлик ва ғамхўрлик тизимлари ҳақидаги маълумотлар келтирилган:

1. Таъминот ва озиқ-овқат

-махсус таъминот тизими: Темур ўзининг ҳарбий қўшинлари учун яхлит ва тизимли таъминот ташкил қилган. Унинг қўшинлари ҳар доим озиқ-овқат, сув ва бошқа зарурий ресурслар билан таъминланган, шунингдек, ҳар қандай узоқ масофага юришга шай ҳолатда бўлган.

Таъминот тизими орқали ҳарбийлар учун етарли захиралар ташкил этилган ва ушбу захиралар аниқ режа асосида тақсимланган.

-маҳаллий ресурслардан фойдаланиш: Темур қўшинлари, жанг майдонларига ёки янги ҳудудларга кирганида, маҳаллий ресурслардан фойдаланишни самарали йўлга қўйган. Бу уларга озиқ-овқат ва бошқа зарурий материалларни тезкорлик билан олиш имконини берган, шунингдек, ташиш харажатларини камайтирган.

2. Тиббий ёрдам ва соғлиқни сақлаш

-тиббий ёрдам кўрсатиш: Темур қўшинларида тиббий ёрдам тизими жорий этилган. Қўшиннинг ҳарбий экспедициялари давомида жароҳатланган лашкарларга тизимли тиббий ёрдам кўрсатиш учун махсус шифокорлар ва тиббиётчилар жамоаси тайинланган. Бу жамоа тезкор равишда жараённи кузатиб, лашкарларга зарур тиббий хизматни кўрсатган. Шунингдек, ҳарбий ҳаракатлар давомида санитария шарт-шароитлари ҳам етарли даражада бўлган.

-Соғлом турмуш тарзига эътибор: Темур ўз қўшинларининг соғлиғини таъминлашга алоҳида эътибор берган. Лашкарларнинг яхши соғлиғи учун тоза сув, зарарсизланган озиқ-овқат ва санитария шароитлари таъминланган. Жанг майдонларида соғлом турмуш тарзини сақлаш учун барча зарур шароитлар яратилган, бу эса лашкарларнинг фаолияти ва жанговорлик қобилиятларини оширган. Бу тизимлар Темурнинг лашкарларини самарали бошқариш ва ҳарбий ҳаракатларни тизимли равишда ташкил қилишда муҳим роль ўйнаган.

Дам олиш ва жисмонан қайта тикланиш.

• **карвонсаройлар ва дам олиш масканлари**: Қўшинлар узоқ масофаларни босиб ўтгани учун уларнинг дам олиши ва тикланиши муҳим аҳамиятга эга бўлган. Темур ўз лашкарлари учун махсус карвонсаройлар ва дам олиш масканларини қурдириб, қўшинларга қулай ва хавфсиз дам олиш имконияти яратган. Бу масканлар лашкарлар учун таъмирланган ётоқхона, хўжалик ва озиқ-овқат таъминлаш билан бирга, уларнинг жисмоний ва руҳий тикланишини таъминлашга қаратилган.

-руҳий қўллаб-қувватлаш: Темур ўз қўшинларини руҳий жиҳатдан қўллаб-қувватлашга ҳам алоҳида эътибор қаратган. Лашкарларнинг руҳий саломатлигини сақлаш учун уларнинг ўзаро ҳамжиҳатлигини ривожлантириш, руҳий барқарорликни таъминлаш ва маънавий қўллаб-қувватлаш тизими шакллантирилган. Бу ўзаро дўстона муносабатлар ва жангда ўзаро ёрдам беришга йўналтирилган.

Жангга тайёргарлик ва қўллаб-қувватлаш.

-ҳарбий машғулотлар: Темур ўз лашкарларини ҳар доим жангга тайёр ҳолда сақлаш учун мунтазам ҳарбий машғулотлар ўтказган. Ушбу машғулотлар қўшинларнинг жанговор қобилиятини ошириш ва уларни

ҳарбий ишда юқори савияда сақлашга қаратилган. Машғулотлар давомида лашкарлар ҳар хил жанг тактикаларини ўрганишган ва жисмоний шаклланишга алоҳида эътибор берилган.

-қурол-яроғ ва жиҳозлар билан таъминлаш: Темурнинг қўшинлари замонавий қурол-яроғ ва ҳарбий жиҳозлар билан тўлиқ таъминланган. Унинг қўшинида қурол-яроғлар, бронежилетлар ва бошқа жангда муҳим бўлган воситалар доимо янгиланган ва таъмирланган. Бу таъмирлаш ва янгилаш тизими қўшинларнинг қурол-яроғини ҳар доим самарали ҳолатда сақлаган ва ҳарбий ҳаракатларда муваффақиятга эришишга ёрдам берган.

Темурнинг қўшинлари учун яратилган иқтисодий ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимлари унинг ҳарбий кучини мустаҳкамлашда муҳим роль ўйнаган. Бу тизимлар лашкарлар учун майиллик уйғотиш, меҳнатга ҳақ ва ижтимоий барқарорликни таъминлашга хизмат қилган. Ҳар бир омилнинг аниқ таҳлили қуйидаги тарзда бўлиши мумкин:

-маош ва мукофотлар: Темур қўшинларининг лашкарлари яхши маош ва қимматли мукофотлар билан таъминланган. Жанглардаги муваффақиятлари учун уларга қимматбаҳо ҳадялар, ер ва пул бериш орқали фидокорлик ва сўзсиз содиқликка эришган. Бу лашкарларнинг майиллигини ошириб, уларнинг Темурга бўлган содиқлигини кучайтирган.

Оилавий ғамхўрлик: Темур қўшинларининг лашкарлари ва уларнинг оилаларини қамраб олган ижтимоий ғамхўрлик тизими жуда муҳим бўлган. Давлат томонидан оилавий ёрдам, аҳолини қўллаб-қувватлаш ва ижтимоий аҳамиятга эга масалаларга эътибор қаратилган. Бу лашкарларга қўллаб-қувватлаш кўрсатиш ва уларнинг оилавий ҳолатини яхшилаш орқали ҳарбий иштиёқини ва майдондги фаоллигини оширишга имконият яратган. Америкалик иқтисодчи олим Гари Беккер, корхоналарнинг муваффақияти оилавий шароитнинг яхшиланишига боғлиқ эканлигини таъкидлаб, ушбу ғоясини илгари сурган ва бу иши учун 1992 йилда Нобель мукофотига сазовор бўлган.

Қатъий ҳарбий интизом: Темурнинг қўшинларида ҳарбий интизомнинг қўлланилиши муҳим омиллардан бири бўлган. Лашкарлар ҳарбий қоидаларга риоя қилган ва ҳар қандай қонунбузарликка қарши жазо тизими амалига оширилган. Бу қўшинларнинг барқарорлиги ва тартибини таъминлашга ёрдам берган.

-адолатли бошқарув: Темурнинг ҳарбий раҳбарлиги ва қонун чиқаришдаги адолатлилик лашкарлар орасида ишончни оширган. У ҳарбий қўшинлар ўртасида адолат ва қонун устуворлигини таъминлаган, бу лашкарларнинг маънавий ҳолатини ва уларнинг муҳаббатини кучайтирган. Бу қўллаб-қувватлаш тизимлари ва ҳарбий интизом Темур

қўшинларининг жангдаги муваффақиятини таъминлашга кўмаклашган ва давлатга содиқлигига сабаб бўлган.

Темур даври логистикасини замонавий логистика тушунчалари билан солиштириш.

Логистика – бу товарларни ва ресурсларни мақсадга мувофиқ тарзда тақсимлаш, ташиш ва уларнинг ҳаракатини самарали ташкил қилиш жараёни. Замонавий логистика глобал савдонинг, ишлаб чиқариш жараёнларининг ва ҳарбий операцияларнинг самарали бошқарилиши учун муҳим аҳамиятга эга бўлса, Темур даврида ҳам логистика ўзининг муҳим ва стратегик ролини ойдин кўрсатди. Бу ерда, Темурнинг ҳарбий юришлари ва иқтисодий сиёсатларини замонавий логистика концепциялари билан солиштириб, айрим умумий нуқталар ва фарқларни кўриб чиқамиз.

1. Таъминлаш тизими ва ресурслар бошқаруви.

Замонавий логистикада таъминот тизими маҳсулотларнинг ишлаб чиқаришдан олиб бориш ва уларнинг мақсадли нуқталарга етиб боришини ташкил қилиш билан боғлиқ. Бу тизим ресурсларнинг тақсимоти, ташиш ва логистикани ҳар даврда ҳам самарали ташкил этилишини талаб этади. Темур даврида ҳам ресурсларни тақсимлаш ва ҳарбий қўшинлар учун таъминот тизими стратегик аҳамиятга эга бўлган. Унинг ҳарбий юришлари давомида лашкарлар, қурол-яроғ, озиқ-овқат ва бошқа зарурий маҳсулотларни ўз вақтида етказиш учун савдо йўллари ва таъминот пунктлари ташкил этилган. Замонавий логистикада таъминот тизимининг самарадорлиги ишлаб чиқариш жараёнларини ўзаро боғлаш ва уларни интеграциялашга асосланса, Темурнинг ҳарбий сафарларидаги стратегик нуқталар орқали таъминотнинг мунтазамлиги ва барқарорлиги ҳам юқори эди.

2. Хавфсизлик ва ресурсларнинг қўлланилиши.

Замонавий логистикада хавфсизлик логистик жараёнлар учун муҳим шарт ҳисобланади. Бу транспорт тизимларининг, савдо йўлларининг хавфсизлиги, тўсиқлар ва таҳдидларнинг бехато аниқланишини талаб этади. Темур замонида ҳам савдо йўлларининг хавфсизлигига катта эътибор қаратилган. Унинг юришлари орқали савдо йўлларида махсус қўриқлаш постлари ташкил этилган, бу эса замонавий логистикадаги хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашга қаратилган янги шаклларнинг илк белгилари сифатида талқин қилиниши мумкин.

3. Транспорт ва инфратузилма.

Замонавий логистикада транспорт инфратузилмаси жаҳон савдоси ва иқтисодиётининг асосий тармоқларидан бири бўлиб, бугунги кунда транспорт тизимлари, ҳаво йўллари, темир йўллар ва автомобиль йўлларининг самарадорлиги логистик жараёнларнинг самарали ташкил

этилишига аҳамиятли таъсир кўрсатади. Темур даврида ҳам транспорт ва инфратузилманинг аҳамияти юқори бўлган, айниқса савдо йўллари ва стратегик шаҳарлар, масалан, Самарқанд ва Ҳирот, Темур давлатининг иқтисодий ва ҳарбий барқарорлигини таъминлашда асосий роль ўйнаган. Ушбу шаҳарлар орқали товарлар ва ресурслар ташилиб, уларнинг алоқаси мутлақо янги тартибда ташкил этилган.

Темурнинг қўшини ва савдоси учун транспорт воситалари сифатида асосан қуйидагилар кўрилган:

-Хайвонлар (туялар, отлар): Бу транспорт воситалари асосан юк ташиш ва ҳарбий юришлар учун ишлатилган. Хайвонлар савдо йўллари орқали товарлар ва ресурсларни ташишда асосий восита бўлган.

-Карвонлар: Темурнинг даврида савдо ва иқтисодий алоқаларни таъминлаш учун карвонлар муҳим аҳамиятга эга бўлган. Карвонлар одамлар ва товарларни узоқ масофаларга, шу жумладан, Шарқ ва Ғарб ўртасидаги савдо йўналишларига ташишига ёрдам берган.

4. Ахборот ва маълумотлар алоқаси

Замонавий логистикада ахборот алмашинуви ва унинг самарали бошқарилиши муҳим аҳамиятга эга. Ахборот тизимлари, тўғри маълумотлар ва уларнинг тезкорлик билан тарқатилиши логистик жараёнларнинг самарадорлигини оширади. Темур даврида ҳам ахборот алмашинуви муҳим бўлган, лекин бу ахборот маҳаллий ва минтақавий хўжаликлардан олиб, лашкарлар ва ҳокимиятларнинг режаларига мос келадиган шаклда амалга оширилган.

5. Иқтисодий қўллаб-қувватлаш ва савдо йўллари.

Замонавий логистикада иқтисодий интеграция, глобал савдо йўллари ва уларни мувофиқлаштириш муҳим ўрин тутади. Савдо йўллари орқали товарлар, хомашё ва ресурслар айни вақтда глобал иқтисодиётни шакллантиришда катта роль ўйнайди. Темур даврида ҳам савдо йўллари энг муҳим иқтисодий омиллардан бири бўлган. Унинг сафарларида савдо йўлларини тиклаш ва ривожлантиришга қаратилган ижтимоий ва иқтисодий сиёсати замонавий логистика концепцияларидаги иқтисодий ўзаро боғлиқликни чуқур намоён этишга ёрдам берган.

Темур даври логистикасини замонавий логистика тушунчалари билан солиштириш унинг ҳарбий ва иқтисодий сиёсатининг муҳим жиҳатларини аниқ намоён этади. У ресурслар тақсимоти, хавфсизлик, транспорт инфратузилмаси ва ахборот алмашинуви каби элементлар орқали стратегик ҳудудлар ва савдо йўлларини барпо этган. Бу логистик элементлар замонавий тизимлар билан ўхшаш бўлиб, улар Темурнинг ҳарбий сафарларида ва иқтисодий ривожланишда муҳим аҳамият касб этган.

Амир Темурнинг азим фатҳларида логистика муҳим роль ўйнаган. Унинг ҳарбий ва иқтисодий муваффақиятлари қуйидагиларда яққол кўринади:

- **Ресурсларнинг ақлли тақсимланиши** – қароргоҳларни стратегик жойлаштириш, лашкарлар ва захираларни оптимал тарзда тарқатиш;
- **Инфратузилмани ривожлантириш** – савдо йўллари, кўприклар ва коммуникацияларни қуриш ва мустаҳкамлаш;
- **Тезкор ахборот алмашинуви** – шартли сигналлар, элчилар ва машварат тизимлари орқали қарорларни тез қабул қилиш.

Юқорида қайд этилга жиҳатлар Амир Темурнинг қўшинларини ҳаракатчан ва жангавор қилиб, улкан империяни вужудга келтириш имконини берди.

AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI

Xusanova Shaxloxon Artiqaliyevna,
KUAF, t.f.f.d. PhD.
Zokirova Shohista Poziljon qizi, Kokand university Andijon filliali talabasi

Amir Temur o‘z davlatining siyosiy va ma'muriy tizimini kuchli markazlashgan tarzda tashkil etgan. U “Temur tuzuklari” (Temur qonunlari) deb atalgan qonunlar to‘plamini ishlab chiqib, unda harbiy intizom, adolat, sadoqat va tartib kabi qadriyatlarni asos qilib olgan. Uning boshqaruv uslubi quyidagi jihatlar bilan ajralib turgan:Meritokratiya: lavozimlar layoqat asosida berilgan.Soliq tizimi qat'iy nazorat ostida bo‘lgan. Harbiylar va amaldorlar o‘rtasidagi vazifalar aniq ajratilgan.Tashqi siyosat va ichki siyosatda muvozanatli yondashuv mavjud bo‘lgan. Harbiy va strategik salohiyatiTemurning harbiy yurishlari ko‘p bo‘lgan. Biroq ularni faqat bosqinchilik deb baholash noto‘g’ri bo‘ladi. U ko‘pincha tartibsiz, beqaror hududlarda markazlashgan boshqaruv o‘rnatib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni tiklagan.

Temurning Hindistonga yurishi, Oltin O‘rda bilan to‘qnashuvi, Turkiya va Eron bilan bo‘lgan siyosiy aloqalari — uning harbiy yurishlarining strategik asosga ega ekanini ko‘rsatadi.Ilm-fan, din va madaniyatga bo‘lgan munosabatiAmir Temur davrida ilm-fan, me’morchilik va adabiyot rivoj topdi. U o‘z poytaxti Samarqandni jahon sivilizatsiyasi markaziga aylantirishga intildi. Mashhur madrasalar, masjidlar va saroylar bunyod etildi.

Temur o‘z davlati ichida diniy bag’rikenglikni saqlagan, sufiylik oqimiga hurmat bilan qaragan. Temur tuzuklari – siyosiy falsafa namunasi “Temur tuzuklari” — bu faqat qonunlar majmuasi emas, balki davlatni boshqarish, insonni tarbiyalash va adolatni qaror toptirishga oid yuksak falsafiy asardir.

Unda shaxsiy intizom, vatanparvarlik va xalqqa xizmat qilish g'oyalari ilgari suriladi. Temurning "Men adolat bilan g'alaba qozondim" degan gapi — uning siyosatining asosiy shioridir.

O'zbek xalqi tarixida esa bunday siymolarning eng ulug'laridan biri, shubhasiz, Sohibqiron Amir Temurdir. U shunchaki zabardast sarkarda emas, balki chuqur tafakkurga ega bo'lgan davlat arbobi, o'z davrida noyob boshqaruv tizimini yaratgan donishmand rahbar sifatida ham tarixga muhrlangan. Uning yaratgan siyosiy tizimi, "Temur tuzuklari" orqali asos solgan boshqaruv falsafasi, davlat idora tizimi, xalq bilan aloqalari, tashqi va ichki siyosatdagi muvozanatli yondashuvi bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Amir Temur o'z imperiyasini kuchli markazlashgan boshqaruv asosida shakllantirgan. U har bir viloyat va tuman ustidan tayinlangan noiblar orqali kuchli nazorat o'rnatdi. Har bir mintaqada soliqlar yig'ilishi, harbiy xizmat va qonunbuzarliklar ustidan qat'iy tartibda nazorat o'rnatilgan. Davlat idoralarining faoliyati "Temur tuzuklari"da belgilangan me'yorlar asosida boshqarilgan.Temur lavozimlar va mas'uliyatli vazifalarni, nasabga emas, balki layoqat, fidoyilik, bilim va harbiy yutuqlarga qarab taqsimlagan. Shu sababli u o'z atrofida ishonchli, dono va sadoqatli sarkardalar jamoasini shakllantira olgan.

Temur o'z armiyasini harbiy-siyosiy maktabga aylantirgan — bu maktabda jasorat va aqlli strategiya barobar rivojlantirilgan. Amir Temurning yurishlari shunchaki bosqinchilik emas, balki davlat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan edi. Masalan; Hindistonga yurish – shimoliy Hindistonda o'rnatilgan beqarorlik va adolatsizlikka qarshi kurash.Oltin O'rda bilan to'qnashuv – Movarounnahrni shimoldan tahdid qilgan To'xtamishxon hujumlariga qarshi javob. Anqara jangi (1402) – Usmonlilar imperiyasi bilan to'qnashuv va u orqali Yaqin Sharqdagi kuch muvozanatini qayta belgilash.Bu yurishlar natijasida Temur o'z imperiyasida ichki barqarorlikni saqlab qoldi, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga sharoit yaratdi. Ilm-fan, din va madaniyatga e'tibori . Amir Temur ilm-fan, me'morchilik va san'atning rivojiga katta ahamiyat bergan. Samarqandda madrasalar, kutubxonalar, observatoriyalar qurilgan. Buyuk alloma Mirzo Ulug'bek Temurning avlodi sifatida aynan bu ilmiy muhitda voyaga yetgan. Temur o'z shaharlarini go'zallik, arxitektura va uyg'unlik timsoliga aylantirgan. Bu borada Bibi Xonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Gur Amir maqbarasi — bu buyuk niyatning namunasidir. U diniy bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlagan, barcha islomiy oqimlarga birdek munosabatda bo'lgan. Har bir viloyatda ulama va faqihlar uchun sharoit yaratgan.

Temur merosi va zamonaviy davlatchilik Amir Temurning merosi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega: Siyosiy barqarorlik va adolatli boshqaruv tamoyillari Davlat va xalq manfaatlarini uyg'unlashtirishIlmga hurmat, intizom

va halollik Yoshlar tarbiyasida irodaviy, vatanparvar ruh – bugungi avlod uchun namuna Uning hayoti shundan dalolat beradiki: har qanday rahbar xalq, yurt va tarix oldida mas'uliyatli bo'lishi kerak.

Temur nafaqat o'z zamonasining, balki jahon tarixining eng buyuk shaxslardan biridir. U yaratgan siyosiy model, boshqaruv tizimi va ijtimoiy islohotlari bugungi davlatchilik tamoyillariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Uning merosi nafaqat o'tmishga, balki bugungi kunga ham taalluqli bo'lib, yosh avlod uchun vatanparvarlik, adolat va fidoyilik ramzidir. Amir Temurning siymosi, uning aqlli boshqaruvi va g'oyaviy merosi hali yuz yillar davomida ilmiy izlanishlar uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temur o'z davrining yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda va uzoqni ko'ra oluvchi siyosatchi edi. Uning yaratgan markazlashgan davlat modeli, adolatga asoslangan boshqaruvi va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirishdagi tajribasi bugungi O'zbekistonning ham siyosiy, ma'naviy rivojida o'z aksini topmoqda. Temurning merosi — bu tarixiy boylik bo'libgina qolmay, balki yangi avlod uchun ilhom manbai, siyosiy maktab va vatanparvarlik sabog'idir.

AMIR TEMUR DAVRIDA QURULTOYLARNING O'RNI VA ROLI

Xamzayeva Mavjuda,
Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti katta o'qituvchisi
Raixmjanov Abdulaziz,
Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti talabasi

Ma'lumki, qurultoylar qadimdan davlat boshqaruvining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblangan. Ular o'z davrida jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilgan. Qurultoyda eng muhim masalalar, jumladan, boshqa davlatlarga yurish qilish, sulh tuzish yoki davlat boshqaruviga oid boshqa muhim masalalar hal etilgan. Bundan ko'rinadiki, qadimiy boshqaruv an'analarimizga muvofiq davlat rahbari biror muhim ishni va o'zgarishlarni boshlashdan avval xalq vakillari bilan kengashib, biror muhim masalaning yechimida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun qurultoylarda muammolarni hal etgan. Biz qadimgi qurultoylar tarixini mushohada etar ekanmiz, ular bugungi parlament tizimining dastlabki tajribalari ekanligiga ishonch hosil qilamiz. To'g'ri, qurultoylar mo'g'ullar va boshqa xalqlar davlat boshqaruvida ham mavjud bo'lgan, ammo bu siyosiy institut bizning siyosiy tarixda ham muhim rol o'ynagan.

Qadimgi an'analarga ko'ra, oqsoqollar yig'ini, harbiy demokratiya, ularning rivojlangan bosqichi qurultoy kabi siyosiy institutlarning o'tmishdagi faoliyati fikrimizga dalildir. Bu tarixiy jarayonlar tahlili natijasi bugungi parlamentimiz tarixi ming yilliklarga borib taqalishi, u bugungi kunda

takomillashib, xalqaro tajribalar bilan boyitilgani haqida xulosa chiqarishimizga olib keladi.

O‘rta asrlarning muhim siyosiy institutlaridan hisoblangan qurultoylarning Amir Temur davrida qanday maqom va kuchga ega bo‘lgani ko‘pchilikka qiziqarli bo‘lsa kerak.[109]

Qadimiy udumlarimizga ko‘ra, davlat rahbarlari qurultoyda saylangan va ular oq kigiz ustiga o‘tqazilib yuqoriga ko‘tarilgan. Oq kigizning to‘rt uchini eng nufuzli amaldor va diniy rahnamolargina ko‘tarish huquqiga ega bo‘lgan. Ushbu udumlar bajarilgan taqdirdagina uning hokimiyati qonuniy hisoblangan.

Bu an’analar o‘sha davr davlatchiligining odatlaridan biri sanalgan. Sohibqiron Amir Temur ham o‘zining davlat hokimiyatini qurultoy orqali mustahkamlagan. U 1370-yilning 8-aprelida qurultoyda amir etib saylangan va o‘sha davrdagi odatga muvofiq oq kigiz ustiga o‘tqazilib, yuqori ko‘tarilgan, unga diniy rahnamosi Sayid Baraka oq fotiha, hukmdorlik nishoni, tug‘, nog‘ora va bayroq bergan. O‘sha kundan e’tiboran Sohibqiron Amir Temur butun Movarounnahrning qonuniy hukmdori-amiri hisoblangan.

Amir Temur saltanatidagi qurultoy oliy tabaqa vakillarining kengashi edi. Mantiqan olib qaralganda shunday bo‘lishi ham kerak edi. Negakim, yirik saltanatda ommani yig‘ishni tashkillashtirish, shuningdek masalani tartib bilan hal qilishning iloji yo‘q edi. Shu tufayli hududlarning vakillari-ma’murlar, harbiy boshliqlar va olimlar qurultoyda qatnashib, mamlakat hayoti taqdirida muhim rol o‘ynaganlar.

Qurultoyda qabul qilingan qarorlar asosida farmonlar chiqarilgan, ular zudlik bilan munshiylar tomonidan ko‘paytirilib, mamlakatning eng chekka joylariga ham jarchilar, choparlar orqali yetkazilgan. O‘sha davrdagi muhim qarorlar va farmoyishlar bir tomondan ma’murlar, ikkinchi tomondan xabargirlar orqali keng ommaga yetkazilgan. Bo‘layotgan o‘zgarishlardan xalq ommasi xabarsiz qolmagan. Ommaviy axborot vositalari bo‘lmagan va transport cheklangan o‘rta asrlarda axborot kommunikatsiyasining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi davlat taraqqiyotida muhim omil sanalgan.

Amir Temurning saltanatni mustahkam boshqarish, xususan uni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlash, davlat ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilish va tadbiru choralar belgilab olish maqsadida qurultoylar va kengashlar o‘tkazishga katta ahamiyat berganligi haqida tarix sahifalarida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Ularga ko‘ra, Amir Temur tomonidan Qarshi, Samarqand, Qorabog‘ va boshqa joylarda o‘tkazilgan qator qurultoy va kengashlarda shahzodalar, davlat ma’murlari, harbiy boshliqlar, ulamolar va mulkdor zodagonlarning vakillari qatnashganlar.

Bundan ko‘rinadiki, Amir Temur qurultoy qaroriga tayanishni davlat boshqaruvidagi eng adolatli yo‘l deb tushungan. U qurultoyni faollashtirish

[109] Barthold, V.V. *O‘rta Osiyo tarixi*. – Toshkent: “Fan”, 1993.

orqali turkiy davlatchilik asoslarini takomillashtirdi. Manbalardagi ma'lumotlar rivojlangan o'rta asrlarda qurultoyning milliy davlatchiligimizdagi eng gurkiragan va faol davri Amir Temur davriga to'g'ri keladi, deb xulosa chiqarishimizga imkon beradi[110].

Qurultoyda boshqa yerga yurish qilish masalasi ham hal etilgan. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy: «Ishorati oliy bo'ldi: «Har bekka ne miqdor kishi taalluq turur va cherik kuni necha kishi otlandurur, barchani ehtiyot qilib, mufassal qilinglar!» Baxshiylar va tavachilar yurub beklardin mufassallar olib, tavachilarg'a topshurdilarkim, tonglasi cherik har kimki qabul qilg'on kishisini otlandurmag'ay, gunohkor bo'lg'ay. Mundoq muqarrar qilib zabt qildilar», deb ma'lumot keltirib o'tgan.

Amir Temur davridan keyin qurultoyning jamiyat hayotidagi mavqeining pasayishi (ayniqsa xonliklar davrida) parokandalikka, inson huquqlarining toptalishiga olib kelgan katta sabablardan biri bo'ldi. Eng nozik masalalarda Amir Temur zodagon ma'murlarning fikrini eshitgan. Amir Temur qurultoysiz ham davlatni boshqarishi mumkin edi, ammo adolatli qarorlar chiqarish uchun mahalliy ma'murlar fikrini inobatga oldi.

Qurultoyning o'tkazilish muddati aniq belgilanmagan bo'lib, bir yilda bir necha marta chaqirilishi, hatto yilda bir marta chaqirilmasligi ham mumkin edi. U vaziyatga va masalaning nechog'li ahamiyatli ekanligiga qarab chaqirilgan.

Masalan, Sohibqiron Amir Temur 1390-yil bahorida va kuzida qurultoy chaqirgan. Ma'lumotlarga ko'ra, «1390-yil kuzida Amir Temur Kesh yaqinida katta qurultoy o'tkazdi. Umarshayxning nikoh tantanalari qurultoyga ulanib ketdi. Amir Temur saltanatining barcha qo'shinini bir joyga yig'di, o'nlab lashkar favjlarini tuzdi, ularning qo'mondonlarini belgiladi, o'zi yo'qligida shahar va tumanlarni boshqaradigan hokimlar, boshqa yuqori mansabdorlarni tayinladi va nihoyat, asosiy qo'shinga yo'l tayyorlash hamda dushman lashkarlari holatidan o'zini ogoh qilishlari uchun tezkor guruhlarni shimolga yo'lladi». Xofizi Abru ham 792 (1389-1390) yilda Oqyor mavzesida Qurultoy chaqirilganligi haqida ma'lumot yozib qoldirgan. Amir Temur saroy tadbirlarini amalga oshirish orqali uzoq-yaqindan kelgan amaldor va boshqa vakillar, sipohining to'planishidan foydalanib, Qurultoy majlisini tashkillashtirgan va unda muhim masalalar ko'rilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruvida mashvarat, kengash, tadbirkorlik, mulohazakorlik va maslahatni boshqaruvning bosh arkoni deb bilganligini qurultoy va uning faoliyatidan anglash mumkin.

Mamlakatda qonunlar ustuvorligini ta'minlashga erishgan Sohibqiron qurultoysiz ham davlatni boshqarishi mumkin edi, ammo u xalq manfaati va farovonligini ta'minlash uchun vakillar majlisining fikri va xohishini inobatga olgan. Chunki uning davlat boshqaruvidagi asosiy maqsadi zo'rlik bilan xalqni

[110] Ahmedov, B. Amir Temur davlati va uning boshqaruv tizimi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2001.

o‘z hukmi ostida ushlab turish emas, balki davlat va xalq birligi, ularning farovonligini ta’minlashga qaratilgan edi. Albatta bu jihatlar o‘sha davrdagi davlatchilik an’analarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Amir Temur muomala madaniyatiga alohida e'tibor bergan edi. Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga utirganimdan sung, dustu-dushman bilan muomalada, bir tekis yul tutdim. Menga yomonlik qilgan, menga qarshi qilich yalang’ochlagan ba'zi amirlar qurquvda edilar. Ularga shunday yaxshiliklar qildimki, mening ino'yatim va xayr-ehsonimni kurib uzlari sharmanda buldilar. Kimni ranj etgan bulsam, ehsonu in'omlar bilan kunglidagi xafagarchiilikni chiqardim va martabalar, imtiyozlar berdim. Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bulgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalish davri buldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur uz imperiyasini tuzib, uning iqtisodiy va madaniy qudratini yuk'saklikka kutardi. Uni Ovrupo Ba Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi.

AMIR TEMUR VA UNING HUKMRONLIGI DAVRIDAGI QONUNLAR VA TARTIBLAR (“TEMUR TUZUKLARI”)

Quramatov Murod,
Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti Yangiyer filiali o‘qituvchisi

Amir Temur shaxsini idrok etish–tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash–o‘zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug’lash–tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir. Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug’laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog’liq ibratli fazilatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklari” asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Amir Temur va uning hukmronligi davridagi qonunlar va tartiblar (“Temur tuzuklari”) - bu mavzu Amir Temur va Temuriylar saltanatining siyosiy va ijtimoiy tuzilmasini o‘rganish uchun juda muhimdir. “Temur tuzuklari” - bu Amir Temurning davlat boshqaruvini tartibga solish, ijtimoiy muvozanatni saqlash, huquqni tiklash va boshqaruvda o‘ziga xos tizim yaratish maqsadida joriy etgan yuksak yuridik va axloqiy qoida va me’yorlardir.

1. “Temur tuzuklari”ning asosiy mazmuni va maqsadi

Siyosiy tartib va boshqaruvning markazlashuvi: Temurning davlat boshqaruviga oid qarorlari va "tuzuklari" markazlashgan boshqaruv tizimini yaratish uchun mo'ljallangan. Bu tuzuklar Amir Temur o'zining kuchli, markazlashtirilgan hukmronligini amalga oshirishga qaratilgan edi.

Huquqiy asoslar: "Temur tuzuklari" huquqiy va axloqiy jihatdan, davlat boshqaruvini samarali yuritish, boshqaruvdagi adolatni saqlash va xalqning farovonligini ta'minlash uchun belgilangan me'yorlar to'plamidir.

Maqsad: Temur tuzuklari orqali, hukumatni mustahkamlash, barcha fuqarolar uchun adolatni ta'minlash va davlatdagi ijtimoiy barqarorlikni saqlashga intilgan.

2. "Temur tuzuklari"dagi asosiy prinsiplar

Adolat va qonun ustuvorligi: Temur o'z tuzuklarida adolatni ta'minlashni va qonunlarga rioya etishni asosiy printsip sifatida ko'rgan. U qonunlarning barcha qatlamlar uchun bir xil va adolatli bo'lishini ta'kidlagan. Har qanday qonunbuzarlik hukumatning oldida turgan barcha fuqarolarni teng ravishda jazolashga olib kelardi.

Harbiy xizmat va jangovar madaniyat: Temur, o'z tuzuklarida jangovar madaniyatni yuqori baholagan. Harbiy xizmatga alohida e'tibor berilgan, chunki Temur davlatning kuchi va mustahkamligi asosan uning harbiy qudratiga bog'liq deb hisoblagan. Jangchilar va harbiylar jamiyatda yuqori o'ringa ega bo'lgan.

Ijtimoiy adolat: Temur tuzuklarida ijtimoiy adolatga katta ahamiyat berilgan. Barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasida tenglik va hurmatni ta'minlashga

intilgan. Uning siyosiy tizimi faqat amirlar va elita uchun emas, balki oddiy fuqarolar uchun ham adolatli bo‘lishi kerak edi.

3. “Temur tuzuklari”da davlat boshqaruvi va hukmdorlik

Hukmdorning vakolatlari: Temur o‘z tuzuklarida hukmdorning barcha mamlakatni boshqarishdagi vakolatlarini aniq belgilab qo‘ygan. U davlatni boshqarishda kuchli autoritar siyosatni amalga oshirgan va shu bilan birga amaldorlarni va boshqaruvchilarning ma’lum vakolatlarini belgilagan. Hukmdorlarning qarorlari davlatning barcha organlari uchun majburiy edi.

Davlat kengashi va boshqaruv organlari: Temur saltanatida hukumatning asosiy boshqaruv organi - davlat kengashi bo‘lib, bu organ davlatni boshqarishda muhim rol o‘ynagan. Davlat kengashi a’zolari yirik amirlar, sodiqlar va maslahatchilar bo‘lib, hukmdorga davlatning turli masalalarida maslahatlar berishgan.

Amirlar va hukumatdagi ahamiyati: Temur amirlarni davlat boshqaruvida muhim vakolatlarga ega qilishni afzal ko‘rgan. Har bir amirning o‘z hududida mustaqil ravishda boshqarish huquqi bor edi, ammo ular markaziy hukumatga sodiq bo‘lishlari kerak edi.

4. “Temur tuzuklari”da huquq va adliya tizimi

Qonunlar va jazo: Temur tuzuklarida qonunlarni buzganlarga qarshi qat’iy jazolar belgilangan edi. U qonunlarni buzganlarni, shu jumladan, amirlarni ham jazo qilishga tayyor edi. Jazo tizimi muayyan huquqiy me’yorlar asosida amalga oshirilgan.

Adliya tizimi: Amir Temur davlatda adolatni ta’minlashni muhim ahamiyatga ega deb hisoblagan. U huquqiy tizimni samarali ishlashi uchun shariat qonunlari, jamoat tartibi va dunyoviy qonunlarni uyg’unlashtirishga harakat qilgan.

5. “Temur tuzuklari”da iqtisodiy va ijtimoiy me’yorlar

Savdo va iqtisodiy faoliyat: Temur saltanatida savdo va iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun alohida me’yorlar va qoidalar belgilangan edi. U savdogarlarga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatgan, shuningdek, xarajatlar va daromadlarni boshqarishni markazlashtirishga intilgan.

Ijtimoiy qatlamlar va fuqarolar huquqi: Temur tuzuklarida ijtimoiy qatlamlarning o‘zaro munosabatlari va fuqarolarning huquqlari ham aniq belgilangan edi. Hamma fuqarolarga teng huquqlar berilgan, lekin amirlar va yuqori sinf a’zolari uchun ba’zi imtiyozlar saqlanib qolgan.

Ijtimoiy barqarorlik: Temur, ijtimoiy barqarorlikni saqlashni va davlatda tinchlikni ta’minlashni o‘zining siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilagan. Ijtimoiy adolat, fuqarolarga teng huquqlar berish va xunuklikka qarshi qat’iy kurashish – uning boshqaruvining asosiy yo‘nalishlaridan biri edi.

6. Temur tuzuklarining ta’siri va ahamiyati

Davlat boshqaruvining samaradorligi: "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvini markazlashtirish, adolatni ta'minlash, iqtisodiy tizimni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda katta rol o'ynagan. Amir Temur tuzuklarining qo'llanilishi orqali uning davlati yuqori darajada markazlashtirilgan va tartibli bo'ldi.

Amir Temurning avlodlariga ta'siri: Temur tuzuklari Temuriylar saltanati davomida avlodlarga, xususan, Temurning o'g'illari va nabiralariga hukumatni boshqarish va davlatning siyosiy va iqtisodiy tizimini saqlashda muhim yo'riqnomalar bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy ahamiyati: "Temur tuzuklari" nafaqat Temuriylar saltanati davrida, balki keyingi davrlar uchun ham ahamiyatli huquqiy manba bo'lib, O'rta Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi tizimlariga ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur va uning hukmronligi davridagi "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi, huquq, adolat, iqtisodiy va ijtimoiy tizimni tartibga solishdagi qat'iy va muvozanatli yondashuvni ifodalovchi huquqiy va axloqiy qoida to'plamidir. Bu tuzuklar nafaqat Temuriylar saltanatining mustahkamlanishiga yordam bergan, balki keyingi davrlar uchun ham muhim ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag'zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag'oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman.

АМИР ТЕМУР САЛТАНАТИДА БОШҚАРУВНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

А.А.Утанбаев
Ориентал университети магистранти

Замонавий глобал жаҳон менежмент ривожланиш тенденцияларида, шу жумладан замонавий бошқарув шароитида таълимда таваккалчиликни бошқариш масалаларига кўпроқ эътибор беришга зарурат туғилмоқда. Бунинг сабаблари сўнгги йилларда содир бўлаётган глобаллашув иқтисодиётга таъсир этувчи омилларининг мавжудлиги, бошқарув учун баъзи хатарларни келтириб чиқаради. Ушбу хавф-хатарларга қарамай бошқарувни тўғри танлаш самарали натижаларни беради. Ҳар қандай бошқарув таваккалчиликни ўз ичига олади. Таваккалчликни бошқариш "риск (хавф-хатар)ларни бошқариш" тушунчаси билан ўзаро боғлиқ. Ушбу менежментга доир бошқарув, бошқарувда таваккалчилик тушунчаси Марказий Осиёда буюк давлат тузган Соҳибқирон Амир Темур давлатида кучли кузатилган. Амир Темур ва Темурийлар салтанатидаги ижтимоий

таркиб, маъмурларни турлича атамалар билан ифодаланган. Масалан, ҳоким, доруға, навкар, чуҳра, баковул, бовурчи, офтобачи, чиғовул, ҳожиб, эшикоға, сайислар, рикобдор, ноғорачи, қушбеги ва шунга ўхшашлар. Ҳар бир шахс, ижтимоий гуруҳ, жамият ижтимоий таркибида ўз ўрнига эга бўлади. Биз ана шу ижтимоий таркиб – маъмурлар тўғрисида имкон қадар батафсилроқ сўз юритмоқчимиз. Юқоридаги бошқарув ходимлари маъмурларнинг кўпчилиги "Темур тузуклари"да ҳам тилга олинади. Биз уларни ихчамгина жамлашга жазм этдик. Темур қурмоқчи бўлган мукаммал жамиятни шоҳ энг ишонарли вазирлар ёрдамида амалга оширилиши мумкин ва шунинг учун ҳам у ўз ишончли ва эътиборли кишилари бўлган вазирларга катта эътибор беришни таъкидлаган. Темур фикрича, подшоҳ вазирларни танлашда адашмаслиги керак. Шоҳ асосан тўрт сифатга эга бўлган кишиларни ўзига вазир этиб тайинлаши мумкин:

биринчиси – асллик,

иккинчиси – ақл-фаросатлилик,

учинчиси – сипоҳу раият аҳволидан хабардорлик, уларга нисбатан хушмуомила бўлишлик,

тўртинчиси – сабр чидамлилик ва тинчликсеварлилик.

Темурнинг маслаҳат беришича бундай сифатга эга бўлган кишиларни фақатгина вазир этиб тайинлаш эмас, балки, давлатнинг у ёки бу тармоқ ишлари учун маслаҳат этиб тайинлаш мумкин.

Давр ҳарбийларининг юксак маърифатли вакили бўлган Амир Темур мусиқа санъатини аҳамиятини маънавий омил сифатида чуқур идрок этган, ҳарбий мусиқа турлари қўшинларнинг жанговар руҳиятини олий даражада сақлаб турувчи куч деб билган ва унинг ривожига катта эътибор берган. У тарихда биринчи бўлиб, аскарларни жанговар байроқлар ва чолғу асбоблари билан тақдирлаш одатини ҳарбий удумга киритади: "Амр қилдимки, - деб ёзади "Тузуклари"да, - қайси бир амир бирон мамлакатни фатҳ этса, ё ғаним лашкарини енгса, уни уч нарса билан мумтоз қилсинлар – фахрли хитоб, туғ ва ноғора бериб, уни баҳодир деб атасинлар".

Шуниси эътиборлики, Амир Темур лашкарида мусиқа чолғулари фақатгина маънавий рамзиёт ҳисобланмасдан, балки кўпроқ ҳарбий матонат, шижоат нишони, жангчиларнинг табақа ва мартабаларини кўрсатувчи ҳарбий даража белгисини англатган. Амир Темур ҳам ўз салтанатида меҳнат аҳли, касбкор эгалари ҳурмати ўрнига қўйилишига алоҳида эътибор берган: "Агар касбу ҳунар ва маърифат аҳлларидан бўлсалар, бундайларга салтанат корхоналаридан юмуш берилсин. Булардан бошқа билагида кучи бор фақир-мискинлар эса ўз аҳволи ва касбу корига қараб иш тутсинлар". Мамлакатнинг стратегик ривожланиши амалга оширилаётган ислоҳотларнинг натижаларига боғлиқ.

Амир Темур давлатни бошқаришда илм аҳлига алоҳида эътибор қаратган. Аҳли илмни юксак қадрлаган Соҳибқирон олиму фузалолар билан тез тез кенгашиб тургани тарихий манбаларда қайд этилган. Хусусан, Шарофиддин Али Яздий "Зафарнома" асарида Амир Темур бирор масалани ҳал қилмоқчи бўлса, аввал шу соҳанинг билимли мутахассислари, олимлар билан маслаҳат қилганлигини қайд этади.

Амир Темур тарихчи олимларни жуда эъзозлаган ва Соҳибқироннинг буйруғи билан саройда битикчилар, тарихчилар фаолияти йўлга қўйилган эди. Бу Амир Темур ва темурийлар даврида тарихнавислик фани юксак даражада ривожланишига олиб келди. Шу тариқа, олиму уламолар Амир Темур ва темурийлар салтанатида катта ҳурматга ва мавқега эга ижтимоий қатламга айланган эдики, бу Мовароуннаҳр ва Хуросонда Иккинчи Ислом уйғониш даврини юзага чиқарди. Самарқанд, Кеш, Бухоро, Ҳирот ва бошқа шаҳарларнинг маърифат ва илм фан марказларига айланишига олиб келди. Буюк ипак йўли бўйлаб халқаро савдо ва маданий алоқалар тикланди, илм фаннинг турли соҳаларидаги ҳамкорлик йўлга қўйилди, қўшни ва узоқ мамлакатлар билан элчилик муносабатлари ўрнатилди. Бу ўзгаришлар замирида Амир Темур асос солган ва кўплаб темурий ҳукмдорлар давом эттирган илм фанга, маданият ва санъатга, маорифга эътибор, уларга ҳомийликка йўналтирилган давлат сиёсати муҳим аҳамиятга эга бўлган.

AMIR TEMUR BUYUK SARKARDA VA DAVLAT ARBOBI

Xolsaidov Sultonsaid,
Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti talabasi

Amir Temur, Temurbek, to'liq aytsak, Amir Temur ibn Amir Tarag'ay milodiy 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ildi.

Otasi – Amir Tarag'ay, Tarag'aybek (tug'ilgan yili noma'lum, vafoti 1360) barlos qabilasining nufuzli oqsoqoli edi. O'zbek xalqi tarkibida to'qson ikki urug' borligini bilamiz. Barlos ana shu "to'qson ikki"ning biridir. Amir Tarag'ay Turkistonning o'sha paytdagi hukmdori Amir Qozog'on oldida ishonch qozongan hurmati bor beklardan hisoblanar, Chig'atoy ulusi beklari qurultoylariga qatnashib turardi. Harbiy ishlarga mayli yo'q, taqvodor musulmon, vaqtini darveshlar bilan o'tkazardi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Tarag'aybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...".

Onasi – Tegina Xotun, Takina begim, Takina Mohbegim (taxm. 1318, Buxoro – 1353, Shahrisabz) Buxoro ulamolari peshvosi mavlono sadr ash-shari'a, ya'ni shariat qonunlarini sharhlovchi alloma Ubaydulloh al-

Buxoriyning qizidir. Milodiy 1334-yil 16 yoshda Tarag'aybekka uzatilgan. Oradan ikki yil o'tgach, Temurbek tavallud topdi.

Onasi va otasi Shahrisabzda dafn etilgan. Amir Temur onasi xotirasiga balandligi yetmish bir metr keladigan dunyoga mashhur Oqsaroy yodgorligini bunyod ettirdi.

Amir Temurning bolaligi Keshda kechdi. Bolaligidanoq tabiatan og'ir-bosiq, zehni o'tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlash, o'q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o'rgandi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavondoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. O'n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo'lgan, niyatni katta qilgan. Sohibqiron tengdoshlari bilan to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etar,asta-sekin navkar va harbiy guruhga birlashib, lashkarboshilik darajasiga ko'tarilganlar. Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan.

Milodiy 1358-yilda Turkiston (Movarounnahr) hukmdori Amir Qozog'on o'ldirilgandan keyin boshboshdoqlik avj olib ketdi. Tarixchi Xondamirning xabar berishicha, mamlakat o'nga yaqin bekliklarga bo'linib ketgan, hukmdorlar o'zaro nizolar, janglar bilan ovora, birlashishni o'ylamasdilar. Shu sababdan, Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon 1360–1361-yillarda yagona hokimi yo'q yurtimizga bosqin uyushtirganda unga bas keladigan kuch topilmadi. Amir Temur ana shunday vaziyatda tarix maydoniga kirib keldi. Xudo kelajakda ulug' saltanat barpo qilishni uning ko'ngliga jo etgan edi. Buning uchun mamlakatni birlashtirish lozim bo'lardi. U o'zboshimcha amirlar boshini bir joyga qovushtira oldi. Og'ir kurashlardan keyin milodiy 1370-yilda Amir Temur davlat boshiga keldi. Turkiston tarixida 1370-yil 9-apreldan boshlab mutlaqo yangi sahifalar boshlandi.

Sohibqiron Amir Temur Qashqar, Yettisuv, Turkiston va Xorazmning bir qismidan iborat Chig'atoy ulusining vorisi sifatida maydonga chiqdi va ulus yerlariga to'liq egalik qilishni o'zining qonuniy huquqi deb hisobladi. O'sha paytdagi taomilga ko'ra, davlatga Chingizxon asos solgan, shuning uchun faqat uning avlodidan bo'lganlargina xon atalishga loyiq ko'rilardi. Amir Temur davlat boshiga kelishdan oldin chingiziy Suyurg'atmishxonni nomigagina xon qilib ko'tardi, soxta obro'lar ketidan quvishga ehtiyoji bo'lmagan Sohibqiron o'zini xon deb atamadi, chunki u xon avlodidan emas, balki oddiy xalq ichidan chiqqan qahramon edi. Samarqandni Turon saltanatining poytaxti deb belgiladi, 1391-yilda To'xtamishxon bilan jangga borayotib, Dashti Qipchoqda ulkan toshga xotira satrlarini o'ydirib yozdirganda, o'zini "Turon sultoni" deb atadi.

Birinchi qadamlar parchalanib ketgan yurtni – Turon mamlakatini birlashtirishdan boshlandi. Bu ishni amalga oshirish uchun Jeta (boshqa nomi Mo‘g’uliston)ga besh marta, Xorazmga besh marta yurish qilishga to‘g’ri keldi. Parokanda mustamlaka yurt yaxlitlik maqomiga ega bo‘lib, ozodlikka erishdi. Bu tariximizdagi diqqatga sazovor ulkan voqealardan biridir. O‘ttiz besh yil (1370–1405) hukm surgan Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Orol dengizigacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi.

Amir Temur, eng avvalo, mustaqil ulkan Turon davlatini tuzgan vatanparvar, buyuk davlat arbobidir, vatanimizni mo‘g’ul bosqinchilaridan ozod etgan xalq qahramonidir. U mustabidlarga qarshi kurash va mustaqil davlat bunyod etish o‘zining burchi ekanini chuqur anglab yetdi. Prezident Islom Karimovning: "Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir", – degan so‘zlari zamirida ana shunday teran ma’no mujassamdir.

Amir Temur urushning aytgani-aytgan, degani-degan qattol bir zamonda yashadi, qilichu nayzaga suyangan bu zamonning hech kimga bo‘ysunmaydigan o‘z qonunlari bor edi. Ularga rioya qilmaslik yoki chetlab o‘tish mumkin emasdi. Shuni ta’kidlash joizki, Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchi bo‘lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari zaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini izlardi. Ayrim hollarda, qaysidir mamlakatda zulm ortib ketgan bo‘lsa, u joyning ulug’lari sohibqiron Amir Temurga ko‘mak so‘rab murojaat qilishardi. Amir Temur o‘z "Tuzuklar"ida davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash (diplomatiya)ga ajratgani, bir ulushini qilichga qoldirganini yozgan. U umr bo‘yi bunga rioya qildi. Muxolif mamlakatga takror-takror elchilar yuborar, quda-andachilikni yo‘lga qo‘yishga tirishar, qarindoshchilikni rivojlantirish yo‘llarini izlardi. Buning yorqin misoli Xorazmning go‘zal malikasi Xonzoda xonimning Turon saltanati valiahdi shahzoda Jahongir Mirzoga uzatilishi edi.

Amir Temurning "uch yillik" (1386–1388), "besh yillik" (1392–1396), "etti yillik" (1399–1404) yurishlari tarixdan ma’lum. Bu yurishlar zamirida Buyuk ipak yo‘liga egalik qilish uchun kurashlar ham yotadi. Savdo yo‘llari davlatga katta daromad keltirishdan tashqari, xalqaro siyosiy maydonda mavqe, obro‘-martabani yuksak darajaga ko‘tarardi.Amir Temur yurishlari, urushlar, albatta, o‘z asoratlarini qoldirdi, lekin ularning jahon tarixida ijobiy tomonlari borligi ham haqiqat.Sohibqironning yurishlari Xitoyda Min sulolasi davlat boshiga kelganda mo‘g’ullarning Xitoyga solayotgan xavfini bartaraf etdi.

Oltin O‘rda xoqoni To‘xtamishxon bilan 1391, 1395-yillarda olib borilgan ulkan janglar Rossiyani mo‘g’ullar zulmidan xalos qildi, rus xalqiga markazlashgan davlat tuzish imkoniyatini yaratdi. Amir Temurning Usmonlilar imperiyasi ustidan qozongan g’alabasi Yevropani usmonlilar mustamlakasidan

qutqarib qoldi, uni Yevropa xaloskoriga aylantirdi, Vizantiya imperiyasi umriga yarim asr umr qo‘shdi. Fransuz tarixchisi Rene Grusse XX asr boshlarida: "Amir Temurning Boyazid ustidan g’alabasi xristian olamini asrab qoldi", – deb yozgan edi. U ulkan davlat arbobi sifatida Yevropa va Osiyo o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladigan yagona makon yaratish choralarini qidirdi. Bunda o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlar o‘rnatilishiga katta e’tibor berdi. Jahonning nufuzli davlatlari bilan yaxshi aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bu ma’noda bir tarafdan – Xitoy, Hindiston, ikkinchi tarafdan – Fransiya, Angliya, shuningdek, Usmonlilar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlarni aytib o‘tish mumkin. Sohibqiron faoliyatining jahonshumulligi ham shunda namoyondir.

Amir Temur jahonning to‘rt mashhur sarkardalaridan biri, kuragi yerga tegmagan buyuk lashkarboshi, xudo bergan salohiyatini to‘la-to‘kis namoyon eta olgan, o‘xshashi yo‘q buyuk armiya qo‘mondoni edi. Janggohlar san’ati, urush yo‘llari, lashkar tutish qoidasi, saflar rasm-rusumi Sohibqironning "Temur tuzuklari" kitobida batafsil yoritilgan.

Milodiy 1365-yilda Sirdaryo bo‘yidagi Chinoz yonida mo‘g’ullar bilan bo‘lgan mashhur "Loy jangi"da Amir Husayn boshliq Turon cherigi (Amir Temur lashkarboshi edi) mag’lub bo‘ldi. Bu 29 yoshli Amir Temurning umrida birinchi va so‘nggi mag’lubiyati edi. 1366-yilda Qarshida Temurbek bor-yo‘g’i 243 kishi bilan 12 ming kishilik dushmanga qarshi jang qildi va Tangrining inoyati-yu, sarkardalik salohiyati bilan zafar qozondi.

1368-yilda Badaxshonda qo‘li baland kelgan dushman Sohibqiron askarlarining ko‘pini qirib tashladi va 130 kishini asir qildi. Yonida bor-yo‘g’i 13 navkar bilan qolgan Amir Temur mardlarcha Dobon tog’i tepasiga chiqib yo‘lni to‘sdi va ko‘p jangu chorasiz qonli urinishlar evaziga o‘z askarlarini dushmandan qutqarib oldi. Keyinchalik Amir Temur o‘sha jangni eslab: "Ko‘p janglar qildim va ko‘p voqealarni boshdan kechirdim-u ammo bu jangdan qattig’ini ko‘rmadim.", – degan edi.

Amir Temur qurish, yaratish mentaliteti bo‘lgan xalqning farzandi, tabiatan bunyodkor bo‘lib tug’ilgan o‘xshashi yo‘q zot edi. Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Dastavval saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug’vorligini ko‘rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag’dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog’-rog’larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirdi.

Sohibqiron Amir Temurni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan arab tarixchisi ibn Arabshoh yozadi: "Amir Temur ...tengi yo‘q fe’l-atvorli, teran mulohazali, uning tafakkur dengizining qa’ri yo‘q. Amir Temur baland qadli, uzun bo‘yli,

tik qomatli, qadimiy pahlavonlar avlodidan bo‘lib, keng peshonali, katta boshli, g’oyatda kuchli va salobatli, bo‘la, rangi oqu qizil yuzli, dog’siz, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g’on, poychalari semiz, sersoqol, o‘ng oyoq-qo‘li cho‘loq va shol, ikki ko‘zi bamisoli ikki shamdek bo‘lsa-da, shodligi bilinmas, ovozi yo‘g’on edi; u o‘limdan qo‘rqmas, yoshi yetmishga yetgan bo‘lsa-da, iztirobsiz, vazmin. Badani to‘la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax, yolg’onni yoqtirmas, o‘yin-kulgi-yu ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi so‘zda o‘ziga ozor yetadigan biror narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; u bo‘lib o‘tgan ishga aziyat chekmas va o‘ziga hosil bo‘ladigan yutuqdan shodlanmas edi... Ko‘pincha uning majlisida uyatsiz so‘zlar, qon to‘kish, asir olish, naqbu g’orat qilish va haram (haqiga) haqorat gaplar bo‘lmasdi. U bexato (nishonga urguvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz darajada baxtli, ulug’vorligi o‘ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqgo‘y kishi edi...".

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TARIXIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH:AMIR TEMUR VA TO‘XTAMISHXON O‘RTASIDAGI JANG

Sultonmurodova Surayyo Iskandar qizi,
Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti magistranti

Tarixiy jarayonlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida modellashtirish, o‘tmishdagi voqealar yanada aniqroq va batafsil o‘rganish imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu o‘rinda o‘qitish metodlarida sun’iy intellekt imkoniyatlarini ham alohida e’tibor qaratib o‘tishimiz lozimdir. Bu metodlarning ta’siri ayniqsa tarixiy janglarni tahlil qilishda juda sezilarli.Sun’iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlarni tezda tahlil qilish va aniqlik kiritish imkoniyatini yaratib beradi. Bu metod bilan an’anaviy tarixshunoslikka qaraganda, ko‘proq tafsilotlarni olish mumkin.

Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi jangni sun’iy intellekt yordamida modellash va ushbu texnologiyalarning tarixiy ilm-fanga qanday

xizmat qilishini ko‘rib chiqamiz. Dastlab Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi jang haqida tarixiy manbalarga tayangan holda ma’lumotlarni tahlil qilamiz. Avvalo shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, Amir Temur va To‘xtamishxon munosabatlari, Oltin O‘rda va Movarounnahr davlatlarining o‘zaro to‘qnashuvlarining kelib chiqish sabablari masalasi ko‘plab tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

A.Y.Yakubovskiy ham Amir Temur va To‘xtamishning o‘zaro munosabatlari mavzusiga ham keng to‘xtaladi. Avvalo, muallif Sohibqiron Oq O‘rda va Mo‘g’ulistondagi siyosiy voqealarni o‘z hokimiyatining dastlabki yillaridanoq diqqat bilan kuzatib borganligini, o‘z mamlakatini xavfsizligini ko‘zlab Oq O‘rda taxtining da’vogari To‘xtamishxonni qo‘llab-quvvatlaganini ta’kidlaydi. Avval Oq O‘rda, so‘ngra butun Jo‘ji ulusi ustidan hukm yuritishga erishgan To‘xtamishxon valine’mati Amir Temurga ham qarshi chiqa boshladi. Bu haqda A.Y.Yakubovskiy o‘z kitobida shunday deb yozadi: “Temur To‘xtamishni nimaga tayyorlagan bo‘lsa, u shuning aksini qilayotgan edi. To‘xtamish Oltin O‘rdani O‘zbekxon (1312-1340) davrining eng yaxshi kunlariga qaytarishga urinib, Oltin O‘rda hududini kengaytirish uchun qator yurishlar boshladi, shu jumladan, Kavkazorti va Ozarbayjonga ham. To‘xtamishning buyuk davlatchilik siyosati Temurning Movarounnahrda o‘sib borayotgan davlati uchun nomaqbul edi. Temur faoliyatiga To‘xtamish faqat g’ov bo‘lib qolmasdan, ayni vaqtda Temurning Movarounnahrdagi davlatiga o‘zining mohiyati jihatidan to‘la qarama-qarshi bo‘lgan davlatning manfaatlarini ifoda etardi”[111]. A.Y.Yakubovskiyning yuqoridagi fikrlariga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, Amir Temur davlati va Oltin O‘rda o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi, asosan, uch hududda yuz bergan. Bular Ozarbayjon (hozirgi Ozarbayjon Respublikasi va Shimoliy Eron), Xorazm va Sirdaryo bo‘yi hududlaridir[112].

[111] Якубовкий А.Ю. История падения Золотой Орды. //Вопросы истории. – М.: 1947, №2. – С. 30-45.282.
[112] Bahriddin Usmonov.O’zbekiston tarixi Amir Temur va temuriylar siyosiy tarixi .O’quv qo’llanma.-Farg’ona. 2024-464-bet.

Amir Termur va To‘xtamishxon tasviri sun’iy intellekt yordamida tiklangan ko‘rinishi (chapda Amir Temur, o‘ngda To‘xtamishxon)

To‘xtamishxon Amir Temur qo‘shinlarini Dashti Qipchoq hududiga yurish qilishga majbur qilib, uni Dashti Qipchoqda qirib tashlash edi.Buni yaxshi anglagan Amir Temur sabr bilan barvha mayda hujumlarni qaytarib,raqiblarni tor-mor etadi.

Tarixchi professor Ibrohim Mo‘minov o‘zining asarida shunday ta’kidlab o‘tadi:”Toxtamishxon 1387-yil Temurning Eronda ekanligidan foydalanib,Movarounnhar markazlariga hujum uyushtiradi.Tarixchi professor Bahriddin Usmonov o‘z kitobida To‘xtamishxonni 1388-1390-yillarda Amir Temur borligi sabab Mavorounnahrga yurish qila olmaganligi keltirilsa, Amir Temurning To‘xtamish ustiga yurishi 1391-yilning 19-yanvar kuni boshlanadi. Lekin dastlab juda sekin harakat qilindi. Bunga To‘xtamish elchilari-ning kelganligi va ular bilan olib borilgan muzokaralar sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Faqat 21-fevraldan boshlab yurish amalda davom ettirildi va uch hafta ichida Qipchoq dashti hududiga kirib borildi[113].Jang olib borilgan hudud dasht daryosi bo‘yida joylashgan.[114]Kondurcha — Sokka daryosining o‘ng irmog’i bo‘lib, Volgaga Zhigulevsk tog’lari hududida qo‘shiladi. Kondurcha birinchi marta 921-yilda arab sayyohi Ahmad ibn Fadlan tomonidan tasvirlangan, u o‘sha paytda Volga bo‘ylab Bulgar shahriga borar ekan, bu daryoni Kyunjula deb atagan. Bu nom arabcha emas, balki ehtimol, Fadlan mahalliy manbalardan olgan.Bugungi kunda Volga-Kama hududining ba’zi tillarida (chuvash, mariy) "kendzala" - "kudelya" ("suvda namlanadigan tolalar") so‘zi saqlanib qolgan. Shunday qilib, Kondurcha — bu "chirmashgan ipak" yoki "namlangan ipak" daryosi degan ma’noni anglatadi. Bu nomning o‘zida qadimiy to‘qimachilik kasbining qadimiyligini ko‘rsatadi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning o‘zining “Zafarnoma”sida ta’kidlashicha, Amir Temur dastlab Umarshayx Mirzoni 20 minglik qo‘shin bilan jang qilish uchun jo‘natgan.O‘zi 18-iyun kuni yetib To‘xtamishxon bilan asosiy janglarni olib boradi.Ushbu jangda Amir Temur birinchi marta lashkarni yetti korpusga (qul) bo‘lib jangga kiritish usulini qo‘llagan.Bu haqida SHarafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi:"Hazrat o‘zi yurib, cherikni yetti qo‘l tortib ettikim, hanuz hech

[113] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Н.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

[114] Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX асрлар): Тарих фан. номз… дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 б

podshoh andoq qilmaydur erdi va eshitmaydur erdi. Va bu yetti adadda hosiyat ko‘p turur va ko‘p sir anda bor erdikim, sab’ ul-masaninning voqiflari andin xabardor erdilar."[115]

Amir Temur asosiy qo‘shinni markazga to‘playdi.Markazni o‘zi ham ikki qismga bo‘lingan.Markaz o‘ng qanotiga Sulton Mahmudni boshliq qilib, o‘zi esa chap qanotga boshchilik qiladi.Markaz orqa qismiga 20 minglik qo‘shimcha zaxira qo‘shinni joylashtirgan. O‘ng qanot qism Mironshohga,chap qanot Umarshayxga,O‘ng qanot kanbuli Amir Xoji Sayfuddunga,chap qanot kanbuli esa Amir Bedibek shuningdek, Xudoydod Husaynga sarkardalik qilishni topshirgan.Jang paytida To‘xtamishxon hiyla ishlatiadi.Ammo jarayonni to‘liq nazoratiga olgan Amir Temur To‘xtamishxon hiylasini tushunib,uni mag’lubiyatga uchratadi.To‘xtamishxon qurshovga tushib qolmaslik uchun chekinishga majbur bo‘ladi.1391 yil 18 iyun kuni Qunduzcha mavzeida yuz bergan bu to‘qnashuvda son jihatdan ko‘p bo‘lgan To‘xtamish qo‘shini mag’lubiyatga uchraydi va qochib ketadi. Makur jangda Amir Temur odattagidek,qo‘shinni uch qismga emas yetti qismga bo‘lishi,hamda alohida harbiy bo‘linmaning zahiraga olinishi g’olib bo‘lishining asosiy omillaridan biri deb keltiradi.

Amir Temur qo‘shunlari orqaga qaytgandan keyin ko‘p o‘tmay To‘xtamish o‘zini tiklab oladi, yana katta qo‘shin to‘plab, muxolifatni davom ettira boshlaydi. Sohibqironning 1392–93 yillardagi safari chog’ida tahlikaga tushib qolgan Misr mamluqlari bilan To‘xtamishning 1394–1395 yillarda aloqa qilishi harbiy vaziyatni yanada taranglashtiradi.[116] Amir Temur Gurjistonda ekanligida, urush uchun tinmay sabab qidirayotgan To‘xtamish Darbanddan o‘tib, Shirvon hududlariga bostirib kiradi.Sharafiddin Ali Yazdiyning qayd etishicha,Amir Temur bosiqlik bilan To;xtamishga xat yo‘llagan hamda taslim bo‘lib qo‘shilishini aytgan.Ammo To‘xtamish Amir Temurga nomunosib javob yozib, elchini qaytaradi. Urush boshlanishi uchun shu bahonaning o‘zi yetarli edi. 1395 yil 15 aprel**da** Terek daryosi bo‘yidagi og’ir jangda To‘xtamish qo‘shini to‘la tor-mor etiladi.[117]

Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi jang sahnalari zamonaviy texnologiylar yordamida qayta jarayonlashtirildi.Yangi texnologiyalar imkoniyatlari bizga o‘sha muhitni his qilish ko‘rish imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt yordamida tarixiy jarayonlarni modellashtirishda Open AI,Kling.AI,Hedra AI,Freepek AI,Midjourney AI kabilarining imkoniyatlaridan keng foydalanildi.Xususan bunda yuqori sifatli jang tasvirlarni yaratishda

[115] Tarjimasi: “Hukmdor o’zi yurib qo’shinni yetti qo’l tartibida safladi. Shu paytgacha hech bir podshoning qo’shinni bunday saflaganini eshitmaganman.”

[116] Абдуллаев У.А. Амир Темурнинг Яқин Шарқдаги сиёсати: Тарих фан. номз...дисс. Тошкент: ТДШИ, 2012.147 б.

[117] Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Н.Бобобеков,-Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

midjourney va Open AI dan foydalanilgan bo‘lsa,Freepek,Kling AI dan tasvirlarni harakatlantirish,Hedra AI dan ovoz imkoniyatlaridan foydalaniladi.Bu jarayonlarni yaratishda yaratilayotgan tasvirlarni haqiqatga yaqinligi,o‘sha davr muhitini mosligi asosiy obraz qahramonlarining yuz,tashqi qiyofasi, tarixiy obyektlarning o‘xshashligi kabilarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Hozirgi zamonaviylashayotgan dunyoda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.Shu nuqtai nazardan tarix fanini o‘qitilish tizimini takomillashtirish jarayonida ham ushbu texnologiyalarni jalb qilish samarali natija berishini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Tarix o‘qitilish tizimini barqarorlashtirish orqali ushbu fanning o‘qitilish ko‘rsatkichini oshganligi, zamonaviy dunyo ta’lim standartlariga moslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu sohaga texnologik bilimlarni keng joriy qilinishiga e’tibor qaratishimiz bugungi kunda muhimdir. Rivojlangan davlatlar kabi to‘xtovsiz va samarali ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, ta’lim jarayonlariga texnologiyalar olib kirish sifatli ta’lim berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Bundan bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasida qaratilayotgan e’tiborni ko‘rishimiz mumkindir.

Amir Temur va Temuriylar davri qiziqarli hamda dolzarbdir.Bu davrni o‘rgangan holda ta’lim berish jarayonlarida zamonaviy texnologiylardan foydalanish unga yanada qiziqishni oshiradi.Ayniqsa sun’iy intellekt, tarixshunoslikda yangicha yondashuvlarni yaratishga yordam bermoqda. Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi jangni modellash orqali, bu jangning har bir detalini yanada chuqurroq tushunish va o‘rganish mumkin. SI yordamida janglarning strategik va taktikalari haqida yangicha xulosalar chiqarish va tarixiy jarayonlarni aniqroq tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bu esa nafaqat tarixiy ilm-fan, balki boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Haqiqatda sun’iy intellekt imkonyatlari ko‘p.Ammo undan to‘g’ri foydalanish lozimdir.Tarixiy jarayonlarni tiklar ekanmiz,asosiy e’tiborimiz tarixiy kontekstni noto‘g’ri talqin qilib qo‘ymasligimiz lozimdir.

AMIR TEMUR – HARB BILIMDONI

O‘ktamov Tohirjon G`ayrat o‘g`li
Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi

Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. Uning harbiy mahorati, strategik fikrlashi va ma’muriy qobiliyatlari o‘z davrining eng yuqori cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Amir Temurning harbiy mahorati uning har bir jangda qo‘llagan noyob strategiyalari va taktikalari bilan ajralib turgan. Uning qo‘shini nafaqat son jihatdan, balki intizom, tashkilot va sadoqat bilan ham raqiblaridan ustun edi. Biroq, Amir Temurning shaxsiyati faqat harbiy yutuqlar bilan chegaralanmaydi. U madaniyat, fan va san’atni qo‘llab-quvvatlagan homiy

sifatida ham tarixga kirgan. Samarqand shahri uning davrida gullab-yashnagan va dunyoning eng yirik madaniy markazlaridan biriga aylangan.

Amir Temur, Sharafuddin Ali Yazdiyning bergan ma'lumotiga ko'ra, hijriy 736-yil (milodiy 1336-yil 9-aprel) da Qashqadaryo vohasining Shahrisabz (Kesh) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida (hozirgi Yakkabog` tumani), Tarag'ay xonadonida tavallud topgan. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy bunday yozadi: "Qazon sulton zamonida davlatning kuni va saodat ko'kining oyi zohir bo'ldi va olam saqlag`uchi yulduzi inoyati Rabboniyning avjidin yaruq bo'ldi. Sha`bon oyining yigirma beshida, tarix yetti yuz o'ttuz oltida, sichqon yilikim (8.04.1336), mo'g`ullarning yili bila muvofiq turur, Qashi dilkash viloyatida, Takina xotunkim, sha`ri mutaxxara yo'suni bila ul amiri dinparvarning nikohida erdi, andin xazrat sohibqiron kun kibi zohir bo'ldi"[118].

Temur o'smirlik yoshidayoq Qur'onni yod bilgan. Uni ulamolar imtihon qilishib, quvvayi xotirasiga tasannolar aytishgan. O'n ikki yoshga to'lganida u: "...bolalarcha o'yinlardan orlanadigan bo'ldim va vaqtimni o'zimga tengqur o'spirinlar bilan o'tkazishga harakat qildim", deydi[119].

Temur 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va shikor (ov) qilish san'atini mohirona egallagan va 20 yoshida esa abjir chavandoz bo'lib yetishgan. Endi u o'z tengqurlarini guruhlarga bo'lib, jang mashqlarini o'tkaza boshlagan[120]. 17 yoshga to'lganida otasining butun mulkini o'zi mustaqil boshqara boshlagan: "Men, – deydi Temur, – otamning barcha yilqi va mollarini to'pladim; qo'ylami yuz-yuztalab ajratdim. Qo'chqorlarini sovliqlaridan ajratdim. Otamning har o'n quliga birini boshliq qilib qo'ydim"[121]. Shu tariqa Amir Temur yetuk boshqaruvchi va harbiy bilimga ega bo'lgan shaxs sifatida voyaga yetgan.

Sohibqiron Amir Temur murakkab vaziyatda, XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqqan. Bu davrda Movarounnahrda mo'g`ul hukmdorlari o'rtasida toj-u taxt uchun kurashlar kuchayib ketgan edi. Bunday vaziyatda oqilona ish yuritgan Amir Temur o'z harbiy kuchlari bilan mo'g`ul amirlariga hizmat qila boshlaydi. Shu asnoda Amir Temur mo'g`ul hukmdorlari e`tiboriga tushadi.

Amir Temur Movarounnahr taxtini egallash uchun 1363 – 1370-yillarda kurash olib boradi. Sohibqiron Amir Temur ko'plab janggu jadallar, qiyinchiliklar natijasida 1370-yili Movarounnahr hukmdori bo'ladi. Amir Temur endilikda davlat sarhadlarini mustahkamlash, dushmanlarni jazolash va qo'shni davlatlarda tartib o'rnatish maqsadida, keng qamrovli yurishlar olib borgan. Bu yurishlarning deyarli barchasida g`alaba qozongan. Bunday

[118] Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
[119] Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – 512 b.
[120] Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – 512 b.
[121] Ашраф Ахмад. Амир Темур Кўрагон зафар йули. – Т.: Нур, 1992. – 112 б.

g`alabalarga sabab Amir Temur harbiy tizimga, xususan armiyaga alohida e`tibor bergan.

Amir Temur o‘z oldiga O‘rta Osiyoda markazlashgan davlat tuzish maqsadini qo‘ygan. Buning uchun u kuchli armiya tashkil etish, uni o‘sha davrning eng zamonaviy qurollari va yordamchi vositalari bilan ta`minlash, mo‘g`ullarning Yasoq an`analaridan voz kechish, yirik shahar markazlarini mustahkamlash hamda mamlakat chegaralarida asosiy tayanch punktlari bo‘lib xizmat qiluvchi shahar istehkomlari tizimini yaratish maqsadini qo‘yib, uni amalga oshirishga kirishadi[122].

Amir Temur o‘z zamoniga xos bo‘lgan zamonaviy muntazam armiya tuzishga kirishdi. Sharqda birinchilardan bo‘lib, o‘z armiyasiga o‘t ochar qurol, ya`ni to‘p – ra`dni olib kiradi. Nizomiddin Shomiyning fikricha, ra`dni boshqaruvchi maxsus top`chilar – ra`dandozlar soni 10 ming kishiga yetgan. Ra`dandozlar ilk bor Amir Temur tomonidan 1379-yili Urganchni egallash chog`ida qo‘llanilgan[123].

Amir Temur qo‘shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan edi. Lekin piyodalar ham uzoq cho‘l safarlarida otlar bilan ta`minlanar, otliq askarlarning katta qismi esa piyoda tartibda jang qilishga ham o‘rgatilgan edi. Ular kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo‘lgandagina otdan tushib, piyoda jangchilarga aylanar edi. Biroq ular otda piyoda harakat qilishdan ko‘ra yaxshiroq harakat qilganlari, shubhasiz, chunki, ko‘chmanchi xalqlar yoshlik chog`laridanoq otda yurishni yaxshi o‘zlashtirib olishgan[124].

Otliq qo‘shin yengil suvoriylarga va og`ir qurolli otliqlarga bo‘lingan. Og`ir qurollangan otliq qo‘shinning vazifasi dushmanga hal qiluvchi zarbani berishdan iborat edi. Og`ir qurollangan suvoriylarning katta qismini sara otliq qo‘shinlar tashkil etgan. Amir Temur qo‘shinlarida xos soqchilar va gvardiya ham mavjud bo‘lgan.

Amir Temur qo‘shinida asosiy qismlardan tashqari quyidagi yordamchi qismlar ham bo‘lgan:

1. Pontonchilar (ko‘chma ko‘prik quruvchilar) va kemachilar (kemalar yasash va kema haydash ishlari bilan shug`ullanuvchilar).

2. Naftandozlar – yunon olovini otuvchilar.

3. Qamal qilish texnikalari va tosh otuvchi qurollar bilan ishlashni biladigan jangchilar.

4. Tik qiyaliklarga chiqa oladigan maxsus piyoda qismlar[125].

---

[122] Зияева Д. Ҳ. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан хозиргача). – Т.: Шарқ, 2012. – 256 б.
[123] Зияева Д. Ҳ. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан хозиргача). – Т.: Шарқ, 2012. – 256 б.
[124] Михаил Иванин. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур ҳарбий санъати, стратегияси ва тактикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 304 б.
[125] Михаил Иванин. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур ҳарбий санъати, стратегияси ва тактикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 304 б.

Amir Temur jahon harbiy san`ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida yetti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan.

Amir Temur armiyasida ayollardan iborat bo‘linmalar ham bo‘lgan. Bu haqida Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Temur askari ichida ayollar ham ko‘p bo‘lib, ular jang to‘s-to‘polonlari va shiddatli to‘qnashuvlarda matonat ko‘rsatardilar. Ular dushman erkaklariga qarshi turib, mardonavor urush qilardilar, jangda nayza sanchishda, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda mohir erkaklardan ko‘ra ham ortiqroq ish qilardilar”[126].

Amir Temur qo‘shinlari “o‘nlik” (ayl), “yuzlik” (xo‘shun), “minglik” (hazora), “o‘n minglik” (tuman)ga bo‘limgan va ularga “o‘nboshi”, “yuzboshi”, “mingboshi”, hamda “amir”lar boshchilik qilgan. O‘n minglik lashkarni boshqarish uchun “tumanog`asi”, minglik bo‘limni “mirixazora”, yuzlikni “xo‘shunboshi” va o‘nlikni boshqarish uchun “aylboshi” kabi harbiy mansablar tashkil qilingan. Bo‘linma boshliqlari – amirlar Temurga tobe bo‘lgan qirq aymoq (qabila)dan o‘n ikkitasi: barlos, arg`in, jaloir, tulkichi, duldoy, mo‘g’ul, suldo‘z, to‘g’oy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar orasidan tanlab olingan. Eng ulug’ martaba amirlik bo‘lib, Temur faoliyatining dastlabki yilllaridan boshlab uni tark etmasdan sodiqlik bilan xizmat ko‘rsatgan 313 kishiga berilgan: bittasi amir ul-umaro, to‘rttasi beglar begi, yuztadan mingboshi, yuzboshi va o‘nboshi bo‘lgan. Bulardan tashqari, yana o‘n ikki nafar kishiga birinchidan to o‘n ikkinchi darajali amirlik unvoni berilgan. O‘n ikkinchi darajali amir, odatda, amir ul-umaroning noibi hisoblangan[127].

Amir Temur o‘z sipohiylaining qurol-yarog`iga va anjomlariga alohida etibor bergan. “Temur tuzuklari”da shunday yoziladi: “Shunday buyruq berdimki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har o‘n sakkiz kishi o‘zi bilan birga bir chodir (xayma) olsin, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq o‘qdon (tarkash), bir qilich, arra, bigiz, bir qop (juvol), juvoldo‘z, bolta, o‘nta igna va orqaga osiladigan charm xalta (charm po‘sht) olsin. Bahodirlardan har besh kishi bir chodir olsin. Har biri bitta oddiy temir sovut (javshan), dubulg’a (xo‘di), bir qilich, sadoq – o‘qdon, kamon va beshta ot olsin. O‘nboshilardan har biri o‘zi bilan birga bir chodir, zirh, qilich, sadoq – o‘qdon, kamon va beshta ot olsin. Yuzboshilardan har biri bir chodir, o‘nta ot, qurol-aslahadan – qilich, sadoq – o‘qdon, kamon, gurzi, cho‘qmor, koskan, zirh, bagtar olsin. Mingboshilardan har biri o‘zi bilan birga bitta chodir, bir soyabon, qurol-aslahadan – javshan, dubulg’a, nayza, qilich, sadoq-o‘qdon va o‘q-yoydan ko‘targanicha olsin”[128].

Amir Temur janglarda qahramonlik va mardlik namunalarini ko‘rsatgan sara jangchilarni munosib ravishda taqdirlab, o‘nboshi, takror jangovar

[126] Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал мақдур фи тарихи таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). – Т.: Меҳнат, 1992. – 192 б.
[127] Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2010. – 512 b.
[128] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.

xizmatlari evaziga yuzboshi va nihoyat, mingboshi amaliga ko‘tarilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Janggu jadal chog`ida shijoat ko‘rsatib, dushman guruhini qochirishga muyassar bo‘lgan o‘nbegi shahar dorug`asi, yuzbegi esa viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan[129].

Amir Temurning har bir yurishi puxta reja asosida olib borilgan. Xususan, sohibqiron har bir yurishdan oldin, yurish qilinadigan hududni o‘rgangan. Sohibqironning mamlakatining barcha hududlarida o‘z ayg`oqchilari bo‘lgan. Bu xususida Ibn Arabshoh yozadi: “Temur tengi yo‘q fe`l atvorli, chuqur mulohazali kishi bo‘lib, uning tafakkur dengizining qa`ri yo‘q va tadbiri tog`iga na tekislik, na g`adir – budir orqali yo‘l topadilar. U yerlarning barcha tomonlarida o‘z ayg`oqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida esa josuslar qo‘ygan edi”[130].

Amir Temur dushmanga qo‘qqisdan qaqshatqich zarba berish usuli bilan shuhrat qozongan edi. Sohibqiron harb san`ati rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri qo‘shni qanotlarini jang chog`ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, dushman kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ort tomondan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qismining joriy etilishidir. Bunday qo‘shin tuzilishidan Amir Temurdan keyin XIX asrda Napaleon Bonapart armiyasida qo‘llagan[131].

Amir Temurning jangovar taktikasiga ko‘ra, agar dushman 12 mingdan ortiq, lekin 40 mingdan kam jangchiga ega bo‘lsa, Amir Temur ularga qarshi 40 ming kishidan kam bo‘lmagan qo‘shin jo‘natgan. Bu qo‘shinning tuzilishi haqida tuzuklarda shunday yoziladi: “Amr etdimki, agar g’anim lashkari soni o‘n ikki ming otliqdan kam bo‘lsa, bu urushda amir ul-umaro lashkarimga sardorlik qilsin. Aymoq va tumanlardan o‘n ikki ming otliq unga hamroh bo‘lsin. Mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilarni ham o‘ziga hamroh qilsin. G’anim lashkariga bir manzil yo‘l qolguncha yurish qilib, dushman bilan ro‘baru kelgach, menga xabar yuborsin. Yana amr qildimki, o‘shal o‘n ikki ming otliq askarni to‘qqiz favjga bo‘lsinlar, ushbu tartibda; g’o‘lda bir favj, barong’orda uch favj, javong’orda uch favj, hirovulda – bir favj va qorovulda – bir favj tursin. Barong’or favjining o‘zi hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo‘lsin. Shunga o‘xshash, javong’or favji ham, hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo‘lsin”[132].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur buyuk davlat arbobi sifatida o‘z mamlakatini mog`ul bosqinchilaridan ozod qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etdi. Amir Temur armiyasi o‘z zamonasini armiyalaridan bir qadam oldinda bo‘lgan. Chunki, bu armiya har taraflama mukammal tuzilgan edi.

[129] Дадабоев Ҳ. Аждодларимизниг ҳарбий маҳорати. – Т.: Akademnashr, 2016. – 176 b
[130] Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал мақдур фи тарихи таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). – Т.: Меҳнат, 1992. – 192 б.
[131] Зияева Д. Ҳ. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан хозиргача). – Т.: Шарқ, 2012. – 256 б.
[132] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.

Qurol-yarog' va jang taktikalarini yangi turlaridan oqilona foydalana olgan. Shuningdek, Amir Temur tomonidan janglarda qahramonlik ko'rsatgan askarlarga munosib unvon va boyliklar bergandan so'ng ular har qachongidan ko'ra, ham sadoqatli va jang maydonida yengilmas bahodirga aylangan. Amir Temurni jang san'ati bugungi kunda ham dunoning bor qator mamlakatlaridagi harbiy o'quv yurtlarida o'rgatiladi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY TIZIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Muxtorov Azizbek A'zamjon o'g'li,
Andijon davlat texnika instituti talabasi

Amir Temur (1336–1405) Markaziy Osiyoda yashagan buyuk sarkarda, davlat arbobi va mohir siyosatchi bo'lib, u 14-asr oxiri va 15-asr boshlarida kuchli markazlashgan davlat – Temuriylar imperiyasiga asos soldi. U Movarounnahr, Xuroson, Eron, Iroq, Kichik Osiyo, Kavkaz, Hindistonning shimoliy hududlari va boshqa yirik mintaqalarni o'z saltanatiga birlashtira oldi. Temurning harbiy iqtidori va siyosiy farosati tufayli uning davlati o'z davrining eng kuchli imperiyalaridan biriga aylangan edi[133]. Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy tizimni tashkil etishdagi yondashuvi o'ziga xos va mukammal edi. U o'zining mashhur asari – "Tuzuklar"da boshqaruv tamoyillarini aniq bayon qilgan. Ushbu tuzuklar faqat harbiy yurishlar uchun emas, balki ijtimoiy hayot, soliq siyosati, adliya, ma'muriy tuzilma va axloqiy me'yorlar kabi sohalarni ham qamrab olgan. U yaratgan boshqaruv va harbiy tizim asoslari temuriylar davrida ham davom ettirilgan va ularning siyosiy-madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy tizimni tashkil etishdagi yondashuvi o'ziga xos va mukammal edi. U o'zining mashhur asari – "Tuzuklar"da boshqaruv tamoyillarini aniq bayon qilgan. Ushbu tuzuklar faqat harbiy yurishlar uchun emas, balki ijtimoiy hayot, soliq siyosati, adliya, ma'muriy tuzilma va axloqiy me'yorlar kabi sohalarni ham qamrab olgan. U yaratgan boshqaruv va harbiy tizim asoslari temuriylar davrida ham davom ettirilgan va ularning siyosiy-madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Mazkur tezisda aynan shu davlat boshqaruvi va harbiy tizim faoliyatining asosiy tamoyillari, ularning qanday tashkil etilgani va samaradorligi tahlil qilinadi.

Amir Temur va uning avlodlari o'z davlatlarining qudratini va mustahkamligini ushlab qolishda, eng avvalo harbiy sohani yuqori darajada tashkil etib, markazlashgan davlat tuzishni ma'qul ko'rganlar. Shu sababli ham, Amir Temur davlatchilik asoslarini kuchli markazlashgan boshqaruv orqali

[133] Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent: "Yozuvchi", 1992.

tashkil etgan. Uning "Tuzuklar" asarida davlatning ichki va tashqi siyosatini yuritishda qat'iy tartib va mas'uliyat muhim o'rin egallagan. Amir Temurning "Tuzuklar" asari davlat boshqaruvi va harbiy tizimni tashkil etishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Unda har bir amaldorning vazifasi, javobgarligi va axloqiy me'yorlari aniq belgilab qo'yilgan. Amir Temur o'z saltanatini ma'muriy birliklarga – viloyatlar va noibliklarga bo'lib, ularni o'ziga sodiq noiblar orqali boshqargan. Bu tizim orqali markaziy hokimiyat nazorati saqlab qolinardi. Harbiy va ma'muriy lavozimlar esa meros yo'li bilan emas, balki shaxsiy fazilatlar va sadoqat asosida taqsimlangan. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirgan. Bu Amir Temurning o'z davrida qanday adolatli va haqqoniy siyosat olib borganligining yana bir yaqqol misoli hisoblanadi.

Amir Temur davrida harbiy tizim yaxshi tashkil etilgan bo'lib, doimiy askariy qismlar va safarbar qilinadigan qo'shinlar mavjud edi. Har bir harbiy yurish puxta reja asosida olib borilga. Temurning harbiy yurishlari puxta tayyorgarlik, razvedka va intizom asosida olib borilgan. Uning harbiy strategiyasi dushmanning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, tezkor va qat'iy harakatlarga tayanardi. Temurdan keyin uning avlodlari – temuriylar bu boshqaruv va harbiy tizim asoslarini yanada rivojlantirib, ilm-fan va madaniyatga ham katta e'tibor qaratdilar. Ammo siyosiy kurashlar va ichki nizolar sabab tizim barqarorligi pasaygan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Amir Temur va Temuriylar davrida harbiy kuch davlat asoslaridan biri bo'lgan. Amir Temurning qo'shini o'z davrining eng mukammal vayuqori tartibli armiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Temurning harbiy salohiyati va strategik yondashuvi tufayli u keng hududlarni zabt eta olgan va yirik imperiya barpo etgan. Uning qo'shining tuzilishiga ko'proq yondashadigan bo'lsak, Temur qo'shini qat'iy tizim asosida tashkil etilgan bo'lib, u o'nlik tizimga asoslangan, ya'ni har 10 askardan bir boshliq, 100 kishi ustidan yuzboshi, 1000 kishi ustidan mingboshi, 10 000 kishi ustidan esa tumanboshi boshqarardi. Bu tizim yurish vaqtida intizomni saqlash va tezkor boshqaruvni ta'minlashga xizmat qilgan. Asosiy harbiy qismlarga kelsak bular: Otliq askarlar – asosiy zarba beruvchi kuch sifatida xizmat qilgan. Tezkor yurishlar, razvedka va hujumlar asosan ular tomonidan amalga oshirilgan. Piyoda askarlar – qal'a va shaharlarni egallashda, mudofaa ishlarida muhim rol o'ynagan. Muhandislar va zardo'zlar – harbiy yurishlarda ko'prik qurish, istehkom barpo etish, harbiy jihozlar tayyorlash bilan shug'ullangan. Harbiy izlanuvchilar (razvedkachilar) – dushmanning kuchi, harakati va zaif nuqtalari haqida ma'lumot yig'gan. Temurning qo'shini nafaqat janglarda, balki ichki siyosatda ham muhim rol o'ynagan. Amir Temur u orqali markazlashgan hokimiyatni mustahkamlangan. Sodiq sarkardalar orqali viloyatlar nazorat

qilingan. Bosib olingan hududlarda tartib o‘rnatilgan va Temuriylar saltanati chegaralari kengaytirilgan.

Temur har doim harbiy yurishlarga katta tayyorgarlik bilan yondashgan. Razvedka ishlari, logistik ta’minot, geografik holat va dushmanning harakatlarini tahlil qilgan. U jangda oddiy kuch ishlatishdan ko‘ra, dushmanni aldash, qo‘rqitish, bo‘lib tashlash kabi usullardan ham foydalangan. Bu strategik yondashuvlar Temur qo‘shinining salohiyatini yanada oshirgan. Amir Temurning harbiy tuzilmasi va salohiyati uning davlatchilik siyosatida hal qiluvchi o‘rin egallagan. Harbiy intizom, strategik rejalashtirish va iqtidorli sarkardalarga tayanish tufayli Temur o‘z davrining eng kuchli davlatlaridan birini barpo etishga muvaffaq bo‘lgan. Amir Temur va uning avlodlari harbiy sohani tartibli va intizom orqali tashkil etish bilan birgalikda, unga yangi texnologiyalarni ham olib kirgan. Amir Temur o‘z zamonasining ilg’or harbiy islohotlarini joriy etib, qo‘shin tuzilmasini yanada mukammallashtirgan. Temur kuchli markazlashgan harbiy boshqaruv tizimini har qanday vaqtda ham bevosita o‘zining nazorati ostida ushlab turgan. Har bir sarkarda aniq vazifa va javobgarlikka ega bo‘lgan. Har qanday vaqtda safarbar etilishi mumkin bo‘lgan doimiy harbiy qismlar tuzilgan. Bu harbiy tayyorgarlikni yuqori darajada saqlashga xizmat qilgan.

Temuriylar qo‘shinida dushman haqida oldindan ma’lumot yig’ish va yurishlarni rejalashtirishda razvedka guruhlari faol ishlatilgan. Temuriylar Chingizxon davridan qolgan o‘nlik tizimni takomillashtirib, yuzboshi, mingboshi, tumanboshi tizimini samarali boshqaruv asosiga aylantirgan. Temur qo‘shini yurish davomida ko‘prik, istehkom, o‘tov va boshqa zarur inshootlarni qurish uchun alohida guruhlar – muhandislar va hunarmandlardan iborat bo‘limlarga ega bo‘lgan. Bu harbiy yurish paytida janglarning taqdirini hal etishda muhim ro‘l o‘ynagan. Temurning avlodlari ham, xususan Shahrux Mirzo, Ulug’bek va Husayn Boyqaro davrida harbiy tizimda ko‘plab yangiliklar joriy etilgan. Ulug’bek davrida astronomiya va geografiya bilimlari asosida harbiy harakatlar rejalashtirilgan. Masalan, yurishlar oldidan yulduzlar holati va ob-havo prognozlari hisobga olingan[134]. Temuriylar davrida o‘q otar qurollar – kamon, arbalet va hatto ilk to‘p turlari keng qo‘llanila boshlagan. Bu ularning harbiy salohiyatlarini o‘z davrlarida yuqori darajada bo‘lishini taminlagan. Temuriylar bundan tashqari, harbiy kadrlar tayyorlash uchun maxsus maktablar faoliyati kuchaytirilib, tajribali sarkardalardan saboq olish amaliyoti joriy etilgan. Shohrux va Husayn Boyqaro davrida esa qal’alarni mustahkamlash, mudofaa usullarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Amir Temur va uning avlodlari qo‘shinga faqat kuch emas, balki intizom, bilim, strategiya va zamonaviylashuvni olib kirganlar. Ularning harbiy tizimdagi bu

[134] Ahmedov B. Temuriylar: siyosiy va madaniy meros. Toshkent: “Sharq”, 2005.

yangiliklari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq dunyosi harbiy san’atiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Amir Temur va uning avlodlari tomonidan harbiy soha hamda davlat boshqaruvida amalga oshirilgan islohotlar o‘z davri uchun chuqur strategik yondashuv va uzoqni ko‘ra bilish mahsuli bo‘lgan. Temurning harbiy-intizomga asoslangan qo‘shin tuzilmasi, qat’iy markazlashgan boshqaruv tizimi, adolat va sadoqatga asoslangan lavozim taqsimoti davlat barqarorligining poydevoriga aylangan[135].Temuriylar bu tamoyillarni davom ettirib, ularni ilm-fan yutuqlari bilan boyitgan holda yanada takomillashtirdilar. Harbiy yurishlar puxta tayyorgarlik bilan, ilmiy tahlillar asosida rejalashtirilishi, davlat boshqaruvida esa bilimdon, vatanparvar kadrlarga tayanilishi ularning uzoq yillar hukmronligini ta’minlagan. Bu islohotlar natijasida nafaqat siyosiy barqarorlik ta'minlandi, balki xalqning turmush darajasi, xavfsizligi va madaniy saviyasi ham sezilarli darajada yuksaldi.Temuriylar saltanati misolida ko‘rish mumkinki, kuchli harbiy tizim va oqilona boshqaruv faqat hududiy kengayish emas, balki inson hayotida tartib, adolat, taraqqiyot va madaniy yuksalish uchun asosiy omil bo‘la oladi.

JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINING JISMONIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOHIBQIRON AMIR TEMURNING ASKARLARINI JANGOVOR TAYYORGARLIK JARAYONLARIDA OLIB BORGAN ISLOHATLARIDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Izzatullayev Azizbek Renatulla o‘g`li,
Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti
Alimjonova Sitora Yashin qizi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya tadbirlari quyidagilardan iborat: o‘quv mashg’ulotlargacha o‘tkaziladigan ertalabki gimnastika - ta'lim muassasalarida har kuni darslar boshlanguncha o‘tkaziladigan jismoniy mashqlardir. Mashg’ulotlargacha bo‘ladigan gimnastika asosan tarbiyaviy va sog’lomlashtirish masalalarini hal etadi. Ochiq havoda o‘tkaziladigan mashqlar talabalar organizimini chiniqtirishga ham yordam beradi. Tanaffuslar bolalarning dam olishlari va navbatdagi darsga juda samarali tayyorlana olishlari uchun foydalanilishi zarur. Tanaffuslardagi o‘yinlarni uyushgan xolda o‘tkazish tadbirlarga quyidagi talablar qo‘yiladi: ular bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi va bolalarni juda toliqtirmasligi ham kuchli qo‘zg’atmasligi kerak.

“Temur tuzuklari”da piyoda va otda jang qilish, qilichbozlik va nayzabozlik, jangchining harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarligi, eng baland

[135] Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent: “Yozuvchi”, 1992.

tog'li joylardan o'tish, daryolardan o'tish va h.k. haqida batafsil bayon qilinganligining guvohi bo'lish mumkin. Amir Temurning Boysun, Hisor, Hindiqush, Turkiston, Chotqol, Kavkaz tog'lari, hozirgi Qozog'iston va Rossiya hududlaridagi cho'llar, vodiylar hamda Sirdaryo, Amudaiyo, Dajla, Volga, Ganga va boshqa juda ko'p daryolardan kechib o'tishning o'zi bo'lmagandir. O'sha davrlardagi piyoda, otda yurish hamda jang qilish jarayonlarini ko'z oldingizga keltirib ko'ringda, mulohaza va xulosa qiling. Bir necha kunlab tinmay piyoda yurish, qilich, nayza, to'qmoq, xanjar va boshqa qurol-aslahalami ishlatish, dushmanni yengishda oyoq-qo'l, gavda kuchlari, epchillik, tezlik, hushyorlikni talab etgan. Fursat kelganda raqibi bilan yelkama-yelka ushlashib, kurashib uni yiqitish, taslim qilish uchun qanchadan-qancha amaliy kuch, mahorat, ustomonlik, jasurlik kerak bo'lgan. Har bir jangchi kuchli, epchil, jasur, mergan bo'lgan. To'g'ri kelganda yakkama- yakka ot ustida olishuv, tortishuv, og'darish, savalashish kabi tabiiy harakatlardan ham mardonavor foydalanganlar. Bu faoliyatlarni ham Amir Temur va uning maxsus sarkardalari jangchilarga qunt bilan o'rgatgan, ta'lim bergan. Amir Temur dam olish vaqtlarini ov qilish, sahro va tog'larga sayr qilish bilan o'tkazgan. Bunday hollarda otda va piyoda tog'larga chiqish, arqon, tayoqlardan foydalanish usullarini o'ylab topgan. Jangchilarga dam olish bergan paytlarda ulami poyga, kurash, qilichlashish, ko'pkari kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga da'vat etgan. Shaharlardagi qal'alami egallashda narvon, arqondan osilib chiqish, tushish usullaridan keng foydalanganlar.

Ta'lim muassasalaridagi sinfdan tashqari ishlardan biri ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishidir. Sinfdan tashqari ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

Talabalar sog'ligini mustahkamlashga, organizmni chiniqtirishga, ularning har tomonlama jismoniy rivojlanishiga yordam berish;

talabalarning jismoniy madaniyat darslarida olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda kengaytirish;

talabalarni yaxshi dam olishlarini tashkil etish; talabalarda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga ishtiyoq uyg'otish.

Sinfdan tashqari ishlarga talabalarni yoppasiga jalb qilish uchun mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning xilma-xil shakllaridan foydalanish lozim. bunda ularning yoshi, sog'ligi va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinadi. talabalar bilan amaliy ish olib borish uchun to'garaklar tuziladi. birinchi navbatda butun yil davomida ishlaydigan umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari tashkil etiladi. umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garagiga iloji boricha ko'proq talabalarni, shu jumladan, jismoniy rivojlanishda bir oz oqsayotgan bolalarni ham jalb etish lozim.

Sport to'garaklarining rahbarlari muayyan sport turining mashg'ulotlarini o'tkazish uslubiyatini, bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning o'ziga

xosligini yaxshi bilishlari kerak. sayrlar, ekskursiyalar va yurishlar katta ta'lim va tarbiya ahamiyatga molik. Chunki bu jarayonda bolalar tabiat, jonajon o‘lka va uning diqqatga sazovor joylari bilan tanishadilar. bu tadbirlar yurish, yugurish va o‘yin malakalarining takomillashishiga yordam beradi, organizmni chiniqtiradi va bolalar sog’ligini mustahkamlaydi hamda yurish-turish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, joyni mo‘ljalga olish va xokazo ko‘nikmalarni egallashga imkon yaratadi. Shuningdek, ular bolalar jamoasini qaror toptirish va mustaxkamlashda, do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda bebaho rol o‘ynaydi. O‘yinlar, ko‘ngil ochishlar, talabalar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishning eng oddiy va ommaviy, shakli o‘yin hamda ko‘ngil ochishlardir. O‘yinlar talabalarning kichik guruhlari bilan ham, ikki-uchta sinf talabalarining katta guruhlari bilan ham uyushtiriladi. Guruh qanchalik katta bo‘lsa, o‘yin tashkilotchilari va o‘yinboshi talabalar unga shunchalik yaxshi tayyorlangan bo‘lishlari kerak.

Sport musobaqalari ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiyaga oid sinfdan tashqari ishning eng qiziqarli shakllaridan biridir. Ular talabalarni uyda va jismoniy madaniyat jamoalaridagi doimiy jismoniy mashg’ulotlarga jalb etishga yordam beradi, talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi, bolalar jamoasini mustaxkamlaydi. Musobaqalar, sinfdan tashqari ishning boshqa turlari qatori, ta'lim muassasalarining umumiy yillik ish rejasiga kiritiladi. O‘quv yilining boshida musobaqalarni o‘tkazish muddati, qoidalari va dasturlari aniq belgilab olinadi. Bu muddatlarni hisobga olgan holda musobaqalarga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi. Har bir musobaqa muayyan nizomga muvofiq o‘tkaziladi. Nizomda musobaqaning maqsadi va vazifalari, vaqti va o‘tkazilish joyi, qatnashuvchilar, dasturi, o‘tkazilish sharti va hisobga olish, eng yaxshi ishtirokchilarni va komandalarni mukofotlash tartibi, arizalar shakli va ularni taqdim etish muddati ko‘rsatiladi. Ayni bir xildagi qiziqish-havaslarning kuchi turli sportchilarda turli darajada bo’ladi. Kuchli qiziqish, ko’pincha, kuchli hissiyotlar bilan bog’liq bo’lib, sportchida ehtiros tarzida namoyon bo’ladi. Sportchining o’zi tanlagan sport turi bilan shug’ullanishga qiziqishining o’sib borishi uning ichki dunyosiga, ma’naviy tarbiyasiga, hissiyotlariga ham bog’liq bo’ladi.

Murabbiyning sport mashg’ulotlarini qiziqarli tashkil etishi sportchilarning mashg’ulotlarga qiziqishini oshiradi, ularning xotirasidao’rganilgan harakatli o’yin turlari va nomlarining uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Sportga qiziqish va sport bilan shug’ullanish yoshlardaaqliy, ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish bilan birga, ular shaxsini to’g’ri yo’naltirishga ham katta ta’sir etadi.

Sport amaliyotida kuzatilganki, ba’zi murabbiylar bajarilgan mashqlarni yanada mustahkamlash maqsadidao’rgatilgan mashqni takrorlayveradi, bilib-bilmay shogirdlarini zeriktiradigan vaziyatlar vujudga keltiradi Bunday

holatlarning qayta-qayta takrorlanishi sportchilarni zeriktirib qo'yadi va sport mashg'ulotlaridan bezdiradi. Ammo, o'z bilimini muttasil oshirib boradigan, mustaqil ijod qiladigan, shogirdlari gormonal holatlarini chuqur tushunadigan murabbiylar bu muammoni bartaraf etishga harakat qiladi va pedagogik mahoratga tayanib, mashg'ulotlardao'z oldiga qo'ygan vazifalarni mas'uliyat bilan uddalaydi. Fikrimizni quyidagi holatlar orqali isbotlashga harakat qilamiz (bu bizning sub'ektiv fikrlarimiz): zerikish holatlari paydo bo'ladi. Bu holat mashg'ulot samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sportchilarni sport musobaqalariga gormonal jihatdan tayyorlash, ularning jismoniy va gormonal tayyorgarlik darajasini yanada oshirish - sport amaliyotida sportchilarning ko'pincha g'alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga gormonal jihatdan tayyorlashgaalohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tarbiyaga oid ta'lim muassasalaridan tashqari ishlarga bolalar va o'smirlar sport ta'lim muassasalari, olimpiada zahiralari sport ta'lim muassasalari, sport mahoratini oshirish ta'lim muassasalarida sport turlari bilan shug'ullanish mashg'ulotlari kiradi. Bu muassasalarda talabalar sport turlari bo'yicha maxsus tayyorgarliklar o'tadilar. Sport turlari bo'yicha ixtisoslikka erishadilar. Shuningdek, jismoniy tarbiyadan ta'lim muassasalaridan tashqari ishlarga ta'lim muassasalari o'rtasidagi har xil sport musobaqalari va bayramlardagi bellashuvlar, o'rtoqlik uchrashuvlari kiradi. Yashash joylarida hamda oilada jismoniy tarbiya tadbirlari o'tkazish ham shu soha vazifasi hioblanadi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq va yaqin o'tmishimizda xalqimizning jismoniy madaniyati mazmun jihatdan ijtimoiy-tarbiyaviy sohada o'ziga xos milliy xususiyatlar bilan boyib kelgan. Ularning tarixiy yo'nalishlari hamda ilmiy-nazariy jihatlarini o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslarida mukammal o'rganishlarini davr talabalari asosida ta'minlash bugunning dolzarb muammolaridan biridir

AMIR TEMUR HAYOT FAOLIYATI VA UNING DAVLATCHILIGIMIZ TARIXIDA TUTGAN O'RNI

G'ulomov Ilyosbek Kozimjonovich,
Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi

Amir Temur (1336-yil 9-aprel – 1405-yil 18-fevral) – o'rta asrlarning buyuk turkiy askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni yengishi ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyilliknig eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik

boshqaruvi va yurishlari chog‘ida biror urushni yutqazmagan qo‘shinboshi, o‘tmishda ko‘rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo‘mondonlaridan biri, Temuriylar uyg‘onish davri asoschisi, ilm-fan, me’morchilik, san’at va adabiyot homiysi Temurbek shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz o‘ttiz oltinchi yilda (8.04.1336), o‘n ikki hayvonli Turk yilligiga ko‘ra Sichqon yilida Kesh shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tulilgan.Otasi Amir Tarag‘ay (o‘rta chog‘ turkchasida Tarag‘ay – qoraquyruq qushi) barlos qabilasining beklaridan biri va qabilaning asosiy 5 ta urug‘idan birining yetakchisi edi Tarag‘aybek Chig‘atoy ulusining taniqli beklaridan biri bo‘lib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Otasi Barqul Noyondek Tarag‘aybek harb va siyosat ishlariga qiziqmagan va asosan islom dinini o‘rganish bilan umrini kechirgan. Shamsiddin Kulol Tarag‘aybekning piri bo‘lgan.Onasi Takina Xotun va yoki Takina Mohbegim to‘g‘risida bilgilar oz. Zafarnoma (Yazdli Sharafiddin)da yolg‘iz otigina so‘zlanadi. 1403-yilda Temurbek Jenoa, Fransiya, Angliya qirollariga elchi qilib yuborgan, Sultoniya bosh rohibi (archiepiscopus) Johannes de Galonifontibus Takina Xotunning oddiy oiladan ekanini yozadi. Temurli saroyida yozilgan, biroq yozuvchisi aniq bilinmagan Muyizz al-Ansab (Izzatli nasablar) asarida Takina Xotun barlos qabilasi bilan chegaradosh bo‘lgan Chig‘atoy ulusining Yasaur qabilasidan ekanligi yoziladi. Temurbek bilan yuzma-yuz so‘zlashgan Ibn Haldun (1400–01) Temurbek onasini afsonaviy „Avesto“ bahodiri Manuchehrning avlodidan ekanligini aytganini yozadi. Temurbekning siyosiy kitobyozar raqibi Ahmad ibn Arabshoh o‘z Ajoyib ul-maqdur fi navaib (fi axbor) at-Taymur.Temurdagi taqdirning ajoyibotlar) asarida uning Chingizxonning naslidan ekanligini yozadi.

Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo‘rqmas bahodir bo‘lib ulg‘ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o‘qimishsiz bo‘lganligi to‘g‘risida kunbotar ellari o‘rtasida yanglish qarash ular chindek o‘rnashib qolgan. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qobulshoh O‘g‘lonni Movarounnahrga xon qilib ko‘taradi. Ilyosxo‘ja yana Movarounnahrga yurish qiladi. 1365-yil 22-mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo‘yida Loy jangi bo‘lib o‘tadi. Temurbek bo‘linmasi qarshi tomon bo‘linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur bo‘ladi. 1366-yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmanni yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig‘ini 243 kishi bilan yengadi. radi. farzanlari (avlodlari) ko'p bo'lgan. Uning avlodlari orasida eng mashhurlari va tarixda muhim rol o'ynaganlar quyidagilardir: Timuriylar sulolasi – Amir Temurning farzanlari orasida eng taniqli sulola bu Timuriylar sulolasi bo'lib, u XIV-XV asrlarda katta ta'sirga ega bo'lgan. Ushbu sulolada Temurning o'g'illari va nabiralari mamlakatlarda hukmronlik qilgan.Ulug'bek – Amir Temurning nabirasi,

astronom va olim sifatida tanilgan. Ulug'bek Samarqandda ulkan observatoriya qurdi va ilm-fan sohasida katta yutuqlarga erishdi. Shahruh – Temurning o'g'li, Samarqandda hukmronlik qilgan va imperiyaning muhim qismlarini boshqargan. Husayn Bayqara – Uning boshqa farzanlari ham Turkiya, O'rta Osiyo va Hindiston hududlarida hukmronlik qilgan.

Temuriylar sulolasi 1500-yillarda ham, xususan, Bobur orqali Hindistonda Mughallar imperiyasining asosini qo'ydi.Shu tariqa, Amir Temurning farzanlari ko'p, ularning har biri o'z vaqtida o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan.Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404-yil 27-noyabrda 200 ming qo‘shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning O‘trorda vafoti (1405-yil 18-fevral) amalga oshmay qoldi. Ma’lumki, Amir Temur 1405-yil kuchli shamollash sababli olamda o‘tdi deyiladi. Lekin, Amir Temurni vafotini tezlashtirgan boshqa sabablar ham bor. Ibn Arabshohning yozishicha (1436-yil yozilgan) kuchli sovuq natijasida Temur ibrida (sovuqdan jismni zaiflashtiradigan kasallik) kasaliga chalinib, tabiblar uni dad etish maqsadida tayyorlagan tarkibida isitadigan moddalar, xushbo‘yliklar va rezavorliklar bo‘lgan xamr arag‘ini iste’mol qilgan. Amir Temurning vafoti haqidagi xabar garchi avvalda sir tutilsada, ammo ko‘p vaqt o‘tmay bu noxush xabar mamlakat bo‘ylab tarqalib ketadi. Amir Temurning jasadi Samarqandga olib kelinib dafn qilinadi (qarang Amir Temur maqbarasi).

Amir Temur, yoki Tamerlan, 1336-yil 9-aprelda Markaziy Osiyodagi Shahrisabz shahrida tug'ilgan. U tarixda o'zining ulkan qo'mondonlik mahorati, imperiyasining kengayishi va madaniy yuksalishi bilan mashhur.Amir Temur 1370-yillardan boshlab o'zining markaziy qismi Samarqand bo'lgan Temuriylar imperiyasini barpo etdi va bu imperiya Osiyo, Yevropa, Shimoliy Afrika va Hindistonga qadar kengaydi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY TIZIM FAOLIYATINI TASHKILIY ASOSLARI

Boltaxo‘jayeva Izzatoy O‘lmasxo‘ja qizi,
Andijon davlat texnika instituti talabasi
Shuhratbekova Shahodatxon Shokirjon qizi,
Andijon davlat texnika instituti talabasi

Temuriylar davlat boshqaruvi asoslari — o‘rta asrlar tarixida o‘zining kuchli harbiy va ma’muriy tizimi bilan ajralib turdi. Amir Temur boshqaruvining asosiy tamoyillari ierarxiya, qat’iyatlilik, adolat va strategik

fikrlash edi[136]. Ushbu tizim, ayniqsa, davlatni boshqarishda samarali boshqaruv tuzilmalari yaratishda va harbiy yurishlarda muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynagan. Temuriylar davrida davlat boshqaruvi, harbiy tizim va iqtisodiy boshqaruvning tashkil etilishi zamonaviy menejment tamoyillariga katta ta’sir ko‘rsatgan[137].

Temur davlat boshqaruvini quyidagi asosiy tamoyillar bilan tashkil etgan edi:

Ierarxiya va qat’iylik: Har bir lavozim va vazifa aniq belgilangan, boshqaruv tizimi o‘ta qat’iy va aniq edi.

Strategik qarorlar qabul qilish: Temur harbiy yurishlarni va davlat siyosatini ilgari prognozlab, uzoqni ko‘ra biladigan qarorlar qabul qilgan.

Resurslardan samarali foydalanish: Ishlab chiqarish va harbiy kuchlar bo‘yicha resurslarni optimal tarzda taqsimlash.

Adolat va tinchlikni saqlash: Temur o‘z davlatini boshqarishda adolat tamoyilini ustuvor tutgan va har bir insonning huquqlarini ta’minlashga harakat qilgan[138].

Hozirgi zamon va Temuriylar boshqaruvidan dolzarb jihatlar. Hozirgi zamon boshqaruv tizimlari, ayniqsa, korxona va davlat boshqaruvida, ko‘plab jihatlarda Temuriylar davrining boshqaruv tamoyillarini qabul qilishi mumkin. Buning uchun ba’zi asosiy jihatlarni ko‘rib chiqish kerak:

1. Strategik qarorlar qabul qilish va prognozlash: Bugungi kunda qaror qabul qilish jarayoni ko‘pincha tezkor va qisqa muddatli bo‘lib qoladi, lekin Temuriylar davrida har bir qaror uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishi hisobga olingan. Hozirgi kunda kompaniyalar va davlat idoralari uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish orqali faqat iqtisodiy o‘sishni emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashlari kerak.

2. Resurslarni samarali taqsimlash: Temuriylar davridagi boshqaruvning samaradorligi resurslarni optimal tarzda taqsimlashga asoslangan edi. Hozirgi zamon boshqaruvchilari, ayniqsa davlatlar va yirik korxonalar, resurslarni taqsimlashda ko‘proq nazorat qilish va ularni samarali boshqarishning ahamiyatini tushunishlari zarur. Bu ayniqsa iqtisodiy resurslar, kadrlar, vaqt va texnologiya bilan bog’liq.

3. Adolat va samarali boshqaruv: Temuriylar davrida adolatga katta ahamiyat berilgan. Hozirgi zamon menejmentida ham adolatli va shaffof boshqaruv tizimini yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu korxonalarda va davlat idoralarida ishchilar va fuqarolar o‘rtasida ishonchni oshirish, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi[139].

Hozirgi boshqaruvdagi muammolar:

[136] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
[137] Tojiboyev Sh. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixidan darslar. – Toshkent: Fan, 2019.
[138] Ahmedov B. A. Temur va temuriylar tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001.
[139] Manz B. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – Cambridge University Press, 2007

Boshqaruvda muvofiqlik va qarorlar qabul qilishda kechikish: Ko‘p hollarda qarorlar qabul qilish jarayoni juda sekinlashadi yoki mutlaq shaffoflik yo‘q. Temuriylar davrida esa qarorlar tezda va aniq qabul qilingan.

Resurslarning noto‘g’ri taqsimlanishi: Aksariyat hollarda resurslar, xususan inson resurslari, malakali boshqaruvchilar tomonidan samarali tarzda taqsimlanmaydi. Temuriylar davrida esa ierarxiya va resurslar aniq va optimallashtirilgan edi.

Shaffoflik va adolatsizlik: Hozirgi boshqaruv tizimida adolatni ta’minlashda muammolar mavjud. Korxonalarda va davlat idoralarida shaffoflik yetarlicha rivojlanmagan va bu ishonchni yo‘qotishiga olib keladi.

Temuriylar boshqaruv tizimidan olishimiz kerak bo‘lgan jihatlar:

Samarali boshqaruv tizimi yaratish: Har bir lavozimni aniq belgilash, mas’uliyatni taqsimlash va samarali boshqaruvni amalga oshirish. Strategik qarorlar qabul qilishda aniq yondashuv: Qarorlar qabul qilishda uzoqni ko‘ra olish va uzoq muddatli ta’sirni hisobga olish zarur. Temuriylar davrida bunday yondashuv aniq edi va hozirda ham shu tarzda qarorlar qabul qilish muhim[140].

Inson resurslarini boshqarish: Boshqaruvda xodimlarning malakasini oshirish, intizomni ta’minlash va sadoqatni rivojlantirish uchun adolatli va samarali tizimni yaratish zarur.

Temuriylar davrining davlat boshqaruvi va harbiy tizimining tashkiliy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillari nafaqat o‘z zamoni uchun ilg’or, balki bugungi zamonaviy menejment tizimlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Amir Temurning boshqaruv uslubi – adolatga tayanilgan qat’iy intizom, aniq ierarxik tuzilma, strategik fikrlash, harbiy va fuqarolik boshqaruvining uyg’unligi orqali yirik imperiyani samarali boshqarish imkonini bergan[141].

Temuriylar davrida resurslardan samarali foydalanish, vakolat va javobgarlikni aniq taqsimlash, tezkor va uzoqni ko‘zlagan qarorlar qabul qilish, inson salohiyatiga asoslangan yondashuvlar orqali boshqaruv samaradorligi ta’minlangan. Ammo shu bilan birga, merosxo‘rlik tizimidagi noaniqlik, ichki ziddiyatlar va mahalliy hokimlarning mustaqillikka intilishi kabi omillar davlat mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan[142].

1. Davlat va korxona boshqaruvida strategik yondashuvni kuchaytirish: Amir Temur har bir yurishni, siyosiy qarorni puxta rejalagan. Hozirgi korxona va davlat boshqaruvida ham strategik rejalashtirishni birinchi o‘ringa qo‘yish, qisqa muddatli emas, uzoq muddatli samaradorlikni maqsad qilish lozim.

2. Ierarxiya va vakolatlarni aniq belgilash: Temuriy boshqaruvda har bir mansab egasining vakolati aniq belgilangan edi. Hozirgi zamonda ham

[140] Fayzullaev A. Strategik menejment: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
[141] Nazarov Q., Rahimov Sh. Menejment asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
[142] Saidov A. X. Davlat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.

lavozimlar va mas'uliyatlar o'rtasidagi noaniqlik boshqaruvda uzilishlarga olib kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy korxonalarda lavozim yo'riqnomalarini yangilash, aniq chiziqli tizimlar yaratish zarur.

3. Adolat va shaffoflikni ustuvor tamoyilga aylantirish: Temurning asosiy prinsiplaridan biri adolat edi. Bugungi kunda korxona va davlat tashkilotlarida ham xodimlar va fuqarolar o'rtasida ishonchni shakllantirish uchun adolatli va shaffof tizimlar zarur.

4. Kadrlar siyosatini kuchaytirish: Temur eng sodiq, bilimli, fidoyi kishilarga yuqori lavozimlarni bergan. Hozirgi zamonda ham ishga qabul qilishda tanish-bilishlik emas, malaka va fidoyilik asosiy mezon bo'lishi lozim.

5. Resurslarni samarali va adolatli taqsimlash tizimini joriy etish: Davlat va korxonalar moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarini to'g'ri taqsimlash orqali barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin. Bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ochiq byudjet tizimlarini yo'lga qo'yish muhim.

6. Ichki nizolarning oldini olish uchun kuchli ichki nazorat tizimi yaratish: Temuriylar davlatining zaiflashuviga olib kelgan asosiy muammo – vorislar o'rtasidagi nizolar edi. Hozirgi tashkilotlarda ham rahbarlar o'rtasida "ichki raqobat" emas, hamkorlik va umumiy maqsad yo'lida harakat qilinishini ta'minlash kerak.

7. Harbiy tizimdagi tashkiliy modelni favqulodda vaziyatlar boshqaruviga moslashtirish: Temurning harbiy tizimi tezkor, qat'iy va intizomli edi. Bu model zamonaviy favqulodda holatlarda – pandemiya, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy inqirozlarda tezkor boshqaruv tizimi sifatida o'rganilishi va qo'llanilishi mumkin.

Temuriylar davridagi boshqaruv madaniyati nafaqat tarixiy boylik, balki hozirgi menejment uchun amaliy qo'llanma sifatida qayta talqin qilinishi kerak. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida ushbu tarixiy tajribani chuqur o'rganish va zamonaviy sharoitga moslashtirib joriy etish orqali yanada samarali boshqaruv tizimiga erishish mumkin.

III-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA E'TIBOR-IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI

SHARQ RENESSANSINING SHAKLLANISHIGA ZAMIN YARATGAN TEMURIYLAR

Abdullayeva Nilufar Maxamadjanovna,
Toshkent Perfect universiteti dotsenti., p.f.f.d.(PhD).

Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fan, madaniyat va san'atning yuksalishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu davrda ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilib, buyuk allomalar, olimlar va mutafakkirlarning ijod qilishlari uchun qulay sharoit yaratilgan. Temuriylar hukmronligi davrida astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix va adabiyot kabi fanlar rivoj topdi. Samarqand va Hirot kabi shaharlarda ilmiy markazlar, kutubxonalar va madrasalar barpo etildi, bu esa ilm-fanning gullab-yashnashiga zamin yaratdi. Ushbu davrda shakllangan ilmiy an'analar keyinchalik Ikkinchi Renessansning poydevorini tashkil qildi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan, madaniyat va san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan dono hukmdor edi. U o'zining kuchli siyosati va ma'rifatparvarligi bilan nafaqat Markaziy Osiyoni, balki butun Islom olami va hatto Yevropa tarixiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Temur ilm-fanni rivojlantirishga homiylik qilib, olimlar, adiblar va hunarmandlarni o'z saroyiga jalb qildi va ularga ijodiy faoliyat yuritishlari uchun sharoit yaratdi.

1. Ilm-fanga e'tibor va olimlarni qo'llab-quvvatlash. Amir Temur ilm-fanni taraqqiy ettirish orqali davlatni mustahkamlash mumkinligini yaxshi tushungan. U ilmiy bilimlarni qo'llab-quvvatlab, Samarqandni jahon ilm-fan markaziga aylantirishga intildi.

- Temur g'azalnavislar, tarixchilar, faylasuflar, tabiblar va muhandislarni o'z atrofiga to'plab, ularga ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun imkoniyat yaratgan.
- Uning davrida Samarqand va boshqa yirik shaharlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar tashkil qilindi, bu esa keyinchalik Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fanning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi.
- Amir Temur o'z yurishlari natijasida Hindiston, Eron, Arabiston va Ovro'po mamlakatlaridan ko'plab olim va hunarmandlarni o'z davlatiga jalb qilgan. Ularning bilim va tajribasi mahalliy ilmiy an'analar bilan qo'shilib, yangi ilmiy yutuqlarga yo'l ochgan.

2. Me'morchilik va shaharsozlikdagi hissasi. Amir Temur nafaqat ilm-fanni, balki me'morchilik va shaharsozlikni ham rivojlantirgan. U davlat hududidagi yirik shaharlarni obodonlashtirib, ularda beqiyos me'moriy yodgorliklar barpo ettirdi.

- U Samarqandni o'zining bosh shahri sifatida tanlab, uni dunyoning eng go'zal va taraqqiy etgan ilmiy va madaniy markaziga aylantirdi. Bu yerda Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi kabi ulkan me'moriy inshootlar qurildi.
- U tug'ilib o'sgan Shahrisabzni ham rivojlantirib, u yerda Oqsaroy saroyi va boshqa muhtasham binolarni qurdirgan.
- Temur davrida qurilish ishlari katta aniqlik va muhandislik yechimlari bilan olib borilgan. Ushbu inshootlar nafaqat me'moriy go'zalligi, balki mustahkamligi bilan ham ajralib turadi.

3. Harbiy strategiya va davlat boshqaruvidagi ilg'or yondashuvlar. Amir Temur davlat boshqaruvi va harbiy san'atni ilmiy asosda rivojlantirgan hukmdorlardan biri edi. Uning harbiy yurishlari strategik rejalashtirish va intellektual yondashuvga asoslangan bo'lib, keyinchalik dunyoning ko'plab harbiy mutaxassislari uchun o'rnak bo'ldi.

- Amir Temur urush san'atida ilmiy yondashuvdan foydalangan, jang maydonida raqiblarini oldindan tahlil qilib, eng samarali usullarni qo'llagan. Uning harbiy yurishlari isbotlaydiki, u faqat kuchga emas, balki bilim va tafakkurga ham tayanib ish ko'rgan.
- Amir Temur o'z davlatini boshqarishda "Temur tuzuklari" deb nomlangan qonunlar to'plamini yaratgan bo'lib, bu tizim keyinchalik boshqa davlatlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Tuzuklarda davlat boshqaruvi, harbiy intizom va ijtimoiy tartib-qoidalar aniq belgilangan.

4. Ikkinchi Renessans poydevorini yaratishi. Amir Temur ilm-fan, madaniyat va san'atni rivojlantirish orqali keyinchalik "Ikkinchi Renessans" deb atalgan intellektual yuksalish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Uning siyosati natijasida ilmiy va madaniy rivojlanishning yangi bosqichi yuzaga

kelib, bu jarayon Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk allomalarning paydo bo'lishiga imkon yaratdi.

• Ulug'bekning astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari aynan Temur tomonidan qo'yilgan ilmiy va madaniy an'analar asosida rivojlandi.

• Amir Temur yaratgan ilmiy-madaniy muhit keyinchalik Alisher Navoiy kabi ulkan shaxslarning ijod qilishiga turtki bo'ldi.

• Temur o'z imperiyasida ilm-fan va san'atni rivojlantirish orqali Sharq va G'arb madaniyati o'rtasida bog'liqlik yaratdi. Bu esa Yevropa Renessansining shakllanishiga ham bilvosita ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temur nafaqat qudratli imperiya barpo etgan buyuk sarkarda, balki ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning ilm-fanga bo'lgan e'tibori va davlatni ilmiy asosda boshqarishi keyinchalik Temuriylar davrida yuksak madaniy va ilmiy yutuqlarga yo'l ochdi. Aynan Temur asos solgan ilmiy-madaniy muhit keyinchalik "Ikkinchi Renessans"ning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda ham uning ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hissasi katta qadrlanib, Temuriylar merosi jahon tarixida muhim o'rin tutmoqda.

Amir Temur va Temuriylar ilm-fanga bergan e'tibor Sharq uyg'onish harakatining eng muhim bosqichlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.



Rasm 1. Sharq uyg'onish harakatining eng muhim bosqichlari

Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi. Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan va madaniyat homiysi ham bo'lgan. Uning hukmronligi davrida Samarqand ilm-fan va san'at markaziga aylandi. Temur olim va hunarmandlarni o'z davlatiga jalb qilib, ularga homiylik qilgan. Ayniqsa, astronomiya, tibbiyot, matematika, me'morchilik va adabiyot sohalari rivojlangan. U qurdirgan madrasalar,

kutubxonalar va ilmiy markazlar keyingi avlod olimlari uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi. Temuriylar davri Sharq va G’arb ilm-fani, madaniyati va san’atining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan yuksak uyg’onish davrlaridan biri bo‘ldi. Amir Temur va uning vorislari ilm-fan, adabiyot va san’atni qo‘llab-quvvatlab, yirik madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar barpo etdilar. Ayniqsa, Mirzo Ulug’bekning ilmiy yutuqlari, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk adiblarning ijodi bu davrni intellektual taraqqiyotning eng muhim bosqichiga aylantirdi. Temuriylar hukmronligi ostida shakllangan ilmiy va madaniy an’analar keyinchalik Yevropa va Islom olamida uyg’onish harakatlariga katta ta’sir ko‘rsatib, Renessansning shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu davrda yaratilgan bebaho ilmiy meros insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi va bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Amir Temurning vorislari, xususan, uning nabirasi Mirzo Ulug’bek ilm-fanning yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ulug’bek Samarqandda madrasa va rasadxona barpo etib, bu yerga eng yetuk olimlarni to‘plagan. Ulug’bek rasadxonasi dunyodagi eng yirik ilmiy markazlardan biri bo‘lib, unda qator muhim astronomik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Ulug’bek astronomik jadvali o‘zining aniqligi bilan butun dunyo olimlarini hayratga solgan. Bundan tashqari, Temuriylar davrida tarix, falsafa, geografiya, tibbiyot va san’at ham rivojlandi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk adiblar ijod qilib, o‘z asarlari bilan ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdilar. Navoiy o‘zining asarlari orqali til va adabiyot taraqqiyotiga katta e’tibor qaratib, ma’naviy uyg’onishning muhim yetakchilaridan biriga aylandi.

Temuriylar davri Ikkinchi Renessans poydevori sifatida. Temuriylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy an’analar keyinchalik Islom olamida va butun dunyoda uyg’onish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda yaratilgan ilmiy kashfiyotlar va madaniy meros Yevropa Renessansi hamda Sharq uyg’onish harakatlariga ta’sir ko‘rsatib, fan va madaniyat taraqqiyotining yangi bosqichiga yo‘l ochdi. Ilm-fanga berilgan katta e’tibor tufayli Temuriylar davri «Ikkinchi Renessans»ning muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Temur va Temuriylar asos solgan ilmiy maktab va an’analar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, bu davr merosi jahon madaniyati va ilm-fan taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Temuriylar hukmronligi davrida fanlar rivoji. Temuriylar davri ilm-fan va madaniyatning yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilgan davr bo‘lib, ushbu davrda turli fan sohalari jadal rivojlandi. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix, falsafa va adabiyot kabi sohalarda katta yutuqlarga erishildi. Temuriy hukmdorlar ilm-fan rivojiga katta e’tibor qaratib, olimlar va mutafakkirlarni

qo'llab-quvvatlaganlar. Bu esa o'z navbatida Ikkinchi Renessans deb nomlangan intellektual va madaniy yuksalishning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Astronomiya va matematika. Temuriylar davrida ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari katta rivoj topdi. Bu sohalarning eng yorqin namoyandasi buyuk olim Mirzo Ulug'bek bo'ldi. U 1428-yilda Samarqandda dunyoga mashhur rasadxona barpo etdi va eng ilg'or astronomik kuzatishlar o'tkazildi.

Mirzo Ulug'bekning yutuqlari:

✓ U tomonidan tuzilgan "Zijiy Ko'ragoniy" astronomik jadvali o'z davrining eng mukammal ilmiy asarlaridan biri bo'lib, unda 1018 ta yulduzning joylashuvi aniq ko'rsatilgan.

✓ Ulug'bek Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofani katta aniqlik bilan hisoblab chiqdi.

✓ U ekvator tekisligining ekliptikaga og'ish burchagini 23°30′1″ qilib aniqlagan bo'lib, bu natija zamonaviy hisob-kitoblarga juda yaqin.

Matematika sohasida ham katta yutuqlarga erishildi. Algebra, geometriya va trigonometriya fanlari rivojlanib, bu sohadagi ilmiy izlanishlar keyinchalik Yevropa va Islom olamida ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Tibbiyot. Temuriylar davrida tibbiyot fani ham rivojlandi. Bu davrda Ibn Sino (Avitsenna) merosiga katta e'tibor qaratilgan va uning tibbiyotga oid asarlari keng o'rganilgan. Shuningdek, tabiblar inson anatomiyasi, farmakologiya va kasalliklarni davolash usullari bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Samarqand va Hirot shaharlarida shifoxonalar tashkil etilib, ularda ilmiy tajribalar o'tkazilgan.

Tarix va falsafa. Temuriylar davrida tarix va falsafa sohalari ham katta rivojlandi. Buyuk tarixchilar va faylasuflar o'z asarlarida Temuriylar sulolasining siyosiy va ijtimoiy hayotini yoritib berganlar. Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida Amir Temur hayoti va uning harbiy yurishlarini mufassal bayon qilgan. Bu asar nafaqat o'sha davr tarixini yoritib bergan, balki keyingi avlod tarixchilari uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Falsafa sohasida ham muhim asarlar yaratilib, ilm-fan va tafakkur erkinligi targ'ib qilingan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar inson ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyotga oid asarlar yozib qoldirdilar.

Adabiyot va san'at. Adabiyot sohasida Alisher Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek tilining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. U o'zining "Xamsa" asari bilan Turk (o'zbek) tilida yuksak badiiy asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Abdurahmon Jomiy esa adabiyot bilan birga falsafa va tasavvufga oid asarlar yozdi.

San'at va me'morchilik sohasida ham muhim yutuqlarga erishildi. Samarqand, Hirot, Buxoro va Shahrisabz kabi shaharlar ulkan madaniy va ilmiy

markazlarga aylandi. Ko'plab madrasalar, masjidlar, maqbaralar va saroylar bunyod etilib, ular nafis naqshlar va yozuvlar bilan bezatildi.

Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning barcha sohalari rivojlandi. Ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix, falsafa va adabiyot bo'yicha katta yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlar keyinchalik butun dunyo ilm-fani rivojiga ta'sir ko'rsatib, Renessansning shakllanishiga zamin yaratdi. Temuriylarning ilm-fanga bo'lgan e'tibori bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ular qoldirgan boy ilmiy meros hamon insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ШАХМАТ ЎЙИНИНИ ТАРАҚҚИЁТИГА ЭЪТИБОР - ИККИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИ

Холиқов Умиджон Қўчқарович,
Гулистон давлат педагогика институти

Амир Темур даврида кучли шатранжчилар Самарқандда тўпланишган. Табризлик Али аш-Шатранжий (Оловиддин ат-Табризий) Самарқандда ўтказилган мусобақаларда ғолиб чиққан. Шатранж ҳақида китоб ёзиб, унга ўзининг ва XIV-асргача Туркистонда яшаган кўплаб ижодкорларнинг мансубаларини киритган. У соҳибқироннинг ўзи билан ҳам шатранж ўйнаб турган.

XIV асрнинг иккинчи ярмига келиб Амир Темур Туркистон тахтини эгаллайди. Ёш бўлишига қарамай, ўткир зеҳнли, довюрак, ватан, эл юрт учун жонини ҳам фидо этувчи мард, жасур, шижоатли шахс эди. У давлат бошқаришда ҳудди шахмат тахтасида ўз доналарини олдинга сураётган ва рақибига нисбатан хужум-юриш бошлаётган ўйинчини эслатар эди.

XIV-XVI асрларда Туркистонда маданият яна тараққий эта бошлайди. Қисқа вақт ичида Амир Темур даврида бир қатор таниқли ва истеъдодли шоирлар, ёзувчилар ва олимлар етишиб чиқади. Булар қатори шу даврда машҳур шатранж усталари ҳам пайдо бўла бошлагани диққатга сазовордир. XV асрнинг машҳур шатранж устаси Али Шатранжий бутун Амир Темур замонасида ном чиқарган. Тадқиқотчи Меррейнинг кўрсатишича, XV асрда битилган машҳур шатранж рисоласи Али Шатранжий қаламига мансубдир.

Соҳибқирон Амир Темур шатранж (шахмат)га шунчаки эрмак ёки вақтини хуш ўтказиш учунгина эмас, балки ҳозирги замон тили билан айтганда, тактик назарий билимларни мустаҳкамлаш воситаси сифатида ҳам қарагани манбаларда келтирилган. Саркарда шахмат ўйнашни зинҳор канда қилмаган, атрофидагиларни ҳам шунга ундаган, ўргатган. Темурийлар саройидаги бу анъана йиллар ўтиб унинг авлодлари ҳаётига

кўчган[143]. Аслида ҳам шахмат ўйинининг тараққий этишида Марказий Осиё халқлари муҳим ўрин тутган. Масалан, Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон", Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи Саъдайн ва мажмаи баҳрайн", Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис", "Лисон ут-тайр", Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома"си ва бошқа тарихий асарларда шахматга доир қимматли маълумотлар келтирилган. Амир Темур даврида эса кучли шатранжчилар рўйи замин сайқали — Самарқандда жамланган, бир-бирлари билан дона сурган. Темур ташкил этган мусобақаларда кўп бор ғолибликни қўлга киритган табризлик аш-Шатранжий (Оловиддин ат-Табризий) шатранж ҳақида китоб ёзиб, унда ўзи ҳамда XIV асргача Марказий Осиёда яшаган кўплаб олия (гроссмейстер)лар ҳақида маълумот берган. У ҳаттоки Соҳибқироннинг ўзи билан ҳам шатранж ўйнаб турган.

Францияда нашр этиладиган "Ле Фигаро" кундалик газетасида "Жаҳон тарихидаги буюк саркардалар. Бу мақола муаллифи — франциялик тарихшунос олим Арно Блин давлатчилик қурилиши, илм-фан, маърифат ва маданият тараққиётига улкан ҳисса қўшган буюк саркарда ва давлат арбоби тўғрисида диққатга сазовор фикрларни баён қилади. Жумладан, мақолада шахмат ўйинининг моҳир устаси бўлган Амир Темур ҳарбий юришлари чоғида, жанг жараёнини тўлақонли ва аниқ идрок эта олиш, мураккаб вазиятларда тўғри қарорлар қабул қилиш қобилиятига эга бўлгани айтилади. Дарҳақиқат, Амир Темур шахмат ўйинининг ишқибози бўлган, уни жуда қадрлаган. У муҳим масалаларни шахмат тахтаси атрофида ҳал этган.

Тарихий манбаларнинг шоҳидлик беришича, буюк саркарда ҳаддан зиёд банд бўлишига қарамай, доимо шахмат учун вақт ажрата олган. Мисол учун, давлат ишлари, оила ташвишлари билан банд бўлганида ҳам ёки олис мамлакатларга сафарлари, аёвсиз жанглар оралиғида ҳам шахмат билан ҳамнафас бўлган[144]. Чунки шахмат билан машғул бўлган вақтлари ўзида руҳий хотиржамлик ва ишончни ҳис қилган, қолаверса, бўлажак тактик юришлари режа ҳамда ғояси айни шу онларда туғилган экан. Манбаларда айтилишича, Соҳибқирон умрининг сўнгги кунларига қадар деярли ҳар куни шахматга вақт ажратган.

Шахматга меҳр унда ёшликдан бошланган. Даставвал "ақл чархи"нинг қонун-қоидаларини отасидан, кейинчалик устози шайх Шамсиддин Кулолдан қунт билан ўрганади. Темурнинг кучли хотираси унинг қисқа вақт ичида шахматнинг моҳир устаси бўлишида муҳим ўрин тутади. У усулларни, қайси рақиб билан қандай ўйнаш кераклиги ва

[143] Абулфатх Аҳмад. Рисолаи шатранж (форсча), Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти фонди, № 8141.
[144] Ибн Арабшох. Ажойиб ал мақдур фи аҳбори Таймур. (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). 2-китоб. – Т.: Меҳнат, 1992. 69-70 бетлар.

шахмат психологиясини кучли ўзлаштиради. Шамсиддин Кулол ёш шогирдига шахмат орқали узоқни кўра олиш, режали, мулоҳазакор ва тадбиркорлик билан иш юритиш, шахмат ўйини ва ҳақиқий ҳаёт ўртасидаги масофани ажрата олиш ва ўз навбатида, улардаги ўзаро ўхшаш жиҳатларни пайқашни ўргатади. Шу боис унинг тарихий ғалабаларида шахматнинг ўрни юқори, дейиш мумкин[145].

Соҳибқирон шахматда муҳим юриш олдидан одатига кўра, қуюқ соқолини ўйчан сийпаларди, бу одат унга керакли комбинацияни танлаш, бор имкониятларни чамалаш ва ҳисоблаб чиқишда ёрдам берган. Эътиборлиси, у ҳар доим қора доналарда ўйнаган. Сабаби у "қора"ларда ўзига хослик ва чуқур теранликни ҳис қилган. Маълумки, Амир Темур бирор душманга ҳужум қилиш олдидан ўша юрт ҳукмдори билан дипломатик муносабатлар ўрнатишга, зиддиятни тинчлик йўли билан ҳал қилишга уринган. Чунки шахматда ҳам ўйинни "қора"лар эмас, аксинча, "оқ"лар бошлайди.Оқ доналар ташаббус ва имтиёзга эга бўлади, "қора"лар эса уларнинг зарбасига қарши жавоб қайтаради. Темурни бу ҳолат қаноатлантирган. Шу боис у кўпинча оқ дона сурган рақибига ҳужум қилишига, мақсади ва ниятини очиқ-ойдин кўрсатишига имконият берган. Саркарда агарда қора доналар орқали мустаҳкам мудофаа йўлга қўйилса, "оқ"ларнинг ҳар қандай ҳужуми муваффақиятсизликка учрайди, деб ҳисоблаган[146].

Айрим муаррихларнинг ёзишича, ҳарб илми ва шатранжда тенгсиз Соҳибқирон Амир Темур одатдаги шахматнинг қонун-қоидаларини ислоҳ қилиб, мураккаб шахмат турини яратган ва унга "Шатранжи комил" ёки "Шатранж ал-кабир", деб ном берган. Бу ўйин Соҳибқирон ҳукмронлиги даврида Форсда, Ўрта Шарқда аҳоли орасида кенг тарқалган. Бу қанчалик ҳақиқатлиги маълум эмас. Бироқ ишончли манбаларда мазкур шахмат тури ҳозирга қадар Темур номи билан боғланади[147].

Аслида 1658 йили форс олими ҳожи Халифа илк бор Амир Темур шахмати, унинг қонун-қоидалари ҳақида ёзиб қолдиради. Аммо у ҳам мазкур маълумотларни бошқа бир муаллиф, яъни Соҳибқирон саройида яшаган машҳур шахмат устаси Али аш-Шатранжий номидан келтиради. Яна шунингдек, Амир Темурнинг шахматга қаттиқ меҳр қўйганини тарихчи Ибн Арабшоҳнинг асарларидан ҳам ўқиш мумкин. Европада эса Темур яратган мураккаб шахмат тури ҳақида биринчи марта 1860 йили англиялик тилшунос олим Дункан Форбс "Шахмат тарихи" китобида маълум қилади.

---

[145] Муҳиддинов М. Катакларда яширинган олам. -Т.: Ўзбекистон, 1976. 66 бет.
[146] Муҳиддинов М. Ўн тўққиз чемпион. –Т.: Юлдузча, 1998. 8-9 бетлар.
[147] Халаев М , Шахмат алифбоси –Т : Тафаккур -2015

Амир Темур ўзи яратган 112 катакли шахмат тахтасида мулозимлари билан дона суриб ўтирганида, чопарлар унга иккита қувончли хабар келтиришади. Биринчи хабар, у ўғил фарзанд кўргани, иккинчиси эса унинг амри билан Сайхун бўйида барпо қилдирилаётган шаҳар битгани ҳақида эди. Саркарда бу икки хушхабарни шахматда рақибига эндигина рух билан шоҳ берган пайти эшитгани учун ўғлига Шоҳрух, шаҳарга эса Шоҳрухия деб ном беради. Бу ҳақда Георгий Александрович ва Ефим Столярнинг шахмат тарихига оид ёзилган "Кўпқиррали Каисса" тўпламида ҳам айтиб ўтилган[148].

Хўш, буюк саркарда яратган шахмат ўйини замонавий шахматдан нимаси билан фарқланади? Аввало, "Темур шахмати" тахтаси бир хил рангда бўлиб, ўн қатор, ўн бир устун ва 112 катакдан иборат (замонавий шахмат эса 64 катак ва 8 устун ҳамда қаторга бўлинган). Эътиборлиси, шахмат доскасига иккита қўшимча катак ҳам қўшилган. Улардан бири чапдаги ўнинчи қаторда, иккинчиси эса ўнгдаги иккинчи қаторда. Бу қўшимча иккита катак ўйин давомида суянч "қўрғонча" вазифасини ўташи кўзда тутилган ва у мазкур шахмат турида жуда муҳим ўрин тутган. Бошқача қилиб айтганда, "қўрғонча" "шоҳ" учун бошпана ёки чекиниш йўли функциясини бажарган. "Шоҳ"дан ташқари, бошқа сипоҳлар "қўрғонча"га кириш ҳуқуқига эга бўлмаган. Аҳамиятлиси, ўйин давомида қайсидир шахматчи ўз "шоҳ"ини рақибнинг "қўрғонча"сига жойлаштирса, ўйин дуранг натижа билан якунига етган[149].

Маълумки, одатдаги шахматда "пиёда"ларнинг имконияти ҳам, юриш қоидалари ҳам бир хил. "Амир Темур шахмати"да эса "пиёда" сипоҳлар ҳам бир-биридан фарқ қилади. Масалан, "пиёда-шоҳ", "пиёда-вазир", "пиёда-қўмондон" каби, шунингдек, "пиёда-пиёда" сипоҳи ҳам мавжуд эди. Аммо мазкур шахмат тури қайсидир даврда изсиз йўқолиб кетган, бугун эса шахмат усталари ва мухлисларига унинг айрим қонун-қоидалари маълум, холос. Шахмат инсоният кашф этган энг кадимий, қизиқарли, жозибали ҳамда гўзал ўйиндир. Унинг асосий хусусияти шуки шахматда спорт ва санъат уйғунлашиб кетган. Шахмат қизиқарли ва мароқли ўйин. У билан шуғулланиш организмнинг умумий жисмоний ривожланишига, фикирлаш доирасининг ўсишига, ўсиб келаётган ёш авлод руҳиятига ижобий таъсир этади.

[148] Носир Муҳаммад "Шахмат мўжизаси" Т 2014-й 5-9 бет

[149] Қосимжонов Р. " Шахмат сехрли олам " – Тошкент : " Инфосом.уз", 2008 – йил

TEMURIYLAR SALTANATINING DONISHMAND VORISI

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti assistenti

Mirzo Ulug'bek temuriyzodalar orasida ilm-fan va madaniyat rivojiga eng ko'p va salmoqli hissa qo'sghan donishmand hukmdor hamda buyuk allomadir. Uning davrida Movorounnahrda ilm-fan va madaniyat shu darajada rivojlandiki, nafaqat hozirgi davrda balki XV asrning o'zidayoq dunyo ilm-fan ommasi tomonidan e'tirof etildi.

Ulug'bek Mirzo 1394-yilning 22-martida saltanat buyuk hukmdori Sohibqiron Amir Temurning ya'ni bobosining "besh yillik' harbiy yurishi davrida G'arbiy Erondagi Sultoniya shahrida ("Eron Ozorbayjon"i deb ham ataladi) dunyoga kelgan. Mirzo Ulug'bek Amir Temurning xudojo'y va din ilmiga befarq bo'lmagan o'g'li Shohruh Mirzoning to'ng'ich o'g'li edi. Onasi Shohruh Mirzoning birinchi xotini Gavharshodbegim edi.

Sharofiddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga qaraganda, Ulug'bek Mirzoning tug'ilish xabari yetib borganda, Sohibqiron Amir Temurning Madrin shahrini zabt qilgan paytiga to'g'ri kelgan. Amir Temur bu xushxabar evaziga shahar xalqiga omonlik berib, shahar xirojidan voz kechib, shahar hokimligini sobiq hokim amir Sulton Isoning ukasi amir Sulton Solihga in'om qilib qaytadi[150].

Ulug'bekning bolalik yillari buvisi Saroymulkxonim tarbiyasida o'tgan. 1405-1411-yillarda amir Shoh Malik yosh shahzodaning otabegi bo'lgan. Ulug'bekning uztozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo'lib, Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan sanalib, sayyoralarning kelajak 200 yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug'bekning o'zi keyinchalik asosiy asari bo'lmish "Zij"ida faqat Qozizoda Rumiyni "Uztozim" deb ataydi.

Mirzo Ulug'bek turkiy, arab, fors tillari bilan bir qatorda mo'g'ul va xitoy tillaridan ham xabari bo'lgan. Ulug'bekning hukmronlik yillarida uning ilm-fanga bo'lgan munosabati va homiyligi ostida temuriylar davrida Movorounnahrda uyg'onish davri bo'ldi. Dastlab Ulug'bek otasi Shohruh tomonidan Samarqandga hokim qilib tayinlanadi (hokimiyati Samarqand, Buxoro va Nasaf bilan cheklangan). 1412-yilda butun Movorounnahr va Turkistonda hokimiyat Ulug'bek qo'liga o'tadi va mamlakatni 40 yil idora qilgan.

Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqand gullab-yashnadi. Ulug'bek topshirig'i va homiyligida 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda, 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar bunyod etildi. Samarqandda hozirgi kunda ham dunyoga mashhur Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Marv shahrida xayriya muassasalari

[150]Fayziyev T. "Temuriylar shajarasi". Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti – "Xazina", 1995. 301-b.

qurildi. Shuningdek, Ulug‘bek karvonsaroy, tim, chorsu, hammom kabi talay jamoat binolari ham barpo ettirgan.

1424-1429-yillarda Samarqandda rasadxona bunyod ettirdi. Balandligi 31 metr bo‘lgan ushbu rasadxona olimlar nazarida o‘sha davrda islom olamida eng yirik rasadxona bo‘lgan deb aytiladi.

1-rasm. Samarqand shahridagi Ulug’bek rasadxonasining hozirgi ko‘rinishi.

Ulug’bek keyinchalik XV asrning eng buyuk olimi va astronomi deb tan olingan. Bu borada u amalga oshirgan eng buyuk ish „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ deb nomlangan astronomik jadval sanaladi. Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she’rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida uning she’rlaridan namunalar keltirilgan. Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan:

1) Astronomiyaga oid – „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“;
2) Matematikaga oid – „Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola“;
3) Yulduzlarga bag‘ishlangan –„Risolayi Ulug‘bek“;
4) Tarixga oid – „Tarixi arba’ ulus“ (To‘rt ulus tarixi).

Mirzo Ulug’bek ilmiy merosining eng asosiysi „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ bo‘lib, bu asar mustaqillik yillarida, ya’ni 1994-yilda Mirzo Ulug’bekning 600 yillik yubileyi munosabati bilan professor A.Axmedov tomonidan ilmiy izohlar, jadvallar bilan nashr etilgan[151].

Ulug’bek “Zij”i to‘rt kitobdan iborat bo‘lgan[152]. “Zij”ning birinchi kitobi yetti bobdan iborat bo‘lib, u eralar va kalendarlar masalasiga bag’ishlangan. Ikkinchi kitob yigirma ikki bobdan iborat bo‘lib, u matematika va sferik astranomiya masalalariga bag’ishlangan. Zij”ning uchinchi kitobi o‘n uch bobdan iborat bo‘lib, faqat astranomiya masalalariga bag’ishlangan. Asarning oxirgi – to‘rtinchi kitobi faqat ikki bobdan iborat bo‘lib, u asosan ilmi nujum(munajjimlik ilmi)ga bag’ishlangan.

430 sahifali “Ziji Ko‘ragoniy”ning atigi 5 foizi yulduzlar jadvalini tashkil etadi. Shuni aytish joizki, Samarqand rasadxonasi astronomlarining o‘z

[151] O‘.Sanaqulov, M. Hamdamova, Q. Mamaraimov, “Amir Temur saltanatining donishmand vorisi” (ilmiy-ommabop risola) – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti DUK, 2014. 6-b.
[152] Ahmedov A., “Ulug‘bek (hayoti va faoliyati), (1394-1449)” – Toshkent: “Fan”, 1991. 57-58-b.

oldilariga qo‘ygan asosiy vazifalari, ko‘pchilik o‘ylaganidek, yulduzlar katalogini tuzish bo‘lmay, balki Quyosh, Oy hamda sayyoralarni(jumladan, Utorud, Zuhro, Mirrix, Mushtariy va Zuhalni) sistemali kuzatish asosida, astronomiya-dagi asosiy doimiy kattaliklarni — ekliptikaning ekvatorga og’maligini, yillik protsessiyani, yulduz yilining uzunligi va shu kabi bir qancha boshqa astronomik kattaliklarning aniq qiymatlarini topish bo‘lgan[153].

XV asrda Samarqanddagi Mirzo Ulug’bek qurdirgan rasadxonada kattagina globus bo‘lgan. Unda iqlimlarning chegaralari, tog’lar, cho‘llar, dengizlar va daryolar ko‘rsatilgan. Binobarin, dunyodagi ikkinchi globusni Samarqand astronomlari yasashgan. Ulug’bekning o‘limidan keyin u mutaassiblar tomonidan yo‘qotilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ulug’bek Samarqandda balandligi 50 metrli quyosh soati yasagan. Ushbu noyob soat ham saqlanib qolmagan[154].

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Mirzo Ulug’bekning samarqandlik xattot Azizullo tomonidan nasx xatida taxminan 1439-yilda, Ulug’bek 45 yoshda bo‘lganida ko‘chirilgan “Ziji Ko‘ragoniy”si saqlanmoqda. Qo‘lyozma sahifalarida Ulug’bekning tuzatishlari ham bor. Ushbu tuzatishlar uning dastxati, yozuvi haqida ma’lumot beradi[155].

Mirzo Ulug'bek misli ko‘rilmagan aniqlik bilan yulduzli yilning uzunligini 365 kun, 6 soat, 10 daqiqa, 8 soniya ekanligini hisoblay oldi, bunda xatolik bir daqiqadan kam vaqtni tashkil etdi. Shuningdek, u Yer o‘qining og’ishini aniqladi. Ulug’bekning hayoti davomida ilmiy ishlari butun dunyoga ma’lum bo‘lgan. U haqida Xitoyda yozishgan va gapirishgan, Ulug’bekning astronomik hisob-kitoblaridan foydalanishgan. Oradan 200 yil o'tib, ingliz olimlari Ulug’bekning kashfiyotlari bilan shug’ullanishdi. Uning ilmiy asarlari lotin tiliga tarjima qilindi[156].

Mirzo Ulug’bek vafotidan keyin rasadxona yana 20 yil ishladi, ammo tez orada yopildi va bino asta-sekin qulab tushdi. Rasadxona 1908-yilda ochildi. Arxeolog Vyatkin mavjud hujjatlardan foydalanib, Samarqanddagi Ulug’bek rasadxonasini topdi[157].

Mirzo Ulug’bek hukmronligining so‘nggi yillari ancha qiyin kechdi, 1447-yilda otasi Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo vafot etdi va toj-u tax tuchun yana kurash boshlanib ketdi. Nizo shu darajaga borib yetganki, Mirzo Ulug’bekning o‘z o‘g’li Abdullatif Mirzo otasiga qarshi isyon ko‘tarib uni Samarqand taxtidan tushiradi. Bu haqda manbalarda quyidagicha yoziladi: “Abdullatif Mirzo tantanali ravishda Samarqandga kirib keladi. Taxtga o‘tirgach

[153] Mamadazimov M. “Mirzo Ulug‘bek va ilmiy merosi” “Fan va turmush” jurnali, 1989-yil 6-son.
[154] nuu.uz/mirzo-ulugbek-haqida-siz-bilmagan-12-muhim-malumot/
[155] nuu.uz/mirzo-ulugbek-haqida-siz-bilmagan-12-muhim-malumot/
[156] uzbekistan.travel/uz/o/yulduzlar-va-sayyoralarni-izlovchi-mirzo-ulugbek/
[157] uzbekistan.travel/uz/o/yulduzlar-va-sayyoralarni-izlovchi-mirzo-ulugbek/

otasi Ulug'bek Mirzoni Ka'batullo ziyoratiga jo'natish niqobi ostida qatl qilinishiga rozilik bildiradi. Nihoyat, buyuk alloma Ulug'bek Mirzo 1449-yil 25-oktyabrda qatl qilinadi. Abdullatif Mirzo otasining qatlidan ikki kun o'tgach, ukasi Abdulaziz Mirzoni ham qatl qildirgan[158].

2-rasm. Rus olimi V. L. Vyatkin Ulug'bek rasadxonasi arxeologik qazish ishlari jarayonida

Mirzo Ulug'bek hayotini, ilmiy faoliyati o'rganish jarayonida murakkab davrda alloma tomonidan amalga oshirilgan ilm-fan yutuqlarini, yangiliklarni, yaratilgan asarlarning ahamiyati nihoyatda muhimligini xulosa o'rnida alohida etirof etishimiz kerak. Mirzo Ulug'bek ilmiy me'rosi va faoliyati har doim jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lib, muhum ahamiyat bkasb etib kelmoqda.

SOHIBQIRON AMIR TEMURGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR TARIXIDAN

Gulyamov Dostonbek Umid o'g'li,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Vatanimiz va jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temur faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ko'z oldimizda ilm-fan va din homiysi, buyuk sarkarda hamda hozirgi kunda ham barchamizga namuna bo'ladigan adolatli hukmdor shakllanadi. Bunday buyuk siymoning

[158] T. Fayziyev, "Temuriylar shajarasi" - Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti – "Xazina", 1995. 319-b.

shakllanishida o‘zlarining hikmatli nasihatlari bilan yo‘l-yo‘ruq ko‘rsatgan hamda uni qo‘llab turgan pirlarining o‘rni beqiyos. Amir Temurning yoshlikdanoq mashhur din ulamolari va shayxlarga e’tiqodlari baland bo‘lib, buni padari buzrukvori Amir Tarag‘aydan o‘rgangan edi.Sohibqironning bir necha pirlari bo‘lgan, ularni quyida ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga ruhoniyatli pirlar, ya’ni Sohibqiron tug‘ilgunga qadar yashab o‘tishgan tabarruk zotlar Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi Xoja Ahmad Yassaviy, Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Nuriddin Basir (Qutbi Chahordahum). Shayx Burhoniddin Sog‘arjiy va Shayx Safiuddin Yoqub Ardabiliylardir. Sohibqironning mazkur zotlar ruhlariga ehtiromlar ko‘rgizib, har biriga alohida maqbaralar tiklaganliklari, avlodlarini e’zozlab kelganliklari o‘ziga pir tutganining isboti bo‘la oladi.[159] Xususan Xoja Ahmad Yassaviyning “Hikmat” nomli chuqur mazmunli devoni Sohibqiron sevib o‘qiydigan asarlardan biri edi. Amir Temur Turkistonga borib, Ahmad Yassaviy hazratlarining qabrlarini ziyorat etar, duoi xayrlar qilar edi.[160]

Fotih Duman o‘zining “Pir” asarida keltirishicha: “… Nihoyat, Amir Temur Buxoro safarini boshlashga qaror qildi. Yo‘lda kelayotib, Turkistonga ham kirib o‘tdi. Turkistonlik Ahmad Yassaviy Amir Temurning tushiga kirib, «Ey yigit, tezda Buxoroga safar qil, inshaalloh, u erdagi sultonning o‘limi sening qo‘lingda. Buxoro ahli seni kutmoqda. Hali boshingdan ko‘p ishlar o‘tsa kerak!» degan edi. Amir Temur uyg‘onib, Allohga hamdlar aytdi. Ertasi kuni Turkiston hokimi Nog‘aybek Xonni chaqirtirib, Xoja Ahmad Yassaviy qabrining ustiga maqbara qurish uchun xazinadan mablag ajratdi. Turkiston hokimi ulkan, mahobatli maqbara majmuini qurdirdi. Bu hashamatli bino hali hanuz o‘zining jozibadorligi, muhtashamligi bilan ajralib turadi.

Rivoyat qilinishicha, Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurila boshlagach, poydevor har gal yiqilaveradi. So‘ng Xoja Ahmad Yassaviyni tushida ko‘rgan bir darveshning ishorasi bilan avval O‘tror shahrida dafn qilingan Arslonbob maqbarasi quriladi. Shundan keyingina Ahmad Yassaviy maqbarasini qurishga muvaffaq bo‘ladilar”[161]. Bu maqbaraning qurilishi 1397-yili boshlanib, orada to‘xtab-to‘xtab, Amir Temurning vafotiga qadar davom etgan. Katta bir gumbaz, ikki minora va juda ko‘p xonalar, hujralar va qubbalardan iborat bu imorat orqali Sohibqiron buyuk avliyo Xoja Ahmad Yassaviy hazratlariga muhabbati, hurmat-ehtiromi naqadar yuksak ekanini ifoda etgan.[162]

Temur Shomni egallagan paytida hazrati Payg‘ambarimiz alayhissalomning zavjalari Ummu Salama va Ummu Habiba onalarimiz roziyalloxu anhumoning qabrlari ustiga maqbara bunyod ettirgan. U borgan

[159] Muhammad Ali “ Amir Temir solnomasi” Toshkent 2008. 15-bet.
[160] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 341-342-betlar.
[161] Fotih Duman “Pir” Toshkent 2023. 13-bet.
[162] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 350-351-betlar.

barcha shahar va o‘lkalarida payg‘ambarlarning, sahobalarning, mashxur olimlarning qabrlarini, jumladan, Idris alayhissalom, Jirjis alayhissalom, Nuh alayhissalom, Sufyon Sarviy, hazrati Husayn, Hakim Termiziy, Imomi A’zam, Abu Muslim Marvaziy, Boyazid Bistomiy, shayx Baxlul dono, shayx Ibrohim Yahyo kabi muborak zotlarning qabrlarini ziyorat etib, duolar qilardi.[163] Shuningdek Amir Temur o‘zining tuzuklarida quyidagicha so‘zlaydi: “Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag‘ ajratsinlar. U yerlarni gilam, taom va chiroq bilan ta’minlasinlar. Birinchi navbatda amir ul-mo‘minin, mard kishilar shohi Ali ibn Abu Tolibning — unga Allohning karami va ehsoni bo‘lsin — muqaddas qabrlarini yaxshi saqlash uchun Najaf bilan Xullani vaqf etib bersinlar. Imom Husaynning — Alloh undan rozi bo‘lsin nurga cho‘mgan muqaddas mozori, avliyolar ulug‘i shayx Abdulqodir Jiloniyning[164] muqaddas qabri (ravzasi), imomi A’zam Abu Hanifaning[165] unga Allohning rahmati bo‘lsin maqbarasini va Bag‘dodda nurga cho‘mgan boshqa mashoyixlar, din peshvolari va akobirlaridan har birining mozorlarini yaxshi saqlash uchun baholi qudrat Karbalo, Bag‘dod va ularning atrofidagi qishloqlar va boshqa yerlar vaqfidan mablag‘ ajratsinlar. Imom Muso Kozim[166], imom Muhammad Taqi[167], Salmon Forsiylarning[168] munavvar ravzalari uchun esa Jazoir ekin maydonlaridan va Madoin’ daromadidan vaqf belgilasinlar. Imom Ali ibn Musoning[169] tabarruk mozori uchun Kutahbast va Tus shahri atrofidagi yerlardan vaqf ajratsinlar va gilam, chiroq hamda kundalik yemak-ichmagini belgilasinlar. Shuningdek, Eron va Turondagi shayxlarning mozorlari va qabr-lari uchun har biriga alohida nomma-nom nazr-u vaqflar ajratsinlar.”[170] Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin-ki Temurning Payg‘ambarlar, sahobalar, ulamolar, avliyolar ruhiga xurmati cheksiz bo‘lgan.

Ikkinchi toifa ya’ni, Sohibqironning zamondoshlariga keladigan bo‘lsak, ulug‘ Amir bevosita e’tiqod etgan irodat yo‘lini bergan pirlar Shayx Shamsiddin

---

[163] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 342-bet.

[164] Abduqodir Jiloniy (1077-1166) fors ilohiyotchisi, mutasavvif. Uning xanbaliya mazhabiga oid va’zlari shuhrat qozonadi. Keyinchalik U Qur’on tafsirchisi va muftiy sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Xalq ommasi uni mo‘jiza ko‘rsatishga qodir bo‘lgan aziz avliyo va bechoralarning homiysi deb, ulug‘lar edi. Unga G‘avsul A’zam (ulug‘ himoyachi) va piri dastgir (madadkor pir) laqablarini berishgan

[165] Imomi A’zam — Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit al-Ko‘fiy (699-Bag‘dod) — hanafiylik mazhabi asoschisi. Xalifa Mansur tomonidan qamalgan va zindonda kaltakdan o‘lgan. Asarlari: «Kitob as-salot» («Namoz ahkomlari kitobi»), «Kitob almanosik» («Haj kitobi»), «Kitob ash-shurut» («Shartnomalar haqida kitob»), «Kitob alfaroiz» («Meros ilmi haqida kitob»), «Kitob al-olim val-mutaallim» («Ustoz va shogird haqida kitob»), «Kitob al-fiqx al-akbar» («Katta fiqh kitobi»), «Kitobi al-vasiya» («Vasiyatnoma kitobi»), «Adab al-kadi» («Qozining odobi»), «Annafaqot» («Nafaqalar»), «Faroiz» («Meros ilmi»).

[166] Imom Muso Kozim — shiyalarning yettinchi imomi (799-yilda vafot etgan).

[167] Imom Muhammad Taqi — shiiylarning to‘qqizinchi imomi (835-yilda vafot etgan).

[168] Salmon Forsiy-Muhammad payg‘ambarning eronlik sahobasi (655-yilda vafot etgan). Madoin — Bag‘doddan 26 chaqirim janubi-sharqda joylashgan shahar.

[169] Imom Ali ibn Muso sakkizinchi imom (821-yilda vafot etgan).

[170] Amir Temur “Temur tuzuklari” Toshkent 2020. 127-128-betlar.

Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy, Mir Sayyid Baraka hamda Sayyid Amir Kulol hazratlari hisoblanadi.

Uzoq yillar davomida ko‘pchilik Sayyid Amir Kulol bilan Shamsiddin Kulolni bir odam deb hisoblab kelgan. Vasiliy Bartold, Vadim Masson, Galina Pugachenkova kabi bir qator mashhur temurshunos tarixchilar ham ayni shunday xato tushunchada bo‘lishgan.[171]

Sayyid Amir Kulol (1284-1370-yil 28-noyabr) Buxoroning Suxoriy degan qishlog‘ida tavallud topgan, butun umrini shu joyda va Buxoroning boshqa ba’zi qishloqlarida o‘tkazgan. Payg‘ambarimiz alayhissalomning avlodlaridan bo‘lgani uchun Amir, kulolchilik bilan shug‘ullangani uchun Kulol laqablari bilan tanilgan. 12 Xojagon (naqshbandiya) tariqati silsilasidagi buyuk shayxlar Muhammad Bobo Samosiyning shogirdi, Bahouddin Naqshbandning ustozi bo‘lgan.[172]

Amir Temur bilan Amir Sayyid Kulol uchrashuvini tarixchi olim Hamdam Sodiqov quyidagicha ta’riflaydi:

“Butun o‘lkaga dong‘i ketgan shayx Amir Sayyid Kulol sodiq muridi Muhammad Tarag‘oyning o‘g‘lini ochiq chehra bilan qarshiladi. Yonida davra qurib o‘tirgan muridlariga uni tanishtirdi.

- Bu yigit hofizi Qur’on. Men uning peshonasida ulug‘vorlik ko‘ramen. U shunday maqomga yetgayki, bundan ilgari hech kishiga muyassar bo‘lmagan bo‘lg‘ay. Men kabi keksa odamga bu yigit shon-shuhrat va dovrug‘ini ko‘rishlik imkoni bo‘lmasa ham ahli majlisdan tirik qolgonlari Temurbek nomli yigitning olamgirligini ko‘rgan va eshitganlar bo‘lg‘ay.

Muridlar hayrat va havas bilan unga qarashdi.

Amir Sayyid Kulol tokchadan yetti kulchani olib Temurbekka uzatdi.

- Keshga borganingda ularning har biridan biroz yeb, qolganini saqlab qo‘ygil. Kelajakda dunyoning yetti iqlimi seniki bo‘lg‘ay.

Omin, Allohu akbar!”[173] Bu yeti kulcha – yeti iqlim, uning ustidagi talqon – unib o‘sayotgan avlod, mayizlar esa davlat va toj-u taxt belgisi edi.

Temur tuzuklarida Sohibqiron pirida duo olib quchgan zafari haqida shunday deydi:

“…Otlanib, Amir Kulolning huzurlariga bordim. Ular menga Xorazmga borishimni maslahat berdilar. Agar o‘zbeklar ustidan g‘alaba qozonsam, Samarqandning bir yillik xirojini ularga nazr qilishga qaror qildim. Ular menga zafar tilab fotiha o‘qigach, ketishimga ruxsat berdilar. Sayyid Amir Kulolning xizmatlaridan chiqqanimda, hammasi bo‘lib oltmish otliq menga hamrohlik qilardi. Ilyosxo‘ja mening Xorazmga yurish qilayotganimdan xabar topib, Xiva hokimi To‘kal bahodirga xat yozib, menga qarshi chiqishni va meni o‘ldirishni

[171] “Temuriylar davrida din va davlat aloqasi”,97-98-b; Mavlono SHahobiddin, “Ogahiyu Sayyid Amir Kulol”, Karachi, 1381/1967y.28-29-b; Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 333-bet.
[172] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 331-bet.
[173] Hamdam Sodiqov “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati” Toshkent.2024. 17-bet.

buyurgan ekan. To‘kal bahodir ming otliq askar olib, mening ustimga keldi. Oltmish otliq yigitim va yo‘lda menga qo‘shilgan qaynog‘am Amir Husayn bilan birga ming otliq kishilik g‘anim lashkariga ro‘baro‘ bo‘ldim va jangga kirishdim. Bu jangda shundayin bahodirlik qilib, chidamlik ko‘rsatdimki, uning ming kishisidan ellik kishi qoldi, mening oltmish otliq yigitimdan o‘n kishigana qoldi. Shunday bo‘lsa-da, zafar men tomonda bo‘lib, ularni qochirdim.”[174]

Shayx Shamsiddin Kulol hazratlariga kelsak — Xoja Shamsiddin Kulol XIV asrning boshlarida Qashqadaryo vohasida tug‘ilgan, bolaligidan tariqat yo‘lini tutgan. Sayyid Amir Kulol hazratlari kabi kulolchilik bilan shug‘ullanganligi uchun Kulol degan laqabni olgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, shayx Shamsiddin Kulol ham, Bahouddin Naqshband ham Sayyid Amir Kulol hazratlarining shogirdlari bo‘lishgan, birgalikda hajga borishgan, bir-birlariga ilm o‘rgatishgan.

Xoja Shamsiddin Kulolning Amir Temur hayotidagi qiymati shundaki, bu zot Sohibqironning otasi Muhammad Tarag‘ayga ham ustozlik qilgan, yetti yoshidan boshlab Qur’oni karimni, diniy ilmlarni o‘rgatgan ilk ustozi edi. Temur tug‘ilganda uning ismini ham shu zot qo‘yib, duolar qilgan. Sohibqironning bolalik chog‘lari asosan shu zotning yonlarida kechgan. Temur bu shayxiga juda qattiq ko‘ngil qo‘ygan bo‘lib, tez-tez ziyoratiga borib turar, uni o‘z otasidek ko‘rar edi.

Shayx Shamsiddin Kulol 1363-yili vafot qildi. Amir Temur uni Shaxrisabzga, otasi Muhammad Tarag‘ay Bahodirning yoniga dafn ettirdi. Temur safarlardan qaytganida farzandlari bilan birga Shahrisabzga borib, otasini hamda Shamsiddin Kulol hazratlarining maqbaralarini ziyorat qilar edi.[175]

Amir Temur hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan pirlaridan yana biri – Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy Temur saltanatining adolatli bo‘lishiga eng asosiy hissa qo‘shgan olimdir. Ulug‘ shayxulislom asli Hirotning Toybod qishlog‘idan. Muarrix Fasih Havofiyning (XV asr) «Mujmali Fasihiy» asarida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, Amir Temur u bilan birinchi marta 1381-yili Harirud vodiysida uchrashgan.[176] Amir Temur ustozi Tayobodiy bilan bo‘lgan uchrashuvlardan biri haqida aytib berar ekan, Hofizi Abro‘ga: «Davlat boshqaruvida turgan vaqtimdan buyon zohidlar va diniy olimlar bilan ko‘rishganimda qarshimda turganlarning qandaydir qo‘rquv va xavotirlarini kuzatardim. Ammo bu safar qo‘rqib turgan odam o‘zim bo‘ldim. Chunki Tayobodiy chindan ham qo‘rqmas kishi edi, dunyoda biror odamdan cho‘chib turmas edi», deya shayxi oldida his qilgan qo‘rquvini, unga nisbatan katta

[174] “Temur Tuzuklari”.Toshkent.2020. 24-25-bet.
[175] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 330-bet.
[176] “Temur Tuzuklari”.Toshkent.2020. 14-bet.

hurmat-e'tiborini e'tirof etgan.[177] Hazrat Tayobodiy hamda Temur o'rtasidagi suhbatlardan biri quyidagicha bo'lgan edi.

…Umrimning oxirigacha pirim bo'ling. Taxtda bo'lamanmi yo zindonda, boshimga nima tushsa ham doimo marhamatingizni mendan darig' tutmang.

Shayx Temurbekka tikilib ohista javob qildi:

- Adolatli bo'l, o'g'lim. Zotan faqat adolatgina ulug' maqsadga narvon bo'lg'ay. Adolat yo'lidan toymay borgan har bir kishi payg'ambar noibi ham bo'lishi mumkin.

Shayx Zayniddin alohida iltifot belgisi sifatida o'z belbog'ini unga bog'lab, boshidagi taqyasini ham kiygizdi. Keyin qo'lidagi uzugini unga uzatdi. Bu uzukda "Rosti-rusti", ya'ni "Haqiqat adolatda" degan so'zlar o'yilgan edi. Oradan ancha yillar o'tgach, ana shu uzukdagi so'zlarga Temurbek nomi va uch doira qo'shiladi. Bu muhr o'yilgan paysalar oldida dongdor va qudratli hukmdorlar ham bo'yin egadi.[178]

Amir Temur tuzuklarida shayx Tayobodiy tomonidan yuborilgan bir qancha maktublar o'rin olgan. O'shalar orasidan quyidagi maktub Amur Temur davlatchiligining tamal toshlarini ifoda etib turadi:

"Ey Abulmansur[179] Temur! Saltanat ishlarida to'rt narsa-ga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qatiy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanat boshqarishda mashvarat-u maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurgizgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka, ko'rib-ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng shuni ta'kidlash lozim-ki, qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'lig-u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur. Vassalom".[180]

Shayx Abu Bakr Tayobodiy hazratlari o'z zamonasining mashhur, xurmatli kishisi edi. Faqatgina Amir Temur emas, balki o'sha davrning eng buyuk olimlari, tariqat shayxlari ham uning suhbatida bo'lishdan katta zavqu-shavq olar edilar. Alisher Navoiy «Nasoyimul-muhabbat» asarida «Xoja Bahouddin Naqshbandiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ubaydulloh Axror kabi avliyo

[177] "Temuriylar davrida din bilan davlatning aloqasi",103-bet. Ahmad SHimshirgil "Amir Temur" Toshkent 2023. 337-bet.
[178] Hamdam Sodiqov "Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati" Toshkent.2024. 18-19-bet.
[179] Abulmansur (arabcha; zafar, g'alaba qozonuvchi) – Amit Temurning ulug'langan unvonlaridan biri.
[180] "Temur Tuzuklari".Toshkent.2020. 14-bet.

bobolarimiz shayx Abu Bakr Tayobodiy bilan tez-tez suhbatlashib turishardi», deb yozadi.[181]Shayx Abu Bakr Tayobodiy 1389-yil 28-yanvarda vafot etgan.

Sohibqiron hayotida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘lardan yana biri shubhasiz Mir Sayyid Barakadir. Amir Temur piri Sayyid Baraka bilan ilk bor 1370-yili uchrashadi. Temur Amir Husayn bilan orasi buzilganidan keyin Kesh shahridan Balx tomonga qarab ketar ekan, Termiz shahri yaqinlarida kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatadigan piri, buyuk avliyo Sayyid Barakaga duch kelib qoladi. Makkai Mukarramadan kelgan Sayyid Baraka avvalroq Amir Husayn bilan uchrashib, undan Makka va Madina vaqfiga yordam so‘ragan, Amir Husayn yordam bermaygina qolmay, Sayyid Barakaning xurmatiga yarasha muomala ham qilmagan edi. Ko‘ngli ranjigan shayx Termiz yaqinida Amir Temurga duch kelib qoladi. Amir Temurning go‘zal munosabati, muomalasi va ko‘rsatgan izzati tufayli Sayyid Baraka Allohdan payg‘ambarlar va xalifalarni vasila qilib, Amir Temurga yordam so‘rab duo qiladi, unga saltanat nishonasi bo‘lgan dovul va bayroq sovg‘a etib, sohibqironlik xushxabarini beradi. Amir Temur uning duosi va yaxshi tilaklarini xush ko‘rib, Haramayn (Makka va Madina) vaqfi uchun katta miqdorda pul berishni amr qiladi.

Manbalarga ko‘ra, Mir Sayyid Baraka 1403-yili olamdan o‘tgan. Abu Tohir Xoja Samarqandiy «Samariya» asarida shunday yozadi: «Mir Sayyid Barakaning qabri Samarqand shaxrida, Amir Temur Ko‘ragon maqbarasining ichidadir», Sayyid Baraka Mozandaronda vafot etganda Amir Temur uning muborak jasadini Samarqandga olib kelib, o‘zi uchun tayyorlatib qo‘ygan maqbaraga dafn qildiradi, o‘zi shayxning oyoq tarafiga dafn qilinishiga ishora qiladi. Darhaqiqat, Sohibqiron bu foniy dunyoni tark etganidan keyin ana shu joyga dafn qilindi.[182]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sohibqiron hayotini yurishlari va zafarlarini tahlil qilar ekanmiz, erishilgan zafarlar hamda xalq orasidagi hurmat ehtiromni qozonilishining tag zamirida Avvalo Alloh taoloning bergan nusrati hamda sohibqironning ulamolarga xosiyatan o‘zining pirlariga ko‘rsatgan hurmat ehtiromi yotibti desak xato bo‘lmaydi.

Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur shunday degan: «Qanchadan-qancha mamlakatlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsam, qancha o‘lkalarni fath etgan bo‘lsam, barchasi shayx Shamsiddin Kulolning vositasi bilan, Amir Kulolning yordami va shayx Zayniddin Abu Bakrning homiyligi tufaylidir. Sayyid Barakaning yordami tegmasdan birorta g‘alabaga erishmaganman»[183]. Bundan ko‘rinib turibdiki Amir Temur bir umr olimu ulamolarga, ustozlariga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, ularning ma’naviy dastaklari natijasida ulkan saltanat kurishga muvaffaq bo‘ldi. Soxibqironning takrorlanmas harbiy taktikasining,

[181] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 338-339-bet.
[182] Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 340-341-bet
[183] “Ajoyibul-maqdur”, 39-bet; Ahmad SHimshirgil “Amir Temur” Toshkent 2023. 340-bet.

o'ziga xos davlat idorasining tamal toshi esa shayxlarining ilohiy shuurlari ila qo'yilganiga aslo shubha yo'q.

ЛУЧЕЗАРНАЯ ЗВЕЗДА В "ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТЮРК" МАХМЫТА КАШГАРЛЫ

С.Х.Азизов,
Ўзбекистан ФА Темурийлар тарихи давлат музейи илмий ходими (Ўзбекистон)

Древнетюркский письменный памятник XI столетия «Диван лугат ат-тюрк» Махмыта Кашгарлы представляет собой словарь тюркского языка и содержит поэтические отрывки из тюркоязычных понятие, как бесконечная Вселенная, вращение небесного свода, зеленое и семислойное небо, звездные скопления и созвездия, зодиак, верхняя Земля и ось Земли. Приведены древнетюркские названия астрономических понятий о небесных телах и процессах. Однако астрономические наследие ученого до сих пор не служили предметом исследования. В «Диван лугат ат-тюрк» космические сведения даны в разрозненном виде и их можно сгруппировать по тематике на модели мироздания, небесные тела и не високосные календари. В эпоху средневековья в Центральной Азии существовали различные модели мироздания. Махмыт Кашгарлы описал некоторые из них. В частности, сохранилось его частичное суждение о возможности вращения Земли вокруг своей оси.

В одном из четверостиший древнетюркского литературного памятника XI в. н.э. «Диван лугат ат-турк» Махмуда аль-Кашгари описывается астрономическое событие, о гелиакическом восходе яркой звезды весной (первая видимость светила после периода его невидимости), идентифицируемой с Тиштрией в Авесте, Сотисом в Древнем Египте и Сириусом в Древней Греции, что зафиксировано как астрономическое явление в Центральной Азии в V тысячелетии до нашей эры., то есть за две тысячи лет ранее, чем в Древнем Египте и Греции. Этот стих на древнетюркском языке звучит так: «Яй барубан эркузи, Акти акин мундузи, Тугди яруг юлдузи, Тингла созим кулгусиз»[184]. Его перевод на русский язык: «Улыбнулся весенний лик, Растаяв, льды потекли бурным потоком.

Взошла яркая звезда. Внимай мои слова без смеха». В четверостишии события построены логично: с наступлением весны тают льды, текут талые воды и восходит яркая звезда. И это всё надо воспринимать без смеха, всерьёз (!). В поисках ответа на вопрос, что же это за яркая звезда, восходящая весной, обратимся к известным историческим фактам, когда

[184] Махмуд Кашгарский. «Диван лугат-ат-турк». – Ташкент, 1961. Т. I. – С. 121.

появление яркой звезды было связано с природными климатическими изменениями. Восьмая глава (Тиштр яшт) древнейшего литературного памятника Центральной Азии «Авесто» (VII в. до н.э.) посвящена прославлению звезды Тиштрия, которая управляет дождём и вообще всеми водами. Предполагается, что эта связь возникла в те времена, когда Тиштрия восходила над горизонтом в начале сезона дождей и стала ассоциироваться с небесными водами:

Звезде блестящей Тиштрии Помолимся, счастливой, Которую ждут воды Стоячие, проточные, Речные, родниковые, Дождей воды и талая Когда взойдет нам Тиштрия, Блестящий и счастливый Когда прольют потоки, Могучие, как кони, Истоки вод проточных К обителям, к селеньям На пастбища, к растеньям Растя их сильным ростом[185] Тиштрию наделяют эпитетами «белая», «блестящая», «сверкающая», «далеко видимая». Благодаря ей растут на полях хлебные злаки и травы на пастбищах. Миф о Тиштрии говорит, что после продолжительного исчезновения эта звезда вновь оживает и появляется на небе. Первый переводчик «Авесты», француз Анкетиль Дюперрон (XVIII век), назвал Заратуштру «Золотым Тиштром» – «Золотым Сириусом». После этого в источниках, принадлежащих Авесто, звезда Тиштр сравнивалась с названием Сириуса[186]. В истории хорошо известно природное явление в Древнем Египте, связанное с восходом Сириуса в лучах утренней зари. Оно предвещало начало разлива Нила. Надпись египетскими иероглифами на стене одного из храмов означала: «Сотис, великая, блистает на небе, и Нил выходит из обоих (его) источников»[187]. Появление же Сириуса на утреннем небе в Древней Греции совпадало с периодом жестокого зноя (июль-август), когда жара вынуждала прерывать хозяйственные работы и другие занятия. («Сириус» в переводе с греческого означает «жгучий, знойный».) В свете вышеизложенного логично возникает вопрос: описывается ли одна и та же «яркая звезда», или речь идёт о разных звездах? По утверждениям вышеупомянутых письменных памятников, при появлении «яркой звезды» в древней Центральной Азии начинался дождливый период – весна, а в Древнем Египте и Древней Греции это совпадало с началом лета. При этом естественно возникновение вопросов: «Как это так, на небе появляется одно и то же светило, а явления происходят летом и весной? Может ли такое быть?!» – Да! Всё зависит от того, в каком месте эклиптики находится точка весеннего равноденствия. Смещение точки весеннего равноденствия происходит из-за вековой прецессии, период которой составляет около 26 тыс. лет. За один год эта

[185] Авеста в русских переводах (1861 - 1996)«Тиштр-яшт». Санкт Петербург. 1998.С 261 – 262
[186] Публикуется по книге: Дубровина Т.А., Ласкарева Е.Н. «Заратустра». – М.: Олимп; ООО «Фирма «Издательство АСТ», 1999. – 208 с.
[187] Н.Идельсон. История календаря. Научное книгоиздательство. 1925. С.39.

точка смещается к западу примерно на 50,3 – угловые секунды или, по времени, 20 минут 24 секунды. Каждый 71,6 года она продвигается на 1 градус, каждые 1000 лет – на 54m.84, или почти на 1 час. Если в настоящее время точка весеннего равноденствия вступила в созвездие Рыбы, то в те далекие времена положение этой точки была совершенно в других участках неба, созвездиях. Так, в созвездии Близнецов она была еще приблизительно семь тыс. лет тому назад. Восход Сириуса в этот период в лучах утренней зари имел место ранней весной. Спустя 2 тысячи лет Сириус (из-за прецессии) стал восходить уже в начале лета, это явление было хорошо известно в Древнем Египте и Древней Греции. Точка весеннего равноденствия к этому времени находилась в созвездии Тельца. Теперь ясно, что утренний восход «яркой звезды», описанный в древнем центральноазиатском регионе в V тыс. до н.э. и в Египте и Греции в III тысячелетии до н.э. связан с одной и той же звездой, т.е. с Сириусом. Из изложенного выше можно сделать следующие выводы:

1. «Яркая звезда», встретившаяся в четверостишии «Девани лугат ат-турк», – одна и та же «Лучезарная звезда», с названиями «Тиштирия», «Сириус», «Сотис».

2. Утреннее появление одной и той же «яркой звезды» весной в древней Центральной Азии и летом в Древнем Египте и Древней Греции, описанное в рукописях, действительно имело место. Это объясняется положениями точки весеннего равноденствия на эклиптике в те далекие, но разнесенные друг от друга времена. Эта «Лучезарная звезда» – Сириус, Сотис, Тиштрия.

3. В «Диване лугат ат-турк» и «Авесте» зафиксировано астрономическое явление, действительно имевшее место в V тыс. до н.э., то есть семь тысяч лет тому назад.

Систематизация и исследование астрономических сведений, содержащихся в «Диван луга тат-тюрк» Махмыта Кашгарлы имеет важное значение с точки зрения изучения истории науки Центральной Азии.

THE ROLE OF AMIR TEMUR IN EDUCATION

Lutfullayeva Umida Ravshanbekovna,
Head of the department at Tashkent University of Human Sciences

Amir Temur is a person who achieved many achievements during his life. He is known not only as a military leader, but also for his efforts in the development of science and culture. Amir Temur's activities in these areas contributed greatly to the growth of science in his time.

During the reign of Amir Temur, science and culture reached a completely new level. In order to strengthen his empire, he carried out important reform in the field of science. Amir Temur pursued a policy aimed at protecting science and art, attracting scientists and artists. Huge cultural centers were established in the city of Samarkand, where conditions were created for scientists to carry out their scientific activities.

Amir Temur's attention to science and culture is reflected in the work of many scientists and thinkers. From a small teacher to great thinkers, Amir Temur paid equal attention to everyone. He supported the writing of scientific works and their promotion. The astronomical and mathematical research organized in Samarkand, as well as work in the fields of medicine and philology, make Amir Temur known as a patron of science.

Samarkand, being the capital of the Amir Temur's empire, became a center of science and culture. The madrasas and scientific academics established here attracted the interest of many scientists and students. Large astronomical observations, scientific research in the fields of medicine and biology flourished during the reign of Amir Temur. These centers, in turn, influenced other countries and became an important foundation for the development of new scientific ideas.

Amir Temur's interest in science also found expression in the implementation of methodological works. He encouraged scientific research in various fields and attracted many thinkers and scientists to Samarkand. One of them was the famous astronomer and scientist Ulughbek, who conducted the largest astronomical research of his time and turned Samarkand into a center of astronomy. Amir Temur understood the importance of the connection between science and culture. He believed that the development of science also develops culture. Culture, in turn, creates the necessary conditions for science. These factors worked together. Amir Temur also attached importance to collecting various works of art as a collection through scientific and cultural activities. Many scientific achievements during the reign of Amir Temur later served as a source of hope and inspiration for subsequent generations. He sought to create all the conditions necessary for the development of science and culture in his time.

During the reign of Amir Temur, the development of science and culture reached its highest peak. During his reign, Samarkand became a center of science and culture, where many scientists and thinkers gathered. Amir Temur is remembered not only for his military successes, but also for his efforts to support science. He is still remembered today through his cultural heritage. These conclusions reflect Amir Temur's attention to science and his cultural heritage. These conclusions reflect Amir Temur's attention to science and his contribution to the knowledge created in his time and social progress.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА АСТРОНОМИК ЖИҲОЗ ОСМОН ГЛОБУСИ ТАВСИФИ

С.Х.Азизов
Ўзбекистан ФА Темурийлар тарихи давлат музейи илмий ходими (Ўзбекистон)

Малумки, ўз вақтида Алишер Навоий Самарқандда Улуғбек расадхонаси яқинида жойлашган Фазлуллоҳ Абуллайс мадрасасида[188] таълим олган[189] эди. Шу йилларда у Улуғбек расадхонасида ҳам бўлган, албатта. Буни шоирнинг "Фарҳод ва Ширин" достонида Улуғбекка, унинг расадхонасига, "Зиж" асарига бағишланган шеърий сатрларидаги аниқ баёнлардан ҳам билса бўлади.

Алишер Навоий асарларидаги астрономик маълумотларда баъзи астрономик жиҳозлар ҳақида ҳам эслатилади. Алишер Навоий Улуғбек расадхонасида бўлганда кўпгина астрономик жиҳозларни кўрган[190] ва унинг асарларида қайд этилган астрономик жиҳозлардан бири осмон глобуси.

Қуйида осмон глобуси тавсиф этилади.

Осмон глобуси. Алишер Навоий "Фарҳод ва Ширин" достонида Мирзо Улуғбекнинг астрономик фаолиятига баҳо бераркан, қуйидаги

"Ва лек ул илм[191] сори топти чун даст

Кўзи олинда бўлди осмон паст[192] – деб бу икки сатрда астрономик жиҳоз – осмон глобусига ишора қилган.

Астрономия тарихида "Осмон глобуси" тушунчаси ўзига хос маълум тарихга эга. Таъкидлаш жоизки, осмоннинг сферик шаклда кўриниши, унинг осмон глобуси кўринишидаги моделини ясаш учун асос бўлган[193] ва ўтмишда улар олтин, кумуш, бронза, ёғоч, гипс каби материаллардан тайёрланган[194].

Қадимги юнон олими Архимед (мил. ав. 287 - 212) қўл кучи билан ҳаракатланадиган осмон глобуси воситасида Қуёш, Ой ва сайёралар ҳаракатини намойиш қилишга муваффақ бўлган. Бу ажойиб ихтиродан ҳайратланган римлик шоир Клавдиан (375 - 404 кейин) унга атаб қуйидаги шеърий мисраларни битган.

---

[188] Массон М. Е, Пугаченкова Г. А, Засыпкин Б. Н, Вяткин В. И, Кононов В. Н, Кудрина С. А.. Мавзолей Ишратхана. Ташкент. 1958. С. 24. "Мавзолей Ишратхона" асарида келтирилган харитага кўра Фазлуллох Абуллайс мадрасасидан Улуғбек расадхонаси кўриниб турган.

[189] Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. Тошкент. 1968. 58-бет.

[190] Шишкин В. А. Обсерватория Улугбека и ее исследование.//Труды института истории и археологии. Т. V. Обсерватория Улугбека. Ташкент. 1953. С. 91 – 94.

[191] Ул илм – фалакиёт илми.

[192] Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. (насрий баёни билан). Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1989. 346 – 347- бетлар.

[193] Научные приборы. Редактор-составитель Л. Е. Майстров. Наука. М., 1968. С. 45.

[194] Ўша жойда. С. 45 – 46.

Осмон низоми, илоҳлар қонуни, олам уйғунлигин ...

Барчасин Сиракузлик кекса ҳикматла ерга келтирди[195]

Неаполдаги Миллий музейда Атлант (мил. ав.I асрда асли асосида тайёрланган нусхаси) елкасида кўтариб турган "Фарнези глобуси" сақланмоқда.. Бу осмон глобуси бўлиб, унда юнон шоири Аратнинг(мил. ав. IV аср) "Феномен" поэмасида қайд қилинган юлдуз туркумлари тавсифланган[196].

Византиялик механик Леонтий (V аср) "Арат сфераларини ясаш" асарида: "Арат поэмасини яхшироқ англаш мақсадида, унинг номи билан аталган осмон глобусларини ясай бошлаганлар", – деб ёзади[197]. Антик давр осмон глобусларида юлдузлар осмони намойиши ўз ифодасини топган. Осмон глобуслари ўрта асрларда Шарқда ҳам кенг тарқалган эди[198]. Зеро турли астрономик муаммоларни ҳал қилишда қўзғалмас юлдузлар жойлашган сфералар муҳим вазифани бажарган. Ўрта асрларда осмон глобуси билан армилляр сферанинг бирга тасвирланиши натижасида осмон глобуслари сиртида координаталари маълум ёритқичларни қайд қилиш имкони пайдо бўлган. Масалан Абдурраҳмон Сўфий ўзининг "Собит юлдузлар китоби" асарида зиж тузиш жараёнида ҳар бир юлдузнинг самодаги ўрни билан осмон глобусидаги ўрниларини қиёслаган[199]. Осмон глобуси Шарқда қурилган расадхоналарнинг асосий амалий аҳамиятга эга жиҳозларидан саналган. Мароға расадхонасининг осмон глобуси (XIII аср) бронзадан, юлдузлари олтин ва кумушдан ясалган бўлиб,унда тасвирланган экватор ва эклиптика ҳалқалари даражалар билан белгиланган эди[200].

Улуғбек расадхонасидаги осмон глобуси бронзадан, олиб қўйиладиган юлдузлари кумушдан ясалган ва унда "Одил ҳукмдор Улуғбек кутубхонаси учун" деган ёзув қайд қилинганди[201]. Ҳозир бу глобус Англиядаги шахсий коллекцияда сақланмоқда[202]. Улуғбек расадхонасининг таниқли олими Ғиёсиддин Жамшид Коший ҳам Самарқанддан Кошонга, отасига ёзган мактубида бу глобус ҳақида ёзиб фалакиёт илмида осмон глобуси бир безак эмас, балки илмий амалиётда зарур ёрдамчи восита эканлигини таъкидлайди: "Юлдузларнинг ўтиш йўлларининг тўғри чиқишини аниқлаб, буни глобус ва устурлобга

---

[195] Архимед. Сочинения /Перев. И. В. Веселовского. М., 1962. С. 43.

[196]Цезар Германик. Небесные явления, по Арату (перевод с латинского под общей редакцией Н. А. Федорова). // Историко-астрономические исследования. Вкпуск XX. Наука. М., 1988. С.341.

[197] Ўша жойда. С.339.

[198] Научные приборы. С. 45.

[199] Матвиевская Г. П. Абд ар-Рахман ас-суфи и его роль в истории астрономии //. Историко-астрономические исследования. Выпуск 16. Наука. М., 1983. С.115.

[200] Мамедбейли Г. А.. Основатель Марагинской обсерватории Насирэддин Туси.Баку. 1961.С.201.

[201]Maddison F. R. A supplement to a catalogue of scientific instruments in the collection of J. A. Billmeir. Oxford; L.,1957. P.40.

[202] Матвиевская Г. П, Соколовская З. К. Улугбек. Москва, "Наука". С. 42 – 43.

туширилганда, олинган натижа ҳақиқий ҳолга тўғри келмас эди"[203] Мирзо Улуғбекнинг "Зижи жадиди Кўрагоний" асари учинчи китобининг ўн учинчи бобида ҳам Улуғбек расадхонасида осмон глобусидан амалиётда фойдаланилгани айтиб ўтилган: "Абдураҳмон Сўфий турғун юлдузларни аниқлаш хусусида махсус китоб ёзган, барча олимлар унга мурожаат қиладилар ва уни қабул этадилар. Биз эса юлдузларнинг осмон куррасидаги (глобусидаги) ҳолатини кузатишга қадар улар ҳақида Абдураҳмоннинг китобидагига асосланардик. Бироқ, биз кузатганимиздан кейин баъзи юлдузларнинг ҳолати унинг (китобидагига) мос келмаслигини кўрдик.

Аллоҳ бизнинг кузатишларимизга таовун[204] берганидан сўнг бу юлдузлар ва бошқа юлдузларнинг ҳолатлари (Абдураҳмон) айтганига зид эканлигининг шоҳиди бўлдик. Биз бу юлдузларни ўз кузатишимизга мос келган ҳолда куррага (осмон глобусига) жойлаштирганимизда эса кузатишимизга ҳеч зид келмаганлигини кўрдик"[205].

Юқорида келтирилган парчалардан аён бўладики, фалакшунослар юлдузлар, яъни осмон манзарасини қўл остиларидаги осмон глобусида тасвирлаб, тадқиқот ишларини амалга оширганлар. Демак, Алишер Навоий назмидаги "осмон бўлди паст" ибораси мажозий маъно касб этиши (Улуғбекнинг фалакиёт илмини мукаммал эгаллагани) ни англатиши билан бир қаторда, унинг астрономик ифодаси ҳам борлиги шубҳасиздир.

Аввало айтиш жоизки, Алишер Навоий сўзлари билан Қадимги Юнон шоири Клавдиан ёзганларида мазмунан ўхшашлик бор. Клавдиан эса, осмон глобуси ҳақида сўз юритган, Алишер Навоий ҳам осмон глобусини назарда тутганлиги аниқ бўлади. Бундай глобус фақат Улуғбекнинг обсерваториясида бор эди. Унда осмон глобуси сиртида армилляр сфера тўри чизмаларда тасвирланганди. Бундай маҳсус жиҳоз – осмон глобуси сиртида осмондаги юлдузларнинг ўринлари зижлардаги координаталари (ўрнилари) асосида тасвирланарди. Бу осмон глобуси сиртида пайдо бўлган юлдузлар тасвири айни юлдузларни осмондаги ҳақиқий ўринлари билан қиёсланадиган амалиёти билан боғлиқ ишлар учун зарур эди. Алишер Навоий расадхонада бўлмай туриб, осмон глобусини назм қилиши мумкин эмасди.

[203]Юсупова Д. Ғиёсиддин Кошийнинг Самарқанддан Кошонга, отасига ёзган мактуби// Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. 280- бет.
[204] Улугбек Мухамад Тарагай (1394 – 1449) Зиджи жадиди Гурагони. Фан. Тошкент 1994. С. 154.
[205] Аҳмедов А. Улуғбек (ҳаёти ва фаолияти). "Фан". 1991. 59- бет.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМИРУДОВ

Абдурашитова Нигора Бобокуловна,
Старший преподаватель Ташкентского университета гуманитарных наук

Из истории известно, что монголо-татарские завоеватели в течение долгих лет держали в гнёте Московскую Русь, народ которого платил большую дань в течение трёх веков. Особенно русский народ терпел много бедствий и лишений в период завоеваний монгольского хана Тохтамыша.

Княжества Московской Руси были разрознены и поэтому не могли достойно противостоять монголо-татарским завоевателям и только с приходом Среднеазиатского правителя Амира Темура, Тамерлана, как его называли в народе, ситуация изменилась в лучшую сторону. Начиная с 1390 года и по 1394 годы Тамерлан вёл ожесточенную борьбу против монгольского хана Тохтамыша.

Как свидетельствует история Тохтамыш, воюя с Тамерланом, терпел от него поражения, но продолжал военные действия, пока последний не начал широкомасштабного наступления на правителя Орды. 15 апреля 1395 г. на р. Терек (на территории современной Северной Осетии) Тамерлан нанес крупное поражение Тохтамышу. Хан бежал за Днепр и укрылся во владениях великого литовского князя Витовта. Опустошая оставленные Тохтамышем земли, Тамерлан приблизился к владениям русских князей. Узнав о движении его войск, Василий Димитриевич укрепил Москву и с войском вышел к Оке для отражения неприятеля. Из Владимира в Москву была принесена Владимирская икона Божией Матери, перед которой совершались молебны. Тамерлан, разорив Елец, на Москву не пошел, угроза его вторжения миновала.

Весьма вероятно, что именно во время стоянки под Ельцом Тимур принял решение не идти войной на Русь, ибо мирные отношения с потенциальными противниками Орды более соответствовали его стратегической цели, чем война. Трудно определить, когда именно было принято решение о «политическом расщеплении» Улуса Джучи – осенью 1395 г. или раньше, накануне войны с Ордой. В любом случае, оно, несомненно, было результатом осмысления опыта предыдущего (1391 г.) похода Амира Тимура против хана Тохтамыша, показавшего удивительную способность Ордынского государства к быстрому возрождению при наличии единовластия хана и огромных материальных и людских ресурсов. Известно, однако, что еще в начале второго своего антиордынского похода, по всей вероятности в первой половине 1395 г.,

Тимур провозгласил ханом Золотой Орды Койричак-оглана, но аристократия западных улусов объявила своим ханом Таш-Тимура, сумевшего уйти из-под ударов войск Амира Тимура. Начал борьбу за возвращение себе власти в полном объеме и прежний хан Тохтамыш, бежавший от армии Тимура. Таким образом, в соответствии с планом Амира Тимура или же помимо него, но политический распад Ордынского государства начался снова и был очень интенсивным сразу же после разгрома Тохтамыша на Северном Кавказе[206].

Необходимо отметить, что в данный период было много тюркских заимствований в русский язык. Это такие слова как *bahodur*, переделанный в богатырь, *ярлык,* заимствованный из тюркского *yarluq* или *есаул*, заимствованный из тюркского *yasovul* и т.д.

В письменных источниках таких как древнерусский героический эпос «Слово о полку Игореве» также упоминаются несколько слов тюркского происхождения.:

А куряне славные —
Витязи исправные:
Родились под трубами,
Росли под шеломами,
Выросли как воины,
С конца копья вскормлены

Все пути им ведомы,
Все яруги знаемы,
Луки их натянуты,
Колчаны отворены,
Сабли их наточены,
Шеломы позолочены.

В данном отрывке можно увидеть слово *яруг* , что на тюркском языке означает *yorug',* то есть правило, путь, предписание[207].

Далее известный учёный энциклопедист С.А.Кузнецов в Большом толковом словаре русского языка приводит следующие тюркские слова и их толкования, появившиеся в русской речи примерно в период завоеваний Амир Темура. Например, *бастурма* (тюрк.) – кушанье из крупно нарезанных кусков мяса, замаринованных со специями, а потом поджаренных. Другое слово *басурман,* которому также в толковом словаре С.А. Кузнецова даётся следующее толкование: Басурман *м.* 1.Устар. неодобр. Человек иной веры (преимущественно о мусульманине). Здесь возникает весьма спорный вопрос, а кто же тогда магометане, как никто другой как мусульмане. По нашему мнению, слово *басурман* исходит от тюркского глагола *bosarman*, то есть завоюю или захвачу[208].

Исходя из ввышеизложенного можно сделать вывод, что завоевания Амира Темура были весьма продуманным стратегическим шагом, а

[206] https://histrf.ru/read/articles/nastuplieniie-timura-na-moskvu-event
[207] Древнетюркский словарь. – Изд.: "Наука" – Ленинград, 1969
[208] Большой толковый словарь русского языка. Под ред. С.А.Кузнецова. – М., 2000.

именно он не только освободил русские земли от монгольского ига, но и внёс весомый вклад в лингвокультурологическом обогащения русского языка. Следовательно, нельзя считать, что узбекский язык как одна из ветвей тюркского обогатился за счёт русского языка, ибо и русский язык также обогащался за счёт тюркских заимствований, чему способствовал наш великий предок.

THE ROLE AND ACHIEVEMENTS OF AMIR TEMUR IN SCIENCE

Samieva Iymona Mehriddin qizi,
Teacher of Tashkent University of Humanities

Amir Timur, a prominent military leader of his time, is known not only for his military conquests but also for his significant contribution to science and culture. He played a crucial role in advancing knowledge and fostering a vibrant cultural environment during his reign.

Under Timur's rule, the city of Samarkand became a center for culture and learning. He supported various fields such as philosophy, mathematics, astronomy, literature, and the arts. By inviting scholars and artists to his court, Timur created an environment conducive to research and knowledge creation, which in turn facilitated the development of science during that era.

Some of his notable contributions include the construction of important educational institutions like the Sherdor and Tilla-Qori madrasas, as well as the Ulugh Beg Astronomical Observatory. These establishments allowed many scholars and thinkers to conduct their research and strive for new discoveries. Additionally, Timur supported the works of Alisher Navoi, one of the most prominent poets of his time, further highlighting his commitment to cultural advancement.

Timur's interest in science and culture was driven by a desire to enhance the prestige of his empire and raise the educational standards of his people. Alongside his military victories and territorial expansions, he recognized the importance of preserving cultural heritage and scientific achievements.

Today, the legacy of Amir Timur in the fields of science and knowledge holds significant relevance in the developing Uzbekistan. His contributions encompass not only historical significance but also elements of science and culture that continue to contribute to the progress of our nation. Amir Timur is remembered not only as a military leader but also as a patron of culture and science, serving as a source of inspiration for future generations.

Amir Timur, also known as Tamerlane, is celebrated for his numerous achievements that left a lasting impact on Central Asia and the surrounding

regions. His legacy encompasses military, cultural, and architectural accomplishments.

1. Military Conquests

Timur's military campaigns were extensive, allowing him to build a vast empire that stretched from the Middle East to South Asia. His most notable victories include the capture of Delhi, the conquest of Persia, and campaigns against the Ottoman Empire. He was known for his effective military strategies and tactics, which helped him defeat larger and more powerful armies.

2. Cultural Patronage

Timur was a strong patron of the arts and culture. Under his rule, cities like Samarkand became centers of culture and learning. He encouraged the creation of beautiful poems, literature, and art, contributing to a flourishing cultural environment. His reign is often seen as a golden age for Persian literature, where poets like Alisher Navoi made significant contributions.

3. Architectural Achievements

Timur left behind a rich architectural legacy. He commissioned the construction of many impressive structures, most notably in Samarkand. The Registan, Shah-i-Zinda, and the Bibi-Khanym Mosque are prime examples of the stunning architecture that characterized his reign. These buildings showcased advanced techniques and artistic brilliance, becoming symbols of his empire's glory.

4. Scientific Advancements

In addition to his military and cultural achievements, Timur also fostered advancements in science. He established educational institutions and encouraged scholars to study mathematics, astronomy, and medicine. The Ulugh Beg Observatory, built by his grandson, is a testament to this commitment to knowledge and scientific inquiry.

5. Administrative Reforms

Timur organized his empire with various administrative reforms that helped maintain stability and efficiency. He implemented a tax system and established a legal framework, which contributed to the prosperity of his territories.

6. Legacy

Timur's achievements had a profound impact on the regions he conquered and beyond. His empire laid the groundwork for the later emergence of the Mughal Empire in India. His reputation as a fierce warrior and a patron of culture endures, making him a pivotal figure in the history of Central Asia.

In conclusion, Amir Timur's achievements in military conquests, cultural patronage, architectural innovations, scientific advancements, and administrative reforms established him as one of history's most significant leaders, and his legacy continues to be celebrated today.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA E'TIBOR - IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI

Azimova Shahnoza Avazjon qizi,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi

O'zbekiston tarixida Amir Temur va Temuriylar sulolasi davri eng buyuk uyg'onish davrlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, bu davrda ilm-fan va madaniyatga bo'lgan yuksak e'tibor tufayli xalqning ma'naviy dunyosi yuksalib, dunyo tamadduniga muhim hissa qo'shildi. Ko'plab tarixchilar bu davrni sharq sivilizatsiyasidagi "Ikkinchi Renessans" deb atashadi. Bu ilmiy-ma'naviy yuksalish jarayoni bevosita Amir Temur siyosati va Temuriylar hukmronligidagi olimlarga, san'atkorlarga, me'morlarga berilgan homiylik tufayli yuzaga keladi. Amir Temur nafaqat zabardast sarkarda, balki yuksak tafakkur sohibi, ilm va san'atga homiy bo'lgan buyuk shaxsdir. Uning "Temur tuzuklari" asarida ilmli insonlar, olimlar va diniy arboblarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligi ta'kidlangan. U mamlakatda tartib-intizom o'rnatib, ilm-fan rivoji uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Amir Temur merosxo'rlari Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan eng yuksak cho'qqiga chiqdi. Ulug'bek o'zi ham yirik astranom va matematik bo'lib, Samarqandda mashhur Ulug'bek rasadxonasini barpo etdi. Bu ilmiy markazda Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy va Ali Qushchi kabi buyuk olimlar faoliyat yuritgan. Shuningdek, Badiuzzamon Mirzo, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kabi arboblar ham ilm-fan va adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan. Hirot shahri bu davrda Sharqning yirik ilmiy-ma'naviy markaziga aylangan. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy, adabiy va madaniy meros nafaqat O'rta Osiyoda, balki butun islom dunyosida yuksak qadrlangan. Bu davrda shakllangan tafakkur maktablari, yozma manbalar, astronomik va tibbiy asarlar keyingi asrlarda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Ikkinchi Renessans deb ataladigan bu davrda ilm-fan, adabiyot va san'atda yaratilgan asarlar Yevropa uyg'onishiga ham bilvosita ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur Movorounnnahr hukmdori deb e'tirof etilishi bu diyor uchun, xususan, poytaxt bo'lmish Samarqand tarixi uchun yangi sahifa ochib berdi. Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat ahliga alohida e'tibor va mehribonlik ko'rsatib, jamiyatning madaniy hayotida ulardan foydalanishga intilar edi. Tarixchi ibn Arabshoh yozganidek, ,,Temur olimlarga mehribon, sayyid-u sharflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib ularni har qanday odamdan tammom muqaddam ko'rardi. Ularni har birini o'z martabasiga qo'yib, izzat-u ikromini izhor qilardi''. Amir Temurning katta xizmatlaridan muhimi shuki, u madaniyat va ilm homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z oldiga olim-u fuzalo arboblarini to'pladi. Temur hukmronligi davrida

ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rossiya bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi. Islom dini o'sha davrda asosiy mafkura bo'lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Temur o'z faoliyatida unga tayanib ish ko'rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. Temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an'analarini izchil ravishda davom ettirdilar. XIV-XV asrlarda Movorounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko'p sohalarida yuksakish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug'rofiyo, pedagogika, mantiq, falsafa va boshqalarga e'tibor berildi. Amir Temur Ko'ragoniy olimlarni juda qattiq e'zozlagan. Xususan, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh Taftazoniy rahmatullohi alayhini juda ham hurmat qilar edi. Taftazoniy (1322-1392) mantiq ilmining yirik vakillaridan biridir. Yoshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san'ati va mantiq bilan shug'ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qiladi. Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobi berilgan Amir Temurning yangidan bunyod etilgan Boilkan shahrida olim fuzalolar bilan o'tkazgan kengashi haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir. Bu kengashdagi nutqida u shunday degan: "Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishlaringiz kerak". Amir Temurning ilm-fan ahliga bo'lgan munosabati davlatni idora qilish, saltanat saroyida o'tirish, maoshlar tayinlash va shu kabilar tuzuklarda alohida qayd qilingan. Xususan, olimlar, donishmandlarga saroyda o'tkaziladigan majlislarda o'zining o'ng tarafidan ul kishilar uchun mo'ljallangan tomonidan o'rin bergan.

Umrining ko'p qismini harbiy yurishlarda o'tkazgan amir Temur safarlarda ham olimlar bilan hamsuhbat bo'lar edi. Damashq musodara qilingan paytda, mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri ibn Xaldun (1332-1406) bilan suhbat bo'lgan. Uchrashuv paytida mashhur tarixchi sohibqiron Qur'oni Karimning

go‘zal bir nusxasini hadya qiladi va Amir Temur o‘rnidan turib, muqaddas kitobni o‘pib, boshiga qo‘ygan. Xuddi ana shunday hurmat va ehtiromni Sohibqiron o‘zi zabt etgan mamlakatlardagi olim-u fuzalo, dono kishilarga nisbatan ham ko‘rsatgan ,,Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam,- deb ta’kidlaydi Amir Temur, - o‘sha yerning obro‘-e’tiborlik kishilarini aziz tutib, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg’ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim’’. Temur davrida ilm-fanning qaytadan rivoj topishiga ta’sir ko‘rsatgan omillardan yana biri qo‘shni mamlakatlar, ayniqsa Xitoy Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bo‘ldi. Turli mamlakatlardagi ilmiy markazlar, olimlar o‘rtasida aloqalarning o‘rnatilishi, xalqlarning bir-birining tarixiy madaniyatini o‘rganishi, ilm-fan sohasidagi erishgan natijalari bilan tanishishi ilmiy bilimlar taraqqiyoti uchun qulay sharoit tug’dirgan. Temur saltanatida ilm-fanning taraqqiy etishida o‘tmish madaniyati, boyliklarini o‘rganishga e’tibor berilishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ilk uyg’onish davri deya e’tirof etiladigan IX-XII asrlarda Movorounnahr islom dunyosining madaniy markazlaridan biriga aylanadi. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta’lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildiyu Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o‘lkasida maorif va ta’lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o‘rin tutgan. Qudratli saltanat va ma’rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an’analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur. har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta’lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmli, ma’rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish yo‘lidan bordi. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko‘plab boshlang‘ich maktablar barpo etildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan saltanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi.

Butun islom davrida bo‘lganidek, bu davrda ham mamlakatda ilm fan rivojida madrasa ta’limi asosiy o‘rin tutib, saltanatning madaniy markazlari bo‘lgan yirik shaharlarda oliy ta’lim o‘choqlari bo‘lgan madrasalar ko‘plab bunyod etilgan. Sohibqironning saltanat ma’murlari oldiga “Katta kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar”; “Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar”; “Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug‘larni aziz tutsinlar”, degan vazifani qo‘yganligi

"Temur tuzuklari"da ham aks etgan. Sohibqironning bu topshirig'i tabiiyki butun saltanat doirasida ijro etilgan. "Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim"; "Sayidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e'tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini o'rniga qo'ydim", deya ta'kidlaydi Sohibqiron o'z tuzuklarida. Amir Temur buyrug'I bilan madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar o'qitilishi keng yo'lga qo'yiladi. Amir Temur Turon yurtidagi madrasalarga dars berish uchun Islom dunyosining taniqli olimu ulamolarining madrasalarda dars berishga jalb qilingan. Amir Temurning buyrug'i bilan Samarqandda o'z davrida yagona bo'lgan kutubxona barpo etilgan bo'lib, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida (1409-1449) bu kutubxona fondi yanada boyitilgan va mamlakatning haqiqiy ilm ma'rifat markaziga aylangan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda, Sohibqironning mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur. Bu haqda "Temur tuzuklari"da quyidagi so'zlar bitilgan: "Saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim". Ushbu tarixiy davr nafaqat o'z zamonasi uchun, balki butun insoniyat ilmiy merosi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

EFFECTIVE METHODS OF FORMING CREATIVE THINKING IN STUDENTS BASED ON AMIR TEMUR'S ATTENTION TO SCIENCE

Riskulova Ziyoda Ikrom qizi
Master's student of the Pedagogical Department of Gulistan State Pedagogical Institute

Scientific supervisor: Nurumbekova Y.A
Associate professor of Gulistan State Pedagogical Institute

Amir Temur established the largest scientific centers of his time. Temur located these scientific centers in the central cities of his empire, in particular in Samarkand. He considered the development of science and culture to be a priority for him and paid great attention to scientific research. Through the scientific centers established in Samarkand, he united the knowledge of different nations and cultures and provided great support for scientific research.

Amir Temur was a person who paid great attention to science and culture in his time, and his attitude to science and pedagogical approaches are still important in shaping creative thinking in students today. The following thoughts illustrate Amir Temur's contributions to science and education and his methods for developing creative thinking in students:

Amir Temur writes about his great interest in science: "Temur contributed in every way to the development of science and culture. He created scientific centers, gathered the greatest scientists of his time in one place and created all the opportunities for them to conduct scientific research." This thought confirms Temur's interest in science and the effective role he played in developing research and creative thinking in students[209].

Turgunov A. emphasizes the role of Amir Temur in the establishment of scientific centers: "The scientific centers established in Samarkand laid the foundation for the development of not only science, but also culture. Through these centers, great achievements were achieved in various fields of science and culture, a great contribution was made to attracting students to science and directing them to creative activities." This idea indicates the active role of Amir Temur in the development of creative thinking in the education system[210].

Amir Temur gathered many scientists, including mathematicians, astronomers, historians, and specialists in other fields of science in his palace[211]. He also provided a lot of financial support for scientific and cultural work and created opportunities for students to study. Such actions ensured not only the acquisition of knowledge, but also the development of creative thinking.

Allsen, T. T., in his work "Culture and Conquest in Mongol Eurasia", explains Amir Temur's attention to science as follows: "During his reign, Temur devoted great effort to the development of science and education[212]. He influenced many scientific studies and introduced innovative approaches to teaching students independent thinking." This idea speaks of Temur's support for creative thinking in the development of science and culture.

Mikhailov, A., while explaining Temur's pedagogical approaches, writes: "Temur gathered the best scientists of his time at his court and encouraged them to engage in scientific and creative research[213]. Through this, he developed not only knowledge in students, but also the ability to think creatively and develop new ideas." This idea describes the reforms that Amir Temur carried out in the formation of creative thinking in students through the development of science and education. Lane, G. in his work "The Mongol Empire: Its Rise and Fall"

[209] Shodmonov, A. (2015). Amir Temurning ilm-fanga bo'lgan e'tibori. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
[210] Turg'unov, A. (2010). O'zbekiston tarixi: Amir Temur davri. Toshkent: Fan va texnologiya.
[211] Davronov, M. (2012). O'zbekiston tarixida ilm-fan va madaniyat. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat Noshirligi.
[212] Allsen, T. T. (2001). Culture and Conquest in Mongol Eurasia. Cambridge University Press.
[213] Mikhailov, A. (2009). Timur the Lame: His Role in History. New York: HarperCollins.

evaluates Amir Temur's attention to science and education as follows: "Temur provided not only material but also spiritual support to scientists to support scientific activity[214]. This situation helped students to increase their passion for scientific research and creative work." This idea shows how Amir Temur helped students in their scientific activities and emphasizes the importance of this help in the formation of creative thinking.

Amir Temur's attention to science and his reforms in the development of education were the basis for effective methods for the formation of creative thinking in students[215]. The scientific and creative activities organized in his cultural centers created opportunities for students to develop new ideas and think independently. In this process, not only theoretical knowledge, but also practical activities were important. Temur and the scientists around him encouraged creative thinking and research, allowing students to demonstrate their knowledge in various forms[216].

Special attention to the scientific activities of Amir Temur shows the effectiveness of his pedagogical approaches. He understood the importance of providing students with a high level of education and created many scientific methods in this regard[217]. Temur introduced innovative methods for presenting his approaches to science to students.

Temur's pedagogical methods aimed at encouraging students to freely express their knowledge, create, and develop creative thinking are still relevant today[218]. For example, methods such as developing independent thinking in students, teaching them a critical approach, and encouraging them to develop their own ideas were practiced during Temur's time. These pedagogical methods not only increased the scientific potential of students, but also formed their creative thinking[219].

Based on the experiences of Amir Temur, the following effective methods can be distinguished in the formation of creative thinking in students:

• **Scientific research and experimentation:** Involving students in scientific research and studies, encouraging them to solve real-life problems.

• **Innovative approaches:** Forming new and unconventional approaches in students, thereby developing creative thinking.

---

[214] Lane, G. (2002). *The Mongol Empire: Its Rise and Fall*. Oxford University Press.

[215] Janbaeva, M., Ergasheva, M., & Yusupova, Z. (2023). Amir Temur davrida ta'lim-tarbiya tizimi. *Amir Temur siymosining yoshlar ma'naviyatidagi tarbiyaviy ahamiyati Ilmiy-Amaliy anjuman*, *9*.

[216] Smatillaevna, J. M., Ziyoda, Y., & Mokhinur, E. (2023). Technologies for development of pedagogical skills of future teachers in the pedagogical education system. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, *20*(8), 63-65.

[217] Yusupova, Z.I.Q. (2023). O'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, *5*(NUU conference 3), 176-181.

[218] Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). Ta'limda innovatsion yondashuvlarning ijodiy qobiliyatlarga ta'siri. *Innovative Development in Educational Activities*, *4*(1), 186-193.

[219] Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). Yoshlarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirishda motivatsiya va qiziqishning roli. *Innovative Development in Educational Activities*, *4*(1), 194-201.

• **Critical thinking:** Teaching students to express their opinions independently and critically, creating opportunities for them to develop their own ideas.

• **Collaboration with others:** Developing creative thinking through teamwork and group work.

Amir Temur's attention to science and education made it possible to create effective methods for forming creative thinking in students during his time. These methods served not only to increase students' knowledge and skills, but also to develop their creative thinking skills. Even today, Amir Temur's approaches to science are used in the modern education system to develop innovative thinking in students.

AMIR TEMURNING ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI SIFATIDA OLIB BORGAN SIYOSATI

Userbayeva Feruza Inoyat qizi,
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti tarix yo'nalishi talabasi

Jahon tarixi zaminida ko'xna Sharq tarixi alohida o'rin egallaydi.Ma'lumki,har bir davr o'zining tarixiy shaxslarini yaratgan va mazkur shaxslar tarix silsilasining vujudga keltirganlar.Binobarin,Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda Temur va temuriylar davrini mufassal o'rganmay turib bu mintaqaning tarixiga baho berish mumkin emas.Zero, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temur va temuriylar davri mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida ulkan ijobiy burilishlar davri bo'lgan [220].Aynan manashu davrda ko'plab sohalarda tub burulishlar ko'zga yaqqol tashlanadi.Har bir sohada yangiliklar amalga oshiriladi.XIV asr renessans davri Osiyo va Isom tarixida XIV-XVI asrlarni qamrab olgan davr hisoblanadi. Manashu davr oralig'ida Temuriylar sulosai boshqargan,ko'plab sohalarni rivojlanishi uchun turtki bo'lgan davr bo'lgan.Renessans-so'zi fransuzcha qayta tug'ilish degan ma'noni anglatadi.Temuriylar uyg'onish davrida XV asrlarda mo'g'ul bosqinlaridan so'ng o'z cho'qqisiga erishdi.O'zbek xalqining uzoq asrlik tarixi davomida XIV asrning ikkinchi yarmida ulug' fotih Amir Temur nomi bog'liq davr o'ziga hos o'rin egallaydi [221]. Amir Temur hukmdor bo'lgan davrdan boshlab bosh-boshdoqlikka chek qo'yadi.

Mamlakatni birlashtirish borasida ilk urinishlarni amalga oshiradi.Amir Temur bobomiz Islom dinining himoyachisi va targ'ibotchisi sifatida yaratganini tan oladi.Shu yo'lda u markazlashgan davlat aoschisi bo'lib

[220] Тургун Файзиев "Темурийлар шажараси",' Ёзувчи нашриёти'-Хазина,Тошкент-1995, 7-бет
[221] Aziz Qayumov "Amir Temur qissalari" ,'Yozuvchi nashriyoti', Toshkent-1996,3-bet

maydonga chiqdi.Bu borada taqdir mohir sarkarda, yengilmas lashkarboshi sharafini nasib etdi.Insoniyat oldidagi xizmatlaridan biri-ilm-fan va sa'nat homiysi ekanligidadir [222].Amir Temur siymosi haqida so'z borar ekan uning haqiqatdan har bir ishda mohir, o'z ishining ustasi, mohir lashkarboshi, davlat arbobi, xalq kelaji uchun jonkuyar hukmdor,adolatning yaqqol timsoli ekanli haqida qancha gapirsak shuncha ozdir.Uning amalga oshirgan ko'plab ishlari aynan uyg'onish davrining ilk bosqichini boshlab berdi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi.Aynan Amir Temur davrida bilamizki hokimiyat o'zining gullagan cho'qisiga erishdi.Buning sababi esa Amir Temurning shohlik shohsupasida munosib o'tirganligidan dalolat beradi.Amir Temur davrida xalq hayoti har bir soha bo'yicha o'sdi.Amir Temur ilm-fan sohasiga ham e'tibor qaratdi.

Amir Temurning ilm-fan xomiysi sifatidagi xizmatlari taxsinga sazovordir. Qaysi mamlakatki xotirjamlik, tinchlik, dorilomonlik bo'lsa, gul ekish, ekin tikish, niholni parvarish etish, uy qurish, ilm o'rganish, kitob yozish, ashula aytish, bog'lar barpo etish imkoni tug'iladi, bir so'z bilan aytganda, insonlar qalbida ma'naviyat chechaklari yaproq yozadi.Va tabiiyki, mamlakatda ilm va fanni rivojlanishi uchun ana shunday xotirjamlik va moddiy ta'minlanganlik bo'lishsa kerak. Amir Temur Turon saltanatida ilm-fanning rivojlanishi, unib-o'sishi, kamol topishiga qulay sharoitlar, ulkan imkoniyatlar yaratib berdi [223]. Ilm-faning gullab yashnagan davri bo'lgan desak hech ham hato bo'lmaydi.

Amur Temurning faoliyatini ko'plab adiblar ta'riflashganidek, Amir Temur limning qadriga yetadigan va rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradigan , ko'plab sohadagi olimlar bilan muzokara qila oladigan hukmdor edi. Ilm-fan sohalariga qiziqish aynan uning oilasidan boshlangan.Hattoki Amir Temurning farzandlari (qizlari,o'g'illariga) ko'plab sohadagi fanlardan tahsil berilar edi.Amir Temur Turon saltanatining ilm-fanning rivojlanishi uchun sharoit yaratib bergan edi.Ilm-fanning o'sishi uchun ko'plab imkoniyatlar ham mavjud edi.

Amir Temur nafaqat ilm fan sohasiga balki bunyoskorlik sohasiga ham juda katta e'tib bergan. "Amr etdimki,-degan hitob bilan o'z tuzuklaridan birida shunday so'zlar keltiradi,katta-kichik har bir shahar, har bir qishloq masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona solsunlar, kasallar uchun shifohona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansunlar.Har bir shaharda dorul-amorat (hukumdor saroyi) va dorul adolat (adolat saroyi) qursunlar…".deb yozadi.Bundan ko'rinib turinibdiki Amir Temur o'z davrining bunyodkor hukumdorlaridan biri bo'lganini.Yana Amir Temurning bir hislati tahsinga sazovorki Amir Temur nafaqat o'z yurtida, balki

[222] Xakim Sattoriy "Amir Temur sevgan yurt", 'O'zbekiston', Toshkent-1996, 3-bet
[223] Muhammad Ali "Amir Temur salnomasi" , 'Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutibhonasi nashriyoti', Toshkent-2008, 12-bet

o‘zi bosib olgan hududlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan.O‘z hokimiyatining markazi qilib Samarqandni belgiladi va dunyoning eng obod shaxriga aylantirdi.Sohibqiron o‘z saltanatida tinchlik osoyishtalikni va barqarorlikni ta’minlashga eng asosiy vazifa deb qaragan va bu borada barcha choralarni ishga solgan.Buning natijasida iqtisodiy,siyosiy va madaniy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilgan.Bu ul zotning adolatli, xalqparvar siyosati natijasidir [224].Sharafiddin Ali Yazdiy sohibqironni shunday ta’riflaydi:

****

Sohibqironning himmati ul erdikim, yo‘llar aning ayyomi davlatida emin bo‘lg’ay va hudo bandalari har sorikim borsalar, alarg’a tashvish va taraddud bo‘lmag’ay, farog’ay bila borib kelg’aylar,Munga ko‘p sa’y qilur erdi…

Tarixchi Amir Temurning irodasi mustahkam, qattiqo‘l va adolatli davlat raxbari ekanligini, davlatni qonunlarga asoslangan holda boshqargani hamda o‘zi shoxid bo‘lgan voqealar haqida ma’lumotlar berib o‘tkan.Amir Temur davri davlatchiligi haqida yozilgan asarlardan biri “Temur tuzuklari” ,[225] dir.Ushbu asar Amir Temur harbiy va siyosiy faoliyati haqida ma’lumot beruvchi tarixiy asrlardan biri hisoblanadi.Ushbu asarda davlatchiligimiz tarixini o‘rganishda va tatqiq etish muhim manbalardan biri bo‘lib hizmat qiladi.Aynan ushbu kitobni takror o‘qish va kitobning haqiqiy mag’zini chaqa bilishlik birinchin galda rahbarling,qolaversa ziyoli insonlar uchun kerakli va foydalidir.O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezdendi I.Karimov bu kitob hususida shunday fikr bildirdilar.

*****

“Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo‘yib, tushunib, chuqur anglab o‘qisa, ularning qalbida milliy g’urur tuyg’usi yuksaladi, o‘zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetadi” degan. Albattaki yoshlarimiz orasida ushbu kitobni keng yoyilishiga zamin yaratishimiz darkordir.Bu kitobda keltirilgan o‘gitlar juda noyobdir! Masalan;

*****

“Yaxshilarga-yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim.Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa,do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, exson, izzatu ikrom ko‘rsatim” degan o‘gitlari shular jumlasidandir.Ushbu so‘zlardan shuni anglashimiz mumkinki Amir Temurning haqiqiy adolat egasi ekanligini.Hattoki "yomonlarning esa o‘z yomonliklariga topshirdim” ya’ni yomonlarning ishlarini shunchaki o‘z yomon ishlariga topshirganliklarini.Shu jumladan yaxshilarning hurmat qilganligini ularga izzat-ikrom ko‘rsatkani bu ham odil shoxning ishidir.Amir Temur sayidu sharflarning

[224] Л.Керен, А.Саидов “Амир Темур ва Франсия “, ‘Адолат ‘, Тошкент-1996, 17-бет
[225] Shoxistaxon O’ljayeva “Amir Temur davlat boshqaruvu”, ‘Akademnashr’, Toshkent-2017, 16-bet

hurmat qilar, ulamo-yu fozillarga yuksak izzat ko‘rsatar, qadriga yetar, qo‘lidan bir ish keladigan jamiki usta-hunarmandlardan, kasb egalaridan mehrini darig’ tutmasdi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari uning safdoshlari bo‘lishgan, tarix haqidagi kitoblarni o‘qishni va u haqdagi hikoyalarni tinglashni nihoyatda xush ko‘rgan.Saltanat yumushlaridan xalos bo‘lgach, har oqshom ulamo va fozillarni huzuriga chorlab, fan va dinning nozik jihatlaridan suhbatlar qurar, bahslar uyishtirar, teran savollar berib o‘ylantirib qo‘yardi. Chuqur bilmi-yu zukkoligi, turfa davlatlar va ularning podshohlari tarixini yaxshi bilish bilan Ibn Xaldunday ulkan olimni hayratga solganini aytadilar [226].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki Amir Temur bobomiz dunyo jamiyatida o‘z dong’ini taratgan hukmdorlardan bo‘lgan.Sharqning o‘zida bobomiz nomiga bag’ishlab olti yuzdan, butun dunyoda esa mingdan ortiq kitob yozilgan bo‘lib, dunyoda hali ayrim arbob yoki sarkardalar haqida buncha kitob yozilmagan.Bundan ko‘rinib turinibdiki bobomiz shaxsiga qiziqish benihoya katta ekanligini dunyo hamjamiyatida.

Bobomiz o‘z davrining mohir sarkardasi bo‘lish bilan bir qatorda ilm-fan arbobi bo‘lgan desak maqsatga muvofiqdir.Ushbu maqolamizda bobomizning ilm-fan sohasida amalga oshirgan ishlari hususida so‘z yuritdik.Ilm-fan sohasiga berilgan e’tibor va rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida atroflicha fikr yuritishga harakat qildik.Sohibqiron shaxsi to‘g’risida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezdenti I.Karimov shunday ta’rif beradilarж;

*Sohibqiron Amir Temurning shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir.

*Kimki o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!

Albattaki bugungi yoshlarimizning tarbiyalashda Amir Temur bobomizdek shonli tariximizda o‘zining o‘chmas izini qoldirgan bobomiz me’roslari bilan tarbiyalashimiz lozimdir!

[226] Muhammad Ali “Amir Temur salnomasi” , ‘Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutibhonasi nashriyoti’, Toshkent-2008, 43-bet

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN RIVOJLANISHI VA TARAQQIYOTI

Sayliyeva Umida Odiqovna

O‘zbekistonning istiqlolni qo‘lga kiritishi tariximizga to‘g’ri munosabatda bo‘lish imkonini yaratdi. Shu bois so‘nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o‘rganishga bag’ishlangan qator manbalar va kitoblar nashr qilindi. Buyuk sarkarda bobomizning davlat boshqaruvi siyosati,ilm-fan, manaviyatga bo‘lgan e’tibori juda yuqori bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur hazratlari milliy davlatchiligimiz tarixida yetti iqlim sultoni sifatida va yurt obodonchiligi,xalq farovonligi yo‘lida bor kuch g’ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi edilar.Amir Temur o‘z davrining nafaqat buyuk qo‘mondoni balki eng buyuk ilm-fan sohibi desak ham mubolag’a qilmagan bo‘lamiz.Sohibqiron yoshligidan juda ko‘p tillarni bilgan.Amir Temur o‘z ona tili chig’atoy va forschada so‘zlashgan,turk tilini ham bilgan.Temurbekning yoshlik yillari asosan Keshda kechadi va ko‘p yillarini ot minish,ov qilish,yoydan o‘q otish kabi mashg’ulotlar bilan shug’ullanish bilan o‘tkazgan.Sohibqiron yoshligida madrasa ta’limini ham olgan. Amir Temur bevosita olim bo‘lmasada,ilmga va ziyolilarga hurmat bilan qaragan.Amir Temur o‘z saroyida olimlar,shoirlar va san'atkorlarni to‘plagan.U ilm-fan va texnologiya asoslangan boshqaruvni qo‘llab-quvvatlagan.Temur o‘z yurishlari davomida ko‘plab Olim va ustalarni o‘z davlatiga olib kelgan,ayniqsa Eron, Hindiston va arab mamlakatlari. Samarqandda ilm va madaniyat markaziga aylantirishni istagan va bu borada ko‘plab ishlar qilgan. U ilm-fan va bilimlarning tarqalishi uchun kutubxonalar ochishga topshiriq bergan. Saroy kutubxonalari va madrasalari ilmiy markazi sifatida xizmat qilgan.U o‘z zamonasining eng mashhur olimlari,shoirlari va hunarmandlarni himoya qilib,ularga yaxshi sharoitlar yaratgan.Bu siyosat keyinchalik Temuriylar davrida gullab-yashnadi.

Amir Temur davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. U „Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash,tadbir va mashvarat,qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirgan”.Amir Temur davlatida olimlar uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilib berilgan va ularning hurmati ham katta bo‘lgan.Temur barcha farzandlari uchun eng bilimli ustozlarni tahsil berishi uchun o‘z saltanatiga yig’gan,barcha farzandlari,nevaralari ham eng bilimli va qudratli qo‘mondonlar va ilm-fan sohiblari bo‘lib yetishganlar.Temuriylar davri asosan(XIV-XVasrlar)Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniaytning yuksak cho‘qqilariga ko‘tarilgan davri hisoblanadi.Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan homiylari sifatida tanilib,olimlar va ziyolilarga katta ehtirom ko‘rsatishgan.Sohibqiron o‘z saroyiga turli mamlakatlardan mashhur olimlarni to‘plab,ularning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan.Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha,”Temur olimlarga mehribon,sayyid-u shariflarni

o‘ziga yaqin tutar edi .Ulamo va fuzaloga to‘la izzat -hurmat ko‘rsatib,ularni qadrlar edi’’.Temuriylar davrida Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan.Amir Temur va Temuriylar davrida assosiy e’tibor shaharsozlik,me’morchilik,tasviriy san’at,naqqoshlik,xattotlik,ilm-fan,adabiyot va musiqa kabi sohalarni rivojlantirishga qaratilgan.Mirzo Ulug’bek hukmronligi davrida ilm-fan yanada yuksaldi.U Samarqandda rasadxona va madrasalar qurdirib,astranomiya va matematika sohalarida yirik tadqiqotlar olib bordi.Ulug’bekning o‘zi ham buyuk astronom va matematik bo‘lib,uning ilmiy ishlari jahon faniga katta hissa qo‘shgan.Ulug’bek davrida turli mamlakatlardan kelgan olimlar,shoirlar o‘zaro ilm-fan bo‘yicha yuqori cho‘qqilarni zabt etishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Temuriylar davri adabiyoti o‘zbek adabiyoti rivojida o‘ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi.Undagi ulug’vor insonparvarlik va xalqchillik,adolatparvarlik va ma’rifatparvarlik g’oyalari hamon o‘z tarovatini yo‘qotgani yo‘q.Bu adabiy meros O‘zbekistonda hali asrlar davomida boy mazmuni bilan ,g’oyaviy-mafkuraviy teranligi va ilohiyligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvufning adabiyoti darajasini belgilaydi.Adabiyot tasavvufning g’oyaviy mazmunida ilohiy masalalarni qamrab olib umuminsoniy tafakkurni ifodaladi.Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g’amxo‘rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma’rifiy markaziga aylandi.Mashhur olimlar Samarqandga keldi.Masalan Qozizoda Rumiy,G’iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar yangi kashfiyotlar qildi.Tarix ilmida SHarofiddin Ali Yazdiy,Mirxond,Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi.Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy,Davlatshoh Samarqandiy,Atoullo Husayniy,Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san’at asarlari bilan hanuzgacha mashhur hisoblanadi.Mirzo Ulug’bek davrida Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solindi,Yer kurrasini o‘lchash va falaqqiyotshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi.

Samarqand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqea bo‘lib jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo‘q edi.Rasadxonada Ulug’bek matemetika,geometriya falaqqiyotshunoslik kabi fanlarni rivojlantirishga harakat qilgan va bunga muvaffaq bo‘lgan.Mirzo Ulug’bek “zij” asarida VIII-XI Asrlarda boshlangan falaqqiyot ilmiga oid an’anani davom ettirib,yuqori darajaga ko‘tardi.Ulug’bek o‘z davrida Samarqand,Buxoro va G’ijduvonda madrasalar qurdirib, ta’lim ishlariga rahbarlik qilgan.Mirzo Ulug’bekning o‘zi ham juda ko‘p fanlar bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lgan va shular asosida ko‘pgina asarlar ham yozib qoldirgan.Uning davrida ilm-fanga juda katta e’tibor berilgan.Barcha mashhur,bilimli olimlarni madrasalada ta’lim berishi va o‘zaro tadqiqotlar olib borishlari uchun to‘plagan.Ayniqsa Movarounnahrda ko‘plab forsiy va turkiy ijodkorlar to‘plandi.Adabiy muhitni bevosita Ulug’bekning o‘zi boshqarar, Samarqandda o‘sha davrning eng yaxshi

shoirlari yig'ilgan edilar. Ulug'bek Xurosondagi ijodkorlar bilan ham do'stona munosabatda bo'lgan.U Lutfiy she'rlarini xv asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy she'rlari bilan teng ko'rgan.Ulug'bek saroyidagi eng obro'li o'zbek shoiri Sakkokiyning lirik she'rlari bilan birga o'zbek tilidagi qasidalari ham bu she'riy janrning sezilarli yutug'i bo'lgan. Amir Temur va Temuriylar davrida hamma sohani rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.Amir Temur davridagi o'zbek davlatchiligining tarixini o'rganishda asosiy manba bu "Temur tuzuklari"dir.Bu asar asosan sohibqironning harbiy siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar.

Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lgani buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur Jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o'gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqa xususida gap boradi.

Temuriylar davrida ilm-fanning rivojlanishiga eng katta sabab bu temuriylarning ilmga bo'lgan e'tibori va o'zlarining ham ko'pgina sohalarda bilimli,salohiyatli bo'lganliklari shuningdek yurtda ilmni rivojlantirish uchun barcha mashhur,salohiyatli olimlarni to'plab bor e'tiborlarini qaratishlari sabab bo'lgan. Temuriylar hukmronligi davridan Movarounnahr,Samarqand,Buxoro kabi shaharlarda madrasalar bunyod qilinib unda eng salohiyatli ustozlar ta'lim berishgan. Bu davrda ko'pgina harbiy yurishlar,turli xil davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar bo'lgan bo'lsa-da lekin ilm-fan rivojlanishi to'xtab qolmagan. Temuriylar davrida har bir shahzodaning hukmronligi uning yurt uchun qilgan mehnatlari,ta'lim jarayonida yaratgan imkoniyatlari shuningdek qurdirgan madrasa, inshootlari,xalq farovonligini ta'minlashga qaratgan e'tiborini yozib boruvchi tarixchilar ham bo'lishgan.

Temuriylar davlatni adolat bilan boshqarishga,xalqni rozi qilishga harakat qilishgan buni Amir Temurning quyidagi mashhur jumlasi orqali ham bilishimiz mumkin "Kuch—adolatdadir" davlatni adolat bilan boshqargan podshohga ortiqcha kuch ishlatishni hojati ham yoq.Adolatli podshoh har doim davlatni

turli og‘ishishlarsiz boshqarmog‘i darkor. Temuriylar davri ham o‘zidan ko‘pgina ma'naviy va madaniy meros qoldirgan,biz kelajak avlod shulardan oqilona foydalanishimiz,ularga mos avlod bo‘lib ilm-fan sohasida buyuk marralarni zabt etib,vatanimiz nomini dunyoga tanitishimiz,shuningdek tomirimizda buyuk shaxslarning qonlari oqayotganini his qilgan holda ulardek ilmli insonlar bo‘lishimiz kerak.

TEMURIYLAR DAVRIDA AYOL OLIMALAR VA ULARNING ILM-FANGA QO‘SHGAN HISSASI

Safarova Fotima Ne'matulla qizi,
JDPU Xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi

Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan XIV–XV asrlar O‘rta Osiyo tarixida buyuk uyg’onish davri sifatida e’tirof etiladi. Bu davr nafaqat harbiy-siyosiy yutuqlar, balki madaniyat, adabiyot, san’at va eng muhimi — ilm-fan rivojida chuqur iz qoldirgan. Amir Temur tomonidan asos solingan bu sulola Mirzo Ulug’bek, Shohruh Mirzo, Husayn Boyqaro kabi ilm-ma’rifatga homiylik qilgan hukmdorlar orqali o‘zining ulkan ilmiy va madaniy merosi bilan tarixga muhrlandi. Aynan mana shu boy ilmiy muhit "Ikkinchi Renessans" deb ataluvchi Sharq uyg’onishining negizini tashkil etdi. Ko‘p hollarda Temuriylar davri ilm-fan taraqqiyoti kontekstida erkak olimlar, xususan, Mirzo Ulug’bek, Qazizoda Rumiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy singari yirik shaxslar nomi bilan tilga olinadi. Biroq shu davrda faoliyat yuritgan ayol olimalar, ularning ma’naviy-madaniy hayotdagi ishtiroki, ilm-fan va adabiyot sohalaridagi hissasi haqida yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Bu esa ilm-fan tarixining muhim va mazmunli jihatlaridan birining e’tibordan chetda qolishiga sabab bo‘ladi.

Aslida esa Temuriylar davrida yashab o‘tgan ko‘plab ayol zoti vakillari o‘z bilimdonligi, ma’rifatparvarligi, adabiyot va ilm-fanga muhabbati bilan nafaqat saroy muhitida, balki keng ijtimoiy va madaniy hayotda ham faol rol o‘ynagan. Ular orasida Goharbegim, Robiya Sulton Begim, Mehri kabi tarixda nomi saqlanib qolgan ayollar bor. Bu ayollar ilmiy faoliyat bilan shug’ullanishgan, kutubxonalar tashkil etgan, madrasalar qurilishiga homiylik qilgan va ayrim hollarda o‘zlari ham asarlar yaratgan. Shuningdek, ular o‘z zamonasining mashhur olim va adiblari bilan muloqotda bo‘lgan, ilmiy-falsafiy anjumanlarda qatnashgan.

Mazkur maqolada ana shu tarixiy shaxslar faoliyati, ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, adabiyot, tibbiyot, madaniyat va boshqa sohalardagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — Temuriylar davrida ayol olimalar tutgan o‘rinni tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida yoritish, ularning ilmiy merosini qayta tiklash va zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi ayollar faolligi uchun ilhom manbai sifatida talqin qilishdir. Ushbu

mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ayollarni ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb etish, ularning tarixiy rolini o‘rganish va qadrlash barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan muhim qadamlardan biridir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayollar ishtirokisiz hech bir uyg’onish to‘liq bo‘lmaydi.

Temuriylar davri - O‘rta Osiyoning ilmiy va madaniy tarixida alohida o‘rin tutgan, yuksak tafakkur egalari faoliyat yuritgan davrdir. XIV–XV asrlarda Amir Temur asos solgan davlat va uning avlodlari yaratgan ilmiy muhit, ma’rifatparvarlik an’analari, olim va fozillarni qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida bu davr "Sharqning Ikkinchi Renessansi" deb baholanadi.

Amir Temur o‘zining "Tuzuklari"da bilimdon kishilarni, olimlar va san’at ahlini qadrlash kerakligini alohida ta’kidlagan. Bu siyosat Mirzo Ulug’bek hukmronligi davrida yanada yuksak darajaga chiqdi. Ulug’bek Samarqandni fan va madaniyat markaziga aylantirib, bu yerda o‘zining mashhur rasadxonasini, madrasa va kutubxonalarni barpo etdi. Bu ilmiy muhitda erkak olimlar bilan bir qatorda, ilm-fan va madaniyatga qiziquvchi ayollar ham yetishib chiqa boshladi.

Ayollar faolligi uchun tarixiy zamin

Islom madaniyatida ayollarning ilmga bo‘lgan munosabati har doim muhim o‘rin tutgan. Hadislar va tarixiy rivoyatlardan ma’lumki, ilk islom davridayoq ayollar hadis ilmi, fiqh, tibbiyot va tilshunoslik kabi sohalarda faol ishtirok etganlar. O‘rta Osiyoda bu an’analar davom etgan va Temuriylar davrida yanada mustahkamlangan. Ayollar nafaqat uy-ro‘zg’or ishlarida, balki jamiyat hayotida, ta’lim-tarbiya, madaniyat va ilmiy jarayonlarda ham faol qatnashganlar.

Ilm-fan taraqqiyotida ayollar ishtirokining shakllari

Temuriylar davrida ayollar ilm-fan va ma’rifatga turli yo‘llar bilan hissa qo‘shganlar:

- Ilmiy homiylik: Saroy va boy zodagon oilalarning ayollari madrasalar, kutubxonalar, masjidlar qurilishiga homiylik qilishgan.
- Ilmiy-ma’rifiy maktablar tashkiloti: Ba’zi ayollar o‘z xonadonlarida xat va savod o‘rgatish darslarini tashkil qilishgan, ayniqsa diniy bilimlarni o‘rgatishda faollik ko‘rsatishgan.
- Adabiy ijod: Ayol shoiralar o‘z asarlari orqali ilm, axloq, tarbiya, ma’naviyat g’oyalarini ilgari surishgan.
- Kutubxonachilik va qo‘lyozmalar bilan ishlash: Ayollar shaxsiy kutubxonalar barpo etgan, Qur’on va boshqa ilmiy matnlarni ko‘chirish ishlarida ishtirok etganlar.

Ayol olimalar faoliyati tarixiy manbalarda

Tarixiy manbalar — xususan, Matlai Sa’dayn, Boburnoma, Abdullanoma, Hofiz Tanish Buxoriy va boshqa asarlar Temuriylar davrida faoliyat yuritgan ayrim ayol olimalar va shoiralar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Ular faqatgina saroy doirasidagina emas, balki kengroq ijtimoiy maydonda ham tan

olingan shaxslar bo‘lgan. Ayniqsa, Goharbegim, Robiya Sulton Begim, Mehri kabi shaxslar o‘z zamonasining yirik arboblari bilan ilmiy va madaniy aloqalarda bo‘lishgan.

Ayollar va ilmiy tafakkur uyg’unligi

Temuriylar davridagi ilmiy tafakkur ayollarning intellektual salohiyatini ham shakllantirdi. Falsafa, tasavvuf, tibbiyot, grammatika kabi fanlarga oid asarlar ayollar tomonidan o‘qilgan, muhokama qilingan, hatto ba’zilar tomonidan sharhlangan. Ularning faoliyati ko‘pincha erkak olimlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan, bu esa ilmiy hayotda gender integratsiyasining ilk namunalaridan biridir.

Goharbegim – adiba va homiy

Mirzo Ulug’bekning rafiqasi Goharbegim o‘z zamonasining bilimdon ayollaridan biri bo‘lgan. U nafaqat ilm-fanga qiziqqan, balki uni targ’ib qilgan. Goharbegim o‘z mablag’i evaziga madrasa va kutubxonalar qurdirgan, shuningdek, o‘z davrining adib va olimlariga homiylik qilgan. Tarixiy manbalarda Goharbegim tomonidan yozilgan she’riy parchalar ham uchraydi, bu uning adabiyotga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi.

Robiya Sulton Begim – ma’rifatparvar shaxsiyat

Robiya Sulton Begim — Temuriylar avlodi bo‘lib, Samarqand va Turkiston madaniy hayotida faol ishtirok etgan. U Turkistondagi maqbara va madrasa qurilishlarini homiylik qilgan, xattotlik va Qur’on ko‘chirish san’atini rivojlantirishga hissa qo‘shgan. Ba’zi tarixiy ma’lumotlarda u o‘z kutubxonasiga yuzlab qo‘lyozmalar to‘plaganligi qayd etilgan.

Ayol shoiralar – ilm-fan va adabiy ijod integratsiyasi

Temuriylar davrida ijod qilgan ayol shoiralardan biri Mehri shoiradir. Mehri asosan lirik she’riyatda qalam tebratgan va o‘z davridagi mashhur adiblar, xususan, Alisher Navoiy bilan ham fikr almashgan. Bu davrda ayol shoiralar she’riyat orqali ilm, axloq, ma’rifat, ta’lim tarbiyani targ’ib qilganlar.

Temuriylar davridagi ayol olimalar ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat sohasida muhim rol o‘ynagan. Ularning faoliyati nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlarga ham ilhom manbai bo‘ldi. Goharbegim, Robiya Sulton Begim, Mehri kabi ayol olimalarning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi Temuriylar davrining yuqori intellektual muhitini yaratishda muhim bo‘lgan. Ushbu tajriba bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, ayollar ilmiy faolligini rag’batlantirishda tarixiy saboq bo‘la oladi.

THE DEVELOPMENT OF SCIENCE DURING THE TIMURID PERIOD AND ITS HARMONY WITH CREATIVE APPROACHES IN MODERN EDUCATION

Riskulova Ziyoda Ikrom qizi
Master's student of the Pedagogical Department of Gulistan State Pedagogical Institute

Nurumbekova Y.A
Associate professor of Gulistan State Pedagogical Institute

The approaches used to develop science and culture during the Timurid era are consistent with today's education system. For example, the basic principles of teaching students to conduct scientific research and think independently were formed during the Timurid era[227]. The Timurids tried to pave the way for students to engage in scientific research and encourage them to think independently. Modern pedagogy is also based on the same principles: critical thinking, independent research, and innovative approaches play an important role in developing creative thinking in students[228].

Scientific centers and libraries established during the Timurid era provided students with the necessary conditions for acquiring knowledge and creating new ideas. This encouraged students not only to acquire knowledge, but also to conduct scientific research and create new ideas during the educational process[229]. Such approaches are also being used in today's modern education, providing students with opportunities to develop creative thinking through innovative approaches, practical activities, and scientific research[230].

The development of science during the Timurid era was of great importance, and during this period the scientific, cultural and technical development of that time reached a high level. The development of science occurred in the following 5 main areas:

1. Advancement in astronomy and mathematics: During the Timurid era, great achievements were made in the fields of astronomy and mathematics. Ulugbek, in his observatory in Samarkand, conducted various astronomical observations with the most advanced astronomical instruments of that time and summarized the results in his work "Ziji Ulugbek". Great scientific achievements were also observed in the fields of algebra and geometry in

[227]Inatov M.N., Xolnazarova L.S., Maxammadiyeva S.I. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" Toshkent, ToshDTU.2021.
[228] Jo'rayev.N. "Mustaqil O'zbekiston tarixi". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.
[229] Sabirov. A "O'zbekiston tarixi" Toshkent: Akademiya 2013.
[230] Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. "O'zbekistonning tarixi" -Toshkent: O'zbekiston, 2019.

mathematics. The main feature of Ulugbek's astronomical observations was the creation of accurate coordinates of stars and huge astronomical tables.

2. Development in medicine and pharmacy: During the Timurid era, the works of many great thinkers, for example, Abu Ali ibn Sino (Avicenna), were used in the development of medicine. His work "The Canons of Medicine" (al-Qanun fi't -Tibb) also had a great influence during the Timurid period. Other medical scholars also established hospitals and pharmacies, producing many medicines.

3. Innovations in literature and philosophy: During the Timurid era, the fields of literature and philosophy also developed. Alisher Navoi, with his works, began a new era in the history of literature. His work "Khamsa" is recognized as a high example of world literature. In philosophy, individuals such as Fuzuli, Mirzo Ulugbek, Abdurahman Jomi also contributed to great scientific and cultural changes. Fuzuli described humanity and nature in his poems and carried out philosophical research.

4. Development in art and architecture: During the Timurid era, art and architecture also developed greatly. The cities of Samarkand and Bukhara became scientific and cultural centers of the time. Monuments and architectural structures such as the Ulugbek Madrasa, Registan Square, Shah-i Zinda are considered one of the great achievements of this era. Also, during the Timurid era, art forms such as calligraphy, miniature, and embroidery also developed and became famous throughout the Islamic world.

5. Growth in the field of history and geography: During the Timurid era, there were also great achievements in the fields of history and geography. The Timurids studied the history of their era and created many works. The work "Zafarnoma", which covered the history of Timur, is famous for its historical and artistic value. During the Timurid era, several important developments took place in the development of science, which had an impact not only in Central Asia, but also in the entire Islamic world.

The approaches aimed at developing independent thinking, creative approach and critical thinking in students during the Timurid era are in harmony with today's modern education system[231]. The main goal of the current pedagogical process is to encourage students to use unconventional approaches in scientific and practical activities, to create new ideas, and to develop independent thinking. The emphasis on research and the development of innovative thinking in students in the science and education system of the Timurid era serves as the basis for advanced approaches in education today[232].

[231]Janbaeva, M., Ergasheva, M., & Yusupova, Z. (2023). Amir Temur davrida ta'lim-tarbiya tizimi. *Amir Temur siymosining yoshlar ma'naviyatidagi tarbiyaviy ahamiyati Ilmiy-Amaliy anjuman*, *9*.

[232]Smatillaevna, J.M, Ziyoda, Y, & Mokhinur, E. (2023). Technologies for development of pedagogical skills of future teachers in the pedagogical education system. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, *20*(8), 63-65.

The approaches used to develop science and culture during the Timurid era are consistent with today's education system. For example, the basic principles of teaching students to conduct scientific research and think independently were formed during the Timurid era[233]. The Timurids tried to pave the way for students to engage in scientific research and encourage them to think independently. Modern pedagogy is also based on the same principles: critical thinking, independent research, and innovative approaches play an important role in developing creative thinking in students.

Scientific centers and libraries established during the Timurid era provided students with the necessary conditions for acquiring knowledge and creating new ideas[234]. This educational process encouraged students not only to acquire knowledge, but also to conduct scientific research and create new ideas. Such approaches are also used in today's modern education, providing students with opportunities to develop creative thinking through innovative approaches, practical activities, and scientific research[235].

The methods of developing science and education during the Timurid era were combined with today's modern education system. The Timurids made a great contribution to the formation of creative thinking in the development of science and culture, and their approaches are becoming the main elements of critical thinking, independent research and the creation of innovative ideas in students in the modern pedagogical system.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FANGA E'TIBOR

Rafiqova Mubina Abdulazizovna,
Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi

Temur Tarag'ay ibn Barlos 1336-yil 9-aprelda uncha katta bo'lmagan Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Temur nomi turkiy tildan "temir" deb tarjima qilinib, bu ko'p jihatdan uning irodali fe'l-atvori va kelajakdagi taqdiriga ta'sir ko'rsatgan. U jasur va mard yigit edi, ota-onasi va ustozlari uni haqiqiy jangchi qilib tarbiyalashgandi.Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan bo'lib, Movarounnahrda o'ziga yarasha obro'-e'tiborga ega, nufuzli ziyolilardan bo'lgan. Uning ota-bobosi afsonaviy turkiy Alan quva shajarasidan kelib chiqqan bo'lib, Chig'atoy ulusining saroydagi obro'-e'tiborli kishilari qatoridan joy olgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar ularga qarashli mulk hisoblangan. Jangda olgan oyog'idagi jarohatlarga qaramay, u juda kuchli

[233]Yusupova, Z.I.Q. (2023). O'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, *5*(NUU conference 3), 176-181.
[234] Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). Ta'limda innovatsion yondashuvlarning ijodiy qobiliyatlarga ta'siri. *Innovative Development in Educational Activities*, *4*(1), 186-193.
[235] Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). Yoshlarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirishda motivatsiya va qiziqishning roli. *Innovative Development in Educational Activities*, *4*(1), 194-201.

qudratga ega edi va oxirgi kunlarga qadar barcha yurish va janglarda shaxsan ishtirok etdi.Chingizxonning qizi Saroy Mulk Xonimga muvaffaqiyatli uylanishi unga turkiy tildan "xonning kuyovi" deb tarjima qilinuvchi "Ko‘ragon" munosib xon unvonini olish imkonini berdi. Amir Temurning asosiy vazifasi parchalangan davlatga barham berish va alohida yerlarni bir davlatga birlashtirishdan iborat bo‘lgan. Mazkur davlatning poytaxti etib u Samarqandni tayinlab, tezkorlik ila shaharning himoya devorlarini, qo‘rg’onlar va saroylarni barpo etishni boshlaydi. Amir Temur Amudaryo va Sirdaryo orasidagi yerlarni, shuningdek, Farg’ona va Shosh viloyatlarini o‘ziga bo‘ysundirib, birlashtiradi, so'ngra bosqinchilik yurishlarini boshlaydi. Amir Temur hukmronligi 35 yil davom etgan (1370 - 1405). U Ind va Gangdan Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan Shandan Bosforgacha bo‘lgan katta saltanatni yaratgan.

Hayotining katta qismini yurishlarda o‘tkazgan. O‘zining kelib chiqishiga qaramay, u mo‘g’ullarni Movarounnahrdan quvib chiqardi, yerlarni bitta katta davlatga birlashtirdi. U qadimgi So‘g’diyona poytaxti - Afrosiyob xarobalari yaqinidagi qarovsiz qolgan Samarqandni o‘z imperiyasining poytaxtiga aylantirdi. Bu yerda u tez orada mudofaa devorlari, qal’a va o‘zining qarorgohi qurilishini boshlaydi. Amir Temuming hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so‘zlovchi “Temur tuziklari” nomli maxsus asar yozilgan. “Tuzuk” so‘zining lug’aviy ma’nosi qonun-qoidalar to‘plami, nizom, degan ma’nolami anglatadi. Boshqacha aytganda, tuzuk — konstitutsiya ya’ni davlatning Asosiy qonuni. Shu ma’noda “Temur tuzuklari” Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lib, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga shariat qonunlari bilan bir qatorda kuchli ta’sir o‘tkazgan. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, O‘rta asrning bebaho tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temurning hayotiy voqealari bilan bog’liq tarjimai xoli, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy san’atga bo‘lgan nuqtai nazari, davlat tuzilishi va boshqaruvi kabilar bayon qilingan. Atoqli rus olimi D.Logofet “Temur tuzuklari”ga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, Amir Temur saltanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergan. Binobarn, mustaqillikning dastlabki yillari Konstitutsiyamiz loyihasining muhokamasi davrida Asosiy qonunimizni “Tuzuklar” deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas. Amir Temur davlat boshqaruvida “Rosti rusti”, ya’ni “Kuch adolatdadir” tamoyiliga asoslanib boshqargan. U ushbu shiorni hamisha o‘zi bilan birga ekanligi ramzi sifatida uzugiga yozdirgan. U davlatning obro‘si, sharafi, xalq manfaati yo‘lida g’oyat adolatli bo‘lgan. Temur qattiqqo‘llikda o‘zini ham, o‘g’illari va nabiralarini ham, qarindosh-urug’larini ham ayamagan va davlat ishlarida g’oyat mustahkam turganligi tarixdan yaxshi ma’lum. Amir Temur o‘z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homiysi bo‘lib tanildi.

O‘z siyosati bilan madaniy yuksalishga va turkiy tilning rivojiga keng yo‘l ochib, nafaqat Markaziy Osiyoning madaniy-ma’naviy olamida, balki butun musulmon olami tarixida o‘chmas iz qoldirdi va so‘nggi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Amir Temur qator Sharq mamlakatlari va ayniqsa, Ovro‘po mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, ular bilan turli savdo-sotiq, madaniy aloqalarga yanada keng yo‘l ochib berdi. Amir Temur Ikkinchi Renessansni boshlab berdi va temuriylar hukmronligida bu davr gullab-yashnadi. Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug’vorligini ko‘rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag’dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog’-rog’larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirdi. Amir Temurning onasi Takinaxotun buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Ubaydulla ibn Mas’udning avlodi (1350-yil vafot etgan) edi.

Sohibqiron Amir Temurning onasi va otasi Shahrisabzda dafn etilgan. Amir Temur onasining xotirasiga bag’ishlab balandligi 71 metr keladigan dunyoga mashhur Oqsaroy yodgorligini bunyod ettirgan. Markaziy Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi Amir Temur asos solgan hududda shakllandi va ijod qildi. Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlardan Mirzo Ulug’bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy; faylasuf-shoirlardan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy; musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh; xattotlardan Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad Nur va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning barchasi o‘sha davr va o‘zlarigacha bo‘lgan insoniyat ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati yutug’ining barcha sohalarini mukammal bilib, o‘zlashtirib olgan, o‘zlari tanlagan sohalarining hali hech kim tomonidan zabt etilmagan cho‘qqilarini egallagan ulug’ siymolar, qomusiy ilm egalari bo‘lganlar.

Amir Temur o‘zining irodasi, siyosiy zukkoligi, harbiy iste’dodi va adolatparvarlik tamoyillari bilan jahon tarixida beqiyos iz qoldirgan buyuk shaxsdir. U beqaror siyosiy davrda vujudga kelgan bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida qudratli, markazlashgan va intizomli davlat barpo eta oldi. Amir Temur yaratgan davlat tizimi, uning boshqaruv uslubi va xalq bilan bo‘lgan munosabatlari keyingi asrlarga ham namuna bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, “Temur tuzuklari” kabi hujjatlar orqali u davlat boshqaruvining huquqiy, harbiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlagan.

Amir Temurning yurishlari tarixda faqat zabt etish emas, balki davlatchilikni mustahkamlash, savdo-sotiq yo‘llarini tiklash, xalqaro aloqalarni kengaytirish va tinchlikni o‘rnatish yo‘lida olib borilgan strategik harakatlar sifatida e’tirof etiladi. U tomonidan zabt etilgan shahar va o‘lkalar faqat kuch bilan emas, balki taraqqiyot, qurilish va madaniyat orqali rivojlantirilgan. Amir Temur nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun insoniyat tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning harakatlari, yuritgan siyosati, qoldirgan merosi va tarixiy obidalari bugun biz uchun faxr manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Mustaqil O‘zbekiston tarixida uning siymosi yangicha yondashuv bilan o‘rganilmoqda, yodgorliklar barpo etilmoqda, ilmiy asarlar yozilmoqda. Bugungi avlod buyuk ajdodimizning hayoti va faoliyatini o‘rganib, undan saboq olishi zarur. Amir Temur o‘z hayoti bilan bizga eng qiyin davrda ham kuchli iroda, qat’iyat, adolat va vatanparvarlik bilan har qanday to‘siqlarni yengish mumkinligini isbotlab bergan. Shuning uchun ham uning shaxsi tarixiy namuna, faoliyati esa abadiy ibrat manbai bo‘lib qoladi.

EDUCATION DURING AMIR TEMUR'S REIGN

Lutfullayeva Umida Ravshanbekovna,
The head of "Pedagogy and languages" department at
Tashkent University of Human Sciences

During the reign of Amir Temur, the region of Central Asia was a melting pot of diverse cultures, religions, and languages. Temur emerged as a powerful leader from the Barlas tribe and established a vast empire that included parts of present-day Uzbekistan, Kazakhstan, Iran, and beyond. Amidst the backdrop of military campaigns and territorial expansion, Amir Temur recognized the importance of education and culture in maintaining stability and fostering loyalty among his subjects. The main significance of Amir Temur's educational policy was building a great number of madrasas, or Islamic schools, which played a crucial role in the intellectual growth of the empire. Temur invested significantly a great amount of money in the establishments of these institutions, providing resources for students by attracting talented scholars. The madrasas served not only as centers for religious education but also for studying other important subjects such as theology, philosophy, mathematics, and astronomy.

Temur's most notable contribution to education was foundation of the famous Timurid capital, which is called Samarkand. The grand Ulughbek Observatory and Shaxi-Zinda complex which attract majority of travelers from wide range countries, were built in Samarkand. These sites became renowned for their architectural beauty and their roles as centers of learning. The Ulugh Beg Observatory, in particular, was instrumental in advancing astronomical knowledge and housing that allowed for precise measurements and observations

of celestial objects. The curriculum in Temur's madrasas was diverse, reflecting the multifaceted nature of education during his reign. Religious studies, such as the Quran and Hadith, formed the backbone of the educational system. Students were also exposed to various secular disciplines including mathematics, medicine, literature, and art.

The study of Persian literature flourished, as Persian poets and writers received patronage from Temur. One of the significant features of education during this time was the inclusion of practical subjects. Students learned not only theoretical aspects but also skills applicable to everyday life and administration. This hands-on approach to education helped in producing a knowledgeable bureaucratic class capable of managing the vast empire.

Amir Temur surrounded himself with scholars, poets, and philosophers, understanding the importance of intellectuals in legitimizing his rule. The presence of brilliant minds such as the astronomer Ulugh Beg, who was also Temur's grandson, greatly influenced the educational landscape of the time. Scholars from various regions, including Persia and the Arabian Peninsula, were invited to teach and share their expertise in the madrasas.

The patronage of Temur enabled scholars to conduct extensive research and produce groundbreaking works in various fields. For instance, Ulughbek's contributions to astronomy not only advanced the knowledge of celestial bodies but also laid the groundwork for future scientific endeavors in the region.

Temur's contributions to education went beyond mere establishment of institutions; they fostered a culture of inquiry and learning that would resonate throughout history. By prioritizing education, Amir Temur not only sought to solidify his power but also to cultivate a society rich in knowledge and culture. The educational strides made during his reign remain a testament to the importance of learning in the advancement of civilization.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIDA E'TIBOR — IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI

Qurbonaliyev Azimjon Akramjon o'g'li,
Qo'qon Universiteti Andijon filiali talabasi
Xusanova Shahlo Artiqalievna
Qo'qon Universiteti Andijon filiali o'qituvchisi

Tarixda har bir buyuk davlatning taraqqiyoti — uning ilm-fan va madaniyatga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'lgan. O'rta asrlarda yashab o'tgan sarkarda va davlat arbobi — Amir Temur nafaqat yirik imperiyani tashkil etgan, balki uning asosiy ustunini ilmli kishilar, olimlar, san'atkorlar va mutafakkirlar tashkil etishini tushunib yetgan shaxs sifatida tanilgan. Uning siyosiy qarashlari, madaniy merosi va ilm-fan sohasidagi islohotlari keyingi

asrlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Aynan shu tufayli Temuriylar davri “Ikkinchi Renessans”ning — ya’ni Sharq uyg’onish davrining muhim bosqichi sifatida e’tirof etiladi.
Amir Temur ilm-fan taraqqiyotini davlat mustahkamligining asosi deb bilgan. Uning o‘z qo‘li bilan yozilgan “Temur tuzuklari” asarida ilmli kishilarning hurmati haqida aniq ko‘rsatmalar mavjud. U shunday deydi: *“Olimlar bilan maslahatlashdim, ularning bilimidan foydalandim. Ular mening yuragimga nur sochdilar.”*

Amir Temur o‘z davlati tarkibiga kirgan shahar va yurtlardan eng bilimli kishilarni Samarqandga olib kelgan. Ularning yashash va ishlash sharoitlarini yaxshilash uchun imkon yaratgan. Madrasalar, kutubxonalar, masjidlar va ilmiy muassasalar qurdirgan. Ayniqsa, Samarqand, Hirot, Buxoro singari shaharlarda ilm-fan markazlari tashkil etilgan[236].

Temuriylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar — Mironshoh, Shohrux Mirzo, Husayn Boyqaro va ayniqsa, Mirzo Ulug’bek o‘zlarining ilmga, madaniyatga mehr-oqibati bilan mashhur bo‘lganlar. Bu sulola davrida Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda ilm-fan va san’atning eng yuqori cho‘qqilari zabt etilgan.

Mirzo Ulug’bek (1394–1449) — Temuriylar sulolasining eng mashhur vakillaridan biri bo‘lib, u nafaqat yirik davlat arbobi, balki zamonasining eng ulug’ astronomi sifatida tarixda qolgan. U Samarqandda 1420-yilda Ulug’bek madrasasini qurdirgan. Bu madrasa ilmiy markazga aylangan. Bu yerda Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi kabi buyuk olimlar faoliyat yuritgan.

1437-yilda Samarqandda qurilgan Ulug’bek rasadxonasi o‘z davrining eng ilg’or astronomik inshootlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda yaratilgan “Zij-i Ko‘ragoniy” asari astronomiyada katta yutuq bo‘lib, unda 1018 yulduzning

[236] Temur tuzuklari. Amir Temur. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1991.

koordinatalari aniq hisoblangan. Bu asar Yevropa olimlari tomonidan ham yuksak baholangan. Bundan tashqari, matematika, geometriya, geografiya, tibbiyot, adabiyot va tilshunoslik kabi sohalarda ham muhim asarlar yaratilgan. G'iyosiddin Jamshid al-Koshiyning sonlar nazariyasi, Ali Qushchining astronomiyaga oid ishlari butun dunyo miqyosida mashhur bo'lgan[237].

Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning yuksalishi tufayli bu davr "Ikkinchi Renessans" deb ataladi. Chunki bu davrda: Ilm-fan amaliy hayotga tadbiq etilgan; Madrasalar va kutubxonalar faoliyati kengaygan; Olimlar o'rtasida ilmiy muloqot, mushohadalar keng yoyilgan;Ilmiy meros keyingi asrlar olimlariga poydevor bo'lgan.

Bu uyg'onish o'zining ta'siri jihatidan Yevropadagi Renessans bilan tenglashadi. Faqat bu uyg'onish Sharq sivilizatsiyasi asosida shakllangan edi[238]. Renessans atamasi G'arb tarixida, asosan, Yevropadagi XIV–XVI asrlarda yuz bergan madaniy va ilmiy uyg'onish davri sifatida qo'llaniladi. Ammo, tarixiy haqiqatga nazar tashlasak, Sharqda aynan Temuriylar davrida yuz bergan ilm-fan, san'at va madaniyatdagi yuksalish bu jarayonning Sharqdagi ifodasiga aylandi. Shu sababli ko'plab tarixchilar bu davrni "Sharqning Ikkinchi Renessansi" deb ataydilar.

Temuriylar davrining eng yuksak cho'qqisi — bu, albatta, Mirzo Ulug'bek faoliyati bilan bog'liq. U nafaqat buyuk hukmdor, balki astronomiya, matematika, geometriya va falsafa sohasida yetuk olim edi. Uning boshchiligida Samarqandda Ulug'bek madrasasi (1417–1420) va rasadxona (1428–1429) qurildi. Bu muassasalar o'z davrining eng ilg'or ilmiy markazlari bo'lib, ularda: Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy kabi olimlar faoliyat yuritgan[239]. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomli astronomik jadval tuzilgan (bu asar Yevropa olimlari tomonidan ham asrlar davomida foydalanilgan); Yulduzlarning holati, Yerning aylanishi, vaqt va taqvimga oid fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Bu ilmiy yuksalishlar ilm-fanning amaliy va nazariy jihatdan chuqurlashishiga olib keldi va keyingi asrlarda nafaqat musulmon sharqi, balki Yevropa uchun ham ilhom manbai bo'ldi[240].

Temuriylar davri — nafaqat ilm, balki adabiyot va san'atda ham uyg'onish davri bo'ldi. Ayniqsa, Hirot saroyi davrida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro kabi yirik shaxslar faoliyat yuritib, o'zbek, fors-tojik tilidagi adabiyotga yuksak daraja kiritdilar. Alisher Navoiyning "Xamsa"si, Jomiyning falsafiy asarlari, musiqiy madaniyatda o'ziga xos maktablar — bularning barchasi Temuriylar madaniy siyosatining mahsuli bo'ldi[241]. Temuriylar davridagi ilmiy meros nafaqat Movarounnahr va Xurosonda, balki Hindiston,

[237] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2000-yil, 5-jild.
[238] Sultonov, M. Temuriylar davrida fan va madaniyat. Toshkent: Fan, 2002.
[239] Temur tuzuklari. Amir Temur. Toshkent: "O'zbekiston", 1991.
[240] Mirzo Ulug'bek. "Zij-i Ko'ragoniy" — ilmiy astronomik risola.
[241] Usmonov, I. Temuriylar davri madaniyati. Samarqand, 2016.

Eron, Usmonli imperiyasi va hatto Yevropaning o‘zida ham yuksak baholangan. Ulug’bek rasadxonasida olingan ma’lumotlar Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan ancha ilgari aniqlangan. Bu esa Sharqdagi ilm-fan taraqqiyoti G’arb uyg’onishidan ilgariroq boshlanganini isbotlaydi[242]. Shunday qilib, Temuriylar davri — diniy bag’rikenglik, ilm-fan erkinligi, madaniyatga rag’bat va tafakkurga asoslangan davr bo‘lib, aynan shu sababli "Ikkinchi Renessans"ning poydevori sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Amir Temur va Temuriylar davri Sharq tarixida o‘ziga xos burilish yasagan, madaniy-ma’rifiy uyg’onish — Ikkinchi Renessans poydevori sifatida tarixda muhrlangan davr bo‘ldi.

Amir Temurning o‘zi harbiy-siyosiy g’alabalari bilan bir qatorda, ilm, madaniyat va din sohalariga ham alohida e’tibor qaratgan davlat arbobi edi. U ilm-fanni qo‘llab-quvvatlagan, ulamo va san’atkorlarni jamlab, zamonaviy siyosiy poytaxtlarni ilm-fan markazlariga aylantira olgan buyuk strateg edi. Uning avlodlari, ayniqsa Mirzo Ulug’bek, bu yo‘nalishni yanada chuqurlashtirib, ilmiy maktablar, rasadxona, madrasalar barpo etib, butun dunyo tan olgan ilmiy merosni yaratdi.

Ulug’bek boshchiligidagi Samarqand rasadxonasi, “Ziji Ko‘ragoniy” asari, Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlarning faoliyati — bu davrda ilm-fanning nechog’lik yuksak pog’onaga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatadi. Temuriylar faqatgina ilmga emas, balki adabiyot, musiqa, me’morchilik va san’atga ham katta hissa qo‘shdilar. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi ulug’ shaxslar faqat o‘z davri uchun emas, balki keyingi asrlar uchun ham madaniy-ma’naviy boyliklar yaratganlar. Sharq Renessansi — bu milliy o‘zlikning, tafakkur va ijtimoiy ongning yuksalgan bosqichi bo‘lib, xalqning ilmga bo‘lgan intilishini, ijtimoiy taraqqiyotga bo‘lgan ishtiyoqini oshirdi. Aynan shu davrda yaratilgan asarlar va shakllangan maktablar keyingi asrlarda butun islom olami va hatto Yevropa uyg’onish davriga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Bugungi kunda ushbu boy meros biz uchun bebaho ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Temuriylar davrining ilmiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish, uni zamonaviy ilm-fan bilan uyg’unlashtirish, yosh avlodni ushbu qadriyatlar asosida tarbiyalash — bu bizning tarixiy burchimizdir. Ikkinchi Renessansning ildizlari ana shu o‘tmishda, buyuk ajdodlar yaratgan bebaho ilmiy xazinada mujassam.

[242] Sultonov, M. Temuriylar davrida fan va madaniyat. Toshkent: Fan, 2002.

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA BUNYODKORLIK

Orifova Farziyo O'tkirbrk qizi,
Qo'qon universiteti Andijon filiali

Amir Temur bin Tarag'ay 736 hijriy yili (milodiy 1336 yili 9 aprelda) Shaxrisabz shahri yaqin Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan.Otasi Tarag'ay Barlos urug'ining nufuzli beklaridan bo'lganligi uchun ham yiliga bir marta Ili daryosi bo'yidagi Olmaliq shahrida xon tomonidan chaqiriladigan quriltoyga taklif qilinar edi.U xudojuy kishi sifatida shayxlar bilan yaqin munosabatda bo'lar,ayniqsa piri Shayx Shamsiddin Kulolga chuqur hurmat va extirom ko'rgizardi.Keyinchalik Shayx Shamsiddin Kulolga Amir Temurning ham piri bo'ldi.Tarag'ay 1360 yili vafot etgan va Kesh shahrida dafn etilgan.

Amir Temur tinchliksevar, bunyodkor xalqning farzandi, tabiatan ma'rifatparvar bo'lib tug'ilgan o'xshashi yo'q zot edi. «…Amr etdimki, – deb yozadi Amir Temur «Tuzuklar»da, – katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqir-u miskinlarga langarxona (musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul- amorat (hukmdor saroyi) va dorul-adolat (adolat saroyi) qursunlar…».

Amir Temur buyuk davlat arbobi, siyosatchi, o'tmish davlatchilik tajribalariga asoslanib o'ziga xos davlat boshqaruviga asos soldi. "Temur tuzuklari"ga muvofiq, Sohibqiron Temur "Davlat ishlarining 9 ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim",– deb ta'kidlagan.Darhaqiqat, Amir Temur yuritgan saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgan, ya'ni:

1) kengash;
2) mashvaratu maslahat;
3) qat'iy qaror;
4) ehtiyotkorlik.

Sohibqiron Amir Temur saltanatining boshqaruvida va uni yanada mustahkamlashuvida "tuzuklari"dagi o'n ikki qoidaga butun hayoti davomida rioya etganligini ta'kidlagan. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1.Islom dini va shariat qonun-qoidalariga rioya qilishi, uni qo'llab-quvvatlash.

2.Saltanatning ustunlarini tashkil etgan o'n ikki tabaqa va toifadagilar bilan bamaslahat ish ko'rish, siyosat yurgizish.

3.Maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyor-ehtiyotkor bo'lish.

4.Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarish.

5.Amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, ularga izzat va hurmat ko'rsatish, martaba va unvonlarini hurmatlash.

6.Adolat va insof bilan siyosat yurgizish.

7.Sayyidlar, ulamo-yu mashoyixlar, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni izzat-hurmat qilish. Fan va madaniyatga homiylik qilish.

8. Biror ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo‘lsa, unga butun vujudi bilan kirishish va uni oxiriga yetkazish.

9. Raiyat (oddiy xalq) ahvolidan doimo ogoh bo‘lish.

10. Turk, tojik, arabu ajamning turli toifalariga do‘stona munosabatda bo‘lish.

11.Barcha qarindosh-urug’ bilan martabasidan qat’iy nazar yaxshi munosabatda bo‘lish.

12. Sipohilarga, qo‘shinga e’tiborli bo‘lish.

faoliyat yuritgan.

Temuriylar mamlakatni 3 asrga yaqin boshqardilar. Amir Temurning tarixiy xizmati shundaki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug’rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi. Umuman, Amir Temurning jahon madaniyati siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o‘rni va tarixiy ahamiyati quyidagil“Tuzuklar”da ta’kidlanganidek, Amir Temur o‘z vazirlariga nisbatan juda ham mehribon bo‘lgan. Shuningdek, ularni ortiqcha siylamaslik lozimligini ta’kidlagan. Amir Temur “Dono vazir – doimo davlat aholisini, xalq baxtini, qo‘shinni kuchaytirishni, to‘kin-sochin boylikni o‘ylaydi. Mansabdor agar u xalq bilan yomon munosabatda bo‘lsa, qilgan aybining muqimligiga muvofiq jarima to‘lashi lozim”, – deb ta’kidlagan. Amir Temur: “Vazir zolim bo‘lsa, saltanat ishlari tez muddatda parokandalikka uchraydi”, – deb ta’kidlagan. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, vazirning vazifalarini taftish etayotganda o‘z vorislariga tuhmat va hissiyotlarga berilmaslikni uqtiradi. Agarda vazir davlatga xiyonat qilsa, o‘limga hukm qilingan.

Amir Temurning davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burchi va ardan iborat: Birinchidan, Amir Temur XIV asrdayoq mamlakatlararo va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirish asosida insoniyat taraqqiyotini jadallashtirish zaruriyat ekanligini ko‘rsatib berdi. Ikkinchidan, u mamlakatning kuchayib ketgan feodal tarqoqligiga barham berib, el-yurtni o‘z tug’i ostiga birlashtirdi, markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Uchinchidan, Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvini tashkil etishda o‘ziga xos maktab yaratdi. Hammaning qonun oldida tengligi va qonun ustuvorligini ta'min etishi uning buyuk xizmatidir. To‘rtinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘lishda yordam berdi. Masalan, o‘sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni tor-mor qilib (1402), Bolqon

yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarni turklarning istibdodidan qutqardi. Beshinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. O‘z umrining ko‘p qismini Amir Temur hayotini o‘rganishga bag'ishlagan pokistonlik tadqiqotchi Ahmad Doniy: «Hozirgi zamon tarixi Amir Temurning buyuk shaxsiga yetarli e'tibor bermadi. U Osiyoda turk islom yuksalishiga asos soldi. Tarix uning ilmi amali bilan tenglashadigan boshqa bir muqobil hodisani bilmaydi», – deb yozadi.vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa xususida o‘z tuzuklarida batafsil bayon etilgan. Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temur saltanati aniq va puxta ishlangan tizimga muvofiq.

Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, 33 mamlakatdan,sharq tillarida esa 900 ga yaqin asarlarni tashkil etadi. Amir Temurning tug'ulishi haqida quyidagi fikrlar kitoblarda talqin etiladi. “Farzand kutayotgan baxtiyor otaga ma'lum bo‘lishicha ilohiy payg'om haqida “Zafar yo‘li” kitobida bir lavha mavjud. Keyinchalik ota – Muhammad Tarag'ayning o‘g'li Temurbekka hikoya qilib berishicha,u bir kecha tush ko‘rgan. Tushida arabsiymo bir zot unga qilich bergan. Qilichni boshi uzra sirpaganda butun atrof yorug' bo‘lib ketgan. Tarag'ay tushini ta‘birini piri Shamsiddin Kuloldan so‘raganda, pir “Olloh senga bir o‘g'il beradi, u dunyoni zulmatdan qutqaradi” deb tushni ta'bir qilgan ekan”.

Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI yozgan xatidagi quyidagi fikr diqqatga sazovordir. “Siz o‘z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni ulug' qarshi olib izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha vazifalar qilinishiga yo‘l qo‘ymang. Sizga bundan bo‘lak talabim yo‘q. Zero, dunyo ahli savdo ila obod bo‘lajak” Qarang, qanday oddiy va aniq fikr. Demak, Amir Temur tashqi savdoga katta e'tibor bergan. “Tajribamda ko‘rilgankim, azmu qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz loqayd kishidan yaxshiroqdir”. Demak, Amir Temur bobomiz tadbirkorlarni juda qadrlagan. Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma'noli, hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan. “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan maqolga g'oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir.

Pulning jamiyat iqtisodida o‘ynagan roli kundan-kunga kuchayib borganligi uchun ham qishloq xo‘jalik maxsulotlaridan olinadigan soliqni naqd pul bilan olishga imkon bergan. Bu davrda asosan ,qishloq xo‘jaligi bilan bog'liq bo‘lgan ikki turdagi xiroj va ushr soliqidan boshqa,savdogarlar va hunarmandlar zakod to‘laganlar,chegaradan o‘tagan mollar hisobidan boj olingan. Bularning hammasi davlat xazinasining asosiy manbai hisoblangan.

Amir Temur o‘z “Tuzuklarida”saltanat ishlarini yurutuvchi vazir. U butun saltanat idoralarning kirim-chiqimlari,xazinadan sarf qilingan tamom xarajatlar,xatto otxona va saroydagi boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlargacha ogoh bo‘lishi lozim.Saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin-deb yozadi. Amir Temur davriga kelib,bujet nafaqat tushumlar va chiqimlar qayt etilibgina qolmay,balki keying moliya yili uchun muljallangan chiqimlar-u kirimlar miqdorlari ham rejalashtirilgan.Davlat bujetidagi xodimlarga oylik moash berishda pul va yani moddiy normalarda to‘lash tizimi qo‘llanilgan. Amir Temur olib borgan pul-moliya siyosatining moxiyatiga tushinib yetmagan rus tarixchisi M.Ivanin uning natural bilan to‘lash iqtisodiy siyosatini xato talqin qilib;,pul munosabatlari bilan yaxshi tanish bo‘lmagan ko‘chmanchi xalqlar buyumlar qiymatini odatda ot,qo‘y,tuya va boshqa narsalar bilan o‘lchaydilar. Shu tufayli Amir Temur jangchi maoshini shu jangchiga tegishli otning narxiga teng qilib belgilardi”-deb yozadi. 18 asrning oxiri,aniq qilib aytganda 1776-yilda Ovrupolik siyosiy iqtisodchi Adam Smit va undan keyin David Rekordalar o‘z asarida davlatning boyligi uning xazinasida saqlanayotgan oltin,kumush 70 bilan emas,balki shu davlatda yashayotgan xalqlarning o‘zlari ishlab chiqargan mehnat mahsulotlarini chet ellarda erkin chiqararib savdo-sotiq qilishi bilan belgilanadigan deb yozgandi va fikr Ovrupadagi kapital dunyosidagi katta shov-shuvgada sabab bo‘lgan edi.

Amir Temur o‘zining tanga pullarini 1372-1373-yillarda Chig’atoy xonlarining andozasi bo‘yicha zarb qilingan bo‘lsa ham,lekin 1380- yillarda pul islohati olib borishi natijasida yangi shakldagi pullarni o‘z nomi bilan zarb qildirdi. Eski tanga pullar esa xazinaga qaytarib olib,ularni eritgan.Yangi andozadagi tanga pullarni zarb qilganligi uchun ham uning birinchi chiqargan pullari turli joylarda topilgan xazinalarda juda kam uchraydi.Amir Temur davlatida 1380-yillarda Samarqand va Xorazmda onda-sonda oltin tangalar zarb qilingan bo‘lsa ham bu tangalar butun dunyodagi numizmatika kolleksionlari uchun kamyob nodir tanga hisoblanadi. Amir Temur kumush tanga pullarining qadri-qimmati shuncha baland bo‘lganki,1403-yili Amir Temur saltanatini ziyorat qilgani kelgan Kastiliya(Ispaniya) elchisi Kio Gonsales de Klavix yozadi.Amir Temurning kumush tangalari og’irlik vazini 6 grammni tashkil etgan bo‘lsa bu tangalar katta tangalar deb atalgan.Yana u o‘z xotiralarida, Samarqand shahrida har yili juda ko‘p turli xil mollar sotilar, bu mollar esa Xitoy, Hindiston, Tatariston (Dashti Qipchoq) va boshqa mamlakatlardan keltirilar edi.Amir Temur o‘zi bevosita Chingizxon avlodidan bo‘lmagani uchun o‘zini “Amir”deb aytaydi.1372-yildan 1388-yilga qadar qo‘g’irchoq xon Suyurg’atmish,undan keyin esa uning o‘g’li Mahmudxon nomidan ish yuritiladi. Manbalarda “Suyurg’atmishxon vafotidan so‘ng Amir Temur Sohibqiron no‘yonlar,amirlar va davlat arkonlari bilan o‘tkazilayotgan

quriltoyda bu borada bahs va mashvarat qilib saltanat taxtiga uning layoqatli o‘g’li Sulton Mahmudni o‘tirgizdi va uning nomi va duosi bilan tangalar zarb qildirdi”,Bu tangalar esa Amir Temur Maxmudxon nomi bilan birga, o‘z nomini qo‘shib zarb qildirdi” 1402-yili Maxmudxon vafot etgach,Amir Temur boshqa qo‘g’irchoq xon tutmay o‘sha Maxmudxonning nomi bilan pul zarb qilishini davom ettirdi.Bu tangalar old tomoniga: La ilaha illallohu Muhammadin rasulloh degan iymon keltirish kalimasini yozdirdi. Tangalar to‘rt burchagiga esa to‘rt xalifa –Abu Bakr, Umar,Usmon va Alilarning nomlarini yozdirdi. Tanganing orqa tamoniga esa:Suyurg’amishxon yorlig’i Amir Temur Ko‘ragon ahmoni deb yozilgan. Amir Temur va Sulton Maxmudxon nomi bilan Avg’oniston, Eron, Iroq va Ozarbayjon shaharlarida turli davrlarda zarb qilingan tangalarning orqa tomoniga yozilgan namunalardan aytib o‘taman. Sulton Maxmudxon yorlig’i Amir Temur Ko‘ragon xaldolloh mulkehu; zarb Astrabot va shu kabi tangalarni aytib o‘tishimiz mumkun.Amir Temur tangalarida biz arabcha, forscha, turkcha va mug’ulcha so‘zlarni o‘qiymiz. Arabchadan Olloh uning padsho va sultonligini mangu boqiy qilsin deb yozilgan edi. Yuqorida keltirilgan dalilarda Amir Temur davida O‘rta Osiyo shaharlarida pul soliq va tanga munosabatlari yoritildi va bu davrning soliq qay darajada olinga pul munosabati qanday bo‘lgan haqida aytib o‘tdik.Juda ko‘p tarixiy dalillarni xulosalasak shunday fikrga kelamiz garchgan Amir Temur Markaziy Osiyo, Xuroson va Eron yerlarini o‘z saltanatiga qo‘shib olib u yerlarda tanga pullar zarb qildirgani bu davlatni iqtisodi o‘sishiga yordam beradi.Amir Temur davrida uzi bosib olgan mamlakatni tanga pullarini o‘zni 1380-yili chiqargan tanga pullar bilan almashtiradi.

O‘rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san’at sohlarida kamolot bosqichiga ko‘tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me’morchilikda namoyon bo‘ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «qudratimizni ko‘rmoq istasang- binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko‘chalar, me’moriy majmualar keng ko‘lam kasb etadi. Ilk o‘rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo‘lgan «Shahriston»dan ko‘lam va mazmuni bilan farq qiluvchi «hisor» qurilishini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin.Temur davrida Kesh shahar qurilishi yakunlandi. «Hisor»ning janubi-g’arbida hukumat saroyi Oqsaroy va atrofida rabotlar, bog’-rog’lar qurildi.Temur saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e’tibor berdi. Shaharda «Hisori», qal’a, ulug’vor inshoatlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko‘hak tepaligida Cho‘pon ota maqbarasi Ulug’bek davrida qurilgan bo‘lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug’vorlik uyg’unlashib ketgan.

Temur davrda Samarqand Afrosiyobdan janubda mo‘g’ullar davridagi ichki va tashqi shahar o‘rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal’a devori va

xandok bilan o‘ralib (1371 y) Hisor deb ataldi. Hisor 500 gektar bo‘lib devor bilan o‘ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.Shahar mahalalardan iborat bo„lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me’moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug’i bo‘ldi. Me’morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi, inshootlar ko‘lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me’morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo‘ydi.

Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig’i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg„alarga tayangan tashqi gumbazni ko„tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug’bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me’morchilik yodgorliklarida aniq ko‘rinadi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go‘ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug’bek madrasasi). Ularning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me’moriy shakllarning umumiy uyg’unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning aniq o‘zaro nisbati bor. Bezak va sayqal ishlari ham bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan. Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me’morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan.

Temur va Ulug’bek davri me’morchiligida bezakda ko‘p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san’atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan.Koshin qatamlarida tasvir mavzui kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma‘‘noga ega. Temur va Ulug’bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo‘lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko„k va zarhal ranglar ustun bo‘lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug’bek davrida Xitoy chinnisiga o‘xshash oq fondagi ko‘k naqshlar ko‘p uchraydi.Bu davrda diniy inshootlar, hukmdor saroylari, aslzodalarning qarorgohlari ko‘plab qurildi. Temur Hindiston yurishidan so‘ng (1399y). Samarqandda jome masjidi qurdiradi. Uning ro‘parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi. Ulug’bek Buxoro Jome masjidini kengaytirib, qayta qurish ishlarini boshlagan, biroq u XVI asrda qurib bitkazdi.Temur davrida Saroy Mulk xonim Go‘ri Amir majmuasida madrasalar qurilgan. Ulug’bek Samarqand, Buxoro va g’ijduvonda madrasalar bunyod etirdi. XV asrda madrasa me’morchiligi o„zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo‘ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo‘yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o‘zaro nisbatlari va bezaklariga ko‘ra har biri o‘z qiyofasiga ega edi.

Temuriylarning ikki san’at durdonasi-Samarqanddagi Ulug’bek va Hirotdagi Gavharshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo‘yicha qurilganiga qaramay, bir-biridan farq qiladi. Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari va ruhoniylar qabrini o„z ichiga oluvchi to‘siq-xazira,

avliyolar qadamjolari, dahma alohida guruhni tashkil qiladi. Samarqandda Temur davrida shayx Burxoniddin Sag'orjiy xilxonasi – Ruhobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi - Go'ri Amir. Shuningdek, Shohizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi. Ulug'bek davrida ijodiy izlanishlar samarasi dahmalarning me'moriy ko'rinishiga ham ta'sir o'tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha qozizoda Rumiy maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli noma"lum) maqbara quriladi. Ulug'bek Buxoro, g'ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va bezaklar bo„yicha Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontohur majmuasi, bo'lib, qaldirg'ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub.Temur davrida ulkan inshoot-Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara musulmon Sharqining me"moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir qadamjolar me'morchiligi ham o'ziga xos tuzilishga ega.

Temur Buxoroda Chashmai Ayub (1380y.) yodgorligini qurdiradi. Shunigdek, Temur Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «hazira»-»Dor us-Siyozat» (1389-1400) xilxonasini qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach Shahrisabzda maqbara (hazrati Imom) qurdirgan. Unda Xorazm me'morchiligi an'analarini ko'rish mumkin.Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi me'moriy san'atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo'lib, uch qavatlidir.Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo'lgan. Birinchisi-ma'muriy- siyosiy maqsadda bo'lib, qal'a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi-shahar tashqarisidagi bog'larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o'tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo'lib, toq va ravoqlari beqiyos bo'lgan. Temur va Ulug„bekning asosiy qarorgohi Samarqanddagi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deyiladi. Shuningdek, shahar tashqarisida Temur o'n ikkita bog' va saroylar bunyod ettirgan. Ulug'bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandi, «Masjidi Muqatta"», 210 gumbazli Ko'kaldosh jom'e masjidi qad ko'tardi. Shohizindada ayrim maqbaralar, Shahrisabzda Ko'kgumbaz masjidi, «Chilustun» va «Chinnixona» saroylari uning davrida qurildi. XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xo'ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari bunyod qilindi.Amir Temur va Ulug'bek davrida tasviriy san'at turli yo'nalish bo'yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig„inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to'xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san'at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Xattotlik-qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniatyura- tasviriy san'atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to'xtab qoldi. Samarqanddagi

Temuriylarning saroy- qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo„lgan. Temur, o‘g’illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan Ulug’bek devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, uslubiy jihatdan miniatyura janriga yaqin bo‘lgan. Bu davrda qayta ko‘chirilgan Abdurahmon as-So‘fiyning (X asr) falaqiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi Chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Samarqand rasadxonasida esa to‘qqiz falak ko‘rinishi, yetti gardish, yetti yulduz-yoritqich daraja, vaqt bo‘limlari, Yer yuzining yetti iqlimi tasvirlangan.

Temur darvrida qurilgan Shirinbeka opa, Bibixonim, Tuman opa obidalarida naqqoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka opa maqbarasida tasvir ko‘p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi.Xattotlik san’ati taraqqiyotiga XV asrda an’anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor-nasta’liq noyob qo‘lyozma asarlar ko‘chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobotchilikning ravnaqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo‘ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me‘‘morchilik bilan bog’liq bo‘lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog’och va tosh o‘ymakorligi bilan ham bog’liq edi. qabr toshlariga qisman o‘simliksimon, asosan geometrik nazmlarda xattotlik namunalari bilan so‘zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur, qusha o‘yiqlarida bitilgan. qabrtoshlar sag’ana yoki suna shaklida bo‘lib, bo‘z rangli marmardan, ayrim hollarda o‘ta noyob toshlardan tantana idishlar ishlangan. Yog’och o‘ymakorligida Go‘ri Amirda, Shohi Zinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklari, shuningdek XV asrga oid uy ustunlari naqshlar bilan ishlangan.

Temur va Ulug’bek davrlarida metall o‘ymakorligi taraqqiy etadi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o‘yib, bo‘rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan-shamdonlar, ayniqsa ikki tonnalik qozon bronza qo‘yish san’atining eng yuksak namunasidir.Amaliy san’atning kulolchilik turi uchun yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o‘simliknoma naqshlarni qora bo‘yoqlar bilan tushurishga yoki uyurma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo‘lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo‘yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga chiziq naqshlar chizishgan, temuriylar davriga mansub chikkisimon sopol buyumlarda kulol-rassom turli uslubda och havorangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo‘llaydi. Temur va temuriylar davrining amaliy san’at turlaridan to‘qimachilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik yuksak san’at darajasiga ko‘tarildi.

Amir Temur ilm-fan rivoji uchun g'amxo'rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma'rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar Samarqandga keldi. Masalan, qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqiyotshunos Mavlono Ahmad, Ulug'bek davrida turli mamlakatlardan kelgan 100dan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko„rsatgan. Temur va temuriylar zamonida tabiiy va gumanitar fanlar sohasida buyuk olimlar yetishib chiqdi hamda jahon faniga munosib hissa qo'shdi. Falokiyotshunoslik fanida Ulug'bek, qozizoda Rumiy, g'iyosiddin Jamshid va Ali qushchilar yangi kashfiyotlar qildi. Tarix ilmida Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy va boshqalar qimmatli asarlar yaratdi. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san'at asarlari bilan mashhur bo'ldi.Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solindi, Yer kurrasini o'lchash va falaqqiyotshunoslik jadvallarini tuzish ishlari amalga oshirildi. Samarqand rasadxonasining qurilishi ulkan madaniy voqea bo„lib, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona yo'q edi. Rasadxonada Ulug'bek matematika, geometriya, falaqqiyotshunoslikda chuqur bilimlar sohibi edi. Ali qushchi, Muhammad Xavofiylar uning sevimli shogirdlari bo'lgan.Temur va temuriylar davri ma"naviy hayotida diniy falsafa katta o'rin tutadi. Sofiylik tariqatida Naqshbandiylik rivojlanib, barcha ijtimoiy-ma'naviy sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bahovuddin Naqshbandiy bu tariqatni boyitib, balogardon martabasiga ega bo'lgan karomat sohibi edi. XV asrda Naqshbandiya tariqatining davomchisi Xoja Ubaydulloh Ahrordir.

Amir Temur bobomiz hayoti yoshlarimiz uchun muhim tarbiya omilidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning fikrlari bilan izohlasak, – "Tarix bu ko'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi.Ularning aksariyati faqat buzg'unchilik qilgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim" degan, so'zlari fikrimizning dalilidir. Zero, Amir Temur va temuriylar davri (XVI asr ikkinchi yarmi va XV asr) Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida madaniy rivojlanishning yuksak darajaga erishuvi, ma'naviy hayotning takomillashuvi bilan izohlanadi. Mening fikrimcha nafaqat tarix fani o'qituvchisi balki, matematika, fizika, geografiya, ingliz tili barcha-barcha fan o'qituvchilari buyuk davlatchiligimiz asoschisi haqidagi manbalarni bilishi yosh avlodga uni har doim talqin etishi milliy g'ururni o'quvchilar ongiga singdirishi lozim deb hisoblayman. Zero,buyuk ajdodlarimiz yod etgan yosh avlod ularga munosib ajdod bo'lishga harakat qiladi, ularni hech qanday yot g'oyalar chalg'itmaydi.

Amir Temur tarixini o‘rganish juda muhim, chunki u nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo tarixida katta iz qoldirgan shaxsdir. Quyida bu tarixni o‘rganishning asosiy sabablari keltirilgan:

1. Buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida tanishish

• Amir Temur qisqa vaqt ichida katta imperiya barpo etdi.

• Harbiy strategiyasi, siyosiy zakovati va adolatli boshqaruv tizimi bilan ajralib turgan.

• Uning yurishlari dunyo tarixiga ta’sir qilgan.

2. Vatanparvarlik va milliy g’ururni oshiradi

• Amir Temur tarixini bilish orqali o‘z tariximiz bilan faxrlanamiz.

• Bu yoshlarda o‘z yurtiga muhabbat, g’urur va hurmat hissini kuchaytiradi.

3. Davlat boshqaruvi va adolat tizimidan o‘rnak olish

• “Temur tuzuklari” asarida yozilgan tartib-qoidalar, adolatli hukmronlik tamoyillari hanuzgacha dolzarb.

• U davlatni qanday boshqargani, mansabdorlarga qanday talab qo‘ygani hozirgi rahbarlar uchun ham ibrat.

4. Ilm-fan va madaniyat rivojiga e’tibor bergan shaxs sifatida o‘rganish

• Amir Temur ilm-fan, me’morchilik, adabiyot va san’atni rivojlantirgan.

• Samarqand, Hirot, Buxoro kabi shaharlar ilm va madaniyat markazlariga aylangan.

5. Tarixiy haqiqatni bilish

• Ayrim xorijiy manbalarda Amir Temur salbiy tarzda ko‘rsatilgan.

• O‘z tarixchilarimiz va manbalar asosida uni chuqur o‘rganish orqali haqiqiy qiyofasini anglaymiz.

6. Kelajak avlod uchun saboq

• U qanday qilib kuchli davlat qurgani, har qanday sharoitda qanday qarorlar qabul qilgani yoshlar uchun hayotiy dars bo‘la oladi.

• Uning dono fikrlari, qat’iyati va mehnatsevarligi motivatsiya beradi

Amir Temur shaxsiyati va tarixiy faoliyati nafaqat o‘z davrining, balki jahon tarixining muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Uning harbiy salohiyati, siyosiy tafakkuri va adolat tamoyiliga asoslangan boshqaruv tizimi orqali mustahkam va markazlashgan davlat barpo etilgani tarixiy haqiqatdir. Temur nafaqat sarkarda sifatida, balki ilm-fan, madaniyat va me’morchilikning rivojiga katta hissa qo‘shgan davlat arbobi sifatida ham tan olingan. Uning faoliyati nafaqat o‘rta asrlar Sharqida, balki butun Yevrosiyo mintaqasida tarixiy taraqqiyotga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu maqola Amir Temur merosini chuqur o‘rganish, uni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish, yosh avlodni tarixiy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA TARAQQIYOTGA E'TIBOR-IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI

Azamatova Odina Ikrom qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Amir Temurning ilm-fanga bo'lgan e'tibori bilan zamonasining ilm-fan taraqqiyotiga sharoit yaratdi. Hukmdor o'z davlati barqarorligini ta'minlagach, diqqatni iqtisodiyot, hunarmandchilik, savdo va madaniyat taraqqiyotiga qaratdi. Ilm-fan vakillarini qo'llab-quvvatladi, ularga sharoit yaratdi. U dunyoning turli burchaklaridan ilm-fan va san'at vakillarini Samarqandga olib kelgan. Samarqand va boshqa shaharlarning ilmiy-madaniy markazga aylanishi butun dunyodan ilm oshiqlarining karvonsaroyiga aylanishiga sabab bo'ldi. Bu esa o'z navbatida yurtning har tomonlama boyishiga, kengayib dunyoga bo'y cho'zishiga olib keldi. Samarqandda qurilgan Bibi-Xonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Ko'k saroy kabi obidalar bu davr madaniy taraqqiyotining namunalaridir. Temur olim va fozillarni, san'atkor va me'morlarni qadrlagan. Misol uchun, u fors tilida bitilgan mashhur "Zafarnoma" asarining muallifi Sharafuddin Ali Yazdi, tarixchi Nizomiddin Shomi kabi allomalarni himoya qilgan. Amir Temurning avlodlari, xususan, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kabi shaxslar bu poydevorni yanada mustahkamlab, ilm-fan va san'atni yuksak cho'qqiga olib chiqdilar. Ulug'bek Temurning nabirasi bo'lib, buyuk astronom va olim sifatida tanilgan. Ulug'bek rasadxonasi – dunyodagi eng ilg'or yulduz kuzatish markazlaridan biri bo'lib, unda yozilgan "Zij-i Ulug'bek" astronomiya ilmida muhim o'rin tutadi. U ilm-fanni davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantirdi va ko'plab olimlarni to'pladi: Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi va boshqalar.

Hirot – madaniyat va adabiyot markazi Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot shahar adabiyot, falsafa, san'at va ilm-fan markaziga aylandi. Alisher Navoiy buyuk shoir, davlat arbobi va ma'naviyat fidoyisi sifatida ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu davrda musiqashunoslik, tasviriy san'at (miniatyura, naqsh), tarix, tibbiyot kabi fanlar taraqqiy topdi. Ulug'bek maktabi orqali yuksak darajaga chiqdi. Matematika: G'iyosiddin Koshiy sonlar nazariyasi, ildiz chiqarish kabi metodlarni ishlab chiqqan. Tibbiyot: Ibn Sino merosi asosida davom etgan. Tarix va geografiya: Temuriylar tarixini o'rganuvchi "Zafarnoma" kabi asarlar yaratilgan. Adabiyot: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ijodkorlar o'z asarlari bilan adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Amir Temurning ilm-fanga bo'lgan e'tibori Zamonasining ilm-fan taraqqiyotiga sharoit yaratdi Amir Temur o'z davlati barqarorligini ta'minlagach, diqqatni iqtisodiyot, hunarmandchilik, savdo va madaniyat taraqqiyotiga qaratdi. Ilm-fan vakillarini qo'llab-quvvatladi, ularga sharoit yaratdi. U dunyoning turli burchaklaridan ilm-fan va san'at vakillarini

Samarqandga olib kelgan. Amir Temurning avlodlari, xususan, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kabi shaxslar bu poydevorni yanada mustahkamlab, ilm-fan va san'atni yuksak cho'qqiga olib chiqdilar. Adabiyot: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ijodkorlar o'z asarlari bilan adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Umuman ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, san'at sohasiga homiyligi g'amxo'rlik qilgani musatqillik davri adabiyotlarida alohida ta'kidlanadi, xususan "Amir Temur jahon tarixida" kitobida XIV-XV asrlardagi ikkinchi renessansni Amir Temurning fidoyiligi bunyodkorligining natijasi ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Temur va temuriylar davrida rivojlangan ayrim fanlar xususan matematika, geografiya, gemetriya, astronomiya, tarix, falsafa, tibbiyot va adabiyot sohalarida shunday ajiyib asarlar yaratildiki bu asarlar nafaqat sharq renessansi rivojida balki yevropada ham uyg'onish davrining vujudga kelishida va keyinchalik Evropa fan yaraqqiyotining rivojlanishiga katta ahamiyat kasb etdi.

Amir Temurdan keyin uning bu ishlarini uning avlodlari nabiralari davom ettirdi. Amir Temurning sevimli nabiralaridan biri buyuk olim Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat va san'at bobosi davridagidek rivojlandi. Ulug'bekning Samarqanda qurdirgan observatoriyasida Astronomik jadval tuzdi u yerda olib borilgan astronomik kuzatishlar yordamida 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning joylashuvini aniqladi. Bu observatoriyada olib borilgan astronomik kuzatishlar va astronomik jadval XVII asrga kelib yevropada astronomiya sohasidagi yutuqlarga asosiy qo'llanmalardan biri bo'lib qoldi. Bundan tashqari Ulug'bekning astronomiya faniga doir "Ziji Ko'ragoniy" asarining yaratilishi astronomiya fani uchun katta kashfiyot bo'ldi. Ulug'bek bobosi kabi ilm-fan sohasiga ham homiylik qildi, uning o'zi qurdirgan madrasalardan " biriga ilm olish har bir musulmon yigit va qiz uchun farzdir" degan o'giti ilm ma'rifat uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ulug'bekning o'zi ham adabiyot san'at sohasi bilan shug'ullanib turgan. Xususan Alisher Navoiy o'zining "Majolisun Nafoisi" da Ulug'bek adiblarning homiysigina emas, balki sheriyatning qadriga etuvchi edi, o'zi ham sher yozar edi, deb ko'rsatgan".4 Shundan ko'rinib turibdiki Ulug'bek har tomonlama ilm-fan, madaniyat va san'atning rivojla nishiga katta xissa qo'shgan.

Temuriylar davrida bundan tashqari juda ko'plab olimlar, yozuvchilar, tarixchilar, mashoyiqlar, hunarmand ustalar, xattotlar yetishib chiqdiki ular ham ikkinchi uyg'onish ikkinchi renessansni Amir Temurning fidoyiligi bunyodkorligining natijasi ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Temur va temuriylar davrida rivojlangan ayrim fanlar xususan matematika,geografiya, gemetriya, astronomiya, tarix, falsafa, tibbiyot va adabiyot sohalarida shunday ajiyib asarlar yaratildiki bu asarlar nafaqat sharq renessansi rivojida balki yevropada ham uyg'onish davrining vujudga kelishida va keyinchalik Evropa fan yaraqqiyotining rivojlanishiga katta ahamiyat kasb

etdi. Amir Temurdan keyin uning bu ishlarini uning avlodlari nabiralari davom ettirdi.

Amir Temur va Temuriylar davri O‘rta Osiyoda ilm-fan, madaniyat va san’atning jadal rivoj topgan davri bo‘lib, bu o‘z navbatida Ikkinchi Renessans deb ataluvchi buyuk uyg’onish davrining poydevoriga aylandi. Ular yaratgan ilmiy-madaniy muhit nafaqat mahalliy, balki butun islom dunyosiga va jahon ilm-faniga katta ta’sir ko‘rsatdi. Zamonasining ilm-fan taraqqiyotiga sharoit yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida vujudga kelgan ikkinchi uyg’onish davri ilm-fani, ma’rifati, ma’naviyat va madaniyati jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Bunda ulug’ bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Buni hammamiz to‘g’ri anglamog’imiz lozim, ul ulug’ zot ila faxrlanishimiz barchamizning burchimizdir.

Milliy mustaqillik tufayli jahon ma’naviyati va ma’rifati sahnida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan piru komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosni teran anglash, o‘rganish va ulug’lash imkoniyati yuzaga keldi. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Miromonivich ta’kidlab o‘tgan yangi O‘zbekiston va yangi renessans ostonasida ekanmiz ajdodlarimizning ikkinchi uyg’onish davrida amalga oshirgan ilm-fan sohasidagi islohotlarni chuqur o‘rganmog’imiz va uni hayotga tadbiq etmog’imiz darkor bo‘ladi. Ikinchidan, o‘sha davrda yaratilgan ulkan ma‘naviy olamni yoshlarimiz, jamiyatimiz ongiga singdirishimiz va renessans nima ekanligini va unga qanday o‘z hissalarini qo‘sha olishlarini uqtirish shuningdek qiziqtirish orqali yangi O‘zbekistonni birgalikda qurishga da‘vat etmog’imiz zarur bo‘ladi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHATLAR

Gulmurodova Habiba Toshtemirovna, Sirdaryo viloyati Xovos tumani 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.

Amir Temur, XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida Markaziy Osiyoda katta davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobidir. Uning ta'lim tizimiga oid islohotlari va faoliyati o'z davrida va keyingi asrlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Amir Temur va uning avlodlari ta'lim va ma'rifatga katta e'tibor berishgan. Samarqandni poytaxt qilib tanlaganidan so'ng, shaharda ko'plab ilmiy va madaniy muassasalar qurilgan. Isfahon, Sheroz, Xalab, Xorazm, Buxoro, Nasaf va Kesh kabi shaharlardan hunarmandlar va olimlar Samarqandga olib kelingan. Bu shaharda turli mazhab va dinlarga mansub

kishilar yashagan, bu esa ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan[243].

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvi va qonun-qoidalarni belgilab, adolatli va insonparvar boshqaruv tamoyillarini o'rnatgan. Ulamo, mashoyix, olimlar va tarixchilarni hurmat qilgan va ularning fikrlarini qadrlagan. Bu esa ta'lim tizimining rivojlanishiga va ilm-fan sohasidagi yutuqlarga olib kelgan.

Amir Temur xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga katta e'tibor bergan. Elchilarni hurmat bilan kutib olib, ularning xavfsizligini ta'minlagan va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirgan. Bu esa mamlakatning xalqaro obro'sini oshirishga xizmat qilgan. Umuman olganda, Amir Temurning ta'lim tizimiga oid islohotlari va faoliyati uning davlatining ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning bu boradagi sa'y-harakatlari bugungi kunda ham o'rganilib, qadrlanadi.

Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat va texnikada bir qator muhim yutuqlar va ixtirolar amalga oshirilgan. Buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida, mamlakatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan, bu esa ilmiy va madaniy sohalarda bir qator yutuqlarga olib kelgan.

Amir Temur va uning avlodlari tomonidan qurilgan me'moriy inshootlar o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Samarqandda Registon maydoni, Bibi-Xonim masjidi kabi ulkan va go'zal binolar bunyod etilgan. Shuningdek, shaharlararo yo'llar, ko'priklar va suv inshootlari qurilishi rivojlanib, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Amir Temur davrida tibbiyot sohasida sezilarli yutuqlar kuzatilgan. Mumiyolash usullari, ya'ni o'liklarning jasadlarini saqlab qolish texnikasi rivojlangan. Shuningdek, shifoxonalar tashkil etilib, bemorlarni davolashda ilg'or usullar qo'llanilgan.

Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor berishgan. Samarqandda ilmiy markazlar tashkil etilib, olimlar va mutafakkirlar faoliyat yuritgan. Shuningdek, adabiyot, san'at va musiqa sohalarida ham yutuqlar amalga oshirilgan.

Umuman olganda, Amir Temur davri ilm-fan, madaniyat va texnikada muhim ixtirolar va yutuqlarga boy bo'lib, bu meros bugungi kunda ham o'rganilib, qadrlanadi.

Amir Temur (1336–1405) o‘zining harbiy yutuqlari bilan birga, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga ham katta e’tibor bergan. Uning hukmronligi davrida olimlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ilmiy muhitni shakllantirish borasida bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilgan.

[243] ScienceWeb+5КиберЛенинка

Amir Temur ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilikni faol qo'llab-quvvatlagan. Uning bu sohalarga qiziqishi va homiyligi tufayli, Temuriylar davri O'rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasida muhim o'rin tutadi[244].

Amir Temur olimlarga nisbatan hurmat va e'tibor ko'rsatgan. U o'z saroyida ko'plab ilm-ma'rifat allomalarini to'plagan va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlagan. Alisher Navoiy Amir Temurning ilm va ma'naviyatga bo'lgan g'amxo'rligini ta'kidlab, uning olimlarga bo'lgan munosabatini yuksak baholagan.

Amir Temur davrida ilmiy tadqiqotlar rivojlanib, ko'plab asarlar yaratilgan. Ilm-fan, me'morchilik, tarix va boshqa sohalarda olib borilgan izlanishlar natijasida ko'plab qimmatli asarlar dunyoga kelgan. Shu tariqa, Amir Temurning olimlar faoliyatini yo'lga qo'yishdagi ishtiroki uning ilm-fan va madaniyatga bo'lgan katta e'tiborini ko'rsatadi. Uning bu boradagi sa'y-harakatlari natijasida, Temuriylar davri ilmiy va madaniy taraqqiyot uchun muhim bosqich bo'lib qolgan.

TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA E'TIBOR

Gapparova Mastona Safaraliyevna,
Ipak yo'llari innovatsiyalari universiteti o'qituvchisi

Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) Markaziy Osiyo tarixida madaniyat va ilm-fan gullab-yashnagan davr hisoblanadi. Amir Temur va uning avlodlari ilm-fanni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, bu davrda ko'plab olimlar, faylasuflar, shoirlar va me'morlar yetishib chiqdi. Ilmiy markazlar va madrasalar barpo etilib, u yerda astronomiya, matematika, tibbiyot va boshqa fanlar rivoj topdi.

Amir Temurning ilm-fanga e'tibori.Amir Temur ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor bergan bo'lib, o'z atrofida olim va mutafakkirlarni jamlagan. Samarqand va Buxoro shaharlari ilmiy markaz sifatida tanilgan.Temurning farmonlari asosida kutubxonalar, madrasalar va ilmiy muassasalar qurilgan.Xorijiy olimlar va mutafakkirlar Temur saroyiga taklif etilgan va ularga ilmiy faoliyat uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Ulug'bek va uning ilmiy faoliyati.Mirzo Ulug'bek Temuriylar davrining eng yirik olimlaridan biri bo'lib, ayniqsa astronomiya va matematika sohalarida katta yutuqlarga erishgan.Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi barpo etilib, bu yerda astronomik kuzatuvlar olib borilgan."Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari bilan Ulug'bek dunyo astronomiyasiga katta hissa qo'shgan.Ulug'bek madrasasi ilmiy ta'limning eng yirik markazlaridan biri bo'lib, bu yerda ko'plab olimlar yetishib chiqqan.

[244] Xabar.uz

Temuriylar davridagi boshqa ilmiy yutuqlar.Tibbiyot: Abu Bakr Ar-Roziy va Ibn Sino ilmiy merosining davomchilari bu davrda tibbiy tadqiqotlarni rivojlantirishdi. **Matematika**: Al-Xorazmiy merosiga asoslanib, algebra va geometriya sohalarida rivojlanish kuzatilgan. **Me'morchilik**: Samarqand, Buxoro, Hirot va Shahrisabz shaharlarida qurilgan madrasalar ilm-fanning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. **Adabiyot va falsafa**: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. **Tarixshunoslik**: Sharafiddin Ali Yazdiy, Hafiz Abru kabi tarixchilar Temuriylar davri tarixini yozib qoldirganlar.

Temuriylar davrida ilm-fan rivojiga oid qiziqarli ma'lumotlar:Ulug'bek tomonidan Samarqandda qurilgan rasadxona dunyoning eng ilg'or observatoriyalaridan biri bo'lgan. Bu yerda astronomik kuzatuvlar olib borilib, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakati juda aniq o'rganilgan. U yaratgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali Yevropa olimlari tomonidan ham katta e'tirof etilgan.Ulug'bek shunchalik ilmga berilganki, hatto davlat boshqaruvini unutib qo'ygan. Bu esa uning dushmanlari tomonidan suiiste'mol qilinib, o'z o'g'li tomonidan o'ldirilishiga sabab bo'lgan.Amir Temur ilm-fanga shunchalik katta e'tibor berganki, zabt etgan hududlaridan eng yaxshi olimlarni Samarqandga olib kelgan. Misol uchun, Hindistondan mashhur san'atkorlar va me'morlar, Damashqdan shifokorlar va muhandislar Samarqandga olib kelingan.Temuriylar davrida astronomiya ilm-fanning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. Ulug'bek o'z davrida Yevropa va Sharq olimlaridan ancha oldinda bo'lib, uning hisob-kitoblari Kopernik va Kepler ishlarining asosiy manbalaridan biriga aylangan.Ulug'bek madrasasida algebra va geometriya chuqur o'rganilgan. Bu madrasadan yetishib chiqqan olimlar orasida Ali Qushchi eng mashhurlaridan bo'lib, u Istanbulga borib, Usmoniylar imperiyasining bosh astronomi sifatida xizmat qilgan.Temuriylar davrida Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari keng tarqalgan va o'rganilgan. Ibn Sino yozgan "Tib qonunlari" kitobi asrlar davomida Sharq va G'arb tibbiyotining asosiy manbasi bo'lib qolgan.Temuriylar davrida Samarqand, Hirot va Buxoroda katta kutubxonalar tashkil etilgan. Ularda minglab noyob qo'lyozmalar saqlangan. Ayniqsa, Hirotdagi Husayn Boyqaro kutubxonasi eng boy ilmiy markazlardan biri bo'lgan.Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki ilm-fan homiysi sifatida ham tanilgan. U madrasalar va kutubxonalar qurdirib, ilm-fanni rivojlantirishga homiylik qilgan.Temuriylar davrida shakllangan ilmiy an'analar keyinchalik Boburiylar saltanati va boshqa Sharq mamlakatlarida davom etgan. Bobur va uning avlodlari ilm-fanni rivojlantirishda davom etib, Hindiston va boshqa hududlarda ham ilmiy yutuqlarga erishgan.

Temuriylar davrida ilm-fanning boshqa davlatlardagi rivoji bilan taqqoslash: **Yevropa**: XIV-XV asrlarda Yevropada Uyg'onish davri boshlanib,

san'at, ilm-fan va falsafa rivojlanayotgan edi. Ayniqsa, Leonardo da Vinchi kabi olimlar ko'plab texnik va ilmiy yutuqlarga erishgan.

Xitoy: Bu davrda Min sulolasi hukmronlik qilgan bo'lib, astronomiya va navigatsiya fanlari rivojlangan. Xitoylik olimlar osmonga oid kuzatuvlar olib borib, katta yutuqlarga erishgan.

Islom dunyosi: Misr va Usmonli imperiyasida ilm-fan rivojlangan bo'lib, Ibn Xaldun kabi olimlar tarix va falsafa sohalarida katta asarlar yaratgan.

Hindiston: Bu davrda hind madaniyati va ilm-fani rivojlanishda davom etgan, astronomiya va matematika sohalarida yangi yutuqlarga erishilgan.

Ilm-fanning keyingi davrlarga ta'siri.Temuriylar davrida shakllangan ilmiy an'analar keyinchalik Boburiylar saltanati va boshqa Sharq mamlakatlarida davom ettirilgan.Ulug'bek rasadxonasi orqali erishilgan ilmiy natijalar Yevropada ham katta qiziqish uyg'otgan.Temuriy olimlarining asarlari Sharq va G'arbda keng tarqalgan va keyingi davr ilm-fani rivojiga ta'sir ko'rsatgan.Ilm-fanga qaratilgan e'tibor keyinchalik Markaziy Osiyoda yangi ilmiy maktablarning rivojlanishiga asos bo'lgan.

Temuriylar davri ilm-fan va madaniyatning yuksak cho'qqisiga chiqqan davr bo'lib, bu davrda yaratilgan ilmiy meros keyingi avlodlarga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan taraqqiyotiga katta e'tibor qaratgan bo'lib, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot va me'morchilik sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi. Bu ilmiy meros bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, jahon ilm-faniga qo'shilgan muhim hissadir. Shuningdek, Temuriylar davridagi ilmiy yutuqlar boshqa hududlardagi ilm-fan rivojiga ham katta ta'sir o'tkazgan.

AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI

Umarov Muhammad Sodiq, TGFU talabasi.
Xashimova Mohira, TGFU o'qituvchisi

Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda, Sohibqironning mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur. Bu haqda "Temur tuzuklari"da quyidagi so'zlar bitilgan: "Saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim"

Amir Temurning ulamo, fuzalo, fozillar toifasiga (birinchi toifa) alohida e'tibor bergani, ularni o'ziga yaqinlashtirishga harakat qilgani, davlat miqyosida amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilash, muhim qarorlar qabul qilishdan avval

kengashlar chaqirib, ular bilan maslahatlashgani Sohibqironning ilm-fan ahliga katta ishonch bildirganligidan dalolat beradi. Temur kengashib, maslahatlashib o'tkazilgan tadbir sanoqsiz lashkar ojizlik qilgan kuchni yengishga imkon beradi, deb hisoblagan. Ana shuning uchun ham u olimlar va ruhoniylarga murojaat qilib, ulardan mamlakatni boshqarishda o'z maslahatlari bilan yordam berishlarini so'ragan. Bu jihatdan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobi berilgan Amir Temurning yangidan bunyod etilgan Boilkan shahrida olim fuzalolar bilan o'tkazgan kengashi haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir. Bu kengashdagi nutqida u shunday degan: "Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishlaringiz kerak".

Amir Temurning ilm-fan ahliga bo'lgan munosabati davlatni idora qilish, saltanat saroyida o'tirish, maoshlar tayinlash va shu kabilar tuzuklarda alohida qayd qilingan. Xususan, u olimlar, donishmandlarga saroyda o'tkaziladigan majlislarda o'zining o'ng tarafidan ul kishilar uchun mo'ljallangan tomonidan o'rin bergan.

Umrining ko'p qismini harbiy yurishlarda o'tkazgan Amir Temur safarlarda ham olimlar bilan hamsuhbat bo'lar edi. Jumladan, Damashq muhosara qilingan paytda, mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri ibn Xaldun (1332-1406) bilan suhbatda bo'lgan. Uchrashuv chog'ida mashhur tarixchi Sohibqironga Qur'oni Karimning go'zal bir nusxasini hadya qiladi va Amir 57 Temur o'rnidan turib, muqaddas kitobni o'pib, boshiga qo'ygan .

Xuddi ana shunday hurmat va ehtiromni Sohibqiron o'zi zabt etgan mamlakatlardagi olim-u fuzalo, dono kishilarga nisbatan ham ko'rsatgan "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, - deb ta'kidlaydi bu haqda Amir Temur, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutib, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim".

Temur davrida ilm-fanning qaytadan rivoj topishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan yana biri qo'shni mamlakatlar, ayniqsa Xitoy , Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarningkuchayishi bo'ldi.

Temur saltanatida ilm-fanning taraqqiy etishida o'tmish madaniyati, boyliklarini o'rganishga e'tibor berilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davr olimlari qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining ilmiy meroslari, xususan, Arastu asarlarining al-Kindiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi, Evklidning matematikaga oid 13 kitobini o'z ichiga olgan "Asoslar" asarining, Ptolomeyning "Almagest" kitobining Beruniy tomonidan sanskrit tiliga

tarjimalari va shu kabilar bilan tanish edilar. Ularda Xitoy va hind olimlarining riyoziyot, falakiyot, tibbiyot, kimyo, adabiyot, tarix kabi ilm sohalaridagi tadqiqotlariga, chunonchi, hindlarning "Kalila va Dimna" asariga bo'lgan qiziqishi kuchli edi. Shuningdek, XIV-XV asrlarda ilm-fanning yuksalishi uchun IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda yaratilgan madaniyatning, xususan, Xorazmiy, Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Nasriddin Tusiy kabi jahonga mashhur bo'lgan allomalar ilmiy merosining g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilganligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar va boshqa shunga o'xshash hodisalar O'rta Osiyoda ilm-fanning istilolar, siyosiy vaziyatlarining o'zgarish ta'sirida taraqqiyotdan to'xtab qolishga yo'l qo'ymagan va ilmiy bilimlar rivojidagi vorislikning saqlanishiga yordam bergan. Bunday vorislikni Temur va Temuriylar davridagi ilm-u fan taraqqiyotining barcha yo'nalishlarida, xususan, riyoziyot sohasida kuzatish mumkin. Taniqli gollandiyalik matematik va fan tarixi bilimdoni D. Y. Stroykning fikricha, "islom dunyosida bo'lgan ko'p urushlar, siyosiy va etnologik o'zgarishlar matematika va astronomiya rivojida yuksalish na qulashlarga sabab bo'lsa-da, ilmiy markazlardan birining yo'qolishi va boshqalarining paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsa-da, bu fanlarning umumiy xarakteri, taraqqiyotining asosiy yo'nalishiga ta'sir eta olmagan"[245].

Haqiqatan ham al-Xorazmiyning asarlaridagi hindlarning o'nlik sanoq sistemasining talqini va rivojlantirilishi, "Kitob al-jabr nal-muqobala"da taklif qilingan tenglamalarni yechishning ikki xil usuli va shu kabi muhim kashfiyotlar al-Koshiyning o'nlik kasrlarni ixtiro qilishida, uchinchi darajali tenglamalarni yechish usulini topishida va umuman, yuqori darajali algebraik tenglamalarni yechish metodini ko'rsatishda o'z davomini topgan va chuqurlashtirgan bo'lib, riyoziyotdagi algoritmik-algebraik ruhning mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, islom mamlakatlarida riyoziyot aynan ana shu algoritmik-algebraik yo'nalishda qadimgi dunyodagi riyoziyotga nisbatan ilgarilab ketgan va u darajaga G'arbiy Yevropada faqat XVI asrdagina erishgan.

Yana shuni aytish kerakki, XIX asr o'rtalarigacha algebrada uning Sharqdan kelib chiqqanligi, aksiomatik metodning ishlatilmasligi bilan Evklid geometriyasidan keskin farq qilishi sezilib turgan. Ularning kelib chiqishidagi farq hatto hozirgi paytdagi algebra va geometriyaga oid maktab darsliklarida ham sezilib turadi. Albatta, yuqorida bildirilgan fikrlar islom. mamlakatlarida, shu jumladan, Temur va Temuriylar boshqargan davlatda riyoziyotning boshqa yo'nalishlarida tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan, degan ma'noni anglatmaydi. Buni tasdiqlovchi dalillar mavjud. Masalan, Umar Hayyomning "Evklid kitobining qiyin postulatlariga sharhlar" asarida Evklidning parallel chiziqlar haqidagi postulatini isbot qilishga urinib, to'rtburchakning o'tkir,

[245] G'ulom Jo'ra. Turonlik Sohibqiron Amir Temur. Toshkent-2015

o'tmas va to'g'ri burchaklari to'g'risida ko'rgan uchta farazi, ilgari surgan g'oyalari Nasriddin Tusiy asarlarida tasdiqlanadi.Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro 1, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo'yadi. Amir Temur mingta jang o'tkazib birontasida ham yengilmagan mashhuri zamonsarkarda sifatida, davlat tuzilishi ishlariga, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan siyosiy arbob sifatida tarixga kirdi. Amir Temur tarafidan tarqoq viloyatlar yagona davlatga birlashtirilib, markaziy hokimiyat tuzilib barqarorlashgandan keyin, mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlandi, savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlana boshladi, qo'shni va uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-xo'jalik aloqalari kengaydi. Amir Temur hayotlik paytida davlat boshqaruvi haqida "Temur tuzuklari" degan nomda mashhur bo'lgan maxsus kitob yozilgan edi. Unda bu mashhur davlat arbobi va sarkardaning harbiy san'atga, davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarishga oid qarashlari aks etdi[246].

"Kuch adolatda" shiori butun Amir Temur davlati hududida axloqiy va ma'naviy mezonga aylandi.

XIV-asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr Yaqin va O'rta Sharqning tijorat, iqtisod va madaniyat markaziga aylanib bordi. Chingizxon qo'shinlari tomonidan tag-tubigacha vayron qilingan Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv, Hirot kabi va boshqa qadimiy shaharlar obod bo'la boshladi. Masjidu madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va hammomlar qurildi. Ulkan va bepoyon mamlakatning poytaxti rutbasini olgan Samarqand, Amir Temurning niyatiga ko'ra, kurrayi zamindagi eng chiroyli shaharga aylanishi kerak edi. Samarqand O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning eng yaxshi me'morlari to'plangan shaharga aylandi. Me'mor va bunyodkor ustalarning bahamjihat sa'y-harakatlari tufayli jahon me'morchiligida yangi yo'nalish paydo bo'ldi va u ijodning go'zal namunalarini in'om etdi.

Amir Temur hayotlik paytida bunyod ettgan o'ndan ortiq me'moriy yodgorliklari meros bo'lib qolgan. Bu esa bizning madaniyatimizning bir bo'lagidir. Amir Temur XII-asrda yashagan islom ilohiyotchisi, shoir va mutafakkir Xoja Ahmad Yassaviy uchhun Turkiston shahridagi kichik daxma ustida ulug'vor maqbara bunyod ettirgan. Madaniy meros bugungi kunda ham o'zining betakrorligini yo'qotmagan. Xoja Ahmad Yassaviy adolatni va komillikka erishish g'oyalarini targ'ib etguvchi "yassaviya" tariqati asoschisi bo'lgan edi. Amir Temur Xoja Ahmad Yassaviyni o'zining piri deb bilgan. Amir Temur va Temuriylar sulolasi vakillarining gumanitar sohalarga alohida e'tibori tufayli XIV-XVI asrlarda yuksak ilmiy va ijodiy yutuqlarga erishildi. Amir Temur va Temuriylarning ayollarga bo'lgan mehribonlarcha munosabatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Amir Temur o'zining suyukli rafiqasi Bibixonim sharafiga Samarqandda ulug'vor jome masjid qurdirdi. Bibixonim nomi bilan

[246] Lyuseyn Keren. Amir Temur saltanati. O'zbekiston NMIU-2018

ataluvchi bu masjid Amir Temur davrining eng mahobatli binolaridan biri sanaladi. Masjid 1399-1404 yillarda qurilgan va hozirga qadar yaxshi saqlangan. Buyuk bobokalonidan o'rnak olgan boburiy Shohjahon suyukli rafiqasi Mumtoz Mahal begim uchun 1652 yilda maqbara dunyo mo'jizalaridan biriga aylangan nodir me'moriy yodgorlik qurdirdi. Amir Temur va Temuriylar davrida adabiyot, amaliy va tasviriy san'at rivojlandi. Ayniqsa, islomga qadar mavjud bo'lgan devoriy monumental rasm va kitob miniatyurasi san'ati yuksaldi. Amir Temur tarixda mohir diplomat va davlatlar o'rtasida yaxshi munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yish tarafdori sifatida chuqur iz qoldirdi. U Yevropa va Osiyo o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Sohibqiron dunyoning turli mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatdi: bir tarafdan Xitoy, Hindiston, ikkinchi tarafdan Frantsiya, Angliya, shuningdek, Usmonlilar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar. Amir Temur savdo-iqtisodiy munosabatlar orqali xalqlar va mamlakatlar orasida yagona makon yaratishda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. U Ispaniya qiroli Genrix III Frantsiya qiroli Karl IV, Angliya qiroli Genrixsaroylariga elchilar yo'lladi; ayni paytda o'z saroyida ispan, frantsuz, ingliz, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlarning elchilarini qabul qildi.

Amir Temur umrining ko'p qismini yurishlarda o'tkazdi. Sharqqa qilgan yurishi paytida Amir Temur 1405 yil 18 fevral kuni O'tror shahrida vafot etdi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, 23 fevral kuni Go'ri Amirda, nabirasi Muhammad Sulton daxmasida dafn qilindi.

Yevropalik olimlar Amir Temur va uning faoliyati haqida bundan to'rt yuz yil ilgari gapira boshlagan edi. 1553 yilda Florentsiya (Italiya)da italyan olimi Perondino qalamiga mansub "Skiflik buyuk Tamerlan" kitobi bosilib chiqdi. Bu Yevropada Amir Temur haqidagi ilk ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Yevropa tillarida (ispan, ingliz, frantsuz) e'lon qilingan yozma manbalar ichida birinchi o'rinda ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)" turadi. Buyuk Rembrandt Boburiylar zamonidagi hind miniatyuralaridan ilhomlanib, Amir Temurni uning vorislari Umarshayx, Zahiriddin Bobur, Humoyun va Akbar davrasida tasvirlaydi.

XVI asrda yashagan mashhur ingliz shoiri va dramaturgi Kristofer Marloning "Buyuk Temur" nomli tragediyasida yosh Temurbek o'zining tengsiz aqlli, salohiyati va shijoati bilan jahon tarixidagi qudratli podsholardan biriga aylangani namoyish etilgan. Tragediya XVI asrgacha sahnadan tushmay, Angliyada teatr mavsumini boshlab bergan. Bir necha yevropalik bastakorlar operalarda Amir Temur obrazini yaratganlar. XVI asr boshida italyan bastakori Gaspirni "Tamerlan" operasini yaratdi. Mazkur opera Vena teatrida sahnalashtirilgan. Hattoki, Antonio Vivaldi, Skolari, Gendel kabi bastakorlar ham bu mavzuda musiqa asarlari yaratganlar.

Hozirgi kunda Sohibqiron Amir Temur haqida bir nechta tarixshunos yozuvchilar izlanish olib bormoqda. Hali oldinda "Temur" nomi bilan mashhur bo'ladigan bir nechta asarlar bizni kutib turibdi. Zero, Amir Temurdek insoning umr yo'llari qancha yozilsa ham kam, xotirasi esa hamisha abadiy.

AMIR TEMUR DAVRIDA ARAB TILI VA UNING RIVOJI

Gayratov Shaxzodbek, TGFU talabasi
Xashimova Mohira, TGFU o'qituvchisi

Amir Temur davri – O'rta asr Sharq tarixida yuksak taraqqiyot va uyg'onish davrlaridan biri sifatida alohida o'ringa ega. Bu davrda nafaqat siyosiy va harbiy sohalar, balki madaniyat, ilm-fan, adabiyot va til sohalari ham sezilarli ravishda rivojlandi. Ayniqsa, arab tili bu davrda ilm-fan, falsafa va diniy ilmlar tili sifatida yuqori maqomga ega bo'ldi. Ushbu maqolada Amir Temur hukmronligi davrida arab tilining mavqei, uning ilmiy va madaniy hayotdagi o'rni, shuningdek, bu tilning rivojiga ko'rsatilgan e'tibor haqida fikr yuritiladi.

Amir Temur (1336–1405) o'z siyosatini harbiy yutuqlar bilan cheklab qo'ymay, madaniyat va ilm-fan rivojiga ham katta ahamiyat qaratgan. Uning hukmronligi davrida Samarqand, Buxoro, Hirot, Marv va boshqa shaharlarda kutubxonalar, madrasalar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Bu muassasalarda ta'lim asosan arab tilida olib borilgan. Chunki o'sha davrda arab tili islomiy dunyoning ilm-fan tili bo'lib, fiqh, hadis, tafsir, mantiq, falsafa, tibbiyot va matematika kabi sohalarda yozilgan asarlarning asosiy tili edi.

Amir Temur davrida yashab ijod qilgan ko'plab olimlar o'z asarlarini arab tilida yozganlar. Masalan, mashhur alloma Burhoniddin Marg'inoniy, garchi Temurdan biroz oldin yashagan bo'lsa-da, uning "Hidoya" nomli fiqhiy asari arab tilida yozilgan va Temuriylar davrida keng o'qilgan. Temur avlodlari, ayniqsa Mirzo Ulug'bek, ilm-fanga qiziqqan va arab tilida ko'plab manbalarni o'rganish uchun sharoit yaratgan.

Mirzo Ulug'bek tomonidan tashkil etilgan Samarqand rasadxonasida olib borilgan astronomik tadqiqotlar ham arab tili orqali bayon qilingan. Bu ilmiy markazda faoliyat yuritgan Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi olimlar arab tilida asarlar yozganlar va bu ilmiy meros keyinchalik Yevropada ham tan olingan.

Madrasalar va dini ta'limda arab tili. Temur davrida bunyod etilgan madrasalarda diniy ta'lim asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgan. Diniy ilmlar – Qur'on, hadis, tafsir, fiqh va aqoid – arab tilida o'rgatilgan. Arab tili Qur'oni karim tili bo'lgani uchun, uni mukammal o'rganish islom olamida ilmiy yuksalishning zaruriy sharti hisoblangan. Shu sababli, Temur bu tilni o'rganish va o'rgatishga alohida e'tibor qaratgan. Uning farmonlariga binoan,

madrasalarga tajribali mudarrislar tayinlangan, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun katta mablag’lar ajratilgan.

Arab tilidagi ko‘plab ilmiy asarlar forsiy va turkiy tillarga tarjima qilingan. Bu jarayon, bir tomondan, arab tilida yaratilgan boy ilmiy merosni xalq orasida keng yoyish imkonini bergan bo‘lsa, boshqa tomondan, arab tilini chuqur o‘rganishga sabab bo‘lgan. Tarjimonlar arab tilini mukammal bilishlari va asl manbaga sodiq qolgan holda tarjima qilishlari talab qilingan. Shuningdek, Temur va uning avlodlari saroyida ham arab tili muhim aloqa va ilmiy muloqot tili sifatida xizmat qilgan. Saroy kutubxonalarida ko‘plab arabcha qo‘lyozmalar saqlangan va o‘rganilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida arab tilida yozilgan asarlar nafaqat diniy, balki ilmiy-texnikaviy sohalarda ham katta ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Ibn Sino tomonidan yozilgan “Al-Qonun fi-t-tibb” (Tibb qonunlari) asari arab tilida yozilgan bo‘lib, bu asar keyinchalik Yevropa ilm-faniga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu asar Temuriylar davrida keng tarqalgan va o‘qitilgan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr Forobiy kabi allomalar tomonidan yaratilgan arab tilidagi asarlar, Temuriylar davrida yuksak qadrlangan. Temur ilmli kishilarga katta hurmat bilan qaragan va ularni qo‘llab-quvvatlagan. Ayniqsa, Mirzo Ulug’bek davrida bu asarlar yana bir bor tiklanib, ilmiy izlanishlarda asosiy manba sifatida qo‘llanilgan.

Madrasalarda o‘quv dasturlari aniq tuzilgan bo‘lib, Qur’on tilini mukammal tushunish, hadislarni asl holida o‘rganish va diniy-falsafiy fikrlarni sharhlash uchun arab tilini mukammal o‘zlashtirish talab etilgan. O‘quv dasturida sarf (so‘z yasalishi), nahv (sintaksis), balog’at (uslubiy mahorat) fanlari muhim o‘rin egallagan. O‘quvchilar avval arab tili grammatikasini, so‘ng diniy matnlarni o‘qish va tahlil qilishni o‘rganganlar. Bu esa, arab tilining nafaqat yozma balki og’zaki nutqda ham rivojlanishiga turtki bergan. Ayniqsa, fiqh va tafsir fanlarini chuqur o‘rgangan talabalar keyinchalik muftiy, qozilik lavozimlarida xizmat qilishgan.

Temuriylar davrida uch tillilik – arab, forsiy va turkiy tillarning uyg’unligiga asoslangan madaniy siyosat olib borilgan. Arab tili ilm va din tili sifatida; fors tili adabiyot va san’at tili sifatida; turkiy til esa xalq bilan bevosita muloqotda bo‘lgan tilda ishlatilgan. Bunday ko‘p tillilik siyosati Temuriylar imperiyasining intellektual va madaniy salohiyatini oshirishda katta rol o‘ynagan. Arab tili bu tizimda eng yuksak ilmiy maqomga ega bo‘lgan. Temur tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ilmiy majlislar va kutubxonalarda arabcha qo‘lyozmalar eng qimmatli meros sifatida saqlangan.

Amir Temur davrida arab tili ilm-fan, diniy ta’lim va madaniy hayotda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bu tilning yuqori maqomda bo‘lishi Temuriylar davrida ilmiy yuksalishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan. Arab tilidagi ilmiy va diniy merosni o‘rganish, saqlash va targ’ib qilish orqali Amir

Temur o‘z davrida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirdi, ilm-fan taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu holat arab tilining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va uning mavqeini yanada mustahkamladi. Ushbu davr tajribasi bugungi kunda ham ilm-fan va til siyosatida chuqur o‘rganilishi zarur bo‘lgan tarixiy manba sifatida xizmat qiladi.

TEMURIYLAR DAVRIDA TILSHUNOSLIKNING RIVOJI

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi,
TGFU o‘qituvchisi

Temuriylar davri (1370–1506) nafaqat siyosiy, balki madaniy, ilmiy va adabiy sohalarda ham taraqqiyotga zamin yaratgan yuksak davr hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat va uning avlodlari davrida ilm-fan, ayniqsa, til va adabiyotga oid qarashlar chuqurlashdi. Bu davrda arabcha va forscha ilmlar bilan birga, turkiy tilning mavqeyi ham ortdi. Tilshunoslik sohasi esa mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Temuriylar davrida tilshunoslik faqat amaliy tajriba emas, balki nazariy jihatdan ham tahlil qilingan. Temuriylar davrida arab tilshunosligi asosiy nazariy zamin sifatida xizmat qildi. Arab tili grammatikasi – nahv va sarf ilmlari – ilmiy maktablarning asosiy tayanadigan manbasi bo‘ldi. Shu jihatdan, Sibavayhning "Kitob" asari ko‘p o‘rganildi va ilhom manbai sifatida qabul qilindi. Bu haqda zamonaviy tadqiqotchilar ta’kidlaydi: “Temuriylar davridagi ilmiy muhit arab tilshunosligi metodlaridan mahorat bilan foydalangan holda turkiy tillarga moslashgan mustaqil tilshunoslik maktablarining shakllanishiga olib keldi”.

Tilshunoslikning nazariy asoslari va arab tilshunosligining ta’siri

Arab tili va unga oid grammatik an’analar Temuriylar davri tilshunosligining nazariy bazasini tashkil qilgan. Ilk tilshunoslar grammatikani arab tilida o‘rganar, keyinchalik esa bu tajriba turkiy tilga ham ko‘chirilgan. Misol uchun, arab tilshunosligida mashhur bo‘lgan Sibavayh asarlari Temuriylar davridagi mutafakkirlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Sakkokiy tomonidan yozilgan “Miftah ul-ulum” asari, tilshunoslikda stilistika, balog’at, nahv (sintaksis) va sarf (morfologiya) masalalarini o‘z ichiga olgan muhim risoladir. Sakkokiy o‘z asarlarida arab grammatik an’analarini chuqur tahlil qilgan, ularni turkiy adabiy tilga moslashtirgan.

Alisher Navoiy – Temuriylar davridagi tilshunos olim

Alisher Navoiy (1441–1501) o‘z davrining yirik tilshunosi va adibi sifatida tilshunoslikka ulkan hissa qo‘shdi. Uning “Muhokamat ul-lug’atayn” asari — tilshunoslik tarixida ilk marta ikki til (turkiy va forsiy)ning taqqoslanib tahlil qilingan nazariy risolasidir. U asarida shunday deydi: “Agar ul forsiy tili so‘zlarining ma’nosi chuqur va tarzi ravon bo‘lsa, turkiy tili ham undan qolishmas”. Navoiy tilni xalq ruhiyatini aks ettiruvchi, estetik go‘zallikni

ifodalovchi vosita sifatida ko‘radi. Uning she’rlari fonetik uyg’unlik, leksik boylik va stilistik rang-baranglikning mukammal namunalaridir. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida turkiy tilning fors tilidan kam emasligini ilmiy asosda isbotlab berdi. U shunday deydi: “Turk tili fors tilidan hech kam emas, balki ko‘p jihatdan ustundir”.

Navoiy asarlaridagi fonetik aniqlik, morfologik o‘ziga xoslik va sintaktik ravonlik Temuriylar davrining yetuk til madaniyatidan dalolat beradi.

Husayn Boyqaro va ilmiy muhit

Temuriylar davrining oxirlariga kelib, Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirotda ilmiy-adabiy muhit kuchaydi. Boyqaro o‘zi ham she’r yozgan va adabiyotga homiylik qilgan. U Navoiy bilan hamkorlikda ko‘plab ilmi-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘ygan. Bu davrda grammatik qoidalar, adabiy til me’yorlari va tilda normativlik tushunchasi keng tus oldi.

Lutfiyning tilshunoslikdagi roli

Lutfiy (1366–1465) she’riyat orqali tilni sayqal beruvchi vosita sifatida namoyon etgan. U o‘z asarlarida turkiy tildagi ifoda imkoniyatlarini yuksak darajada ko‘rsatgan. Uning she’riyati orqali leksikologik boylik, metaforalar, qiyosiy iboralar keng tarqaldi. Lutfiy o‘z she’riyatida tilning ifoda qudratini kengaytirgan: “Agar so‘z yulduz bo‘lsa, uni go‘zallik libosida bezash Lutfiy kabi san’atkorlarning ishidur”.

Tilshunoslikda adabiy til me’yorlari:

Bu davrda til madaniyati yuksak darajada rivojlandi. Jumladan:

- so‘zlar tanlashdagi ehtiyotkorlik;
- sadoqatli fonetik uyg’unlik;
- sintaktik strukturalarning soddaligi va ravonligi;
- tashbeh, isti’ora, tajnis, iqtibos kabi badiiy vositalarning keng qo‘llanilishi.

Bu mezonlar orqali adabiy til me’yorlari, uslubiy xususiyatlar mustahkamlandi, o‘zbek adabiy tili mukammallashdi va zamonaviy o‘zbek tilining shakllanishiga poydevor bo‘ldi.

Temuriylar davri o‘zbek tilshunosligining shakllanishida muhim tarixiy bosqich bo‘lib, bu davrda yaratilgan asarlar va ilmiy qarashlar keyingi asrlarda tilshunoslikning rivojiga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilgan. Alisher Navoiy va uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan tilga oid qarashlar bugungi zamonaviy lingvistika uchun ham dolzarbdir.

IV-SHO'BA. TEMURIYLAR DAVRIDA XALQARO SAVDO MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDAGI O'RNI

TEMURIYLAR DAVRIDA XALQARO SAVDO MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDAGI O'RNI

Boltaxo'jayeva Izzatoy O'lmasxo'ja qizi,
Andijon davlat texnika instituti talabasi

Karimjonov Doniyorbek Ibrohimjon o'g'li,
Andijon davlat texnika instituti talabasi

Temuriylar davlati o'zining kuchli boshqaruv tizimi, iqtisodiy barqarorligi va xalqaro savdo aloqalarini muvaffaqiyatli rivojlantirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Amir Temur o'zining siyosiy va iqtisodiy qarashlarini "Temur tuzuklari" asarida bayon qilgan bo'lib, bu hujjat nafaqat o'z davri, balki keyingi davrlar boshqaruvchilari uchun ham nazariy asos bo'lib xizmat qilgan[247].

1. Markazlashgan iqtisodiy boshqaruv: Temuriylar davlati iqtisodiy boshqaruvda qat'iy tartibga asoslangan tizimni joriy etgan. Har bir hududda mahalliy hokimlar (amaldorlar) davlat moliyasini to'g'ri yuritish, soliqlarni yig'ish va aholi ehtiyojlarini nazorat qilish uchun javobgar edi. Ushbu tizim orqali davlat markazi – Amir Temur saroyi – barcha hududlardagi iqtisodiy harakatlarni nazorat ostida ushlab turgan.

2. Soliq siyosati va moliyaviy barqarorlik: Temuriylar davrida soliqqa tortish aniq me'yor va tartiblarga asoslangan. Aholi daromadlariga qarab qatlamlashgan soliqlar belgilangan, bu esa ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qilgan. Soliqdan tushgan mablag'lar ko'proq harbiy harajatlar, infratuzilma, savdo yo'llari va ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan.

3. Infratuzilma va savdo yo'llari: Amir Temur Buyuk ipak yo'lining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash uchun karvonsaroylar, yo'llar, ko'priklar qurdirgan. Tashqi savdoni himoya qilish uchun savdogarlarning xavfsizligini davlat zimmasiga olgan. Bu bilan u xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratgan. Ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Misr va Yevropa davlatlari bilan olib borilgan savdo aloqalari bu davr iqtisodiyotining global xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

4. Tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya: Temuriylar diplomatiyasida iqtisodiy manfaatlar birinchi o'rinda turardi. Chetdan hunarmandlar, olimlar va

[247] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 1996.

savdogarlarni jalb qilish orqali mamlakat ichki iqtisodiy salohiyatini oshirishga harakat qilingan. Diplomatik missiyalar orqali iqtisodiy sherikliklar mustahkamlangan[248].

5. Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish: Davlat mehnat resurslaridan samarali foydalanishni bilgan. Hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlari aniq tashkil etilgan, shaharlar va qishloqlar o'rtasida iqtisodiy integratsiya mavjud bo'lgan. Ayniqsa, Samarqand va Buxoro shaharlari iqtisodiy markazlar sifatida alohida rivojlangan[249].

Zamonaviy boshqaruv bilan o'xshashliklar: Temuriylar davrining iqtisodiy boshqaruvi bugungi kunda strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, infratuzilmaviy siyosat, xalqaro iqtisodiy aloqalar va davlat-mulkiy munosabatlar sohalarida katta qiyosiy ahamiyatga ega. Davlatning boshqaruvda qat'iylik, xalq bilan hisoblashish, uzoq muddatli rejalashtirishga asoslangan yondashuvi zamonaviy menejment va iqtisodiy siyosat yuritishda o'rganilishi kerak bo'lgan namunadir[250].

Temuriylar davrining iqtisodiy siyosati va boshqaruv strategiyasi Markaziy Osiyo tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan boshqaruv, savdo infratuzilmasi, soliqqa tortish va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tizimlari o'z davrining ilg'or tajribalaridan bo'lgan. Mazkur tizimlar orqali davlat iqtisodiy barqarorlikka, ichki siyosiy muvozanatga va tashqi savdo aloqalarini mustahkamlashga erishgan[251].

Bugungi zamonaviy boshqaruv va iqtisodiy rivojlanish sharoitida Temuriylar tajribasi strategik rejalashtirish, iqtisodiyotni samarali boshqarish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro savdoni rag'batlantirish bo'yicha muhim saboqlarni beradi. Ushbu tarixiy yondashuvlardan zamonaviy iqtisodiy menejment va davlat siyosatida samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi[252].

1. Temuriylar davrining iqtisodiy boshqaruv tizimi zamonaviy iqtisodiy islohotlarda nazariy asos sifatida o'rganilishi va ta'lim tizimiga keng joriy etilishi lozim.

2. Temuriylar tajribasidan kelib chiqib, davlat tomonidan xalqaro savdo va infratuzilmani qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Soliq siyosatini takomillashtirishda tarixiy tajribalardan foydalanish, ya'ni iqtisodiy subyektlar uchun qulay, barqaror va adolatli soliq tizimini shakllantirish muhim.

4. Tarixiy boshqaruv tamoyillari asosida raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish mumkin.

---

[248] Sultonov A. Temuriylar davri diplomatiyasi va xalqaro aloqalari. – Buxoro, 2017.
[249] Shoniyozov K. Amir Temur va temuriylar davlati. – Toshkent: Fan, 2001.
[250] Burkhanov U.M. O'zbekiston iqtisodiyoti va boshqaruv islohotlari. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2020.
[251] Xudoyberganov Q.X. Davlat boshqaruvi va strategik rejalashtirish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
[252] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.

5. Milliy strategik rejalashtirish tizimida tarixiy yondashuvlardan – uzoq muddatli rejalashtirish, xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni uyg'unlashtirish tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI TARIXIY VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA O'RGANISH

Muhammadjon Mo'minov Abdukarim o'g'li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi

Milliy istiqlol O'zbek xalqining asriy orzusi armoni edi. O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi eng ulkan g'alaba, uning qadriga yetish, mustaxkamlash, avaylab saqlab qolish muxim vazifa. Yurtboshimizning "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvofaqqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va istiroblari bilan xolis va xaqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi." deb aytgan fikirlari nixoyatda katta axamiyatga egadir. Mustaqillik sharofati bilan o'zligimini anglash, o'z tariximizni xolisona o'rganishga ega bo'ldik. Ayniqsa sovetlar xukumronligi yillarida qoralanib kelgan Amir Temur va Temuriylar davri tarixini yangi manbalar asosida va mustaqillik ruhi bilan o'rgansh dolzarb mavzulardan biridir. Amir Temur va Temuriylar davrida Movaraunnahir va Xuroson O'rta Osiyo madaniy hayotida juda katta yuksalish ruy berdi. Bu davir o'z mohiyati bilan sharq o'yg'onish davrining o'ziga xos bosqichi bo'ldi. Bu davirda madaniy xayotning kuchayish darajasi IX- XII asrlar orasidagi ilk musulmon renescansidan qolishmaydi. Amir Temur va Temuriylar mamlakat mustaqilligi, el-yurt osoyishtaligi, uni obod etishda bunyodkorlik ishlariga katta axamiyat berdilar. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarida xam bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan, davlatlar o'rtasida savdo va madaniy aloqalar olib borgan shu boisdan xam Amir Temur va Temuriylar davridagi tarixini xar tomonlama xolisona o'rganish dolzarb mavzu xisoblanadi.

Mustaqillik shamoli esishi tufayli Amir Temur to'g'risida noma'lum bo'lib kelayotgan va sir saqlab kelingan tarixiy-ilmiy va badiiy asarlar, monografiyalar, risolalar endilikda nashr qilina boshladi.

Amir Temurga bag'ishlab yozilgan asarlarni, maqolalarni bir xil tarzda qabul qila olmaymiz. Chunki, turli davr va sharoitlarda yozilgan asarlar mualliflarning dunyoqarashlariga, bilim saviyalariga ko'ra bir- biridan keskin farq qiladi. Amir Temur haqida yozilgan asarlarni bir necha guruhga bo'lib o'rganish zarur.

Birinchi guruhda: Amir Temur davrida yashagan muarrixlarning asarlari − Sharofuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, G'iyosiddin Ali, Hofizu Abro',

Xondamir, Mirxond va boshqalarning asarlari.[253]

Ikkinchi guruhga turli mamlakatlar olimlari, tarixchilari, adiblari yozgan asarlardir. Bu guruhdagi kishilar Ibn Arabshoh, Lui Gonsales de Klavixo, Ibn Xaldun, Silvestr De-Sosi Sharida, Eyms Feymor va boshqalar.

Uchinchi guruhga − Rossiya mustamlakachiligi va sho'rolar istibdodi davrida yaratilgan adabiyotlar − M.Ivanin, V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, G.Hidoyatov va boshqalarning asarlari.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Amir Temur va Temuriylar davri tarixini tarixiy va yozma manbalar asosida xolisona tadqiq etish. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi

Birinchidan: XIV asrning ikkinchi yarimida Movaraunnaxrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil etish.

Ikkinchidan: Amir Temur davlatidagi siyosiyo, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixini o'rganish.

Uchinchidan: Amir Temur va Temuriylar davridagi tashqi savdo munosabatlarini tahlil etish.

To'rtinchidan: Temur va Temuriylar davridagi ilm-fan va madaniy xayotni ko'rib chiqish.

Beshinchidan: Amir Temur va Temuriylarning Jahon tarixida tutgan o'rnini o'rganishdan iborat.

Mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi manba va adabiyotlardan foydalandim: "Sharofuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"[254], Ibn Arabshoh "Ajoyib al maqdur", "Temur tuzuklari"[255], Yevgeniy Bereznikov "Buyuk Temur", B.Ahmedov "Amir Temur"; "Temur va Ulug'bek davri tarixi", M.Ivanin "Ikki buyuk sarkarda − Chingizxon va Amir Temur", A.Muhammadjonov "Temur va temuriylar saltanati", B.Ahmedov va boshqalar "Sohibqiron Temur", H.Sattoriy "Amir Temur sevgan yurt", "Olti asr adolati" va boshqa ko'plab Amir Temur tarixiga bag'ishlangan asarlar ilmiy maqolalar, ilmiy to'plamlardan foydalandim.

Mavzuni yoritish jarayonida ko'plab manbalarga duch kelindi va Amir Temurning dunyo mamlakatlari bilan olib borgan do'stona munosabati tadqiq qilingan. Shuning uchun bu bitiruv malakaviy ishdan qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Ilmiy ishda Amir Temurning boshqa davlatlar bilan olib borgan siyosiy iqtisodiy va madaniy aloqalarni manba va ilmiy adabiyotlarni tahlil etgan holda umulashtirib izchil tarzda o'rganildi. Mavzu xali to'liq o'rganilmagan bo'lib birinchi marta bitiruv malaviy ish sifatida tadqiq etildi.

---

[253] Sharofuddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma", T.: "Sharq", 1997. Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma. G'iyosiddin Ali. "Temurning Hindistonga yurishi kundaligi. Hofizu Abro'. "Tarixlar silsilasi". Xondamir. "Habib as-siyar". Mirxond. "Ravzat us-safo".

[254] Sh.Karimov, R.Shamsutdinov, "Sohibqiron Amir Temur va uning saltanati", 1995 y. Andijon B-16

[255] Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" 1-kitob

Prezidentimiz Toshkent shahrida temuriylar davlati tarixiy muzeyining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovruq qozongan, millatimiz faxri bo‘lmish ulug’ zotlar benihoya ko‘p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshdek charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, butuni va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi. Ul muhtaram inson Sohibqiron Amir Temur hazratlaridir. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizni har bir qadamida ul buyuk zot ruhi bizga hamrohu hamnafas bo‘lib bormoqda.[256]

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixiy voqealarga nihoyatda boy tarixiy saboq davri hisoblanadi. Chunki bu davrda mo‘g’ullar hukmronligi va feodal tarqoqlik tugatilib, bosqinchilarning vayronargarchiligi va bir yarim asrlik zulmlari oqibatida iqtisodiy, madaniy ma’rifiy turg’unlik holatiga tushib qolgan davlatimiz o‘z mustaqilligini qayta tiklashga kirishdi. Bu diyorda Amir Temur boshchiligida yagona tug’ ostida markazlashgan, kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan bu tarixiy voqeada, Amir Temurning xizmati g’oyat buyukdir. O‘z davlatining kuch-qudratini oshirib, uni mustahkamlash uchun avvalo, u harbiy va iqtisodiy islohot o‘tkazdi. Yaxshi qurollangan muntazam qo‘shin tuzdi. Davlat boshqaruvi tizimlarini ishlab chiqdi va sinovlardan o‘tkazdi.

TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR TARIXI

Xamzayeva Mavjuda Nematovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

Amanov Axror Akbar o‘g’li,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti talabasi

Temuriylar davri (XIV asr oxiri – XV asr oxiri) Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin tutadigan davrlardan biridir. Bu davrda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lgan.

Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrda hokimiyatni qo‘lga olganidan so‘ng, kuchli markazlashgan davlat tuzishga intildi. U hududiy yurishlar orqali o‘z davlatining chegarasini Hindistondan to Kichik Osiyogacha kengaytirdi. Temur davlat boshqaruvini kuchli markazlashgan tartib asosida olib bordi. Har bir viloyatda Temur tomonidan tayinlangan noiblar boshqaruvni amalga oshirdi.

[256] Ibrohim Mo‘minov “Amir Temurning- O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” 1968, T. “Fan” B-46

Bu esa mamlakat ichidagi tartib-intizomni saqlashga, markaziy hokimiyatning kuchayishiga xizmat qildi.

Temuriylar davrida diplomatik aloqalar ham rivojlandi. Amir Temur Xitoy, Hindiston, Usmonlilar imperiyasi va boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bu esa siyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi.

Temuriylar davrida iqtisodiy hayot ancha rivojlangan edi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo asosiy iqtisodiy tarmoqlar sifatida shakllandi. Sug’orish tizimlari rivojlantirildi, yangi ariqlar va kanallar qazildi. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirdi.

Savdo-sotiq munosabatlari Temuriylar davrida nihoyatda yuksaldi. Samarqand, Buxoro, Hirot, Toshkent kabi shaharlar yirik savdo markazlariga aylandi. Buyuk ipak yo‘li orqali Sharq va G’arb o‘rtasidagi savdo aloqalari faollashdi. Shuningdek, bozorlarda mahalliy mahsulotlar bilan birga Hindiston, Xitoy, Arab va Yevropa tovarlari ham sotilgan. Temur va uning avlodlari shaharlarda karvonsaroylar, bozorbop rastalar, madrasalar, hammomlar qurdirgan bo‘lib, bu infratuzilmaning rivojiga olib keldi. Iqtisodiy o‘sish mamlakatda umumiy farovonlikka va madaniy yuksalishga olib keldi.

Temuriylar davlati markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, unda hokimiyat Amir Temur va uning vorislariga bo‘ysungan. Viloyatlar, shaharlar va qishloqlar hokimlar tomonidan boshqarilgan bo‘lib, ular markaziy hokimiyatga hisobdor edilar. Temur harbiy va fuqarolik boshqaruvni qat’iy ajratgan holda yuritgan. Uning “Tuzuklar” asarida yozilishicha, adolat — davlat barqarorligining asosiy omilidir. Shuning uchun u har qanday nohaqlikka qarshi kurashib, sud ishlarida adolatni ustuvor qo‘ygan.

Temuriylar davrida jamiyat aniq tabaqalarga bo‘lingan: sultonlar, amirlar, din arboblari, hunarmandlar, dehqonlar va oddiy xalq. Har bir tabaqaning o‘z vazifalari va huquqlari bo‘lgan. Hunarmandlar va savdogarlar iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sanalgan. Ayniqsa, ko‘chmanchi qabilalarning asta-sekin shahar hayotiga moslashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy strukturalarning shakllanishiga olib kelgan.

Temuriylar davrida pul birligi sifatida asosan oltin va kumush tangalar muomalada bo‘lgan. Oltin tangalar xalqaro savdoda, kumush esa ichki bozorlarda keng qo‘llanilgan. Temur soliqlarni tartibga solgan va ularni adolatli yig’ish bo‘yicha maxsus farmoyishlar bergan. Soliqlar asosan yer, chorva va hunarmandchilik faoliyatidan yig’ilgan.

Buyuk ipak yo‘li orqali o‘tuvchi karvonlar Temuriylar davrida davlat tomonidan himoya qilingan. Savdo yo‘llari bo‘yicha joylashtirilgan qaroqchilarga qarshi qo‘shinlar ajratilgan, karvonsaroylar va bojxonalar tashkil etilgan. Bu esa ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Temuriylar davridagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlar Markaziy Osiyo tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan. Kuchli markazlashgan siyosiy boshqaruv, rivojlangan savdo yo‘llari va taraqqiy etgan iqtisodiyot mamlakatning yuksalishiga sabab bo‘lgan. Bu davrda yaratilgan siyosiy va iqtisodiy asoslar keyingi avlodlar uchun muhim meros bo‘lib xizmat qilgan.

Amir Temur o‘zining "Tuzuklari"da davlatni boshqarish tamoyillarini aniq ko‘rsatib bergan. U boshqaruvda adolat, tartib-intizom va kuchli markaziy nazoratni asosiy tamoyillar sifatida ilgari surgan. Temur o‘z yurishlarini nafaqat hududiy kengayish, balki ichki tartibni ta’minlash, g’azna va iqtisodiy resurslarni boyitish maqsadida olib borgan. U yurishlaridan oldin harbiy strategiyalarni puxta rejalashtirib, turli sarkardalar o‘rtasida mas’uliyatli vazifalarni taqsimlagan. Temur harbiy yurishlardan tushgan boyliklar hisobiga shaharlarni obodonlashtirish, me’moriy inshootlar qurdirish va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash ishlarini yo‘lga qo‘ygan.

Temuriylar davrida hunarmandchilik ham yuqori darajada rivojlandi. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlarida metallsozlik, zargarlik, to‘qimachilik va sopolsozlik sohalari ancha taraqqiy etdi. Har bir hunar turi uchun alohida ustaxona va bozor rastalari mavjud edi. Bu esa ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, ichki bozorning kengayishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, Temuriylar tashqi savdo siyosatida boj va soliq imtiyozlari orqali chet ellik savdogarlar uchun qulay muhit yaratgan. Bu esa xalqaro savdo aloqalarining faollashishiga olib kelgan.

Temuriylar davridagi iqtisodiy yuksalish bevosita ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ulug’bek davrida Samarqand ilm-fan markaziga aylangan bo‘lib, bu yerda rasadxona, madrasalar, kutubxonalar qurildi. Olim va san’atkorlarga davlat g’aznasidan moddiy yordamlar ajratildi. Bu orqali iqtisodiy barqarorlik ilmiy va madaniy rivojlanishni ham rag’batlantirgan.

AMIR TEMUR- BUYUK DAVLAT ARBOBI

Mirzayeva Guljahon Shuxrat qizi,
Kokand Unversity Andijon filiali talabasi

Amir Temurning Hayoti va Shaxsiyati:Amir Temur 1336 yilda, hozirgi O'zbekistonning Shahrisabz shahrida tug'ilgan. Uning tug'ilgan nomi Temur (Temir) bo'lib, Amir unvoni keyinchalik unga berilgan. Temur dastlabki davrda o'zining mamlakatni boshqarish imkoniyatlari haqida ko'p o'ylamagan, lekin 1360-yillarda o'zining harbiy mahoratini namoyon qilib, ko'plab hududlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. O'zining ajoyib harbiy strategiyasi va jasorati bilan Amir Temur qator yirik davlatlarni boshqarishda muvaffaqiyat qozondi.Temur nafaqat harbiy ustasi, balki siyosiy arbob sifatida ham o'zining mahoratini

namoyon etdi. Uning davlat boshqaruvidagi maqsadi ko'plab xalqlarni yagona boshqaruv ostida birlashtirish edi. Temurning markazlashtirilgan boshqaruv uslubi, u tomonidan joriy etilgan qonunlar va tartiblar, davlatni barqaror holatga keltirishga xizmat qildi.U turkiy xalqning Barlas urug'iga mansub bo'lib, o'zining dastlabki yillarida kuchli bir qarama-qarshiliklar va sinovlarga duch kelgan. Temurning dastlabki ta'limi va tarbiyasi haqida ma'lumotlar kam bo'lsa-da, u yoshligidan harbiy san'at va strategiyaga qiziqish bildirgan. Xalq orasida "Temur" nomi unga kuchli, qudratli va muqaddas bir ramz sifatida qaraldi.

Temurning yoshligi bir necha davlatlarning xududlarida bo'lib o'tgan siyosiy o'zgarishlar, o'zaro janglar va inqirozlar fonida kechdi. Dastlab, u kichik qishloq janglarida qatnashib, o'zining strategik qobiliyatini ko'rsata boshladi. 1360-yillarda u Movarounnahr (hozirgi O'zbekiston va Afg'oniston hududi)ni zabt etdi va shu tariqa o'zining hukmronligini boshladi.

Temurning harbiy mahorati uning hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. U o'z davrining eng mukammal jangovar boshqaruvchilaridan biri sifatida tanildi. U juda tez o'ylash qobiliyati, dushmanlarni mag'lub etishda noan'anaviy usullarni qo'llash va qo'shinlarini muvaffaqiyatli boshqarish bilan mashhur bo'ldi. Amir Temur o'zining barcha janglarida asosan strategik yurishlar va psixologik taktikalar orqali yirik yutuqlarga erishdi.Temur davlat boshqaruvida ham innovatsiyalarni amalga oshirdi. U o'z mamlakatida kuchli markazlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etib, barcha viloyatlar va hududlar birlashgan yagona hukumat tizimi ostida boshqarilishini ta'minladi.

Temur, o'zining yuqori intellektual va siyosiy qobiliyatlari bilan faqat harbiy maydonda emas, balki siyosiy va madaniy sohalarda ham muvaffaqiyat qozondi. Bundan tashqari, Temurning shaxsiyati ham juda murakkab edi. U juda qat'iyatli va o'z maqsadiga sodiq bo'lsa-da, o'ziga xos adolatli va dono bir rahbar sifatida ham tanilgan. O'z yurishlarida xalqlarni, ularning urf-odatlarini hurmat qilishga harakat qilgan, shu bilan birga, o'z hududlarini boshqarishda qat'iyat va mustahkamlikni namoyish etgan. Temurning hayotidagi boshqa bir ahamiyatli jihat uning yuksak madaniyat va ilm-fanga bo'lgan e'tiboridir. U Samarqandni ilm-fan va madaniyatning markaziga aylantirdi, bu shaharda ko'plab olimlar va mutafakkirlar ishlagan.

Temur o'zining ilm-fan va madaniyatga bo'lgan sadoqatini ta'kidlab, bu sohalarga katta mablag'lar ajratgan va ko'plab muhim yodgorliklar qurdirgan. Shunday qilib, Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki ajoyib davlat arbobi, madaniyat homiysi va o'z davrining olim va san'atkorlarining himoyachisi sifatida tarixga kirgan. U o'zining shakllangan shaxsiyati va g'oyalariga sodiq qolib, ko'plab xalqlarni birlashtirib, kuchli imperiya tuzishda muvaffaqiyat qozondi. Uning shaxsiyati va hayoti, har bir tarixshunos va o'quvchi uchun o'rganish va tushunish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Amir Temur, tug'ilganidan boshlab, o'zi uchun murakkab va iztirobli yo'lni tanladi.

Temurning ota-ona tarbiyasi va uning yoshligida olgan ta'limi haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar kam bo‘lsa-da, u yoshligidan boshlab o‘zining strategik qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilgan.

Shahrisabzdagi kichik qishloqlardan birida yashagan Temur uchun bu joy o‘zining kelajakdagi imperiyasining poydevori bo‘ldi. Uning bolalik yillari davrida Movarounnahrda davlatlararo nizolar va siyosiy qarama-qarshiliklar bo‘lgan, bu esa Temurni tinchlikni saqlashdan ko‘ra harbiy mahoratni o‘rganishga undadi.

Amir Temur Barlas urug’ining a'zosi bo‘lishiga qaramay, o‘z davrining turkiy va mo‘g’ul xalqlari bilan muloqotda bo‘lgan. Uning ota-onasi va ajdodlari mo‘g’ul hukmdori Chingizxonning avlodlaridan edi, ammo Temur o‘zini mo‘g’ul urf-odatlari bilan cheklamagan va turkiy xalqning madaniyati va urf-odatlariga ham katta hurmat ko‘rsatgan. Bu xususiyat Amir Temurni boshqa o‘sha davr sarkardalaridan ajratib turdi. Uning mohiyatan ikkita madaniyatning (mo‘g’ul va turkiy) o‘rtasida turib, o‘ziga xos bir shaxsiyat shakllantirdi. Temurning harbiy mahorati juda yuqori baholanadi. U o‘zining ajoyib jangovar taktikalarini, dushmanlarni sindirishdagi noan'anaviy usullarini va qo‘shinlar bilan tezkor harakatlarni amalga oshirishdagi o‘ziga xos uslubini o‘rnatdi. Masalan, uning qo‘shinlari faqat to‘g’ridan-to‘g’ri janglarda emas, balki dushmanlarni psixologik jihatdan sindirishda ham muvaffaqiyat qozonishdi. Temur dushmanlarini oldindan tahlil qilib, ularning zaif joylarini aniqlash va shu zaifliklardan foydalanishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqardi.

Temurning tarixdagi alohida yeri shundaki, u o‘zining harbiy yurishlarini amalga oshirishdan tashqari, diniy va madaniy sohalarda ham iz qoldirdi. U Samarqandni poytaxt sifatida tanlab, uni jahon miqyosida ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirdi. Samarqanddagi Registon maydoni, Ulug’bek madrasasi, Shahi Zinda majmuasi va Amir Temur maqbarasi kabi yodgorliklar uning madaniy merosining yuksak namunalaridir. Temur o‘z davrining buyuk ilm-fan va san'at homiysi bo‘lgan va bu yodgorliklar nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun dunyo uchun bebaho merosdir. Amir Temurning juda ko‘p yirik yengilliklari bor, lekin eng diqqatga sazvori — uning Hindistonga bo‘lgan yurishidir. 1398 yilda Temur Hindistonning poytaxti Delhi shahrini egallash uchun katta ekspeditsiya boshladi. Bu yurish juda muvaffaqiyatli bo‘ldi, lekin u Hindistonning kuchli hukmdorlarini ham, xalqni ham tahlikaga soldi. Temur bu yurishni amalga oshirishdan maqsadi o‘zining kuchini va ta'sirini butun O‘rta Osiyo va Hindiston bo‘ylab namoyish etish edi. Hindistondagi Delhi imperiyasini zabt etganidan so‘ng, Temur ko‘plab asirlarni olib ketdi va Delhi shahrini talon-toroj qildi. Uning harbiy yurishlari faqatgina janglarda emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham o‘z izini qoldirdi. Temurning hukmronlik davrida, uning qo‘l ostidagi hududlarda agrar islohotlar, savdo aloqalarini kengaytirish va iqtisodiy rivojlanishga oid bir qator ishlar amalga

oshirildi. Bu shuningdek, uning siyosatidagi markazlashtirishning muhim jihatlari edi. Amir Temur o‘zining siyosiy va harbiy muvaffaqiyatlari bilan birga, ko‘plab tarixchilar tomonidan "buyuk jangchi" sifatida tanilgan, lekin u haqiqatan ham o‘zining falsafiy qarashlari, o‘z xalqini boshqarishda ko‘rsatgan dono va adolatli siyosati bilan ham tarixda yod etiladi. Qo‘shimcha faktlar: Temur Samarqandda qurilgan ko‘plab madrasalar va ilm-fan markazlari bilan mashhur. Uning davrida Samarqandda astronomiya va matematika sohalarida muhim ishlanmalar amalga oshirildi.

Ulug’bek, Temurning keyingi avlodlaridan biri, bu sohalarda katta ilmiy yutuqlarni amalga oshirdi. Temur o‘zining eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan *Temur tuzuklari* (Temurning qonunlari)ni yaratdi. Bu asar uning siyosiy qarashlarini, ma'muriy tizimini va davlat boshqaruvining asoslarini belgilab berdi. Shunday qilib, Amir Temur o‘zining faqat harbiy salohiyati bilan emas, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlari bilan ham tarixda abadiy o‘rin egallagan buyuk shaxsdir. Uning hayoti va merosi bugungi kunda ham ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘ladi va uning xalqlar orasidagi hurmat-e'tibori hamon saqlanib kelmoqda. Amir Temurning muvaffaqiyatlari uning o'ziga xos harbiy strategiyasi va taktikalari bilan bog'liq. Uning eng katta yengilliklaridan biri — 1370-yilda Movarounnahrni zabt etishi bo'ldi. Bu yengillik uni hukmronlikni kengaytirishga undadi va keyinchalik u Markaziy Osiyo, Kavkaz, Eronda katta hududlarni o'z nazorati ostiga olishga muvaffaq bo'ldi. Amir Temur Xorazm, Eron, Turkiya, Hindiston va Kavkaziya kabi hududlarda o'zining harbiy yurishlarini amalga oshirdi.

Amir Temur o‘z davrining eng buyuk sarkardalaridan biri bo‘lib, uning harbiy yurishlari dunyo tarixida keng e'tirof etilgan. U o‘zining jangovar mahorati, strategik fikrlash qobiliyati va dushmanlarni tezda sindirishdagi ajoyib uslublari bilan mashhurdir. Uning muvaffaqiyatli harbiy yurishlari nafaqat o‘zining hokimiyatini kengaytirishga, balki dunyoning ko‘plab hududlarida Temurning ta'sirini o‘stirishga yordam berdi. Samarqandni zabt etish va Movarounnahrda hukmronlik: Amir Temurning eng birinchi yirik muvaffaqiyati 1360-yillarda Movarounnahrni egallashdir. Ushbu hududda turli davlatlar va qabilalar mavjud edi, lekin Temurning jangovar taktikasi va jasorati ularni o‘ziga qarshi qo‘shilishga majbur qildi. Samarqandni o‘z poytaxti sifatida tanlab, Temur bu hududda o‘zining hukmronligini mustahkamladi. Samarqand nafaqat harbiy markaz, balki ilm-fan va madaniyat markaziga aylanishi uchun ham asos yaratildi. Xorazm, Eron va Kavkazdagi Yurishlar: Amir Temur o‘zining Markaziy Osiyodagi muvaffaqiyatlarini kengaytirib, Xorazm va Eronni ham o‘z ta'siriga olishga muvaffaq bo‘ldi. Xorazmni zabt etishda Temur juda shafqatsiz bo‘ldi, chunki Xorazmshohlar Temurning kuchiga qarshi chiqishdi. 1388-yilda Xorazmni to‘liq zabt etib, Temur Xorazmshohlarni mag’lubiyatga uchratdi. Temur o‘zi zabt etgan hududlarda hukumatni markazlashtirib, uni

samarali boshqarish uchun qonunlar va nizomlar joriy etdi. Bu davlatni barqaror holatga keltirishga yordam berdi va Temurning siyosiy ko‘nikmalarini yana bir bor namoyon etdi. Eronning kuchli davlatlari bilan bo‘lgan janglar ham Amir Temur uchun muvaffaqiyatli bo‘ldi. 1393-yilda Temur Eronga yurish qilib, uning poytaxti Isfahonni zabt etdi. Eronning boshqa yirik shaharlarini ham bosib oldi va shu tariqa o‘z ta'sirini bu hududda yanada kengaytirdi.

Temur shuningdek, Kavkaziya hududida ham o‘z hukmronligini o‘rnatdi. U erkinlikka intilgan Kavkaziya xalqlarini yengib, ularni o‘z qo‘l ostiga olishga muvaffaq bo‘ldi. Bu hududlarda olib borgan janglar Temurning xalqaro miqyosda kuchli sarkarda sifatida tanilishiga sabab bo‘ldi. Hindiston va Delhi Yurishi: Amir Temurning eng mashhur va eng shov-shuvli yurishlaridan biri Hindistonga, aniqrog’i, Delhi shahriga qaratilgan yurishidir. 1398-yilda Temur Hindistonning poytaxti Delhi shahriga hujum qilganida, u bu yurishni faqat harbiy yengillik sifatida emas, balki siyosiy ta'sirini kengaytirish va Hindistonning kuchli davlatiga qarshi javob sifatida ko‘rdi. Temur o‘z qo‘shinlari bilan Delhi shahrini talon-taroj qilib, ko‘plab aholini asirga oldi. Bu yurish Hindistonda uzoq muddatli iz qoldirdi, chunki ularning siyosiy tizimini buzib, Temur o‘zining kuchini va ta'sirini bu hududda ko‘rsatdi. Biroq, Temur Hindistonda uzoq qolishni xohlamadi va tezda orqaga qaytishni afzal ko‘rdi, chunki uning asosiy maqsadi Hindistonda o‘z hukmronligini o‘rnatish emas, balki o‘z ta'sirini mustahkamlash edi. Hindistonning kuchli davlatlari va armiyasi Temurga qarshi turishga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsa-da, Temur tez va aniq harakatlar bilan ularni mag’lub etdi. Turkiya va Erondagi Yengishlar: Amir Temurning boshqa bir muhim muvaffaqiyati 1390-yillarda Turkiyada, ayniqsa, Turkmanistonda amalga oshirilgan yurishlaridir.

Temur Turkiya hududida o‘zining kuchini namoyish etib, shu bilan birga, Ko‘hna O‘rta Sharqdagi davlatlarga ham ta'sir o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldi. Shu davrda, Temurning ko‘plab yirik janglarida dushmanlarning harbiy kuchlarini sindirishda muvaffaqiyatga erishdi. Eron va uning atrofidagi hududlarda ham Temur o‘zining kuchli strategik yondashuvlarini qo‘llab-quvvatladi. Erondagi janglarda Temurning qo‘shinlari ko‘plab qo‘shni davlatlar bilan jang qilib, tezda erishilgan yirik yengilliklar va temuriy imperiyasining markaziy hududlarida qudratli hukmronlikni ta'minladi. Temurning Imperiyasi va Ijtimoiy-Ta’limiy Merosi: Amir Temur o‘zining harbiy yurishlari orqali qurilgan imperiya Markaziy Osiyo, Kavkaziya, O‘rta Sharq va Hindistonning katta qismlarini qamrab oldi. Bu imperiya o‘z davrining eng yirik va eng mustahkam davlatlaridan biri bo‘lib, uning hududiy yutuqlari va davlat boshqaruvining samaradorligi dunyo miqyosida mashhurlik keltirdi. Biroq, Temurning hukmronligi faqat harbiy yengilliklar bilan chegaralanmadi. U o‘zining madaniy va ilm-fanga bo‘lgan e'tibori bilan ham tanilgan. Uning markaziy poytaxti bo‘lgan Samarqand ilm-fan, astronomiya va san'atning rivojlanishiga turtki

bo‘ldi. Samarqandda ko‘plab ilmiy muassasalar, madrasalar va kutubxonalar tashkil etildi. Ulug’bek, Temurning nevarasi, bu ilmiy yutuqlarni rivojlantirgan va astronomiya sohasida o‘zining katta hissasini qo‘shgan. Shunday qilib, Amir Temur o‘zining harbiy yurishlari orqali juda katta imperiyani yaratdi va uni siyosiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan rivojlantirdi. Uning imperiyasi, nafaqat o‘zining hukmronligi davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim meros qoldirdi.

Temurning yengilliklari va imperiyasining tarixi bugungi kunda ham tarixshunoslar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda va uning harbiy mahorati, siyosiy ko‘nikmalari va madaniyatga qo‘shgan hissasi ta'riflanmoqda. Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki o‘zining madaniyatga bo‘lgan e’tibori bilan ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning davrida ilm-fan, san'at va me'morchilik sohalarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Temur davlatining asosiy markazi, ya’ni Samarqand, ilm-fan va madaniyatning markaziga aylangan bo‘lib, bu davrda ko‘plab ilmiy va madaniy yutuqlar yuzaga keldi. Samarqand – Ilm-Fan va Madaniyatning Markazi: Amir Temur Samarqandni o‘zining imperiyasining poytaxti sifatida tanlaganida, u shaharni nafaqat harbiy va siyosiy markaz, balki ilm-fan va madaniyatning markaziga aylantirishga harakat qildi. Samarqandda bir nechta yirik madrasalar, kutubxonalar, observatoriyalar va ilmiy markazlar qurildi. Temur o‘zi va avlodlari ilm-fanga katta e'tibor berib, ko‘plab olimlarni va san'atkorlarni o‘z saroyiga jamladi. Samarqandda faoliyat ko‘rsatgan olimlar orasida astronomiya, matematika, tibbiyot, adabiyot va san'at sohalarida ulkan yutuqlarga erishganlar bor edi.

Ulug’bek va Astronomiya: Amir Temurning nevarasi Ulug’bek Samarqandda dunyoga mashhur Ulug’bek observatoriyasini tashkil etdi. Ushbu observatoriya o‘z davrining eng ilg’or ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda yulduzlar va sayyoralar haqida ulkan tadqiqotlar amalga oshirildi. Ulug’bek astronomiysi va uning ilmiy ishlanmalari shu qadar yuqori baholangan ediki, ular butun Islom dunyosida tanilgan va uni hozirgi kunda ham ulkan yutuqlar sifatida eslab o‘tiladi. Ulug’bekning eng mashhur asarlarından biri bo‘lgan Zij asari, yulduzlarning joylashuvi va ularning harakatlarini aniq belgilab berdi va o‘z davrining ilmiy standartlaridan ancha yuqori edi. Adabiyot va Til Ilmlari: Amir Temur o‘z davrida adabiyot va til ilmiga ham katta e’tibor qaratdi. Temurning saroyida ko‘plab shoirlar va mutafakkirlar yashagan. Ulardan biri, o‘zining she’riyati va falsafiy qarashlari bilan mashhur bo‘lgan Alisher Navoiydir. Navoiy Amir Temur davrida katta mashhurlikka erishgan va uning siyosiy merosini davom ettirgan. Navoiyning Xamsa asari, o‘zining go‘zalligi va falsafiy chuqurligi bilan nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlarda ham o‘qilib kelgan. Temur o‘zining shaxsiy kutubxonasini yaratgan va bu kutubxona o‘z davrining eng yirik va boy kutubxonalaridan biri bo‘lgan. Shu tariqa, ilm-

fan va madaniyatni rivojlantirish uchun ko‘plab tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Samarqanddagi kutubxona va ilmiy markazlar ko‘plab olimlarni o‘ziga jalb qilgan va ular o‘z ilmiy ishlanmalari bilan jahonga mashhur bo‘lgan.

Me'morchilik va Qurilishlar: Amir Temur Samarqandni yirik madaniy markazga aylantirgan bo‘lsa, u o‘z davrida qurilgan inshootlar va me'morchilik yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Samarqandda u tomonidan qurilgan Registon maydoni va Shahi Zinda majmuasi butun dunyoda tanilgan me'morchilik yodgorliklaridir. Registon maydoni uning me’morchilik merosining eng ajoyib namunasi bo‘lib, undagi uchta madrasaning go‘zalligi va inshootlarning o‘ziga xos uslubi bugungi kunda ham zamonaviy arxitektura va san’at ixlosmandlari uchun o‘rganish ob’ektidir.

Gur-Emir maqbarasi, Amir Temurning o‘zi dafn etilgan joy, uning eng mashhur qurilishlaridan biri hisoblanadi. Bu maqbara o‘zining o‘ziga xos arxitekturasi va bezaklari bilan dunyo bo‘ylab tanilgan. Amir Temurning buyukligini va obro‘sini namoyish etadigan ushbu yodgorliklar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki madaniy va diniy nuqtai nazardan ham katta qiymatga ega. San'at va Madaniy Rivojlanish: Amir Temur o‘z davrida san’at va musiqa rivojiga ham katta e'tibor qaratgan. Samarqand va boshqa hududlarda san’atkorlar, musiqachilar va rassomlar uchun barcha sharoitlarni yaratdi. Ko‘plab san’atkorlar Temurning saroyida ishlashdi va ularning asarlari butun Islom dunyosida mashhur bo‘ldi. Bu davrda nafaqat arxitektura, balki tasviriy san’at, xattotlik va boshqa san’at turlari ham o‘sdi. Temurning hukmronligi ostida samarqandda yaratigan badiiy va madaniy meros, bugungi kunda jahonning turli burchaklarida qadrlanadi. Temurning Madaniyatga Qaratgan Yondashuvi: Amir Temur o‘z davrida o‘zining markazlashtirilgan boshqaruvini, harbiy yengilliklarini va iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish bilan birga, madaniyatga ham katta e'tibor qaratdi. U ilm-fan va san’atning rivojlanishiga turtki bo‘lib, bunday faoliyatni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘zining hukmronligini mustahkamladi va imperiyasining barqarorligini ta’minladi.

Temur o‘zining davlatni boshqarishdagi g’oyalari bilan nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham madaniy va ilmiy hayotga katta ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temurning madaniy merosi uning faqat harbiy yengilliklari bilan cheklanmaydi. Uning siyosiy mahorati, ilm-fanga va san’atga bo‘lgan sadoqati, Samarqandni ilmiy va madaniy markazga aylantirishdagi yutuqlari butun dunyo madaniyati va ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shdi. Temur o‘z davrining buyuk sarkardasi va davlat arbobi sifatida ham, shu bilan birga, ilm-fan, san’at va madaniyat homiysi sifatida ham tarixda abadiy iz qoldirdi. Amir Temur nafaqat o‘zining buyuk harbiy yengilliklari bilan tarixda qoldi, balki siyosiy, madaniy va ilmiy sohalarda ham keng ko‘lamli ta’sir o‘tkazdi. Uning hayoti va faoliyati butun dunyo tarixida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi, chunki u

nafaqat yirik harbiy strateg, balki davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham o‘zining inqilobiy yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Temurning davlatini tashkil etishdagi maqsadi shunchaki yirik hududlarni egallashdan iborat bo‘lmagan, balki o‘zining hukmronligi ostidagi xalqlarga siyosiy barqarorlikni, iqtisodiy farovonlikni va madaniy rivojlanishni ta’minlash edi. Temurning o‘zining markazlashgan hukumat tizimini o‘rnatishdagi g’oyalari o‘z davrida juda innovatsion edi. U o‘zining yurtini boshqarishning yangi usullarini ishlab chiqdi, ularning asosida davlatning eng yuqori organlari va boshqaruv tizimi mustahkamlandi. Temur davlatni boshqarishda har bir qadimgi an'anani hurmat qilgan holda, o‘zining ijtimoiy va siyosiy tizimlarini yaratgan. U yerlarni, manbalarni samarali boshqarishga va iqtisodiy rivojlanishga katta e'tibor qaratdi, natijada Temur imperiyasi o‘zining qudratini nafaqat janglarda, balki iqtisodiy farovonlikda ham namoyon etdi. Amir Temur o‘zining ilm-fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi bilan ham ajralib turadi. Uning poytaxti bo‘lgan Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylanishi, Temur imperiyasining kuchli madaniy merosi sifatida tarixda qoldi. Amir Temur ilm-fan va san’atni rivojlantirishga katta mablag’lar ajratdi. U o‘z davrida ilmiy markazlar va kutubxonalar tashkil qildi, olimlarga va san’atkorlarga o‘z g’oyalarini amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratdi.

Samarqandda Qur‘on va boshqa muhim ilmiy asarlar tarqatilishi va saqlanishi uchun kutubxonalar tashkil etildi. Shuningdek, Temur o‘zining saroyida va imperiyasida o‘ng’ay va tinch hayot uchun barcha zarur madaniy va ilmiy yondashuvlarni qabul qildi. Shu bilan birga, Temur o‘zining yirik astronomiyskiy va ilmiy yutuqlari bilan ham mashhur. Ulug’bekning Samarqandda tashkil etgan observatoriyasi nafaqat o‘z davrining, balki insoniyat tarixining eng ilg’or ilmiy markazlaridan biri bo‘ldi. Ulug’bekning astronomiya bo‘yicha yozgan Zij asari yulduzlar va sayyoralar haqidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirdi va ulkan ilmiy yutuq sifatida jahon ilm-faniga katta hissa qo‘shdi. Buning natijasida Samarqanddagi ilmiy meros jahon bo‘ylab o‘rganilib, bu ilmiy faoliyatni davom ettirish uchun ko‘plab olimlar va astronomlar Samarqandga kelishdi. Bu holat Amir Temurning ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan sadoqatini yana bir bor isbotlaydi. Me’morchilik sohasida ham Amir Temur o‘zining ulkan yutuqlarini ko‘rsatdi. Samarqand va boshqa hududlarda qurilgan inshootlar va yodgorliklar uning buyuk me’morlik tasavvurlarini aks ettiradi. Registon maydoni, Gur-Emir maqbarasi, Shahi Zinda majmuasi kabi me’moriy yodgorliklar dunyoning eng go‘zal va yuksak san’at asarlaridan hisoblanadi. Ushbu inshootlar nafaqat Amir Temurning siyosiy hokimiyatini tasvirlaydi, balki uning imperiyasining qudratini va madaniy boyligini ham namoyon etadi. Bu me’moriy yodgorliklar bugungi kunda ham butun dunyodan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi va uning tarixiy va madaniy ahamiyatini ta’kidlaydi. Temurning san’at va madaniyatga

bo‘lgan yondashuvi o‘zining falsafiy qarashlarida, asosan adolat va insonparvarlik g’oyalarida o‘z aksini topdi. Temur o‘z hukmronligini kengaytirishda va mustahkamlashda o‘z xalqlariga va qo‘shinlariga adolatli boshqaruvni ta’minlashga intildi. Temurning Tuzuklari yoki qonunlari o‘zining adolatli va qat’iy qoidalari bilan o‘z davrida ko‘plab odamlar tomonidan qadrlangan. Uning hukumatda ko‘rsatgan insofli yondashuvlari va xalqni hurmat qilgan qarorlari, hukmronlik davrida jamiyatdagi muvozanatni saqlashga yordam berdi. Bu yondashuvlar, o‘z navbatida, Temur hukmronligini tarixda barqaror va adolatli davlat sifatida xotirlashga olib keldi. Temurning madaniy merosi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlarda ham davom etdi. U ilm-fan, san’at, me’morchilik va siyosatni o‘zida mujassam etgan buyuk davlat arbobi sifatida tarixda qoladi. Uning merosi nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo va dunyoning boshqa burchaklarida ham qadrlanadi. Samarqanddagi ilmiy markazlar, me’moriy yodgorliklar va madaniy obidalar, Amir Temurning buyukligiga guvohlik beradi.

Temurning siyosiy va madaniy faoliyati bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarning markaziga aylangan. Uning nomi tarixda buyuk sarkarda va donishmand davlat arbobi sifatida abadiy qoladi. Shunday qilib, Amir Temur faqat harbiy yengilliklar va siyosiy muvaffaqiyatlar bilan emas, balki ilm-fan, madaniyat va me’morchilikka qo‘shgan hissasi bilan ham tarixda o‘zining o‘chmas izini qoldirdi. U barcha faoliyatlarida, har bir sohada o‘zining buyukligini va xalqining farovonligini ta’minlashga intildi, natijada nafaqat o‘z davrida, balki kelajakda ham o‘zining abadiy merosini qoldirdi.

Amir Temur tarix sahnasiga nafaqat buyuk sarkarda, balki aqlli davlat arbobi, g’alaba qozongan general va kuchli hukmdor sifatida chiqdi. Amir Temur o‘zining hukmronligi davrida yagona maqsadga — o‘zining imperiyasining kengayishi va kuchli markazlashgan davlat qurilishiga erishishga intildi. Uning siyosiy ko‘nikmalari imperiyaning barqarorligini ta’minlashda, iqtisodiy rivojlanishni oshirishda va hukumatni samarali boshqarishda muhim rol o‘ynadi. Samarqandni poytaxt sifatida tanlashi nafaqat harbiy strategiya, balki ilm-fan, san’at va madaniyat markazini yaratishdagi qaror bo‘ldi. Amir Temur, o‘zining birinchi o‘rinda harbiy yengilliklari bilan tanilgan bo‘lsa-da, aslida madaniy, ilmiy va falsafiy sohalarga bo‘lgan katta hissa qo‘shgan arbob edi. Amir Temur o‘zining hayoti va faoliyatida har tomonlama buyuk shaxs sifatida ajralib turadi. Uning hukmronligi faqat davlatlararo muvozanatni saqlashga qaratilgan bo‘lmagan, balki zamonaviy ilm-fan, madaniyat va arxitektura rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan. Bugungi kunda, Amir Temurning merosi nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahon tarixida o‘rganilmoqda, uning tasiri ko‘plab sohalarda davom etmoqda. Uning nomi dunyo miqyosida yuksak hurmatga sazovor, va bu hurmat uning hayotini va ishlarini yoritishda davom etadi.

V-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARNI JAHONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY HAMDA GEOSIYOSIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING JAHON IJTIMOIY-IQTISODIY VA GEOSIYOSIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI

Xolmatova Gavharshodbegim Muhammadi qizi,
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti assistenti

Temuriylarning tashqi siyosati va diplomatiyasi xalqaro munosabatlar tarixida alohida o'rin tutadi. Amir Temur 1370-yilda Temuriylar saltanatiga asos solgan Markaziy Osiyoning taniqli hukmdori edi. Amir Temur o'z hukmronligi davrida nafaqat harbiy kuchga tayanib, balki diplomatiya orqali ham o'z davlatining qudratini mustahkamladi. U turli davlatlar bilan elchilar almashdi, savdo yo'llarini himoya qilish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Xususan, Xitoy, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi va Yevropa davlatlari bilan olib borilgan diplomatik aloqalar Temuriylar davlatining xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamladi. Bu davrda Temuriylar imperiyasi Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini o'z ichiga olgan ulkan davlat sifatida shakllangan.

Temuriylar davridagi diplomatik munosabatlar savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Buyuk ipak yo'lining himoyasi va rivoji Amir Temur siyosatining muhim jihatlaridan biri bo'lib, bu Yevropa va Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi. Temuriylar davrida Samarqand va Buxoro kabi shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylandi.

Amir Temur diplomatiyasi quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- U turli davlatlar, jumladan, Usmoniylar imperiyasi, Misrning Mamluklari va Xitoydagi Min sulolasi bilan ittifoq tuzdi;
- Uning siyosati savdo yo'llarini, xususan, Buyuk Ipak yo'lini muhofaza qilish va kengaytirishni ta'minlab, iqtisodiy farovonlikka yordam berdi;
- Yevropa hukmdorlari, jumladan, Fransiya qiroli va Rim papasi bilan diplomatik yozishmalarni davom ettirib, o'zining global targ'ibotini namoyish qildi.

Amir Temur va temuriylarning diplomatik aloqalari chuqur ijtimoiy-iqtisodiy samaralar berib, Sharq va G'arb o'rtasida madaniy almashinuvni, xususan, bilim, texnologiya va badiiy an'analar almashinuvini osonlashtirdi. Bundan tashqari, Buyuk Ipak yo'li Amir Temur davrida gullab-yashnadi va Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdoni kuchaytirdi. Shu bilan bir qatorda, Samarqand va Hirot kabi shaharlar madaniy va iqtisodiy markazlarga

aylantirilib, olimlar, hunarmandlar va savdogarlarni jalb qildi. Bu esa, o‘z navbatida, ichki turizmga ham ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Shuningdek, Amir Temur boshqaruvi modeli o‘z qo‘l ostidagi hududlardagi ma’muriy tuzilmalarga ta’sir ko‘rsatib, barqarorlik va iqtisodiy o‘sishga yordam berdi.

Amir Temurning xalqaro munosabatlar va aloqalarni rivojlantirishdagi yana bir buyuk xizmati – elchilarni tanlash masalasiga juda katta e’tibor berganligidir. U eng murakkab diplomatik vaziyatlarda turli din va mazhablarga mansub bo‘lgan mashhur avliyo va shayxlarni elchi qilib tayinlar hamda muhim elchilik missiyalarini uyushtirishda o‘z davrining mafkuraviy ruhiyatini hisobga olardi. Amir Temur Yevropa mamlakatlariga Muhammad Keshiy bilan bir qatorda, Vizantiya arxiyepiskopi Ioann III ni elchi qilib jo‘natdi. Elchilikka tayinlanadigan kishilar bilimli, turli xorijiy tillarni yaxshi biladigan, ziyrak, dunyoviy ilmlarni yaxshi egallagan, har qanday murakkab vaziyatlarda to‘g’ri tadbirlarni qo‘llay oladigan oqil va dono kishilar orasidan tanlab olinib, ular maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazilgan. Amir Temur tajribali elchilar zaxirasini tuzishga muvaffaq bo‘lgan. Amir Temur davrida diplomatik protokol va etiket ishlab chiqilgan va ularga qat’iy rioya qilingan. U “elchiga o‘lim yo‘q” tamoiliga qat’iy rioya etgan holda tashqi siyosat yuritgan.

Amir Temur diplomatiyasi uning vorislari tominidan ham faol amalga oshiriladi. Ayniqsa, Shohruh Mirzo taniqli diplomat bo‘lib, Hindiston, Xitoy, Misr kabi davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yuqori darajaga olib chiqishga muvaffaq bo‘lgan edi. Boshqa bir temuriyzoda Sulton Husayn Boyqaro davrida faoliyat ko‘rsatgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nafaqat ulug’ adib, balki iste’dodli davlat arbobi va mohir diplomat ham bo‘lgan. She’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nafis qalami, o‘lmas betakror asarlari orqali yuzlab shoh va shahzodalarning qalbini zabt etgan. U deyarli qirq yil davomida Xurosonning gullab-yashnashi, temuriylar davri madaniyatining turli sohalaridagi muhim kashfiyotlarning tashabbuskori bo‘lgan edi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Amir Temurning harbiy yurishlari va diplomatik siyosati Yevropa va Osiyo davlatlari o‘rtasidagi kuch muvozanatini o‘zgartirdi. Uning Usmoniylar imperiyasi, Mamluklar davlati va Oltin O‘rda bilan olib borgan siyosati bu hududlardagi geosiyosiy vaziyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1402-yilda Usmoniylar sultoni Boyazid I ustidan qozonilgan g’alaba Yevropa tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Yevropaning ko‘plab davlatlari qatori Fransiya ham sohibqiron Amir Temurni o‘z xaloskori sifatida e’tirof etadi. Chunki Amir Temurning Usmoniylar imperiyasi ustidan qozongan g’alabasi Yevropani usmoniylar mustamlakasidan qutqarib qoldi. Amir Temur Yildirim Boyazidni mag’lub etganidan so‘ng, aynan fransuzlar Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirib, ostiga “Yevropa xaloskoriga” deb yozdiradilar. Shu sababli ham Yevropada Amir Temurni ramziy ma’noda Napoleonning ustozi, deya ta’riflashadi. Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI

ga yuborgan maktubi 1996-yilda O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning Fransiyaga rasmiy tashrifi chog’ida Fransiya Prezidenti Jak Shirak tomonidan tuxfa etilgan. Hozirgi kunda ushbu maktub Toshkent shahridagi Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanmoqda.

Afsuski, butun dunyoni larzaga solgan Amir Temurning 1370-yilda asos solgan yirik saltanati uning vafotidan so‘ng sekin asta yemirila boshladi. Bunga asosiy sabablardan biri Temuriylar imperiyasining katta ekanligi va unga voris tayinlanmaganligi bo‘lgan. Oqibatda esa Amir Temurning farzand va nabiralari o‘rtasida taxt uchun kurash avj olib, keyinchalik ushbu buyuk imperiya tanazzulga yuz tutgan. Temuriylar sulolasi 1507-yilda Shayboniylar tomonidan tugatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davridagi diplomatik munosabatlar jahonning ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Faol diplomatik aloqalar, xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishi va harbiy yurishlar natijasida dunyo tarixida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Amir Temurning diplomatik merosi temuriylar tomonidan davom ettirilgan bo‘lib, xususan, Shohruh, Mirzo Ulug’bek, Husayn Boyqaro kabi zabardast temuriy hukmdorlar xorijiy davlatlar bilan munosabatlarda ijobiy natijalarni qo‘lga kiritganlar. Bu davrning ta’siri hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida ham sezilarli darajada aks etmoqda.

AMIR TEMUR HUZURIGA KELGAN ELCHILAR VA ELCHILIK ALOQALARINING SIYOSIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Xikmatova O‘g’iloy,
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Amir Temur o‘z davrining eng qudratli sarkardasi bo‘lishi bilan birga, nozik diplomatik siyosat yurita olgan donishmand davlat arbobi sifatida ham ajralib turadi. Uning tashqi siyosatining ajralmas bo‘lagi sifatida diplomatik va elchilik aloqalari strategik ahamiyat kasb etgan. A.Temur imperiyasining elchilik faoliyati, bir tomondan, uning harbiy g’alabalarini mustahkamlash vositasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy va madaniy aloqalarni chuqurlashtirish imkonini yaratdi. Amir Temur diplomatik siyosatining asosiy maqsadlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Amir Temur tashqi siyosatida faqat urush va harbiy yurishlar emas, balki diplomatik muloqotlar orqali ham o‘z imperiyasi nufuzini mustahkamlashga intilgan. Elchilik munosabatlari orqali Amir Temur jahon siyosatida o‘z o‘rnini ko‘rsatishga harakat qilgan. Yevropa, Osiyoning turli mamlakatlariga elchilarning yuborilishi yoki qabul qilinishi orqali davlatlararo ishonch, madaniy yaqinlik va iqtisodiy manfaatlar ilgari surilgan. Manbalarga ko‘ra, Temur podshohlik lavozimiga kirishganidan so‘ng, nafaqat qo‘shni davlatlar, balki uzoq Yevropa va Osiyo mamlakatlariga ham

elchilar yuborishni boshlagan. Samarqand – Temur imperiyasining siyosiy markazi – tez orada xalqaro diplomatiya markaziga aylangan[257].

Kastiliya bilan elchilik munosabatlari: Bugungi kungi Ispaniya hududlarida o‘sha davrda Kastiliya qirolligi mavjud bo‘lib, Usmoniylar davlatiga qarshi Amir Temurning yurishlari tabiiyki, Usmonli turklardan jabr chekayotgan Yevropa mamlakatlari singari Kastiliya uchun ham ustuvor edi. Kastiliya qiroli Genrix III Hernan Sanches boshchiligida elchilik missiyasini yubordi**.** 1402-yilda Genrix III tomonidan jo‘natilgan Hernan Sanches de Palasuelas boshchiligidagi elchilar delegatsiyasi Amir Temur huzuriga keladi. Elchilarning Anqara qal’asidagi voqealar, Boyazidning taslim bo‘lishi va Temurning mehmondo‘stligi haqidagi taassurotlari Temur shaxsiga bo‘lgan yuksak hurmat ifodasi sifatida tarixda qayd etilgan. Bu haqida o‘zbek adibi To‘lqin Hayit o‘zining “Amir Temur haqida hikoyalar” risolasida juda qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan[258]. Ispan elchisi Hernanning Temurdan shamshir, hatto o‘z ismini Temurnikiga qo‘shib olishni so‘rashi ham elchilik munosabatlarining samimiyligidan dalolat beradi. Temurning bu kabi iltifotli munosabati elchilarni hayratga solgan va Yevropa hukmdorlari uchun O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi, ayniqsa, Temur saltanati, katta qiziqish uyg’otganligini bilishimiz mumkin. Bu bo‘yicha Kastiliyaning ikkinchi elchisi Rui Gonsales de Klavixo elchiligini ham keltirishimiz mumkin. Rui Gonsales de Klavixo 1403-yilda yo‘lga chiqib, 1404-yil Samarqandga yetib kelgan. Uning “Samarqandga sayohat kundaligi” asari – Temur saroyining kundalik hayoti, marosimlari, mehmondo‘stligi va diplomatik muhitini o‘rganish uchun bebaho manba hisoblanadi. Klavixoning yozishicha, Temur elchilarni katta hurmat bilan kutib olgan, sovg’alar bilan siylagan va ular ishtirokida ko‘plab bayram tadbirlarini o‘tkazgan. Bu asar Yevropa uchun Sharq sivilizatsiyasining yuksak darajasini, ayniqsa, Temur davlatining markazlashgan boshqaruvi, iqtisodiy salohiyati va madaniy rivojini namoyon qilgan[259].

Amir Temurning Sharq mamlakatlari bilan olib borgan elchilik aloqalari ham muhimdir. Bu jihatdan A.Temur Xitoy mamlakati bilan olib borilgan elchilik almashinuviga jiddiy e’tibor qaratgan. Chunki Amir Temur diplomatiyasi faqat Yevropa bilan chegaralanib qolmagan. U Osiyodagi eng kuchli davlatlardan biri bo‘lgan Min sulolasi bilan ham faol elchilik aloqalari olib borgan. Pekinga yuborilgan elchilar – Mavlono Hofiziy, Toj ad-Din, Nig’mat ad-Din, Alomat ad-Din orqali ot, tuya, savdo mollari yuborilgan va evaziga ipak, kumush va boshqa qimmatbaho mahsulotlar olingan. Xitoyga yuborilgan elchilar safarida savdogarlar ham qatnashgan bo‘lib, bu holat

[257] Mannonov B., Ostonova G., Sh.Kamoliddin. Amir Temurning turkiy yorlig‘i. – Toshkent: O‘zFAAK, 2005. 50 bet
[258] To‘lqin Hayit. Amir Temur haqida hikoyalar. Toshkent: O‘zbekiston, 2005. 48 bet
[259] Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Toshkent: Ma’naviyat, 1999. 224 bet

iqtisodiy diplomatiyaning faol yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi[260]. Ayrim savdogarlar Xitoyda qolib, oila qurib, mahalliy jamiyatga singib ketgani bu aloqalarning samimiyligini ko‘rsatadi. A.Temur savdogarlarning Xitoy bilan olib borgan savdo aloqalariga alohida e’tibor bergan holda, ularni pul, kerakli tovarlar, ot-ulov kabi eng kerakli masalalarda qo‘llab turdi. Albatta bu yerda mavjud siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, siyosiy maqsadlar ham ko‘zlangan.

Temur davridagi elchilik munosabatlari, bir tomondan, madaniy almashinuvga, boshqa tomondan esa savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishiga sabab bo‘lgan. Yevropa elchilarining Temur saroyida ko‘rganlaridan hayratda qolganlari va bu haqda muhrlangan asarlar yozgani – O‘rta Osiyoning o‘sha davrda taraqqiy etganligini ko‘rsatadi[261]. Shuningdek, bu diplomatik faoliyat davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashda, harbiy to‘qnashuvlarning oldini olishda muhim omil bo‘lgan. Ayniqsa, Xitoy bilan olib borilgan muloqotlar tufayli Temur imperiyasi Sharqiy Osiyo bilan bevosita bog’langan ilk markaziy davlatlardan biriga aylangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur diplomatiyasi davrida elchilik aloqalari nafaqat siyosiy vosita, balki madaniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishi sifatida xizmat qilgan. U elchilik siyosatini o‘zining geosiyosiy strategiyasining ajralmas qismi sifatida olib borgan. Temur orqali O‘rta Osiyo jahon siyosiy maydoniga chiqdi, elchilik munosabatlari esa xalqlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajardi. Bugungi globallashuv davrida ham Temur diplomatiyasining saboqlari dolzarb bo‘lib qolmoqda — o‘zaro hurmat, madaniy almashinuv, tinchlik va taraqqiyot asosida qurilgan elchilik aloqalari bugungi xalqaro munosabatlar uchun ham namuna bo‘la oladi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TARIXI

Karimova Iroda Abdusattarovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti dotsenti v.b.
Qobilov Javohir Qobil o‘g’li,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti talabasi

Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo, O'rta Sharq, Hindiston va boshqa mintaqalarda ulkan geosiyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelgan muhim davrdir. Amir Temur o'zining strategik va diplomatik mahorati bilan ko'plab yirik davlatlar bilan aloqalar o'rnatdi va ularni bir-biriga bog'lab, o'z imperiyasining ta'sirini kengaytirdi. Temuriylar, o'z navbatida, nafaqat harbiy yutuqlar, balki diplomatiya, savdo va madaniy almashuvlar orqali ham jahon

[260] Rui Gonsales de Klavixo. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2007. 208 bet
[261] Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. 588 bet

tarixida o'zining izini qoldirdi. Ularning diplomatik aloqalari, dunyo bo'ylab yangi iqtisodiy tarmoqlarni yaratish va madaniy almashuvlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Amir Temur, o'z davrida Markaziy Osiyo, O'rta Sharq, va Hindistonni o'z ichiga olgan katta va kuchli imperiya tuzgan. Temuriylar davrining diplomatik aloqalari, uning hududiy kengayishi va geosiyosiy muvozanatni ta'minlashdagi muvaffaqiyatlari orqali butun dunyoda keng qamrovli ta'sir ko'rsatgan. Temuriylar va Turkiy, Eron, va Hindiston Munosabatlari. Amir Temur turli davlatlar bilan diplomatik aloqalarni shakllantirishda o'zining siyosiy va harbiy yutuqlaridan faol foydalangan. Bu diplomatik aloqalar nafaqat siyosiy barqarorlikni, balki iqtisodiy va madaniy aloqalarni ham mustahkamlashga yordam berdi.

Temurning Hindiston bilan bo'lgan diplomatik munosabatlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Hindistondagi musulmon hukmdorlari, xususan, Delhi sultoni Mahmud Tughluk va Zafarshoh (Tughluklar sulolasi) bilan aloqalar, Temuriylar davlatining geografik va siyosiy ustunligini mustahkamlashga xizmat qildi. 1398-yilda Temur Hindistonga bostirib kirib, Delhi sultonligini mag'lub etdi. Biroq, uning harbiy g'alabalaridan keyin diplomatik aloqalar davom etdi, bu Hindistonda savdo, madaniyat va ilm-fan almashishiga olib keldi. Temur Hindistonning musulmon hukmdorlari bilan birgalikda boshqa mintaqalarda, xususan, O'rta Sharq va Markaziy Osiyoda o'zaro yordam va savdoni rivojlantirdi.

Temurning Eron bilan aloqalari juda murakkab edi. 1387-yilda Temur Eronning isyonchi hukmdori Shahrukhni mag'lub etdi va Eronda o'z ta'sirini o'rnatdi. Bu muvaffaqiyat Temurga Eronning barcha hududlarini nazorat qilish imkonini berdi va Temuriylar davlatining iqtisodiy va siyosiy kuchini mustahkamladi. Diplomatik aloqalar orqali Eronning madaniy va ilmiy merosi Samarqandda rivojlandi, bu esa Temuriylar davrining ilm-fan va san'at markazlarini yaratdi. Eron, shu bilan birga, Temurning boshqa diplomatik aloqalarini rivojlantirishga yordam berdi, masalan, uning Hindiston va Xitoy bilan aloqalarida.

Temur, o'zining kuchli strategik tafakkuri bilan, geosiyosiy muvozanatni saqlab qolish va keng miqyosdagi diplomatik aloqalarni o'rnatish uchun turli davlatlar bilan o'zaro siyosiy va harbiy ittifoqlar tuzdi.

Temurning Xitoy bilan aloqalari savdo va madaniy almashuvni rivojlantirishga qaratilgan edi. 1390-yilda Temur Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatish uchun o'z vakillarini yuborgan. Xitoydan olib kelgan mahsulotlar va texnologiyalar Samarqandda ishlab chiqarishning rivojlanishiga yordam berdi. Temur Xitoy bilan savdo aloqalarini kengaytirib, ipak va boshqa qimmatbaho tovarlarning Markaziy Osiyo orqali Yevropaga olib borilishida muhim o'rin tutdi.

Temur va Osmanli imperiyasi o'rtasidagi aloqalar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Temur, 1402-yilda, Anqarada Yildirim Bayazidga qarshi g'alaba qozonib, Osmanli imperiyasining kuchli ta'sirini pasaytirdi. Biroq, bu g'alaba Temurga Osmanli imperiyasiga qarshi doimiy yengilishni emas, balki diplomatik yo'l bilan hamkorlikni davom ettirish imkonini berdi. Anqara jangidan keyin Temur va Sultan Bayazidning o'rtasida shartnomalar imzolandi va bu ikki davlat o'rtasida savdo va diplomatik aloqalar mustahkamlandi.

Temur va uning vorislari o'z diplomatik strategiyalarini harbiy va siyosiy kuch bilan birgalikda amalga oshirdilar. Temur faqatgina Markaziy Osiyo va O'rta Sharqda emas, balki dunyoning boshqa mintaqalarida ham ta'sirini kuchaytirish uchun doimiy diplomatik aloqalar o'rnatgan.

Xorazmda, Amir Temur, 1385-yilda Xorazmshoh Sayfaddin Muhammadni mag'lub etib, butun hududni o'z nazoratiga oldi. Xorazmdagi diplomatik aloqalar orqali Temur, O'rta Osiyo va Eron o'rtasidagi savdo yo'llarini yaxshiladi.

Temurning Kichik Osiyo, ya'ni Turkiya va Armaniston bilan aloqalari ham o'zining harbiy va diplomatik ustunligi orqali mustahkamlandi. Temur, bu hududlarda ham o'zining siyosiy ta'sirini kuchaytirgan va o'z diplomatik maslahatlari orqali yirik ittifoqlarni tuzgan.

Amir Temur va Temuriylar davridagi diplomatik aloqalar, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni tezlashtirgan va rivojlantirgan. Diplomatiya, birinchi navbatda, savdo va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, madaniy almashuvlarni qo'llab-quvvatlash, va ilm-fan sohasida yangi imkoniyatlar yaratish orqali o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Temuriylar davri iqtisodiy aloqalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan omil — bu diplomatik aloqalar orqali o'rnatilgan savdo yo'llari va yangi iqtisodiy tarmoqlardir. Temuriylar, xususan, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Turkiya va Xitoy bilan savdo aloqalarini kengaytirish orqali iqtisodiy rivojlanishning yangi shakllarini yaratdilar.

Amir Temur, o'zining geosiyosiy va diplomatik kuchini ishlatib, Ipak yo'lini qayta jonlantirishga muvaffaq bo'ldi. Bu savdo yo'li orqali Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo o'rtasida tovarlar, resurslar va madaniyat almashishiga imkon yaratdi. Samarqand, Buxoro, va boshqa shaharlarda savdo markazlari qurildi va ular butun dunyodan kelgan tovarlar almashinuvi uchun muhim punktlarga aylandi. Samarqandda qurilgan savdo markazlari va bozorlarda turli xalqlarning tovarlari — masalan, ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, mis va oltin — sotildi. Bu savdo markazlari, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishning kuchli omili bo'ldi.

Temuriylar davrida, asosan, ipak, qalay, mis, va boshqa qimmatbaho metallar bilan savdo qilindi. Temur, shuningdek, Xitoydan o'z hududiga yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarini olib keldi. Xitoydan yangi irqlar, masalan,

paxta va silos uchun maxsus uskunalar kiritildi. Bu savdo va texnologiya almashuvlari, nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki qishloq xo'jaligini ham rivojlantirdi. Hindiston bilan savdo aloqalari o'z o'rnida, paxta va ziravorlar, Xitoy bilan esa ipak va qog'oz savdosi rivojlanishiga imkon yaratdi.

Temuriylar davri, shuningdek, yangi sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga zamin yaratdi. Xususan, Temur Samarqand va Buxoroda tekstil sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor berdi. Bu hududlarda ipak, matolar va boshqa materiallar ishlab chiqarishga qaratilgan ko'plab ishlab chiqarish markazlari tashkil etildi. Temur va uning vorislari shuningdek, metallurgiya sohasida ham yirik yutuqlarga erishdilar. Samarqandda shuningdek, rangli shisha va ziravorlarni ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratildi, bu esa savdo va iqtisodiy faoliyatni yana ham kengaytirdi.

Ijtimoiy Rivojlanish va Madaniy Almashuv. Temuriylar davrida ijtimoiy rivojlanish va madaniy almashuvlar o'zining piksiga chiqdi. Diplomatik aloqalar, ilm-fan va san'at sohalaridagi yangiliklar va o'zgarishlarni tezlashtirdi. Bu davrda madaniyatning va ilm-fanning rivojlanishi nafaqat Markaziy Osiyoda, balki boshqa mintaqalarda ham yangi yutuqlarni olib keldi.

Amir Temur Samarqandni ilm-fan va madaniyatning markaziga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. U ilmiy va madaniy markazlar, masalan, astronomiya, matematika va tibbiyot kabi sohalarda ilmiy markazlar tashkil etdi. Samarqanddagi madaniy inshootlar, xususan, Registon maydoni, Shah-i-Zinda va Bibi-Xonim masjidi, Temuriylar davrining ilmiy va madaniy rivojlanishini aks ettiradi. Bu yirik madaniy loyihalar, nafaqat Markaziy Osiyo, balki boshqa mamlakatlardan olimlar va san'atkorlar uchun ilhom manbai bo'ldi.

Temuriylar davrida ilm-fan va san'atning rivojlanishi ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Temur, Samarqand va Buxorodagi madaniy markazlarda oliy ta'lim muassasalarini tashkil etdi. Bu yerda Arabiston, Eron, Hindiston va Xitoydan olimlar va san'atkorlar kelib, ilmiy almashuvlar va ijodiy jarayonlarga hissa qo'shdilar. Temuriylar davrida astronomiya, matematika, tibbiyot va falsafa sohalarida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borildi. Samarqandda shuningdek, Ibn Sinoning (Avicenna) asarlari o'rganildi va rivojlantirildi.

Diplomatik aloqalar orqali boshqa mamlakatlardan kelgan san'atkorlar va hunarmandlar Samarqand va Buxoroga olib kelindi. Temur, bu san'atkorlar yordamida madaniy almashuvlarni kuchaytirdi. Masalan, Xitoydan va Eronning Ispaniyaning eng yaxshi hunarmandlarini olib kelgan. Samarqand va Buxoroda yangi arxitektura uslublari, musiqiy va badiiy san'at shakllari paydo bo'ldi. Temuriylar davrining eng mashhur san'ati, ulkan va murakkab me'moriy inshootlar, madaniy meros bo'lib qolgan.

Ijtimoiy Taraqqiyot va Xalqaro Hamkorlik. Temuriylar davrida, diplomatik aloqalar yordamida xalqaro hamkorliklar rivojlandi. Misol uchun, Temur va uning vorislari Samarqand va boshqa shaharlarda xalqaro tadbirlar, ilmiy

konferensiyalar, va san'at ko'rgazmalarini o'tkazgan. Bu tadbirlar orqali butun dunyo olimlari va san'atkorlari birlashdi va o'z bilimlarini almashdi.

Amir Temur va Temuriylar davrida diplomatik munosabatlar faqatgina Markaziy Osiyo hududida emas, balki butun dunyo miqyosida katta geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga olib keldi. Temuriylar, o'zining siyosiy ustunligi va harbiy muvaffaqiyatlari orqali Markaziy Osiyoni dunyoning eng muhim savdo va madaniyat markazlaridan biriga aylantirdi. Diplomatik aloqalar orqali tashkil etilgan ittifoqlar va qarama-qarshiliklar global geosiyosiy ta'sirlarni shakllantirdi, bu esa Temuriylar davrining o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimini yaratdi.

Temuriylar va Global Ta'sir: Temuriylar davri diplomatik aloqalarining eng muhim natijalaridan biri, Markaziy Osiyo va O'rta Sharqdagi siyosiy xaritani qayta shakllantirishidir. Temur o'zining harbiy g'alabalari bilan nafaqat Markaziy Osiyoda, balki O'rta Sharqda va Hindistonda ham o'z ta'sirini kuchaytirdi. Diplomatik munosabatlar va harbiy kuchlar yordamida yangi ittifoqlar va qarama-qarshiliklar yuzaga keldi, bu esa Markaziy Osiyo hududini global miqyosda muhim siyosiy markazga aylantirdi.

Temur o'zining harbiy va diplomatik faoliyati orqali Markaziy Osiyoni dunyoning siyosiy markazlaridan biriga aylantirdi. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda ilg'or ilmiy va madaniy markazlar shakllandi, bu esa Markaziy Osiyoning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini oshirdi. Temuriylar davrida, bu hududlar faqatgina savdo va iqtisodiy markazlar emas, balki madaniy va ilmiy markazlar sifatida ham butun dunyoga tanildi.

Temur va uning vorislari, diplomatik aloqalar orqali O'rta Osiyo va uning atrofidagi hududlarda o'zlarining harbiy ustunliklarini mustahkamladi. Temuriylar davrida, Markaziy Osiyo nafaqat harbiy kuch bilan, balki diplomatik aloqalar orqali ham o'z ta'sirini kuchaytirdi. Temur o'zining raqiblariga qarshi kurashishda, diplomatiya va ittifoqlarni muvaffaqiyatli qo'llagan. Bu yondashuv, global geosiyosiy muvozanatni shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Diplomatik Munosabatlar va Jahon Savdosi: Temuriylar diplomatiyasining yana bir muhim ta'siri — bu savdo aloqalarining rivojlanishida ko'rinadi. Temuriylar, O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarini qayta tiklab, bu hududlarni dunyoning iqtisodiy tarmog'iga integratsiya qilishga erishdilar. Savdo aloqalarining rivojlanishi, o'z navbatida, madaniy va ilmiy almashuvlarni rag'batlantirdi.

Temuriylar davrida Ipak yo'li va boshqa savdo yo'llari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'llar orqali Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy va Yevropa o'rtasida tovarlar almashinuvi amalga oshirildi. Temuriylar, Samarqandni va Buxoroni savdo va madaniyat markazlariga aylantirishda muvaffaqiyat qozondilar. Savdo yo'llari, o'z navbatida, nafaqat iqtisodiy faollikni, balki ilm-fan va san'at sohalaridagi almashuvlarni ham kuchaytirdi.

Temuriylar davrida, savdo yo'llari orqali turli mamlakatlar va xalqlarning madaniyatlari, ilm-fan va san'ati o'zaro almashdi. Hindiston, Xitoy, Eron va boshqa mamlakatlardan kelgan bilimlar, Temuriylar davlatida o'zining rivojlanishini davom ettirdi. Samarqandda, ilm-fan va san'atning yuksalishi, bu davrda dunyo bo'ylab ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamladi.

Temuriylar davrida dunyo miqyosidagi savdo va iqtisodiy tarmoqlar yangi shakllarini oldi. O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalari, Yevropa va Xitoy bilan yangi tarmoqlarni rivojlantirishga olib keldi. Bu savdo tarmoqlari nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, texnologiya va madaniyat almashuvini ham o'z ichiga oldi. Temur va uning vorislari bu aloqalarni doimiy ravishda rivojlantirib, global iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga yordam berdi.

Temuriylar davri diplomatik aloqalari nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo miqyosida ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda, dunyo bo'ylab yangi siyosiy ittifoqlar va iqtisodiy tarmoqlar shakllandi, va Temuriylar o'zining diplomatik faoliyati bilan jahondagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga katta hissa qo'shdilar. Ularning diplomatik yondashuvlari, harbiy g'alabalariga qo'shimcha ravishda, dunyo bo'ylab savdo, madaniyat va ilm-fan sohalaridagi global aloqalarni kuchaytirdi.

Amir Temur va Temuriylar davridagi diplomatik munosabatlar, o'zining strategik va iqtisodiy jihatlari bilan jahon tarixida katta ahamiyatga ega. Diplomatik aloqalar orqali Temuriylar, Markaziy Osiyo va O'rta Sharqdagi ta'sirini kuchaytirib, Ipak yo'li va boshqa savdo yo'llarini jonlantirishga muvaffaq bo'ldilar. Shuningdek, bu davrda madaniyat, ilm-fan va san'at sohalaridagi o'zgarishlar ham tezlashtirildi. Temur, o'zining kuchli diplomatik yondashuvlari bilan dunyo miqyosida siyosiy va iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirgan va global geosiyosiy muvozanatni shakllantirgan. Shu tarzda, Temuriylar davri nafaqat o'z vaqtida, balki keyingi asrlarda ham jahonda davom etadigan madaniy va iqtisodiy aloqalarning poydevorini yaratdi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA ELCHILIK ALOQALARI TARIXI

Xo'jageldiyev Ibodulla,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instuti o'qituvchisi

Manbalarda Amir Temur va Temuriylar sulolasi vakillarining xorijiy davlatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularda Sharq va G'arb mamlakatlari bilan hamkorlik jarayonlarida Sohibqironning mohirona siyosati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dunyo tarixida ulkan iz qodirgan har bir davlat borki, ular ushbu davrda mavjud bo'lgan mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini amalga oshirgan. Amir Temur va Temuriylar davlatining ham turli mamlakatlar bilan elchilik aloqalar

olib borganligi ularning nufuzini belgilash bilan bir qatorda, davlatning savdo aloqalarni ham rivojlanishiga katta yo‘l ochib berdi.

Qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini olib borishda Amir Temurning shaxsiy jasorati va nozik diplomatiyasining namoyish etishi, uni asta-sekin obro‘-e’tibor qozonishiga sabab bo‘lgan. Masalan, Amir Temurning Hirot voliysi huzuriga yuborgan elchisi haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi:

- “Amir Jokuni Hirot voliysi Malik Husayn huzuriga elchi qilib jo‘natdi. Temurga bo‘lgan hurmati sababli Malik Husayn elchini biror daqiqa ham e’tiborsiz va qarovsiz qoldirmadi”[262]. Amir Temurning qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarda hamkorlik, tinch-totuvlik va o‘zaro savdo aloqalarini saqlab qolishga intilganligi, ushbu davlat hukmdorlari orasida nufuzining oshishiga zamin yaratdi.

Amir Temur qudratli davlatni shakllantirganidan so‘ng, ushbu davrning deyarli barcha yirik mamlakatlari va ularning hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. G’arbiy Yevropa davlatlariga o‘z elchilarini jo‘natgan hamda ularning elchilari ham Temur saroyiga tashrif buyurgan. Ushbu jarayonlarda faol qatnashgan elchilar qoldirgan ma’lumotlar ham Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Jumladan, Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo‘lganligi hamda uning sifatlari haqida juda ko‘p mualliflar o‘z fikrlarini aytganlar. Ammo uni ko‘rib, suhbat qilgan kishilar Ibn Xaldun, Klavixo hamda Temurning maslahatchisi va ayniqsa, g’arb mamlakatlariga yuborilgan xristian elchisi Ioann Fransiskiyning, hozirgi Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan xotiralari, ayniqsa, qimmatli va ishonchli dalil hisoblanadi. “Amir Temur fors, arab va turk tillarini biladi. Qur’on ilmi va Islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki, hech bir musulmon olami u bilan munozara qilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, uning o‘zi olim va donishmanddir”[263]deb birinchi manbada ta’kidlangan. Elchilik aloqalari davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarida muhim bo‘lishi bilan bir qatorda, muhim tarixiy ma’lumotlarning ilmiy iste’molga kirishida muhim ro‘l o‘ynagan.

Amir Temur saltanat devonida maxsus diplomatiya korpusi tuzilgan bo‘lib, unga har tomonlama ma’lumotli va bir necha tillarni yaxshi bilgan kishilar jalb etilgan. Ular Sohibqironga do‘stona munosabatda bo‘lgan yoki dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan davlatlar vakillari bilan muzokara olib borish vazifasi yuklatilgan.

Amir Temurning Misr sultoni Barquqning o‘ziga yozgan birinchi maktubi 1393-yil bilan belgilangan bo‘lib, barcha yozishmalarning mazmuniga qaraganda, Temur Misr bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatishga uringan. Sababi,

[262] Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - 167 б.
[263] Муқимов З. Амир Темур тузуклари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2008. – 131 б.

agar uning mazkur mamlakat bilan aloqasi notinch bo‘lsa, Temurning Osiyodagi asosiy raqiblari Usmonlilar Turkiyasi va Minlar Xitoyi bilan kurashiga putur yetishi mumkin edi. Ko‘rinib turibdiki, boshqa davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlar kabi, Misr sultonlari bilan ham tinch-totuvlik va hamkorlik masalalariga alohida e’tibor berilgan. Har bir davlat bilan qilinayotgan elchilik jarayonlarida, boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir qilmasligi ham inobatga olingan.

Temur saltanatining poytaxti – Samarqandga elchilik missiyasi bilan kelgan va bu haqda o‘z taassurotlarini yozib qoldirgan yana bir ispaniyalik elchi Rui Gonsales de Klavixo edi. U Leon va Kastiliya qiroli Genrix III ning topshirig’i bilan 1404-yilda Amir Temur Samarqandga tashrif buyurdi. Uning asari “Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi 1402–1404-yillar” deb ataladi. "Kundalik" ikki qismdan iborat. Birinchi qismda elchilarning Samarqandgacha bosib o‘tgan yo‘li, ular yo‘l-yo‘lakay ko‘rgan mamlakatlar va shaharlar tavsifi beriladi. Ikkinchi qismda de Klavixo Temur davlatini tasvirlaydi, Sohibqiron bilan Kesh va Samarqanddagi uchrashuvlari haqida hikoya qiladi[264]. Elchi mamlakat, uning aholisi, xo‘jaligi, Temur qo‘shini to‘g’risida muhim ma’lumotlar beradi. Klavixoning mamlakatning iqtisodiy ahvoli, Samarqand bozorlarida turli noz-ne’matlarning mo‘l- ko‘lligi, narxlarning arzonligi, bu yerga xorijdan olib kelingan mahsulotlar to‘g’risida keltirgan ma’lumotlari ham e’tiborga loyiqdir.

Temur va Temuriylar davrida jumladan, Mirzo Ulug’bek davrida ham amalga oshirilgan elchilik aloqalari jarayoni ushbu davr tarixi haqida ma’lumotlarni boyitishga xizmat qilgan.

G‘arb va Sharq bir-birini yaqindan bilmagan, diniy adovatlar zamirida urushlar chiqqan o‘sha davrlarda har ikki qit’alararo do‘stona munosabat o‘rnatilish amri mahol edi. Amir Temur birinchi marta G‘arb va Sharq o‘rtasidagi munosabatlarni shartnomalar orqali mustahkamlashni g’arb qirolliklariga taklif etgan va bu muammoni rasmiy tarafdan hal etishga intilgan. Amir Temur va Temuriylarning elchilik jarayonlari bilan bog’liq bu xatti-harakatlarini tarixshunos olimlar bugungi kunda “Qo‘l cho‘zish siyosati”-deb atamoqdalar.

Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o‘z saltanatida qabul qilgan[265]. deb birinchi manbada ta’kidlangan. (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 14-15 bet)(Salohiddin Toshkandiy

[264] Arslonzoda R.A. Amir Temur Yevropalik zamondoshlar nigohida: sohibqiron tarixiga oid yevropa tillaridagi manbalar., FarDU. Amir Temur jahon tarixida nomli II Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Farg‘ona. 2023. 8-bet.

[265] Sodiqova G. A. Buyuk Amir Temur – millat faxri. – BuxDU. Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari., Buxoro. 2022. 96-b.

"Temurnoma" 7-bet).

Amir Temurning tarixdagi bu ezgu amallarini Yevropa xalqlari ham tan oladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Fransiyaning o'sha davrdagi Prezidenti Jak Shirak tarafidan Amir Temurning Sharl VI ga yo'llagan nomalari nusxasi birinchi Prezidentimizga topshirilganligi, o'sha davrdagi elchilik aloqalarining tarixiy ahamiyati bugungi kunda ham muhim ekanligini anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari harbiy sohasida Sohibqironning harbiy san'ati va jang usullaridan foydalanish bilan bir qatorda, dunyo mamlakatlari bilan elchilik aloqalaridan ham uning tajribalaridan foydalangan va foydalanib kelmoqdalar. Umuman olganda, Sharq va G'arb tarixchilari tomonidan Amir Temur shaxsi va uning tarixda tutgan o'rni keng o'rganildi va o'rganilmoqda.

AMIR TEMUR IBN TARAG'AY BAHODIRNING HINDISTONGA YURISHI ILMIY-SIYOSIY TALQINDA

Xaydarova Zilola Normurodovna,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Nabiyev Sherzod Baxrom o'g'li,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi

Amir Temur (1336–1405) – o'z davrining buyuk sarkardasi va davlat arbobi bo'lib, qisqa vaqt ichida ulkan saltanat barpo etishga muvaffaq bo'lgan. Uning harbiy yurishlari Sharq va G'arb tarixida muhim o'rin tutadi. Amir Temurning Hindistonga yurishi o'ziga xos strategik va iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu yurish natijasida uning saltanati yanada mustahkamlandi.

XIV asrning oxirlarida Hindiston subkontinenti iqtisodiy jihatdan boy, ammo siyosiy jihatdan tarqoqlik hukm surayotgan hudud edi. Hindistonning Dehli sultonligi markaziy hokimiyat uchun kurashayotgan mahalliy hukmdorlar tomonidan zaiflashtirilgan bo'lib, bu holat Amir Temur yurishining muvaffaqiyatli bo'lishiga zamin yaratdi.

Hindiston geografik jihatdan Markaziy Osiyo bilan uzoq yillik savdo-sotiq aloqalariga ega bo'lib kelgan. Buyuk ipak yo'li orqali Hindiston boyliklari Yevropa va Osiyoning boshqa mintaqalariga yetkazilgan. Biroq XIV asrning oxirlariga kelib, bu savdo yo'llarida beqarorlik yuzaga kelgan va ayrim hududlarda qurollangan guruhlar tomonidan savdo karvonlariga hujumlar uyushtirilgan. Amir Temur ushbu hududda tartib o'rnatish va savdo yo'llarini o'z nazoratiga olish niyatida edi.

Amir Temur Hindiston yurishiga tayyorgarlik jarayonida qo'shinining jangovar tayyorgarligini oshirdi va strategik jihatdan muhim bo'lgan yo'nalishlarni aniqladi. Bu yurish Amir Temurning harbiy kuch-qudratini

namoyish etish, O‘rta Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazish imkonini bergan. Ushbu maqolada Amir Temurning Hindistonga yurishi tafsilotlari, yurishdan oldingi tayyorgarlik jarayonlari, janglar tafsilotlari, yurish natijalari va uning tarixiy ahamiyati keng yoritiladi.

Amir Temurning Hindistonga yurishi haqida ko‘plab tarixiy manbalar mavjud bo‘lib, ularning orasida zamonaviy va o‘rta asr tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari, Ibn Arabshohning "Ajayib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari va Boburning "Boburnoma" asarlari Temur yurishlarini yoritishda asosiy manbalar hisoblanadi.

Tarixiy manbalar Amir Temurning Hindistonga yurishini turli nuqtai nazarlardan yoritadi. Ba’zi manbalarda[266] bu yurish O‘rta Osiyo savdogarlarining manfaatlarini himoya qilish va Hindiston bilan savdo yo‘llarini nazorat qilish maqsadida amalga oshirilganligi ta’kidlanadi. Boshqa manbalarda esa, bu yurishning diniy va harbiy jihatlari muhim rol o‘ynagani qayd etiladi.

Sharafiddin Ali Yazdi o‘zining "Zafarnoma" asarida Amir Temurning Hindiston yurishini adolatli hukmdorning tartibsiz yerlarni tozalashga qaratilgan harakati sifatida tasvirlaydi. Ibn Arabshoh esa, bu yurishni shafqatsiz talonchilik deb baholaydi. Ushbu tarixiy manbalar orasidagi tafovutlarni o‘rganish, Amir Temur yurishining haqiqiy sabab va oqibatlarini tushunishda muhimdir.

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida Richard Foltz va Beatrice Forbes Manz ham Amir Temurning harbiy yurishlari, jumladan, Hindistonga yurishining iqtisodiy va madaniy oqibatlari borasida ilmiy ishlar yozgan. Bu tadqiqotchilarning fikricha, Temurning yurishi Hindiston savdo yo‘llari va Markaziy Osiyo orasidagi aloqalarni o‘zgartirgan.

Amir Temurning Hindistonga yurishi nafaqat harbiy muvaffaqiyat, balki geosiyosiy va iqtisodiy jihatdan ham muhim natijalarga olib keldi. Bu yurish orqali Amir Temur o‘z saltanatining kuch-qudratini namoyish etdi va Hindistonning siyosiy muhitiga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Yurish natijasida Dehli sultonligi zaiflashdi, bu esa Hindiston tarixida muhim burilish nuqtalaridan biriga aylandi.

1398-yilda Amir Temur katta qo‘shin bilan Hindiston tomon yurish boshladi. Dehli sultonligining hukmdori Mahmud Tug’luq bu davrda zaiflashgan va o‘z askarlarining jangovar qobiliyatiga ishonmas edi. Temuriylar qo‘shini Ind daryosidan o‘tib, Panjob hududiga bostirib kirdi. Hind sultonligi qo‘shini Temurning yurishini to‘xtatish uchun tayyorgarlik ko‘rdi, ammo ular yaxshi tashkil etilgan va tajribali Temuriylar qo‘shini oldida ojiz qoldi.

[266] Sharafiddin Ali Yazdiy - "Zafarnoma" Ibn Arabshoh - "Ajayib al-maqdur fi tarixi Taymur"

1398-yil 17-dekabrda Dehli yaqinidagi jangda Temur qo‘shini hind sultonligining qo‘shinlarini tor-mor qildi. Temur jang davomida o‘zining klassik harbiy strategiyalaridan foydalangan holda dushman qo‘shinini o‘rab oldi va butunlay mag’lub etdi. Natijada Dehli taslim bo‘ldi va shaharga kirgan Temur qo‘shini katta miqyosdagi talonchilik va vayronagarchilik sodir etdi.

Dehli shahri zabt etilgach, Amir Temur o‘z qo‘shinlariga shaharda tartib o‘rnatishni buyurdi, biroq katta miqyosdagi talonchilik va vayronagarchiliklar ham sodir bo‘ldi. Natijada Dehli iqtisodiy jihatdan katta zarba oldi, savdo va hunarmandchilik pasaydi. Biroq Temurning yurishi natijasida Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi savdo aloqalari yangi bosqichga chiqdi. Hindiston zaminidan olib kelingan ulkan boyliklar Samarqand va boshqa shaharlarning rivojlanishiga xizmat qildi.

Bu yurishdan so‘ng Hindiston hududida siyosiy beqarorlik kuchaydi. Dehli sultonligining zaiflashishi Hindistonning turli hududlarida yangi kuchlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Amir Temurning Hindistonga yurishi nafaqat harbiy strategiya, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning yurishlari natijasida Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi madaniy almashinuv kuchaydi. Ko‘plab hunarmandlar, olimlar va san’atkorlar Markaziy Osiyoga olib ketildi, bu esa Temuriylar davrida ilm-fan va san’atning rivojlanishiga xizmat qildi.

Amir Temurning Hindistonga yurishi o‘z davrining eng yirik harbiy yurishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat harbiy muvaffaqiyat, balki geosiyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘ldi. Dehli sultonligining zaiflashishi, Hindiston zaminidan olib kelingan ulkan boyliklar va Markaziy Osiyo bilan savdo aloqalarining mustahkamlanishi ushbu yurishning muhim natijalaridan bo‘ldi. Shuningdek, yurish natijasida Hindistonda uzoq yillar davom etgan beqarorlik yuzaga kelgan bo‘lsa-da, bu voqea tarixiy jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Amir Temurning Hindistonga yurishi Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi madaniy almashinuvni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Temuriylar davrida ilm-fan, me’morchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi aynan ushbu yurish natijasida ortib borishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy resurslarga bog’liq bo‘lgan. Zero, bu yurish Amir Temur saltanatining harbiy kuch-qudratini namoyish etgani, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgani muhim voqealardan biri sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ГЕОСИЁСИЙ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ТАШҚИ СИЁСАТИ (2017-2025-йиллар)

Б.Т.Қудратов,
Тошкент Гуманитар фанлар университети ўқитувчиси.

Юртимиздаги охирги 6-7 йилларни сарҳисоб қиладига бўлсак, нафақат ички сиёсатда, балки кузатилаётган кенг қамровли ислоҳотлар, очиқлик ва янгиланишлар мамлакатнинг ташқи сиёсатида ҳам яққол намоён бўлмоқда.

Дарҳақиқат, Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий вазифаларидан бири бу ўз ҳудуди атрофида тинчлик-тотувлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, Президент Шавкат Мирзиёев яқин қўшниларимиз – Марказий Осиё давлатлари билан дўстона, яқин қўшничилик ва ўзаро манфаатли алоқаларни ривожлантириш ва мустаҳкамлашни асосий устувор ташқи сиёсий йўналиш сифатида белгилаб берди. Бу борада: "Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатида Марказий Осиё - бош устувор йўналиш" тамойилини амалда татбиқ этишга киришдик. Натижада минтақамизда мутлақо янги сиёсий муҳит яратилди, ўзаро ишонч ва яхши қушничилик асосидаги алоқалар мустаҳкамланмоқда.

Биз кўшни Афғонистон билан дўстлик ва яхши қўшничилик муносабатларини кўллаб-қувватлаш ҳамда ички ишларга аралашмаслик тамойилларига асосланган сиёсатни собитқадамлик билан ҳаётга татбиқ этмоқдамиз. Ушбу мамлакатда тезроқ тинчлик ва барқарорлик ўрнатилиши унинг Марказий ва Жанубий Осиё минтақалари ўртасида ўзаро боғлиқликни мустаҳкамлашда ишончли кўприк вазифасини бажаришига хизмат қилади".[267]

Хусусан, 2017-2019 йиллар давомида Марказий Осиё мамлакатлари билан савдо айланмаси йиллик ўртача 50 фоиздан кўпроққа ўсиб, 5,2 млрд. долларга етган. 2020 йил натижаларига кўра эса, глобал пандемия шароитига қарамай, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан савдо айланмасининг умумий ҳажми 5 млрд. долларни ташкил этди.

Жумладан, Ўзбекистоннинг умумий ташқи савдо айланмасида Марказий Осиё давлатларининг улуши 2019 йилдаги 12,4% дан, 2020 йилда 13,6 % га ошган. Ўзбекистоннинг минтақадаги умумий ташқи савдо айланмасида эса Қозоғистоннинг улуши 61%, Қирғизистон – 18,2%,

[267] Ш. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, "Ўзбекистон" нашриёти. 2021 йил. 321--бет

Туркманистон – 10,6% ва Тожикистоннинг улуши 10,2% ни ташкил этди.[268]

Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати фаолияти 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ўз ифодасини топган. Олий даражадаги ҳуқуқий ҳужжатда мамлакатимиз ташқи сиёсатининг қуйидаги устувор йўналишлари белгилаб берилди[269]:

Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузуми, суверенитети, ҳудудий яхлитлигини муҳофаза қилиш;

ахборот хавфсизлигини таъминлаш ва ахборотни ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш, ахборот соҳасидаги таҳдидларга ўз вақтида ва муносиб қаршилик кўрсатиш;

фуқаролик, миллатлараро ва конфессияларараро тинчлик ҳамда тотувликни мустаҳкамлаш;

Чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат соҳасидаги устувор йўналишлар:

Ўзбекистон Республикасининг халқаро нуфузини мустаҳкамлаш, мамлакатда олиб борилаётган ислоҳотлар тўғрисида жаҳон ҳамжамиятига холис ахборот етказиш;

Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий фаолиятининг норматив-ҳуқуқий базасини ҳамда халқаро ҳамкорликнинг шартномавий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш;

давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш масалаларини ҳал этиш ва бошқалар.

Таъкидлша керакки, Ҳаракатлар стратегиясининг амалга оширилиши юртимизни барча соҳаларини ислоҳ қилиш ва модернизациялаш, ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган ҳуқуқий демократик давлат, кучли фуқаролик жамияти барпо этиш, қонун устуворлигини, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартиботни, давлат чегараларининг дахлсизлигини, жамиятда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш йўлида ижобий натижаларга асос бўлди, десак муболаға бўлмайди.

Марказий Осиё давлатлари, шунингдек, Афғонистон билан чегарадошлиги ва қулай геосиёсий устунлиги сабабли муҳим аҳамиятга эга бўлиб, минтақадаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий жараёнлар, қолаверса, хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш масалаларида ҳам алоҳида ўрин тутади. Шу нуқтаи назардан, Марказий Осиё минтақаси доим Ўзбекистон ташқи сиёсатининг диққат марказида бўлиб келган.

---

[268] "Замонавий дунёда Ўзбекистон ташқи сиёсатининг кун тартиби", 27 август 2020 й., https://uza.uz/uz/posts/zamonaviy-dunyeda-zbekiston-tash-i-siyesatining-kun-tartibi-27-08-2020

[269] 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони.

2017–2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясига кўра, Ўзбекистон Марказий Осиёни кенг имкониятлар маконига айлантириш орқали "хавфсизлик, барқарорлик ва яхши қўшничилик" муҳитини яратиш бўйича ўзининг минтақавий сиёсатини фаол амалга ошириб келмоқда.

Марказий Осиё давлатларининг ўсиб бораётган иқтисодиёти, сиёсий эркинлиги ва таъсири билан боғлиқ сўнгги ижобий ўзгаришлар халқаро майдондаги йирик кучларнинг Марказий Осиё минтақасидаги жараёнларга бўлган эътиборини янада кучайтирди. "5+1" деб аталувчи кўп томонлама учрашувлар формати Марказий Осиёнинг бешта давлати ("5") ва халқаро ҳамкор ("1")ни назарда тутади. Мазкур формат ташқи ишлар вазирлари ва экспертлар даражасида мунтазам равишда ташкил этиладиган учрашувлар ҳамда форумлар доирасида доимий мулоқот қилиш учун дипломатик платформа вазифасини ўтайди. Масалан, 2015 йилнинг ноябрь ойида Самарқандда АҚШ ташаббуси билан йўлга қўйилган "С5+1" ҳамкорлик форматида эса Марказий Осиё давлатларининг ташқи ишлар вазирлари ва АҚШ давлат котиби иштирок этди. 2021 йилнинг 23 апрелида бўлиб ўтган навбатдаги виртуал "С5+1" учрашувда АҚШ давлат котиби Энтони Блинкэн АҚШ Марказий Осиё давлатларининг мустақиллиги, суверенитети ва ҳудудий яхлитлиги тарафдори эканлигини эътироф этди.[270]

Демак, Марказий Осиё мамлакатлари ўртасидаги кўп томонлама ҳамкорликнинг янги – "5+1" формати алоқаларни ривожлаштириш мақсадида Марказий Осиё мамлакатлари ва уларнинг хорижий шериклари ўртасида мунтазам мулоқот қилиш учун самарали механизм ҳисобланади. Шу билан бирга, минтақа ва хорижий ҳамкор давлатлар ўртасида янги форматлар ва мулоқот майдонларини шакллантириш Марказий Осиёнинг геосиёсий ва иқтисодий аҳамиятини оширади.

Хулоса қилар эканмиз, Ўзбекистоннинг 2017-2025 йилларга мўлжалланган ташқи сиёсат стратегиясида жиддий ўзгаришлар рўй бергани, бу *бир томондан,* халқаро сиёсатда жадал ўзгаришлар бўлса, *иккинчи* томондан, мамлакатнинг ўзида ҳам муҳим ички ўзгаришлар кузатилаётгани билан боғлиқ. Президент Шавкат Мирзиёев ҳокимият тепасига келганидан сўнг Ўзбекистонда кенг кўламли сиёсий ва иқтисодий ислоҳотлар, жумладан, миллий манфаатларни мустаҳкамлаш ва кўп векторли халқаро муносабатларни ривожлантиришга қаратилган ташқи сиёсий доктринани амалга ошириш бошланди. Глобаллашув, ресурслар учун рақобатнинг кучайиши ва Марказий Осиёда янги муаммолар пайдо бўлиши шароитида Ўзбекистоннинг ташқи сиёсат стратегияси давлатнинг

[270] Ф.Хакимов. Марказий Осиёда минтақавий ривожланиш динамикаси ва "5+1" кўп томонлама ҳамкорлик формати// sys1q0zg3clqajs04p2yhkgf96nf4hmup9mdr8l38u6

барқарор ривожланишини таъминлаш ва минтақавий хавфсизликни сақлашда алоҳида аҳамият касб этди.

Шундай қилиб, Ўзбекистоннинг 2017-2025 йилларга мўлжалланган ташқи сиёсат стратегиясида кўп векторлилик, минтақавий интеграция ва фаол иқтисодий дипломатияга асосланган халқаро муносабатларга янгича ёндашувлар ўз ифодасини топган. Ушбу тамойилларнинг қабул қилиниши Ўзбекистоннинг барқарор ривожланишини, Марказий Осиёдаги мавқеини мустаҳкамлаш ва халқаро майдондаги ролини оширишни таъминлайди. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати янги геосиёсий воқелик доирасида ривожланишда давом этади ва бу стратегиянинг муваффақияти ўзгаришларга мослаша олиш ва мамлакат манфаатларидан келиб чиққан ҳолда мувозанатли ечимлар топишга боғлиқ. Ўзбекистон томонидан амалга оширилаётган ташқи сиёсат стратегияси мамлакатга нафақат ўз хавфсизлиги ва иқтисодиётини мустаҳкамлаш, балки минтақавий ва халқаро кун тартибини шакллантиришда фаол иштирок этиш имконини беради.

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O‘ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Xurramova Zaxro Farxod qizi,
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti talabasi

Buyuk tarixda hech narsa issiz ketmaydi. U xalqlarning qonida ,tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.Shuning uchun ham u qudratlidir.Tarixiy merosni asrab – avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir[271]. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sohibqiron Amir Temur O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin tutuvchi buyuk sarkarda va davlat arbobidir. U XIV asrda markazlashgan kuchli davlat barpo etib, mamlakatning siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shdi. Amir Temur o‘zining iqtidorli harbiy strategiyasi va davlat boshqaruv tizimi orqali Movarounnahr hududini yagona markazga birlashtirdi.

Amir Temur shaxsni o‘rganar ekanmiz ,yaqin o‘tmishdagi qarashlarni haqiqatni buzib talqin qiluvchilarga qarama-qarshi o‘laroq ,Amir temur tug’ma davlat arbobi .o‘zbek xalqining baxtiga bitgan betakror yo‘lboshchi edi, dep baralla aytishimiz o‘rinli bo‘ladi.Bejizga bobomiz ismiga “Sohibqiron” nomi qo‘shilmagan, uning muborak tavalludi sakkiz yuz yilda bir marta sodir bo‘ladigan qutiblanish hodisasi sharofatidandir.

Sohibqironning bashariyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan eng buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u feodal tuzumi doirasidagi eng mukammal milliy

[271] Salimov O., Bekmurodov M., Xalilov N va boshqalar. Saodat yo’li.-T: “Ta’lim nashriyoti.Toshkent -2016.240 b.

davlatchilik asoslarini shakillantirdi.Bu davlat tuzumi ko‘pgina jihatlari bilan o‘z davrining doirasidan ilgarilab ketgandi. Ulug’ saltanat keyinchalik o‘zbek davlatchiligi uchun mustahkam asos, poydevor bo‘lib xizmat qildi. Sohibqiron saltanati o‘zning xalqchiligi, fuqorolarning barcha qatlamlarga tayanganligi, aql-idrok, ilm-u hikmat, tafakkur nuridan bahra olganligi, bahramand bo‘lganligi, adolatga suyanganligi, mukammal tuzuklar doirasida faoliyat yuritganligi, demokratik an’analar hamda umuminsoniy qadriyatlarni ajoyib tarzda uyg’unlashtira olganligi bilan ajraliub turadi[272].

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, Amir Temurni anglash-o‘zligimizni anglash demakdir.Amir Temur shaxsini idrok etish-tarixni idrok etishdir.

Amir Temur tarixini o‘qitish borasidagi har qanday yondashuv dastavval Amir Temur va uning merosini o‘qitish bilan chambarchas aloqador.Bu masala faqatgina O‘zbekiston uchun emas ,balki jahon tarixini o‘z dasturlarining bir qismi sifatida o‘rgatuvchi barcha mamlakatlar uchun dolzarb mavzudir.

Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyati Amir Temur XIV asrda Markaziy Osiyoda yirik harbiy yurishlar uyushtirib, o‘z davlatini barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. U kuchli markazlashgan boshqaruv tizimini yaratdi, bu esa keyinchalik o‘zbek davlatchiligiga asos bo‘ldi. Uning yurishlari orqali nafaqat Movarounnahr hududi mustahkamlandi, balki bu yerda davlat tuzilishi yanada barqarorlashdi.

Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi Amir Temur o‘z davlatini idora qilishda qattiq markaziylashtirilgan boshqaruv usulini joriy etdi. U “Temur tuzuklari” nomi bilan mashhur bo‘lgan qonuniy asoslarni yaratdi. Bu tuzuklar davlatning siyosiy, harbiy va ijtimoiy jihatlarini tartibga solib, keyinchalik o‘zbek davlatchiligi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.Ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish Amir Temur hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ham katta e’tibor qaratdi. U Samarqandni ilmiy va madaniy markazga aylantirdi. Uning nabiralari, xususan, Ulug’bek ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shib, o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egalladi. Ulug’bekning astronomiya va matematika sohasidagi ishlari butun dunyoda mashhur bo‘ldi.Temurning ilm fan, madaniyat, o‘zbek xalqi jibslashuvidagi sa’y-harakatlari va davlat boshqaruvi to‘g’risida mutassil gapirilib kelindi, talay-talay asarlar yaratildi. G’arb-u sharq adiblar asarlarida uning ismi va jasorati yuksak ehtirom bilan etirof etildi. Jumladan, Salohidin Toshkendiyning “Temurnoma”,tirikligidayoq bitilgan, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma“, Gyotening “G’arb u sharq devoni asarida Sohibqironning jahon nigohida davlat arbobi, muzaffar sarkarda , mohir diplomat va bunyodkor zot hamda fan va madaniyat homiysi ekanligiga alohida tahsin aytishadi.

[272] Ibrohimov H.”Sohibqironni anglash”-T:”Fan va Texnalogiya “2014-y 1028 b

Amir Temur shaxsiyati shu qadar mukammalki, bunday insonlar mana necha asrdirki qayta tug'ilmadi.Shuning uchun ham Temur tarixini o'rganar ekanmiz, biz yoshlar qalbida bobomizga nisbatan chuqur ehtirom va hayrat uyg'onishi bejizga emas. Bir tomondan qattiqqo'l Temur tursa, ikkinchi tomondan ilm ahlini qutlab ,himoyasiga olgan Temur turadi.Bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi temur bo'lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar ,anhorlar qurdiruvchi va bog'lar barpo etuvchi Temur turadi.Bu murakkab shaxs muarrixlar uchun ham jumboq bo'lib qolmoqda[273]. Temur shu kabi ishlari bilar butun o'zbekiston tarixida, o'zbek davlatchiligida o'zining tom ma'noda katta xissasini qo'shgan shaxsdir.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligiga ta'siri Amir Temur yaratgan kuchli boshqaruv tizimi va harbiy siyosati keyinchalik o'zbek xonliklarining tashkil topishiga zamin yaratdi. Xususan, Shayboniylar davrida Amir Temurning tajribalari asosida yangi davlat boshqaruv tizimi shakllandi. Temur tuzuklari o'zbek davlatchiligining huquqiy asoslaridan biri sifatida uzoq vaqt davomida saqlanib qoldi[274].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur O'zbekiston tarixida ulkan o'rin tutadi. U nafaqat kuchli va adolatli davlat arbobi, balki buyuk sarkarda sifatida ham yurtimiz tarixida muhim iz qoldirgan. Uning boshqaruvi davrida Markaziy Osiyo gullab-yashnadi, ilm-fan va madaniyat rivoj topdi. Temur asos solgan buyuk saltanat nafaqat harbiy qudrati, balki kuchli boshqaruv tizimi va adolatli qonunlari bilan ham ajralib turdi. Bugungi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda, milliy g'urur va tarixiy merosni asrab-avaylashda Amir Temur shaxsiyati muhim rol o'ynaydi. U xalqimiz uchun buyuk o'tmish timsoli va ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI

Ochilodiyev Lochinbek Normurod o'g'li,
Chirchiq davlat pedagokika universiteti talabasi

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanishlar, rivojlanish bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini barqaror izga solish va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shuningdek, yangilanayotgan O'zbekistonda tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini o'rganish, ularga to'g'ri va xolis baho berish, shu asosida milliy qadriyatlarimizni tiklash o'zining yangicha bosqichiga

[273] A.Saidov ,G". Mirzo."Amir Temur g'arb adiblari nigohida "-T:"DAVR PRESS"HMY,2016-224 b
[274] Mo'minmirzo Xolmo'minov.Buyuk Sohibqironning davlat boshqaruvi borasida fikr –mulohazalri."Proceeding of International Conference on Modern Sciens and Scientific Studies" jurnali 2022/10/20.https://scholar.google.com.

ko‘tarildi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning havas qilsa arziydigan ulug’ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug’ ajdodlarimiz bor”[275]. O‘z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o‘zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o‘rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Temuriylar davlatining asoschisi Amir Temurdir. Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o‘lkamizning, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume’tirof etilgan davr sifatida ko‘plab tatqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb qiladi.

XIV asr ikkinchi yarmida, Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Bunday og’ir vaziyatda feodal tarqoqlikdan barlos amirzodalaridan Amir Temur ustalik bilan foydalanib qoldi va 1370-yili oliy hokimiyatni qo‘lga oldi. U 1370-1379 yillar davomoida mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib, Movarounnahr va Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1381-1402 yillarda Amir Temur qo‘shni mamlakatlar ustiga uyrish kilib, Eron, Kavkazorti, Iroq, Kichik Osiyo va Hindistonni istilo kildi. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qaxshatqich zarba berib, uni poytaxti Saroy Berkani egalladi. Sohibqiron nafaqat O‘zbekiston tarixida, balki, jahon xalqlari tarixida katta iz qoldirgan buyuk siymodir.

Amir Temur va Temuriylar tarixshunosligi va manbashunosligi tarix fanining nafaqat hozirgi davrdagi dolzarb masalasi, balki, o‘rta asrlardayoq o‘rganilishi boshlangan muhim jarayon hisoblanadi. Bu boradagi jumboqli, qiziq va qimmatli bo‘lgan ma’lumotlar hozirgi kunda ham O‘zbekiston va jahon tarixshunosligida o‘zining o‘rganilish ahamiyatini yo‘qotmagan dolzarb mavzulardan biri hisoblandi.

XX asrda Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan Sovet tarixshunosligining o‘ziga xos jihatlaridan biri shu bo‘ldiki, bu davr tarixshunosligida o‘tgan asrlardagi rus shovinizmining ta’siri ma’lum darajada saqlangan holda, unga yangi salbiy jihatlar qo‘shildi. Bular tarixga va tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyatini o‘rganishga kommunistik mafkura talablari asosida partiyaviy va sinfiy nuqtai nazardan yondashish edi. Natijada Amir Temur shaxsini qoralash, uni faqat salbiy jihatlarini yoritish avj oldi. Bu hol, ayniqsa, XX asrning 70-yillarida yaqqol namoyon bo‘ldi. A.P.Novosel’tsevning 1973-yili “Voprosi istorii” jurnalida e’lon kilingan “Ob istoricheskoy otsenke Temura” maqolasi Amir Temur qoralab yozilgan maqola edi. Shundan so‘ng XX asrning 70 - va 80-yillarida Amir Temur haqida birorta temurshunoslik ilmiy saviyasi bilan farqlanuvchi tadqiqot ishi e’lon qilinmadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Amir Temur shaxsi sovet mafkurasidan xizmat qilgan tarixiy adolatsizlikdan to‘liq ozod etildi. 1995 yil dekabrda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1996 yilni Amir Temur yili deb

[275] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan // Xalq so‘zi 2017-yil 4-avgust).

e'lon qildi. "Temur tuzuklari" bir necha tillarda chop etildi. O'sha davr tarixiy, madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Muqaddas qadamjo - Amir Temur maqbarasi ta'mirlandi. Juda qisqa fursatda, bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi. 1999-yilda esa akademik E.V.Rtveladze va akademik A.X.Saidovlar tomonidan tayyorlangan "Amir Temur dunyo fani ko'zgusida" nomli bibliografik nashrda xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlar tizimga solindi. Mualliflar jahon tarixshunosligida mustaqil "temurshunoslik" ilmiy yo'nalishi shakllanganini e'tirof etishdi. Shuningdek, "Amir Temur jahon tarixida" nomli nashrining "Amir Temur davri tarixnavisligi" bobidagi "Ilmiy izlanishlar" qismida O'zbekiston va xorij tadqiqotchilarining ishlari tahlil qilindi.

Nashrda "Amir Temur shaxsini biryoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko'nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o'tish tadriji sodir bo'ldi"- degan xulosaga kelinishi tarixshunoslikdagi ilmiy burilishdir. 2003-yilda akademik B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, Ya.Muhammedov tomonidan ham temurshunoslik sohasida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilib, "Amir Temur bibliografiyasi" nashrdan chiqdi. Bundan tashqari Amir Temur shaxsi va davriga oid birmuncha manbalar tarjimasi, ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar yaratildi.

O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida bajarilgan "Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob" mavzuyidagi maqsadli amaliy grant doirasida bajarilgan loyihada O'zbekiston va jahon miqyosida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag'ishlab nashr qilingan turli adabiyotlar jamlanib izohlar bilan ta'minlandi. Amir Temurning ibratli hayoti, saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. . "Amir Temur tuzuklarini o'qisam," - degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov-xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman"[276]. Temuriylar tarixiga tegishli manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu o'rinda temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo'ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo'minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O'rinboyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, O'.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo'riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e'tirof etish zarur.

[276] Karimov I. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008-yil, 28- bet.

Birlamchi yozma manbalar, ya'ni qo'lyozma kitoblar maxsus kataloglarda yoritilgan[277].

Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqiga oid nashrlar, "Temurshunoslik" ilmiy yo'nalishining shakllanishi, badiiy adabiyotda Amir Temur obrazining yaratilishi ancha ilgari boshlangan. Bu jarayon Sohibqironning tirikligidayoq boshlangan desak xato bo'lmaydi. Yevropa Uyg'oniy davri ijodkorlari uning shaxsiga katta qiziqish bilan qaraganlar. "Xorijning mashhur tarixchilaridan E.Gibbon, F.SHlosser, G.Veber, JanPol' Ru va boshkalar o'z asarlarida Amir Temur faoliyati haqida ma'lumotlar berganlar"[278]. Amir Temur qudratli davlat barpo etgach G'arbiy Yevropa hukumdorlari Usmonli turk imeriyasi hujumidan tashvishga tushib undan yordam so'raydi. "Shu maqsadni ko'zlagan Vizantiya imperatori Manuil II Paleologning dojlari (imperatorning o'zi o'sha kezlarda G'arbiy Evropa qirollari huzurida bo'lgan) Yildirim Boyazid tazyiqidan xalos etishni so'rab, Amir Temurga murojaat qilishadi va shu paytgacha turk sultoniga to'lab kelgan bojlarini bunday buyon Sohibqironga berajaklarini aytadilar. Kastiliya qiroli Genrix III va Frantsiya qiroli Karl VI o'z elchilarini, Rim papasi Bonifakiy IX bo'lsa o'z katolik missionerlarini shoshilinch Amir Temur huzuriga yo'lladilar[279]. Bu yozishmalar jahon tarixshunosligi va manbashunosligida muhim o'rin egallaydi. "…bu nomalarning asl nusxa va tarjima variantlari hozirda Parij, Madrid va London kutubxonalarida saqlanib kelinadi. Bu haqda biz quyidagi tarixiy asarlardan bilib olsak bo'ladi"[280]. Ushbu ma'lumotlar Keren L. Amir Temur saltanati , Fransuz tilidan tarj. Va izohlar muallifi: B.Ermatov, Maxsus muharrir: X.Sulton; So'z boshi Lui Bazen. – T.: "Ma`naviyat", 1999, -224 bet. kitoblari ham bor. Barcha tafsilotlarning to'liq tarixshunosligi: Jahon adabiyoti №1 (104) 2006-yil, yanvar sonida to'liq keltirilgan; Muhammadjon Xolbekov "Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalar". –Samarkand, 1996, -38 bet. Istoriya Samarqanda. Tom 1: -Tashkent, Izd. «Fan», 1969, -482 s. Umnyakov I.N. Mejdunarodnыe otnotenie Sredney Azii v nachale XV veka. Snoteniya Temura s Vizantiey i Frantsiey, Truda Uzbekskogo gosudarstvennogo universiteta im. N.Navon. Novaya seriya. №61. –Samarkand: izd. UzGU., 1956. –s.179- 197. Aslida, Yevropa olimlarining Amir Temur

[277] Собрание восточных рукопией Академии наук Узбекистана. Т. I–XI. – Ташкент, 1952-1987; Собрание восточных рукопией Академии наук Узбекистана. История. Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Жалилова. – Ташкент, Фан, 1998. – 536

[278] Gibbon Eduard. Istoriya upadka I razrusheneniya Rimskoy Imperii // Perevod s angliykogo V.N.Nevedomskogo. Chast VII. – M., izd. K.T.Soldatenkova, 1983: Shloser F. Vsemirnaya istoriya. Tom III, - SPb.,1876: Veber G Vseobshaya istoriya. Tom VII. – M., 1887.

[279] Xolbekov M. Sohiqiron Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. Jahon adabiyoti, №(104), 2006-yil, 131-133-betlar.

[280] Marino Sanudo "Venetsiya dojlarining hayoti", Luys'en Keren "Temuerlan davrida Samarqand yo'li" (1990), Flossan "Fransiya davlati tashkil topganidan to qirol Lyudovik XVI hukumronlik qilgan davrga qadar fransuz diplomatiyasi tarixi" (1811), Sil'vestr de Sasi "Amir Temur va qirol Karl VI o'rtasidagi yozishmalar tarixi xususida"(1822).

shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi. Jumladan, 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning "Skifiyalik Tamerlanningf ulug'vorligi" asari bosib chiqilgan. Shuningdek bu davtda Pero Meksikaning "Buyuk Temur tarixi" asari chop etildi. 1582-yilda esa Seviliyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixoning "Esdaliklar" kitobi nashrdan chiqdi. Aynan shu davrdan Amir Temur haqida turli tatqiqot asarlari, monografiyalar, Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan elchilar kundaliklari va yozuvchilarning asarlari tarixshunoslikda muhim ma'lumotlar hisoblanib, to hozirgi kunga qadar Amir Temur haqida yoziladigan asarlarning keti uzilmaydi. Bugungi kunda Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etildi. 2006-yilda, Parijda Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish bo'yicha assotsiatsiyaning asoschisi va prezidenti, professor Lyus'en Keren qalamiga mansub "Samarqandga, Temur davrida sayohat" kitob albomining uchinchi nashri bosmadan chiqdi. Bu kitob YUNESKOning "Ipak yo'li-muloqot yo'li" dasturiga muvofiq yozildi va nashrga tayyorlandi. Kitobning uchinchi nashri uning kitobxonlar orasida keng ommalashganidan dalolat beradi va u Yevropa kitobxonlarida ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsiyatiga katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz[281].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekiston davlatchiligining yuksalishida muhim o'rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl" - "Adolat sohibi" nomlari bilan ulug'lanishi tarixiy manbalar va tarixshunoslarning tatqiqot ishlarida namoyon bo'lishu bejizga emas. Bugun tarixiy bilimlarning bosqichlarini o'rganar ekanmiz, Mo'gullarning 150 yildan ortiq hukmronligidan so'ng Amir Temur buyuk sarkarda, davlat arbobi, adolatli hukmdor sifatida o'sha davrida yuksak cho'qqilariga erishgan madaniy sohalarga e'tibor bergan, mamlakatlarda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, metallga badiiy ishlov berish, hattotlik, ilmu fan, adabiyot, hunarmandchilik, xullas, barcha sohalarning rivojlanishiga asosiy sababchilaridan biri bo'lgan shaxs ekanligining guvohi bo'lamiz. O'zbekiston va jahon tarixshunosligida hozirgi kunga qadar o'zining dolzarb mavzuga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Temur tuzgan buyuk davlatda Ikkinchi uyg'onish davrining vujudga kelganligi va bu renesans Turon, Xuroson va Hindistonda uzoq asrlar mobaynida shu'la sochib turganligi yuqoridagi gaplarimizning isboti bo'la oladi. Amir Temur buyuk sarkarda, kuragi erga tegmagan, engilmas fotihdir. Amir Temur – insoniyat tarixida eng nodir hodisa – renesansni yuzaga chiqarib, amalga oshirgan ulug' zotdir!

[281] "Samarqandga Temur davriga sayohat", Zarafshon, 2006-yil 7-oktabr, № 126 (21.179); Ravshanoy Tursunova. G'arbiy Yevropa mualliflari sahna asarlarida Amir Temur obrazi//San'at, 2006-yila, №2-son, 37-38-betlar.

BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YOHUD ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI

Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Z.N.Xaydarova,
Gumanitar fanlar fakulteti katta o'qituvchisi

Amir Temur o'z hukmronligi davomida turli dinlarga hurmat bilan munosabatda bo'lgan. U musulmon bo'lishiga qaramay, nasroniylar, buddistlar va boshqa din vakillarining huquqlarini himoya qilgan. Masalan, Temur 1401-yilda Suriya yurishi paytida nasroniy monastirlarini vayron qilmagan, aksincha, ularni himoya qilgan[282]. Madaniy bag'rikenglik Amir Temur turli millatlar va madaniyatlarning taraqqiyotiga sharoit yaratgan. Samarqand va Buxoro kabi shaharlar uning davrida madaniyat va ilm-fan markazlariga aylangan. Uning bu siyosati ko'plab olim va san'atkorlarning Samarqandga kelib ijod qilishiga sabab bo'lgan[283].

Etnik guruhlar bilan munosabat Temur o'z imperiyasida yashovchi turli millatlar – turklar, forslar, mo'g'ullar va hind xalqlari bilan o'zaro do'stona munosabat o'rnatgan. U barcha xalqlarni yagona davlat ichida birlashtirishga intilgan va ularning an'analariga hurmat bilan yondashgan[284]. Amir Temur yahudiy va nasroniy savdogarlar va hunarmandlarni ham hurmat qilgan. Masalan, u Bag'dod yurishidan so'ng yahudiy jamoalarining faoliyatini davom ettirishlariga ruxsat bergan va ularni himoya qilgan[285].

1398-yilda Hindistonga yurishi chog'ida Amir Temur islomga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, hind jamiyatining tuzilishini to'liq o'zgartirishga harakat qilmagan. U mahalliy hokimiyat vakillariga qisman mustaqillik berib, ularning urf-odatlarini hurmat qilgan[286]. Diniy Tolerantlik va Hukumatning Muloqoti: Amir Temur musulmon bo'lsa-da, o'z davrida boshqa dinlarga ham xushmuomalalik ko'rsatgan. Bunday munosabatlar nafaqat hududiy barqarorlikni, balki iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ham ta'minlagan. Misol uchun, Temur Bag'dodda yahudiy va nasroniy jamoalariga xususiy huquqlar berib, ularning savdo va iqtisodiy faoliyatlarini qo'llab-quvvatlagan. Bu siyosatning asosiy sababi, shubhasiz, ularning iqtisodiy ahamiyatini tan olishda yotgan edi[287].

Samarqand va Buxoro shaharlarini madaniy markazlarga aylantirishda Temur katta rol o'ynagan. Uning davrida bu shaharlar nafaqat Islom

[282] Abdullaev, R. (1996). Temuriylar davrida din va siyosat. Toshkent: Fan. (78-bet)
[283] Bartold, V. V. (2002). Samarqand tarixi. Moskva: Nauka. (145-bet)
[284] Gibb, H. A. R. (1997). Amir Temur va uning davlati. London: Oxford University Press. (256-bet)
[285] Manz, B. (2007). Temuriylar imperiyasi. Nyu-York: Cambridge University Press. (189-bet)
[286] Roemer, H. R. (1986). Islom dunyosida Temuriylar. Leiden: Brill. (312-bet)
[287] Hodge, C. (2012). Temurning harbiy strategiyasi va siyosati. London: Routledge. (201-bet)

dunyosining, balki butun dunyoning ilm-fan, san'at va madaniyat markazlariga aylangan. Bu yerda ko'plab olimlar va san'atkorlar faoliyat olib borgan, masalan, astronomiya, matematika, va falsafa sohalarida katta yutuqlar erishilgan[288].

Temur o'zining diplomatik siyosatida ham bag'rikenglikni namoyish etgan. U ko'p hollarda turli xalqlar va davlatlar bilan ittifoqlar tuzgan va bu ittifoqlar orqali o'z imperiyasining xavfsizligini ta'minlagan. Masalan, Temurni ko'p marta Evropa davlatlari, shu jumladan, Engiltaraga ham diplomatik missiyalar yuborgan, bu esa uning xalqaro aloqalarda ham yuqori darajadagi madaniyat va bag'rikenglikni ko'rsatadi[289]. Temurning buddizmga bo'lgan hurmatini ko'rsatadigan yana bir misol – u Hindistonga yurishi chog'ida buddistlar monastirlarini hurmat bilan qaragan va ularning diniy erkinliklarini himoya qilgan. Bu hozirgi kunda kam uchraydigan bag'rikenglikning yana bir namunasi sifatida qabul qilinadi .

Temur o'zining hukmronligi davrida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirgan va bu islohotlar uning tolerantlik siyosati bilan bog'liq edi. Boshqa din va etnik guruhlarga qarshi diskriminatsiya qilish o'rniga, u ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qildi va bu orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minladi. Amir Temur davlatining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda toleransiya siyosatining muhim roli bor edi. U turli etnik guruhlar va diniy jamoalar o'rtasida ziddiyatlarni kamaytirishga intilgan. Masalan, Temur boshqaruvini qo'lga olganidan so'ng, u ko'plab shaharlarni qayta tikladi va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun savdo yo'llarini xavfsizlashtirdi. Bu siyosat, ayniqsa, markaziy Osiyo hududida iqtisodiy taraqqiyotga olib keldi[290].

Samarqand Amir Temur davrida dunyo miqyosidagi eng yirik madaniy markazlardan biriga aylandi. Temur ilm-fan va san'atga katta e'tibor berdi, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun ko'plab olimlar va mutafakkirlarni o'z davlatiga jalb qildi. Shuningdek, u Samarqandda ilmiy va madaniy markazlar tashkil etdi, masalan, Ulug'bekning rasadxonasini qurdi. Temur o'z davrida turli millatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga harakat qilgan. U mo'g'ul va turklarning to'qnashuvi oldini olishga, shuningdek, fors va arab xalqini o'ziga bo'ysundirishga qaratilgan siyosatlarni amalga oshirgan. Temur davlatida barcha millatlar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerakligini ta'kidlagan va bu siyosat imperiyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlagan.

Temurning diplomatik aloqalari ham uning tolerantlik siyosatining bir qismi sifatida ko'riladi. U o'zining harbiy muvaffaqiyatlarini xalqaro diplomatik hamkorlik bilan mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan. Masalan, Temur turli

[288] Lentz, J. D. (2001). Temuriylar davridagi xalqaro munosabatlar. Berlin: Springer. (155-bet)
[289] Subtelny, M. E. (1994). Temuriylar madaniyati va san'ati. Parij: UNESCO Press. (198-bet)
[290] Woods, J. E. (1990). Temurning geosiyosiy ta'siri. Boston: Harvard University Press. (267-bet)

davlatlar bilan tinchlik kelishuvlari tuzib, o‘z imperiyasining xavfsizligini ta’minlashga intilgan. Bu kelishuvlar uning dinlararo va millatlararo bag’rikenglik siyosatiga mos keladi. Amir Temur o‘zining qurilish siyosati bilan ham mashhur. U faqat harbiy yurishlar bilan cheklanib qolmasdan, ko‘plab shaharlarda muhim infratuzilma ob'ektlarini yaratgan. Samarqandda, Buxoroda va boshqa shaharlarda ko‘plab masjidlar, madrassalar va madaniy inshootlar qurilgan. Bu inshootlar xalqning diniy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan va ularning turli diniy guruhlar orasidagi hamjihatlikni saqlashga xizmat qilgan.

AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI

Asqarov Mirjalol Murodjon o‘g’li,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

Har bir xalqning o‘z sardorlari, sarbonlari, alp bahodirlari, millatparvar, vatanparvar farzandlari – sultonu podsholari bo‘ladi. Ular o‘zlarining ijtimoiy, siyosiy faoliyatlari, betakror aql-zakovatlari bilan ma’lum bir jamiyatning ham, unda yashovchi kishilarning ham taqdirini o‘zgartirib yuboradilar. O‘z xalqining, vatanining ozod va obod bo‘lishi uchun fidoyilik, jasorat ko‘rsatadilar. Shaxsiy manfaat, shon-shuhrat kabi unsurlarni keyingi o‘rinlarga surib qo‘yib, millatning dardiga darmon bo‘lib yashaydilar.

Amir Temur (to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag’ay ibn Amir Barqul) 1336-yil, 9-aprel, Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xoja Ilg’or qishlog’i - o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. Amir Temurning onasi Takina xotun buxorolik. Otasi Amir Tarag’oy esa barlos urag’ining oqsoqollaridan hamda Chig’atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan.

Amir Temur – buyuk davlat asoschisi hisoblanadi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shim.-g‘arbda Quyi Volga, Don buylari; shim.-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosigacha; jan.-sharqda esa Shim. Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur. davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning „… davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim“, degan so‘zlari buning yorqin dalilidir.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog’laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg’ul bo‘lgan. Shu asnoda Amir Temur

tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo‘lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og’ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. Shu tufayli o‘spirinlik chog’laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do‘stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do‘stlari va maktabdoshlari (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to‘planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, astasekin navkar bo‘lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo‘linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo‘shinida lashkarboshilik darajasigacha ko‘tarilganlar.

Amir Temur diniy va dunyoviy ilm ahllarining mashvarat hamda muloqotlarini uyushtirgan. Olimu-fuzalolarni suhbatga chorlagan. Hukmdor ular oldiga taxtdan tushib kelardi, ko‘p masalalarda o‘zidan boshqacha fikrlaydigan mashoyixlarga sovg’a-salomlar ulashgan. Uning faoliyati asosan saltanatni boshqarishi, harbiy safarlar bilan bog’liq bo‘lsa-da, vaqti vaqti bilan donishmandlar suhbati orqali turli ilmlardagi yangiliklardan xabardor bo‘lardi.

Amir Temur diniy va dunyoviy ilm ahllarining mashvarat hamda muloqotlarini uyushtirgan. Olimu-fuzalolarni suhbatga chorlagan. Hukmdor ular oldiga taxtdan tushib kelardi, ko‘p masalalarda o‘zidan boshqacha fikrlaydigan mashoyixlarga sovg’a-salomlar ulashgan. Uning faoliyati asosan saltanatni boshqarishi, harbiy safarlar bilan bog’liq bo‘lsa-da, vaqti vaqti bilan donishmandlar suhbati orqali turli ilmlardagi yangiliklardan xabardor bo‘lardi.

Temurbek o‘z ona tilisi chig‘atoy (eski turkcha yoki eski adabiy o‘zbekcha)cha va forschada so‘zlashgan. Temurbek arabcha so‘zlasha olmagan va mo‘g‘ul tilida so‘zlasha olganligiga tegisgli bilgilar tortishmali. Uning davrida Turk(Eski o‘zbek adabiy tili)cha – so‘zlashuv, qo‘shin boshqarish, adabiyot va davlat ishlari tili, forscha – huquq, davlat ishlari, adabiyot va so‘zlashuv tili, arabcha – din tili bo‘lgan. O‘rta chog‘ davlatlariga bo‘lganidek Temurbek davlatida ham asosiy huquqiy ishlar – soliqlar yig‘ish, g‘aznachilik ishlari, moliya ishlari fors tilida olib borilgan. Temurbek o‘z yurishlari chog‘larida yilyozarlariga kunlik ishlarni Turkcha va forscha tillarda yozib borishlarini buyurgan. Temurbek o‘tmishining bilingan 3 ta tamal asaridan 2 tasi, Nizomiddin Shomiy – Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy – Zafarnoma, aynan shu kunlik qo‘lyozmalarga asoslanib yozilgan kitoblardir. Rasmiy yozuv turi esa arab alifbosiga asoslangan fors va turk (eski uyg‘ur alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvi) yozuvlari edi.

28.03.1391 – yilda (Yazdiy, Zafarnoma, 119a) Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxonga qarshi yurish chog‘ida Temurbek hozirgi Qozog‘istondagi Ulug‘ tog‘da askarlariga tosh keltirishlarini buyuradi va toshga o‘yib bitik yozdiradi. Nizomiddin Shomiy Zafarnomasida esa 28.04.1391 da ushbu bitik

bitilganligi yoziladi. Bu bitikda 3 qator arabcha va 8 qator turklarning o‘z yozuvi bo‘lmish eski uyg‘ur yozuviga asoslangan eski adabiy o‘zbekchada yozig‘ yozilgan.

Bu bitik 1935-yil avgust oyida Ulug‘ tog‘dan kunbotar(g‘arb)da yerlashgan Qaramo‘la tog‘ yon bag‘ri oldidagi Qarsaqpay mis koni yaqinida qozoq geologi Qanish Satbaev tomonidan topilgan. Bu yuzdan Qarsaqpay bitigi ham deb ataladi. Bitik bugungi kunda Sant-Peterburg (Roosiya Federatsiyasi)da Ermitaj muzeyida saqlanadi.

Sohibqiron Amir Temur qaysi o‘lkaga qadami tegmasin, u yerlardan dunyoviy ilm egalarini o‘zi bilan saltanat poytaxti Samarqandga olib kelgan. 12 yashar bolaligida Shom (Suriya)dan Samarqandga keltirilgan Ibn Arabshoh ham Amir Temurga nisbatan bir oz adovati bo‘lsa-da u haqida xolisona fikr yuritib ijobiy fikrlar yazgan. Ulug’ bobokalonimizning maqsadi bunyodkorlik ezgulik va adolatga yo‘g’rilganligi tufayli tarixchi haqiqatdan ko‘z yuma olmagan. Buyuk Temurning hayotidagi shiori: “Adovat emas, adolat kerak”, – degan tamoyilga tayanganligi bu borada etiborga loyiqdir. “Temur olimlarga mehribon bo‘lib sayyid shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to‘la izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib izzat-ikromi va hurrmatini unga ochiq izhor qilardi. Ularga nisbatan o‘z muruvvati bisotini yozar ediki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bahsida insofu himmat bo‘lar edi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo‘lib, qo‘rsligi ezguligi orasiga qo‘shilgan edi”, – deb yozib qoldirgan Ibn Arabshoh. Qur’oni Karimni yod bilgan, ushbu muqaddas kiitobdagi 754 bor “ilm” so‘zining takrorlanishini vujudiga singdirib, qalb zikriga aylantirgan, yoxud hadisi – sharifdagi “olimlar – payg’ambarlarning izdoshlaridir”, – degan aqidaga amal qilgan hukmdor bundan boshqacha bo‘lishi mumkin emasdi. Sohibqiron Amir Temur turkiy, fors, arab tillarini yaxshi bilganligi, ilm-fan va ma’naviyat darg’alarining suhbatidan bahramand bo‘lishi tufayli o‘sha davr tarixchilarining yozishicha uning majlislarida mashvaratlarida uyatsiz gaplar, qon to‘kish, asir olish, g’orat qilish va ayollar xususida haqoratli so‘zlar hech qachon aytilmagan.

1370-yilda Movarounnahrda hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur o‘z oldiga kuchli va markazlashgan davlat barpo etishni maqsad qilib qo‘ydi. U bu yo‘lda avvalo ichki tartibni o‘rnatdi, keyin esa tashqi siyosatga e’tibor qaratdi. Uning yurishlari Hindiston, Eron, Iroq, Kavkaz, Suriya va Osiyoning boshqa hududlarigacha yetib bordi. Bu yurishlar nafaqat harbiy maqsadga ega bo‘lgan, balki ularning ortidan iqtisodiy, madaniy va ilmiy almashinuvlar ham amalga oshirilgan.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta’kidlash kerakki, uning faoliyati qo‘yilgan maqsad

va rejalari jihatidan ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich (1360 – 86)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo‘lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo‘lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqpik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat kuchlarini va mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo‘hronga uchragan iqgisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi. Ayni vaqnda xo‘jalikning asosi bo‘lgan dehqonchilikda muayyan siljishlar ro‘y berdi. Yangi-yangi ariq (kanal)lar qazilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval albatta o‘sha joy aholisiga tinchlik yo‘lini taklif etgan, bu yo‘l inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan.

Amir Temur o‘zining boshqaruv tizimini “Temur tuzuklari” deb nomlangan qonunlar to‘plamiga asoslagan. Bu tuzuklar adolat, tartib-intizom, xalq bilan hisoblashish kabi tamoyillarga tayangan. U har bir rahbar va amaldorning o‘z vazifasiga sadoqat bilan yondashishini talab qilgan.

Temur boshqaruvida ilm-fan va madaniyat ham yuksak darajada rivojlandi. Uning davrida Samarqand yirik siyosiy, ilmiy va madaniy markazga aylandi. U ko‘plab olim, shoir va san’atkorlarni qo‘llab-quvvatladi, me’morchilik sohasida yirik yutuqlarga erishildi.

Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda, Sohibqironning mamlakatda qat’iy tartib o‘rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta’lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog’lab tuzganini ta’kidlab o‘tish zarur. Bu haqda “Temur tuzuklari”da quyidagi so‘zlar bitilgan: “Saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o‘n ikki toifaga bog’lab tuzdim”.

Amir Temurning ulamo, fuzalo, fozillar toifasiga (birinchi toifa) alohida e’tibor bergani, ularni o‘ziga yaqinlashtirishga harakat qilgani, davlat miqyosida amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilash, muhim qarorlar qabul qilishdan avval kengashlar chaqirib, ular bilan maslahatlashgani Sohibqironning ilm-fan ahliga katta ishonch bildirganligidan dalolat beradi. Temur kengashib, maslahatlashib o‘tkazilgan tadbir sanoqsiz lashkar ojizlik qilgan kuchni yengishga imkon beradi, deb hisoblagan. Ana shuning uchun ham u olimlar va ruhoniylarga

murojaat qilib, ulardan mamlakatni boshqarishda o‘z maslahatlari bilan yordam berishlarini so‘ragan. Bu jihatdan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kitobi berilgan Amir Temurning yangidan bunyod etilgan Boilkan shahrida olim fuzalolar bilan o‘tkazgan kengashi haqidagi ma’lumot diqqatga sazovordir. Bu kengashdagi nutqida u shunday degan: “Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashishlaringiz kerak”.

Amir Temurning ilm-fan ahliga bo‘lgan munosabati davlatni idora qilish, saltanat saroyida o‘tirish, maoshlar tayinlash va shu kabilar tuzuklarda alohida qayd qilingan. Xususan, u olimlar, donishmandlarga saroyda o‘tkaziladigan majlislarda o‘zining o‘ng tarafidan ul kishilar uchun mo‘ljallangan tomonidan o‘rin bergan. Umrining ko‘p qismini harbiy yurishlarda o‘tkazgan Amir Temur safarlarda ham olimlar bilan hamsuhbat bo‘lar edi. Jumladan, Damashq muhosara qilingan paytda, mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri ibn Xaldun (1332 – 1406) bilan suhbatda bo‘lgan. Uchrashuv chog’ida mashhur tarixchi Sohibqironga Qur’oni Karimning go‘zal bir nusxasini hadya qiladi va Amir 57 Temur o‘rnidan turib, muqaddas kitobni o‘pib, boshiga qo‘ygan. Xuddi ana shunday hurmat va ehtiromni Sohibqiron o‘zi zabt etgan mamlakatlardagi olim-u fuzalo, dono kishilarga nisbatan ham ko‘rsatgan “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, – deb ta’kidlaydi bu haqda Amir Temur, – o‘sha yerning obro‘-e’tiborlik kishilarini aziz tutib, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg’ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim”.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning Movarounnahr hukmdori deb e’tirof etilishi bu diyor uchun, xususan, uning poytaxti bo‘lmish Samarqand tarixi uchun yangi sahifa ochib berdi. Amir Temur ilm-fan, ma’naviyat ahliga alohida e’tibor va mehribonlik ko‘rsatib, jamiyatning madaniy hayotida ulardan foydalanishga intilar edi. Tarixchi ibn Arabshoh yozganidek, “Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzat-u ikromini izhor qilardi”.

A.Temurning katta xizmatlaridan muhimi shuki, u madaniyat va ilm homiysi sifatida mashhur bo‘ldi, o‘z saroyiga olim-u fuzalo arboblarini to‘pladi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rossiya bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e’tibor berildi. Islom dini o‘sha davrda asosiy mafkura bo‘lib, markazlashgan davlat

barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Temur o‘z faoliyatida unga tayanib ish ko‘rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta’limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo‘qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o‘rnatishda, insonparvarlik g’oyalarini tarqatishda foydalangan. Temuriylardan Shohruh, Ulug’bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an’analarini izchil ravishda davom ettirdilar. Amir Temur o‘z davrining buyuk arbobi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning davlat boshqaruvidagi tajribasi, xalq farovonligi yo‘lida olib borgan siyosati va ilm-fanga bergan e’tibori bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. U yaratgan meros – hozirgi avlod uchun ibrat va faxr manbaidir.

MUNDARIJA

	KIRISH SO'ZI.....	**5**
	I-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT	
1.	***Xalilov X.O.*** Sohibqiron Amir Temur jasorati – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tutgan o'rni.....	7
2.	***Shermatov F.T.*** Temur tuzuklarining ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganilishining pedagogik-psixologik jihatlari.....	14
3.	***Джураева С. Н., Жўраева М.Д.*** Амир Темур ва темурийлар даврига оид меъморий ёдгорликлар ва зиёратгоҳлар тарихи (Қашқадарё вилояти мисолида).....	21
4.	***Tursunov B.O.*** Amir Temur va temuriylar davrida pul islohotini tashkil etish mexanizmi.....	28
5.	***Xabibullayev I., Nurxonov N.Q.*** Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g`oyalar va iqtisodiy siyosat.....	31
6.	***Xalikchayeva S.I.*** Amir Temur hukmronlik davrida soliq munosabatlari va soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga oid nazariy yondashuvlar.....	34
7.	***Beknazarov A.A., Mo'minov M.A.*** Temuriylar davri sivilizatsiyasi uning hozirgi kundagi ahamiyati va tutgan o'rni.....	37
8.	***Xusanova Sh.A.*** Temuriylar davrida mingtepa qishlog'i.....	42
9.	***Xolmatov H.H.*** «Temur tuzuklari» — adolat hamda xalqparvarlik timsoli sifatida.....	43
10.	***Karimova I.A.*** Temuriylar davrida iqtisodiy tizim.....	47
11.	***Султонов К.*** Амир Темур омилининг миллий ўзликни англашдаги ўрни ва аҳамияти.....	53
12.	***Ortiqov A.*** Psychological aspects of study on Amir Temur's identity as an ideal personality in the sphere of education.....	54
13.	***Qodirov F.E, Boboqulova D.S.*** Temuriylar davlatchiligi va ularning madaniy meros.....	59
14.	***Ernazarova Sh.E.*** Sohibqiron Amir Temur davrida sayqal topgan Samarqand.....	62
15.	***Ochilova D.A.*** Amir Temur va temuriylar davlatchiligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.....	65
16.	***Nazirova S.Z.*** Amir Temur va temuriylar davlatchiligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.....	69
17.	***Musirmanov Sh.U.*** Amir Temur davridagi madaniy yodgorliklarni virtual reallik (VR) yordamida targ'ib qilish.....	71
18.	***Mirzaev A.T.*** Amir Temur davlatining shaharlarida hunarmandchilikni rivojlanishi.....	74

19.	***Sabirov D.N.*** Sohibqiron Amir Temur-adolatli hukmdor va yuksak ma'naviyat egasi.....	78
20.	***Erkaboyeva J.S.*** Temuriylar davlati: iqtisodiy siyosat va madaniy taraqqiyot uyg'unligi.....	82
21.	***Gapparov B.N.*** Temuriylar davlati: Sohibqiron merosi.....	86
22.	***Axmedov I.N.*** Temuriylar davlatchiligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning shaxs kamolotiga ta'siri.....	89
23.	***Djurayev Sh.Q.*** Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi yuksalishlar.....	92
24.	***Xamzayeva M.N.*** Amir Temurning iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati.....	94
25.	***Alikulova B.A.*** Amir temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi: ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy manaviy hayot. "Temur tuzuklari".....	97
26.	***Xamzayeva M.N.*** Amir Temurning iqtisodiy fikirlari va boshqaruv siyosati.....	100
27.	***Kanimkulov O.Sh, Shoymatov R.*** Amir Temur va temuriylar davrida me'morchilik taraqqiyoti.....	103
28.	***Qahhorov Sh.Sh.*** Amir temur va temuriylar davrida Buxoro va Shahrisabzda me`morchilik taraqqiyoti.....	106
29.	***Yo'ldoshev B.R., Alivoyeva F.A.*** Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviy hayot.....	110
30.	***Xamzayeva M, Zayitboyeva S.*** Amir temur davridagi iqtisodiy islohotlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati.....	113
II-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY TIZIM FAOLIYATINI TASHKILIY ASOSLARI		
31.	***Imomov X.*** "An-nujum az-zohira fi muluk misr va al-qohira" asarida amir temurning harbiy faoliyatiga oid ma'lumotlar tahlili.....	118
32.	***Шарипов А.А.*** Бобур – Амир Темурнинг ҳарбий меросининг давомчиси: панипатдаги жанг мисолида.....	122
33.	***Мадалиев А.А.*** Амир Темурнинг ҳарбий логистикаси.....	136
34.	***Xusanova Sh.A., Zokirova Sh.P.*** Amir Temur – buyuk davlat arbobi...	152
35.	***Xamzayeva M., Raixmjanov A.*** Amir Temur davrida qurultoylarning o'rni va roli.....	154
36.	***Quramatov M.*** Amir Temur va uning hukmronligi davridagi qonunlar va tartiblar ("Temur tuzuklari").....	157
37.	***Утанбаев А.А.*** Амир Темур салтанатида бошқарувнинг ўзига хослиги.....	160
38.	***Xolsaidov S.*** Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi.....	162

39.	***Sultonmurodova S.I.*** Zamonaviy texnologiyalar yordamida tarixiy jarayonlarni modellashtirish:amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi jang.....	166
40.	***O'ktamov T. G'.*** Amir Temur – harb bilimdoni.....	170
41.	***Muxtorov A.A.*** Amir Temur va temuriylar saltanatida davlat boshqaruvi va harbiy tizim faoliyatini tashkil etish asoslari.....	175
42.	***Izzatullayev A.R, Alimjonova S.Ya.*** Jismoniy tarbiya mutaxassislarining jismoniy faoliyatini rivojlantirishda Sohibqiron Amir Temurning askarlarini jangovor tayyorgarlik jarayonlarida olib borgan islohatlaridan foydalanishning o'rni.....	178
43.	***G'ulomov I.K.*** Amir Temur hayot faoliyati va uning davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rni.....	181
44.	***Boltaxo'jayeva I.O'., Shuhratbekova Sh.Sh.*** Amir Temur va temuriylar saltanatida davlat boshqaruvi va harbiy tizim faoliyatini tashkiliy asoslari.....	183
III-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA E'TIBOR-IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI		
45.	***Abdullayeva N.M.*** Sharq renessansining shakllanishiga zamin yaratgan temuriylar.....	187
46.	***Холиқов У.Қ.*** Темурийлар даврида шахмат ўйинини тараққиётига эътибор - иккинчи ренессанс пойдевори.....	192
47.	***Salayev F.Sh.*** Temuriylar saltanatining donishmand vorisi.....	196
48.	***Gulyamov D.U.*** Sohibqiron Amir Temurga yo'lboshchi bo'lgan pirlar tarixidan.....	199
49.	***Азизов С.Х.*** Лучезарная звезда в "Диван лугат ат-тюрк" махмыта кашгарлы.....	206
50.	***Lutfullayeva U.R.*** The role of Amir Temur in education.....	208
51.	***Азизов С.Х.*** Алишер Навоий асарларида астрономик жиҳоз осмон глобуси тавсифи.....	210
52.	***Абдурашитова Н.Б.*** Лексико-семантические особенности тюркских заимствований в русском языке в период правления Амира Темура и темирудов.....	213
53.	***Samieva I.M.*** The role and achievements of Amir Temur in science.....	215
54.	***Azimova Sh.A.*** Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyotiga e'tibor - ikkinchi renessans poydevori	217
55.	***Riskulova Z.I.*** Effective methods of forming creative thinking in students based on Amir Temur's attention to science.....	220
56.	***Userbayeva F.I.*** Amir Temurning ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida olib borgan siyosati.....	223

57.	***Sayliyeva U.O.*** Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan rivojlanishi va taraqqiyoti.....	227
58.	***Safarova F.N.*** Temuriylar davrida ayol olimalar va ularning ilm-fanga qo'shgan hissasi.....	230
59.	***Riskulova Z.I, Nurumbekova Y.A.*** The development of science during the timurid period and its harmony with creative approaches in modern education.....	233
60.	***Rafiqova M.A.*** Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanga e'tibor.....	235
61.	***Lutfullayeva U.R.*** Education during Amir Temur's reign.....	238
62.	***Qurbonaliyev A.A, Xusanova Sh.A.*** Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyotida e'tibor — ikkinchi renessans poydevori...	239
63.	***Orifova F.O'.*** Temuriylar davrida ilm-fan va bunyodkorlik.....	243
64.	***Azamatova O.I.*** Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va taraqqiyotga e'tibor-ikkinchi renessans poydevori.....	253
65.	***Gulmurodova H.***Amir temur va temuriylar davrida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar.....	255
66.	***Gapparova M.S.***Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyotiga e'tibor.....	257
67.	***Umarov M.S, Xashimova M.*** Amir Temur davrida ilm-fan taraqqiyoti	259
68.	***Gayratov Sh, Xashimova M.*** Amir Temur davrida arab tili va uning rivoji.....	264
69.	***Fayzullayeva M.O.***Temuriylar davrida tilshunoslikning rivoji.....	266
IV-SHO'BA. TEMURIYLAR DAVRIDA XALQARO SAVDO MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDAGI O'RNI		
70.	***Boltaxo'jayeva I.O'., Karimjonov D.I.*** Temuriylar davrida xalqaro savdo munosabatlarini amalga oshirish mexanizmini xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish jarayonlaridagi o'rni.....	268
71.	***Muhammadjon M.A.*** Amir Temur va temuriylar davri tarixini tarixiy va yozma manbalar asosida o'rganish.....	270
72.	***Xamzayeva M.N, Amanov A.A.*** Temuriylar davrida siyosiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi.....	272
73.	***Mirzayeva G.Sh.*** Amir Temur- buyuk davlat arbobi.....	274

V-SHO'BA. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARNI JAHONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY HAMDA GEOSIYOSIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI

74.	***Xolmatova G.M.*** Amir Temur va temuriylar diplomatik munosabatlarining jahon ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy o'zgarishlariga ta'siri.....	283
75.	***Xikmatova O'.*** Amir Temur huzuriga kelgan elchilar va elchilik aloqalarining siyosiy-iqtisodiy ahamiyati.....	285
76.	***Karimova I.A., Qobilov J.Q.*** Amir Temur va temuriylar davridagi diplomatik munosabatlar tarixi.....	287
77.	***Xo'jageldiyev Ibodulla.*** Amir Temur va temuriylar davlatida elchilik aloqalari tarixi.....	292
78.	***Xaydarova Z.N., Nabiyev Sh.B.*** Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodirning hindistonga yurishi ilmiy-siyosiy talqinda.....	295
79.	***Қудратов Б.Т.*** Ўзбекистон Республикасининг Марказий Осиёдаги геосиёсий устувор йўналишлари ва ташқи сиёсати (2017-2025-йиллар).....	298
80.	***Xurramova Z.F.*** Sohibqiron Amir Temurning O'zbekiston tarixida tutgan o'rni.....	301
81.	***Ochilodiyev L.N.*** Amir Temur va temuriylar davri manbashunosligi va tarixnavisligi.....	303
82.	***Rixsiboyeva M.M, Xaydarova Z.N.*** Buyuk Temurning tolerantlik siyosati, yohud islom diniga bo'lgan munosabati.....	308
83.	***Asqarov M.M.*** Amir Temur – buyuk davlat arbobi.....	310

"AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGINI JAHON IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY HAMDA MA'NAVIY-MADANIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI

Muharrir: *B.Tursunov*
Badiiy muharrir: *R.Shodiyeva*
Kompyuterda sahifalovchi: *I.Karimova*

"ALOQA NASHRIYOTI"
100011, Toshkent shahar, M. Ulug'bek tumani, TTZ-2/25

Chop etishga ruxsat etildi: 2025-yil 7-aprel. Bichimi: 60x84 1/16.
"Times New Roman" garnitura. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 20. Adadi: 10. Buyurtma № 414.

"ALOQA NASHRIYOTI" MChJda chop etildi.
100011, Toshkent shahar, M.Ulug'bek tumani,
TTZ-2/25. Tel.: (90) 925-86-38